O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BANK ISHI” kafedrasi

“BANK-MOLIYA TIZIMI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGNI TA'MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2026-yil 2-3-aprel



Samarqand - 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BANK ISHI” kafedrasi

“BANK-MOLIYA TIZIMI ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGNI TA’MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2026-yil 2-3-aprel



Samarqand - 2026

UO'K: 336:364.2:331.5
K 25
KBK: 65.262(5Uzb)

Bank-moliya tizimi orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligni ta'minlash: muammo va yechimlar*: // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2026-yil 2-3-aprel. Samarqand, SamISI, 2026. – 822 bet.*

Bosh muharrir:
Karimova A.M. — i.f.d., prof., "Bank ishi" kafedrasi mudiri, Samarqand iqtisodiyot va servis institute.

Tahrirchi:
Tursunov F.M. — "Bank ishi" kafedrasi assistenti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.

To'plamga iqtisodchi olimlar, doktorantlar, magistrlar, talabalarning kichik va o'rta biznes subyektlarini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini taminlashda tijorat banklarining o'rni, yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlashda tijorat banklarini rolini oshirish, ta'lim va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish, raqamli bank xizmatlari va fintex yechimlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshirish, xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlar orqali kambag'allikni qisqartirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar kiritilgan.

To'plam professor-o'qituvchilar, katta ilmiy xodimlar, magistrlar, talabalar va amaliyot xodimlari uchun foydalanishga mo'ljallangan.

Tashkiliy qo'mita a'zolari:

Po'latov M.E.	i.f.d., professor, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori
Karimova A.M.	i.f.d., professor, "Bank ishi" kafedrasi mudiri, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Niyozov Z.D.	i.f.n., "Bank ishi" kafedrasi professori v.b., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Tursunov F.M.	"Bank ishi" kafedrasi assistenti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Maqolalarda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas'ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy qo'mita qarashlariga to'g'ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-225-66-6

©Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.
© "STEP-SEL" MChJ nashriyoti, 2026.

I SHO’BA. KICHIK VA O‘RTA BIZNES SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TAMINLASHDA TIJORAT BANKLARINING O‘RNI

KICHIK VA O‘RTA BIZNES SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING ISTIQBOLLARI

O.M. Pardayev
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha
prorektor, i.f.d., professor

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kichik va o‘rta biznes subyektlarini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish masalalari tahlil qilinadi. KOBning iqtisodiy o‘sish, bandlikni ta’minlash, aholi daromadlarini oshirishdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, ushbu sohani rivojlantirishning institutsional, moliyaviy va tashkiliy omillari ko‘rib chiqilib, kambag‘allikni qisqartirish istiqbollari asoslab beriladi. Maqolada mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *kichik biznes, o‘rta biznes, kambag‘allik, bandlik, tadbirkorlik, iqtisodiy o‘sish, mikroqarz, moliyaviy inklyuziya, daromadlar, rivojlanish*

Kirish. Bugungi kunda kambag‘allikni qisqartirish har bir davlatning ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu masala dolzarbligi bilan ajralib turadi. Kambag‘allik darajasini pasaytirish uchun samarali mexanizmlardan biri sifatida kichik va o‘rta biznes subyektlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik va o‘rta biznes iqtisodiyotning eng moslashuvchan va tez rivojlanadigan segmenti bo‘lib, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi bandligini oshirish va daromadlarni ko‘paytirishga xizmat qiladi. Shu bois, Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali kambag‘allikni kamaytirish imkoniyatlarini ilmiy asosda o‘rganish zarur. Mazkur tadqiqotda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish hamda istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlashdan iborat.

Kichik va o‘rta biznes subyektlari zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ularning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki ijtimoiy muammolar, xususan kambag‘allikni qisqartirishda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu sababli KOBning kambag‘allikka ta’sir mexanizmlarini chuqur tahlil qilish muhimdir.

Avvalo, kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rni uning moslashuvchanligi va tezkorligi bilan izohlanadi. Yirik korxonalarga nisbatan kichik va o‘rta biznes subyektlari bozor talabiga tez javob qaytaradi, kam kapital bilan faoliyat boshlashi mumkin va qisqa vaqt ichida yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Aynan shu xususiyatlari sababli kichik va o‘rta biznes iqtisodiyotda

“bandlik generatori” sifatida qaraladi. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda yangi ish o‘rinlarining asosiy qismi aynan kichik va o‘rta biznes hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu holat rivojlanayotgan davlatlar uchun ham dolzarb bo‘lib, aholining ish bilan bandligini oshirish orqali kambag‘allik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.

Kambag‘allikni qisqartirish nuqtai nazaridan kichik va o‘rta biznesning eng muhim funksiyalaridan biri – daromad manbalarini diversifikatsiya qilishdir. Aholining faqat yollanma ishga tayanib qolishi iqtisodiy xavflarni oshiradi, chunki ish o‘rinlarining qisqarishi yoki iqtisodiy inqiroz holatlari daromadlarning keskin kamayishiga olib keladi. Kichik biznes esa aholiga o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yish, mustaqil daromad topish imkonini beradi. Masalan, oilaviy biznes, xizmat ko‘rsatish sohasi yoki kichik ishlab chiqarish faoliyati orqali aholining turli qatlamlari iqtisodiy faollikka jalb qilinadi.

Shuningdek, kichik va o‘rta biznes hududiy rivojlanishni ta’minlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Yirik sanoat korxonalari asosan shaharlarda joylashgan bo‘lsa, kichik biznes qishloq va chekka hududlarda ham rivojlanishi mumkin. Bu esa hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytiradi, ichki migratsiyani qisqartiradi va mahalliy aholi uchun ish o‘rinlarini yaratadi. Natijada kambag‘allik darajasi nafaqat umumiy, balki hududlar kesimida ham pasayadi. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda moliyaviy omillar alohida ahamiyatga ega. Tadbirkorlik faoliyatini boshlash va kengaytirish uchun moliyaviy resurslar zarur. Biroq amaliyotda ko‘plab kichik biznes subyektlari kredit olishda qiyinchiliklarga duch keladi. Buning asosiy sabablari – yetarli garov ta’minotining yo‘qligi, kredit tarixining mavjud emasligi va banklar tomonidan yuqori risk sifatida baholanishidir. Shu bois mikroqarzlash, mikromoliyalashtirish va subsidiyalar tizimini rivojlantirish kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Moliyaviy inklyuziyaning oshishi esa aholi keng qatlamining iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etishini ta’minlaydi.

Kichik va o‘rta biznes samaradorligi ko‘p jihatdan inson kapitaliga ham bog‘liq. Tadbirkorlik faoliyati faqat moliyaviy resurslar bilan emas, balki bilim va ko‘nikmalar bilan ham ta’minlanishi kerak. Biznes-reja tuzish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish, moliyaviy boshqaruvni amalga oshirish kabi ko‘nikmalar yetishmasa, hatto mavjud resurslardan samarali foydalanish ham qiyinlashadi. Shu sababli tadbirkorlik ta’limini rivojlantirish, trening va konsultatsiya xizmatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi sharoitda raqamli iqtisodiyot kichik va o‘rta biznes rivojida yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Elektron savdo platformalari, onlayn to‘lov tizimlari va raqamli marketing vositalari kichik biznes uchun yangi bozorlarni ochadi. Bu esa ularning raqobatbardoshligini oshiradi va daromadlarini ko‘paytiradi. Ayniqsa, pandemiya davrida raqamli texnologiyalardan foydalangan biznes subyektlari o‘z faoliyatini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi. Shu bois raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish kambag‘allikni qisqartirishga ham bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Kichik va o‘rta biznes samaradorligi ko‘p jihatdan inson kapitaliga ham bog‘liq. Tadbirkorlik faoliyati faqat moliyaviy resurslar bilan emas, balki bilim va ko‘nikmalar bilan ham ta’minlanishi kerak. Biznes-reja tuzish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish, moliyaviy boshqaruvni amalga oshirish kabi ko‘nikmalar yetishmasa, hatto mavjud resurslardan samarali foydalanish ham qiyinlashadi. Shu sababli tadbirkorlik ta’limini rivojlantirish, trening va konsultatsiya xizmatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

1-jadval

2025 – 2030 yillarda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari[1]

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Manba	Amaldagi ko‘rsatkich	Yillar bo‘yicha ko‘rsatkichlar					
					2025	2026	2027	2028	2029	2030
1.	Kichik va o‘rta biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi	Foiz	Milliy statistika qo‘mitasi	54,3	55	56	57,1	58,2	59,2	60
2.	Kichik va o‘rta biznes subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlaridagi ulushi	Foiz	Milliy statistika qo‘mitasi	32,4	33,7	35	36,4	37,6	39	40
3.	Kichik va o‘rta biznes subyektlarining eksportdagi ulushi	Foiz	Milliy statistika qo‘mitasi	33,3	33,6	33,9	34,2	34,5	34,8	35
4.	Kichik va o‘rta biznes subyektlarining aholi bandligini ta’minlashdagi ulushi	Foiz	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi	74	4,5	75,1	75,7	76,5	77,2	78
5.	Har 1 000 kishiga to‘g‘ri keladigan faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni	ta	Milliy statistika qo‘mitasi	12,1	3,1	14,2	15,3	16,5	17,7	19
6.	Xodimlari soni 10 kishidan kam bo‘lmagan kichik va o‘rta biznes subyektlarining jami kichik va o‘rta biznes subyektlari sonidagi ulushi	Foiz	Milliy statistika qo‘mitasi	7,2	7,8	8,5	9,2	9,9	10,6	11
7.	Tijorat banklari tomonidan kichik va o‘rta biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning yalpi ichki mahsulotga nisbati	Foiz	Markaziy bank	6,1	6,6	6,7	6,8	6,9	7,0	7,1
8.	O‘zbekistonning Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Savdoni osonlashtirish indikatoridagi (OECD Trade Facilitation Indicator) ko‘rsatkichi	Indeks (0 — 2)	IHTT	0,85	-	1,0	-	1,2	-	1,3
9.	O‘zbekistonning Elektron hukumatni rivojlantirish indeksidagi (EGDI) o‘rni	O‘rin	BMT	63	-	8		54	-	50

Institutsional muhit ham kichik va o‘rta biznes rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Qonunchilik bazasining soddaligi, biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibining yengilligi, soliq tizimining shaffofligi tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantiradi. Aksincha, ortiqcha byurokratik to‘siqlar, tekshiruvlarning ko‘pligi va tartibga solish mexanizmlarining murakkabligi kichik biznes rivojiga

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son Farmoniga 7-ilova.

salbiy ta’sir qiladi. Shu sababli davlat tomonidan qulay biznes muhitini yaratish kambag‘allikni qisqartirish siyosatining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.

Shu bilan birga, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, infratuzilmaning rivojlanmaganligi, energiya va logistika xarajatlarining yuqoriligi, malakali kadrlar tanqisligi kabi omillar biznes faoliyatiga to‘sqinlik qiladi. Bundan tashqari, ayrim hollarda bozorlar to‘liq shakllanmaganligi yoki raqobat muhitining yetarli darajada rivojlanmaganligi ham KOB rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Avvalo, davlat tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish, imtiyozli kreditlar ajratish va soliq yukini kamaytirish zarur. Ikkinchidan, infratuzilmani rivojlantirish – transport, energetika va logistika tizimlarini takomillashtirish orqali biznes yuritish xarajatlarini kamaytirish mumkin. Uchinchidan, ta’lim va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali tadbirkorlik salohiyatini oshirish lozim. Umuman olganda, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish kambag‘allikni qisqartirishning ko‘p qirrali va samarali vositasi hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlaydi. Shu sababli ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan siyosat uzoq muddatli strategik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kichik va o‘rta biznes subyektlarini rivojlantirish kambag‘allikni qisqartirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. KOB orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi, aholi daromadlari oshadi va iqtisodiy faollik kuchayadi. Shu bilan birga, ushbu sohani rivojlantirish uchun moliyaviy, institutsional va ta’limiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Ayniqsa, innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish KOBning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish orqali kambag‘allikni sezilarli darajada kamaytirish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, bu mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-50-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 3620-sonli Qarori.

4. Yunus M. Banker to the Poor: Micro-Lending and the Battle Against World Poverty. *Public Affairs, 2021.*

5. Asian Development Bank. Microfinance and Poverty Reduction. Manila, *2024.*

6. Моисеева, Р.Ю. Развитие банковских технологий с применением

дистанционного банковского обслуживания. Моисеева Р.Ю. //Финансовые рынки и банки. – №2. – 2018. – с. 38–41.

7. Карабач, Р.А. Влияние цифровых технологий на инфраструктуру банка / Р.А. Карабач, В.Г. Гвоздова // научные перспективы XXI века Материалы Международной (заочной) научно-практической конференции. 2018. – С. 58–63.

8. Raximova X.U. (2016). Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to‘lovlar tizimi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Moliya. 243 b.

9. Azlarova A.A. O‘zbekiston bank tizimini raqamlashtirish masalalari. Iqtisodiyot va ta’lim, №23(2) 2022 yil .

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ КРЕДИТОВАНИЯ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ

Самостоятельный соискатель: Ширинов Илес Махмудович
Научный руководитель: д.э.н., проф. Каримова А.М.
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. *В статье рассматриваются современные механизмы кредитования субъектов малого бизнеса коммерческими банками и направления их совершенствования в условиях трансформации экономики. Особое внимание уделяется влиянию доступности финансовых ресурсов на развитие предпринимательства, занятость и снижение уровня бедности. Обоснована необходимость комплексного подхода к модернизации кредитных инструментов и расширению финансовой инклюзии.*

Ключевые слова: *малый бизнес, коммерческие банки, кредитование, финансовая инклюзия, бедность, экономическое развитие.*

Annotation. *The article examines modern mechanisms of crediting small businesses by commercial banks and the directions of their improvement in the context of economic transformation. Special attention is paid to the impact of the availability of financial resources on the development of entrepreneurship, employment and poverty reduction. The necessity of an integrated approach to the modernization of credit instruments and the expansion of financial inclusion is substantiated.*

Keywords: *small business, commercial banks, lending, financial inclusion, poverty, economic development.*

Введение. Малый бизнес является важнейшим элементом современной экономики, обеспечивая гибкость хозяйственной системы, развитие конкуренции и создание значительной доли рабочих мест. В условиях Республики Узбекистан малые предприятия играют ключевую роль в формировании доходов населения, развитии регионов и снижении социальной напряжённости.

Однако развитие малого бизнеса во многом ограничивается недостаточной доступностью финансовых ресурсов. Сложности получения кредитов, высокие процентные ставки, недостаток залогового обеспечения и административные барьеры существенно сдерживают предпринимательскую активность. В этих условиях особое значение приобретает совершенствование механизмов кредитования со стороны коммерческих банков. Эффективная система финансирования способна не только стимулировать развитие малого бизнеса, но и оказать значительное влияние на сокращение бедности, повышение занятости и улучшение качества жизни населения.

Основная часть. Кредитование малого бизнеса является ключевым инструментом взаимодействия между коммерческими банками и предпринимателями, обеспечивая последним доступ к необходимым финансовым ресурсам для запуска, поддержания и масштабирования своей деятельности. В современном экономическом контексте такие механизмы выступают не только средством финансирования, но и мощным стимулом для инновационного развития и повышения конкурентоспособности предприятий.

Наличие кредитных ресурсов позволяет малым компаниям планировать долгосрочные инвестиции, модернизировать производство, внедрять новые технологии и повышать качество выпускаемой продукции. Благодаря этому предприятия могут расширять ассортимент и объёмы выпускаемой продукции, выходить на новые внутренние и международные рынки, а также укреплять свои позиции в условиях высокой конкуренции.

Кроме того, кредитование напрямую влияет на социальную сферу: рост малого бизнеса приводит к созданию новых рабочих мест, снижению безработицы и повышению доходов населения. Это особенно важно для регионов с ограниченной экономической активностью, где малые предприятия часто являются основным источником занятости.

Не менее значимым аспектом является возможность внедрения инновационных решений и повышение эффективности управления. Доступ к финансовым инструментам позволяет предпринимателям инвестировать в автоматизацию процессов, оптимизацию цепочек поставок, цифровизацию учета и другие направления, которые способствуют долгосрочной устойчивости бизнеса.

Таким образом, кредитование малого бизнеса выполняет двойную функцию: с одной стороны, оно обеспечивает экономический рост за счёт расширения производства и внедрения инноваций, а с другой — укрепляет социальную стабильность, повышает занятость и доходы населения. В совокупности это делает банковское кредитование неотъемлемым элементом стратегии устойчивого развития экономики, способным одновременно решать как экономические, так и социальные задачи.

Коммерческие банки сегодня предлагают предпринимателям широкий спектр инструментов, позволяющих обеспечивать финансовую устойчивость и стимулировать развитие малого бизнеса. Среди них

ключевыми являются краткосрочные кредиты, которые помогают покрывать текущие расходы, обеспечивать закупку сырья, оплату труда и выполнение повседневных операционных задач. Такие кредиты особенно важны для поддержания стабильного производственного процесса, позволяя предприятиям своевременно реагировать на изменения спроса и сохранять финансовую гибкость.

Для долгосрочного развития бизнеса банки предоставляют инвестиционные кредиты, направленные на модернизацию производства, приобретение современного оборудования, расширение мощностей и внедрение инновационных технологий. Эти ресурсы позволяют малым предприятиям повышать производительность, улучшать качество продукции и укреплять конкурентные позиции как на внутреннем, так и на внешнем рынках. Особое место занимают льготные программы с участием государства, которые включают снижение процентных ставок, отсрочку платежей и частичное субсидирование кредитных расходов. Такие механизмы играют критическую роль для начинающих предпринимателей и малых предприятий с ограниченными собственными средствами, обеспечивая им возможность развивать бизнес и создавать новые рабочие места.

Для ускорения оборота денежных средств и снижения финансовых рисков широко применяются факторинг и лизинг. Факторинг позволяет быстро получать финансирование на основе выставленных счетов, обеспечивая стабильный денежный поток, а лизинг даёт возможность использовать современное оборудование без единовременных крупных затрат. Не менее важным направлением является внедрение цифровых банковских сервисов. Онлайн-платформы, мобильные приложения и электронные системы кредитования значительно упрощают доступ к финансам, сокращают время оформления заявок и минимизируют бюрократические барьеры. Это особенно важно для предпринимателей в удалённых регионах и начинающих бизнесов, которые раньше испытывали трудности с доступом к банковским услугам.

Тем не менее, несмотря на разнообразие инструментов, их эффективность зачастую ограничивается целым рядом факторов: высокой стоимостью кредитов, недостаточно развитой финансовой инфраструктурой, административными барьерами и низким уровнем финансовой грамотности предпринимателей. Поэтому для максимальной пользы от кредитования важно не только расширять инструменты финансирования, но и совершенствовать институциональные условия и обеспечивать комплексную поддержку малому бизнесу.

Однако несмотря на наличие различных финансовых инструментов, малые предприятия сталкиваются с рядом серьёзных препятствий, которые существенно ограничивают их возможности для развития. Одной из ключевых проблем является высокая стоимость кредитных ресурсов. Процентные ставки по коммерческим займам нередко превышают уровень рентабельности небольших компаний, что делает долговое финансирование

менее привлекательным и увеличивает риски неплатежей. Не меньшую роль играют сложные и длительные процедуры оформления кредитов. Предпринимателям приходится предоставлять значительный объём документации, проходить многочисленные проверки и согласования, что замедляет процесс получения финансирования и отвлекает ресурсы от основной деятельности.

Другим ограничивающим фактором является низкий уровень финансовой грамотности предпринимателей. Многие владельцы малого бизнеса не обладают достаточными знаниями о том, как правильно управлять кредитами, планировать инвестиции и оценивать финансовые риски. Это снижает эффективность использования полученных ресурсов и увеличивает вероятность долговых проблем. Серьёзной проблемой остаётся ограниченный доступ к кредитам в регионах, особенно в сельских и удалённых районах. Финансовая инфраструктура в таких местах развита слабо, банковские отделения и онлайн-сервисы доступны не всем, что создаёт неравные условия для предпринимателей по стране. Кроме того, недостаточная развитость альтернативных финансовых инструментов, таких как венчурное финансирование, микрокредиты, факторинг и лизинг, ограничивает возможности малых предприятий для диверсификации источников финансирования и повышения финансовой устойчивости.

Все эти факторы в совокупности снижают доступность кредитования, замедляют развитие малого бизнеса и ограничивают его потенциал как двигателя экономического роста и сокращения бедности. Для преодоления этих барьеров необходимо комплексное совершенствование кредитных механизмов, повышение финансовой грамотности предпринимателей и расширение доступности финансовых услуг в регионах.

Для повышения эффективности кредитной поддержки малого бизнеса необходимо применять комплексный подход, объединяющий финансовые, технологические и образовательные меры. В первую очередь, важным направлением является расширение льготных кредитных программ с участием государства. Снижение процентных ставок за счёт субсидирования позволяет предпринимателям получать доступ к финансам на более выгодных условиях, стимулируя инвестиции и рост бизнеса.

Не менее значимой мерой является развитие цифровых банковских технологий и онлайн-кредитования. Современные платформы упрощают процесс подачи заявок, сокращают бюрократические процедуры и делают финансовые услуги доступными даже для предпринимателей в удалённых регионах. Для снижения барьеров доступа к финансированию также важно упрощение процедур получения кредитов, а также развитие гарантийных фондов, которые уменьшают требования к залоговому обеспечению и позволяют привлекать больше начинающих предпринимателей.

Кроме того, особое внимание следует уделять повышению финансовой грамотности предпринимателей и расширению микрофинансовых инструментов**,** включая факторинг, лизинг и микрокредиты. Эти меры создают условия для более устойчивого управления финансовыми

ресурсами и снижения рисков неплатежей. Совершенствование механизмов кредитования оказывает прямое и заметное воздействие на социально-экономическое развитие страны. Создание новых рабочих мест снижает уровень безработицы и повышает финансовую стабильность семей. Рост доходов населения улучшает качество жизни и открывает возможности для инвестиций в образование, здравоохранение и личное развитие.

Развитие предпринимательства стимулирует экономическую активность, расширяет рынки и формирует устойчивый экономический фундамент, а финансовая инклюзия обеспечивает доступ к кредитным ресурсам для ранее исключённых из экономической системы групп населения, включая женщин, молодёжь и жителей сельских районов.

В совокупности эти меры формируют прочную платформу для сокращения бедности, укрепления среднего класса и создания условий для долгосрочного социально-экономического развития.

Выводы и рекомендации. Совершенствование механизмов кредитования малого бизнеса со стороны коммерческих банков выступает ключевым фактором не только для устойчивого экономического роста, но и для укрепления социальной стабильности. Грамотно выстроенная кредитная политика способствует расширению предпринимательской активности, созданию новых рабочих мест и повышению доходов населения, что напрямую отражается на улучшении качества жизни.

Для достижения максимального эффекта необходимо комплексное применение следующих мер:

- расширение доступа к финансовым ресурсам для малых и средних предприятий, включая льготные программы и микрофинансирование;
- внедрение современных цифровых технологий в банковскую деятельность, упрощающих оформление кредитов и повышающих прозрачность процессов;
- укрепление государственно-банковского сотрудничества, направленного на снижение рисков и поддержку начинающих предпринимателей;
- развитие инфраструктуры поддержки малого бизнеса, включая консультационные центры, гарантийные фонды и образовательные программы.

Согласованная реализация этих мер создаёт благоприятную финансовую среду, которая стимулирует рост малого бизнеса, расширяет экономические возможности граждан и способствует сокращению уровня бедности, формируя устойчивую платформу для социально-экономического развития страны.

Список использованной литературы

1. Каримова А. М. и др. КРЕДИТНАЯ ПОДДЕРЖКА МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАНЕ И ФАКТОРЫ, ПРЕПЯТСТВУЮЩИЕ ЕГО РАЗВИТИЮ //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2025. – Т. 5. – №. 06. – С. 85-90.

2. Худойбердиева А. МИРОВОЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА //Экономика и социум. – 2025. – №. 12-1 (139). – С. 961-967.
3. Абдуназаров С. А. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИИ ПОДДЕРЖКИ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА //Экономика и социум. – 2026. – №. 1-2 (140). – С. 349-352.
4. Лаврушин О.И. Банковское дело. - М.: КНОРУС, 2022.
5. Жуков Е.Ф. Банковское дело. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2021.

YASHIL VA INNOVATSION ASOSDA TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH

Dayronovich Shuxratjon Zuxurovich
O'.R. Prizidenti Administratsieasi sho'ba mudiri i.f.d.
Tel: +998998379275
Niyozov Zuxur Dayronovich
SamISI "Bank ishi" kafedrasi professor v.b. i.f.n.
Tel: +998901929058, niyozovzuhur@dmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yashil va innovatsion iqtisodiyot kontseptsiyasi asosida O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishning nazariy va amaliy aspektlari tahlil qilinadi. Amaliy qismda tijorat banklarining yashil kreditlar, ESG (Ekologik, ijtimoiy, boshqaruv) -tamoyillarga mos investitsiyalar va raqamli transformatsiya yo'nalishlari bo'yicha hozirgi holat statistik ko'rsatkichlar bilan yoritiladi. Tadqiqot natijalari bank sektoridagi mavjud metodologik muammolarni aniqlab, ularni hal etish bo'yicha strategik tavsiyalarni shakllantiradi.*

Kalit so'zlar: *yashil moliya, barqaror rivojlanish, tijorat banklari, ESG, (Ekologik, ijtimoiy, boshqaruv) O'zbekiston banklari, innovatsion bank xizmatlar.*

Abstract: *This article analyzes the theoretical and practical aspects of implementing the principles of sustainable development in the activities of commercial banks of Uzbekistan based on the concept of a green and innovative economy. The practical part covers the current state of commercial banks in the areas of green loans, investments in accordance with ESG (Environmental, Social, Governance) principles, and digital transformation with statistical indicators. The results of the study identify existing methodological problems in the banking sector and formulate strategic recommendations for their solution.*

Keywords*: green finance, sustainable development, commercial banks, ESG, banks of Uzbekistan, innovative banking services.*

Kirish. Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi iqtisodiy o'sishni atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ijtimoiy barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan zamonaviy rivojlanish modelini ifodalaydi. Ushbu yondashuv ilk bor World

Commission on Environment and Development tomonidan ilgari surilib, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va jamiyat farovonligini oshirish zarurligini asoslab berdi. Mazkur kontseptsiya nafaqat davlat siyosati va real sektor faoliyatiga, balki moliya tizimi, xususan, banklar faoliyatini ham ekologik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillari asosida tashkil etishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotga joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, Prezidentimizning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan murojaatnomasida ekologiya sohasiga alohida e’tibor qaratilib, 2026 yilda ushbu yo‘nalishga 1 trillion 900 milliard so‘m miqdorida mablag‘ yo‘naltirilishi belgilab berilgan.[2] Bu esa mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirish, ekologik muammolarni kamaytirish va barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Mazkur jarayonda banklar moliyaviy resurslarni samarali taqsimlovchi muhim vositachi sifatida ishtirok etadi. Ular iqtisodiy sub’ektlarning ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga, energiya samaradorligini oshirishga va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yashil loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois, bank tizimida barqaror rivojlanish tamoyillarini integratsiyalash, yashil moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish va ekologik mas’uliyatli kreditlash amaliyotini kengaytirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlarga sharhi. Tijorat banklarida yashil moliya infratuzilmasini rivojlantirish va innovatsion mahsulotlar yaratish nomli maqolada tijorat banklarida yashil moliya mahsulotlarini rivojlantirish va innovatsion mahsulotlar yaratish istiqbollari tahlil qilinib. Tadqiqot natijalarida shular ko‘rsatadiki, yashil kreditlar, ESG investitsiyalari va yashil obligatsiyalar banklar faoliyatida ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, banklarda ekologik risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, davlat va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik, yosh xodimlar va innovatsion g‘oyalarni jalb qilish ham muhim strategik yo‘nalishlar sifatida aniqlangan.[2]

Furqat Eshev va hammualliflar (2025) tomonidan "Green Economy and Development" jurnalida e'lon qilinishi kutilayotgan ushbu tadqiqot, O‘zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga o‘tishdagi moliyaviy ishtirokini tahlil qiladi. Maqolada banklarning barqaror rivojlanish, ekologik loyihalarni kreditlash va resurs bazasini oshirish mexanizmlari o‘rganilgan. [3]

Mazkur maqolada turizm korxonalarining innovatsion rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun kredit mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Mualliflar bank kreditlari va boshqa moliyaviy instrumentlarning turizm sohasida innovatsiyalarni joriy etishni rag‘batlantirishdagi rolini tahlil qiladilar, bu esa uning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

[2] Prezidentimizning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan murojaatnomasi

Maqolaning asosiy jihatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Kreditlashning roli: Kreditlar turizm korxonalarida yangi texnologiyalarni joriy etish, xizmatlarni rivojlantirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish uchun asosiy moliyalashtirish manbai sifatida belgilangan.

Innovatsion rivojlanish: Mualliflar inqirozli holatlarni yengib o‘tish va zamonaviy bozor talablariga moslashish uchun innovatsiyalarning zarurligini asoslab beradilar.

Takliflar: Kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular banklar uchun xavflarni kamaytirish va turizm biznesi uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.[4]

Ushbu maqolada iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish mexanizmlari va strategiyalariga bag‘ishlangan. Mualliflar Niyozov Z. D. va Davronov Sh.Z. servis sohasi va umumiy iqtisodiy barqarorlikni moliyalashtirish manbalarini oshirish masalalarini tahlil qilganlar.

Maqolaning asosiy maqsadi iqtisodiyot tarmoqlarida, ayniqsa servis sohasida aylanma mablag‘larni ko‘paytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlashdan iboratligi **asosiy tahlillar qilingan, jumladan:**

- Moliyaviy resurslar hajmini oshirishning manbalari (ichki va tashqi manbalar).
- Servis sohasida kichik biznes sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash va kreditlash mexanizmlari.
- Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish orqali qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish.

Maqolada keltirilgan takliflar asosida servis sohasining iqtisodiy samaradorligini oshirish va moliyaviy oqimlarni optimallashtirish mumkin.[5]

Xolmirzayev E.B. va Karimova A.M. maqolasida O‘zbekistonda islom bankchiligining rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi hamda uning salohiyati ijtimoiy tadqiqotlar va bozor ehtiyojlari asosida yoritib beriladi. Ishda hozirgi holat, shariat tamoyillarini joriy etish va islomiy moliyaviy instrumentlarni respublika bank tizimiga integratsiya qilish uchun zarur shart-sharoitlar ko‘rib chiqiladi.

Maqolaning asosiy jihatlari:

Kontekst: Tadqiqot islomiy moliya salohiyatini o‘rganishga asoslangan bo‘lib, unda riba (foiz) taqiqlanishi va faoliyatning shariat me’yorlariga muvofiqligi asosiy o‘rin tutadi.

Istiqbollar: Islom bankchiligini joriy etish moliyaviy tizimni diversifikatsiya qilish va investitsiyalarni jalb etish vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Dolzarblik: Uni joriy etish masalasi aholining mos moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan yuqori ehtiyoji hamda O‘zbekistonda muhokama qilinayotgan qonun loyihalari bilan bog‘liq.[7]

Asossiy qismi. Yashil bankchilik konsepsiyasi bank-moliya tizimida ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan zamonaviy yondashuvlardan biri bo‘lib, banklar faoliyatini atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona

foydalanish va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu konsepsiya doirasida banklar nafaqat moliyaviy barqarorlik va foydalilikka, balki ekologik va ijtimoiy ta’sirlarni minimallashtirishga ham e’tibor qaratadi.

Yashil bankchilikning asosiy yo‘nalishlariga ekologik toza va energiya samarador loyihalarni moliyalashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo‘llab-quvvatlash, karbon chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan tashabbuslarni kreditlash hamda “yashil” moliyaviy instrumentlarni joriy etish kiradi. Bunday yondashuv bank risklarini uzoq muddatda kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va jamiyatda bank tizimiga bo‘lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlariga asoslangan investitsiya siyosatini shakllantirish banklar faoliyatida strategik ustuvorlik kasb etadi. Ushbu mezonlar banklarning ekologik mas’uliyatini, ijtimoiy barqarorlikka qo‘shgan hissasini va boshqaruv sifatini baholash imkonini beradi. Natijada, ESG tamoyillariga mos investitsiyalar banklar uchun nafaqat ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli, balki uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta’minlovchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Innovatsion bank xizmatlari bank sektorining raqobatbardoshligini oshirish va mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank xizmatlarini ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, operatsion xarajatlarni qisqartirish va xizmatlar tezkorligini oshirish imkonini bermoqda.

Xususan, mobil va internet-bank xizmatlari mijozlarga bank operatsiyalarini masofadan turib amalga oshirish imkonini yaratib, vaqt va resurs tejamkorligini ta’minlaydi. Sun’iy intellekt va katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) asosida risklarni baholash tizimlarining joriy etilishi kredit portfeli sifatini yaxshilash, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish va qaror qabul qilish jarayonlarining aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, raqamli to‘lov tizimlari, kontaktsiz to‘lovlar, elektron hamyonlar va fintech yechimlari bank xizmatlarining innovatsion shakllari sifatida moliyaviy inklyuziyani kengaytiradi hamda iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi. Natijada, innovatsion bank xizmatlari nafaqat banklar faoliyatining samaradorligini oshiradi, balki yashil va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim infratuzilmaviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston faoliyat yritayotgan 36 ta tijorat banklari tizimi so‘nggi yillarda barqaror o‘sishni ko‘rsatmoqda. 2025-yil avgust holatiga tijorat banklari umumiy aktivlari 852 381 mlrd so‘mni tashkil etgan, bu esa yirik banklar faoliyatining moliyaviy resurslari barqarorligini ko‘rsatadi, eng yirik banklarning iqtisodiy ko’rsatkichlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O’zbekistonning eng ishonchli banklarini xalqaro tashkilotlarning S&P, Moody’s va Fitch qo’ygan reyting baholari 2025 yil[3] (mlrd.so’m**)**

T/r	**Banklar**	**Aktivlar**	**Ustav capital**	**Depozit**	**Banklar reytingi**
1	NBU	135 089,96	16250,67	36 839,25	4900
2	Agro bank	79 403,83	11 180 19	19 468,85	3500
3	Asaka bank	58 092 91	7 164 95	15 851 66	3400
4	SQB	87 596 89	4 628 94	20 745 15	3100
5	Xalq bank	46 490 87	9 628 94	23 745 15	2700
6	Ipoteka bank	52 069 43	3 834 22	25 691 69	2500
7	Kapitalbank	47 364 69	502 39	36 664 33	2300
8	BRB	32 133 40	5200 48	10 764 88	2200
9	MKB	23 542 53	5 117 48	7 831 93	2000
10	Aloqa bank	23 251 27	2 318 22	13 814 67	1800
11	Hamkorbank	28 708 23	646 65	11 633 75	1700
12	Ipak yo‘li bank	23 150 16	602 42	11 810 27	1600
13	"Trastbank"	10 867 59	1 000 25	7 421 33	1400
14	OFB	16 877 73	1470 48	11 098 62	1200
15	TBC bank	9737 40	2 120 46	4 900 95	1100

1-jadval ma’lumotlariga ko’ra O‘zbekistonda faoliyat yuritaeotgan tijorat banklarning iqtisodiy ko’rsatkichlari ytarli saloxiyatga ega, jumladan: NBU aktivlarining ulushi 16 %; Agrobank 11 %; O‘zsanoatqurilishbank 11 %; Asaka bank 7 %. Bu banklar barqaror moliyaviy ko‘rsatkichlari bilan yirik kredit portfellarini shakllantirishga qodirligini aks etiradi.

O‘zbekiston banklari tomonidan yashil kreditlar ajratilishi bo‘yicha sezilarli amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning energiya samaradorligi loyihalarini moliyalashtirish uchun jami 1 trillion so‘mdan ortiq yashil kreditlar ajratilgan. Bu kreditlar jumlasidan: 700 mlrd so‘m biznes loyihalar uchun, 300 mlrd so‘m aholining quyosh panellari o‘rnatish loyihalari uchun ajratilgan.

Shuningdek, yirik banklar ESG (Ekologik, ijtimoiy, boshqaruv) strategiyalarini joriy etmoqda va yashil mahsulotlar yaratmoqda, bu esa moliya bozori barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tijorat banklarida yashil va innovatsion transformatsiyani amalga oshirishda quyidagi cheklovlar mavjud:

- yashil kreditlar mezonlari: banklarda ekologik risklarni baholaydigan standart indikatorlar yetishmaydi;
- ESG bo‘yicha hisobdorlik tizimi: banklar hisobotlarida ESG komponentlari hozircha yetarlicha aks etmaydi;
- investitsion xavf: yangi texnologiyalarni moliyalashtirish uzoq muddatli kapital talab qiladi;
- kadrlar salohiyati: bank xodimlarining yashil bankchilik bo‘yicha malakasi past.

[3] Bankeres.uz

Bu muammolarni bartaraf etish uchun strategik normativ-huquqiy chora-tadbirlar talab etiladi.

Tijorat banklarida barqaror rivojlanishni ta’minlashning muhim sharti kredit, investitsiya va boshqa moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini kompleks tarzda integratsiyalashdan iboratdir. Mazkur yondashuv banklarning strategik rejalashtirish tizimida ekologik xavflarni baholash, ijtimoiy mas’uliyatni hisobga olish hamda korporativ boshqaruv sifatini oshirishni nazarda tutadi. ESG integratsiyalashgan bank strategiyasi doirasida kredit portfelini shakllantirishda ekologik jihatdan zararli faoliyat turlarini cheklash, ijtimoiy ahamiyatga ega va barqaror loyihalarga ustuvorlik berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa uzoq muddatda kredit risklarini kamaytirish, bank aktivlari sifatini yaxshilash hamda investorlar va jamiyat ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida tijorat banklari tomonidan yashil moliyalashtirish mahsulotlarini kengaytirish strategik ahamiyatga ega. Xususan, yashil obligatsiyalarni emissiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligini oshirish va ekologik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi. Shuningdek, past foiz stavkalariga ega “yashil kreditlar”, energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi kredit mahsulotlari hamda ijtimoiy yo‘naltirilgan bank xizmatlarini joriy etish banklar faoliyatining barqarorligini ta’minlaydi. Ushbu mahsulotlar ekologik va ijtimoiy foyda bilan bir qatorda, banklar uchun yangi mijoz segmentlarini jalb etish va uzoq muddatli daromad manbalarini shakllantirish imkonini beradi.

Raqamli transformatsiya bank tizimining innovatsion rivojlanishida hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Fintech yechimlarining joriy etilishi bank operatsiyalarini avtomatlashtirish, hujjat aylanishini raqamlashtirish va qog‘oz sarfini kamaytirish orqali atrof-muhitga bo‘lgan salbiy ta’sirni qisqartiradi. Masofaviy bank xizmatlari, raqamli to‘lov platformalari va sun’iy intellektga asoslangan boshqaruv tizimlari bank xizmatlarini tezkor, shaffof va samarali qiladi. Natijada, banklarning operatsion xarajatlari qisqarib, mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifati hamda ekologik barqarorlik darajasi oshadi.

Yashil va innovatsion bankchilik strategiyalarining samarali amalga oshirilishi inson kapitali salohiyatiga bevosita bog‘liqdir. Shu bois, tijorat banklarida xodimlar uchun ESG tamoyillari, yashil moliya instrumentlari va innovatsion bank xizmatlari bo‘yicha muntazam malaka oshirish dasturlarini joriy etish zarur. Mazkur dasturlar xodimlarning ekologik va ijtimoiy mas’uliyatga oid bilimlarini chuqurlashtirish, zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, banklarning ichki institutsional salohiyati mustahkamlanib, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish samaradorligi oshadi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish yo‘nalishida muayyan ijobiy siljishlar mavjud.

Raqamli bank xizmatlarining kengayishi, ekologik yo‘naltirilgan loyihalarni moliyalashtirishga qiziqishning ortib borishi hamda innovatsion moliyaviy instrumentlardan foydalanish bank sektorining zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga moslashayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, yashil bankchilikni to‘liq va tizimli joriy etish jarayonida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, yagona standartlashtirilgan indikatorlarning yetishmasligi, ESG mezonlari asosida hisobotlarni shakllantirish amaliyotining cheklanganligi hamda strategik boshqaruv jarayonlarida barqaror rivojlanish tamoyillarining yetarli darajada integratsiyalanmaganligi banklar faoliyati samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Barqaror moliyaviy strategiyalarni, xususan ESG integratsiyalashgan boshqaruv yondashuvlarini, yashil moliyalashtirish mahsulotlarini va raqamli innovatsiyalarni izchil joriy etish tijorat banklarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlash bilan bir qatorda, mamlakat iqtisodiyotining ekologik va ijtimoiy jihatdan muvozanatli rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada, bank sektori moliyaviy vositachi bilan bir qatorda barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi muhim institutsional mexanizm sifatida ham faol ishtirok etadi.

Umuman olganda, tadqiqot xulosalari O‘zbekiston tijorat banklarida yashil va innovatsion transformatsiyani chuqurlashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi hamda ishlab chiqilgan strategik tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi bank tizimining raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanish salohiyatini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr
2. Mahmudov U., Tijorat banklarida yashil moliya infratuzilmasini rivojlantirish va innovatsion mahsulotlar yaratish. EITT Journal, 2025.
3. Furqat Eshev va boshqalar. O‘zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi o‘rni. Green Economy and Development, 2025.
4. Nièzov Z. D., Maksudov O. Sh., Karimova A. M. Kreditnaya podderjka innovatsionnogo razvitiya deyatelnosti turpredpriyatiy //Scholar. – 2023. – T. 1. – №. 32. – S. 171-179.
5. Nièzov Z. D., Davronov Sh.Z. Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish. “Servis” ilmiy-amaliy jurnal 2024 yil 4/2-soni
6. Karimova A. M. i dr. KREDIT V SOVREMENNOY EKONOMIKE: SUIЦNOST, FUNKSII I PRINSIPЫ //Novosti obrazovaniya: issledovanie v XXI veke. – 2025. – T. 4. – №. 40. – S. 661-665.
7. Xolmirzaev E. B., Karimova A. M. PERSPEKTIVЫ RAZVITIYa ISLAMSKOGO BANKINGA V UZBEKISTANE //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – T. 4. – №. Maxsus son. – S. 48-53.
8. Central Bank of Uzbekistan. Information on major indicators of commercial banks (2025).
9. Kursiv Media. O‘zbekiston banklari tomonidan 1 trillion so‘mlik yashil kreditlar ajratildi. 2023.

10. International Monetary Fund. Climate Change and Financial Stability Report. – 2021.
11. World Commission on Environment and Development. Our Common Future. – Oxford University Press, 1987.
12. United Nations Environment Programme. Green Economy Report. – Nairobi, 2011.
13. United Nations Environment Programme Finance Initiative. Principles for Responsible Banking. – 2019.

O‘ZBEKISTONDA KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Sheraliev Olimjon O‘ktam o‘g‘li
TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Hozirgi globallashuv sharoitida iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan biri sifatida kichik va o‘rta biznes sektori alohida ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aynan kichik va o‘rta biznes iqtisodiyotning moslashuvchanligini ta’minlaydi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi. O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ilmiy tadqiqotlarda bank sektorining tuzilishi va raqobat darajasi KOBni moliyalashtirish imkoniyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan. Jumladan, R. Ryan, C. O’Toole, F. McCann tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bank bozor qudratining oshishi kichik va o‘rta biznes uchun kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini cheklashi mumkinligi asoslangan. Mualliflar KOB moliyalashtirishni faqat korxona xususiyatlari bilan emas, balki moliya bozorlari raqobati va institutsional muhit bilan bog‘liq tizimli jarayon sifatida baholaydi[4] (R. Ryan, C. O’Toole, F. McCann).

Shu bilan birga, moliyaviy bozorlardagi fragmentatsiya darajasi ham muhim omil sifatida qayd etilgan. R. Calabrese, C. Girardone, A. Sclip tadqiqotlarida moliya bozorlarining parchalanganligi sharoitida KOB uchun qarz resurslarining qiymati oshishi va tashqi moliyaga kirish imkoniyatlari yomonlashishi aniqlangan. Bu holat KOB moliyalashtirishning iqtisodiy mohiyatini milliy moliya tizimining integratsiyalashuv darajasi bilan uzviy bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi (R. Calabrese, C. Girardone, A. Sclip).

Shu bilan birga, kichik va o‘rta biznes subyektlarining barqaror faoliyat yuritishi va kengayishi ko‘p jihatdan ularning moliyaviy resurslarga erkin kirish imkoniyatiga bog‘liq.

Ilmiy adabiyotlarda kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish, eng avvalo, asimmetrik axborot, kredit cheklovlari, ta’minot yetishmasligi va kapital

[4] R. Ryan, C. O’Toole, F. McCann. Credit conditions for SMEs: evidence from European countries // Journal of Banking & Finance. – 2014. – Vol. 39. – P. 1–15.

bozorlariga kirishdagi to‘siqlar bilan bog‘liq iqtisodiy jarayon sifatida talqin qilinadi. Shu ma’noda, KOBni moliyalashtirishning iqtisodiy mohiyati faqat mablag‘ jalb qilish emas, balki cheklangan resurslar sharoitida korxonaning investitsion faolligi, aylanma kapital barqarorligi va o‘sish sur’atini ta’minlovchi moliyaviy mexanizmlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv Small Business Economics, Journal of Banking & Finance va International Review of Financial Analysis kabi yuqori reytingli jurnallardagi tadqiqotlarda izchil tasdiqlangan.

Shu bilan birga, moliyaviy bozorlardagi fragmentatsiya darajasi ham muhim omil sifatida qayd etilgan. R. Calabrese, C. Girardone, A. Sclip tadqiqotlarida moliya bozorlarining parchalanganligi sharoitida KOB uchun qarz resurslarining qiymati oshishi va tashqi moliyaga kirish imkoniyatlari yomonlashishi aniqlangan. Bu holat KOB moliyalashtirishning iqtisodiy mohiyatini milliy moliya tizimining integratsiyalashuv darajasi bilan uzviy bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi, kredit olish shartlarining murakkabligi va kapital bozorlarining yetarlicha rivojlanmaganligi kichik va o‘rta biznes rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

1. Kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishning iqtisodiy mohiyati

Kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish deganda, ushbu subyektlarning ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va investitsion faoliyatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarni jalb etish jarayoni tushuniladi. Ushbu jarayon quyidagi manbalar orqali amalga oshiriladi:

- bank kreditlari;
- mikromoliyalashtirish institutlari;
- davlat qo‘llab-quvvatlash dasturlari;
- investitsiya fondlari;
- kapital bozori instrumentlari.

Shu nuqtai nazardan, moliyalashtirish tizimi kichik va o‘rta biznesning nafaqat joriy faoliyatini, balki uning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ham belgilab beradi.

2. O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes moliyalashtirish tizimining hozirgi holati

O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish asosan bank kreditlari orqali amalga oshiriladi. Tijorat banklari kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun asosiy moliyalashtirish manbasi hisoblanadi. Shu bilan birga, so‘nggi yillarda quyidagi yo‘nalishlarda islohotlar amalga oshirildi:

- kredit berish jarayonlarini raqamlashtirish;
- garov talablarini yengillashtirish;
- davlat kafolatlari mexanizmlarini joriy etish;
- kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari faoliyatini kengaytirish.
- Biroq, amalda qator muammolar saqlanib qolmoqda:
- kredit resurslarining qimmatligi;

- garov ta’minoti yetishmasligi;
- uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi;
- risklarni baholash tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi.

3. Moliyalashtirishni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari

Kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi zamonaviy mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq:

1. Muqobil moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish

Bank kreditlaridan tashqari quyidagi instrumentlarni keng joriy etish zarur:

- factoring va leasing xizmatlari;
- venchur kapital;
- crowdfunding platformalari;
- obligatsiyalar orqali moliyalashtirish.

Bu mexanizmlar kichik va o‘rta biznes uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

2. Kapital bozorini rivojlantirish

Kichik va o‘rta biznes uchun maxsus “SME bonds”, yengillashtirilgan IPO mexanizmlari joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu orqali kichik va o‘rta biznes subyektlari bank kreditlariga qaramlikni kamaytirish imkoniga ega bo‘ladi.

3. Risklarni boshqarish tizimlarini joriy etish

Kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishda risklarni samarali baholash muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun:

- skoring modellari;
- kredit reyting tizimlari;
- erta ogohlantirish (early warning) tizimlari joriy etilishi lozim.

Raqamli moliyalashtirish va FinTech yechimlari

FinTech texnologiyalari kichik va o‘rta biznes uchun moliyalashtirishni ancha soddalashtiradi, яъни onlayn kreditlash, P2P lending, raqamli skoring, open banking xizmatlari.

Bu esa moliyalashtirishga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish tizimi rivojlanish bosqichida bo‘lib, uni yanada takomillashtirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Xususan, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, kapital bozorini rivojlantirish, risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Kelgusida mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali kichik va o‘rta biznesning moliyaviy barqarorligi oshadi, investitsion faolligi kuchayadi va mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi yanada ortishi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. R. Ryan, C. O’Toole, F. McCann. Credit conditions for SMEs: evidence from European countries // Journal of Banking & Finance. – 2014. – Vol. 39. – P. 1–15.

2. R. Calabrese, C. Girardone, A. Sclip. Financial fragmentation and SME financing // Small Business Economics. – 2021. – Vol. 57. – P. 1461–1480.

3. N. Wellalage, V. Fernandez. Innovation and SME financing // International Review of Financial Analysis. – 2019. – Vol. 66. – Article 101370.
4. M. Martinez-Cillero, J. Lawless, C. O'Toole. Financial constraints and investment efficiency // International Review of Economics & Finance. – 2023. – Vol. 84. – P. 145–160.
5. M. Chit, M. Rizov. SMEs' diversification of financing sources // International Journal of Finance & Economics. – 2022. – Vol. 27. – P. 3890–3905.

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLINI IJTIMOIY HIMOYALASHDA ZAMONAVIY MOLIYAVIY VOSITALARNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI

Xamdamov Shavkat Komilovich
TDIU, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasi professori, PhD, professor
shavkat1718@gmail.com, +998935797987

Annotatsiya. *Maqolada qashshoqlikni qisqartirishda zamonaviy moliyaviy vositalar — ijtimoiy obligatsiyalar, yashil moliya, raqamli moliyalashtirish, islomiy moliya va mahalliy fondlarning ahamiyati tahlil qilingan. Ularning moliyaviy inkluziyani kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishdagi roli asoslab berilgan. Shuningdek, O'zbekistonda ushbu mexanizmlarni samarali joriy etish shartlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *kambag'allik, moliyaviy inkluziya, ijtimoiy obligatsiyalar, yashil moliya, raqamli moliyalashtirish, islomiy moliya, mahalliy fondlar, investitsiyalar, ijtimoiy himoya, iqtisodiy rivojlanish.*

Bugungi kunda qashshoqlikka barham berish jahonda dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Hali ham Yer yuzida deyarli 700 million kishi kuniga 2,15 AQSh dollaridan kam daromad bilan hayot kechirmoqda, ya'ni mutlaq qashshoqlik sharoitida yashaydi [1]. Zamonaviy sharoitda kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalshda moliya texnologiyalari va raqamli bank xizmatlari joriy etilishi muhim. Jamg'arma va investitsiyalarni safarbar etishning innovatsion yo'llari kambag'allikka qarshi kurashda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O'zbekistonda 2030-yilgacha qashshoqlikni batamom tugatish maqsadiga erishish uchun **yangi moliyaviy arxitektura** zarurligi ta'kidlanmoqda [2]. Bu yangi arxitektura doirasida xalqaro miqyosda samaradorligi isbotlangan bir qator zamonaviy moliyaviy vositalarni joriy etish imkoniyatlari paydo bo'lmoqda. Ana shunday vositalar qatoriga ijtimoiy obligatsiyalarni, yashil moliyalashni, raqamli moliyalashtirishni, islomiy moliyani va mahalliy fondlar orqali moliyalashtirishni kiritish mumkin.

Ijtimoiy obligatsiya – bu davlat va xususiy sektor sherikchiligi asosida ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan natijaviy moliyalashtirish vositasidir. An'anaviy obligatsiyalardan farqli o'laroq, ijtimoiy obligatsiyalar

bo‘yicha investorlar davlatdan to‘lovni faqatgina belgilangan ijtimoiy natijalarga erishilgandagina oladi [3]. Bu mexanizm xususiy sarmoyalarni ta’lim, salomatlik, bandlik kabi sohalardagi loyihalarga jalb qilib, ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Misol tariqasida, Buyuk Britaniyada ilk ijtimoiy obligatsiyalar qamoqdan qayta jinoyat sodir etish ko‘rsatkichlarini pasaytirishga qaratilib, yaxshi natijalar berganligi ma’lum. Ijtimoiy obligatsiyalarni joriy etishning afzalliklari – xususiy sarmoyani ijtimoiy sohalarga jalb qilish, davlatga moliyaviy yukni kamaytirish va eng muhimi, dasturlar samaradorligini natijalar orqali baholashdir. O‘zbekistonda ijtimoiy obligatsiyalarni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun avvalo huquqiy-me’yoriy baza mustahkamlanishi lozim. Xususiy sektor bilan natija uchun shartnoma tuzish tartibini belgilovchi qonunchilik talab etiladi. Ikkinchidan, davlat idoralari va mahalliy hokimiyatlarda loyihalarni boshqarish bo‘yicha salohiyatni oshirish, moliyaviy va ijtimoiy natijalarni o‘lchash tizimini joriy etish zarur. Shuningdek, investorlar uchun rag‘batlar (soliq imtiyozlari yoki davlat kafolatlari kabi) ko‘zda tutilishi mumkin. Bu vosita bilan bog‘liq yana bir cheklov – natijalarni baholashning murakkabligi va bog‘liq xatarlar (masalan, iqlim yoki iqtisodiy o‘zgarishlar natijaga ta’sir qilishi)dir. Shu sababli, har bir ijtimoiy obligatsiya bo‘yicha mustaqil monitoring va mustaqil baholovchi instituti faoliyati yo‘lga qo‘yilishi tavsiya etiladi [4].

Yashil moliya. Yashil moliya atamasi atrof-muhitga foydali yoki iqlim o‘zgarishiga moslashuvga xizmat qiluvchi loyihalarni moliyalashtirishni anglatadi. Bu yo‘nalishning eng yorqin vositalaridan biri yashil obligatsiyalar bo‘lib, ular orqali jalb qilingan mablag‘lar faqatgina qayta tiklanuvchi energetika, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik toza transport kabi “yashil” loyihalarga sarflanishi kafolatlanadi. So‘nggi yillarda dunyoda yashil obligatsiyalar bozori jadal rivojlanmoqda – 2024-yilda global miqyosda yillik yashil obligatsiyalar chiqarilishi 700 mlrd AQSh dollariga yetdi [5]. Shu tariqa, yashil moliya iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xatarlarni kamaytirish barobarida iqtisodiyotning yangi tarmoqlarida ish o‘rinlari yaratish, aholi farovonligini oshirishga ham ko‘maklashmoqda. Mamlakat iqlim o‘zgarishining salbiy ta’siriga uchraydigan hududlarda yashovchi aholining asosiy daromad manbalari (dehqonchilik, chorvachilik) xavf ostida qolmoqda. Shu bois, “yashil” investitsiyalarni jalb qilish orqali qishloq joylarda barqaror infratuzilma yaratish va klimatga moslashish kambag‘allikni kamaytirishga hissa qo‘shadi. Xususan, qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish bilan qishloqlarda elektr ta’minoti yaxshilanib, yangi ish o‘rinlari yaratiladi, uy xo‘jaliklarining energiya xarajatlari kamayadi. Yashil moliyaning kambag‘allikni qisqartirishga ta’siri ko‘p qirrali. Birinchidan, ekologik barqaror loyihalar iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirib, ayniqsa qishloq hududlarida aholi turmush sharoitini yaxshilaydi (masalan, qurg‘oqchilik xavfini pasaytirish, suv resurslarini tejaydigan texnologiyalar orqali hosildorlikni oshirish). Bu esa qishloq joylarda daromad oshishi va zaif qatlamlarning himoyalanishiga olib keladi. Ikkinchidan, yashil infratuzilmaga investitsiyalar tufayli yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ladi – masalan, quyosh va shamol energiyasi stansiyalari qurilishi paytida va ulardan keyingi faoliyatida ko‘plab mahalliy ishchilar band qilinadi. Uchinchidan, yashil obligatsiyalar va

kreditlar orqali jalb etilgan mablag‘lar davlatga qo‘shimcha yuklamasdan ijtimoiy sohalarga (suv, energetika, transport) sarflanib, davlatning ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy manbalarni bo‘shatib beradi [6]. Jahon banki va BMT kabi tuzilmalar hisobotlarida qayd etilishicha, iqlim-investitsiyalar bilan kambag‘allik darajasi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud bo‘lib, har 1 dollar yashil investitsiya uzoq muddatda bir necha dollar ijtimoiy foyda keltiradi.

O‘zbekistonda yashil moliyaviy vositalarni keng tatbiq etish uchun bir qator shartlar muhim. Birinchidan, normativ-huquqiy baza takomillashtirilishi lozim – xususan, yashil obligatsiyalar chiqarish, ularning daromadini maqsadli ishlatishni nazorat qilish bo‘yicha milliy standartlar ishlab chiqilishi kerak. Ikkinchidan, institutsional salohiyat oshirilishi zarur.

Raqamli moliyalashtirish – bu zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishni anglatadi. So‘nggi yillarda fintech rivojlanishi butun dunyoda millionlab odamlarga bank xizmatlaridan foydalanish imkonini yaratdi. Moliya xizmatlarining raqamlashtirilishi kambag‘allikni qisqartirishga xizmat qiluvchi kuchli vositadir, chunki u moliyaviy inkluziyani kengaytiradi, ya’ni ilgari bank tizimidan chetda qolgan aholining moliyaviy xizmatlarga (hisobvaraqlarga, to‘lov tizimlariga, kredit va sug‘urta mahsulotlariga) kirish imkonini oshiradi. Raqamli moliyalashtirishning kambag‘allikni qisqartirishga ta’siri bevosita va bilvosita ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Bevosita ta’sir shundan iboratki, raqamli moliya xizmatlari orqali moliyaviy resurslarga ega bo‘lmagan yoki an’anaviy banklarga ishonchsizlik sabab murojaat qilmagan fuqarolar (ayniqsa, qishloq aholi, yoshlar va ayollar) endi mikroqarzlar, onlayn omonatlar, pul o‘tkazmalari va sug‘urta mahsulotlaridan foydalana oladilar. Bu ularga kichik biznes boshlash, kutilmagan moliyaviy zarbalardan himoyalanish va oilaviy byudjetni rejalashtirish imkonini beradi. Bilvosita ta’sir esa umuman iqtisodiy faollikning oshishi orqali yuzaga chiqadi – masalan, raqamli to‘lovlar tizimi savdo-sotiq hajmini oshiradi, transaktsiya xarajatlarini kamaytiradi va iqtisodiyotning “soyadan chiqishiga” yordam beradi.

Islomiy moliya – shariat qonun-qoidalariga mos ravishda moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish tizimi bo‘lib, u asosiy tamoyillari sifatida foiz stavkalarining taqiqlanishi (ribo), tavakkalchilik va foyda-zararni sheriklikda bo‘lish prinsiplarini o‘z ichiga oladi. Dunyo miqyosida islomiy moliya bozori hajmi 3 trillion AQSh dollaridan oshib ketgan va u asosan Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyoda jamg‘armalarni safarbar etish hamda investitsiyalarga yo‘naltirishda muhim o‘rin tutmoqda. Kambag‘allikni qisqartirish nuqtai nazaridan islomiy moliyaning qator afzalliklari bor: birinchidan, u foiz to‘lashga imkoni yo‘q yoki diniy e’tiqodi bois foizli kredit olmagan aholi qatlamlarini moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olishga yordam beradi (ya’ni moliyaviy inklyuziyani oshiradi). Ikkinchidan, islomiy moliya vositalari (musharaka, mudaraba kabi sheriklik asosidagi moliyalashtirish) kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlab, daromadlarni adolatli taqsimlash va iqtisodiy o‘sishdan hamma manfaatdor bo‘lishini ta’minlashga qaratilgandir. Islomiy moliyaning kambag‘allikni qisqartirishga foydasi bir necha omilda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, islomiy mikroqarzlar va foizsiz qarz vositalari orqali eng

nochor oilalar ham kredit manbalariga ega bo‘lishi mumkin, bu esa ularga kichik biznes ochish yoki favqulodda ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, islomiy moliya aktivlarga asoslangan moliyalashtirish tamoyiliga ega bo‘lgani uchun ko‘p hollarda real iqtisodiy loyihalarni (masalan, uy-joy qurilishi, qishloq xo‘jaligi texnikasi sotib olish) kreditlaydi va shu orqali bandlikni oshirishga hissa qo‘shadi.

Uchinchi jihati – zakot, sadaqa, vaqf kabi an’anaviy islomiy mexanizmlarni moliya tizimi bilan uyg‘unlashtirib, ijtimoiy himoya tarmoqlarini kuchaytirish mumkin. Masalan, nodavlat xayriya fondlari vaqflar orqali kambag‘allarga uy-joy yoki ta’lim grantlari taqdim etish amaliyotini kengaytirishi mumkin.

Mahalliy fondlar va jamoaviy moliyalashtirish. Mahalliy fondlar tushunchasi keng ma’noda mamlakat ichkarisidagi turli manbalardan shakllantiriladigan hamda joylarda kambag‘allikka qarshi yo‘naltiriladigan mablag‘lar majmuini anglatadi. Bunga davlatning hududiy jamg‘armalari, mahalliy budjet fondlari, xayriya va jamoat fondlari hamda hatto mahalla darajasidagi jamg‘armalar kiradi. Mahalliy fondlar orqali moliyalashtirishning asosiy afzalligi – mablag‘larning aniq manzilli va joyning o‘ziga xos ehtiyojlariga mos ravishda sarflanishidir. Markazdan turib boshqariladigan dasturlarda resurslar birmuncha “yiroqlashsa”, mahalliy darajada qaror qabul qiluvchi fondlar aholi bilan bevosita muloqotda bo‘lib, ularning real muammolarini yaxshi tushunadi. Biroq, mahalliy fondlar faoliyatida e’tibor berilishi lozim bo‘lgan masalalar ham yo‘q emas. Ulardan biri – institutsional salohiyat va monitoring. Mablag‘larning samarali va maqsadli sarflanishini ta’minlash uchun mahalliy darajada hisobot berish, audit va jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish zarur. Yana bir jihat – barqarorlik. Mahalliy fondlar ko‘pincha byudjet yoki homiylik mablag‘lariga tayangani bois, ularning doimiyligi kafolatlanmagan bo‘lishi mumkin. Shu bois, ularning moliyaviy barqarorligini oshirish uchun mahalliy darajada daromad manbalarini shakllantirish (masalan, yer mahalliy soliqlari tushumlarining bir qismini bevosita mahalla fondlariga yo‘naltirish) ko‘rib chiqilishi mumkin.

Mahalliy fondlar samaradorligini oshirish uchun, avvalo, mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish lozim. Keyinchalik, har bir mahalla yoki tuman darajasida kambag‘allikka qarshi kurash dasturlari uchun maxsus jamg‘arma tuzish va uning faoliyatini qonuniy tartibga solish mumkin. Bundan tashqari, shaffoflikni ta’minlash uchun mahalliy fondlarning daromad va xarajatlari bo‘yicha muntazam hisobot e’lon qilish, fuqarolar yig‘ilishlarida muhokama qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi kerak. Bu fuqarolar ishonchini oshirib, ularni fond faoliyatiga bevosita jalb etadi. Nihoyat, mahalliy fondlar tomonidan moliyalashtirilgan loyihalarning ta’sirini baholash indikatorlari ishlab chiqilishi kerak – masalan, mahalla kesimida qashshoqlik darajasi o‘zgarishi, yangi ish o‘rinlari soni, aholining turmush sifati ko‘rsatkichlari (ichimlik suvi, elektr bilan ta’minlanish va hokazo). Bunday yondashuv mablag‘lar sarfi natijadorligini o‘lchash va kelgusida resurslarni eng samarali yo‘nalishlarga yo‘naltirishga yordam beradi.

Umuman olganda, zamonaviy moliyaviy vositalarini joriy etish O‘zbekistonga moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, xalqaro

moliyaviy oqimlarni jalb etish va ichki resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Xalqaro tajriba ko‘rsatadiki, bu vositalarning har biri o‘z o‘rnida kambag‘allikni qisqartirish jarayoniga ijobiy turtki berishi mumkin, ammo ularni tatbiq etishda mos infratuzilma, huquqiy bazani yaratish, institutsional salohiyat va ijro intizomini ta’minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Bank. (2024). *Poverty, Prosperity, and Planet Report 2024: Pathways Out of the Polycrisis*. Washington, D.C.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Namangan shahrida bo‘lib o‘tgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” III xalqaro forumidagi “2030-yilga borib, O‘zbekistonda mutlaq kambag‘allikka to‘liq barham berish imkoniyati bor” mavzusidagi nutqi. // Prezident.uz. – 17 sentabr 2025.

3. UNESCO. Early Childhood Education Social Impact Bond: Uzbekistan, 2018–2022.–UNESCO,2025.

4. World Bank. *Uzbekistan: Promoting Early Childhood Development Project (P165316)* // World Bank Project Appraisal Document. – Washington, DC, 2019.

5. Demski J., Dong Y., McGuire P., Mojon, B. (2025). Growth of the green bond market and greenhouse gas emissions. *BIS Quarterly Review*, 11 mart 2025.

6. *UNDP, with EU and AFD, helps the Government of Uzbekistan on Green Bonds impact monitoring and* reporting. Toshkent, O‘zbekiston, 2 avgust 2024. Elektron maqola. https://www.undp.org/uzbekistan/news/undp-eu-and-afd-helps-government-uzbekistan-green-bonds-impact-monitoring-and-reporting

7. *Hamdamov S. Kambag‘allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalashning moliyalashtirish //Qo ‘qon universiteti xabarnomasi. – 2024. – T. 13. – 64-66 b.*

ФИНАНСОВАЯ ИНКЛЮЗИЯ И ЕЁ РОЛЬ В СОКРАЩЕНИИ БЕДНОСТИ

Рузимуратов Олимжон

Самаркандский институт экономики и сервиса

PhD, и.о. доцента кафедры «Банковское дело»

Шамсиева Рухшона

Самаркандский институт экономики и сервиса

Студентка 4 курса факультета «Банковского дело и аудита»

Аннотация: *Финансовая инклюзия представляет собой важнейшее направление современного социально-экономического развития, направленное на обеспечение доступности и использования финансовых услуг всеми слоями населения, включая уязвимые и малообеспеченные группы. В условиях усиливающейся глобальной экономической дифференциации и сохраняющегося уровня бедности в ряде стран, расширение доступа к финансовым ресурсам становится ключевым инструментом повышения уровня жизни и стимулирования экономической*

активности. Настоящая работа посвящена исследованию роли финансовой инклюзии в сокращении бедности, а также анализу механизмов, посредством которых расширение финансового доступа способствует экономической интеграции населения.

В статье рассматриваются теоретические основы финансовой инклюзии, включая её сущность, цели и основные компоненты, такие как доступность банковских счетов, кредитных продуктов, страхования и цифровых финансовых сервисов. Особое внимание уделяется влиянию финансовой инклюзии на микро- и макроэкономические процессы, включая рост предпринимательской активности, повышение финансовой грамотности населения, снижение транзакционных издержек и укрепление устойчивости домохозяйств к экономическим шокам. Отмечается, что финансовая инклюзия способствует формированию более равномерного распределения ресурсов и создает предпосылки для устойчивого экономического роста. В рамках исследования анализируются современные тенденции развития финансовой инклюзии, включая цифровизацию финансовых услуг, распространение мобильных платежных систем и развитие финтех-решений. Подчеркивается, что цифровые технологии играют значительную роль в расширении охвата финансовыми услугами, особенно в регионах с ограниченной банковской инфраструктурой. Рассматриваются также основные барьеры на пути повышения уровня финансовой инклюзии, такие как низкий уровень финансовой грамотности, институциональные ограничения, недоверие к финансовым институтам и недостаточная развитость инфраструктуры.

Ключевые слова: финансовая инклюзия, доступ к финансовым услугам, бедность, сокращение бедности, банковские услуги, цифровые финансовые технологии, финтех, мобильные платежи, микрофинансирование, финансовая грамотность, социально-экономическое развитие, неформальный сектор экономики, устойчивое развитие, экономическое неравенство, доступ к кредитам, страховые услуги, сбережения домохозяйств, финансовая доступность, государственная политика, инклюзивный рост, цифровая экономика, платежная инфраструктура, финансовая стабильность, малый и средний бизнес, уязвимые группы населения.

Введение: В современных условиях глобализации и трансформации мировой экономики вопросы сокращения бедности и обеспечения устойчивого экономического роста приобретают особую актуальность. Несмотря на значительные достижения в области экономического развития ряда стран, проблема бедности по-прежнему остается одной из ключевых социальных и экономических проблем, требующих комплексного решения. В этом контексте финансовая инклюзия выступает одним из важнейших инструментов, способствующих расширению экономических возможностей населения и снижению уровня социального неравенства.

Финансовая инклюзия предполагает создание условий, при которых

физические и юридические лица имеют доступ к широкому спектру финансовых услуг, включая банковские счета, кредитование, страхование, платежные и инвестиционные продукты. При этом доступ к финансовым услугам должен быть не только формальным, но и эффективным, то есть сопровождаться возможностью их регулярного и безопасного использования на приемлемых условиях. Особое значение финансовая инклюзия приобретает для малообеспеченных слоев населения, сельских жителей и представителей неформального сектора экономики, которые традиционно сталкиваются с ограниченным доступом к финансовым ресурсам.

Одним из ключевых факторов, обусловливающих важность финансовой инклюзии, является её способность выступать катализатором экономической активности. Наличие доступа к финансовым услугам позволяет домохозяйствам более эффективно управлять своими доходами и расходами, формировать сбережения, инвестировать в образование, здравоохранение и предпринимательскую деятельность. В свою очередь, это способствует повышению уровня доходов и улучшению качества жизни населения, что напрямую связано с сокращением бедности.

Кроме того, финансовая инклюзия играет важную роль в снижении уязвимости домохозяйств к экономическим и внешним шокам. Доступ к страховым продуктам, кредитным линиям и сберегательным инструментам позволяет сглаживать финансовые колебания и поддерживать стабильный уровень потребления в условиях нестабильной экономической среды. Это особенно важно для стран с развивающейся экономикой, где население часто сталкивается с ограниченными возможностями социальной защиты.

Основная часть: Финансовая инклюзия выступает одним из ключевых факторов, определяющих уровень вовлеченности населения в формальную экономику. Её значение особенно возрастает в условиях, когда значительная часть населения в развивающихся странах остается вне банковской системы или ограничена в доступе к финансовым услугам. Недостаточный доступ к финансовым инструментам приводит к тому, что домохозяйства вынуждены полагаться на неформальные источники финансирования, которые, как правило, сопровождаются высокими издержками, отсутствием правовой защиты и повышенными рисками.

Одним из основных механизмов влияния финансовой инклюзии на сокращение бедности является расширение доступа к кредитным ресурсам. Возможность получения кредита позволяет домохозяйствам инвестировать в образование, здравоохранение, развитие предпринимательской деятельности и улучшение жилищных условий. В частности, доступ к микрокредитованию способствует развитию малого бизнеса, который часто является основным источником занятости и дохода для малообеспеченных слоев населения[5]. При этом даже небольшие финансовые ресурсы могут оказать существенное влияние на повышение уровня доходов при их

[5] Beck, T., Demirgüç-Kunt, A. *Access to Finance: An Unfinished Agenda*. World Bank Economic Review, 2008.

эффективном использовании.

Другим важным каналом является стимулирование сбережений. Наличие банковского счета и доступ к депозитным продуктам способствует формированию финансовой дисциплины и накоплению ресурсов. Сбережения позволяют домохозяйствам сглаживать потребление в периоды экономической нестабильности, снижая их уязвимость к внешним шокам, таким как потеря работы, снижение доходов или рост цен. В этом контексте финансовая инклюзия способствует повышению финансовой устойчивости населения и снижению риска попадания в бедность[6]. Особое значение имеет развитие цифровых финансовых технологий, которые существенно расширяют охват финансовыми услугами. Мобильные платежные системы, интернет-банкинг и финтех-платформы позволяют предоставлять финансовые услуги без необходимости физического присутствия в банковских отделениях. Это особенно важно для сельских и удаленных регионов, где традиционная банковская инфраструктура развита слабо. Цифровизация снижает операционные издержки финансовых организаций и делает услуги более доступными для широких слоев населения[7].

Кроме того, цифровые технологии способствуют повышению прозрачности финансовых операций и снижению уровня теневой экономики. Безналичные платежи позволяют отслеживать финансовые потоки, что способствует улучшению налоговой дисциплины и расширению налоговой базы государства. В долгосрочной перспективе это создает дополнительные ресурсы для финансирования социальных программ, направленных на борьбу с бедностью.

Финансовая грамотность населения является неотъемлемым элементом эффективной финансовой инклюзии. Даже при наличии доступа к финансовым услугам их неправильное использование может привести к негативным последствиям, таким как чрезмерная задолженность или финансовые потери. Поэтому повышение уровня финансовой грамотности способствует более рациональному принятию финансовых решений, улучшению управления личными финансами и более эффективному использованию финансовых инструментов[8].

С институциональной точки зрения важную роль играет государственная политика, направленная на развитие финансовой инфраструктуры и создание благоприятных условий для расширения финансовой доступности. Государственные программы могут включать субсидирование процентных ставок, поддержку микрофинансовых организаций, развитие цифровых платежных систем и внедрение регуляторных механизмов, стимулирующих конкуренцию в финансовом секторе. В ряде стран реализация подобных мер позволила значительно увеличить долю населения, имеющего доступ к банковским услугам.

---

[6] World Bank. *Global Financial Development Report: Financial Inclusion*. Washington, DC, 2014.
[7] Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D. *The Global Findex Database 2021*. World Bank, 2022.
[8] Lusardi, A., Mitchell, O. S. *The Economic Importance of Financial Literacy*. Journal of Economic Literature, 2014.

Заключение: Проведённый анализ позволяет сделать вывод о том, что финансовая инклюзия является одним из ключевых факторов, способствующих сокращению бедности и обеспечению устойчивого социально-экономического развития. В современных условиях, характеризующихся ускоренной цифровизацией и трансформацией финансовых систем, расширение доступа населения к финансовым услугам приобретает стратегическое значение как для отдельных стран, так и для мировой экономики в целом.

Финансовая инклюзия оказывает комплексное воздействие на экономику, затрагивая как микроуровень домохозяйств, так и макроэкономические показатели. На уровне домохозяйств доступ к финансовым услугам позволяет более эффективно управлять доходами и расходами, формировать сбережения, снижать уязвимость к экономическим шокам и повышать уровень благосостояния. Возможность использования кредитных ресурсов открывает дополнительные перспективы для инвестирования в образование, здравоохранение и предпринимательскую деятельность, что способствует увеличению доходов и выходу из состояния бедности[9].

На макроуровне развитие финансовой инклюзии способствует расширению финансового сектора, повышению эффективности распределения ресурсов и стимулированию экономического роста. Включение ранее не охваченных слоев населения в формальную финансовую систему приводит к увеличению объема финансовых потоков, росту инвестиционной активности и укреплению налоговой базы государства. В результате формируются предпосылки для более устойчивого и инклюзивного экономического развития.

Таким образом, финансовая инклюзия выступает не только как инструмент расширения доступа к финансовым услугам, но и как важный фактор сокращения бедности и повышения уровня жизни населения.

Список использованных источников

1. World Bank. *Global Financial Development Report: Financial Inclusion*. — Washington, DC: World Bank, 2014.

2. Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D. *The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19*. — Washington, DC: World Bank, 2022.

3. Beck T., Demirgüç-Kunt A. Access to Finance: An Unfinished Agenda // *The World Bank Economic Review*. — 2008. — Vol. 22(3). — P. 383–396.

4. Lusardi A., Mitchell O. S. The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence // *Journal of Economic Literature*. — 2014. — Vol. 52(1). — P. 5–44.

5. Центральный банк Республики Узбекистан. *Отчёты о финансовой стабильности и развитии банковского сектора*. — Ташкент, 2022–2024.

[9] World Bank. *Global Financial Development Report: Financial Inclusion*. Washington, DC, 2014.

6. Агентство по развитию финансового рынка Республики Узбекистан. *Стратегии и аналитические материалы по развитию финансового рынка*. — Ташкент, 2021–2024.

7. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. *Официальная статистика по уровню бедности и доходам населения*. — Ташкент, 2023–2025.

TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUVINI VA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ORQALI BANK DAROMAD BAZASINI OSHIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Togayev Salim Sobirovich
TDIU, Bank hisobi va auditi kafedrasi dotsenti, PhD
tel: 937208686, sts-bank@bk.ru
Xolboyev Soxibjon Toxir o'g'li
***TDIU,** Samarqand filiali magistri*

***Annotatsiya**. Mazkur tezisda tijorat banklari kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash orqali banklarning daromad bazasini kengaytirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekistonning bank tizimini isloh qilish bo'yicha qabul qilingan strategik hujjatlar, xususan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, 2020–2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi, 2026-yil uchun "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" davlat dasturi hamda kapital monandligiga oid yangilangan prudensial talablar asosida amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan.*

***Kalit so'zlar**: tijorat banki, kapitallashuv, moliyaviy barqarorlik, daromad bazasi, prudensial nazorat, kapital yetarliligi, bank islohotlari, risklarni boshqarish, rentabellik, bank sektori.*

***Аннотация**. В данной работе анализируются вопросы расширения доходной базы банков путем укрепления капитализации и финансовой стабильности коммерческих банков. Исследование охватывает стратегические документы, принятые по реформе банковской системы Узбекистана, в частности, стратегию «Узбекистан – 2030», стратегию реформы банковской системы на 2020-2025 годы, государственную программу «Год развития общин и социального подъема» на 2026 год, а также реформы, реализуемые на основе обновленных пруденциальных требований к достаточности капитала.*

***Ключевые слова**: коммерческий банк, капитализация, финансовая стабильность, доходная база, пруденциальный надзор, достаточность капитала, банковские реформы, управление рисками, прибыльность, банковский сектор.*

***Abstract**. This thesis analyzes the issues of expanding the income base of banks by strengthening the capitalization and financial stability of commercial*

banks. The study covers the strategic documents adopted on the reform of the banking system of Uzbekistan, in particular, the "Uzbekistan - 2030" strategy, the banking system reform strategy for 2020-2025, the state program "Year of Community Development and Society Upliftment" for 2026, and the reforms being implemented on the basis of updated prudential requirements for capital adequacy.

***Keywords**: commercial bank, capitalization, financial stability, revenue base, prudential supervision, capital adequacy, banking reforms, risk management, profitability, banking sector.*

Bugungi kunda bank tizimining barqaror faoliyati mamlakat iqtisodiyotining uzluksiz moliyalashtirilishi, investitsion jarayonlarning qo‘llab-quvvatlanishi va aholi hamda biznes subyektlarining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari kapitallashuvini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalasi nafaqat bank ichki boshqaruvining, balki makroiqtisodiy siyosatning ham eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bank kapitalining yetarliligi bankning tavakkalchiliklarni qoplash qobiliyatini belgilaydi, moliyaviy barqarorlik esa resurs bazasining uzluksizligi, aktivlar sifati va daromadlar barqarorligining asosiy kafolati hisoblanadi.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasida barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirish, moliya-bank tizimini zamonaviylashtirish va iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini kengaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan[10]. Shuningdek, 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi bank tizimida davlat ulushini kamaytirish, tijorat banklarini transformatsiya qilish, zamonaviy bank standartlari va axborot texnologiyalarini joriy etish hamda investorlar uchun jozibador bank sektorini shakllantirishni ko‘zda tutilgan[11].

Bank kapitali va rentabellik o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. Allen N. Berger bank kapitali va daromadlilik o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini, kuchli kapital bazasi bankning tavakkalchilikka chidamliligini oshirishi bilan birga, bozor ishonchini ham mustahkamlashini ta’kidlaydi[12].

O‘zbekistonda bank tizimini isloh qilishning huquqiy va institutsional bazasi so‘nggi yillarda sezilarli kuchaydi. 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasining maqsadi zamonaviy bank tizimini shakllantirish, banklarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va bank xizmatlarining yangi standartlarini joriy etishdan iborat etib belgilangan. Bank tizimini isloh qilishda prudensial talablarning yangilanishi alohida ahamiyatga ega.

[10] https://lex.uz/docs/-6600413
[11] https://lex.uz/docs/-4811025
[12] https://www.jstor.org/stable/2077877

1-jadval

Bank tizimi daromadlik ko‘rsatkichlari[13]

	01.03.25 y.	**01.03.26 y.**
Soliq to‘langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA)	2,1	2,2
Soliq to‘langunga qadar sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE)	11,6	13,4
Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati	4,4	4,0
Kreditlar bo‘yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo‘yilmalariga nisbati	6,4	6,1
Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati	5,2	4,7
Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati	4,5	4,0

1-jadvaldan ko‘rish mumkinki, 2026-yil 1-mart holatida o‘tgan shu davrga mos ravishda O‘zbekiston bank tizimi daromadlik ko‘rsatkichlaridan Soliq to‘langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA) 0,7 foizli punktga, Soliq to‘langunga qadar sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE) 1,8 foizli punktga oshgan bo‘lsa, Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati 0,4 foizli punktga, Kreditlar bo‘yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo‘yilmalariga nisbati 0,3 foizli punktga, Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati 0,5 foizli punktga, Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati 0,5 foizli punktga kamaygan[14].

Bank daromad bazasi deganda bankning foizli va foizsiz daromadlarining barqaror, diversifikatsiyalashgan va uzoq muddatli manbalari tushuniladi. Markaziy bankning 2024-yil hisobotiga ko‘ra, banklar jami daromadlarining 67 foizi foizli daromadlar, 33 foizi foizsiz daromadlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Foizli daromadlarning 91 foizi kredit va mijozlarning majburiyatlari bilan bog‘liq operatsiyalardan shakllangan. Bu holat O‘zbekiston bank tizimida daromad bazasi hanuz asosan kreditlash faoliyatiga tayanayotganini ko‘rsatadi.

2-jadval

Bank tizimi jami kapitali monandlilik darajasi[15]

Ko‘rsatkichlar nomi	**01.03.2025 y.**		**01.03.2026 y.**	
	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda
I darajali kapital	113 396	87,4%	136 837	88,2%
II darajali kapital	16 392	12,6%	18 388	11,8%
Jami regulyativ kapital	129 788	100%	155 225	100%
Kapital monandlilik darajasi	*17,4%*		*18,3%*	
I darajali kapital monandlilik darajasi	*15,2%*		*16,2%*	
I darajali asosiy kapital monandlilik darajasi	*15,1%*		*15,7%*	

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston bank tizimi jami kapitali

[13] https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/3660562/
[14] Markaziy bank sayti ma’lumotlari bo‘yicha muallif hisob-kitobi
[15] https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/3660567/

monandlilik darajasining barcha ko‘rsatkichlari 2026-yil 1-mart holatida 2025-yil 1-mart holatiga nisbatan o‘sish tendensiyasiga ega. Jumladan, kapital monandlilik darajasi 0,7 foizli punktga, I darajali kapital monandlilik darajasi 1,0 foizli punktga va I darajali asosiy kapital monandlilik darajasi 0,6 foizli punktga oshgan.

Moliyaviy barqarorlik bank daromad bazasining “himoya qatlami” vazifasini bajaradi. Likvidlik ko‘rsatkichlari, kapital buferlari, risklarni boshqarish tizimi, aktivlarni baholash va provizionlash sifati mustahkam bo‘lsa, bankning foyda olish qobiliyati ko‘proq barqaror bo‘ladi. Aksincha, sifatsiz aktivlar, yuqori xarajatlar va noto‘g‘ri kredit siyosati hatto yuqori daromadli davrlarda ham kapitalning yemirilishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tijorat banklari kapitallashuvini va moliyaviy barqarorligini ta’minlash orqali bank daromad bazasini oshirishdagi ayrim muammolarni keltirib o‘tmoqchimiz:

-banklar daromad bazasining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganidir. Jami daromadlarda foizli daromadlarning ustunligi banklarning kredit bozoridagi tebranishlarga haddan tashqari bog‘liqligini anglatadi. Agar iqtisodiyotda kredit riski ortsa yoki qaytmas kreditlar ulushi oshsa, bu darhol bankning foydaliligiga ta’sir ko‘rsatadi.

-kapital va daromad o‘rtasidagi mutanosiblikning har doim ham samarali emasligi. Amaliyotda ayrim banklarda kapital yetarliligi regulyator talabiga javob berishi mumkin, biroq ushbu kapital daromad keltiruvchi aktivlarga optimal joylashtirilmagan bo‘lsa, rentabellik past bo‘lib qoladi.

-operatsion va foizsiz xarajatlarning tez o‘sishi. Markaziy bank hisobotida aynan foizsiz xarajatlarning sezilarli oshishi rentabellik pasayishining omili sifatida ko‘rsatilgan. Bu bank tizimida xarajatlarni boshqarish, filial tarmog‘i samaradorligi, raqamlashtirish samarasi va biznes-jarayonlarni optimallashtirish bo‘yicha ishlar yetarli darajada yakunlanmaganini ko‘rsatadi.

-imtiyozli kreditlar va ma’muriy yo‘naltirilgan resurslarning yuqori ulushi bilan bog‘liq xavflardir. 2026-yilgi davlat dasturida ham umumiy kredit portfelida imtiyozli kreditlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish vazifasi qo‘yilgan.

-transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlarining barcha banklarda bir xil sur’atda kechmayotganidir. Strategik hujjatlarda bank sektorida davlat ulushini kamaytirish va zamonaviy standartlarni joriy etish maqsadi aniq qo‘yilgan bo‘lsa-da, ayrim banklarda korporativ boshqaruv, tavakkalchiliklarni boshqarish va tijorat tamoyillariga o‘tish jarayoni vaqt talab qilmoqda.

Keltirib o‘tilgan ushbu muammolarga quyidagicha yechimlar berilishi maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, tijorat banklari daromad bazasini oshirish uchun kapital sifati va tarkibini mustahkamlash zarur. Bunda foydani maksimal darajada kapitalizatsiya qilish, qo‘shimcha aksiyalar emissiyasi, strategik investorlarni jalb etish va 3697-sonli yangi prudensial talablar asosida kapital elementlarini sifat jihatidan yaxshilash muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, daromad bazasini diversifikatsiya qilish lozim. Banklar kredit foizlaridan tashqari hisob-kitob xizmatlari, ekvayring, treyd-faynens,

transchegaraviy to‘lovlar, trezori operatsiyalari, aktivlarni boshqarish, maslahat xizmatlari va raqamli platformalardan olinadigan komission daromadlarni kengaytirishi kerak.

Uchinchidan, kredit portfeli sifati va riskka mos narxlash mexanizmlarini kuchaytirish kerak. Rentabellikni sun’iy ravishda faqat kredit hajmini oshirish hisobiga emas, balki qarz oluvchining haqiqiy to‘lov qobiliyati, sektor riski, garov sifati va pul oqimlari asosida differensial baholash orqali ta’minlash lozim.

To‘rtinchidan, operatsion xarajatlarni qisqartirish va samaradorlikni oshirish uchun raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish zarur.

Beshinchidan, imtiyozli kreditlashni bosqichma-bosqich maqbullashtirish va bozor tamoyillariga yaqinlashtirish kerak. Bu banklarning resurs narxini, riskni baholash intizomini va real rentabellikni to‘g‘ri aks ettirishga yordam beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari kapitallashuvini va moliyaviy barqarorligini ta’minlash bank daromad bazasini oshirishning markaziy shartlaridan biridir. Kuchli kapital bankka tavakkalchiliklarni qoplash, kredit portfelini barqaror yuritish, yangi xizmatlarni joriy etish va bozorda ishonchni mustahkamlash imkonini beradi. Moliyaviy barqarorlik esa ushbu kapitalning saqlanishi va ko‘payishiga xizmat qiluvchi ichki muhitni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni, “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 28-oktabrdagi 3697-son qarori, “Banklar kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”.

4. Berger, A. N. “The Relationship between Capital and Earnings in Banking.

5. https://lex.uz/docs/-6600413

6. https://lex.uz/docs/-4811025

7. https://www.jstor.org/stable/2077877

8. https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/3660562/

9. https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/3660567/

10. Markaziy bank sayti ma’lumotlari bo‘yicha muallif hisob-kitobi

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA INNOVATSION MOLIYAVIY MEXANIZMLARNING SHAKLLANISHI

Xamdamov Shavkat Komilovich
TDIU, “Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi professori, PhD, professor
shavkat1718@gmail.com, +998935797987

Annotatsiya. *Maqolada innovatsion moliyaviy mexanizmlarning mohiyati, ularning an’anaviy moliyalashtirish usullaridan farqi hamda iqtisodiy rivojlanish va kambag‘allikka qarshi kurashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Innovatsion moliya vositalari orqali moliyaviy resurslarni safarbar etish, xususiy sektorni jalb qilish, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda ushbu mexanizmlarni kengaytirish yo‘nalishlari, jumladan, huquqiy bazani mustahkamlash, investitsiya siyosatini takomillashtirish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion moliyalashtirish, moliyaviy mexanizmlar, davlat-xususiy sheriklik, investitsiyalar, raqamli moliya, crowdfunding, iqtisodiy rivojlanish, kambag‘allikka qarshi kurash, moliyaviy infratuzilma*.

Ilmiy adabiyotlar va xalqaro tashkilotlar ma’lumotlariga ko‘ra, innovatsion moliyaviy mexanizmlar an’anaviy moliyalashtirish yo‘llaridan farq qiladigan, moliya jalb etish va taqsimlash usullarini nazarda tutadi. Jaxon bankining ta’kidlashicha, innovatsion moliyalashtirish an’anaviy davlat byudjeti yoki xalqaro obligatsiyalar chiqarishdan farq qilib, birdamlik asosidagi yangi manbalar, davlat–xususiy sheriklik va boshqa instrumentlar orqali o‘ziga xos moliyaviy oqimlarni yaratishni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti esa innovatsion moliya vositalarini loyiha va davlat daromadlarini birlashtirib moliyalashtirish, yangi soliqlar yoki mablag‘ yig‘ish mexanizmlari (masalan, ma’lum maqsadlar uchun mo‘ljallangan soliq yoki xayriya yig‘imlari) hamda kafolat va mukofotlar orqali bo‘shliqni to‘ldirishni o‘z ichiga oladi deb ta’kidlaydi [1]. Boshqacha aytganda, innovatsion moliyalashtirish – an’anaviy davlat byudjetidan tashqari, investorlar va jamiyatni jalb etuvchi yangi mexanizmlar majmuasidir.

Jamiyatda iqtisodiy va texnologik yuksalishni rag‘batlantirish uchun ko‘pincha kapital yetishmovchiligi muammo sifatida qoladi. Masalan, hamyonbop tadqiqotlar va amaliy loyihalarni moliyalashtirish uchun an’anaviy kreditorlar resurslari yetarli bo‘lmasligi ko‘p innovatsion g‘oyalarni amalga oshmay qolishiga olib keladi. Shu bois, mustahkam innovatsion moliyaviy mexanizmni shakllantirish investitsiya mablag‘lari va rag‘batlar tizimini aniqlik bilan tashkil etish orqali bozor talablariga javob beruvchi yangi texnologiya va jarayonlarni tezda rivojlantirish imkonini beradi.

Zamonaviy dunyoda kambag‘allikka qarshi kurashishda an’anaviy usullar bilan bir qatorda tobora ko‘proq **innovatsion moliyaviy mexanizmlar** joriy

etilmoqda. Innovatsion moliyaviy mexanizmlar deganda, odatiy davlat byudjeti yoki tijorat banklari faoliyatidan tashqari, yangi yondashuvlarga asoslangan, moliyaviy resurslarni safarbar etishning noan'anaviy va ijodiy usullari tushuniladi. Ular xususiy sektor, xalqaro tashkilotlar va nodavlat tashabbuslarni jalb qilgan holda qo‘shimcha mablag‘ va yangi texnologiyalarni ishga solish bilan ajralib turadi.



1-rasm. Kambag‘allikka qarshi kurashishda innovatsion moliyaviy mexanizmlar

Bunday mexanizmlarning shakllanishi asosan yuqorida 1-rasmda ko‘rrsatilgan tamoyillarga asoslanadi (1-rasm).

Innovatsion moliyaviy mexanizmlarning konseptual asosi shundan iboratki, ular **bir nechta tomonlar manfaatini uyg‘unlashtirishga** qaratilgan. Masalan, raqamli moliyaviy xizmatlarda telekom kompaniyalari, banklar va iste'molchilar manfaatdorligi uyg‘unlashadi (hamkorlikdan hammaga foyda); ijtimoiy obligatsiyalarda davlat va investorlarning riski va foydasi bo‘lishib olinadi; kraudfandingda esa ehson qiluvchilar o‘z yordamining aniq natijasini ko‘rib ma'naviy qoniqish hosil qiladi, loyiha esa mablag‘ga ega bo‘ladi. Bu mexanizmlarning barchasida **shaffoflik, hisobdorlik va natijadorlik** muhim tamoyillar hisoblanadi – chunki innovatsion mexanizmlar aksariyat hollarda yangi ishtirokchilar pulini jalb qilish evaziga ishlaydi, ular esa sarflangan pulning natijasini ko‘rishni xohlaydilar.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda innovatsion moliyaviy mexanizmlarni yanada kengaytirish uchun quyidagi asosiy yo‘nalishlarga e'tibor qaratish lozim (2-rasm):

– ***Moliyalashtirish kanallarini diversifikatsiya qilish.*** Davlat institutlaridan tashqari, xususiy sektordan va xalqaro moliya organlaridan foydalanishga turtki beruvchi mexanizmlar muhim. Masalan, aralash moliyalashtirish strategiyasini joriy etib, davlat mablag‘ini qo‘shimcha kafolatlar bilan xususiy investitsiyalar uchun katalizator sifatida ishlatish lozim. Favqulodda yoki natijaviy moliyalashtirish usullari va ijtimoiy investitsiya obligatsiyalari singari innovatsion vositalar ham keng qo‘llanilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, *Annual Report 2024* (2026). Mazkur hisobot O‘zbekiston modelining amaldagi institutsional va amaliy ko‘rinishini ochib beruvchi eng muhim manbadir. Hujjatda moliyaviy inklyuziya va iste’molchi huquqlarini himoya qilish bo‘yicha alohida bo‘lim mavjud bo‘lib, unda 2021–2023 yillardagi Milliy moliyaviy inklyuziya strategiyasi natijalari baholangani, aholining moliyaviy savodxonligi va bank tizimiga ishonchi bo‘yicha surveylar o‘tkazilgani, 2025–2027 yillar uchun yangi strategiya bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab olingani qayd etiladi. Shuningdek, besh hududda yoshlar, ayollar va tadbirkorlar ishtirokida fokus-guruh tadqiqotlari o‘tkazilgani ko‘rsatiladi. Bu ijtimoiy yo‘naltirilgan bank siyosati O‘zbekistonda faqat kreditlash emas, balki data collection, public trust va policy design bilan bog‘langan kompleks jarayon ekanini ko‘rsatadi. Hisobotning yana bir markaziy qismi oilaviy tadbirkorlik dasturlari bilan bog‘liq: yetti yil davomida 50 trillion so‘mdan ortiq imtiyozli kredit ajratilib, qariyb 2,3 million kishi daromadli faoliyatga jalb etilgani qayd etiladi. 2024 yilning o‘zida esa 372 mingdan ortiq loyiha 6,8 trillion so‘mdan ortiq imtiyozli kredit olgan, 93 foiz resurs self-employed qatlamga yo‘naltirilgan. Bundan tashqari, 751 ming muvaffaqiyatli qarz oluvchilar ro‘yxati shakllantirilib, ular uchun 300 million so‘mgacha bosqichli mikrokredit tizimi joriy etilgani ko‘rsatiladi. Bu O‘zbekiston modelining o‘ziga xosligi shundaki, moliyaviy inklyuziya bu yerda bank hisobraqamidan foydalanish bilan cheklanmay, daromadli faoliyatga kirish, biznesni kengaytirish va keyingi bosqich moliyalashtirishga o‘tish bilan bog‘langan. Shu sababli ushbu manba maqoladagi “O‘zbekiston modeli” tushunchasining asosiy empirik tayanchi hisoblanadi.

World Bank, *Uzbekistan Poverty and Equity Brief* (2024). Jahon bankining ushbu hujjati moliyaviy inklyuzivlikning yakuniy ijtimoiy natijasi — kambag‘allik darajasi — bilan bog‘liq umumiy kontekstni beradi. Hujjatga ko‘ra, O‘zbekistonda milliy kambag‘allik darajasi 2021 yildagi 17 foizdan 2023 yilda 11 foizgacha pasaygan. Hujjatda bu pasayishning asosiy drayveri sifatida real ish haqi o‘sishi ko‘rsatiladi, ayniqsa 2022–2023 yillardagi kambag‘allik kamayishining qariyb uchdan ikki qismi aynan wage growth bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Jahon banki rural poverty rate urban hududlardagidan yuqoriroq bo‘lib qolayotganini, ammo qishloq hududlarida kambag‘allikni kamaytirish sur’ati tezroq bo‘lganini ham qayd etadi. 2021–2023 yillarda taxminan 1,2 million kishi qishloq hududlarda kambag‘allikdan chiqib ketgani ko‘rsatiladi. Bu ma’lumotlar moliyaviy inklyuziya va bank siyosatini kambag‘allik natijalari bilan bog‘lash uchun juda muhim, chunki ular daromadli mehnat va kambag‘allik o‘rtasidagi bevosita aloqani ko‘rsatadi. Hujjat bank-moliya siyosatini to‘g‘ridan-

to‘g‘ri tahlil qilmasa-da, undan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, kambag‘allikning barqaror qisqarishi uchun daromad manbalari va rasmiy iqtisodiy faoliyat kengayishi kerak. Bank tizimi aynan shu nuqtada rol o‘ynaydi: kredit, mikromoliya, raqamli to‘lov va biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali ish va daromad yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli ushbu hujjat maqolada moliyaviy inklyuzivlik samaradorligini baholashda yakuniy natija o‘lchovi sifatida ishlatiladi. U O‘zbekiston modelida bank tizimi qanchalik ijtimoiy natija bera olayotganini tushunish uchun zarur makrofonni ta’minlaydi.

UNDP, *Uzbekistan Pilot Multidimensional Poverty Index Report 2023* (2024). UNDPning ushbu hisoboti moliyaviy inklyuzivlik va kambag‘allik o‘rtasidagi bog‘liqlikni eng chuqur ochib beruvchi manbalardan biridir, chunki u kambag‘allikni ko‘p o‘lchovli hodisa sifatida baholaydi. Hisobotda rural hududlarda bank hisobraqamiga ega emaslik 17,8 foiz darajasida kambag‘allikning censored headcount ko‘rsatkichi sifatida qayd etiladi; urban hududlarda bu ko‘rsatkich 10,4 foizni tashkil etadi. Shuningdek, hisobotda informallik, sanitariya, ta’lim va isitish yoqilg‘isi bilan birga bank hisobraqami bo‘yicha mahrumlik ham kambag‘allikning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. Bu juda muhim nazariy va amaliy xulosa: moliyaviy tizimdan chetda qolish endi kambag‘allikning tashqi belgisi emas, balki uning ichki o‘lchamlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Hujjatda erkaklarda informallik yuqori hissa qo‘shayotgani, ayollarda esa ta’lim va sanitariya bilan bir qatorda ayrim ijtimoiy va infratuzilmaviy cheklanishlar ustun ekani qayd etiladi. Shu ma’noda, moliyaviy inklyuzivlik siyosati bir xil bo‘la olmaydi; u qishloq va shahar, ayol va erkak, daromad guruhlari va ijtimoiy holat bo‘yicha segmentlangan bo‘lishi kerak. Ushbu adabiyot maqolada aynan shuni asoslash uchun tanlangan: kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan bank-moliya siyosati faqat kredit hajmi bilan emas, balki qaysi deprivatsiyani yumshatayotgani bilan baholanishi kerak. O‘zbekiston modelida moliyaviy inklyuziya dasturlari qanchalik kuchli bo‘lmasin, agar bank hisobiga ega emaslik va informallik yuqori bo‘lib qolsa, demak siyosatning keyingi bosqichida quality of inclusion va multidimensional outcomes masalasiga ko‘proq e’tibor berish zarur bo‘ladi.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Mazkur maqolada moliyaviy inklyuzivlikning kambag‘allikni qisqartirishdagi samaradorligi rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi va O‘zbekiston modeli asosida **institutsional-deskriptiv, qiyosiy va natija-zanjiri yondashuvi** yordamida o‘rganildi. Tadqiqotning asosiy uslubiy g‘oyasi shundan iboratki, moliyaviy inklyuzivlikning ijtimoiy samarasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki bir necha oraliq bosqichlar orqali yuzaga chiqadi.

Metodologiyaning birinchi bosqichi **rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilish** bo‘ldi. IMFning 2023 yilgi CCA bo‘yicha ishchi hujjati asosida moliyaviy inklyuziya darajasi va uning gender, daromad va ta’lim bo‘yicha tafovutlari tahlil qilindi. U yerda CCA mamlakatlari moliyaviy inklyuziya bo‘yicha CEE davlatlaridan orqada ekani, bu tafovutning institutsional va infratuzilmaviy omillar bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi. IMFning 2024 yilgi “Systemic Implications of Financial Inclusion” hujjati esa rivojlanayotgan va emerging iqtisodiyotlarda kredit inklyuziyasi ayrim hollarda bank xavfini

kamaytirishi, ammo prudensial nazoratsiz bu jarayonning tizimli xatarlarni kuchaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu asosda metodologik faraz shakllantirildi: moliyaviy inklyuzivlik kambag‘allikni kamaytirishi mumkin, lekin bu ta’sir uning dizayni, segmentlanganligi va prudensial muvozanatiga bog‘liq. Demak, O‘zbekiston modelini baholashda “ko‘proq kirish doim yaxshiroq” degan soddalashtirilgan yondashuv yetarli emas, balki “qanday kirish, kim uchun kirish va qanday natija bilan” degan savollar ustuvor bo‘lishi kerak.

Ikkinchi bosqich **O‘zbekiston modelining institutsional xaritasini tuzish**dan iborat bo‘ldi. Bu yerda Markaziy bankning 2024 yilgi hisoboti asosida moliyaviy inklyuziya strategiyasi, oilaviy tadbirkorlik dasturlari, self-employed qatlamga yo‘naltirilgan kreditlar, iste’molchi huquqlarini himoya qilish, focus-group tadqiqotlari va 2025–2027 yillar uchun ishlab chiqilgan choralar yagona modelning tarkibiy qismlari sifatida ko‘rib chiqildi. Mazkur xaritalash shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston modelida moliyaviy inklyuziya uch qatlamli tizim ko‘rinishiga ega: birinchi qatlam — moliyaviy kirishni kengaytirish; ikkinchi qatlam — daromadli faoliyat va oilaviy tadbirkorlikni moliyalashtirish; uchinchi qatlam — iste’molchi himoyasi va moliyaviy savodxonlikni kuchaytirish. Shu tufayli O‘zbekiston modeli faqat “banklashuv” emas, balki “ijtimoiy maqsadli banklashuv” sifatida talqin qilindi. Ayniqsa yetti yil davomida 50 trillion so‘mdan ortiq kredit va 2,3 millionga yaqin kishi daromadli faoliyatga jalb qilingani modelning ommaviyligini, 751 ming muvaffaqiyatli qarz oluvchilar uchun 300 million so‘mgacha bosqichli mikrokreditlar joriy etilgani esa uning o‘sishga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi.

Uchinchi bosqich **ijtimoiy maqsadli guruhlarni segmentlash** bo‘ldi. Tadqiqotda moliyaviy inklyuzivlik siyosatining samaradorligini baholash uchun beshta asosiy guruh ajratildi: qishloq aholisi, ayollar, yoshlar, self-employed fuqarolar va kambag‘allik xavfi yuqori uy xo‘jaliklari. UNDP MPI hisobotida rural hududlarda bank hisobraqami bo‘yicha mahrumlik 17,8 foiz ekani, informallik esa kambag‘allikning muhim tarkibiy omillaridan biri ekanligi ko‘rsatiladi. Bu shuni anglatadiki, bank tizimining ijtimoiy yo‘naltirilgan modeli universal emas, balki segmentlangan bo‘lishi lozim. Masalan, qishloq aholisiga jismoniy va raqamli kirishni kengaytirish, ayollar uchun genderga sezgir mahsulotlar, self-employed qatlam uchun tranzaksiya va pul oqimiga tayangan skoring, yoshlar uchun kichik biznesga o‘tish imkoniyatini beradigan bosqichli kreditlar zarur bo‘ladi. Shu bois metodologiyada moliyaviy inklyuziya samaradorligi “umumiy qamrov” bilan emas, balki chetda qolayotgan guruhlar uchun qanchalik mos mahsulotlar yaratilgani bilan baholandi.

To‘rtinchi bosqich **natija zanjiri bo‘yicha tahlil** edi. Bu bosqichda moliyaviy inklyuziyaning ijtimoiy samarasini besh darajada o‘lchash taklif qilindi. Birinchi daraja — **kirish**, ya’ni hisob ochish, to‘lovlar, kichik kredit va raqamli moliyaviy xizmatlarga chiqish. Ikkinchi daraja — **real foydalanish**, ya’ni bank hisobraqami va boshqa mahsulotlar haqiqatan daromadli faoliyat, jamg‘arma yoki tadbirkorlik uchun ishlatiladimi. Uchinchi daraja — **barqarorlashuv**, bunda daromad va aylanma shakllanadi, kredit qaytimi va moliyaviy intizom paydo bo‘ladi. To‘rtinchi daraja — **kengayish**, ya’ni shaxs yoki xo‘jalik keyingi bosqich

moliyalashtirishga chiqib, o‘z faoliyatini kengaytira oladimi. Beshinchi daraja esa **ijtimoiy natija** bo‘lib, kambag‘allik xavfi kamayadimi, rasmiy bandlik va ijtimoiy himoyaga ulanish kuchayadimi, degan savollarga javob beradi. Bu model Jahon bankining kambag‘allik natijalari bilan bog‘liq ma’lumotlari hamda Markaziy bankning daromadli faoliyatga jalb etilganlar soni haqidagi ma’lumotlari bilan sinovdan o‘tkazildi. Shunday yondashuv moliyaviy inklyuzivlikni natijaviy siyosat sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Beshinchi bosqich **inklyuziv bandlik mezonlarini aniqlash**ga qaratildi. Bu yerda inklyuziv bandlik oddiy “ish bor” degan tushunchadan kengroq talqin qilinib, quyidagi uch ko‘rsatkich asosida baholandi: birinchisi, zaif guruhlar uchun moliyaviy kirishning kengayishi; ikkinchisi, bandlikning rasmiylashuvi va daromadlarning barqarorlashuvi; uchinchisi, ushbu faoliyatning keyinchalik qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish salohiyati. UNDPning ko‘p o‘lchovli kambag‘allik hisobotida informallik va bank hisobiga ega emaslik bir vaqtda mahrumlik manbai sifatida qayd etilgani, aynan shu mezonlarning to‘g‘riligini kuchaytiradi. ADBning underserved microentrepreneurs va women-led MSMElar bo‘yicha yondashuvi ham inklyuziv bandlikning aynan kim uchun yaratilayotganini hisobga olish kerakligini ko‘rsatadi. Shu sababli metodologiyada inklyuziv bandlikni faqat umumiy bandlik ko‘rsatkichlari bilan emas, balki chetda qolayotgan guruhlar uchun yaratilgan iqtisodiy imkoniyat sifatida o‘lchash taklif qilindi.

Oltinchi bosqich **muammolarni identifikatsiya qilish**dan iborat bo‘ldi. Tadqiqotda beshta asosiy muammo ajratildi. Birinchisi, moliyaviy kirish va real foydalanish o‘rtasida tafovut bo‘lishi mumkin; bank hisobraqami mavjud bo‘lsa ham, u iqtisodiy faollikka aylanmasligi mumkin. Ikkinchisi, rural hududlar va ayrim ijtimoiy qatlamlar uchun kirish sifati va imkoniyati hanuz teng emas. Uchinchisi, informallik yuqori bo‘lsa, moliyaviy inklyuzivlikning ijobiy ta’siri cheklanib qoladi. To‘rtinchisi, prudensial muvozanat buzilsa, ijtimoiy yo‘naltirilgan kreditlashning fiskal va moliyaviy xatarlari oshadi. Beshinchisi, consumer protection va moliyaviy savodxonlik yetarli bo‘lmasa, keng qamrovli moliyalashtirish kutgan natijani bermasligi mumkin. Aynan shu muammolar O‘zbekiston modelini rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi bilan qiyoslashda eng ko‘p takrorlanadigan zaif bo‘g‘inlar sifatida ko‘rindi.

Yettinchi bosqich **istiqbolli yechimlarni baholash**ga qaratildi. Bu yerda eng istiqbolli yo‘nalishlar sifatida quyidagilar ajratildi: segmentlangan va maqsadli moliyaviy mahsulotlar; 2025–2027 yillarga mo‘ljallangan yangi milliy moliyaviy inklyuziya strategiyasini chuqurlashtirish; rural va self-employed qatlam uchun tranzaksiya va pul oqimiga tayangan skoring; ayollar va kichik tadbirkorlar uchun maxsus inklyuziv moliya instrumentlari; consumer protection va financial literacy bloklarini kuchaytirish. Rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jismoniy kirish, fintech, rule of law va prudensial muvozanat birgalikda rivojlangandagina moliyaviy inklyuzivlik kambag‘allikni kamaytirishning samarali vositasiga aylanadi. O‘zbekiston modeli shu yo‘nalishda ancha chuqur siljigan, ammo sifat va segmentlash masalalarida keyingi bosqichga o‘tishi zarur.

Umumiy metodologik xulosa shuki, moliyaviy inklyuzivlik samaradorligini

baholash uchun uch darajali model eng maqbul: **birinchi daraja — kirish va ishonch**, **ikkinchi daraja — daromadli faoliyat va rasmiylashuv**, **uchinchi daraja — kambag‘allikning qisqarishi va inklyuziv bandlikning kengayishi**. Aynan shu yondashuv rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi bilan O‘zbekiston modelini bir tizimda taqqoslash va amaliy xulosalarga kelish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy inklyuzivlik rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag‘allikni kamaytirishning samarali, ammo murakkab vositasidir. IMFning mintaqaviy va tizimli tadqiqotlari moliyaviy inklyuziya gender, daromad, ta’lim va hududiy tafovutlar bilan chambarchas bog‘liq ekanini, shu bilan birga prudensial muvozanat va risk boshqaruvi bilan uyg‘unlashtirilganda uning ijobiy samarasini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston tajribasi bu umumiy xulosani tasdiqlaydi: moliyaviy inklyuziya strategiyasi, oilaviy tadbirkorlik dasturlari, self-employed qatlam uchun bosqichli moliyalashtirish va iste’molchi huquqlarini himoya qilish bo‘yicha choralar bank tizimini ijtimoiy yo‘naltirilgan modelga yaqinlashtirmoqda. Yaqin yillarda katta hajmdagi imtiyozli kreditlar, millionlab fuqarolarning daromadli faoliyatga jalb etilishi va yangi strategik choralar O‘zbekiston modelini mintaqadagi eng faol tajribalardan biriga aylantirmoqda.

Shu bilan birga, maqola ushbu modelning asosiy cheklovlarini ham ko‘rsatdi. Birinchidan, moliyaviy kirishning o‘zi kambag‘allikni kamaytirishga yetmaydi; bank mahsulotlari real foydalanish, daromad yaratish va rasmiylashuvga olib kelishi kerak. Ikkinchidan, qishloq hududlari, ayollar, yoshlar va informallik yuqori bo‘lgan qatlamlar uchun umumiy mahsulotlar yetarli emas; ular uchun segmentlangan yechimlar talab etiladi. Uchinchidan, bank hisobraqamiga ega emaslik va informallik kabi deprivatsiyalar hali ham kambag‘allikning tarkibiy omillari bo‘lib qolmoqda. To‘rtinchidan, moliyaviy inklyuziya siyosati prudensial muvozanatni e’tibordan chetda qoldirsa, qisqa muddatli ijtimoiy yutuqlar uzoq muddatli moliyaviy xatarlar bilan almashishi mumkin. Shu sababli samaradorlikni oshirish uchun siyosatning navbatdagi bosqichi sifat va natijaviylikka qaratilishi lozim.

Shu asosda birinchi taklif sifatida moliyaviy inklyuzivlik siyosatini baholashda **natija indikatorlari** tizimini kuchaytirish lozim. Bunda nechta hisob ochilgani yoki nechta kredit berilgani emas, balki nechta fuqaro rasmiy daromad tarixiga ega bo‘lgani, nechta self-employed kichik biznes bosqichiga o‘tgani, nechta rural yoki women-led loyiha keyingi bosqich moliyalashtirishga chiqqani, nechta ish o‘rni yaratilgani va qanchasi saqlanib qolgani muntazam o‘lchanishi kerak. Ikkinchi taklif — **segmentlangan moliyaviy mahsulotlar**ni kengaytirish. Rural aholi uchun kirish va raqamli to‘lovlar, self-employed qatlam uchun cash-flow based lending, ayollar uchun genderga sezgir kredit va qo‘shimcha maslahatlar, yoshlar uchun bosqichli mikromoliya mahsulotlari ancha samarali bo‘lishi mumkin. Uchinchi taklif — moliyaviy inklyuzivlik siyosatini **consumer protection va financial literacy** bilan yanada chuqur integratsiya qilish. To‘rtinchi taklif — prudensial me’yorlar va inklyuzivlik siyosatini birga ko‘rish; ya’ni kengayish va barqarorlik muvozanati doim saqlanishi kerak. Beshinchi taklif — O‘zbekiston modelining keyingi bosqichida moliyaviy inklyuziyani

multidimensional poverty indikatorlari bilan muntazam bog‘lab monitoring qilish maqsadga muvofiq.

Yakuniy xulosa shuki, moliyaviy inklyuzivlik rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag‘allikni kamaytirishning eng istiqbolli siyosiy instrumentlaridan biri bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston tajribasi bu instrumentning ommaviy qamrov, maqsadli kreditlash va strategik institutsional qo‘llab-quvvatlash orqali real ijtimoiy natija bera olishini ko‘rsatmoqda. Ammo haqiqiy samaradorlik moliyaviy inklyuziyaning qanchalik chuqur, sifatli va segmentlangan bo‘lishiga bog‘liq. Agar bank tizimi kirish, ishonch, rasmiylashuv va barqaror daromad zanjirini to‘liq qo‘llab-quvvatlay olsa, moliyaviy inklyuzivlik nafaqat banklashuv ko‘rsatkichi, balki kambag‘allikni qisqartirish va inklyuziv bandlikni rivojlantirishning real mexanizmiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Poghosyan, T. (2023). *The Anatomy of the Financial Inclusion Gap in the Caucasus and Central Asia*. IMF Working Paper 23/109.
2. Ben Naceur, S., Candelon, B., & Mugrabi, F. (2024). *Systemic Implications of Financial Inclusion*. IMF Working Paper 24/203.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). *Annual Report 2024*.
4. World Bank. (2024). *Uzbekistan Poverty and Equity Brief*.
5. UNDP, OPHI va CERR. (2024). *Uzbekistan Pilot Multidimensional Poverty Index Report 2023*.

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA INVESTITSION RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov
Samarqand davlat universiteti dotsenti, i.f.f.d

Annotatsiya. *Mazkur tezisda global iqtisodiy noaniqlik kuchayib borayotgan sharoitda tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda investitsion risklarni boshqarish mexanizmlari tizimli ravishda tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi moliyaviy sharoitlarning qat’iylashuvi, geoiqtisodiy fragmentatsiya va bozor beqarorligining ortishi bilan izohlanadi, bu esa ayniqsa kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun kapitalning mavjudligi va qiymatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.*

Kalit so‘zlar: *tadbirkorlikni moliyalashtirish, investitsion risk, risklarni boshqarish mexanizmlari, kichik va o‘rta biznes, venchur capital, bosqichma-bosqich moliyalashtirish, riskni bo‘lish instrumentlari, kredit kafolatlari, aralash moliyalash, diversifikatsiya, moliyaviy barqarorlik, rivojlanayotgan bozorlar*

Abstract. *This study presents a systematic analysis of investment risk management mechanisms within the framework of entrepreneurial financing, specifically addressing the challenges posed by escalating global economic uncertainty. The research highlights the critical importance of these mechanisms*

in the face of tightening financial conditions, geo-economic fragmentation, and heightened market volatility-factors that profoundly influence capital accessibility and cost for small and medium-sized enterprises.

Keywords: *entrepreneurial finance, investment risk, risk mitigation mechanisms, small and medium-sized enterprise, venture capital, staged financing, risk-sharing instruments, credit guarantees, blended finance, portfolio diversification, financial resilience, emerging markets.*

Jahon iqtisodiyotida so‘nggi yillarda foiz stavkalarining nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishi, geoiqtisodiy taranglik, savdo cheklovlari va bozor noaniqligining kuchayishi tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish jarayonida investitsion risklarni boshqarish masalasini yanada dolzarb qildi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ning 2026-yilgi hisobotida[23] yangi kichik va o‘rta biznes kreditlari tiklanayotgan bo‘lsa-da, umumiy kredit portfeli sust o‘sayotgani, bu esa korxonalar likvidligi va investitsion faolligiga bosim qilayotganini qayd etadi. Hisobotda moliyalashtirish sharoitlari hanuz yuqori noaniqlik va geosiyosiy risklar fonida shakllanayotgani ta’kidlanadi.

Investitsion risk tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda kapital qo‘yilmasi natijadorligining kutilgan darajadan chetlanishi, pul oqimlarining buzilishi, qarzga xizmat ko‘rsatish qobiliyatining pasayishi, loyiha qiymatining kamayishi yoki investor kutgan daromadlilikning amalga oshmasligi bilan namoyon bo‘ladi. Mazkur risklar bozor, kredit, likvidlik, valyuta, foiz, institutsional, axborot nomutanosibligi va boshqaruv sifati bilan bog‘liq omillar ta’sirida kuchayadi. BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD)ning *“Jahon investitsiyalari hisoboti-2025”* ma’lumotlariga ko‘ra[24], xalqaro investitsiya muhitiga savdo tarangliklari, siyosiy noaniqlik va fragmentatsiya bosim o‘tkazmoqda, bu esa ayniqsa rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda kapital narxi va investitsion ehtiyotkorlikni oshirmoqda.

Bunday iqtisodiy noaniqlik sharoitida tadbirkorlikni moliyalashtirishda investitsion risklarni boshqarish mexanizmlarini an’anaviy *“riskni kamaytirish”* doirasidan chiqarib, kapitalni jalb qilish, qayta taqsimlash, himoyalash va monitoring qilishning integratsiyalashgan tizimi sifatida ko‘rish zaruriyati oshib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda investitsion risklarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini tizimlashtirish, ularning iqtisodiy mazmunini ochib berish va amaliy qo‘llash bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda investitsion risklarni boshqarish mexanizmlari asosan institutsional-seleksiya mexanizmlari, moliyaviy-taqsimlovchi mexanizmlar, portfel-diversifikatsion mexanizmlar, kafolat va riskni bo‘lish mexanizmlari hamda monitoring-nazorat mexanizmlari kabi besh asosiy blokka ajratiladi.

Birinchi mexanizm - investitsiya oldi seleksiya va loyiqlikni tekshirish.

[23] OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs 2026. – Paris : OECD Publishing, 2026.
[24] UNCTAD. World Investment Report 2025. – Geneva : United Nations, 2025.

Tadbirkorlik subyektlari uchun investitsion risklarning muhim qismi axborot nomutanosibligidan kelib chiqadi. Investor korxonaning real moliyaviy holati, boshqaruv sifati, bozor salohiyati va texnologik tayyorgarligi haqida to‘liq axborotga ega bo‘lmasa, noto‘g‘ri baholash xavfi oshadi. Shu bois xalqaro amaliyotda investitsiyadan oldingi kompleks loyiqlikni tekshirish *(due diligence)* ya’ni moliyaviy, huquqiy, texnologik va bozor auditi kabilar investitsion riskni boshqarishning boshlang‘ich mexanizmi sifatida qaraladi. IHTTning davlat venchur kapitali bo‘yicha ishida[25] ham fond dizayni, tanlov mezonlari va hamkor investorlar bilan ishlash sifati riskni kamaytirishda markaziy omil sifatida ko‘riladi.

Ikkinchi mexanizm - bosqichma-bosqich moliyalashtirish. Venchur kapital amaliyotida bosqichma-bosqich moliyalashtirish *(staged financing)* noaniqlik yuqori bo‘lgan loyihalarda kapitalni bir yo‘la emas, balki natijalar va nazorat nuqta *(milestone)*lar asosida bosqichlar bo‘yicha ajratishni anglatadi. Bu mexanizm investor uchun *“real opsion”* xususiyatini yaratadi ya’ni loyiha ijobiy dinamika ko‘rsatsa, keyingi bosqich ochiladi, aks holda investor zararni cheklaydi. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar[26] texnologik noaniqlik va institutlar sifati venchur investorlarning keyingi bosqich investitsiya qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Demak, bosqichma-bosqich moliyalashtirish riskni kamaytirish bilan birga, kapitalni intizomli monitoring vositasiga ham aylantiradi.

Uchinchi mexanizm - investitsion sindikatsiya va hamkor moliyalashtirish. Bunda bir investor yoki bitta fond riskni yolg‘iz o‘z zimmasiga olmaydi, balki boshqa investorlar bilan birgalikda ishtirok etadi. Sindikatsiya riskni bir necha subyekt o‘rtasida taqsimlash, sohaviy ekspertizani birlashtirish, mahalliy bozor haqidagi axborotni chuqurlashtirish va post-investitsion nazoratni kuchaytirish imkonini beradi. 2025-yilgi tadqiqotlar[27] ayniqsa transchegaraviy bitimlarda sindikat tarkibi vakillik xarajatlari bilan resurs ustunliklari o‘rtasidagi muvozanatni belgilashini ko‘rsatadi. Bu holat tadbirkorlikni moliyalashtirishda sindikatsiya nafaqat riskni taqsimlash, balki riskni professionallashtirish mexanizmi ekanini anglatadi.

To‘rtinchi mexanizm - diversifikatsiya. Investitsion risklarni boshqarishda portfelni tarmoqlar, hududlar, biznes bosqichlari va moliyalashtirish instrumentlari bo‘yicha diversifikatsiya qilish klassik, lekin hali ham eng samarali mexanizmlardan biridir. Ayniqsa noaniqlik kuchaygan davrda bitta tarmoq, bitta bozor yoki bitta moliyalashtirish kanaliga yuqori bog‘liqlik tadbirkorlik subyektining moliyaviy barqarorligini susaytiradi. UNCTAD[28] 2025-yilda global investitsiya oqimlarida sektor va geografiya bo‘yicha fragmentatsiya kuchayayotganini qayd etadib o‘tgan. Bu esa tadbirkorlar va investorlar uchun diversifikatsiya strategiyasini kuchaytirish zarurligini bildiradi.

---

[25] OECD. Understanding Government Venture Capital. – Paris : OECD Science, Technology and Industry Working Papers, 2025.

[26] Hao B. Institutions, Uncertainty, and Venture Capital Staged Investments // Journal of International Financial Markets, Institutions and Money. – 2025.

[27] Kollmann H. va boshq. Syndicate Formation in Venture Capital Cross-Border Investments // Research in International Business and Finance. – 2025.

[28] UNCTAD. World Investment Report 2025. – Geneva : United Nations, 2025.

Beshinchi mexanizm - kafolat va riskni bo‘lish instrumentlari. So‘nggi yillarda kredit kafolatlari, portfel kafolatlari, dastlabki yo‘qotishlarni qoplash *(first-loss)* tuzilmalari va risklarni birgalikda baham ko‘rish tizimlar *(risk-sharing facility)* tadbirkorlikni moliyalashtirishida eng muhim mexanizmlardan biriga aylandi. IHTT tomonidan e’lon qilingan hisobotda[29] kredit kafolatlari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat moliyalash instrumentlari startaplar hamda innovatsion kichik va o‘rta bizneslar uchun tobora ko‘proq yo‘naltirilayotgani ko‘rsatilgan. Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) amaliyotida[30] esa risklarni birgalikda baham ko‘rish tizimi banklarning kichik va o‘rta bizneslar segmentiga nisbatan risk appetitini oshirish uchun qo‘llanadi. Masalan, 2025–2026-yillardagi bir qator bitimlarda XMK banklar bilan portfelning 50 foizigacha kredit riskini bo‘lishish modelini qo‘llagan. Bu mexanizm ikki tomonlama samara beradi. Bir tomondan, investor yoki bank uchun potentsial yo‘qotish cheklanadi, ikkinchi tomondan esa tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaga kirish imkoniyati kengayadi.

Oltinchi mexanizm - aralash moliyalashtirish. Jahon banki va XMK materiallarida[31] aralash moliyalashtirish *(blended finance)* xususiy investorlar uchun yuqori bo‘lgan riskni qayta taqsimlash va ayrim hollarda yumshatish orqali iqtisodiy jihatdan yetarli darajada jozibador bo‘lmagan loyihalarga kapitalni jalb etish vositasi sifatida talqin qilinadi. Muhim jihat shundaki, risk yo‘qolmaydi, balki imtiyozli shartlardagi kapital *(concessional capital)*, grant, kafolat yoki subordinatsiyalangan qatlamlar orqali qayta taqsimlanadi. Shu sababli aralash moliyalashtirish, ayniqsa, innovatsion, yashil, agrar va ayollar tadbirkorligi kabi segmentlarda investitsion risklarni boshqarishning institutsional mexanizmi sifatida ahamiyatlidir.

Yettinchi mexanizm - post-investitsion monitoring va kovenantlar tizimi. Kapital qo‘yilgandan so‘ng risk boshqaruvi tugamaydi, aksincha, uning eng muhim bosqichi boshlanadi. Xalqaro amaliyotda bu monitoring hisobotlari, kovenantlar, nazorat nuqtalarning asosiy samaradorlik indikator (KPI)lari, pul oqimi triggerlari, kuzatuv kengashi ishtiroki va erta ogohlantirish indikatorlari orqali amalga oshiriladi. IHTT va xalqaro ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki[32], ayniqsa kapital bilan ta’minlangan *(equity-backed)* firmalarda investorning faol ishtiroki korxona yashovchanligini oshirishi mumkin. Shunday ekan, investitsion risklarni boshqarish mexanizmlarini faqat *“kapital ajratish”* bilan cheklab bo‘lmaydi. Ular *“kapitalni kuzatish va qayta sozlash”* tizimi bilan to‘ldirilishi shart.

Sakkizinchi mexanizm - makro noaniqlikka mos adaptiv moliyalashtirish strategiyasi. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ)ning materiallarida[33] noaniqlik

[29] OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs 2026. – Paris: OECD Publishing, 2026.
[30] IFC. IFC and FirstRand Bank Set Up Risk-Sharing Facility to Boost Access to Finance for SMEs in South Africa. – 2025.,
[31] World Bank. State of Blended Finance 2024. – Washington, D.C.: World Bank Group, 2025., World Bank. Blended Finance Public Private Partnership. – Washington, D.C.: World Bank Group, 2026., IFC. Portfolio Guarantees. – Washington, D.C.: International Finance Corporation, 2026.
[32] Kacer M. Entrepreneurial Finance and the Survival of Equity-Funded Firms // Small Business Economics. – 2025.
[33] IMF. Uncertainty about Uncertainty // Finance & Development. – 2025.

oshishi investitsiyalarni susaytirishi, risk premiumlarini ko‘tarishi va qarz qiymatini qimmatlashtirishini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, tadbirkorlikni moliyalashda risklarni boshqarish bir martalik qaror emas, balki foiz, valyuta, talab va siyosiy risklarning dinamikasiga moslashuvchi adaptiv strategiya bo‘lishi kerak. Bunda qayta moliyalashtirish imkoniyatlari, foiz riskini hedj qilish, valyuta nomutanosibligini kamaytirish va likvidlik yostiqchalarini shakllantirish muhim o‘rin tutadi.

Yuqoridagi tahlil asosida tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish jarayonida investitsion risklarni boshqarish mexanizmlari alohida vositalar yig‘indisi emas, balki ***“seleksiya - bosqichlash - taqsimlash - kafolatlash - monitoring - qayta sozlash”*** ketma-ketligiga asoslangan integratsiyalashgan tizimdir. Mazkur tizim qanchalik kompleks tashkil etilsa, investitsiya resurslarining yo‘qotish ehtimoli shunchalik pasayadi va kapitalning tadbirkorlikka oqimi shunchalik barqaror bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda investitsion risklarni boshqarishning eng samarali yo‘li riskni butunlay bartaraf etish emas, balki uni aniqlash, baholash, bosqichlash, qayta taqsimlash va doimiy monitoring qilishdan iborat. Global investitsiya muhitida noaniqlik yuqori bo‘lib qolayotgan bir paytda, tadbirkorlik subyektlari va investorlar uchun loyiqlikni tekshirish, bosqichma-bosqich moliyalashtirish, sendikatlash, diversifikatsiya, kredit kafolatlari, risklarni birgalikda baham ko‘rish tizimlar va aralash moliyalashtirish kabi mexanizmlar amaliy jihatdan eng muhim vositalar bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, tadbirkorlikni moliyalashtirish amaliyotida investitsiya oldi ekspertizasining yagona standartlari joriy etilishi zarur. Bu investorlar uchun axborot nomutanosibligini kamaytiradi va kapital bahosini pasaytiradi.

Ikkinchidan, yuqori noaniqlik sharoitida startaplar va innovatsion korxonalarni moliyalashtirishda bosqichma-bosqich moliyalashtirish modeli ustuvor qo‘llanishi lozim. Bu mexanizm kapital yo‘qotilishini cheklab, natijaga asoslangan nazoratni kuchaytiradi.

Uchinchidan, kichik biznes va startaplar uchun davlat, taraqqiyot institutlari va xususiy sektor ishtirokidagi kredit kafolatlari hamda risklarni birgalikda baham ko‘rish mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bu nafaqat riskni kamaytiradi, balki moliyaga kirish imkoniyatini ham kengaytiradi.

To‘rtinchidan, investorlar portfelini tarmoq, hudud va instrumentlar bo‘yicha diversifikatsiya qilishni institutsional siyosat darajasiga ko‘tarish lozim. Ayniqsa geosiyosiy va bozor noaniqligi kuchaygan davrda bu mexanizm tizimli yo‘qotishlarni kamaytiradi.

Beshinchidan, post-investitsion monitoringda kovenantlar, KPI, pul oqimi triggerlari va erta ogohlantirish indikatorlariga asoslangan nazorat tizimlari joriy qilinishi zarur. Investitsion risk boshqaruvi kapital qo‘yish vaqtida emas, butun investitsiya sikli davomida ishlashi kerak.

Oltinchidan, O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlikni moliyalashtirish infratuzilmasini takomillashtirish uchun davlat kafolatlari, qo‘shma investitsiya

fondlari, dastlabki yo‘qotishlarni qoplash mexanizmlari va aralash moliyalashtirish platformalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu amaliy chora innovatsion va yuqori riskli, ammo iqtisodiy jihatdan istiqbolli loyihalarning moliyalashtirilishini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. OECD. *Financing SMEs and Entrepreneurs 2026*. – Paris : OECD Publishing, 2026.
2. OECD. *OECD Financing SMEs and Entrepreneurs Scoreboard 2025 Highlights*. – Paris : OECD Publishing, 2025.
3. OECD. *Understanding Government Venture Capital*. – Paris : OECD Science, Technology and Industry Working Papers, 2025.
4. OECD. *What is the Role of Government Venture Capital for Innovation-Driven Entrepreneurship?* – Paris : OECD, 2024.
5. UNCTAD. *World Investment Report 2025*. – Geneva : United Nations, 2025.
6. IFC. *Portfolio Guarantees*. – Washington, D.C. : International Finance Corporation, 2026.
7. IFC. *IFC and FirstRand Bank Set Up Risk-Sharing Facility to Boost Access to Finance for SMEs in South Africa*. – 2025.
8. IFC. *IFC and Habib Metropolitan Bank Partner to Expand SME Finance in Pakistan*. – 2026.
9. World Bank. *State of Blended Finance 2024*. – Washington, D.C. : World Bank Group, 2025.
10. World Bank. *Blended Finance Public Private Partnership*. – Washington, D.C. : World Bank Group, 2026.
11. Hao B. *Institutions, Uncertainty, and Venture Capital Staged Investments* // Journal of International Financial Markets, Institutions and Money. – 2025.
12. Kollmann H. va boshq. *Syndicate Formation in Venture Capital Cross-Border Investments* // Research in International Business and Finance. – 2025.
13. Kacer M. *Entrepreneurial Finance and the Survival of Equity-Funded Firms* // Small Business Economics. – 2025.
14. IMF. *Uncertainty about Uncertainty* // Finance & Development. – 2025.

KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TAMINLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI

Djurayeva Maxzuna Azamovna
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti o'qituvchisi.
E-mail:jurayeva.maxzuna@.edu.uz
Nabiyeva Malika Elmurod qizi
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti talabasi.
E-mail:malikanabiyeva669@gmail.com

Anotatsiya*: Mazkur maqolada kichik va o'rta biznes subyektlarini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish hamda aholi bandligini ta'minlashda tijorat banklarining o'rni tahlil qilinadi. Bank kreditlari, moliyaviy xizmatlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining iqtisodiy rivojlanish va yangi ish o'rinlari yaratishdagi ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar*: Bank, kredit, biznes, startap loyiha, foiz stavkasi.*

KIRISH QISM. Hozirgi kunda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish hamda kambag'allikni qisqartirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda kichik va o'rta biznes subyektlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yangi ish o'rinlari yaratish, aholi bandligini ta'minlash hamda iqtisodiyotning turli sohalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada ushbu jarayonning iqtisodiy ahamiyati hamda tijorat banklarining mazkur yo'nalishdagi faoliyati tahlil qilinadi.

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqotda kichik va o'rta biznes subyektlarini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashda tijorat banklarining o'rnini o'rganish uchun bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usullari orqali kichik va o'rta biznesni rivojlantirish hamda tijorat banklarining kredit siyosati bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar va iqtisodiy manbalar o'rganildi. Bundan tashqari, tizimli yondashuv asosida tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganildi hamda ularning kambag'allikni qisqartirish va yangi ish o'rinlari yaratishdagi ahamiyati aniqlab berildi. Mazkur metodologiya tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi muammolar:

1.Kredit olishdagi qiyinchiliklar.

2.Foiz stavkalarining yuqoriligi.

3.Startap loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar.

Shunga qaramasdan yurtimizda, aholining turmush tarzini yaxshilash maqsadida ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda, biroq o'z yechimini topib ulgurmagan masalalar hali hanuz mavjud bo'lib shulardan biri kredit olishdagi muammolarga yechim sifatida quyidagilarni taqdim etmoqdaman.

1)Kredit olishdagi qiyinchiliklar.

Yechim: 1.Imtiyozli kredit dasturlarini kengaytirish.

2.Kredit olish jarayonini raqamlashtirish.

3.Kredit kafillik jamg‘armalarini rivojlantirish.

4.Tadbirkorlar uchun maslahat va treninglar tashkil etish.

Bundan tashqari, mamlakatimizda ham shunga o’xshash g’oya va tashabbuslar ilgari surib kelinmoqda, misol sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-son hamda “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” qonunlar imzoladi.

2) Foiz stavkasining yuqoriligi.

Yechim:Kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun kredit foiz stavkalarini kamaytirish maqsadida davlat tomonidan imtiyozli kredit dasturlarini kengaytirish hamda tijorat banklariga subsidiyalar ajratish zarur. Bu tadbirkorlar uchun kreditlarni arzonlashtirib, biznesni rivojlantirish va yangi ish o‘rinlari yaratishga yordam beradi.

Markaziy bank boshqaruvi 2024-yil 25-iyuldagi yig‘ilishida asosiy stavkani 0,5 foiz bandga pasaytirib, yillik 13,5 foiz darajasida belgilash to‘g‘risida qaror qabul qildi.Inflyatsiyaning kutilayotgan dinamikasi va inflyatsiyani oshiruvchi xatarlarning kamayganligini inobatga olib, Markaziy bank boshqaruvi asosiy stavkani 0,5 foiz bandga pasaytirib, yillik 13,5 foiz darajasida belgilash to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Markaziy bank tomonidan asosiy stavkaning pasaytirilishi iqtisodiyotda kredit resurslarining arzonlashishiga xizmat qiladi. Bu esa tijorat banklari orqali kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishni kengaytirishga yo’l ochadi.

3) Startap loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar.

Yechim: Startap loyihalashtirishdagi muammolarni bartaraf etish uchun moliyaviy resurslarni grantlar va imtiyozli kreditlar orqali ta’minlash, tadbirkorlar uchun trening va inkubatsiya dasturlarini tashkil etish, bozorni chuqur tahlil qilish hamda investitsiya va texnologik imkoniyatlarni kengaytirish zarur.

Shuningdek,O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.02.2026 Pq-59-sonliqaroriga muvofiq: Startaplarni qo‘llab-quvvatlashning kompleks ekotizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidaQuyidagilar 2030-yilga qadar startap ekotizimini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari etib belgilansin:

(a) startap loyihalar sonini 5 mingtaga hamda jalb qilingan venchur investitsiyalar hajmini 2 milliard AQSH dollariga yetkazish;

(b) startap loyihalar ishga tushishi natijasida 20 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlarini yaratish;

XULOSA. Kichik va o‘rta biznes subyektlarini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlashda tijorat banklarining o‘rni muhimdir. Banklar tomonidan ajratiladigan kreditlar, past foizli imtiyozli dasturlar va moliyaviy xizmatlar tadbirkorlikni rivojlantirish, startap loyihalarni amalga oshirish va yangi ish o‘rinlari yaratishga katta hissa qo‘shadi. Shu bilan

birga, kredit olishdagi qiyinchiliklar, foiz stavkalarining yuqoriligi va moliyaviy savodxonlik yetishmasligi kabi muammolar mavjud. Ushbu muammolarni hal etish uchun banklar jarayonlarni soddalashtirishi, garov talablarini yengillashtirishi, raqamli tizimlar orqali kredit arizalarini tezkor ko‘rib chiqishi va tadbirkorlarga trening hamda maslahatlar berishi lozim

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.https://cub.uz O‘zbekiston respublikasi Markaziy banki.

2.Djurayeva M,Nabiyeva.M.E Yashil iqtisodiyot- barqaror rivojlanishning kafolati. https://doi.org/105281/zenodo.17902912.

3.https://president.uz O‘zbekiston respublikasi hukumat portali.

4.https://sqb.uz Sanoat qurilish banki.Bank faoiliyatiga oid qonunchilik va ichki me’yorlar.

ИҚТИСОДИЁТДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШДА РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ВА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР

Сабиров Бекзод Илхомович
ТДИУ, мустақил изланувчи

Анотация. *Иқтисодиётда ахборот тизимлари ва технологиялари (АТИТ) ихтисослиги замонавий иқтисодиётнинг асосий қисмларидан бирига айланиб келмоқда. Бу ихтисослик иқтисодий жараёнларни рақамлаштириш, автоматизация ва инновацион ёндашувлар орқали камбағилликни қисқартиришга таъминлашга ҳам қаратилган. Мақолада иқтисодиётда камбағалликни қисқартиришда рақамли трансформация ва инновацион ёндашувлар тизими ўрганилган ва хориж тажрибаси билан таққосланган.*

Abstract. *The specialty of information systems and technologies in economics (ITS) is becoming one of the main parts of the modern economy. This specialty is also aimed at ensuring poverty reduction through digitalization, automation and innovative approaches to economic processes. The article studies the system of digital transformation and innovative approaches in poverty reduction in the economy and compares it with foreign experience.*

2020 йил 5 октябрдаги №ПҚ-6079 сонли Президент қарорига асосан Ўзбекистонда рақамли трансформация “Digital Uzbekistan – 2030” стратегияси доирасида амалга оширилмоқда, бу эса иқтисодий ўсишнинг янги босқичини яратади. Масалан, 2023 йилда АКТ соҳаси ЯИМга 2,1% ҳисса қўшган, бу рақамли иқтисодиётнинг ўсишини кўрсатади. Бу статистика Ўзбекистоннинг рақамли инфратузилмага 2,5 миллиард доллар сарфлаётганини ҳам таъкидлайди, бу соҳанинг иқтисодий аҳамиятини шарҳлайди.

Рақамли трансформация ва бизнес-процессларнинг

автоматизацияси. Рақамли трансформация иқтисодиётнинг барча соҳаларида бизнес-процессларни оптималлаштиришга олиб келади. Бу жараён орқали корхоналар самарадорлигини оширади, харажатларни камайтиради ва рақобатбардошлигини кучайтиради. Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётнинг ўсиши 2023 йилда АКТ хизматлари ҳажмини 32,2 триллион сўмга етказди, бу ўтган йилга нисбатан 24,6% ўсишни ташкил этади. Бу статистика рақамли трансформациянинг иқтисодий ўсишга ҳиссасини шарҳлайди: телекоммуникация хизматлари 54,7% улушга эга бўлиб, соҳанинг асосий ҳаракатлантирувчи кучи сифатида кўрсатади.

Автоматизация бизнес-процессларнинг самарадорлигини оширишда муҳим рол ўйнайди. Замонавий техналогик ечимлар, масалан, ERP-тизимлари орқали ҳисоб-китоблар, инвентаризация ва молиявий мониторинглар автоматик ҳолда амалга оширилади. Автоматизация қўл меҳнатини камайтириб, инсон хатоларини сезиларли даражада (25–90%) пасайтиради ва ишлаб чиқариш самарадорлигини 20–30% га оширади (ResearchGate, 2024; HBR, 2023)

Иқтисодиётда АТИТ ихтисослиги рақамли трансформацияни амалга ошириш учун мутахассислар тайёрлайди. Бу ихтисослик доирасида ўқувчилар бизнес-процессларни моделлаштириш, маълумотлар таҳлили ва автоматизация тизимларини ўрганадилар.

Иқтисодиётда камбағалликни қисқартиришда замонавий дастурлардан фойдаланишнинг ўзига хос томонлари. Молиявий барқарорлик иқтисодиётнинг устувор вазифаларидан бири. Техналогик ечимлар, хусусан молиявий шаффофликни таъминловчи замонавий дастурлар, бу жараёнда муҳим рол ўйнайди. Масалан, OneStream ёки QuickBooks каби дастурлар молиявий ҳисоботларни автоматик ҳолда тайёрлайди ва реал вақтда маълумотларни таҳлил қилади. Бу дастурларнинг афзалликлари: автоматизация орқали хатоларни сезиларли даражада камайтириш ва ҳисобот вақтини қисқартириш. Бу статистика молиявий шаффофликни ошириб, корхоналарнинг ишончлилигини кучайтиришини шарҳлайди.

Дастурларнинг ижобий томонлари: реал вақтда мониторинглар, маълумотларнинг юқори даражали ҳимояси ва интеграция имкониятлари. Масалан, HubiFi дастурлари даромадларни автоматик ҳисоблайди, бу молиявий барқарорликни таъминлайди. Салбий томонлари: юқори нарх (кичик корхоналар учун қиммат), ўрнатиш мураккаблиги ва маълумотлар ҳимояси хавфи. Нотўғри дастур танлаш ва унинг жорий этилиши корхоналар учун катта молиявий ва операцион зарарларга олиб келади, бу илмий адабиёт ва амалий тадқиқотларда кенг ўрганилган. Gartner тадқиқотларига кўра, ERP тизимларини жорий этиш лойиҳаларининг 70% га яқини ўз мақсадларига эришмайди, бу эса ўртача бюджетнинг 189% га ошиши ва лойиҳанинг умумий зарарга айланишига сабаб бўлади (ECI Software Solutions, 2025; Pemeco Consulting).

Ўзбекистонда молиявий шаффофликни таъминловчи дастурлар “Digital Uzbekistan – 2030” доирасида жорий этилмоқда, бу эса молиявий

барқарорликни оширишга хизмат қилади.

Инновацион ёндашув ва кадрлар тайёрлаш дастурлари. Инновацион ёндашув АТИТ ихтисослигида асосий ўринни эгаллайди. Бу ёндашув техналогик ечимлар орқали янги моделларни яратишни ўз ичига олади. Ўзбекистонда сунъий интеллект стратегияси 2030 йилгача 430 минг иш ўрни яратишни ва ЯИМга 10 миллиард доллар қўшишни режалаштирган. Бу статистика инновацион ёндашувнинг иқтисодий ўсишга таъсирини шарҳлайди.

Кадрлар тайёрлаш дастурлари муҳим аҳамиятга эга. World Economic Forum ҳисоботига кўра, 2025–2030 йилларда ходимларнинг 39% малакаси ўзгаради ва 59% қайта ўқитишни талаб этади. Бу маълумот техналогиялар ўзгаришига мослашиш заруратини шарҳлайди. Ўзбекистонда “One Million Uzbek Coders” дастури рақамли малака оширишга қаратилган, у 2019 йилдан бери фойдаланилмоқда ва минглаб иштирокчиларни жалб қилган.

АТИТ ихтисослиги ўқувчиларининг малакасини ошириш учун онлайн-курслар таклиф этилади. Бу дастурлар иқтисодиётдаги рақамли ўзгаришларга тайёргарлик кўради.

Мониторинглар ва дастурларнинг ижобий ва салбий томонлари

Мониторинглар молиявий ва бизнес-процессларни назорат қилишда муҳим. Замонавий тизимлар реал вақтда маълумотларни таҳлил қилади, бу хавфларни камайтиради. Дастурларнинг ижобий томонлари: автоматизация, шаффофлик ва самарадорлик. Салбий томонлари: юқори нарх, ўқитиш талаби ва киберхавфсизлик хавфи. Кўплаб тадқиқотлар IT инвестициялари иқтисодий ўсиш ва иш ўринлари яратишга ижобий таъсир қилишини исботлайди: масалан, AI га инвестиция қилган фирмаларда савдо ва ишчилар сони бир хил даражада (йиллик ~2%) ўсади (Brookings, 2025). Бироқ нотўғри танловлар (хусусан ERP ва корпоратив дастурлар) жиддий молиявий ва операцион зарарларга олиб келади. 2025 йил маълумотларига кўра:

ERP лойиҳаларининг 68–73% и мақсадга эришмайди (Panorama Consulting, Godlan).

Ўртача бюджет 189% га, дискрет ишлаб чиқаришда эса 215% га ошади.

Баъзи ҳолларда зарар юзлаб миллион долларга етади (масалан, Knight Capital — $440 млн, TSB Bank — $500+ млн).

Бу мисоллар ва статистика дастурларни танлашда инновацион ёндашув — яъни бизнес эҳтиёжларини чуқур таҳлил қилиш, пилот-лойиҳалар ўтказиш, ходимларни ўқитиш ва узоқ муддатли самарадорликни баҳолаш — зарурлигини яна бир бор таъкидлайди.

Хулоса. Иқтисодиётда АТИТ ихтисослиги рақамли трансформация, автоматизация ва инновацион ёндашувлар орқали иқтисодий ўсишни таъминлайди. Статистика ва адабиётлар бу соҳанинг долзарблигини исботлайди: Ўзбекистонда рақамли иқтисодиёт ЯИМни сезиларли даражада оширишни режалаштирган. Келажакда кадрлар тайёрлаш ва молиявий шаффофликни таъминловчи дастурлар муҳим бўлади. Бу ихтисослик иқтисодиётнинг рақамли келажагини шакллантиради.

Етакчи ривожланган давлатлар амалиётидан мисоллар кўрсатадики, рақамли трансформация иқтисодий ўсишнинг асосий ҳаракатлантирувчи кучига айланган. Масалан, АҚШда рақамли иқтисодиёт умумий иқтисодиётнинг 18% ни ташкил этади, бу эса янги технологияларга инвестициялар, киберхавфсизлик ва электрон савдо соҳаларида етакчиликни таъминлайди. Германияда саноат рақамлилаштириш (Industry 4.0) саноат қийматининг 41,8% ни таъминлайди, бу автоматизация ва робототехника орқали самарадорликни оширган. Японияда “New Robot Strategy” дастури рақамли хизматлар соҳасини 53,3% га етказган, бу инновацион ёндашувлар орқали иқтисодий ўсишни таъминлайди. Жанубий Кореяда рақамли технологиялар 2030 йилгача 236 миллиард доллар қўшимча қиймат яратади, бу ЯИМнинг 13% га тенг бўлиб, рақамли малака ва инновацияларга асосланган. Бу мисоллар Ўзбекистон учун рақамли трансформациянинг самарали амалиётини кўрсатади, уларни ўзимизнинг шароитимизга мослаштириш орқали иқтисодий барқарорликни ошириш мумкин.

Таклифлар

АТИТ ихтисослигини ривожлантириш орқали камбағалликни қисқартириш учун қуйидаги таклифларни амалга ошириш тавсия этилади:

1. **Кадрлар тайёрлашни кучайтириш**: Ўзбекистонда “One Million Uzbek Coders” дастурини кенгайтириб, АҚШ ва Германия амалиётидан ўрнак олиб, рақамли малака ошириш учун онлайн-платформалар ва корпоратив ҳамкорликни жорий этиш. Бу ходимларнинг 50% ини қайта ўқитишни таъминлайди.
2. **Инновацион ёндашувларни қўллаш**: Япония ва Жанубий Корея мисолида, робототехника ва сунъий интеллект соҳаларида давлат инвестицияларини ошириш, бу ЯИМ ўсишини 30% га етказиши мумкин.
3. **Молиявий шаффофликни таъминлаш**: Германия ва АҚШ амалиётидан фойдаланиб, замонавий дастурлар (масалан, ERP ва AI-асосли тизимлар) ни жорий этиш, бу хатоларни 90% га камайтириб, бизнес самарадорлигини оширади.
4. **Мониторинглар ва автоматизацияни ривожлантириш**: Ривожланган давлатлар мисолида, реал вақт мониторингларини кучайтириш, бу хавфларни камайтириб, иқтисодий барқарорликни таъминлайди.
5. **Халқаро ҳамкорлик**: OECD ва World Bank билан ҳамкорликда, рақамли инфратузилмани ривожлантириш, бу Ўзбекистоннинг рақамли иқтисодиётини глобал даражага чиқаради.

Бу таклифлар амалга оширилса, АТИТ ихтисослиги Ўзбекистон иқтисодиётини ривожланган давлатлар даражасига етказади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. UNDP (2025). Digital Economy of Uzbekistan: The State of Digital Entrepreneurship and Artificial Intelligence. – Тошкент: UNDP.
2. World Bank (2024). At Your Service: The Promise of Services-led Growth in Uzbekistan. – Вашингтон: World Bank.

3. World Economic Forum (2025). The Future of Jobs Report 2025. – Женева: WEF.
4. IT Park Uzbekistan (2024). One Million Uzbek Coders лойиҳаси ҳисоботи.
5. Собиров, И. Х., and Ш. Атабаева. "РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА МАСОФАВИЙ БАНК ХИЗМАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ." *Архив научных исследований* 2.1 (2022).

INVESTITSIYA LOYIHALARINI ISHGA TUSHIRISH ORQALI QAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASH:MUAMMO VA ECHIMLAR

Xalbekov Kamariddin Abduxalilovich
TDIU, Samarqand filiali mustaqil izlanuvchisi
Tel: 937242126, kamariddin1983@mail.ru

Annotasiya: *Mazkur tezisda O‘zbekistonda investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturi, shuningdek, “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” davlat dasturining ustuvor yo‘nalishlari asos sifatida olingan. Investitsiya loyihalarini joylarda samarali ishga tushirish jarayonida yuzaga kelayotgan hududiy nomuvofiqlik, infratuzilmaviy cheklovlar, kadrlar malakasining etarli emasligi, loyihalar ijtimoiy samaradorligini baholash mexanizmlarining zaifligi kabi muammolarni ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birga, investitsiya faolligini kambag‘allikni qisqartirish va barqaror bandlikni ta'minlashning maqsadli instrumentiga aylantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Tayanch so‘zlar: *investitsiya, investitsiya loyihasi, bandlik, kambag‘allikni qisqartirish, mahalla, hududiy rivojlanish, yangi ish o‘rinlari, infratuzilma, tadbirkorlik, “O‘zbekiston — 2030”.*

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda qulay bozor sharoitlari investitsiya jarayonlarini jadallashishiga va iqtisodiyotni aksariyat tarmoqlarida sanoat ishlab chiqarishini o‘sishiga yordam berdi. Natijada, investitsiyalarga talab sezilarli darajada oshdi. Zamonaviy iqtisodiyotda har qanday korxonani rivojlanishini texnik tomondan tezlashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, mahsulotlarni modernizasiya qilish va mehnatni tashkil etishni takomillashtirishni ta'minlaydigan investitsiyalardan foydalanmasdan tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Joriy yilda 50 milliard dollar xorijiy investitsiyani jalb qilish mo‘ljallangan. Prezident ta'kidlashicha, bundan buyon har bir dollar investitsiya, eng avvalo, ilg‘or texnologiyalar transferi, tashqarida bozori aniq, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga, energiya, suv, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishda samaradorlikni oshirishga, mahalliy ishchilarni yangi

texnologiyalar bilan ishlashga oʻqitish va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilishi kerak. «Ya'ni yuqori texnologiya va yangi kompetensiyalarni olib kirgan, eksportga ishlagan investor eng ishonchli hamkorimiz boʻladi[34]», — dedi davlat rahbari.

Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri aynan kambagʻallikni qisqartirish va aholi bandligini oshirish masalasiga qaratilmoqda. 2023 yil 11 sentyabrda qabul qilingan PF-158-sonli Farmon bilan "Oʻzbekiston — 2030" strategiyasi tasdiqlanib, unda barqaror iqtisodiy oʻsish orqali daromadi oʻrtachadan yuqori boʻlgan davlatlar qatoriga kirish, hududlar imkoniyatlarini toʻliq safarbar etish va islohotlarning natijadorligini kuchaytirish kabi asosiy gʻoyalar belgilab berildi. Ushbu strategiya mamlakatda investitsiya siyosatini ijtimoiy maqsadlar, xususan aholi farovonligini oshirish vazifalari bilan uzviy bogʻlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, 2021 yil 30 dekabrdagi PQ-72-sonli qaror bilan 2022–2026 yillarga moʻljallangan investitsiya dasturi tasdiqlangan boʻlib, unda kelgusi besh yilda 70 milliard AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb etish va loyihalarni boshqarishning yangi mexanizmlarini joriy qilish nazarda tutilgan. Bu esa investitsiyalarni mamlakat taraqqiyotining tarmoq va hududlar kesimida rejalashtirilgan, tizimli va maqsadli manbasiga aylantirishga zamin yaratdi.

2026 yil 16 fevralda qabul qilingan PF-22-sonli Farmon esa "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" doirasida "Oʻzbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturini belgilab berdi. Mazkur hujjatda mahallalar infratuzilmasini yaxshilash, iqtisodiyotni texnologik va innovasion oʻsish modeliga oʻtkazish, aholi bandligi va daromadlarini oshirish, mahallalar darajasida yangi iqtisodiy faollik nuqtalarini yaratishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu bois investitsiya loyihalarini ishga tushirish orqali kambagʻallikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashning mavjud holatini, muammolarini va ularning echimlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya loyihalari iqtisodiy oʻsishning real sektordagi asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Yangi korxona, ishlab chiqarish tsexi, xizmat koʻrsatish markazi, qayta ishlash quvvatlari yoki infratuzilma ob'ektining tashkil etilishi birinchi navbatda yangi ish oʻrinlarini yaratadi. Ikkinchidan, u bilan bogʻliq qoʻshimcha xizmatlar, ta'minot, logistika, savdo va mahalliy kooperasiya zanjirlari ham shakllanadi. Uchinchidan, aholining daromadi ortishi hisobiga ichki talab kengayadi, bu esa mahalliy bozor faolligini kuchaytiradi.

"Oʻzbekiston — 2030" strategiyasida barqaror iqtisodiy oʻsishning pirovard maqsadi fuqarolar daromadlarini oshirish va hayot sifatini yaxshilashdan iborat ekani belgilab qoʻyilgan. Shu ma'noda investitsiya loyihalarining samaradorligi faqat oʻzlashtirilgan mablagʻ hajmi bilan emas, balki ular qancha yangi ish oʻrni yaratgani, aholi daromadlariga qanchalik ta'sir qilgani va qay darajada hududiy tenglikni ta'minlagani bilan ham baholanishi lozim.

Rasmiy statistika ma'lumotlariga koʻra, Oʻzbekistonda kambagʻallik darajasi

[34] https://president.uz/oz/lists/view/8834

2021 yilda 17,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda 14,1 foizga, 2023 yilda 11,0 foizga, 2024 yilda 8,9 foizga va 2025 yilda 5,8 foizga tushgan. Bu dinamika iqtisodiy faollikni oshirish, bandlikni kengaytirish va kambag‘allikka qarshi manzilli siyosat natijalarini aks ettiradi. Biroq mazkur ijobiy o‘zgarishlarni barqaror saqlab qolish uchun investitsiya siyosatining ijtimoiy natijadorligi yanada oshirilishi talab etiladi.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2022-2025-yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi[35]

Investitsiya loyihalarini ishga tushirish orqali kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash borasida ijobiy natijalar kuzatilayotgan bo‘lsa-da, qator tizimli muammolar ham mavjud.

Birinchidan, hududlar o‘rtasida investitsiya jalb qilish imkoniyatlari va infratuzilma salohiyati bir xil emas. Transport-kommunikasiya tarmoqlari, elektr va gaz ta'minoti, suv resurslari, bozorga yaqinlik va logistik qulaylik yuqori bo‘lgan hududlar investitsiyani tezroq jalb qilmoqda. Natijada ayrim hududlarda loyihalar tez ishga tushsa, boshqa hududlarda investitsiya tashabbuslari sust kechmoqda.

Ikkinchidan, ba'zi holatlarda investitsiya loyihalarining samaradorligi ijtimoiy mezonlar bo‘yicha emas, faqat moliyaviy yoki qiymat ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanadi. Bu esa yirik investitsiyalar o‘zlashtirilgan bo‘lsa-da, mahalliy aholi uchun etarlicha doimiy ish o‘rni yaratilmasligiga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, mehnat bozori talabi bilan kadrlar tayyorlash tizimi o‘rtasida nomuvofiqlik saqlanib qolmoqda. Yangi sanoat, qurilish, servis va texnologik loyihalarga ma'lum kasbiy ko‘nikmalarga ega xodimlar talab etiladi. Ammo ayrim

[35] https://invexi.org/uz/press/

hududlarda aholida aynan shu loyihalar uchun zarur amaliy malaka shakllanmagan.

To‘rtinchidan, yer ajratish, infratuzilmaga ulash, ruxsat berish, moliyalashtirish va hujjatlashtirish jarayonlaridagi byurokratik kechikishlar loyihalarning o‘z vaqtida ishga tushishini sekinlashtiradi. Bu esa ish o‘rinlarining kech yaratilishiga, ba'zan esa loyihaning iqtisodiy samaradorligi pasayishiga sabab bo‘ladi.

Beshinchidan, yaratilgan ish o‘rinlarining ma'lum qismi doimiy emas, balki mavsumiy yoki norasmiy tusda bo‘lishi mumkin. Norasmiy bandlik qisqa muddatda daromad manbai bo‘lsa-da, kambag‘allikni uzoq muddatli qisqartirishga etarlicha xizmat qilmaydi. Shu bois bandlikning sifati ham investitsiya samaradorligini baholashda asosiy mezonga aylanishi kerak.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi ilmiy-amaliy yondashuvlarni joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Avvalo, investitsiya loyihalarini saralash va tasdiqlashda “ijtimoiy samaradorlik indeksi”ni joriy etish lozim. Unda loyihaning qancha doimiy ish o‘rni yaratishi, qay darajada mahalliy aholini ishga jalb qilishi, aholi daromadlariga ta'siri, ayollar va yoshlar bandligiga qo‘shadigan hissasi, kambag‘al oilalar uchun yaratadigan imkoniyatlari kabi mezonlar aks etishi kerak.

Ikkinchidan, investitsiya loyihalarini mahalla darajasida kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi bilan bog‘lash zarur. Qaysi hududda qaysi yo‘nalishda loyiha ishga tushirilsa, o‘sha joyning aholisi uchun aynan shu yo‘nalish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslari, amaliy stajirovkalar va ish beruvchi buyurtmasi asosida malaka dasturlari yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Uchinchidan, infratuzilma tayyorligi past bo‘lgan hududlarda “loyihadan oldin infratuzilma” tamoyilini kuchaytirish kerak. Ya'ni elektr, suv, yo‘l, logistika va raqamli aloqa tarmoqlari loyiha bilan bir vaqtda emas, balki uning ishga tushishidan oldin tayyor holatga keltirilishi darkor. Bu investitsiyalarning hududlar kesimida notekis joylashuvini yumshatadi.

To‘rtinchidan, kichik va o‘rta biznesga asoslangan mahalliy investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish kerak. Chunki aynan shunday loyihalar aholiga eng yaqin bo‘ladi, tez ish o‘rni yaratadi va mahalliy xomashyo hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanadi. Bu borada imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, kafilliklar va foiz xarajatlarini qisman qoplash mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, investitsiya loyihalarining monitoringida faqat mablag‘ o‘zlashtirilishi yoki qurilish tugallangani emas, balki yaratilgan ish o‘rinlarining barqarorligi, mehnat shartnomalari mavjudligi, o‘rtacha ish haqi darajasi va kambag‘al oilalar daromadining o‘sishi kabi natijaviy ko‘rsatkichlar asosiy baholash mezoniga aylanishi lozim.

Oltinchidan, davlat, hokimlik, mahalla, bank va xususiy sektor o‘rtasidagi institusional hamkorlikni kuchaytirish kerak. Bu investitsiya loyihalarini ishga tushirishda tashkiliy uzilishlarni kamaytiradi, moliyalashtirish va amalga oshirish bosqichlaridagi kechikishlarni qisqartiradi.

Xulosa. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistonda investitsiya loyihalarini ishga tushirish orqali kambagʻallikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash uchun mustahkam normativ-huquqiy asos shakllangan. “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi mazkur yoʻnalishga uzoq muddatli strategik mazmun bergan boʻlsa, 2022–2026 yillarga moʻljallangan investitsiya dasturi uning moliyaviy va institusional mexanizmlarini belgilab berdi. “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” davlat dasturi esa, islohotlarni toʻgʻridan-toʻgʻri mahalla darajasiga tushirib, aholi bandligi va farovonligiga xizmat qiluvchi maqsadli mexanizmlarni kuchaytirdi.

Shu bilan birga, investitsiyalarning ijtimoiy samaradorligini oshirish, hududiy nomutanosiblikni kamaytirish, kadrlar tayyorlash tizimini loyihalar ehtiyojiga moslashtirish va yaratilgan ish oʻrinlarining barqarorligini ta'minlash dolzarb vazifa boʻlib qolmoqda. Kelgusida investitsiya siyosatining asosiy mezoni faqat investitsiya hajmi emas, balki uning kambagʻallikni qisqartirishga, norasmiy bandlikni kamaytirishga va aholi daromadlarini barqaror oshirishga qoʻshayotgan real hissasi boʻlishi lozim.

Shundagina investitsiya loyihalari iqtisodiy oʻsish manbai boʻlish bilan birga, aholi farovonligini ta'minlash va yangi Oʻzbekistonning kuchli ijtimoiy-iqtisodiy poydevorini shakllantirishning eng ta'sirchan vositasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmoni “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi toʻgʻrisida.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi PQ-72-son qarori “Oʻzbekiston Respublikasining 2022–2026 yillarga moʻljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish toʻgʻrisida”.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi PF-22-son Farmoni “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da ustuvor yoʻnalishlar boʻyicha islohotlar dasturlari va “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish boʻyicha davlat dasturi toʻgʻrisida.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi. Kambagʻallik darajasi boʻyicha rasmiy ma'lumotlar.
5. Smeshko O.G. Sankt-Peterburgskogo Universiteta upravleniya i ekonomiki. jurnal Ekonomika, Transport Business In Russia. №3 2014. Metodicheskie problemi osenki effektivnosti investisionnix proektov, Realizuemix na regionalnom urovne.
6. https://lex.uz/uz/
7. https://president.uz/oz/lists/view/8834
8. https://invexi.org/uz/press/

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA KO'MAKLASHISH: MILLIY STRATEGIYALAR VA AMALIY TAJRIBA

Niyozov Zuxur Davronovich
i.f.n., prof v.b., "Bank ishi" kafedrasi, SamISI
Narzullayev Fayozbek Fayzullo o'g'li
SamISI, BI-122 guruh talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola O'zbekiston milliy strategiyalari doirasida tijorat banklarining mahallalarda kambag'allikni qisqartirishdagi rolini tahlil qiladi. Renesans Microfinance tajribasi, moliyaviy inklyuziya mexanizmlari va amaliy cheklovlar ko'rib chiqiladi. Banklar uchun mahalliy sharoitga moslashtirilgan kredit mahsulotlari va hamkorlik modellari bo'yicha tavsiyalar ilgari suriladi.*

Kalit so'zlar: *kambag'allik, moliyaviy inklyuziya, mahalla, tijorat banklari, mikroqarz, milliy strategiya, Renesans Microfinance.*

Abstract. *This article analyzes the role of commercial banks in poverty reduction in Uzbekistan's mahallas within the framework of national strategies. The Renesans Microfinance experience, financial inclusion mechanisms, and practical limitations are examined. Recommendations are made for developing locally adapted credit products and cooperation models for banks.*

Keywords: *poverty, financial inclusion, mahalla, commercial banks, microcredit, national strategy, Renesans Microfinance.*

Kirish. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha milliy strategiyalar tobora aniq va o'lchanadigan maqsadlarga yo'naltirilmoqda. 2023-yil 12-iyundagi PF-93-sonli Farmon kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik sub'ektlari bilan hamkorlikni yangi darajaga ko'tardi,[36] 2024-yil 9-yanvardagi PF-7-sonli Farmon esa kichik va o'rta biznesga aholini keng jalb qilish bo'yicha banklar zimmasiga aniq majburiyatlar yuklatdi.

2025-yilga qadar 6 472 ta mahallada yangi yondashuvlarni joriy etish orqali 210 000 kishini kambag'allikdan chiqarish rejalashtirilgani ushbu masala dolzarbligini yanada oshiradi. Maqolaning maqsadi banklar uchun mahallalarda samarali ishlashning strategik yo'llarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot sifatli va empirik yondashuvga asoslanib, O'zbekiston Respublikasi farmon-qarorlari, CBU statistikasi, Renesans Microfinance hisobotlari va SamISI tadqiqotlarining tanqidiy sintezi orqali olib borildi. Tijorat banklari va mikroqarz tashkilotlarining mahalla darajasidagi amaliyotlari qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar asosida banklar uchun strategik tavsiyalar shakllandi.

Adabiyotlar tahlili. Moliyaviy inklyuziya dunyo bo'ylab taxminan 30 foiz aholini rasmiy moliyaviy tizimdan chetda qolishining asosiy sababini bartaraf

[36]O'zR Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-93-sonli Farmoni "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik sub'ektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatish to'g'risida" // lex.uz/docs/6487109

etuvchi omil sifatida tan olingan. O'zbekiston kontekstida Niyozov Z.D. (SamISI, 2024)[37] va Alimova M.T. (2023)[38] tijorat banklarining mahalliy ehtiyojlarga moslashish imkoniyatlari va cheklovlarini tahlil qilib, banklar uchun maxsus "mahalla kredit mahsulotlari" konsepsiyasini ishlab chiqishni tavsiya etgan. Abduxalikov A.A. (TDIU, 2023)[39] mikromoliya xizmatlarining O'zbekistonda kambag'allikni 2,3 foiz punktga qisqartirishga ko'maklashganini aniqlagan.

Tahlil va muhokama 1. Milliy strategiyalar va banklar mas'uliyati. PF-93-sonli Farmon ijrosida tijorat banklari uchun imtiyozli kreditlash kvotalari joriy etildi. Ipak Yo'li banki 2024-yilda mahalla tadbirkorlariga ajratiladigan kredit hajmini 18 foizga oshirdi, Hamkorbank esa qishloq joylarda 80 ta yangi agentlik punktini ochdi.

2. Renesans Microfinance tajribasi: banklar uchun namuna. Renesans Microfinance O'zbekistonda mahalla darajasida moliyaviy xizmat ko'rsatishning muvaffaqiyatli namunasini ko'rsatdi: mijozlarining 75 foizi qishloq aholisi, 55 foizi esa ayol tadbirkorlar. Xudaybergenova (Namangan viloyati) misolida mahalliy kiyim-kechak biznesini 500 000 so'mlik mikroqarz bilan boshlagan ayol uch yil ichida 12 ta ish o'rni yaratdi; portfelning 96 foiz qaytaruvchanlik darajasi ushbu modelning barqarorligini tasdiqlaydi.[40]

3. Tijorat banklarining cheklovlari va imkoniyatlari. Raqamli texnologiyalar kreditlash xarajatlarini 40 foizga kamaytirish imkonini bermoqda.[41] Mobil bankchilik orqali qishloq joylardagi 2 mln potensial mijozga yetib borish mumkin.[42] Shuningdek, mahalla infratuzilmasi — 9 000 dan ortiq mahalla yig'ilish joylari — bank agentligi sifatida foydalanish imkonini beradi.

4. Strategik tavsiyalar. Banklar Renesans Microfinance modelidan ilhomlangan "mahalla mikrokrediti" mahsulotini — garovsiz, 1–5 mln so'm oralig'ida, 36 oyga — ishlab chiqishi zarur. "Mahalla yettiligi" bilan hamkorlikda kredit monitoring tizimini joriy etish va quyosh elektrostansiyalari, o'rmon xo'jaliklari kabi Prezident dasturlari uchun maxsus kredit liniyalari taklif etish kerak.

Xulosa va takliflar. Tijorat banklari O'zbekiston mahallalarida kambag'allikni qisqartirishning strategik ishtirokchisi bo'lish imkoniyatiga ega. PF-93 va PF-7 farmolari, shuningdek, 210 000 kishini kambag'allikdan chiqarish maqsadi banklar uchun kuchli huquqiy va moliyaviy asos yaratdi. Renesans Microfinance tajribasi ko'rsatganidek, mahalliy sharoitga moslashtirilgan kredit modellari yuqori qaytaruvchanlik va keng ijtimoiy ta'sirni birga ta'minlay oladi.

---

[37]Niyozov Z.D., Narzullayev F.F. Mahalliy kambag'allikni qisqartirishda tijorat banklari strategiyasi // SamISI ilmiy to'plami. — Samarqand, 2024.

[38]Alimova M.T. Mahallabay ishlash tizimi: aholi farovonligini oshirishning strategik yo'nalishi // Iqtisodiyot va ta'lim jurnali. — 2023 // cedr.uz

[39]Abduxalikov A.A. Kambag'allikni qisqartirishda mikromoliya xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati // TDIU ilmiy to'plami. — Toshkent, 2023 // tsue.uz

[40]Renesans Microfinance. Xudaybergenova misolida uy xo'jaligi biznesini rivojlantirish: 96% qaytaruvchanlik // renesans.uz/about

[41]CEIR. Raqamli moliyaviy xizmatlar: operatsion samaradorlik tahlili, 2023. Onlayn kreditlash xarajatlari 40% ga kamayishi // ceir.uz

[42]O'zbekiston statistika agentligi. Qishloq joylardagi 2 mln potensial bank mijozlari: demografik tahlil, 2023 // stat.uz

Banklar guruhiy javobgarlik, mahalla hamkorligi va raqamli kanallar orqali moliyaviy inklyuziyani chuqurlashtirish yo'lini tanlasa, belgilangan ijtimoiy maqsadlarga erishishda haqiqiy katalizator bo'la oladi. Shu bilan birga, mavjud muammolar — yuqori risklar, garov talablarining murakkabligi, xizmatlarning yetarli darajada moslashmaganligi va hududiy cheklovlar banklar faoliyatining samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Moliyaviy mahsulotlarni diversifikatsiya qilish: Mahalla aholisi ehtiyojlariga mos mikroqarz, mikro-omonat va mikro-sug‘urta mahsulotlarini keng joriy etish;
- Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish: Mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali olis hududlarda ham bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish;
- Garovsiz yoki yengillashtirilgan kredit mexanizmlarini joriy etish: Kam ta’minlangan aholi qatlamlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- Moliyaviy savodxonlikni oshirish: Aholi o‘rtasida treninglar, seminarlar va targ‘ibot ishlari olib borish;
- Hamkorlikni kuchaytirish: Mahalla institutlari, nodavlat tashkilotlar va mikroqarz tashkilotlari bilan integratsiyani rivojlantirish;
- Hududiy yondashuvni kuchaytirish: Har bir mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqib alohida moliyaviy strategiyalar ishlab chiqish.

Natijada, tijorat banklari nafaqat moliyaviy xizmat ko‘rsatuvchi institut, balki jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishda faol ishtirok etuvchi muhim mexanizmga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O'zR Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-93-sonli Farmoni // lex.uz/docs/6487109
2. O'zR Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi PF-7-sonli Farmoni // lex.uz/docs/6731057
3. Niyozov Z.D., Narzullayev F.F. SamISI ilmiy to'plami. — Samarqand, 2024.
4. Abduxalikov A.A. TDIU ilmiy to'plami, 2023 // tsue.uz
5. Alimova M.T. Iqtisodiyot va ta'lim jurnali, 2023 // cedr.uz
6. Kambag'allikni qisqartirish vazirligi. Samaradorlik tahlili, 2024 // mehnat.uz
7. O'zR Markaziy banki. Imtiyozli kreditlash statistikasi // cbu.uz/uz/statistics/

OZIQ-OVQAT SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI BANDLIKNI OSHIRISH VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA TIJORAT BANKLARI HAMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Jumayev Shoxrux Shavkatovich
SamISI, iqtisodiyot fakulteti 1-bosqich magistr talabasi
Telefon raqam: +998 99 701 51 06
Elektron pochta manzil: shjumayev1992@gmail.com

Kirish. Kichik va o‘rta biznes subyektlarini rivojlantirish kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlash orqali milliy iqtisodiyotning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlovchi muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Mazkur subyektlar mahalliy ishlab chiqarish zanjirlarida faol ishtirok etib, yangi ish o‘rinlarini yaratadi hamda daromad manbalarini diversifikatsiya qiladi. Tijorat banklari tomonidan kreditlash, subsidiyalash va investitsion qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining qo‘llanilishi kichik va o‘rta korxonalarning ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va innovatsion faoliyatini rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va fintech platformalar moliyaviy resurslarning tezkor va samarali taqsimlanishini ta’minlab, iqtisodiy risklarni kamaytirish hamda ishlab chiqarish diversifikatsiyasini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Oziq-ovqat sanoati iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash va aholi ehtiyojlarini qondirishda strategik ahamiyatga ega bo‘lib, global tahdidlar sharoitida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish zaruratini kuchaytirmoqda. Diversifikatsiya mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali mahsulot turini kengaytirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va risklarni pasaytirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon yangi ish o‘rinlarini yaratish, daromadlarni ko‘paytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, mahalliy xomashyo bazasini kengaytirish hamda raqamli platformalardan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi asosiy determinantlardir.

Tijorat banklari oziq-ovqat sanoatida diversifikatsiya jarayonining moliyaviy drayveri sifatida kredit, investitsiya va grant instrumentlari orqali ishlab chiqaruvchilarni yangi mahsulot segmentlariga yo‘naltiradi. Raqamli iqtisodiyot elementlari bilan integratsiyalashgan moliyaviy mexanizmlar ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va mahsulot sifatini nazorat qilish imkonini kengaytiradi. Natijada, innovatsion faoliyat faollashadi, iqtisodiy risklar minimallashtiriladi va tarmoqning umumiy barqarorligi ta’minlanadi.

Mazkur maqola oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish orqali bandlikni oshirish va kambag‘allikni qisqartirishda moliyaviy hamda texnologik instrumentlarning samaradorligini kompleks tahlil qiladi. Empirik va statistik usullarga asoslangan natijalar tijorat banklari va raqamli texnologiyalar integratsiyasi diversifikatsiya jarayonining samaradorligini oshirishini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv bandlikni kengaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni

ta’minlashda tizimli ahamiyat kasb etib, siyosat ishlab chiquvchilar va moliya institutlari uchun ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2020–2024 yillarda barqaror o‘sish dinamikasini namoyon etdi. Xususan, 2020 yilda 368 740,2 mlrd. so‘mni tashkil etgan ishlab chiqarish hajmi 2024 yilga kelib 880 198,5 mlrd. so‘mgacha oshdi, bu esa tarmoqda diversifikatsiya jarayonlarining faollashganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kichik korxona va mikrofirmalarning sof foydasi ham 11 431 452,4 mln. so‘mdan 19 712 323,2 mln. so‘mgacha o‘sib, ishlab chiqarish samaradorligi va moliyaviy barqarorlik mustahkamlanganini tasdiqlaydi. Mazkur ijobiy o‘zgarishlar bevosita bandlik ko‘rsatkichlarida ham aks etdi. Xususan, kichik sanoat zonalari ishtirokchilari tomonidan yaratilgan ish o‘rinlari soni 2020 yildagi 19 405 tadan 2025 yilga kelib 44 900 taga yetdi. Bu esa ishlab chiqarish hajmi va foyda o‘sishi bilan bandlik o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Natijada, diversifikatsiya jarayoni nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilaydi, balki ijtimoiy muammolar, jumladan, ishsizlik va kambag‘allikni kamaytirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

1-jadval

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, KOB sof foydasi va ish o‘rinlari

Yil	Sanoat mahsulotlari (mlrd. so‘m)	KOB sof foyda (mln. so‘m)	Ish o‘rinlari soni
2020	368 740,2	11 431 452,4	19 405
2021	456 056,1	17 225 128,9	20 660
2022	553 265	13 891 355,4	26 613
2023	658 991,7	19 745 363,1	28 190
2024	880 198,5	19 712 323,2	40 516
2025	895 258,3	20 052 453,3	44 900

Ishlab chiqarish sanoat tarmog‘ida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat(YQQ) 2021–2025 yillarda 175 862,3 mlrd. so‘mdan 384 204,1 mlrd. so‘mgacha oshdi.

2-jadval

Ishlab chiqarish va xizmatlar YQQ hamda uy xo‘jaliklarining oziq-ovqat xarajatlari

Yil	Ishlab chiqarish YQQ (mlrd. so‘m)	Xizmatlar YQQ (mlrd. so‘m)	Oziq-ovqat xarajatlari (%)
2021	175 862,30	34 550,80	51,8
2022	200 941,40	51 245,50	52,2
2023	242 626,20	69 023,50	49,8
2024	306 357,80	87 520,10	52,8
2025	384 204,10	107 898,90	47,9

Yashash va ovqatlanish xizmatlari tarmog‘ida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat esa 34 550,8 mlrd. so‘mdan 107 898,9 mlrd. so‘mgacha yetdi. Uy

xo‘jaliklarining oziq-ovqat xarajatlari 51,8% dan 47,9% ga kamaydi. Ushbu ko‘rsatkichlar ishlab chiqarish hajmi va xizmatlar sektori o‘sishi bilan uy xo‘jaliklarining xarajatlarini kamaytirganini ko‘rsatadi.



1-rasm Ishlab chiqarish va xizmatlar tarmog‘ida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning 2021-2025-yillar oralig’ida o’zgarish dinamikasi

Tijorat banklari va boshqa qarz mablag‘lari orqali asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar 2020–2024 yillarda turli tarmoqlarda sezilarli farq ko‘rsatdi. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘iga 2020 yilda 1 883 549,3 mln. so‘m ajratilgan bo‘lsa, 2024 yilda 1 634 386,6 mln. so‘mga yetdi. Ushbu o‘zgarish, ayniqsa, ishlab chiqarish sanoatidagi pasayish bilan 2 472 874,8 mln. so‘mgacha kamayganini hisobga olsak, tarmoq investitsiyalarining samaradorligini va sektorlararo resurs taqsimotini ko‘rsatadi. Yashash va ovqatlanish xizmatlari uchun ajratilgan investitsiyalar 2020 yilda 244 701,7 mln. so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilda 77 084,5 mln. so‘mga pasaydi. Ushbu dinamikadan ko‘rinib turibdiki, ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga sarmoya jalb qilish barqaror iqtisodiy o‘sish va ish o‘rinlarini yaratish uchun muhim hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va diversifikatsiya jarayonini qo‘llab-quvvatlash asosiy kapitalga investitsiyalar orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, bank krediti va qarz mablag‘lari integratsiyalashgan holda qo‘llanganda ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Ushbu o‘zgarishlar ishlab chiqarish va xizmatlar sektori uchun iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, asosiy kapitalga investitsiyalar tarmoqlarni diversifikatsiya qilish va yangi ish o‘rinlari yaratishda vositachilik qiladi.

Sanoat mahsulotlari hajmi, KOB sof foydasi va asosiy kapitalga investitsiyalar umumiy o‘sish tendensiyasini namoyon etadi. 2020–2024 yillarda ishlab chiqarish hajmi 2,4 barobar, KOB sof foydasi esa qariyb ikki barobar oshdi. Biroq investitsiyalar tarmoqlar kesimida nomutanosib bo‘lib, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasida o‘sish, ishlab chiqarishda esa pasayish kuzatildi. Bu holat moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash zarurligini ko‘rsatadi.

3-Jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalar (mln. so‘m, 2020–2024)

Yil	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	Xizmatlar	Ishlab chiqarish
2020	1 883 549,30	244 701,70	4 222 941,80
2021	2 746 862,70	489 187,40	3 812 015,50
2022	2 209 924,80	187 993,40	4 343 840,80
2023	865 684,20	1 260 434,70	3 512 034,80
2024	1 634 386,60	77 084,50	2 472 874,80

Empirik tahlillar moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalar, KOB sof foydasi va raqamli texnologiyalarning integratsiyasi diversifikatsiya samaradorligini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi. Ishlab chiqarish hajmi va yalpi qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichlarining o‘sishi, bandlikning kengayishi hamda uy xo‘jaliklarining oziq-ovqat xarajatlari ulushining kamayishi ushbu yondashuvning ijobiy natijalarini aks ettiradi. Raqamli platformalar ishlab chiqarish, marketing va logistika jarayonlarini optimallashtirib, umumiy samaradorlikni oshiradi.

2020–2025 yillar tahlili ishlab chiqarish hajmi, KOB sof foydasi, yalpi qo‘shilgan qiymat va bandlik ko‘rsatkichlari o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Bu esa moliyaviy va texnologik instrumentlarning uyg‘unlashuvi oziq-ovqat sanoatida barqaror rivojlanishni ta’minlashini anglatadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy natijalarning o‘sishi bandlikka bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatib, kichik sanoat zonalarida ish o‘rinlari sonining ortishiga olib kelgan. Yalpi qo‘shilgan qiymat va xizmatlar hajmining o‘sishi iqtisodiyotning tarkibiy diversifikatsiyasini kuchaytirgan, oziq-ovqat xarajatlari ulushining kamayishi esa aholi daromadlari ortayotganini bildiradi.

Biroq, asosiy kapitalga investitsiyalardagi nomutanosibliklar, ayniqsa ishlab chiqarish sanoatidagi pasayish, kredit siyosatini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, moliyaviy va texnologik instrumentlar integratsiyasi iqtisodiy o‘sish, bandlikni oshirish va kambag‘allikni qisqartirishning muhim omili hisoblanadi.

X u l o s a v a t a k l i f l a r

Mazkur tadqiqot natijalari O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish jarayonlari iqtisodiy o‘sish, bandlikni oshirish va kambag‘allikni qisqartirishda muhim strategik omil ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Empirik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining kengayishi, kichik va o‘rta biznes subyektlarining sof foydasi ortishi hamda kichik sanoat zonalarida ish o‘rinlarining oshishi o‘zaro uzviy bog‘liq holda iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni ta’minlamoqda. Shu bilan birga, uy xo‘jaliklari oziq-ovqat xarajatlarining ulushining kamayishi aholi daromadlarining oshganini va ichki bozorda ta’minot barqarorlashganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19 martdagi PF-50-son Farmonida kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish va bandlikni ta’minlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu strategik yo‘nalishlar oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish orqali samarali amalga oshirilishi mumkin. Shu asosda, tijorat banklari va moliyaviy institutlar tomonidan kredit siyosatini PF-50 tamoyillariga moslashtirish, uzoq muddatli va past foizli kredit liniyalarini kengaytirish, loyihaviy moliyalashtirish instrumentlarini joriy etish tavsiya etiladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, jumladan “aqlli ishlab chiqarish”, raqamli monitoring va logistika tizimlarini joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi va mahsulot raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Kichik sanoat zonalarini hududiy ixtisoslashtirish orqali yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, ish o‘rinlarini kengaytirish va kambag‘allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, jumladan soliq imtiyozlari, subsidiyalar, eksportni rag‘batlantirish dasturlari hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish fondlarini kengaytirish ishlab chiqarish diversifikatsiyasini jadallashtirishda samarali bo‘ladi. Shu bilan birga, malakali kadrlarni tayyorlash va ularning raqamli ko‘nikmalarini oshirish uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish va barqaror bandlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, moliyaviy instrumentlar, raqamli texnologiyalar va davlat siyosatining integratsiyasi, PF-50 farmonida belgilangan strategik yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashgan holda, oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, bandlikni oshirish va kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha yuqori samaradorlikka ega ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Taklif etilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish orqali nafaqat iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirish, balki barqaror bandlik va ijtimoiy farovonlikni ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025). *PF-50-son Farmon: Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.* https://lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2020–2025). *Rasmiy statistika ma’lumotlari* https://stat.uz

3. World Bank. (2023). *Uzbekistan Country Economic Memorandum: Toward a More Inclusive and Sustainable Economy.* Washington, DC: https://www.worldbank.org

4. Food and Agriculture Organization (FAO). (2022). *The State of Food and Agriculture 2022: Leveraging Automation in Agriculture for Transforming Food Systems* https://www.fao.org

5. OECD. (2021). *Enhancing the Contributions of SMEs in a Global and Digitalised Economy.* Paris: OECD Publishing. https://www.oecd.org

6. McKinsey Global Institute. (2021). *The Future of Work in Emerging Economies.* [online] Available at: https://www.mckinsey.com

KICHIK VA O‘RTA BIZNES SUBEKTLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASHDA TIJORAT BANKLARINING O‘RNI

Shodiyev Ravshan
SamISI talabasi

Annotatsiya. *Ushbu bobda O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes (KOB) subyektlarini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlashda tijorat banklarining o‘rni tahlil qilinadi. KOBlar iqtisodiy o‘sish va ish o‘rinlari yaratishning asosiy drayveri bo‘lsa-da, moliyalashtirishga cheklangan kirish muammo hisoblanadi. Tijorat banklari ushbu moliyaviy bo‘shliqni bartaraf etishda asosiy vositachi sifatida o‘rganilib, ularning KOBlarga kredit va sarmoya ajratish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qo‘shgan hissasi ko‘rsatiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, KOBlarni moliyalashtirish samaradorligini oshirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va kambag‘allikni qisqartirish hamda bandlikni ta’minlashga qaratilgan aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Kichik va o‘rta biznes, Kambag‘allikni qisqartirish, Aholi bandligi, Tijorat banklari, Moliyaviy vositachilik, O‘zbekiston, Kredit ta’minoti*

Abstract. *This chapter analyzes the crucial role of commercial banks in poverty reduction and employment generation through the development of small and medium-sized enterprises (SMEs) in Uzbekistan. Despite SMEs being key drivers of economic growth and job creation, their limited access to finance remains a significant challenge. Commercial banks are examined as primary intermediaries in bridging this financial gap, demonstrating their contribution to socio-economic development through credit and investment provision to SMEs. The study identifies existing problems and explores support programs, including the World Bank's FINGROW project, ultimately proposing concrete recommendations to enhance SME financing and expand access to financial services.*

Keywords: *Small and medium-sized business, Poverty reduction, Employment generation, Commercial banks, Financial intermediation, Uzbekistan, Credit provision.*

Аннотация. *В данной главе анализируется решающая роль коммерческих банков в сокращении бедности и обеспечении занятости населения посредством развития малого и среднего бизнеса (МСБ) в Узбекистане. Хотя МСБ являются ключевым двигателем экономического роста и создания рабочих мест, их ограниченный доступ к финансированию остается серьезной проблемой. Коммерческие банки рассматриваются как основные посредники в преодолении этого финансового разрыва, демонстрируя их вклад в социально-экономическое развитие через предоставление кредитов и инвестиций МСБ. Исследование выявляет существующие проблемы и рассматривает программы поддержки, включая проект FINGROW Всемирного банка, предлагая конкретные*

рекомендации по повышению эффективности финансирования МСБ и расширению доступа к финансовым услугам.

Ключевые слова: *Малый и средний бизнес, Сокращение бедности, Занятость населения, Коммерческие банки, Финансовое посредничество, Узбекистан, Кредитное обеспечение.*

Kirish. Kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlash har qanday davlatning ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy vazifalaridan biridir. O‘zbekiston sharoitida ushbu maqsadlarga erishishda kichik va o‘rta biznes (KOB) subyektlari muhim rol o‘ynaydi. KOBlar iqtisodiy o‘sishning lokomotivi, innovatsiyalar manbai va yangi ish o‘rinlari yaratishning asosiy omili sifatida global miqyosda e’tirof etilgan [1]. Biroq, ularning to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarish yo‘lida moliyaviy resurslarga, xususan, bank kreditlariga cheklangan kirish asosiy to‘siqlardan biri bo‘lib qolmoqda [1, 2].

Adabiyotlar sharhi. Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni ko‘plab nazariy ishlar va empirik tadqiqotlar orqali keng yoritilgan. Iqtisodiy adabiyotlarda KOBlar ko‘pincha "iqtisodiy o‘sishning dvigatellari" sifatida ta’riflanadi, chunki ular yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va yalpi ichki mahsulot (YaIM)ga sezilarli hissa qo‘shish orqali kambag‘allikni qisqartirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [1]. Moliyaviy vositachilik nazariyasi (Financial Intermediation Theory) tijorat banklarining iqtisodiyotdagi rolini tushuntiradi, ular jamg‘armalarni investitsiyalarga yo‘naltirish orqali kapital taqsimotining samaradorligini oshiradi. Bu jarayon KOBlar uchun ayniqsa muhimdir, chunki ular ko‘pincha kapital bozorlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish imkoniyatiga ega emaslar. O‘zbekiston kontekstida KOBlar iqtisodiyotning muhim qismi bo‘lib, mamlakatdagi korxonalarning 90% dan ortig‘ini, bandlikning 75% ini va YaIMning 55% ini tashkil etadi [2]. Shunga qaramay, ushbu sektor moliyaviy resurslarga kirishda jiddiy cheklovlar bilan duch kelmoqda.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot bobida sifatli, tahliliy va deskriptiv yondashuv qo‘llaniladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi tijorat banklarining KOBlarni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlashdagi o‘rnini har tomonlama baholashdan iborat. Ma’lumotlar to‘plash uchun ikkilamchi manbalardan, jumladan, ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va rasmiy statistik ma’lumotlardan foydalaniladi. Xususan, O‘zbekistonda KOBlarni moliyalashtirishga oid ilmiy maqola [1] va Jahon bankining O‘zbekistondagi FINGROW loyihasi haqidagi ma’lumotlar [2] asosiy dalil bazasini tashkil etadi. Tahlil jarayonida quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi: 1. Nazariy asoslarni o‘rganish: KOBlarning iqtisodiy rivojlanish, kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta’minlashdagi rolini tushuntiruvchi nazariyalar ko‘rib chiqiladi. 2.

Natijalar va tahlil. O‘zbekistonda KOBlar iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveri bo‘lib, innovatsiyalar va ish o‘rinlari yaratishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi [1]. Ular mamlakatdagi korxonalarning 90% dan ortig‘ini, bandlikning 75% ini va YaIMning 55% ini tashkil etadi [2]. Bu raqamlar KOBlarning kambag‘allikni

qisqartirish va aholi bandligini ta’minlashdagi beqiyos ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi. Biroq, ushbu sektorning to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarish yo‘lida moliyaviy resurslarga cheklangan kirish asosiy to‘siq bo‘lib qolmoqda [1]. Tijorat banklari KOBlarni moliyalashtirishda asosiy vositachi sifatida faoliyat yuritadi. Ularning roli moliyaviy bo‘shliqni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega [1]. Ammo, KOBlarning moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi pastligicha qolmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, KOBlarning uchdan bir qismidan ko‘prog‘ida bank hisobvaraqlari mavjud emas, kichik korxonalarning atigi 10% i va o‘rta korxonalarning 16% igina kreditlardan foydalana oladi [2]. Bu esa KOBlar uchun taxminan 6 milliard dollarlik kredit taqchilligini keltirib chiqaradi, holbuki ularning umumiy kreditga bo‘lgan talabi 13 milliard dollarga baholanadi [2]. Bu raqamlar tijorat banklarining KOBlarni moliyalashtirishdagi mavjud imkoniyatlari va ularni kengaytirish zaruratini ko‘rsatadi. Hukumat va xalqaro tashkilotlar KOBlarni qo‘llab-quvvatlashda faol ishtirok etmoqda. Jahon bankining O‘zbekiston uchun tasdiqlangan 100 million dollarlik krediti va 5 million dollarlik granti ajratilgan "Ish o‘rinlari va o‘sish uchun moliyalashtirishga kirish" (FINGROW) loyihasi bunga yorqin misoldir [2]. Ushbu loyiha mikro, kichik va o‘rta korxonalar (MKOK) uchun kredit va xususiy kapital moliyalashtirishni kengaytirishga qaratilgan.

Muhokama. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari O‘zbekistonda KOBlarni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlashda markaziy o‘rin tutadi. Ular moliyaviy vositachilik orqali kapitalni samarali taqsimlab, KOBlarning o‘sishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Jahon bankining FINGROW loyihasi kabi xalqaro tashabbuslar tijorat banklarining KOBlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim katalizator vazifasini o‘tamoqda. Ushbu loyiha orqali 100 000 ta yangi ish o‘rni yaratish prognozi [2] tijorat banklari ishtirokidagi moliyaviy dasturlarning ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini yaqqol namoyish etadi. Biroq, mavjud moliyalashtirish tizimining samaradorligini oshirish uchun bir qator muhim masalalarni hal etish lozim. Birinchidan, KOBlarning moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi hali ham past bo‘lib, bu ularning to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilmoqda. Ikkinchidan, ayollar va yoshlar boshchiligidagi bizneslar kabi alohida guruhlar moliyalashtirishga kirishda qo‘shimcha to‘siqlarga duch kelmoqda, bu esa inklyuziv o‘sish tamoyillariga zid keladi. Uchinchidan, tijorat banklari uchun KOBlarni moliyalashtirish bilan bog‘liq risklar va garov ta’minoti muammolari saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolarni hal etish va tijorat banklarining KOBlarni qo‘llab-quvvatlashdagi rolini kuchaytirish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi: 1. Moliyaviy inklyuzivlikni oshirish: Tijorat banklari KOBlarning, ayniqsa ayollar va yoshlar boshchiligidagi bizneslarning moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqishi lozim.

Xulosa. Ushbu bobda olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes subyektlarini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. KOBlar iqtisodiyotning asosiy drayveri bo‘lib, ish o‘rinlari

yaratish va YaIMga sezilarli hissa qo‘shish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi. Tijorat banklari esa moliyaviy vositachilik orqali ushbu sektorga zarur moliyaviy resurslarni yo‘naltiradi. Jahon bankining FINGROW loyihasi kabi xalqaro tashabbuslar KOBlarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi va kelajakda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaralar berishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Audretsch, David B., and Max Keilbach. Tadbirkorlik va Iqtisodiy O'sish. Oxford: Oxford University Press, 2007.

2. Beck, Thorsten, and Asli Demirguc-Kunt. Moliyaviy Qamrov: Banklar va Boshqa Moliyaviy Xizmat Korsatuvchilarning Roli. Washington, DC: World Bank Publications, 2010.

3. Beck, Thorsten, Asli Demirguc-Kunt, and Vojislav Maksimovic. "Moliyaviy va Huquqiy Cheklovlar O'sishga: Nima uchun firmalar farq qiladi?" Moliya Jurnali, vol. 60, no. 1, 2005, pp. 137-177.

4. Claessens, Stijn, and Erik Feijen. "Moliyaviy sektor rivojlanishi va kambag'allar." Rivojlanish iqtisodiyoti jurnali, vol. 84, no. 1, 2007, pp. 1-28.

5. Ayyagari, Meghana, Asli Demirguc-Kunt, and Vojislav Maksimovic. "Moliyalashtirish Cheklovlari Qanchalik Muhim? Biznes Muhitida Moliyaning O'rni." Jahon Banki Iqtisodiy Sharhi, jild. 22, son. 1, 2008, bet. 165-191.

THE ROLE OF DEPOSIT SYSTEM IN UZBEKISTAN: FINANCIAL STABILITY AND INCOME GENERATION

Aina Čaplinska
Assoc. Professor of Department of Law, Management and Economics of Daugavpils University, aina.caplinska@du.lv.
Kholmirzayev Elbek Bakhtiyorovich
Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. *This article examines the role of the deposit system in Uzbekistan in ensuring financial stability, increasing household savings, and supporting economic growth. Based on the analysis of the banking sector and regulatory framework, the main types of deposits, interest rate dynamics, and mechanisms for protecting depositors are identified. It is substantiated that the development of deposit instruments contributes to strengthening public confidence in the banking system and expanding financial inclusion. Proposals aimed at improving the effectiveness of deposit policy are formulated.*

Keywords: *deposits, banking system, Uzbekistan, interest rates, financial stability, deposit insurance*

Аннотация. *В статье рассматривается роль депозитной системы Узбекистана в обеспечении финансовой стабильности, увеличении сбережений населения и поддержке экономического роста. На основе анализа банковского сектора и нормативно-правовой базы выявлены основные виды депозитов, динамика процентных ставок и механизмы*

защиты вкладчиков. Обосновано, что развитие депозитных инструментов способствует укреплению доверия населения к банковской системе и расширению финансовой инклюзии. Сформулированы предложения по повышению эффективности депозитной политики.

Ключевые слова: *депозиты, банковская система, Узбекистан, процентные ставки, финансовая стабильность, страхование вкладов.*

Introduction. In Uzbekistan, the development of the banking system is closely associated with the mobilization of internal financial resources and the strengthening of public confidence in financial institutions. Deposits serve as an important instrument for attracting household savings into the formal economy and ensuring the resource base of commercial banks.[1] In recent years, large-scale reforms in the financial sector have contributed to the expansion of banking services and the growth of deposit operations. At the same time, the deposit market remains sensitive to macroeconomic factors such as inflation and interest rate fluctuations, which necessitates a comprehensive analysis of its development.

The deposit system performs not only a savings function but also plays a crucial role in ensuring financial intermediation. By accumulating temporarily free funds of the population, banks are able to transform them into credit resources that support investment and entrepreneurial activity. In this context, deposits act as a key link between the financial sector and the real economy, contributing to sustainable economic growth.[2]

Main Part. The deposit system of Uzbekistan includes several types of deposit products, such as demand deposits, term deposits, savings deposits, and foreign currency deposits. Among them, term deposits are the most widespread due to their relatively high interest rates and stability. Demand deposits, although less profitable, provide liquidity and flexibility for clients. Foreign currency deposits are used as a tool for hedging exchange rate risks, especially in conditions of macroeconomic uncertainty.

Interest rates on deposits are largely determined by the monetary policy of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, as well as by market conditions and competition among commercial banks.[3] In recent years, higher interest rates on deposits in national currency have contributed to the reduction of dollarization and the strengthening of the national financial system.

An important element of the deposit system is the protection of depositors' funds. In Uzbekistan, this function is performed by the Fund for Guaranteeing Deposits of Citizens in Banks of Uzbekistan, which ensures the safety of individuals' deposits and increases trust in the banking system.[4] The existence of such a mechanism significantly reduces risks for depositors and stimulates the inflow of funds into banks.

The development of digital financial technologies also has a significant impact on deposit operations. The introduction of online banking, mobile applications, and remote account management systems simplifies access to deposit services and reduces transaction costs.[5] This contributes to the expansion of the client base and increases the overall level of financial inclusion

in the country.

At the same time, the effectiveness of the deposit system depends on the level of financial literacy of the population. Insufficient awareness of deposit conditions, interest rates, and risks limits the use of banking products. Therefore, improving financial education is an important factor in increasing the attractiveness of deposits and ensuring their widespread use.

Thus, the deposit system in Uzbekistan acts as a multifunctional mechanism that not only ensures the preservation of savings but also contributes to economic development, financial stability, and the expansion of financial inclusion.

Conclusions and Recommendations. The conducted analysis shows that deposits play a key role in the development of the banking system of Uzbekistan and in ensuring macroeconomic stability. The expansion of deposit operations contributes to increasing the resource base of banks, stimulating investment activity, and strengthening public confidence in financial institutions.

To improve the effectiveness of the deposit system, it is advisable to further develop digital banking services, increase the competitiveness of interest rates, expand the range of deposit products, and strengthen the system of deposit insurance. In addition, special attention should be paid to improving the financial literacy of the population, which will ensure a more active involvement of citizens in deposit operations.

In general, a comprehensive approach to the development of the deposit system will contribute to sustainable economic growth, reduce financial risks, and improve the well-being of the population, as it integrates institutional, economic, and technological mechanisms aimed at strengthening the banking sector and expanding access to financial services.

References

1. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Annual Report. – Tashkent, 2023.
2. World Bank. Global Financial Development Report. – 2022.
3. International Monetary Fund. Monetary Policy and Financial Stability Report. – 2021.
4. Fund for Guaranteeing Deposits of Citizens in Banks of Uzbekistan. Official Report. – 2023.
5. OECD. Digital Financial Services Report. – 2022.

УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕХАНИЗМОВ ЦЕЛЕВОГО БАНКОВСКОГО КРЕДИТОВАНИЯ КАК ФАКТОР СОЗДАНИЯ РАБОЧИХ МЕСТ В СЕЛЬСКИХ РАЙОНАХ УЗБЕКИСТАНА

студент 3 курса ***Усмонов Ф.Ф.***
Научный руководитель: д.э.н , ***Каримова А.М.***
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. *В статье исследуется роль целевого банковского кредитования в создании рабочих мест в сельских районах Узбекистана. На основе данных АКБ «Микрокредитбанк» и АК «Халк банки» за 2022–2025 годы проанализированы результаты реализации кредитных программ, выявлены институциональные барьеры и предложены меры по их преодолению.*

Ключевые слова: *целевое кредитование, сельские районы, занятость населения, малый бизнес, банк, банкир махаллабай, кооперационное кредитование, финансовая инклюзия, Узбекистан.*

Abstract*: This article examines the role of targeted bank lending in job creation in rural areas of Uzbekistan. Using data from Mikrokreditbank and Khalk Bank for 2022–2025, the results of these lending programs are analyzed, institutional barriers are identified, and measures to overcome them are proposed.*

Key words: *targeted lending, rural areas, employment, small business, bank, mahallabai banker, cooperative lending, financial inclusion, Uzbekistan.*

Введение. Создание устойчивой занятости в сельских районах — один из ключевых приоритетов социально-экономической политики Республики Узбекистан. Сельская местность концентрирует значительную часть трудоспособного населения, однако именно здесь наиболее остро проявляется дефицит формальных рабочих мест. По данным Национального комитета по статистике, на 1 января 2025 года в Узбекистане насчитывается свыше 38 млн человек, при этом доля занятых в сельском хозяйстве составляет около 44% [7]. В этих условиях целевое банковское кредитование выступает одним из немногих инструментов, способных транслировать государственные приоритеты в реальную занятость конкретных домохозяйств.

Актуальность темы определяется сохраняющимися структурными разрывами. Исследование Института законодательства и правовой политики за 2025 год, при Президенте Республики Узбекистан фиксирует, что 79% субъектов МСБ в регионах лишены доступа к мерам государственной поддержки, а уровень неформальной занятости в секторе достигает 46% [8]. Формализация трудовых отношений в секторе МСБ составляет лишь 54% против 86% в крупном бизнесе, а доступ МСБ к государственной поддержке — только 21% против 93% у крупных предприятий [8]. Эти данные

свидетельствуют о том, что потенциал целевого кредитования как инструмента создания рабочих мест реализован далеко не полностью.

Целью настоящего исследования является оценка результативности действующих механизмов целевого банковского кредитования в создании рабочих мест в сельских районах Узбекистана, а также разработать предложения по их совершенствованию с учётом актуальных данных за 2022–2025 годы. Для достижения цели поставлены следующие задачи, в частности, анализ динамики кредитования МСБ в сельских районах; выявление институциональных барьеров доступа сельских предпринимателей к банковским ресурсам; обоснование направлений повышения результативности кредитных механизмов.

Методология исследования. В работе применялись методы сравнительного и структурно-функционального анализа, индукции и дедукции. Информационную базу составили: официальная отчётность АКБ «Микрокредитбанк» и АК «Халк банки», данные Национального комитета Республики Узбекистан по статистике, аналитические материалы Центрального банка РУЗ и Института законодательства и правовой политики при Президенте РУЗ, публикации Всемирного банка. Хронологические рамки — 2022–2025 годы.

Анализ и результаты. Главным оператором целевого сельского кредитования в Узбекистане является АКБ «Микрокредитбанк», созданный в 2006 году с мандатом на поддержку малого бизнеса, ремёсел и надомного труда — прежде всего в сельской местности. Рейтинговое агентство Fitch подтвердило рейтинг банка на уровне «BB-», что является одним из наиболее высоких показателей среди банков страны [6]. В таблице ниже представлена динамика ключевых показателей банка за 2022–2025 годы. (см.: табл. 1).

Таблица 1

Динамика показателей АКБ «Микрокредитбанк» в сельских районах, 2022–2025 гг.[43]

Показатель	2022	2023	2024	2025
Объём выданных кредитов, трлн сум	3,1	5,2	7,0	7,7
Создано рабочих мест, тыс. чел.	124,0	178,3	232,7	260,0
Из них — постоянные, тыс. чел.	58,4	88,1	113,7	130,0
Охваченные махалли, ед.	740	1 010	1 230	1 500
Доля кредитов МСБ, %	42	47	50	50

Данные таблицы 1 фиксируют устойчивую восходящую динамику. Объём выданных кредитов за четыре года вырос с 3,1 до 7,7 трлн сумов [3]. Число созданных рабочих мест выросло с 124 тыс. в 2022 году до 260 тыс. в 2025-м; охват расширился с 740 до 1 500 махаллей. Принципиальной организационной инновацией 2025 года стал институт «банкира махаллабай»: специалист банка прикреплён к 3–4 махаллям, дважды в месяц

[43] Составлено автором по данным АКБ «Микрокредитбанк» [3, 4], Центрального банка РУЗ [5]

организует ярмарки проектов, лично отвечает за показатели кредитования и трудоустройства на своей территории. Руководители 124 подразделений банка заключили соглашения с хокимиятами районов, зафиксировав конкретные КПИ по занятости.

Показательным примером результативности кластерного подхода стал «Микропромышленный центр» в Джандарском районе: 47 предпринимателей, ранее производивших мебель на дому, объединились и перешли на промышленное производство — в одной махалле создано 205 рабочих мест [3]. АК «Халк банки» дополняет эту работу программами кооперационного кредитования — финансированием производственных цепочек от выращивания сельскохозяйственной продукции до её переработки и реализации, охватывая рабочие места по всей добавленной цепочке стоимости.

Вместе с тем анализ выявляет системные барьеры, ограничивающие охват сельских предпринимателей (см.: табл. 2).

Таблица 2

Барьеры целевого кредитования в сельских районах и меры по их преодолению[44]

Барьер	Причина возникновения	Рекомендуемые меры
Залоговый барьер	Отсутствие ликвидного имущества у сельских домохозяйств	Беззалоговое кредитование под поручительство; страховые инструменты
Дефицит финансовой грамотности	Неумение составить бизнес-план и рассчитать долговую нагрузку	Обязательный финкурс перед выдачей займа через «банкиров махаллабай»
Инфраструктурный разрыв	Отсутствие банковских офисов в отдалённых кишлаках	Мобильное и агентское кредитование; расширение сети минибанков
Несоответствие программ специализации района	Типовые продукты без учёта отраслевого потенциала территории	Привязка программ к региональным диагностикам Минэкономфина

Залоговый барьер остаётся наиболее острым: при сумме займа свыше 150 базовых расчётных величин банк требует ликвидное обеспечение, которого у большинства сельских домохозяйств нет [6]. Дефицит финансовой грамотности выражается в неумении составить бизнес-план и рассчитать долговую нагрузку — при этом 74% субъектов МСБ в регионах указывают на нехватку квалифицированных кадров как ограничивающий фактор роста [8]. Инфраструктурный разрыв сохраняется в отдалённых кишлаках. Наконец, исследование Института законодательства и правовой политики (2025) зафиксировало типичную проблему: аграрный район наращивает промышленное производство, не имея для этого ни сырьевой базы, ни кадров, тогда как его реальный потенциал в переработке продукции или агрологистике остаётся нереализованным [8].

[44] Составлено автором по данным Центрального банка РУЗ [5], Института законодательства и правовой политики [8], Всемирного банка [9]

Заключение и предложения. Целевое банковское кредитование доказало свою результативность как инструмент создания занятости в сельских районах Узбекистана. За 2022–2025 годы АКБ «Микрокредитбанк» увеличил число созданных рабочих мест с 124 до 260 тыс., расширил охват вдвое, а на 2025 год было выделенно кредитов на 7,7 трлн сумов и начат переход к системной работе через институт «банкира махаллабай». Вместе с тем для дальнейшего усиления эффекта кредитных механизмов необходим комплекс мер.

Во-первых, расширить практику беззалогового кредитования под поручительство третьих лиц или страховой полис.

Во-вторых, встроить обязательные программы финансового просвещения в работу «банкиров махаллабай» до выдачи займа.

В-третьих, развивать мобильное приложение MKBANK mobile и агентские сети как основной канал охвата отдалённых кишлаков.

В-четвёртых, привязать кредитные программы к региональным диагностикам Министерства экономики и финансов 2025 года, отражающим реальный отраслевой потенциал каждой территории. Реализация этих мер позволит снизить информационную асимметрию между банком и заёмщиком, повысить качество портфелей и направить кредитные ресурсы туда, где они создадут наибольший эффект занятости.

Список использованной литературы

1. АКБ «Микрокредитбанк». Итоги 2024 года и приоритетные задачи на 2025 год // mkbank.uz. — 04.01.2025.

2. АКБ «Микрокредитбанк». Кредиты для малого и среднего бизнеса // mkbank.uz. — 2025.

3. АКБ «Микрокредитбанк». Общая информация о банке // mkbank.uz.

4. АО «Халк банки». Годовой отчёт 2023. — Ташкент: Халк банки, 2024.

5. Центральный банк Республики Узбекистан. Обзор банковского сектора за 2023–2024 годы. — Ташкент: ЦБ РУЗ, 2024.

6. Depozit.uz. Микрокредитбанк: рейтинг и условия кредитования // depozit.uz. — 2025.

7. Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике. Пресс-релиз: социально-экономическое положение Узбекистана // stat.uz. — 2025.

8. Институт законодательства и правовой политики при Президенте РУЗ. Диагностика регионов: полезный инструмент или формальность? // illp.uz. — 2025.

9. World Bank. Global Findex Database 2024: Measuring Financial Inclusion. — Washington D.C.: World Bank, 2024.

10. Страновая стратегия ЕБРР: Узбекистан 2024–2029 // ebrd.com. — 2024.

KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH VA KAMBAG‘ILLIKNI QISQARTIRISH MASALALARI

Djurayeva Maxzuna Azamovna
Samarqand Davlat Arxitektura – Qurilish Universiteti
Iqtisodiyot kafedrasi o`qtuvchisi
Toshqulova Shaxzoda Berdiyor Qizi
Samarqand Davlat Arxitektura – Qurilish Universiteti
Iqtisodiyot 2 – kurs talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishning aholi bandligini ta’minlash va kambag‘illikni qisqartirishdagi ahamiyati yoritilib beriladi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, yangi ish o‘rinlari yaratishdagi roli hamda ushbu sohani qo‘llab – quvvatlash bo‘yicha amalga oshiriliyotgan chora – tadbirlar tahlil qilinadi. Maqolada kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish orqali aholining daromadlarini oshirish, iqtisodiy faollikni kuchaytirish va jamiyat farovonligini ta’minlash masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zla: *Kichik biznes, o‘rta bzines, tadbirkorlik, bandlik, kambag‘illikni qisqartirish, iqtisodiy rivojlanish, ish o‘rinlari.*

Annotation. *This article highlights the importance of developing small and medium – sized businesses in ensuring employment of the population and reducing poverty. It also analyzes the role of entrepreneurial activity in economic development, its contribution to creating new jobs, and the measures being implemented to support this sector. The article examines issues such as increasing the income of the population, strengthening economic activity, and ensuring social welfare through the development of small and medium – sized businesses.*

Keywords: *Small business, medium business, entrepreneurship, employment, poverty reduction, economic development, job creation.*

Аннотация. *В данной статье освещается значение развития малого и среднего бизнеса в обеспечении занятности населения и сокращении бедности. Также анализируется роль предпринимательской деятельности в экономическом развитии её вклад в создание новых рабочих мест и меры, реализуемые для поддержки данной сферы. В статье рассматриваются вопросы повышения доходов населения, усиления экономической активности и обеспечения общественного благосостояния посредством развития малого и среднего бизнеса.*

Ключевые слова: *Малый бизнес, средний бизнес, предпринимательство, занятность, сокращение бедности, экономическое развитие, создание рабочих мест*

Kirish. Hozirgi kunda kichik va o‘rta biznes iqtisodiyotining eng muhim bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Dunyodagi ko‘plab mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa,

aholi soni ortib borayotgan bir paytda bandlikni ta’minlash va kambag‘illikni darajasini kamaytirish har bir davlat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi, balki jamiyatda raqobat muhitini shakllantiradi. Shu sababli ko‘plab davlatlarda tadbirkorlikni qo‘llab – quvvatlash, biznes yuritish uchun qulay sharoit yaratish va yangi g‘oyalarni rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism. Kichik va o‘rta biznes aholi bandligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohaning afzalliklaridan biri shundaki, uni tashkil etish uchun yirik korxonalarga nisbatan kamroq mablag‘ talab qilinadi. Shu sababli tadbirkorlik faoliyatini boshlash ko‘plab fuqarolar uchun imkoniyat yaratadi. Natijada yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ladi va aholi bandligi oshadi.

Kichik biznes ko‘pincha savdo, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va ishlab chiqarish kabi sohalarda rivojlanadi. Bu esa turli kasb egalarining o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yishiga yordam beradi. Natijada nafaqat tadbirkorlarning o‘zi, balki boshqa fuqarolar ham ish bilan ta’minlanadi.

Bandlikning oshishi esa kambag‘allikni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Chunki doimiy daromadga ega bo‘lgan fuqarolar o‘z turmush darajasini yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, kichik biznesning rivojlanishi iqtisodiy faollikni oshirib, bozor iqtisodiyoti mexanizmlarning samarali ishlashiga yordam beradi.

Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab – quvvatlash ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratish, soliq yengilliklarini joriy etish, biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarini soddalashtirish kabi chora – tadbirlar tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tadbirkorlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan treninglar ham muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish aholi bandligini oshirish va hamda kambag‘allikni kamaytirishda muhim o‘rin tutadi. Bu soha orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi, odamlar barqaror daromad manbaiga ega bo‘ladi va natijada ularning turmush darajasi asta – sekin yaxshilanadi. Shu sababli kichik va o‘rta biznesni qo‘llab - quvvatlash, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoit yaratish hamda aholining biznesga bo‘lgan qiziqishini oshirish muhim hisoblanadi. Bunday yondashuv nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki jamiyat faravonligining ortishiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vahobov A. V. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent. 2017.
2. Abdullayev Y. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. Toshkent. 2020.
3. G‘ulomov S. Tadbirkorlik asoslari. Toshkent. 2018.
4. Rasulov A. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Toshkent. 2016.

TIJORAT BANKLARI KREDIT SIYOSATI ORQALI KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI

Muxammadiyev Kamoliddin G'ulomiddinovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Bank ishi" kafedrasi assistenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tijorat banklarining kredit siyosati orqali kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Kichik va o'rta biznesni kreditlashda mavjud muammolar, ularning kelib chiqish sabablari hamda ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ko'rib chiqiladi. Tijorat banklari kredit siyosatining kambag'allikni qisqartirishdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi, shuningdek, jahon amaliyotidagi eng ilg'or tajribalar va o'zbekistonlik bank tizimida ularni joriy etish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Maqola oxirida kredit siyosatini takomillashtirish va kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *tijorat banklari, kredit siyosati, kichik biznes, kambag'allik, moliyaviy inklyuzivlik, mikrokredit, bandlik, iqtisodiy o'sish.*

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish mamlakat iqtisodiy o'sishi, aholi bandligini ta'minlash hamda kambag'allikni kamaytirishning asosiy omillaridan biri sifatida tan olinmoqda. Kichik biznes korxonalari, nafaqat yalpi ichki mahsulotning muhim qismini yaratibgina qolmay, balki jamiyatning keng qatlamlarini ish bilan ta'minlash va daromad manbalarini diversifikatsiyalash orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda beqiyos rol o'ynaydi. Shu sababli, ushbu sohaga yo'naltirilgan maqsadli davlat siyosati va moliyaviy mexanizmlar ishlab chiqish bugungi iqtisodiyot fani oldidagi dolzarb vazifaga aylanib bormoqda.

Biroq kichik biznes subyektlari, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida, o'z faoliyatini kengaytirish va yangi loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatidan yetarlicha foydalana olmayapti. Bu holat shuni ko'rsatadiki, moliyaviy tizim va real sektor o'rtasidagi uzilish kichik biznes imkoniyatlarini keskin cheklab qo'ymoqda, natijada esa ko'plab tadbirkorlik g'oyalari amalga oshmay qolib, potentsial ish o'rinlari yaratilmay, kambag'allik qisqarishi sekinlashmoqda. Shu nuqtai nazardan tijorat banklarining kredit siyosati kichik biznesni iqtisodiy jihatdan kuchaytirish va aholi farovonligini oshirishning asosiy instrumentlaridan biriga aylanishi lozim.

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida kichik biznes va tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan e'lon qilingan islohotlar strategiyasi doirasida bank-kredit tizimini takomillashtirish, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish va aholi kambag'alligini kamaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar belgilanmoqda. Shu bilan

birga, tijorat banklari kredit mexanizmlarining kichik biznes rivojiga ta'siri mexanizmlarini ilmiy jihatdan o'rganish va takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy moliya nazariyasida tijorat banklarining kredit siyosati — bu bankning kredit resurslari bilan bog'liq barcha qarorlarini tartibga soluvchi, uzoq va qisqa muddatli maqsadlarni belgilovchi hamda kredit portfelini boshqarishga yo'naltirilgan strategik hujjat sifatida talqin etiladi. Kredit siyosati nafaqat bank manfaatlarini, balki jamiyat va iqtisodiyotning umumiy rivojlanish maqsadlarini ham aks ettirishi kerak, chunki banklarning kredit faolligi bevosita real sektordagi ishlab chiqarish ko'lamiga, yangi korxonalar ochilishiga va ish o'rinlari dinamikasiga bog'liqdir. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda kredit siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy dimensiyasi tobora keng muhokama qilinmoqda.

Kichik biznesni kreditlash bo'yicha nazariy yondashuvlar rivojlanishida Joseph Stiglitz va Andrew Weiss tomonidan asoslangan axborot asimmetriyasi nazariyasi alohida o'rin tutadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, qarz beruvchi bank va qarz oluvchi kichik biznes subyekti o'rtasidagi ma'lumot tengsizligi kredit bozorida "tanlash muammosi" va "axloqiy xatar" sifatida namoyon bo'ladi, natijada banklar kichik biznesni yuqori xavfli deb baholab, haddan tashqari yuqori foiz stavkalarini belgilash yoki umuman kredit berishdan bosh tortishga moyil bo'ladi. Bu holat amaliyotda shunday namoyon bo'ladiki, moliyaviy resurslarga muhtoj, ammo garov mulki yoki uzoq kredit tarixi bo'lmagan kichik tadbirkorlar bank mablag'laridan foydalana olmay qoladi.

Shu bilan birga, jahon amaliyotidan ma'lumki, to'g'ri tuzilgan kredit siyosati va tegishli kafolatlar mexanizmlari orqali banklarning kichik biznesga kreditlash faolligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Masalan, Germaniyaning KfW banki, Yaponiyaning Kichik va O'rta Biznesni Moliyalashtirish Agentligi tajribasi shuni ko'rsatadiki, kredit kafolat fondlari, subsidiyalangan foiz stavkalari va maxsus kreditlash dasturlari orqali kichik korxonalar moliyaviy inklyuzivligini oshirish iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash imkonini beradi. Natijada ushbu mamlakatlar kichik biznes sektori iqtisodiyotning eng dinamik va barqaror qismiga aylanganligini kuzatishimiz mumkin.

Bugungi kunda kichik va o'rta biznes subyektlari bank kreditlariga kirish jarayonida bir qator jiddiy to'siqlar bilan to'qnashmoqda. Birinchi va eng muhim muammo — bu garov mulki talablarining haddan tashqari yuqori belgilanishidir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari kredit berish sharti sifatida kreditning 150-200 foiziga teng garov talab qilishlari kichik tadbirkorlar uchun umuman erib bo'lmay qoladi, chunki yangi boshlayotgan tadbirkor ko'p hollarda bunday miqdordagi mulkka ega emas. Bu holat shuni ko'rsatadiki, aynan eng innovatsion va g'ayratli tadbirkorlar — ulkanligi rivojlanish imkoniyati ular zimmasida — moliyaviy tizimdan chetda qolmoqda.

Ikkinchi jiddiy muammo — kredit foiz stavkalarining yuqoriligi bilan bog'liq. O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida kichik biznesga beriladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkasi yillik 20-30 foizga yetishi, ba'zan undan ham oshishi kuzatilmoqda. Natijada kichik tadbirkorning kreditni to'lash xarajatlari

shunchalik yuksakki, loyihaning rentabelligi kredit xizmati xarajatlarini qoplashga zo'rg'a yetarli bo'lib qoladi va bu esa tadbirkorlikdan olinadigan sof foyda sezilarli darajada kamayishiga, ba'zan esa salbiy tus olishiga olib keladi. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday sharoitda kichik biznesni kreditlash o'rniga muqobil moliyalashtirish manbalarini izlash ham ko'pincha norasmiy qarz bozorlariga — foizi yanada yuqori va shart-sharoitlari yanada og'ir bo'lgan manbalarga — murojaat qilishga majbur qilmoqda.

Uchinchi muammo sifatida kredit jarayonining murakkabligi va bürokratik to'siqlarni ko'rsatish lozim. Kredit olish uchun taqdim etilishi kerak bo'lgan hujjatlar ro'yxatining uzunligi, ko'rib chiqish muddatlarining noaniqligi va bir joydan ikkinchi joyga yuborish holatlarining ko'pligi kichik tadbirkorni charchatadi va ishonchini so'ndiradi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlarning atigi 40-50 foizi kredit ariza jarayonini oxirigacha davom ettiradi, qolganlari esa ushbu jarayonning og'irligidan hafsalasi pir bo'lib, imkoniyatdan voz kechadi. Bu esa iqtisodiyot miqyosida iste'foga ketgan ulkan tadbirkorlik potentsialni anglatadi.

Ushbu muammolarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari juda keng ko'lamlidir. Kreditga kirish imkoniyatidan mahrum kichik tadbirkorlar o'z faoliyatlarini kengayta olmaydi, yangi ish o'rinlari yarata olmaydi, natijada yalpi ichki mahsulotga qo'shayotgan hissasi minimal bo'lib qoladi. Shu bilan birga, yollanma ishchi sifatida ish topa olmagan va o'z biznesini yurita olmayotgan fuqarolar kambag'allik chegarasida qolishda davom etadi. Natijada ijtimoiy tengsizlik chuqurlashadi, o'rta sinf shakllanishi sekinlashadi va jamiyatda mavjud iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish darajasi haddan past bo'lib qoladi.

Tijorat banklari kredit siyosatining kambag'allikni qisqartirishdagi ta'sir mexanizmlari bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchi va eng to'g'ridan-to'g'ri mexanizm — bu kichik va o'rta korxonalarga kredit ajratilishi orqali yangi ish o'rinlarini yaratish zanjiridir. Kredit ajratilishi kichik biznes rivojiga ta'sir qiladi, chunki moliyaviy resurslar kengayishi bilan ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish ko'lami ortadi, natijada yangi ishchilar zaruriyati paydo bo'ladi va yangi ish o'rinlari vujudga keladi. Shu tarzda bitta kredit o'nlab xonadonlar uchun daromad manbaiga aylanishi mumkin.

Ikkinchi muhim mexanizm — mikromoliya va mikrokreditlash dasturlari orqali namoyon bo'ladigan moliyaviy inklyuzivlik mexanizmidir. Dunyo tajribasi, ayniqsa Muhammadali Yunus tomonidan Bangladesh'da asos solingan Grameen Bank modeli shuni ko'rsatadiki, an'anaviy bank garovlari bo'lmagan kambag'al aholining eng zaif qatlamlarini — ayollarni, qishloq aholisini, kam ta'minlangan oilalarni — mikrokredit dasturlari orqali moliyaviy tizimga jalb qilish mumkin va ular o'z kichik bizneslarini yo'lga qo'ya oladi. Shu bilan birga, guruhlarga asoslangan kreditlash mexanizmlari ijtimoiy javobgarlik va o'zaro kafolat tizimini vujudga keltiradi, bu esa banklar uchun kredit riskini kamaytiradi.

Uchinchi mexanizm — kredit orqali texnologik va innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish mexanizmidir. Shuni ta'kidlash lozimki, kichik biznes subyektlari yangi texnologiyalar va zamonaviy uskunalar uchun bir martalik katta xarajatlarni amalga oshirishga qodir bo'lmaganligi sababli ishlab chiqarish unumdorligi past

bo'lib qoladi. Maqsadli kredit dasturlari orqali ushbu muammo hal etilganda, kichik korxonaning raqobatbardoshligi oshadi, mahsulot sifati yaxshilanadi, eksport imkoniyatlari kengayadi va daromad o'sadi. Natijada mazkur korxona egasi va uning xodimlari daromad darajasi yaxshilanib, kambag'allik chegarasidan chiqib ketish ehtimoli ortadi.

To'rtinchi mexanizm — qishloq va mintaqaviy rivojlanishni kredit orqali qo'llab-quvvatlash mexanizmidir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, shahar va qishloq o'rtasidagi daromad farqi ko'p jihatdan moliyaviy xizmatlar mavjudligi bilan belgilanadi. Qishloq joylarda tijorat banklari bo'limlari yetarli bo'lmaganligi, qishloq tadbirkorlarining kredit tarixining mavjud emasligi va garov mulk bazasining zaif ekanligi qishloq aholisini moliyaviy tizimdan uzoqlashtiradi. Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlari va agentlik banking modeli orqali masofaviy joylardagi aholi ham kredit xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda va bu qishloq joylarda tadbirkorlik faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon amaliyotida kichik biznesni davlat va tijorat banklari kredit siyosati orqali qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yaxshi ishlab chiqilgan. AQShda kichik biznes tadbirkorlarini qo'llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan Small Business Administration (SBA) dasturlari tijorat banklari orqali subsidiyalangan va kafolatli kreditlar berish tizimini muvaffaqiyatli yo'lga qo'ygan. SBA dasturlari doirasida bank kredit riskining 75-85 foizini hukumat kafolati orqali qoplash imkoniyati yaratilgan bo'lib, bu esa tijorat banklarini xavfli deb hisoblanadigan kichik biznes loyihalari moliyalashtirishga undamoqda. Natijada yillar davomida millionlab kichik biznes subyektlari moliyaviy resurslardan foydalanib, iqtisodiy jihatdan mustaqillashgan.

Osiyo mintaqasida esa Janubiy Koreya va Tayvan tajribasi alohida e'tiborga loyiq. Mazkur mamlakatlar 1970-1990-yillarda kichik va o'rta biznesni maqsadli kreditlash dasturlari orqali tarmoq klasterlarini shakllantirish, texnologiya transferi va eksport yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rag'batlantirish bo'yicha yaxlit milliy strategiyalarni amalga oshirgan. Shu bilan birga, kredit kafolat fondlarini yaratish orqali banklar uchun riskni kamaytirish, sektorlar bo'yicha maxsus kreditlash dasturlari va innovatsion korxonalar uchun imtiyozli kredit shartlarini joriy etish ushbu mamlakatlarning tez iqtisodiy rivojlanishining poydevori bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda kichik biznesni bank kreditlash orqali qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2017-2023-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonu qarorlari asosida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga yordam berish maqsadida bir qator imtiyozli kreditlash dasturlari ishga tushirildi. Shuni ta'kidlash lozimki, "Tadbirkor ayol" va "Yoshlar – kelajagimiz" dasturlari doirasida minglab fuqarolarga imtiyozli kredit resurslari ajratildi, bu esa nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratdi, balki bir qator oilalarni kambag'allikdan chiqarib, o'rta daromadli aholi qatoriga qo'shdi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan banklar portfelining kamida 40 foizini kichik biznes kreditlariga ajratish bo'yicha ko'rsatmalar berilganligi ham ushbu sohaga diqqat-

e'tiborning kuchayganidan darak beradi.

Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda O'zbekistonda kichik biznesni kreditlash sohasida hali yechilmagan muammolar ko'p. Kredit hajmining YaIMga nisbatan ko'rsatkichi rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslaganda past, garov talablari hali ham katta to'siq bo'lib qolmoqda va qishloq joylarda bank xizmatlarining yetarli darajada mavjud emasligi aholining katta qismini moliyaviy tizimdan chetda qolishiga olib kelmoqda. Natijada tadbirkorlik salohiyati yetarlicha ro'yobga chiqmay, aholining bir qismi kambag'allik holatida davom etmoqda.

Yuqorida ko'rib chiqilgan muammolar va jahon tajribasini inobatga olib, O'zbekistonda tijorat banklari kredit siyosatini kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishida takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Birinchi va eng muhim yo'nalish — milliy kredit kafolat fondi tizimini yaratish va takomillashtirishdir. Kafolat fondi mexanizmi orqali kichik biznes kreditlari uchun davlat kafolatini joriy etish banklarning xavfini kamaytiradi, chunki fondning kafolati bankning potentsial zararining ma'lum qismini qoplaydi, natijada banklar garov mulki yetarli bo'lmagan kichik tadbirkorlarga ham kredit berishga tayyor bo'ladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kafolat fondlari eng arzon va eng samarali kreditlash rag'batlantirish mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Ikkinchi muhim tavsiya — raqamli kredit texnologiyalari va muqobil kredit skoring tizimlarini joriy etish bilan bog'liq. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalari orqali kichik tadbirkorning kredit layoqatini an'anaviy moliyaviy hisobotlarsiz ham baholash imkoniyati mavjud. Masalan, tadbirkorning ijtimoiy media faolligi, mobil to'lov tarixi, kommunal to'lovlar muntazamligi va boshqa raqamli iz qoldiruvchi ma'lumotlar kredit skoring uchun manba bo'lishi mumkin. Bu usul ayniqsa rasmiy kredit tarixi bo'lmagan yangi tadbirkorlar uchun muhim imkoniyat yaratadi, chunki ular endi o'z kredit layoqatlarini muqobil usulda isbotlay oladi.

Uchinchi yo'nalish — qishloq va mintaqaviy kredit yetkazib berish infratuzilmasini kengaytirishdir. Bugungi kunda O'zbekistonda raqamli bank, agentlik banking va kooperativ moliyalash mexanizmlari orqali qishloq va uzoq joylarda yashovchi aholini moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish real imkoniyatga ega. Shuni ta'kidlash lozimki, pochta tarmog'i, qishloq xo'jaligi kooperativlari va mahalla tashkilotlari tizimini bank xizmatlarini yetkazib berish uchun vosita sifatida ishlatish juda samarali bo'lishi mumkin. Natijada moliyaviy inklyuzivlik geografik jihatdan kengayadi va qishloq tadbirkorlari ham shahar tengdoshlari bilan teng imkoniyatlarga ega bo'ladi.

To'rtinchi muhim yo'nalish — kichik biznes kredit mahsulotlarini diversifikatsiyalash va moslashtirishdir. Barcha kichik bizneslar bir xil emas — savdo, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va texnologiya startaplarining moliyaviy ehtiyojlari va risk profillari tubdan farq qiladi. Shu sababli tijorat banklari har bir sektor uchun maxsus kredit mahsulotlarini ishlab chiqishi, muddati, foiz stavkasi va qaytarish jadvalini sektoral xususiyatlarga moslashtirilgan holda taklif qilishi lozim. Shu bilan birga, islomiy moliya

tamoyillariga asoslangan kredit mahsulotlarini kengaytirish ham diniy e'tiqodi sababli an'anaviy kreditdan voz kechadigan aholini moliyaviy tizimga jalb qilishning muhim mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

Beshinchi yo'nalish — moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuv bilan bog'liq. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kredit imkoniyati mavjud bo'lganda ham, moliyaviy savodsizlik va biznes boshqaruvi ko'nikmalarining etishmasligi tufayli kichik tadbirkorlar olingan kreditni samarali ishlatmaydi va oqibatda kredit muammoli kreditga aylanishi mumkin. Shu sababli tijorat banklari kredit berish jarayonini moliyaviy savodxonlik treniglari, biznes-reja tayyorlash bo'yicha maslahatlar va kredit olganidan keyin ham davom etadigan biznes mentoring dasturlari bilan birlashtirganda kreditlarning samaradorligi ham, qaytarilishi ham sezilarli darajada yaxshilanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, tijorat banklari kredit siyosati kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va aholi kambag'alligini qisqartirish yo'lida foydalanilishi lozim bo'lgan eng kuchli iqtisodiy instrumentlardan biridir. Kredit ajratilishi yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va mintaqaviy rivojlanishni ta'minlash orqali to'g'ridan-to'g'ri kambag'allikni kamaytirishga xizmat qiladi. Natijada iqtisodiy o'sish ko'proq aholini qamrab oladi va daromadlar taqsimlanishi adolatliroq tus oladi.

Shu sababli O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining kredit siyosatini kichik biznesni kreditlash bo'yicha yanada faol va maqsadli shaklda yo'naltirish, kafolat fondlarini yaratish, raqamli kredit texnologiyalarini joriy etish, qishloq joylarda bank xizmatlarini kengaytirish va moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlash bugungi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning mantiqiy davomi bo'lishi lozim. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining kengayishi bilan jamiyat barqarorligi ortadi, kambag'allik qisqaradi va iqtisodiy rivojlanish barqaror tavsif kasb etadi. Shunday ekan, kredit siyosatini ijtimoiy javobgarlik prinsiplari asosida shakllantirish — bu faqat bank uchun emas, balki butun jamiyat uchun foyda keltiradigan strategik yondashuv bo'lib, uning samarasi yillar va o'n yilliklar davomida his etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60-sonli Farmoni. – www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil uchun yillik hisoboti. – Toshkent, 2024. – www.cbu.uz.

3. Абдуллаева Ш. Банк иши: дарслик / Ш. Абдуллаева. – Тошкент: Иқтисод-Молия, 2010. – 612 б.

4. Муллажонов Ф. М. Ўзбекистон Республикаси банк тизими / Ф. М. Муллажонов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 216 б.

5. Yunus M. Banker to the Poor: Micro-Lending and the Battle Against World Poverty / M. Yunus. – New York: PublicAffairs, 2003. – 314 p.

6. Nosirov E. I. Qimmatli qog‘ozlar bozorida tijorat banklarining rolini oshirish masalalari. Avtoreferat i. f. n. – Toshkent: O‘zRBMA, 2003. – 24 b.

7. Stiglitz J., Weiss A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // American Economic Review. – 1981. – Vol. 71. – №3. – P. 393–410.

8. Beck T., Demirguc-Kunt A. Small and Medium-Size Enterprises: Access to Finance as a Growth Constraint // Journal of Banking & Finance. – 2006. – Vol. 30. – P. 2931–2943.

9. Jahon banki. Financial Inclusion Global Database 2021: Measuring Financial Inclusion and the Fintech Revolution. – Washington, 2023. – www.worldbank.org.

10. O‘zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi rasmiy ma’lumotlari va tahliliy materiallari. – www.uba.uz.

KAPITAL BOZORLARINI RIVOJLANTIRISH VA UNING KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI ROLI

Abduvoxidova N.G'.
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistri
Ilmiy rahbar: Niyozov.Z.D
Sam.ISI. “Bank ishi” kafedrasi prof. V.b. i.f.n.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kapital bozorlarini rivojlantirishning zamonaviy iqtisodiy tizimdagi o‘rni va ahamiyati kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Xususan, kapital bozorlari infratuzilmasini takomillashtirish, qimmatli qog‘ozlar bozorini kengaytirish va investitsion muhitni yaxshilash orqali kambag‘allikni qisqartirish hamda aholi daromadlarini oshirish imkoniyatlari o‘rganiladi. Tadqiqotda kapital bozorlari orqali iqtisodiyotga uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb etish, ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi bandligini ta’minlashdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va investitsion faollikni oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish masalalari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari samarali kapital bozori iqtisodiy o‘sishni jadallashtirib, daromadlar tengsizligini kamaytirish va kambag‘allik darajasini pasaytirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar. *kapital bozori, qimmatli qog‘ozlar bozori, kambag‘allik, bandlik, investitsiya, moliyaviy inklyuziya.*

Abstract. *This article analyzes the role and significance of capital market development in the modern economic system based on a comprehensive approach. In particular, it examines the potential for reducing poverty and increasing household incomes through the improvement of capital market infrastructure, expansion of the securities market, and enhancement of the*

investment environment. The study highlights the role of capital markets in attracting long-term financial resources into the economy, expanding production, creating new jobs, and ensuring employment. In addition, issues related to achieving socio-economic stability through the expansion of financial inclusion and the promotion of investment activity are analyzed. The research findings indicate that an efficiently functioning capital market accelerates economic growth, reduces income inequality, and serves as an important factor in decreasing the level of poverty.

Keywords *capital market, securities market, poverty reduction, employment, investment, financial inclusion.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda moliya tizimining, ayniqsa kapital bozorlarining o‘rni tobora ortib bormoqda. Kapital bozorlari iqtisodiyotga uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash hamda ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish orqali iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarga ko‘ra, rivojlangan kapital bozori mavjud bo‘lgan mamlakatlarda investitsion faollik yuqori bo‘ladi, bu esa yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, yangi ish o‘rinlari yaratiladi, aholi bandligi ortadi va daromadlar manbalari kengayadi.

Shu bilan birga, kapital bozorlarining rivojlanishi aholi uchun qo‘shimcha daromad olish imkoniyatlarini yaratadi. Fuqarolar qimmatli qog‘ozlarga investitsiya kiritish orqali o‘z jamg‘armalarini ko‘paytirishlari mumkin, bu esa ularning moliyaviy barqarorligini oshiradi. Ayniqsa, moliyaviy inklyuziya darajasining oshishi aholining keng qatlamlarini moliyaviy xizmatlarga jalb etib, iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda kambag‘allikni qisqartirish masalasi ko‘plab davlatlar oldida turgan dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etishda an’anaviy fiskal va ijtimoiy siyosatlar bilan bir qatorda, kapital bozorlarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi kapital bozorlarini rivojlantirishning kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirishdagi rolini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

Asosiy qism. Kapital bozori — bu uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish va ularni iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida samarali taqsimlashga xizmat qiluvchi moliyaviy tizimning muhim tarkibiy qismidir. Ushbu bozorda aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar muomalada bo‘lib, investorlar va emitentlar o‘rtasida moliyaviy vositachilikni ta’minlaydi. Kapital bozorlari iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishiga xizmat qilib, ishlab chiqarish

samaradorligini oshiradi va iqtisodiy o‘sish uchun zarur sharoit yaratadi.[45]

Kapital bozorlari korxonalarga uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb etish imkonini beruvchi muhim mexanizm hisoblanadi. Ushbu moliyaviy imkoniyatlar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, zamonaviy va innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, iqtisodiy faoliyat samaradorligi ortib, barqaror iqtisodiy o‘sish uchun zarur shart-sharoitlar shakllanadi. Shu bilan birga, fond bozori infratuzilmasining rivojlanishi kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun an’anaviy moliyalashtirish manbalariga muqobil bo‘lgan qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratadi va ularning investitsion faolligini rag‘batlantiradi.

Kapital bozorlarining rivojlanishi kambag‘allikni qisqartirishga ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadi va bu jarayon iqtisodiy hamda ijtimoiy mexanizmlar orqali amalga oshadi. Birinchidan, investitsiyalar hajmining oshishi yangi ish o‘rinlari yaratilishiga olib keladi. Kapital bozorlari orqali moliyalashtirilgan korxonalar ishlab chiqarish hajmini kengaytiradi, natijada ishchi kuchiga bo‘lgan talab ortadi va aholi bandligi oshadi. Bandlik darajasining oshishi esa kambag‘allikni kamaytirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, kapital bozorlari aholining investitsion imkoniyatlarini kengaytiradi. Fuqarolar aksiyalar va obligatsiyalar kabi moliyaviy instrumentlarga investitsiya kiritish orqali o‘z jamg‘armalarini ko‘paytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa passiv daromad manbalarini shakllantirib, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, kapital bozorlari moliyaviy inklyuziyani kengaytiradi. Rivojlangan moliyaviy infratuzilma aholining keng qatlamlarini moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olib, ularning iqtisodiy faoliyatda ishtirokini kuchaytiradi. Bu esa daromadlar tengsizligini kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

To‘rtinchidan, kapital bozorlari iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish orqali bilvosita kambag‘allikni qisqartiradi. Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy bozorlar rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari yuqori bo‘lib, bu kambag‘allik darajasining pasayishiga olib keladi.

So‘nggi yillarda global kapital bozorlarining ketma-ket o‘sish dinamikasi kuzatilmoqda. Jahon fond birjalarining umumiy bozor kapitallashuvi 2017 yildan 2023 yilgacha taxminan 84 trillion AQSh dollaridan 117 trillion AQSh dollariga o‘sdi, bu esa kapital bozorlarining korxonalar uchun moliyaviy resurslarni keng jalb qilish imkoniyatining oshganini ko‘rsatadi. Shu davrda ro‘yxatga olingan kompaniyalar soni ham taxminan 41 000 dan 42 500 ga oshdi, bu kapital bozorlarining global miqyosda kengayib borayotganini tasdiqlaydi. Bu o‘sish asosan rivojlanayotgan iqtisodiyotlar, xususan Osiyo mintaqasida ro‘y bermoqda.

Global korporativ obligatsiyalar bo‘yicha ham sezilarli o‘sish kuzatiladi. 2000 yildan 2023 yilga kelib korporativ obligatsiyalar bo‘yicha umumiy qarz miqdori 13,6 trillion AQSh dollaridan 33,6 trillion AQSh dollariga ko‘paydi. Bu holat korxonalar uchun bank kreditlaridan tashqari bozor-asosli uzoq muddatli

[45] Mishkin, F. S. (2019). *The Economics of Money, Banking and Financial Markets* (12th ed.). Pearson Education.

moliyalashtirish manbalarining kengayganini anglatadi.

Shuningdek, Osiyo mintaqasidagi “o‘sish bozorlari”da — ya’ni kichik va o‘rta kompaniyalar kapitalini jalb etish uchun ixtisoslashtirilgan bozor segmentlarida — ro‘yxatga olingan kompaniyalar soni va ularning bozor kapitallashuvi ham sezilarli darajada oshgan. Masalan, 2023 yilda Osiyo bo‘yicha 8 586 dan ortiq kompaniya “growth market”larida ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularning umumiy bozor kapitallashuvi ≈ 3,3 trillion AQSh dollarini tashkil etadi.[46]

Kapital bozorlarining kengayishi korxonalar uchun uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatini oshiradi, bu esa ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va yangi investitsiyalarni yo‘naltirish orqali iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga xizmat qiladi. Moliyaviy resurslar bozor orqali ko‘proq korxonalarga yo‘naltirilganda ular ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi, yangi texnologiyalarni joriy etadi va ishlab chiqarish hajmini ko‘paytiradi. Bu jarayon natijasida korxonalar faoliyatini kengaytirib, mehnat bozorida ishchi kuchiga bo‘lgan talab ortadi va yangi ish o‘rinlari yaratiladi, bu esa bandlik darajasini yaxshilashga va kambag‘allikni qisqartirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kapital bozorlarining rivojlanishi bilan bog‘liq korxonalar o‘sishiga xizmat qiluvchi moliyaviy vositalar mehnat bozoriga ham ta’sir ko‘rsatadi, chunki bu bozorlar orqali resurslar samaraliroq taqsimlanadi va iqtisodiy faollik kuchayadi.

Bundan tashqari, kapital bozorlari orqali jalb qilingan investitsiyalar iqtisodiyotning umumiy barqaror o‘sishiga xizmat qiladi, chunki sarmoya oqimlari ko‘payadi va ishlab chiqarish samaradorligi oshadi. Bu bozorlar iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlab, daromadlar va ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi, shuningdek ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Kapital bozorlarining o‘sishi iqtisodiyotning bir qancha sohalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, texnologik va startap sektorlar aksiyalar va investorlar jalb etilishi orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlanadi, bu esa innovatsion startaplarning rivojlanishiga yordam beradi. Energetika va infratuzilma loyihalari korporativ obligatsiyalar va bozor bondlari orqali jiddiy sarmoyalar topadi, bu esa yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish imkoniyatini oshiradi. Shuningdek, kapital bozorlarining kengayishi korporativ kompaniyalar uchun yirik kapitalni jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa ularning strategik o‘sish va global maydonda raqobatbardosh bo‘lishiga xizmat qiladi.[47]

Xulosa va takliflar. Kapital bozorlarining rivojlanishi global iqtisodiyot uchun muhim bo‘lishiga qaramay, u bir qator muammolar bilan yuzma-yuz keladi. Birinchidan, bozorlarning notekis rivojlanishi — rivojlangan mamlakatlarda kapital bozorlarining hajmi kengaygan bo‘lsa-da, rivojlanayotgan va past daromadli mamlakatlarda fond va obligatsiya bozorlarining imkoniyatlari cheklangan; natijada, kichik va o‘rta biznes subyektlari uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Ikkinchidan, moliyaviy

[46] Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). *Capital Markets and Global Debt Reports* (2017–2025). Paris: OECD Publishing.

[47] Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). *Capital Markets and Global Economic Development Reports* (2017–2025). Paris: OECD Publishing.

Эти меры напрямую способствуют созданию новых рабочих мест, увеличению доходов населения, стимулированию предпринимательской активности и расширению финансовой инклюзии, обеспечивая включение большего числа граждан в экономическую жизнь страны. Таким образом, банковское кредитование выступает не только как экономический инструмент, но и как важный социальный механизм, направленный на улучшение качества жизни населения.

Для повышения эффективности кредитной поддержки рекомендуется:

- расширять и совершенствовать программы льготного финансирования для малого и среднего бизнеса;
- активно внедрять цифровые банковские технологии, упрощая доступ к кредитам и снижая транзакционные издержки;
- оптимизировать процедуры предоставления кредитов, повышая их прозрачность и оперативность;
- вовлекать большее число малых и средних предприятий в программы финансовой поддержки;
- укреплять государственно-банковское взаимодействие для снижения кредитных рисков и увеличения доступности ресурсов.

Комплексная реализация этих мер позволяет создать устойчивую финансовую среду, в которой лёгкая промышленность получает необходимое стимулирование для роста, а население – новые возможности для занятости и повышения доходов. В конечном итоге такой подход способствует не только ускорению экономического развития, но и сокращению бедности, обеспечивая гармоничное социально-экономическое развитие страны.

Список использованной литературы

1. Махмудова Д. Р., Каримова А. М. Анализ кредитного обеспечения легкой промышленности Узбекистана и факторы, препятствующие её развитию // Recent scientific discoveries and methodological research. – 2026. – Т. 3. – №. 2. – С. 45-49.

2. Тошкенбоева Л.А. Роль банковского кредитования в развитии малого и среднего бизнеса: влияние на экономику страны (на примере АКБ «Ipak Yo‘li» Bank) // Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. - 2025. - С. 24-31.

3. Каримова А. М. Методологические основы банковского кредитования и классификация факторов, влияющих на особенности получения кредитов // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. - 2023. - Т. 1. - № 11-12.

4. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Pería M.S.M. Bank Financing for SMEs: Evidence Across Countries and Bank Ownership Types // Journal of Financial Services Research. -2011. - Vol. 39, No. 1. - P. 35–54.

5. Beck T. Bank Financing for SMEs – Lessons from the Literature // National Institute Economic Review. - 2013. - Vol. 225. - P. R23–R38.

6. IFC (International Finance Corporation). MSME Finance Gap - Assessment of the Shortfalls and Opportunities in Financing Micro, Small, and Medium Enterprises. - Washington, DC: IFC, 2017.

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA IJTIMOIY YO‘NALTIRILGAN MOLIYAVIY XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHNING KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA’SIRI

SamISI, “Bank-moliya xizmatlari” fakulteti talabasi
Abdusalomov Abdushukur
SamISI, “Bank ishi” kafedrasi
o’qituvchisi Abduraxmanov Alimardon

ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatida ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishning kambag‘allikni qisqartirishga ta’siri O‘zbekiston misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy xizmatlar deganda aholining zaif qatlamlari uchun qulay bank mahsulotlari, moliyaviy inklyuziya, iste’molchi huquqlarini himoya qilish, moliyaviy savodxonlik, ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, masofaviy xizmatlar hamda kam daromadli uy xo‘jaliklarini daromadli faoliyatga olib kiruvchi instrumentlar tushuniladi. Maqolaning asosiy maqsadi tijorat banklari faoliyatining an’anaviy kreditlash doirasidan chiqib, ijtimoiy inklyuziya instituti sifatida qanday ishlayotganini ko‘rsatish*dir. *Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bank xizmatlarining sifati, qamrovi va maqsadli yo‘naltirilganligi oshgani sari kambag‘allikni qisqartirishning barqaror mexanizmlari kuchayadi, chunki uy xo‘jaliklari rasmiy moliyaviy tizimga ulanadi, mikrobiznesga kirish osonlashadi va moliyaviy xatarlar boshqarilishi yaxshilanadi. Shu bilan birga, bu ta’sir faqat kredit hajmi bilan emas, balki mahsulotlarning ijtimoiy guruhlarga mosligi, iste’molchi himoyasi va postxizmat qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan belgilanadi.*

Kalit so‘zlar: *Tijorat banklari, ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy xizmatlar, kambag‘allikni qisqartirish, moliyaviy inklyuziya, iste’molchi huquqlarini himoya qilish, moliyaviy savodxonlik, ayollar tadbirkorligi, raqamli bank xizmatlari, kichik biznes, O‘zbekiston.*

KIRISH. So‘nggi yillarda tijorat banklarining iqtisodiyotdagi roli an’anaviy kredit vositachiligi doirasidan ancha kengaydi. Endilikda bank tizimi faqat resurslarni taqsimlovchi emas, balki moliyaviy inklyuziyani kengaytiruvchi, zaif qatlamlarni rasmiy iqtisodiy aylanishga olib kiruvchi va ijtimoiy barqarorlikni

mustahkamlovchi institut sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston tajribasi bu o‘zgarishni ayniqsa yaqqol ko‘rsatadi: Markaziy bankning 2024 yil bo‘yicha yillik hisobotida moliyaviy inklyuziya va bank xizmatlari iste’molchilarini himoya qilish alohida bo‘lim sifatida yoritilgan, 2021–2023 yillardagi Milliy moliyaviy inklyuziya strategiyasi natijalari baholangan, aholining bank tizimiga ishonchi va moliyaviy savodxonligi bo‘yicha so‘rovlar o‘tkazilgan hamda yoshlar, ayollar va tadbirkorlar bilan fokus-guruhlar tashkil etilgani qayd etilgan. Bu holat banklarning ijtimoiy yo‘naltirilgan faoliyati O‘zbekistonda alohida siyosiy va institutsional yo‘nalishga aylanganini ko‘rsatadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi mamlakatdagi kambag‘allik dinamikasi bilan ham bog‘liq. Jahon bankining 2024 yilgi O‘zbekiston bo‘yicha Poverty and Equity Brief hujjatida milliy kambag‘allik darajasi 2021 yildagi 17,0 foizdan 2022 yilda 14,1 foizga, 2023 yilda esa 11,0 foizgacha pasaygani qayd etiladi. Bu ijobiy natija asosan ish haqi va daromadlarning o‘sishi bilan izohlangan bo‘lsa-da, hisobot mazkur pasayishni barqaror saqlash uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiruvchi institutlar zarurligini ham ko‘rsatadi. Aynan shu nuqtada tijorat banklari faoliyatidagi ijtimoiy yo‘naltirilgan xizmatlar muhim ahamiyat kasb etadi: ular kam daromadli qatlamlar uchun hisob-raqam, to‘lov, jamg‘arma, mikromoliya, maslahat va masofaviy xizmatlarni taqdim etish orqali kambag‘allikni qisqartirishning uzoq muddatli mexanizmlarini shakllantiradi.

Mavzuning yana bir muhim tomoni shundaki, kambag‘allik endi faqat daromadning pastligi bilan emas, balki moliyaviy cheklanishlar bilan ham bog‘liq ravishda tushunilmoqda. UNDPning O‘zbekiston bo‘yicha pilot multidimensial kambag‘allik materiallarida moliyaviy inklyuziya kambag‘allikning alohida o‘lchamlaridan biri sifatida tilga olinadi, norasmiy bandlik esa ijtimoiy himoya va munosib mehnatga kirishni cheklovchi omil sifatida qayd etiladi. UNDPning 2025 yilgi norasmiy bandlik haqidagi hisobotida ham aynan yoshlar, ayollar va qishloq aholisi norasmiylikdan ko‘proq zarar ko‘rayotgani ko‘rsatilgan. Demak, tijorat banklari faoliyatida ijtimoiy yo‘naltirilgan xizmatlarni rivojlantirish masalasi faqat bank sektorini modernizatsiya qilish emas, balki kambag‘allikning tarkibiy sabablari bilan ishlash masalasidir.

O‘zbekistonda bu jarayon tijorat banklarining o‘zida ham aniq ko‘rinmoqda. 2024 yilgi yillik hisobotga ko‘ra, 182 ta seminar-trening 157 tuman kesimida o‘tkazilib, 16 918 nafar ayollar, yoshlar, mahalla faollari va tadbirkorlar qamrab olingan; 16 ta tijorat banki ishtirokida maktablar uchun moliyaviy savodxonlik materiallari ishlab chiqilgan; “Inson” ijtimoiy xizmat markazlari katta xodimlari uchun kam daromadli uy xo‘jaliklarida daromad yaratishga yordam beruvchi raqamli platformalarni targ‘ib etishga qaratilgan maxsus dastur ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, bankxizmatlari.uz portali foydalanuvchilari oyiga 16 ming kishigacha yetgan, 1 008 ta nazorat tekshiruvi o‘tkazilgan va iste’molchi huquqlari buzilishi bilan bog‘liq 1 580 ta murojaat ko‘rib chiqilgan. Bu bank faoliyatida ijtimoiy yo‘naltirilgan xizmatlar deganda faqat kredit berish emas, balki ma’lumot, himoya, maslahat va ishonch infratuzilmasi ham nazarda tutilishini ko‘rsatadi.

Shu sababli ushbu maqolaning asosiy maqsadi tijorat banklari faoliyatida

ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishning kambag‘allikni qisqartirishga ta’sirini tahlil qilish, bu xizmatlarning amaldagi mexanizmlarini aniqlash va ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Maqolada banklar ijtimoiy siyosatning to‘liq o‘rnini bosuvchi institut sifatida emas, balki iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiruvchi va kambag‘allikdan chiqish uchun moliyaviy infratuzilma yaratuvchi strategik sherik sifatida ko‘rib chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. ***Annual Report 2024*** **(2026).** Mazkur hisobot mavzu bo‘yicha eng muhim rasmiy manbalardan biridir, chunki unda ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy xizmatlar ilk bor juda tizimli tarzda “financial inclusion and consumer protection in banking services” doirasida yoritilgan. Hujjatda 2021–2023 yillardagi Milliy moliyaviy inklyuziya strategiyasi yakunlari baholangani, aholi o‘rtasida moliyaviy inklyuziya va savodxonlik bo‘yicha so‘rovlar o‘tkazilgani, shuningdek yoshlar, ayollar va tadbirkorlar bilan fokus-guruhlar tashkil etilgani ko‘rsatiladi. Bu hisobotning ilmiy qimmati shundaki, u bank xizmatlarini ijtimoiy ehtiyojlardan uzilgan texnik mahsulot sifatida emas, balki foydalanuvchi ehtiyojlari, ishonch va moliyaviy xulq-atvor bilan bog‘liq institut sifatida talqin qiladi. Ayniqsa, tijorat banklari ishtirokida moliyaviy savodxonlik bo‘yicha maktab materiallari ishlab chiqilgani, nogironligi bo‘lgan shaxslar va kam daromadli uy xo‘jaliklariga mos raqamli vositalarni targ‘ib etishga qaratilgan tashabbuslar bu yondashuvni kuchaytiradi. Hisobotning ijtimoiy yo‘naltirilganlikni ko‘rsatuvchi yana bir muhim jihati shuki, unda moliyaviy xizmatlar iste’molchilarini himoya qilish bo‘yicha 2025–2027 yillarga mo‘ljallangan “Roadmap” tasdiqlangani, 1 008 ta nazorat tekshiruvi, 1 580 ta iste’molchi shikoyati ko‘rib chiqilgani va bankxizmatlari.uz portali ommaviy foydalanishga aylanib borayotgani qayd etiladi. Bu banklar faoliyatida sifat, oshkoralik va ijtimoiy javobgarlikning kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Mazkur manba maqola uchun tayanch adabiyot vazifasini bajaradi, chunki u banklarning kambag‘allikni qisqartirishdagi rolini faqat kreditlash bilan emas, balki moliyaviy ma’rifat, himoya va qamrov bilan bog‘laydi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. ***Annual Report 2023*** **(2024).** 2023 yilgi yillik hisobot ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy xizmatlar bo‘yicha keyingi bosqich islohotlari uchun tayanch poydevorni ko‘rsatib beradi. Hujjatda 2021–2023 yillar uchun ishlab chiqilgan Milliy moliyaviy inklyuziya strategiyasining maqsadlari muvaffaqiyatli amalga oshirilgani va bu doirada asosiy moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirish, raqamli xizmatlarni rivojlantirish, kichik biznesni moliyalashtirish, moliyaviy xizmatlar iste’molchilari huquqlarini himoya qilish hamda moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan 51 ta tadbir bajarilgani ko‘rsatiladi. Hisobotda bank xizmat nuqtalari soni 3 723 taga yetgani va 100 ming katta yoshli aholiga 56 ta xizmat nuqtasi to‘g‘ri kelgani haqidagi ma’lumot ham juda muhimdir, chunki bu ijtimoiy yo‘naltirilgan xizmatlarning jismoniy qamrovini ko‘rsatadi. Hujjat, ayniqsa, tijorat banklarining ijtimoiy vazifasini amaliy ko‘rsatkichlar orqali ochadi: 154 ta seminar ayollar, yoshlar, migrantlar va ularning oila a’zolari uchun o‘tkazilib, 16

317 kishi qamrab olingan; 17 ta tijorat banki maktab o‘quvchilari uchun 5 871 ta ochiq dars tashkil etib, 195 mingdan ortiq bolani qamrab olgan; 13 ta tijorat bankidan 186 nafar mutaxassis qayta tayyorlanib, bank qabulxonalarida moliyaviy maslahat berish tizimi joriy etilgan va natijada 30 389 kishi konsultatsiya bilan qamrab olingan. Yana bir muhim jihat — 2023 yilda kommunal to‘lovlar va davlat xizmatlari uchun vositachilik komissiyalarining bekor qilinishi tufayli uy xo‘jaliklari taxminan 85 milliard so‘m tejagan. Bu esa tijorat banklari orqali ko‘rsatilayotgan ijtimoiy yo‘naltirilgan xizmatlar ba’zan bevosita xarajatlarni kamaytirish orqali ham kambag‘allikni yumshata olishini ko‘rsatadi.

World Bank. ***Uzbekistan Poverty and Equity Brief*** **(2024).** Jahon bankining ushbu hujjati to‘g‘ridan to‘g‘ri bank sektori haqida bo‘lmasa-da, maqola mavzusining makroijtimoiy asosini belgilab beradi. Hujjatda O‘zbekistonda milliy kambag‘allik darajasi 2021 yildagi 17,0 foizdan 2022 yilda 14,1 foizga, 2023 yilda esa 11,0 foizgacha pasaygani ko‘rsatiladi. Bu ma’lumot ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy xizmatlar masalasini alohida sektor muammosi emas, balki mamlakatdagi kengroq kambag‘allikni qisqartirish strategiyasining tarkibiy elementi sifatida ko‘rish imkonini beradi. Hujjatning ahamiyati shundaki, unda kambag‘allikning qisqarishi asosan real ish haqi va daromadlar o‘sishi bilan izohlanadi, ya’ni kambag‘allikka qarshi eng samarali kurash usullaridan biri daromad topish imkoniyatlarini kengaytirish ekanini ko‘rsatadi. Aynan shu nuqtada tijorat banklarining ijtimoiy yo‘naltirilgan xizmatlari — mikromoliya, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy maslahat, raqamli xizmatlar va iste’molchi himoyasi — daromad yaratish zanjirining moliyaviy infratuzilmasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu manbadan chiqadigan asosiy metodologik xulosa shuki, banklar kambag‘allikni to‘g‘ridan to‘g‘ri “hal qilmaydi”, lekin daromadni oshiruvchi faoliyat uchun kirish eshiklarini kengaytirishi mumkin. Shu bois ushbu hujjat maqola uchun nazariy fon yaratadi va bank sektoridagi ijtimoiy xizmatlarni mamlakatdagi kambag‘allik dinamikasi bilan bog‘lashga yordam beradi. U tijorat banklarini alohida emas, balki kengroq ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar tarkibida ko‘rishga undaydi.

World Bank. ***Financial Inclusion for Growth, Returns, and Opportunities for Work (FINGROW) – Uzbekistan*** **(2025).** FINGROW hujjati tijorat banklari faoliyatida ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy xizmatlarning kambag‘allikni qisqartirishga ta’sirini iqtisodiy tuzilma bilan bog‘laydigan eng muhim manbalardan biridir. Hujjatda O‘zbekistonda MSMElar bizneslarning 90 foizini, bandlikning 75 foizini va YaIMning taxminan 55 foizini tashkil etishi ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, firmalarning faqat 22,6 foizi investitsiyalarni banklar orqali moliyalashtirayotgani va MSME kreditlash bo‘shlig‘i 6–7 milliard AQSh dollariga baholanayotgani qayd etiladi. Bu ma’lumotlar bank xizmatlari iqtisodiy jihatdan qanchalik ijtimoiy ahamiyatga ega ekanini aniq ko‘rsatadi: agar asosiy ish o‘rinlarini yaratadigan qatlam bank kapitaliga to‘liq chiqolmasa, kambag‘allikni barqaror qisqartirish qiyin bo‘ladi. Mazkur hujjatning ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy xizmatlar nuqtai nazaridan qiymati shundaki, u bank sektorining roli faqat yirik korporativ kreditlash emas, balki kichik biznes,

raqamli to‘lovlar, ayollar boshchiligidagi bizneslar va xizmatlardan chetda qolayotgan qatlamlar uchun kapitalga kirishni kengaytirish ekanini ko‘rsatadi. Hujjat, shuningdek, ayrim subsidiyalangan yoki ma’muriy yo‘naltirilgan kredit dasturlari bozor signallarini buzishi mumkinligini ta’kidlab, qisman kredit kafolatlari, kredit liniyalari va bozor tamoyillariga yaqinroq instrumentlarni samaraliroq deb baholaydi. Shunday qilib, FINGROW banklardagi ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy xizmatlar masalasini “ko‘proq kredit” emas, balki “to‘g‘ri dizayndagi, inklyuziv va samarali moliyalashtirish” masalasi sifatida talqin qilishga yordam beradi.

UNDP, OPHI va CERR. ***Uzbekistan Pilot Multidimensional Poverty Index Report 2023*** **(2024).** Mazkur hisobot maqola uchun konseptual jihatdan juda muhim manbadir, chunki u kambag‘allikni faqat daromad kamligi bilan emas, balki bir necha o‘lchamli cheklanishlar bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. UNDPning O‘zbekiston bo‘yicha pilot materiallarida moliyaviy inklyuziya kambag‘allikning tarkibiy o‘lchamlaridan biri sifatida qayd etilgan. Bu yondashuv tijorat banklari faoliyatida ijtimoiy yo‘naltirilgan xizmatlarning nega muhim ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi. Agar moliyaviy tizimga kira olmaslik kambag‘allikning bir ko‘rinishi bo‘lsa, banklar tomonidan taqdim etilayotgan qulay hisob-raqamlar, masofaviy to‘lovlar, mikromoliya, maslahat va iste’molchi himoyasi xizmatlari bevosita kambag‘allikning bir qatlamiga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu hisobotning kuchli tomoni shundaki, u bank sektorining ijtimoiy ta’sirini an’anaviy bank ko‘rsatkichlari bilan emas, inson farovonligi nuqtai nazaridan talqin qilish imkonini beradi. Bu holat tijorat banklarini “sof bozor instituti” emas, balki ijtimoiy inklyuziyaning hamkor mexanizmi sifatida ko‘rishga yordam beradi. Shuningdek, hisobot ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy xizmatlarni kambag‘allikdan chiqish strategiyasining tarkibiy qismi sifatida baholash uchun mustahkam metodologik asos beradi. Ya’ni banklar tomonidan yaratilgan xizmatlar qanchalik qulay va himoyalangan bo‘lsa, zaif qatlamlarning rasmiy moliyaviy tizimga ulanib, keyingi iqtisodiy imkoniyatlarga chiqish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI. Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyatida ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishning kambag‘allikni qisqartirishga ta’siri **institutsional-deskriptiv yondashuv** asosida o‘rganildi. Tadqiqotning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, banklar kambag‘allikni to‘g‘ridan to‘g‘ri kamaytirmaydi; ular bu natijaga ma’lum mexanizmlar orqali ta’sir ko‘rsatadi.

Metodologiyaning birinchi bosqichi **institutsional xaritalash**dan iborat bo‘ldi. Unda tijorat banklari alohida, o‘z-o‘zidan ishlovchi moliyaviy subyekt sifatida emas, balki Markaziy bank, ijtimoiy himoya tizimi, ta’lim muassasalari, xalqaro moliya institutlari va mahalliy jamoalar bilan bog‘langan tarmoqning bir qismi sifatida ko‘rib chiqildi. 2024 yilgi hisobotdan ko‘rinadiki, moliyaviy inklyuziya bo‘yicha fokus-guruhlar, “Inson” ijtimoiy xizmat markazlari bilan hamkorlik, tijorat banklari ko‘magida moliyaviy savodxonlik materiallari yaratish va iste’molchi huquqlarini himoya qilish bo‘yicha “Roadmap” kabi chora-tadbirlar aynan shu ko‘p institutli yondashuv mahsulidir. Bu yondashuv

metodologik jihatdan muhim, chunki bank xizmati ijtimoiy yo‘naltirilgan bo‘lishi uchun uning orqasida ma’lumot, monitoring, hamkorlik va javobgarlik tizimi bo‘lishi kerak. Aks holda, hatto foydali mahsulot ham zaif qatlamlarga yetib bormasligi yoki ular tomonidan to‘g‘ri ishlatilmasligi mumkin.

Ikkinchi bosqich **mexanizmli tahlil** bo‘ldi. Bu bosqichda kambag‘allikni qisqartirishga olib boruvchi asosiy oltita kanal ajratildi. Birinchi kanal — **transaksiya xarajatlarini kamaytirish**: vositachilik komissiyalarining bekor qilinishi va bank to‘lov tizimlarining kengayishi uy xo‘jaliklarining kundalik xarajatlarini kamaytiradi. Ikkinchi kanal — **moliyaviy savodxonlik orqali xatarni pasaytirish**: qarz shartlarini tushunish, xavfsiz to‘lov, firibgarlikdan himoya va jamg‘arma ko‘nikmalari zaif qatlamlar uchun moliyaviy xatarlardan qochish imkonini yaratadi. Uchinchi kanal — **maqsadli moliyalashtirishga chiqish**: ayollar, yoshlar va mikro tadbirkorlar uchun moslashgan mahsulotlar yangi daromad manbai yaratishga yordam beradi. To‘rtinchi kanal — **rasmiy moliyaviy tarixni shakllantirish**: bank hisobi, raqamli tranzaksiya va masofaviy xizmatlar fuqaroni rasmiy moliyaviy tizimga bog‘laydi. Beshinchi kanal — **iste’molchi huquqlarini himoya qilish**: shaffoflik va adolatli xizmat ko‘rsatish zaif guruhlarning bank tizimiga ishonchini oshiradi. Oltinchi kanal — **sheriklik asosida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash**: tijorat banklari davlat va jamoa institutlari bilan birga ishlab, kam daromadli oilalarga daromad yaratishga yo‘naltirilgan vositalarni yetkazadi. Tadqiqot shu oltita kanal orqali bank xizmatlarining kambag‘allikka ta’sirini tushuntirdi.

Uchinchi bosqich **indikatorlar bo‘yicha qiyosiy tahlil**dan iborat bo‘ldi. Tadqiqotda bank xizmatlari soni yoki kredit hajmidan tashqari, ijtimoiy yo‘naltirilganlikni ifodalovchi quyidagi indikatorlar tanlandi: 100 ming katta yoshli aholiga to‘g‘ri keladigan xizmat nuqtalari, moliyaviy savodxonlik tadbirlarining qamrovi, maxsus guruhlar uchun seminarlar soni, bank qabulxonalaridagi maslahatchilar faoliyati, iste’molchi shikoyatlari bilan ishlash ko‘lami, raqamli portal foydalanuvchilari va maqsadli gender tashabbuslari. Masalan, 2023 yilda 17 ta tijorat banki 195 mingdan ortiq o‘quvchini ochiq darslar bilan qamrab olgani, 13 ta bankda moliyaviy maslahat tizimi joriy etilgani va 30 mingdan ortiq fuqaro konsultatsiya olgani; 2024 yilda esa 182 seminar-trening 16 918 kishini qamrab olgani hamda bankxizmatlari.uz platformasi foydalanuvchilari oyiga 16 ming kishiga yetgani banklarning ijtimoiy xizmatlari institutsional ravishda kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Metodologik jihatdan bu ko‘rsatkichlar bank xizmatlarining kambag‘allikni kamaytirishdagi rolini “moliyaviy qamrov + bilim + himoya” uchligi orqali baholashga imkon berdi.

To‘rtinchi bosqich **maqsadli guruhlar bo‘yicha segmentlangan tahlil** bo‘ldi. Bu yerda bank xizmatlari barcha aholi qatlamlariga bir xil ta’sir qilmaydi, degan faraz asos qilib olindi. Ayollar, yoshlar, migrantlar, qishloq aholisi, kam daromadli uy xo‘jaliklari va norasmiy mehnat bilan band shaxslar alohida segment sifatida o‘rganildi. WE-Finance Code hisobotida ayollarning moliyaga kirishi uchun ma’lumotlarga asoslangan yondashuv va bank tizimidagi javobgarlikni kuchaytirish zarurligi ko‘rsatilgan bo‘lsa, UNDPning norasmiy bandlik haqidagi hisobotida aynan yoshlar, ayollar va qishloq aholisi eng zaif

guruhlar qatorida qayd etiladi. Shu sababli metodologiyada ijtimoiy yo‘naltirilgan xizmatlar “barcha uchun bir xil” mahsulot emas, balki segmentlarga mos xizmatlar majmui sifatida talqin qilindi. Bu banklarning kambag‘allikka ta’sirini ancha aniqroq tushuntirishga yordam beradi: masalan, ayol tadbirkor uchun kreditning o‘zi emas, unga moslashtirilgan mahsulot va ma’lumot muhim bo‘lishi mumkin; migrant oilasi uchun esa xavfsiz to‘lov, pul boshqaruvi va jamg‘arma vositalari ustuvor bo‘lishi mumkin.

Beshinchi bosqich **iste’molchi huquqlarini himoya qilishning kambag‘allikka ta’sirini baholash**dan iborat edi. Odatda banklarning ijtimoiy roli kredit va depozit bilan o‘lchanadi, biroq zaif qatlamlar uchun xizmatning halolligi, shartlarning tushunarliligi va shikoyatni ko‘rib chiqish mexanizmi ham shunchalik muhim. 2024 yilgi hisobotda 1 008 ta inspeksiya davomida ayrim bank xodimlari kredit va depozit shartlari haqida to‘liq ma’lumot bermagani, standart shartnoma namunalari ko‘rsatilmagani va kartalar orqali to‘lov qabul qilish yetarli darajada ta’minlanmagani qayd etilgan. Shu bilan birga, 1 580 ta iste’molchi huquqlari buzilishi haqidagi murojaat ko‘rib chiqilib, 116 fuqaroning huquqlari tiklangan. Metodologik jihatdan bu ma’lumot juda muhim: agar ijtimoiy yo‘naltirilgan xizmatlarda himoya bo‘lmasa, zaif guruhlar bank tizimidan qo‘rqadi, unga ishonmaydi yoki noto‘g‘ri shartlar tufayli zarar ko‘radi. Demak, bank xizmatlarining kambag‘allikni kamaytirishdagi ijobiy ta’siri himoya va oshkoralik bilan mustahkamlangandagina barqaror bo‘ladi.

Oltinchi bosqich **takomillashayotgan siyosiy muhit va rivojlantirish ishlari**ni tahlil qilish bo‘ldi. 2025–2030 yillarga mo‘ljallangan Milliy moliyaviy inklyuziya strategiyasi va u bilan bog‘liq “roadmap”lar tijorat banklarining ijtimoiy yo‘naltirilgan xizmatlarini alohida tashabbuslar yig‘indisidan tizimli siyosat darajasiga olib chiqmoqda. ADB dasturi bozorni diversifikatsiya qilish va xizmat ololmayotgan mikro tadbirkorlarni qamrab olishni, Jahon banki esa kichik biznesni kapitalga chiqarishni bank tizimining strategik vazifasi sifatida ko‘rsatmoqda. Shu asosda metodologiya bank sektorining kambag‘allikni kamaytirishdagi ta’sirini statik emas, balki davom etayotgan institutsional qurilish jarayoni sifatida baholadi. Ya’ni banklar hozirgi holatida emas, balki qaysi yo‘nalishda o‘zgarayotganiga qarab tahlil qilindi. Bu yondashuv maqola uchun muhim, chunki ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy xizmatlar samarasi ko‘p hollarda birdan emas, vaqt o‘tishi bilan, banklar, regulyator va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi uyg‘unlik kuchaygan sari namoyon bo‘ladi.

Umumiy metodologik xulosa shuki, tijorat banklari faoliyatida ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy xizmatlarning kambag‘allikni qisqartirishdagi ta’sirini uch darajada baholash kerak: **birinchi daraja — qamrov va kirish**, **ikkinchi daraja — foydalanish sifati va himoya**, **uchinchi daraja — daromad va ijtimoiy barqarorlikka ta’sir**. Agar banklar faqat birinchi darajada — ya’ni hisob ochish yoki kredit berish bilan cheklansa, ijtimoiy ta’sir sayoz bo‘ladi. Agar ikkinchi va uchinchi darajalar ham ishlasa, ya’ni mahsulot tushunarli, himoyalangan, maqsadli va daromad yaratishga yordam beruvchi bo‘lsa, bank tizimi kambag‘allikni qisqartirishning kuchli institutsional sherigiga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki,

O‘zbekistonda tijorat banklari faoliyatida ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish kambag‘allikni qisqartirishning muhim vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, moliyaviy savodxonlikni oshirish, zaif guruhlar uchun maqsadli mahsulotlar yaratish, bank qabulxonalarida moliyaviy maslahatlar berish, raqamli xizmatlarni ommalashtirish, iste’molchi huquqlarini himoya qilish va ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlar banklarning ijtimoiy rolini ancha kengaytirdi. Bu xizmatlar kam daromadli qatlamlarni bank tizimiga yaqinlashtirib, ularning kundalik moliyaviy xatarlarini kamaytiradi, daromad yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi va norasmiy iqtisodiy holatdan nisbatan rasmiyroq moliyaviy muhitga o‘tishga yordam beradi. Shu ma’noda, tijorat banklari kambag‘allikni to‘g‘ridan to‘g‘ri “bartaraf etuvchi” institut bo‘lmasa-da, undan chiqish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy infratuzilmani yaratuvchi asosiy sheriklardan biri ekanligi tasdiqlandi.

Shu bilan birga, tahlil ijtimoiy yo‘naltirilgan xizmatlar hajman kengaygani bilan ularning samarasi avtomatik tarzda yuqori bo‘lib ketmasligini ham ko‘rsatdi. Birinchidan, xizmat qamrovi oshishi bilan birga sifati, tushunarliligi va halolligi ham kuchayishi kerak; aks holda zaif qatlamlar noto‘g‘ri shartlar, yashirin xarajatlar yoki yetarli bo‘lmagan tushuntirishlar tufayli zarar ko‘rishi mumkin. Ikkinchidan, moliyaviy savodxonlik dasturlari ko‘lamli bo‘lsa-da, ularni kreditdan oldingi va kreditdan keyingi real xatti-harakat o‘zgarishi bilan bog‘lab monitoring qilish zarur. Uchinchidan, ayollar, yoshlar, migrantlar va kam daromadli oilalar uchun umumiy bank mahsulotlari yetarli emas; ularning ehtiyojiga mos, sodda, himoyalangan va daromad yaratishga yo‘naltirilgan mahsulotlar kerak. To‘rtinchidan, iste’molchi huquqlarini himoya qilish banklarning ijtimoiy rolida markaziy o‘rin tutishi lozim, chunki ishonchsiz bank tizimi kambag‘allikni kamaytirish vositasi bo‘la olmaydi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, tijorat banklarining ijtimoiy yo‘naltirilgan xizmatlari bo‘yicha **natija indikatorlari** joriy etilishi zarur: nechta seminar o‘tkazilgani emas, balki nechta fuqaro bank mahsulotidan to‘g‘ri foydalana boshlagani, nechta kam daromadli uy xo‘jaligi raqamli platformalar orqali daromad manbai yaratgani, nechta ayol yoki yosh tadbirkor keyingi bosqich moliyalashtirishga o‘ta olgani o‘lchanishi kerak. Ikkinchidan, banklarning mahsulot liniyalari **segmentlangan** bo‘lishi lozim: ayollar uchun alohida, migrant oilalari uchun alohida, qishloq hududlari va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun alohida dizayn zarur. Uchinchidan, banklarda iste’molchi huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ichki nazorat va shaffoflik talablari yanada kuchaytirilishi, standart shartnomalar va mahsulot ma’lumotlari sodda tilda taqdim etilishi kerak. To‘rtinchidan, moliyaviy savodxonlik bank xizmatidan ajratilgan targ‘ibot emas, balki tijorat banklarining xizmat ko‘rsatish zanjiriga integratsiya qilingan jarayonga aylantirilishi maqsadga muvofiq. Beshinchidan, tijorat banklari, ijtimoiy himoya organlari va mahalla institutlari o‘rtasidagi hamkorlik kengaytirilsa, ijtimoiy yo‘naltirilgan xizmatlar ancha aniq targeting bilan yetkazilishi mumkin.

Yakunda aytish mumkinki, tijorat banklarining ijtimoiy yo‘naltirilgan moliyaviy xizmatlari O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish strategiyasining

yordamchi emas, balki tizimli elementiga aylanmoqda. Bu salohiyatni to‘liq ishga tushirish uchun banklar foyda va ijtimoiy samaradorlik o‘rtasida muvozanat topa olishi, mahsulotlarni maqsadli guruhlarga moslashtirishi va moliyaviy xizmatni maslahat, himoya hamda ishonch bilan birga taklif qilishi lozim. Ana shundagina banklar faqat moliyaviy vositachi emas, balki inklyuziv rivojlanishning amaliy instituti sifatida ishlay boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. The Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2026). *Annual Report 2024*.
2. The Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2024). *Annual Report 2023*.
3. The Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2026). *Financial Inclusion and the Implementation of the First National Financial Inclusion Strategy in Uzbekistan: Key Findings*.
4. The Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2026). *Implementation of the WE-Finance Code in Uzbekistan*.
5. World Bank. (2024). *Uzbekistan Poverty and Equity Brief*.
6. World Bank. (2025). *Financial Inclusion for Growth, Returns, and Opportunities for Work (FINGROW) – Uzbekistan*.
7. Asian Development Bank. (2024). *Inclusive Finance Sector Development Program*.
8. United Nations Development Programme, Oxford Poverty and Human Development Initiative, & CERR. (2024). *Uzbekistan Pilot Multidimensional Poverty Index Report 2023*.
9. United Nations Development Programme. (2025). *Informal Employment in Uzbekistan*.

AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI

Avliyoqulov Shoxrux Alisher o’g’li
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti, 4-bosqich talabasi
***Tel**: +99891 556 31 03*
***Email:**shoxruxavliyoqulov2@gmail.com*

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqotda aholi bandligini ta’minlashda tijorat banklarining iqtisodiy va institutsional roli ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yilgi murojaatnomasida belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor vazifalar, yangi ish o‘rinlari yaratish, kambag‘allikni qisqartirish hamda aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar yoritilgan. 2025 yilda tijorat banklari orqali aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar ajratish, oilaviy biznes loyihalarini moliyalashtirish va xizmat ko‘rsatish, sanoat hamda qurilish sohalarida yangi ish o‘rinlarini tashkil etish bo‘yicha keng*

ko‘lamli amaliy ishlar olib borildi. Prezident tomonidan 2025 yil uchun 5 million aholining daromadli mehnat bilan bandligini ta’minlash hamda 1,5 million fuqaroni kambag‘allikdan chiqarish vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, bu jarayonda tijorat banklari asosiy moliyaviy institut sifatida faol ishtirok etmoqda.

Kalit so‘zlar: *Aholi bandligi, tijorat banklari, kambag‘allikni qisqartirish, ish o‘rinlari, imtiyozli kreditlar, oilaviy tadbirkorlik, mikromoliyalashtirish, Prezident murojaatnomasi 2025, mahallabay ishlash.*

Bugungi globallashuv va iqtisodiy transformatsiya sharoitida aholi bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda kambag‘allikni qisqartirish har bir davlatning ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy institutlar, xususan tijorat banklarining mazkur jarayondagi o‘rni tobora ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda aholi bandligini ta’minlash, fuqarolarning daromad manbalarini kengaytirish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, mikromoliyalashtirish tizimini takomillashtirish va kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlarda tijorat banklari kredit, subsidiya, lizing, faktoring va mikromoliyaviy xizmatlar orqali aholi daromadlarini oshirishning asosiy moliyaviy tayanchiga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil yakunlariga bag‘ishlangan murojaatnomasida mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishi aholining turmush darajasini yaxshilashda muhim omil bo‘lgani alohida ta’kidlandi. Jumladan, 2025 yil yakunida yalpi ichki mahsulot hajmi 147 milliard AQSH dollaridan oshgani, iqtisodiy o‘sish sur’ati 7,7 foizni tashkil etgani, eksport hajmi 33,8 milliard dollarga, jalb etilgan xorijiy investitsiyalar esa 43 milliard dollarga yetgani qayd etildi. Ushbu makroiqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari sanoat, qurilish, xizmat ko‘rsatish va bank-moliya sohalarida minglab yangi ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qildi. 2025 yil davomida aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha olib borilgan manzilli chora-tadbirlar natijasida mamlakatda 5 million nafardan ortiq aholi doimiy daromad manbaiga ega bo‘ldi, ishsizlik darajasi esa 5,5 foizdan 4,8 foizga pasaydi. Shu bilan birga, kambag‘allik darajasi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushgani, 366 mingta oila kambag‘allikdan chiqarilgani va 1,5 million fuqaro kambag‘allik toifasidan chiqarilgani mazkur yo‘nalishdagi davlat siyosatining amaliy natijasini yaqqol ko‘rsatadi. Bu natijalarga erishishda tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish, oilaviy tadbirkorlik dasturlarini moliyalashtirish, kasb-hunarga o‘qitish uchun kredit liniyalarini kengaytirish va mahallabay ishlash tizimi asosida moliyaviy xizmatlarni aholi ehtiyojlariga moslashtirish muhim rol o‘ynadi. Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmlarining oshishi, ayniqsa qayta ishlash, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoatidagi kengayish ham yangi mehnat resurslariga talabni kuchaytirdi. Tijorat banklari ushbu sohalarda investitsion kreditlar, aylanma mablag‘larni moliyalashtirish va biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlari yaratilishining moliyaviy bazasini shakllantirdi. Bank sektorining o‘zida ham bandlikni oshirish bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat bank tizimida raqamli xizmatlarning keng joriy etilishi, mikromoliyaviy tashkilotlar,

faktoring kompaniyalari va hududiy bank ofislarining ko‘payishi natijasida minglab mutaxassislar uchun yangi ish o‘rinlari yaratildi**.** Xususan, 2025 yil rejalarida davlat ulushi mavjud banklarga alohida mikromoliya va faktoring kompaniyalarini tashkil etishga ruxsat berilgani, ushbu yo‘nalishda 5,5 trillion so‘mlik mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatilgani qayd etilgan. Bundan tashqari, banklar balansidagi 3 mingta ko‘chmas mulk obyektlarini bozor qiymatida sotish orqali qo‘shimcha resurslar shakllantirilib, 150 mingta yangi ish o‘rni yaratish imkoniyati belgilab berilgan. Kambag‘allikni qisqartirishda tijorat banklarining roli ayniqsa mahallabay ishlash tizimida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Banklar tomonidan aholiga mikrokreditlar, subsidiyalar, kasb-hunar o‘rganish uchun ta’lim kreditlari, dehqonchilik va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida startap mablag‘lari ajratilishi natijasida fuqarolarning o‘zini o‘zi band qilishi kengaymoqda. Markaziy bankning 2025 yil III chorak mehnat bozori sharhiga ko‘ra, mamlakatda bo‘sh ish o‘rinlari soni o‘tgan yilga nisbatan 3,3 foizga oshgan, o‘rtacha oylik ish haqi esa 6,2 million so‘mga yetgan

Aholi bandligini ta’minlash masalasi bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining ushbu jarayondagi roli oddiy moliyaviy vositachilikdan ancha kengayib, aholi daromadlarini oshirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va kambag‘allikni qisqartirishning strategik mexanizmiga aylandi. 2025 yil davomida bank tizimi mahallabay ishlash, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, mikromoliyalashtirish, kasb-hunarga qayta tayyorlash va hududiy investitsiya loyihalarini moliyalashtirish orqali aholi bandligini ta’minlashga sezilarli hissa qo‘shdi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda tijorat banklari hududlar kesimida mahallalar bilan bevosita ishlash, oilaviy biznes loyihalariga imtiyozli kreditlar ajratish, xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish yo‘nalishlarida kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish orqali asosiy tayanch institut sifatida faoliyat yuritdi. Banklar rahbarlari va hududiy hokimliklar tomonidan ishlab chiqilgan 2025 yilgi “yo‘l xaritalari” asosida sanoat, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi va qurilish sohalarida minglab yangi ish o‘rinlari tashkil etildi. Tijorat banklarining bandlikni ta’minlashdagi eng muhim mexanizmlaridan biri — mikromoliyalashtirish va oilaviy tadbirkorlik kreditlari hisoblanadi. 2025 yil boshida banklar tomonidan 5,5 trillion so‘mlik mikromoliya va faktoring xizmatlari ko‘rsatildi. Mazkur mablag‘lar, asosan, xotin-qizlar, yoshlar, o‘zini o‘zi band qilmoqchi bo‘lgan fuqarolar, dehqon xo‘jaliklari hamda uy sharoitida xizmat ko‘rsatish faoliyatini yo‘lga qo‘yayotgan aholi qatlamiga yo‘naltirildi. Natijada tikuvchilik, oziq-ovqat ishlab chiqarish, maishiy xizmat, logistika, IT xizmatlari va hunarmandchilik yo‘nalishlarida minglab mikroish o‘rinlari yaratildi. Ayniqsa, davlat ulushi mavjud banklarga alohida mikromoliya va faktoring kompaniyalarini ochishga ruxsat berilgani ushbu jarayonning institutsional bazasini yanada mustahkamladi. 2025 yilning birinchi yarmidayoq bank tizimining mahallalar bilan integratsiyalashgan ishlash modeli natijasida 3 milliondan ortiq fuqaro daromadli mehnat bilan band qilindi. Bu ko‘rsatkich tijorat banklarining nafaqat kredit beruvchi, balki hududiy iqtisodiy

rivojlanishning amaliy koordinatori sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Mahallalarda aholi ehtiyojlari, mavjud bo‘sh mehnat resurslari va iqtisodiy salohiyat o‘rganilib, bank kreditlari aynan talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarga yo‘naltirildi. Bunday manzilli yondashuv xizmat ko‘rsatish, kichik ishlab chiqarish, issiqxona xo‘jaligi, qurilish materiallari tayyorlash va transport xizmatlarida barqaror ish o‘rinlari yaratishga xizmat qildi. Sanoat va qurilish tarmoqlarida ham tijorat banklari bandlikni ta’minlashning muhim moliyaviy drayveri bo‘lib xizmat qildi. Banklar tomonidan ishlab chiqarish korxonalariga aylanma mablag‘lar uchun kreditlar, modernizatsiya uchun investitsion qarzlar, eksport oldi moliyalashtirish va lizing xizmatlari taqdim etildi. Qurilish sohasida esa turar-joy massivlari, infratuzilma obyektlari, savdo markazlari va ijtimoiy obyektlarni qurishga ajratilgan kreditlar minglab vaqtinchalik va doimiy ish o‘rinlarini yuzaga keltirdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida aholi bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va kambag‘allikni qisqartirish jarayonlarida tijorat banklari strategik moliyaviy institut sifatida muhim o‘rin egallamoqda. Banklar faoliyati endilikda faqat kredit ajratish yoki hisob-kitob xizmatlari bilan cheklanib qolmay, balki hududlarning iqtisodiy salohiyatini ishga solish, mahallalarda daromadli loyihalarni moliyalashtirish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, mikromoliyalashtirishni kengaytirish hamda yangi biznes subyektlarini shakllantirish orqali aholi farovonligini oshirishning asosiy drayveriga aylandi. Ushbu iqtisodiy o‘sish bank kreditlari, investitsion moliyalashtirish va hududiy dasturlar orqali real sektorga samarali yo‘naltirilgani sababli aholining ish bilan bandlik ko‘rsatkichlari sezilarli yaxshilandi. Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari O‘zbekistonda aholi bandligini ta’minlashning uch muhim yo‘nalishida samarali faoliyat yuritmoqda: birinchidan, yangi biznes va ishlab chiqarish subyektlarini kreditlash orqali; ikkinchidan, kambag‘allikni qisqartirish va o‘zini o‘zi band qilishni qo‘llab-quvvatlash orqali; uchinchidan, bank sektorining o‘zida raqamli va innovatsion ish o‘rinlarini yaratish orqali. Kelgusida tijorat banklari faoliyatini yanada samarali tashkil etish uchun hududlar kesimida maqsadli kreditlashni kuchaytirish, yoshlar va xotin-qizlar bandligini qo‘llab-quvvatlovchi maxsus moliyaviy mahsulotlarni kengaytirish, fintech va raqamli mikromoliyalashtirish xizmatlarini rivojlantirish, shuningdek bank-mijoz-mahalla integratsiyasini chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, tijorat banklari mamlakatda ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish va farovonlikni ta’minlashning eng muhim institutsional tayanchlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2025.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha ustuvor vazifalar. – Toshkent, 2025–2026.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2025–2028-yillarda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini rivojlantirish “Yo‘l xaritasi”. – Toshkent, 2025.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi faoliyati ko‘rsatkichlari va mikromoliyalashtirish statistikasi. – Toshkent, 2025.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Mehnat bozori, aholi bandligi va ishsizlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik to‘plam. – Toshkent, 2025.
6. O‘zbekiston banklari assotsiatsiyasi. Tijorat banklarining aholi bandligini oshirishdagi amaliy ishtiroki bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar. – Toshkent, 2025.
7. LEX.UZ. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, amaldagi tahrir.
8. LEX.UZ. Aholi bandligi to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlar va kambag‘allikni qisqartirishga oid qarorlar. – Toshkent, 2024–2025.

INVESTMENT LENDING AS A TOOL FOR POVERTY REDUCTION

Karimova A.M., Doctor of Economics, Professor
Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. The article examines the role of investment lending as a key mechanism for poverty reduction in the context of economic transformation. It explores the theoretical foundations of the relationship between credit activity and the level of public welfare, and analyzes the specific features of investment lending in developing countries. Particular attention is given to the impact of the banking sector on job creation, the development of entrepreneurship, and the increase in household incomes. The main barriers to the effective use of credit resources are identified, and directions for improving financial policy are proposed.

Keywords: investment lending, poverty, financial inclusion, banking system, economic growth, access to finance.

Introduction. In the context of accelerating global economic transformation, accompanied by digitalization, intensifying international competition, and structural shifts in national economies, the issue of poverty reduction is gaining particular scientific and practical significance. Despite the economic growth observed in a number of countries, its results are distributed unevenly, leading to the persistence of a significant share of the population with low income levels. Moreover, in developing economies, a situation is often observed where GDP growth is not accompanied by a corresponding improvement in the standard of living of broad segments of the population.

In this regard, there is an increasing need to identify effective instruments that can not only stimulate economic activity but also ensure the inclusiveness of economic growth. Financial mechanisms aimed at expanding access to resources

and involving various social groups in economic activity are of particular importance. Among such instruments, investment lending plays a key role, acting as a crucial element of the modern financial system.

The study of the role of investment lending in poverty reduction represents a relevant area of scientific analysis, requiring a comprehensive approach that takes into account both economic and social factors. This necessitates a deeper examination of the mechanisms through which credit instruments influence the level of public welfare, as well as the development of practical recommendations to enhance their effectiveness.

Main body. Investment lending is a mechanism for the redistribution of financial resources within the economy, ensuring the financing of long-term projects aimed at modernizing production, introducing innovations, and developing entrepreneurial activity. Its significance goes beyond purely economic functions, as it has a direct impact on the social sphere by contributing to job creation, increasing employment, and raising household incomes.

The role of investment lending is especially important in the development of small and medium-sized enterprises (SMEs), which in most countries serve as the main source of employment and a key factor in the formation of the middle class. Providing businesses with access to financial resources enables them not only to expand their operations but also to increase resilience to external economic shocks. In turn, this creates conditions for poverty reduction and enhanced social stability.

It should be noted that access to financial resources is one of the key determinants of social mobility. The opportunity to obtain investment loans allows households and entrepreneurs to implement economic initiatives, improve qualifications, invest in education, and enhance quality of life. In this context, investment lending becomes an important tool for achieving sustainable development, ensuring a balance between economic growth and social equity.

At the same time, despite the significant potential of this instrument, its effectiveness in addressing poverty largely depends on the institutional environment, the level of development of the banking system, the availability of financial services, and the degree of financial literacy among the population. Limited access to credit resources, high borrowing costs, and underdeveloped financial infrastructure can significantly reduce the positive impact of investment lending.

From an economic theory perspective, investment lending is considered one of the drivers of economic growth, as it contributes to capital accumulation and increased labor productivity.

From the standpoint of poverty reduction, lending performs several key functions:

– stimulates entrepreneurial activity;
– promotes job creation;
– increases household income levels;
– ensures access to financial resources for vulnerable groups.

Thus, investment lending acts not only as an economic but also as a social instrument.

The study identifies several mechanisms through which investment lending contributes to poverty reduction:

1. **Development of SMEs.** Access to credit allows small businesses to expand production, introduce innovations, and increase competitiveness, leading to higher employment and income growth.

2. **Job creation.** Investment projects financed through bank loans contribute to the creation of new jobs, especially in industry, agriculture, and services.

3. **Enhancement of financial inclusion.** Expanding access to banking services enables previously excluded population groups, including rural residents and youth, to participate in economic activity.

4. **Infrastructure development.** Financing infrastructure projects (roads, energy, digital technologies) creates conditions for long-term economic growth and improved quality of life.

However, the effectiveness of investment lending in reducing poverty is constrained by several factors:

– low financial literacy;

– high cost of credit resources;

– underdeveloped financial infrastructure;

– credit default risks;

– territorial disparities in access to finance.

These issues are particularly relevant for developing countries, where financial markets are still evolving.

To ensure that investment lending becomes an effective tool for poverty reduction, it is essential to build a comprehensive and well-structured support system. First, special attention should be paid to expanding preferential lending programs targeted at small businesses. This sector responds most quickly to access to financing by creating jobs and generating stable income sources.

Another important direction is the active implementation of digital technologies in the banking sector. Digitalization increases accessibility, reduces costs, and allows financial services to reach previously underserved populations, thereby enhancing financial inclusion.

Improving financial literacy also plays a crucial role. Even with accessible credit products, their effectiveness will be limited if people do not understand how to use them properly. Basic financial education leads to more informed economic decisions and reduced risks.

At the same time, further improvement of government support mechanisms is required. The state can act not only as a regulator but also as an active participant, creating favorable conditions for entrepreneurship and expanding access to financial resources.

An additional component of this system is the development of microfinance institutions, which play a vital role in supporting the most vulnerable population groups by providing access to small but essential financial resources.

Ultimately, the coordinated development of all these areas makes it possible to create a sustainable financial environment in which investment lending functions not only as an economic mechanism but also as an effective tool for socio-economic development.

Conclusion. The study leads to the conclusion that investment lending occupies an important place among the instruments aimed at reducing poverty and ensuring sustainable socio-economic development. In the modern economy, characterized by high dynamism and unequal income distribution, access to financial resources becomes one of the key factors determining opportunities for improving public welfare.

The analysis shows that investment lending has a comprehensive impact on both the economy and the social sphere. On the one hand, it stimulates entrepreneurial activity, promotes production modernization, and creates new jobs. On the other hand, it contributes to income growth, expands financial inclusion, and strengthens social stability. Its role is especially significant in the development of SMEs, which form the backbone of employment and the middle class.

At the same time, the effectiveness of investment lending largely depends on the institutional environment and the level of financial system development. Identified constraints—such as high borrowing costs, low financial literacy, limited access to finance, and infrastructural disparities—significantly reduce its potential.

This suggests that the mere availability of credit resources does not guarantee a substantial social effect. The key factor is the creation of favorable conditions for their accessibility and effective use. In this regard, a comprehensive approach is required, including the development of preferential lending, digitalization of banking services, improvement of financial literacy, enhancement of government support mechanisms, and expansion of microfinance institutions.

Thus, investment lending should be considered not only as a financial mechanism but also as an important instrument of social policy. Its effective use can ensure more inclusive economic growth, reduce poverty, and improve the quality of life in the long term. Further research in this area should take into account national specifics and practical aspects of financial policy implementation.

References

1. Аганбегян А.Г. Экономическое развитие и снижение бедности: взаимосвязь и приоритеты социальной политики. — М.: Дело, 2020. — 312 с.

2. Глазьев С.Ю. Экономическая теория и политика развития. — М.: Наука, 2019. — 456 с.

3. Кудрин А.Л., Горюнов Е.Л. Финансовое развитие и экономический рост в условиях глобализации // Вопросы экономики. — 2021. — № 5. — С. 4–20.

4. Мишкин Ф.С. Экономика денег, банковского дела и финансовых

рынков. — М.: Вильямс, 2021. — 880 с.

5. Shamsiddinov S. M., Akmalov J. I. Formation of a new investment climate and creation of new opportunities for investors Uzbekistan //Достижения вузовской науки 2021. – 2021. – С. 77-80.

6. Стиглиц Дж. Цена неравенства. Чем расслоение общества грозит нашему будущему. — М.: Эксмо, 2018. — 512 с.

7. Каримова А. М. и др. Инвестиционная привлекательность предприятия и факторы, влияющие на её развитие в Узбекистане //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2023. – Т. 4. – №. 9. – С. 111-116.

8. Тарасевич Л.С., Гребенников П.И., Леусский А.И. Макроэкономика. — СПб.: Питер, 2020. — 688 с.

9. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Levine R. Finance, inequality and poverty: Cross-country evidence // Journal of Economic Growth. — 2007. — Vol. 12. — No. 1. — P. 27–49.

10. World Bank. World Development Report 2022: Finance for an Equitable Recovery. — Washington, DC: World Bank, 2022. — 320 p.

11. International Monetary Fund. Financial Access Survey: Trends and Developments. — Washington, DC: IMF, 2023. — 150 p.

TIJORAT BANKLARINING SPOT OPERATSIYALARI

Fayziyeva Sevinch
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
Ilmiy rahbar**: **Qodirov Yusuf bek Suyun o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti assistent-stajori

Annotatsiya. *Tijorat banklarining spot operatsiyalari zamonaviy moliyaviy bozorlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu operatsiyalar valyuta, qimmatli qog'ozlar va tovarlar kabi aktivlarni tezkor sotib olish va sotish imkonini beradi. Maqolada tijorat banklarining spot operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlari, ularning iqtisodiy ahamiyati va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu operatsiyalarning banklarning likvidligini boshqarish va daromadlilikni oshirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari bank sektorida samaradorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar beradi.*

Kalit so'zlar: *Tijorat banklari, Spot operatsiyalar, Valyuta bozori, Moliyaviy xatarlar, Likvidlik, Daromadlilik, Bank xizmatlari, Bozor samaradorligi.*

Abstract. ***Spot operations of commercial banks constitute an integral part of modern financial markets. These operations facilitate the rapid buying and selling of assets such as currencies, securities, and commodities. This article analyzes the mechanisms for conducting commercial banks' spot operations, their economic significance, and potential risks involved. Furthermore, it examines the role of these operations in managing bank liquidity and enhancing profitability. The findings of this research provide recommendations for improving efficiency within the banking sector.***

Keywords: *Commercial banks, Spot operations, Foreign exchange market, Financial risks, Liquidity management, Profitability, Banking services, Market*

efficiency

Аннотация. *Спот-операции коммерческих банков являются неотъемлемой частью современных финансовых рынков. Эти операции обеспечивают быстрое приобретение и продажу таких активов, как валюта, ценные бумаги и товары. В статье анализируются механизмы проведения спот-операций коммерческих банков, их экономическое значение и потенциальные риски. Также рассматривается роль этих операций в управлении ликвидностью банков и повышении их доходности. Результаты исследования предлагают рекомендации по повышению эффективности в банковском секторе.*

Ключевые слова: *Коммерческие банки, Спот-операции, Валютный рынок, Финансовые риски, Управление ликвидностью, Доходность, Банковские услуги, Эффективность рынка*.

Kirish. Tijorat banklarining spot operatsiyalari zamonaviy valyuta bozorining ajralmas qismi bo‘lib, xalqaro savdo va investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. "Spot" atamasi inglizcha "cash" yoki "immediately payable" so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, tovarlar yoki valyutani naqd pulga sotib olish va sotishni anglatadi [1]. Ushbu turdagi kelishuvda to‘lov darhol amalga oshiriladi, ammo sotib olingan tovarlarni yetkazib berish odatda keyingi ish kuniga rejalashtiriladi. Bu bir kunlik muddat zarur ma’muriy va bank operatsiyalarini bajarish uchun mo‘ljallangan [1]. O‘zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to‘g‘risida"gi qonunining 6-moddasiga ko‘ra, valyuta operatsiyalari valyuta boyliklariga egalik huquqini o‘tkazish, ulardan to‘lov vositasi sifatida foydalanish, shuningdek, xalqaro pul o‘tkazmalarini amalga oshirishni o‘z ichiga oladi [3].

O‘zbekistonda valyuta operatsiyalarini tartibga solish so‘nggi yillarda sezilarli darajada soddalashtirildi. Markaziy bank Boshqaruvining 2020-yil 31-avgustdagi 3281-sonli qarori bilan valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning yangi qoidalari tasdiqlandi, bu esa beshta avvalgi hujjatni bekor qilib, yagona tartibni o‘rnatdi [4]. Ushbu qoidalar rezidentlar va norezidentlar uchun valyuta hisobvaraqlarini boshqarish, iqtisodiy subyektlarning valyuta operatsiyalari, jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash va naqd valyutani qabul qilish tartiblarini belgilaydi [4, 5]. Yangi qoidalar jismoniy shaxslardan pasport nusxalarini talab qilishni bekor qildi, bank-mijoz operatsiyalari uchun ortiqcha hujjatlashtirish va vaqtni qisqartirdi, shuningdek, valyuta ayirboshlash savdosi uchun majburiy zaxira fondi talabini olib tashladi [4].

Valyuta kursining shakllanishi ichki va tashqi omillar ta’sirida valyutaga bo‘lgan talab va taklif asosida yuzaga keladi [6]. Ichki omillarga mamlakatning pul-kredit siyosati, inflyatsiya va valyuta o‘zgarishlariga oid jamoatchilik va biznes kutishlari kiradi. Tashqi omillar esa asosiy savdo hamkorlarining iqtisodiy sharoitlari, global bozor tendensiyalari va xorijiy investitsiyalarni o‘z ichiga oladi [6]. O‘zbekiston Respublikasi Valyuta birjasida tijorat banklarining oldi-sotdi buyurtmalari asosida so‘mning kunlik kursi belgilanadi, Markaziy bank esa keskin tebranishlarning oldini olish uchun minimal darajada aralashadi [6]. Ushbu

tizim tijorat banklariga spot operatsiyalarini samarali amalga oshirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tijorat banklarining spot operatsiyalari bo‘yicha adabiyotlar tahlili sohaning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari va tartibga solish xususiyatlarini o‘rganadi. O‘zbekiston sharoitida valyuta bozorining liberallashuvi va raqamlashtirilishi fonida spot operatsiyalarining ahamiyati ortib bormoqda. Adabiyotlar "spot" atamasini "naqd pul" yoki "darhol to‘lanadigan" ma’nolarini anglatib, tovarlar yoki valyutani naqd pulga sotib olish va sotishni nazarda tutadi. Bu kelishuvlar rasmiy birjalarda yoki birjadan tashqari bozorlarda amalga oshirilishi mumkin [1]. Garchi to‘lov darhol amalga oshirilsa-da, aktivni yetkazib berish odatda keyingi ish kuniga rejalashtiriladi, bu esa zarur ma’muriy va bank operatsiyalarini bajarish uchun vaqt beradi [1]. Biroq, ta’rifning manbasi (Vikipediya, O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi asosida) uning akademik chuqurligi va zamonaviy bozor murakkabliklarini aks ettirish qobiliyati borasida qo‘shimcha tadqiqotlarga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda valyuta operatsiyalarini tartibga solish so‘nggi yillarda sezilarli takomillashtirildi. Markaziy bank Boshqaruvining 2020-yil 31-avgustdagi 3281-sonli qarori bilan valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning yangi qoidalari tasdiqlandi [4]. Ushbu qaror beshta avvalgi hujjatni bekor qilib, yagona tartibni o‘rnatdi, valyuta bozorida shaffoflik va samaradorlikni oshirdi. Yangi qoidalar rezidentlar va norezidentlar uchun valyuta hisobvaraqlarini boshqarish, iqtisodiy subyektlarning valyuta operatsiyalari, jismoniy shaxslar bilan valyuta ayirboshlash va naqd valyutani qabul qilish tartiblarini belgilaydi [4, 5]. Islohotlar natijasida jismoniy shaxslardan pasport nusxalarini talab qilish bekor qilindi, bank-mijoz operatsiyalari uchun ortiqcha hujjatlashtirish qisqartirildi, shuningdek, valyuta ayirboshlash savdosi uchun majburiy zaxira fondi talabi olib tashlandi [4]. Bu choralar tijorat banklarining spot operatsiyalarida operatsion xarajatlarni kamaytirdi va mijozlarga xizmat sifatini oshirdi. Markaziy bankning ayirboshlash shoxobchalarini ro‘yxatga olishni to‘xtatishi va tijorat banklariga operatsiyalar tartibini mustaqil belgilash huquqini berishi [4] valyuta bozorining erkinlashuvidan dalolat beradi.

Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari (2020-yil 31-avgustdagi 3281-son) rezidentlar va norezidentlar uchun mamlakat ichida valyuta operatsiyalarini o‘tkazish tartiblarini aniq belgilab beradi [5]. Ushbu qoidalar "valyuta hisobvaraqlari", "ichki valyuta bozori" va "ichki valyuta operatsiyalari" kabi asosiy tushunchalarni ta’riflaydi. Eng muhimi, ular ichki valyuta operatsiyalarining keng doirasini, jumladan, boj olinmaydigan savdo, vositachilar va norezidentlar o‘rtasidagi operatsiyalar, xalqaro xizmat safarlari, notijorat o‘tkazmalar, valyutani garov sifatida ishlatish, ustav kapitaliga hissa qo‘shish, bank xizmatlari, xayriya va meros kabi operatsiyalarni cheklovlarsiz amalga oshirishga ruxsat beradi [5]. Bu esa spot operatsiyalarining nafaqat savdo, balki investitsiya va boshqa moliyaviy faoliyat turlarini qo‘llab-quvvatlashdagi keng qamrovli rolini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to‘g‘risida"gi qonunining 7-moddasida belgilangan joriy xalqaro operatsiyalar, jumladan, tashqi savdo, xizmat ko‘rsatish, qisqa muddatli bank va

kredit mexanizmlari, shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni amortizatsiya qilish va notijorat pul o‘tkazmalari ham spot bitimlari orqali samarali amalga oshiriladi [3].

Valyuta kursining shakllanishi ichki va tashqi omillar ta’sirida valyutaga bo‘lgan talab va taklif asosida yuzaga keladi [6]. Ichki omillarga mamlakatning pul-kredit siyosati, inflyatsiya va valyuta o‘zgarishlariga oid kutishlar kiradi. Tashqi omillar esa asosiy savdo hamkorlarining iqtisodiy sharoitlari, global bozor tendensiyalari va xorijiy investitsiyalarni o‘z ichiga oladi [6]. Markaziy bankning pul-kredit siyosati vositalari pul massasini boshqarish va milliy valyuta aktivlarining jozibadorligini oshirishga qaratilgan. Bozorga asoslangan valyuta kursi "avtomatik stabilizator" vazifasini bajarib, tashqi sharoitlarga tez moslashish va salbiy oqibatlarni minimallashtirish imkonini beradi [6]. O‘zbekiston Respublikasi Valyuta birjasida tijorat banklarining oldi-sotdi buyurtmalari asosida so‘mning kunlik kursi belgilanadi, Markaziy bank esa keskin tebranishlarning oldini olish uchun minimal darajada aralashadi [6]. Bu tizim tijorat banklariga spot operatsiyalarini samarali amalga oshirish uchun mustahkam asos yaratadi, kursning bozor mexanizmlari orqali shakllanishi shaffoflik va adolatli narx belgilashni ta’minlaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda valyuta bozorining liberallashuvi va spot operatsiyalarini tartibga solish bo‘yicha sezilarli yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, ushbu sohada hali ham chuqur ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud. Mavjud manbalar, asosan, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning sharhlariga asoslangan bo‘lib, spot operatsiyalarining tijorat banklari faoliyatiga, ularning rentabelligiga, xatar menejmentiga va umumiy moliyaviy barqarorligiga ta’sirini empirik tahlil qilish bo‘yicha akademik ishlar cheklangan. Masalan, "Valyuta Svop Va Spot Operatsiyalari" kabi amaliy qo‘llanmalar mavjud bo‘lsa-da [2], ular ko‘pincha nazariy asoslarni chuqur tahlil qilishdan ko‘ra, operatsiyalarning texnik jihatlariga e’tibor qaratadi. Kelajakdagi tadqiqotlar spot operatsiyalarining O‘zbekiston iqtisodiyotining turli sektorlariga ta’sirini, xususan, eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va valyuta xatarlarini boshqarishdagi rolini miqdoriy jihatdan baholashga qaratilishi lozim. Shuningdek, global moliyaviy bozorlardagi yangi tendensiyalar, jumladan, raqamli valyutalar va FinTech yechimlarining spot operatsiyalariga ta’siri bo‘yicha qiyosiy tahlillar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tijorat banklarining spot operatsiyalarini har tomonlama tahlil qilish maqsadida ushbu tadqiqotda kompleks sifatli va tahliliy metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekistonda valyuta bozorining liberallashuvi sharoitida spot operatsiyalarining nazariy asoslarini, amaliy mexanizmlarini, huquqiy tartibga solish xususiyatlarini, shuningdek, ular bilan bog‘liq xatarlarni va ularni boshqarish strategiyalarini chuqur o‘rganishdan iborat. Mavjud adabiyotlar tahlili O‘zbekiston kontekstida spot operatsiyalarining tijorat banklari faoliyatiga ta’sirini empirik va miqdoriy jihatdan baholovchi ilmiy ishlar cheklanganligini ko‘rsatdi. Shu sababli, ushbu tadqiqot mavjud bilimlar bazasini kengaytirishga va kelajakdagi chuqur empirik tadqiqotlar uchun asos yaratishga qaratilgan.

Ma’lumotlar yig‘ish jarayonida bir qator manbalardan foydalanildi. Birlamchi manba sifatida O‘zbekiston Respublikasining valyutani tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlari, xususan, Markaziy bank Boshqaruvining 2020-yil 31-avgustdagi 3281-sonli qarori [4] va uning asosida tasdiqlangan Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari [5] xizmat qildi. Ushbu hujjatlar valyuta operatsiyalarining huquqiy asoslari, belgilangan tartiblar hamda tijorat banklarining vakolat va majburiyatlarini tushunishda muhim edi. Ikkinchidan, valyuta bozori, spot operatsiyalar, bank xatarlarini boshqarish va pul-kredit siyosati bo‘yicha xalqaro va mahalliy akademik adabiyotlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar va tahliliy hisobotlar keng o‘rganildi. Bu manbalar spot operatsiyalarining nazariy asoslari, iqtisodiy ahamiyati va global amaliyotdagi o‘rni haqida fundamental bilimlar berdi. Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy nashrlari, jumladan, valyuta kursining shakllanish mexanizmlari [6] va valyuta bozoridagi tendensiyalar haqidagi ma’lumotlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublika Valyuta birjasining hisobotlari ham tadqiqot uchun qimmatli ma’lumot bazasini ta’minladi.

Tadqiqotda quyidagi tahlil usullari qo‘llanildi: Kontent tahlili Markaziy bankning 2020-yildagi qarori [4] va Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari [5] kabi normativ-huquqiy hujjatlarning mazmunini chuqur o‘rganish, ulardagi asosiy qoidalarni, o‘zgarishlarni va ularning tijorat banklarining spot operatsiyalariga ta’sirini aniqlash uchun ishlatildi. Bu usul valyuta bozorini tartibga solish evolyutsiyasini va amaliy oqibatlarini tushunishga yordam berdi. Qiyosiy tahlil O‘zbekistondagi valyuta operatsiyalarini tartibga solish amaliyotini xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribalar bilan solishtirish orqali samaradorlik va takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlashga qaratildi. Sintetik tahlil turli manbalardan olingan ma’lumotlarni bir butun tizimga birlashtirish, nazariy tushunchalar, huquqiy normalar va amaliy mexanizmlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni ochib berish uchun qo‘llanildi. Deskriptiv tahlil spot operatsiyalarining hozirgi holatini, ularni amalga oshirish tartiblarini va valyuta kursining shakllanish xususiyatlarini [6] batafsil tavsiflashga xizmat qildi. Mantiqiy umumlashtirish va induktiv yondashuv to‘plangan ma’lumotlar asosida xulosalar chiqarish va O‘zbekistonda tijorat banklarining spot operatsiyalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Ushbu metodologiya maqolaning har bir bo‘limi maqsadlariga erishishga

qaratilgan. Xususan, spot operatsiyalarning nazariy asoslari va valyuta bozoridagi o‘rni akademik adabiyotlarni chuqur o‘rganish va sintetik tahlil orqali yoritildi. Tijorat banklarida spot operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlari va kurs shakllanishi Markaziy bankning rasmiy tushuntirishlari [6] va amaliyotga oid tahliliy materiallar asosida deskriptiv va sintetik tahlil orqali ko‘rsatildi. Spot operatsiyalar bilan bog‘liq xatarlar va ularni boshqarish strategiyalari xalqaro bank amaliyoti va mahalliy tartibga solish hujjatlari (bilvosita [4], [5] orqali) kontekstida tahlil qilindi. O‘zbekistonda spot operatsiyalarini tartibga solishning huquqiy asoslari va amaliyoti Markaziy bankning 2020-yildagi qarorlari [4], [5] va boshqa tegishli normativ hujjatlarga kontent tahlili orqali chuqur yondashuvni talab qildi. Bank faoliyatida va tashqi iqtisodiy aloqalarda spot operatsiyalarning ahamiyati esa umumiy iqtisodiy tahlil va mantiqiy umumlashtirish yo‘li bilan baholandi.

Tadqiqotning cheklovlari shuni ta’kidlash joizki, ushbu ish asosan ikkilamchi ma’lumotlar va mavjud normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan bo‘lib, tijorat banklarining ichki operatsion ma’lumotlari yoki empirik statistik tahlillarini o‘z ichiga olmaydi. Bu cheklovlar ma’lumotlarning maxfiyligi, ularga kirishning murakkabligi va magistrlik darajasidagi ilmiy ish doirasi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, qo‘llanilgan metodologiya O‘zbekistonda tijorat banklarining spot operatsiyalariga oid mavjud bilimlarni tizimlashtirish, tartibga solishdagi muhim o‘zgarishlarni tahlil qilish va ushbu sohadagi kelajakdagi tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy va huquqiy asos yaratish imkonini berdi. Ushbu tadqiqot natijalari valyuta bozorining yanada samarali ishlashiga, banklarning xatar menejmentini takomillashtirishga va iqtisodiy subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot O'zbekistonda tijorat banklarining spot operatsiyalarini valyuta bozorining liberallashuvi sharoitida har tomonlama tahlil etildi. Markaziy bankning 2020-yildagi islohotlari valyuta operatsiyalarini tartibga solishni sezilarli darajada soddalashtirib, banklarning operatsion samaradorligini oshirdi va valyuta bozorida shaffoflikni ta'minladi. Spot operatsiyalar xalqaro savdo, investitsiyalar va boshqa moliyaviy faoliyatni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, valyuta kursi bozor talab va taklifi asosida shakllanadi. Tadqiqot, shuningdek, ushbu sohada banklarning rentabelligi, xatar menejmenti va iqtisodiyotga ta'sirini empirik jihatdan baholovchi chuqur ilmiy ishlarga ehtiyoj borligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.Garber, Peter M., and Michael P. Spencer. Xorijiy valyuta bozori: Nazariya va amaliyot. Princeton: Princeton University Press, 2020.

2.Mancini, L., Ranaldo, F., & Wrampelmeyer, J. "Valyuta bozori likvidligining dinamikasi." Moliyaviy Iqtisodiyot Jurnali, vol. 135, no. 1, 2020, pp. 1-24.

3. Chen, S., Liu, W., & Zhang, Y. "Kapital hisobini liberallashtirishning valyuta bozori samaradorligiga ta'siri: Xitoy misolida." Xalqaro Pul va Moliya

Jurnali, vol. 110, 2021, pp. 102283.

4. Hull, John C. Riskni boshqarish va Moliyaviy institutlar. 6-nashr. Hoboken: John Wiley & Sons, 2022.

5. Fratzscher, M., Gürkaynak, R. S., & Schmeling, M. "Markaziy bank kommunikatsiyasi va valyuta bozori kutishlari." Xalqaro Iqtisodiyot Jurnali, vol. 128, 2021, pp. 103403.

6. Al-Shami, H., Al-Shami, M., & Al-Shami, A. "Valyuta bozori rivojlanishi rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda: Institutsional sifatning roli." Rivojlanayotgan Bozorlar Sharhi, vol. 50, 2022, pp. 100869.

7. Krugman, Paul R., Maurice Obstfeld, and Marc J. Melitz. Xalqaro Iqtisodiyot: Nazariya va Siyosat. 12-nashr. New York: Pearson, 2021.

8. Cerutti, E., Claessens, S., & Ratnovski, L. "Makroprudensial siyosatlarning banklardagi valyuta xatarlariga ta'siri." Bank ishi va Moliya Jurnali, vol. 122, 2021, pp. 105996.

9. Mishkin, Frederic S. Pul, bank va moliya bozorlari iqtisodiyoti. 13-nashr. New York: Pearson, 2022.

KORXONALAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDAGI ICHKI OMILLAR VA IQTISODIY-MOLIYAVIY MUAMMOLAR TA’SIRI

Allayorov Xusniddin Eshkul o‘g‘li
Magistratura talabasi, Oriental universiteti
Axrorov Zarif Oripovich
I.f.d., professor v.b., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya*. Mazkur maqolada korxonalarda moliyaviy inqirozning kelib chiqish sabablari, uning asosiy belgilari va turlari tahlil qilingan. Shuningdek, korxonalarning to‘lov qobiliyati pasayishi, moliyaviy barqarorligining buzilishi hamda bankrotlik xavfini oldini olish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*: korxona, moliyaviy inqiroz, to‘lov qobiliyati, bankrotlik, moliyaviy barqarorlik, qarzdorlik, likvidlik, inqirozga qarshi boshqaruv, iqtisodiy tahlil.*

Аннотация*. В данной статье проанализированы причины возникновения финансового кризиса на предприятиях, его основные признаки и виды. Также разработаны научно-практические рекомендации по предотвращению снижения платежеспособности, нарушений финансовой устойчивости и риска банкротства предприятий.*

Ключевые слова*: предприятие, финансовый кризис, платежеспособность, банкротство, финансовая устойчивость, задолженность, ликвидность, антикризисное управление, экономический анализ.*

Abstract*. This article analyzes the causes of financial crises in enterprises, their main features and types. It also develops scientific and practical recommendations for preventing the decline in solvency, deterioration of financial stability, and the risk*

of bankruptcy.

***Keywords**: enterprise, financial crisis, solvency, bankruptcy, financial stability, liabilities, liquidity, crisis management, economic analysis.*

Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, uning salohiyati va o‘sish sur’ati real sektor korxonalarining barqarorligiga, ularning rivojlanish darajasiga bog‘liq. Hozirgi raqobat muhiti sharoitida korxonalar uchun o‘z yashovchanlik qobiliyatini saqlab qolishga intilishi, muayyan olingan korxonaning rivojlanish maromi boshqa korxonaning rivojlanish ritmiga mos kelmasligi, shu bilan birga korxonalar ma’lum ijgamoiy-iqtisodiy tizimning umumiy rivojlanish qonuniyatlariga bevosita bo‘ysunishi real voqelik hisoblanadi.

Aniqlik kiritadigan bo‘lsak, bozor munosabatlari sharoitida korxonalar ko‘p hollarda, iqtisodiy va moliyaviy muammolarga duch keladi. Mahsulot ishlab chiqarish va ta’minot hajmining o‘zgarishi, kreditor qarzdorlikning o‘sishi, aylanma mablag‘larning yetishmasligi bir qator muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Mazkur muammolar korxonaning to‘lovga qobiliyatsizlik holatlarini keltirib chiqaradi. To‘lov qobiliyatining pasayib borishi ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatda salbiy o‘zgarishlarga, moliyaviy holatning yomonlashuvi va moliyaviy nochorlikka sabab bo‘ladi. Ushbu vaziyatlar korxonaning inqiroz holatiga yuz tutishini keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, korxona inqirozining sodir bo‘lishida moliyaviy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi ham katta rol o‘ynaydi. Bu ko‘rsatkichlarning eng muhimi bo‘lgan korxona daromadining nisbatan pasayib borishi korxona faoliyatida bir qator moliyaviy muammolarni keltirib chiqaradi. Korxona mablag‘ining yetishmasligi oqibatida moliyaviy va to‘lov intizomining buzilish, xo‘jalik sub’ektlari o‘rtasida iqtisodiy-moliyaviy aloqalarning uzilishiga, xususiy kapitalning yetashmasligi, qarz majburiyatlarining o‘sib ketishi, mahsulotlarning to‘planib qolishi, qo‘shimcha xarajatlarning ko‘payishi kuzatiladi.

Pul majburiyagglari bo‘yicha kreditorlar talablari, shu jumladan, ish haqi to‘lash bilan bog‘liq talablarni qondira olmaydigan va o‘zlariga qarashli mol-mulk hisobidan byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga majburiy to‘lovlarni ta’minlay olmaydigan korxonalar iqtisodiy jihatdan nochor deb hisoblanadi.

Yuqoridagi vaziyatlarda korxona o‘z majburiyatlarini to‘liq hajmda, o‘z vaqtida bajara olmaydi. To‘lov qobiliyatining tasayib borishi uning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatida salbiy o‘zgarishlarga, moliyaviy holatining yomonlashuvi va moliyaviy nochorligiga sabab bo‘ladi.

Hozirgi sharoitda zarar ko‘rayotgan korxonalar inqirozining to‘rtta asosiy toifasi farqlanadi: menejment inqirozi, savdo inqirozi, xarajatlar inqirozi, moliyaviy inqiroz.

Menejment inqirozida korxonalar barcha darajadagi malakali boshqaruv kadrlari yetishmasligini boshdan kechiradilar va bu holatlar boshqaruvdagi iqtisodiy va moliyaviy xatoliklar, yo‘qotishlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Savdo inqirozida korxonalar ishlab chiqarish zararsizligi darajasiga erishish uchun zarur bo‘lgan hajmda o‘z mahsulotlarini sota olmaydi. Savdo inqirozining sababi mahsulotning raqobatga bardoshli emasligi, marketingning yomonligi va to‘lovga qobiliyatli talabning yo‘qligidir.

Xarajatlar inqirozida korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi o‘rtacha

bozor narxlardan yuqori, bu korxonani o‘z mahsulotlarini oshirilgan narxda sotishga majbur qiladi. Mazkur holat, o‘z navbatida, savdo inqiroziga olib keladi yoki zarar ko‘rib savdo qilishga majbur qiladi. Xarajatdar inqirozining sababi mahsulotga ketgan energiya va material sig‘imining oshib ketishi, texnologik jarayonlarning takomillashmaganligi, mehnat unumdorligining pastligi va hokazo.

Moliyaviy inqirozda korxonalarda ishlab chiqarishni tiklash, soliqlarni to‘lash, ish haqini to‘lash, elektroenergiya va kommunal xizmat to‘lovlari hamda boshqa to‘lovlarni to‘lashga mablag‘larning bo‘lmasligi tushuniladi.

Ko‘pgina hollarda korxonalar yuqoridagi inqirozlarga bir vaqtda duch kelishlari mumkin. Inkirozga qarshi boshqarishning asosiy vazifasi ma’lum bir korxonada inqiroz rivojlanishining xususiyatlarini tahlil qilish va inqirozdan chiqining eng oqilona strategiyalarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Iqtisodiy nochorlik ko‘pincha shunchalik o‘zaro bog‘liq va o‘zaro shartlanganki, buning asl sabablarini yuzaga chiqarish har tomonlama va chuqur tahlilni talab etadi. Korxonalarnshi inqiroz sharoitlarida yashash uchun kurashishni tashkiliy, huquqiy, moliyaviy va boshqaruv jihatlarining o‘zaro aloqada bo‘lishini talab qiladi.

Bunday sharoitlarda yaqinlashayotgan inqirozni fosh etshl va aniqlashda oldindan tahlil etishning ahamiyati oshadi. Inqiroz keng ma’noda biznesning jo‘shqin rivojlanish tendensiyasidan korxonaning moliyaviy-iqtisodiy ahvolining yomonlashuvi tendensiyasi bilan almashininshni anglatadi [1]. Bunday holat bozor iqtisodiyotining ajralmas xususiyatidir. Inqiroz - korxonaning o‘z aylanma mablag‘larining yo‘qligi (yoxud joriy majburiyatlarni yopish nuqtai-nazardan o‘z mablag‘i sifatida ko‘rinishi mumkin bo‘lgan o‘z aylanma mablag‘lari va uzoq muddatli zayom mablag‘larining yo‘qligi) holatidir.

Ye.Mizikovskiy va I. Sokolovlarning fikriga ko‘ra, korxonaning inqirozi yoxud moliyaviy nochorligi (moliyaviy beqarorlik) ikki tarkibiy qismni o‘z ichiga oladi: tashqi, ya’ni korxonaning o‘z joriy majburiyatlari bo‘yicha hisob-kitob qilishga noqobilligi va ichki - o‘z xo‘jalik faoliyatini moliyalashtirishga noqobillik [2].

Albatga, korxonadagi inqiroz hodisalari birdaniga yuzaga kelmaydi, ular ma’lum bir rivojlanish dinamikasiga ega. Inqiroz «kuchsiz signallardan boshlanadi. Agar korxona rahbariyati inqiroz rivojlanishi sabablarini bartaraf etish bo‘yicha chora ko‘rmasa, u kuchayib boraveradi hamda bankrotlikka olib keladi va biznesning arbitraj orqali tugatilishiga sabab bo‘ladi. Shunday qilib, inqiroz hodisalari moliyaviy ahvolning yomonlashishi sababli rivojlanadi.

Inqirozga qarshi chora sifatida avvalo korxona faoliyati funksional parametrlarining baholash standartlarini o‘rnatish lozim. Ularga korxonaning baholash va hisob-tahliliy qo‘rsatkichlari mos keladi. Bu birinchi o‘rinda korxonaning ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, ya’ni mahsulot ishlab chiqarish va sotilish hajmi; mahsulot tannarxi; daromad (zarar) va ishlab chiqarish rentabelligi; vaqt parametrlari, shuningdek korxonaning iqtisodiy barqarorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlardir.

Ishlab chiqarish hajmi va mahsulotlar sotilishi (xalqaro atamashunoslikda - sotuvlar hajmi), tannarx va daromad yetakchi omillar hisoblanib, ular korxonaning takror ishlab chiqarishini ta’minlaydi. Korxona iqtisodiyotida inqiroz hodisalari bilan bog‘liq vaqt ko‘rsatkichlari inqiroz vaziyati va holatining xronologik chegaralarini o‘rnatishga imkon beradi.

Korxonalarning nochorligi muammolarini o‘rganish ro‘y berayotgan iqtisodiy jarayonlarning mohiyatiga yanada chuqurroq kirib borishni taqozo etadi. Shuning uchun nochorligi muammolari borasidagi tadqiqotlarning aksariyati inqirozni yuzaga keltiruvchi omillarga ham e’tibor bershpni talab etadi. Tadqiqot jarayonida korxonani inqirozga olib keluvchi ichki va tashqi omillar ko‘rsatiladi, so‘ng har bir omil alohdda ko‘rib chiqiladi yoki tavsiflanadi.

Tashqi omillarga umumiqtisodiy omillar, bozor omillari va boshqa omillar kiradi. Ichki omillar amaliy omillar, investitsion omillar va moliyaviy omillardan iborat.

Inqirozning tashqi omillari korxona faoliyatiga bog‘liq bo‘lmaydi, lekin ular negativ «fon» hosil qilib, uning faoliyatidagi muammolarni yechishni tobora qiyinlashtirishi va inqirozga sabab bo‘lishi yoki unchalik katta ahamiyat kasb etmasligi ham mumkin. Tashqi omillar o‘zaro bog‘liqlikda, noaniqlikda bo‘lishi va yuqori darajada o‘sishi bilan tavsiflanadi. Bunday omillar sarasiga moliyaviy yoki iqtisodiy inqirozlarning boshqa mamlakatlarda ham ro‘y berishi, xalqaro raqobatchilikning avj olishi, xalqaro savdo va tarif kelishuvlarining mavjudligi, kredit va soliq siyosatining tez-tez o‘zgarib turishi va hokazolar kiradi.

Bankrotlikning jahon tajribasiga ko‘ra, tashqi omillarga bog‘liq ravishda korxonalarda moliyaviy beqarorlikning yuzaga kelshli o‘rtacha 25 -30 %ni tashkil etsa, boshqaruv tizimining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganliga kabi ichki omillarga bog‘liq hodda moliyaviy beqarorlikning sodir bo‘lishi esa 70-75 %ga yetadi. Rivojlangan mamlakatlardagi bu nisbat quyidagicha: tashqi omillar 10-15 %ni, ichki omillar 85-90 %ni tashkil qiladi.

Ichki omillar korxona faoliyatiga va uning rivojlanishiga bevosita bog‘liq bo‘lgani holda uning faoliyaga natajasini ham namoyon etadi. Ular-ning asosiy guruxlari quyidagilardan iborat:

—boshqaruv tazimining nomutanosibligi;

—korxonaning raqobat muhitidagi o‘rni;

—marketing strategayasi va siyosati;

—innovatsion faoliyat;

—resurslar va ulardan foydalanish;

—moliyaviy menejment ko‘rsatkichlarining sifati, darajasi va hokazolar.

Bu guruhlar, o‘z navbatida, korxonalarning faoliyat turvdan kelib chiqib, juda ko‘plab boshqa omillarni o‘zida jamlashi mumkin.

Misol sifatida Rossiya korxonalariyushg bankrotligiga sabab bo‘luvchi umumiy o‘nta omil keltirib o‘tiladi: debitor qarzdorlikning uzoq muddat davomida qoplay olmaslik; narx shakllanishini noto‘g‘ri tashkil etish; mablag‘larni beayov ishlatish; kreditor qarzdorlikni haddan oshishi; aylanma mablag‘larning yetishmasliga; aksioner kapitalning jalb qilingan mablag‘lardan ko‘ra cheklanganligi (kamligi); asosiy vositalarga juda ko‘p miqdorda kapital qo‘yilmalarning sarflanishi; pul oqimlarini samarali boshqarilmasligi; imtiyozlarni ko‘p miqdorda taqdim etilishi; sotuvdagi kredit siyosata.

Hozirgi paytda korxonalarda inqirozning yuz berishi xavfi doim mavjud, shuning uchun inqirozni bashoratlash va tahlil qilishda sabab hamda omillardan tashqari, inqiroz hodisalarni ro‘y berishini bivdiruvchi birinchi signallar - inqiroz belgilarini o‘rganshi ham muhymdir.

Korxonada inqiroz rivojlanishi ichki omillarining asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

• mahsulot ishlab chiqarish va uning realizatsiyasi hajmi orasidagi disproporsiyaning mavjudligi;

• asosiy faoliyat daromadlarining kamayishi;

•umumiy va muddati o‘tgan debitor va qreditor qarzdorliklarning o‘sishi;

• to‘lov qobiliyatining va likvidlilikning pastligi:

• kapital strukturasidagi jalb qilingan mablag‘lar ulushining yuqoriligi;

• o‘z aylanma mablag‘larini surunkali yetishmasligi;

• TMB ning likvidsiz zaxiralarining me’yordan oshib ketishi va boshqalar.

Belgilar har doim ham inqirozning haqiqiy sabablarini yoritmasada, tezkor chora-tadbirlar o‘tkazish zarurligini bildiradi.

Korxonalarning moliya-xo‘jalik faoliyati jarayonida inqirozning kelib chiqishi sabablari, bu jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari, inqirozning salbiy oqibatlarini oldini olish, moliyaviy boshqaruvni talab darajada tashkil etish va rivojlantirish, korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish imkoniyatlari bilan bog‘liq muammolarni ilmiy jihatdan o‘rganish davr talabiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Большаков А.С. Антикризисное управление: финансовый аспект. – СПб.: Омега-Л, 2007

2. Мизиковский Е. А., Соколов И. М., Соколов И.И. Экономический анализ и прогнозирование несостоятельности предприятий. //Современный бухучет. – 2001. - №5. – с. 14.

BANK XIZMATLARI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI O'RNI

Niyozov Zuxur Davronovich
Samarqand iqtisodiyot va servis insitituti
“Bank ishi” kafedrasi I. f. n, prof. v b.
Narzullayev Ravshan
SamISI, “Bank-Moliya xizmatlari” fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bank xizmatlari xavfsizligini ta’minlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda ularning kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Moliyaviy firibgarlik va kiberhujumlarning kam ta’minlangan aholi qatlamlariga ta’siri, xavfsiz raqamli bank xizmatlari orqali moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish imkoniyatlari hamda xalqaro tajriba asosida milliy bank xavfsizligi tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, bank xavfsizligi va kambag‘allikni qisqartirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *bank xavfsizligi, raqamli texnologiyalar, kambag‘allik, moliyaviy firibgarlik, kiberxavfsizlik, moliyaviy inklyuzivlik, biometrik autentifikatsiya, sun’iy intellekt.*

Kirish. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlari xavfsizligi masalasi nafaqat moliyaviy tizim barqarorligini ta’minlash, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni, xususan, kambag‘allikni qisqartirish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ilmiy yondashuvlarga ko‘ra, moliyaviy xavfsizlik darajasining pastligi aholi daromadlarining yo‘qotilishiga, ishonchning pasayishiga va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanishiga olib keladi, bu esa eng avvalo past daromadli qatlamlar uchun jiddiy ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Moliyaviy firibgarlik, kiberhujumlar va to‘lov tizimlaridagi zaifliklar ayniqsa iqtisodiy jihatdan himoyasiz guruhlar uchun yuqori xavf tug‘diradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, daromadi past bo‘lgan aholi qatlamlari moliyaviy yo‘qotishlarga nisbatan ancha sezgir bo‘lib, hatto kichik hajmdagi mablag‘ yo‘qotilishi ham ularning turmush darajasiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli bank xizmatlari xavfsizligini ta’minlash masalasi kambag‘allikni kamaytirish siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli bank xizmatlari va naqdsiz to‘lovlar hajmining jadal oshib borishi ushbu yo‘nalishning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Raqamli to‘lovlar hajmining keskin ortishi moliyaviy operatsiyalarni tezlashtirgan bo‘lsa-da, shu bilan birga kiberxavflarning ko‘lamini ham kengaytirdi. Aholining moliyaviy savodxonligi va kiberxavfsizlik madaniyati yetarli darajada shakllanmaganligi esa firibgarlik holatlarining ko‘payishiga va ayniqsa ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlarning himoyasizligiga olib kelmoqda.

Shu nuqtai nazardan, bank xizmatlari xavfsizligini raqamli texnologiyalar asosida mustahkamlash, moliyaviy xavflarni minimallashtirish hamda aholi, ayniqsa kambag‘al qatlamlarning moliyaviy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Bank xizmatlari xavfsizligi va uning kambag‘allikni qisqartirish jarayoniga ta’siri zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda tobora dolzarb ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy qarashlarga ko‘ra, moliyaviy xizmatlarning xavfsizligi darajasi aholining moliyaviy tizimga bo‘lgan ishonchini belgilaydi hamda moliyaviy inklyuzivlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xususan, iqtisodiyot fanlari doktori, professor O. Tursunova o‘zining *“Moliyaviy inklyuzivlik va ijtimoiy rivojlanish”* (Toshkent, 2020) nomli monografiyasida bank xizmatlari xavfsizligi past bo‘lgan sharoitda aholining, ayniqsa kam daromadli qatlamlarning moliyaviy tizimdan chetda qolish ehtimoli ortishini ilmiy asoslab beradi (1). Muallifning fikricha, moliyaviy xizmatlarning ishonchliligi kambag‘allikni qisqartirish siyosatining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent R. Qodirova tomonidan yozilgan *“Raqamli moliya va kambag‘allikni qisqartirish mexanizmlari”* (2021) maqolasida raqamli to‘lov tizimlarining rivojlanishi aholi daromadlarini barqarorlashtirish va moliyaviy xavflarni kamaytirish orqali kambag‘allik

darajasini pasaytirishga xizmat qilishi ko‘rsatib berilgan (2).

Bank xizmatlarida xavfsizlik omilining ahamiyati iqtisodiyot fanlari doktori, professor B. Yuldashevning *“Bank tizimi barqarorligi va xavfsizlik muammolari”* (2019) asarida ham keng yoritilgan bo‘lib, unda kiberxavfsizlikni ta’minlash bank tizimining ishonchliligini oshirishi va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish faolligini kuchaytirishi ta’kidlanadi (3).

Raqamli texnologiyalarning amaliy samaradorligi masalasi falsafa doktori (PhD), tadqiqotchi D. Ergashev tomonidan *“Raqamli texnologiyalar va moliyaviy xavfsizlik”* (2023) tadqiqotida tahlil qilinib, unda zamonaviy identifikatsiya tizimlari va tranzaksiya monitoringi mexanizmlari moliyaviy firibgarlik holatlarini kamaytirishda muhim vosita sifatida baholangan (4).

Shu bilan birga, iqtisodiyot fanlari nomzodi, katta o‘qituvchi M. Xasanov tomonidan *“Kambag‘allikni qisqartirishda moliyaviy xizmatlarning roli”* (2022) maqolasida moliyaviy xizmatlar xavfsizligi darajasi past bo‘lgan sharoitda kambag‘al qatlamlarning moliyaviy yo‘qotishlarga ko‘proq duchor bo‘lishi va bu holat ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi qayd etilgan (5).

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bank xizmatlari xavfsizligini ta’minlash va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, iqtisodiy xavflarni kamaytirish hamda kambag‘allik darajasini qisqartirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot kompleks metodologik yondashuv asosida olib borildi. Dastlab, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, ATKRIV va Kiberxavfsizlik markazi ma’lumotlari asosida 2020–2024-yillarda bank sektoridagi kiberhujumlar va moliyaviy firibgarlik holatlari dinamikasi tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari bank xizmatlari xavfsizligi va kambag‘allik darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kompleks tarzda baholash imkonini berdi. Xususan, 1-rasmning chap qismida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda moliyaviy firibgarlik bilan bog‘liq yo‘qotishlar hajmi 2020-yildagi 42,6 mlrd so‘mdan 2024-yilda 17,3 mlrd so‘mga qisqarib, 59 foizlik pasayish qayd etilgan. Mazkur jarayon bilan bir vaqtda kambag‘allik darajasi ham 16,2 foizdan 10,2 foizgacha kamaygan bo‘lib, ular o‘rtasida sezilarli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Regressiya tahlili natijalari moliyaviy firibgarlik yo‘qotishlarining 10 foizga kamayishi kambag‘allik darajasining o‘rtacha 0,62 foiz punktga pasayishiga olib kelishini ko‘rsatdi ($\beta = -0{,}062$; $p < 0{,}01$). Ushbu natijalar moliyaviy yo‘qotishlarni minimallashtirish orqali kambag‘allik darajasini qo‘shimcha 5–6 foiz punktga qisqartirish salohiyati mavjudligini asoslaydi.

Bank tizimida xavfsizlik texnologiyalarining joriy etilishi va ularning samaradorligi ham muhim empirik natijalar orqali tasdiqlandi. 1-rasmning o‘ng qismida aks ettirilganidek, ikki faktorli autentifikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi 2022-yildagi 54,3 foizdan 2024-yilda 83,7 foizga yetgan bo‘lsa, sun’iy intellekt asosidagi firibgarlikni aniqlash tizimlari ulushi 22,7 foizdan 57,1 foizgacha oshgan. Shu bilan birga, so‘rovnoma natijalari moliyaviy firibgarlikning ijtimoiy qatlamlar kesimidagi nomutanosib ta’sirini aniqlash

imkonini berdi: past daromadli respondentlarning 41 foizi so‘nggi uch yil davomida firibgarlik holatlariga duch kelgan bo‘lib, ularning o‘rtacha yo‘qotishlari oylik daromadining 28 foizini tashkil etgan.



1-rasm. Moliyaviy firibgarlik yo'qotishlari, kambag'allik darajasi va xavfsizlik texnologiyalari qo'llanilishi (O'zbekiston, 2020–2024)

Mazkur ko‘rsatkich o‘rta daromadli guruhda 9 foiz darajasida bo‘lib, farq 3,1 baravarni tashkil etadi. Bu esa kambag‘al aholi qatlamining moliyaviy xavfsizlik nuqtai nazaridan yuqori darajada zaif ekanligini ko‘rsatadi. Xalqaro tajriba tahlili, xususan Singapur misolida, bank xavfsizligiga yo‘naltirilgan tizimli investitsiyalarning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi: mamlakatda 2015-yildan boshlab ushbu sohaga YaIMning 0,8 foizi yo‘naltirilishi natijasida moliyaviy firibgarlik yo‘qotishlari 91 foizga qisqartirilgan.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari bank xizmatlari xavfsizligi darajasi bilan kambag‘allik ko‘rsatkichlari o‘rtasida barqaror va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Moliyaviy firibgarlik yo‘qotishlarining qisqarishi aholi farovonligining oshishi bilan uyg‘unlashib, bank xavfsizligiga yo‘naltirilgan investitsiyalar nafaqat moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ham xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Mazkur yo‘nalishda aholi, ayniqsa past daromadli qatlamlar o‘rtasida moliyaviy va kiberxavfsizlik bo‘yicha bilimlarni oshirish muhim ahamiyatga ega. Raqamli moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan tizimli dasturlarni joriy etish firibgarlik xavfini kamaytirish va aholi moliyaviy himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tijorat banklarida zamonaviy texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt asosidagi monitoring tizimlarini keng qo‘llash moliyaviy xavflarni aniqlash va oldini olish samaradorligini oshiradi.

Moliyaviy firibgarlikdan jabrlangan mijozlarni himoya qilishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni takomillashtirish ham muhim hisoblanadi. Tezkor kompensatsiya tizimini joriy etish va uni normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash bank tizimiga bo‘lgan ishonchni oshirish bilan birga, aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish faolligini kuchaytiradi. Umuman olganda,

bank xizmatlari xavfsizligini kompleks rivojlantirish ijtimoiy himoya darajasini oshirish va kambag‘allikni qisqartirishning samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tursunova O. Moliyaviy inklyuzivlik va ijtimoiy rivojlanish: Monografiya. — Toshkent: «Iqtisod-Moliya», 2020. — 212 b.
2. Yuldashev B. Bank tizimi barqarorligi va xavfsizlik muammolari: O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: «O‘zbekiston», 2019. — 198 b.
3. Qodirova R. Raqamli moliya va kambag‘allikni qisqartirish mexanizmlari // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. — 2021. — №5. — B. 42–56.
4. Ergashev D. Raqamli texnologiyalar va moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash masalalari // Samarqand iqtisodiyot va servis instituti «Ilmiy xabarnoma» jurnali. — 2023. — №4. — B. 88–101.
5. Xasanov M. Kambag‘allikni qisqartirishda moliyaviy xizmatlarning roli: tahlil va natijalar // O‘zMU «Iqtisodiyot» ilmiy to‘plami. — 2022. — №3. — B. 114–127.

ISHCHI KUCHI BOZORIDA AVTOMATLASHTIRISH VA SUN’IY INTELLEKTNING TA’SIRI

Boboqulov Sanjar Baxronkulovich
SamISI PhD, dotsent
Abdullayeva Gulrux Erkin qizi
SamISI magistranti

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot avtomatlashtirish va sun’iy intellektning (SI) mehnat bozoriga ta’sirini, xususan bandlik dinamikasi, malakalar transformatsiyasi va mehnat unumdorligidagi o‘zgarishlarni chuqur tahlil qiladi. Tadqiqotda tavsifiy statistika, taqqoslovchi tahlil va ikkilamchi ma’lumotlar asosidagi modellashtirishni o‘z ichiga olgan aralash uslubiy yondashuv qo‘llanildi. Xalqaro mehnat hisobotlaridan olingan miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida ish o‘rinlarining qisqarishi va yangilanishi, shuningdek, tarmoqlar bo‘yicha unumdorlikdagi o‘zgarishlar o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, avtomatlashtirish ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli oshiradi, biroq bandlikka ta’siri tarmoqlar kesimida bir xil emas. Rutinga asoslangan kasblar eng yuqori xavf ostida qolayotgan bo‘lsa, tahliliy, boshqaruv va ijodkorlikka yo‘naltirilgan kasblarda o‘sish kuzatilmoqda. SI bilan uyg‘unlashuvchi ko‘nikmalar raqamli savodxonlik, muammo yechish va ma’lumotlarni tahlil qilish - yuqori ish haqi ustuvorligi bilan bog‘liq. Tadqiqot mehnat iqtisodiyoti bo‘yicha ilmiy adabiyotga SI orqali ish tuzilmalari qanday o‘zgarishini tushuntiruvchi integrallashgan modelni taklif etish orqali hissa qo‘shadi. Natijalar hukumatlarga qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish, raqamli ta’limni rivojlantirish va SI inson mehnatini to‘ldiradigan sohalarni qo‘llab-quvvatlash zarurligini ko‘rsatadi. Korxonalar esa to‘liq avtomatlashtirishdan*

ko‘ra “inson-mashina hamkorligi” strategiyalarini joriy qilishi lozim. Tadqiqotning cheklovlari rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha real vaqt mehnat bozori ma’lumotlarining yetishmasligi hamda ikkilamchi manbalarga tayangan holda olib borilganidir. Kelgusida firmlar darajasida SI joriy etish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, shuningdek, bandlikning uzoq muddatli moslashuvini o‘rganishga qaratilgan uzunlamas tadqiqotlar zarur.

Kalit so‘zlar: *Avtomatlashtirish; sun’iy intellekt; mehnat bozori; ishchi kuchi transformatsiyasi; texnologik o‘zgarishlar; robotlashtirish; mehnat unumdorligi; raqamli iqtisodiyot; kasbiy kompetensiyalar; bandlik darajasi; malaka talablari; iqtisodiy samaradorlik; texnologik ishsizlik; innovatsion texnologiyalar; mehnat resurslari boshqaruvi.*

Annotatsiya. *This study aims to investigate the impact of automation and artificial intelligence (AI) on the labor market, with a particular focus on employment dynamics, skill transformation, and productivity patterns. The research applies a mixed-methods approach combining descriptive statistics, comparative analysis, and secondary data modeling. Quantitative indicators from international labor reports were analyzed to identify trends in job displacement, new job creation, and sectoral productivity changes. Results show that automation leads to significant productivity growth but uneven employment effects across sectors. High-routine occupations face the highest displacement risk, whereas analytical, managerial, and creative roles continue to grow. AI-complementary skills-digital literacy, problem-solving, and data analysis-are associated with higher wage premiums. The study contributes to labor economics literature by presenting an integrated model explaining how AI reshapes job structures through substitution and augmentation mechanisms. It expands existing theories of technological unemployment and skill-biased technological change.The findings suggest that governments should prioritize reskilling programs, expand digital education, and support sectors where AI augments human labor. Firms must adopt human-machine collaboration strategies rather than full-automation strategies.*

The research is limited by the scarcity of real-time labor market data for developing economies and by reliance on secondary datasets. Future research should incorporate firm-level AI adoption metrics and conduct longitudinal studies to assess long-term labor market adjustments

Keywords: *Automation; artificial intelligence; labor market; workforce transformation; technological change; robotization; labor productivity; digital economy; professional competencies; employment rate; skill requirements; economic efficiency; technological unemployment; innovative technologies; labor resource management.*

Аннотация. *Данное исследование посвящено анализу влияния автоматизации и искусственного интеллекта (ИИ) на рынок труда, с акцентом на динамику занятости, трансформацию навыков и изменения производительности. В работе применяется смешанная методология,*

включающая описательную статистику, сравнительный анализ и моделирование на основе вторичных данных. На основе количественных показателей международных трудовых отчетов изучены тенденции сокращения рабочих мест, создание новых рабочих позиций и изменения продуктивности по секторам. Результаты показывают, что автоматизация значительно повышает производительность, однако её влияние на занятость неоднородно по отраслям. Профессии с высоким уровнем рутинных задач подвергаются наибольшему риску вытеснения, тогда как аналитические, управленческие и творческие специальности продолжают расти. Навыки, дополняющие ИИ - цифровая грамотность, решение проблем и анализ данных - связаны с более высокими заработными премиями. Исследование расширяет научную литературу по экономике труда, предлагая интегрированную модель, объясняющую, как ИИ трансформирует структуру рабочих мест через механизмы замещения и дополнения. Результаты указывают на необходимость государственных программ по переподготовке кадров, расширения цифрового образования и поддержки отраслей, где ИИ усиливает человеческий труд. Для компаний рекомендуется переход от полной автоматизации к стратегиям «человек–машина». Ограничениями исследования являются нехватка оперативных данных по развивающимся экономикам и зависимость от вторичных источников. В будущих работах следует учитывать показатели внедрения ИИ на уровне фирм и проводить лонгитюдные исследования для оценки долгосрочных адаптаций рынка труда.

Ключевые слова: *Автоматизация; искусственный интеллект; рынок труда; трансформация рабочей силы; технологические изменения; роботизация; производительность труда; цифровая экономика; профессиональные компетенции; уровень занятости; требования к квалификации; экономическая эффективность; технологическая безработица; инновационные технологии; управление трудовыми ресурсами.*

Kirish. Avtomatlashtirish va sun’iy intellekt (SI) so‘nggi o‘n yilliklarda global iqtisodiyotni tubdan o‘zgartirayotgan asosiy texnologik omillardan biriga aylandi. Ishlab chiqarish robotlari, aqlli biznes tizimlari, algoritmik boshqaruv va generativ SI modellarining jadal rivoji mehnat bozori tarkibini qayta shakllantirmoqda. Mehnat bozori o‘zgarishlari tarixan texnologik yangilanishlarga bog‘liq bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, hozirgi bosqich o‘zining tezkorligi, masshtabi va chuqur ta’siri bilan ajralib turadi [1]. Rivojlangan davlatlar tajribasi ko‘rsatadiki, SI faqat ayrim kasblarni avtomatlashtiribgina qolmay, balki kasb mazmunini, malaka talablarini, mehnat unumdorligini va iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada o‘zgartiradi [2]. Mehnat bozori nazariyalarida texnologik o‘zgarishlar odatda ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi: (1) substitutsiya effekti – texnologiyalar inson mehnatini qismlarga ajratib, ba’zi vazifalarni to‘liq almashtiradi; (2) augmentatsiya effekti – texnologiyalar inson mehnatini kuchaytirib, yangi imkoniyatlar yaratadi. Zamonaviy SI aynan mana

shu ikki mexanizm orqali mehnat bozorida turlicha o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

Ko‘plab tadqiqotlar SI kam malakali ishchilarga nisbatan kuchliroq ta’sir ko‘rsatishini, yuqori malakali mutaxassislar esa ko‘proq foyda ko‘rishini ta’kidlaydi. Bu esa mehnat bozorida skill-biased technological change - ya’ni malakaga asoslangan texnologik siljishlarni kuchaytiradi [3], [4]. Buning natijasi sifatida ishchilar o‘rtasida malaka bo‘yicha tafovut, daromadlar orasidagi nomutanosiblik va kasbiy segmentatsiya kengayib bormoqda.

Shu bilan birga, SI yangi turdagi kasblar, xususan, ma’lumotlar tahlili, algoritmlar dizayni, sun’iy intellekt muhandisligi, kiberxavfsizlik, raqamli marketing kabi yo‘nalishlarda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu mehnat bozori dinamikasida ikki qarama-qarshi jarayon – ish o‘rinlarining qisqarishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishi – bir vaqtning o‘zida kechayotganligini anglatadi [5].

Ushbu maqolada avtomatlashtirish va SI ning mehnat bozoriga ta’siri ko‘p qirrali yondashuv asosida tahlil qilinadi. Xususan, sohalar kesimidagi o‘zgarishlar, mehnat unumdorligi, malaka ehtiyoji va bandlik strukturasidagi siljishlar statistik ma’lumotlar orqali solishtiriladi. Maqola natijalari siyosat ishlab chiqaruvchilar, ta’lim tizimi rahbarlari va korxonalar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi [6], [7]. Zero, SI davrida mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lish uchun nafaqat texnik bilimlar, balki moslashuvchanlik, ijodkorlik, analitik fikrlash va muammolarni yechish ko‘nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda mehnat bozori va texnologik o‘zgarishlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida mixed-methods yondashuvi qo‘llanildi. Tadqiqot ikki asosiy metoddan iborat:

1) Descriptive statistical analysis - BMT, Jahon banki, ILO, OECD va McKinsey Global Institute kabi tashkilotlarning ochiq ma’lumotlari asosida sektorlar kesimidagi bandlik darajasi, mehnat unumdorligi va avtomatlashtirish potensiali kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Statistik ko‘rsatkichlar asosida o‘zgarishlar dinamikasi va sektorlararo farqlar aniqlangan.

2) Comparative analysis - Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda SI va avtomatlashtirishning mehnat bozoriga ta’siri solishtirildi. Bu yondashuv mehnat bozorining turli tizimlarida texnologik o‘zgarishlarning qanday natija berishini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda shuningdek: Autor, Acemoglu va Brynjolfsson modellari, Skill-biased technological change nazariyasi, Task-based labor approach ham nazariy asos sifatida qo‘llanildi. Ma’lumotlar Excel va SPSS dasturlari yordamida qayta ishlanib, trendlari va sektoral ta’sirni ko‘rsatish uchun grafiklar yaratildi. Metodologiya ushbu maqolaning maqsadiga mos holda, SI ning mehnat bozoriga qancha darajada ta’sir ko‘rsatayotganini aniq va tizimli tahlil qilishga imkon berdi.

Natija va tahlil. Ushbu tadqiqotda avtomatlashtirish va sun’iy intellektning (SI) mehnat bozoriga ta’siri sektoral kesim, malaka talabi, mehnat unumdorligi va ish o‘rinlari dinamikasi bo‘yicha empirik ma’lumotlar asosida baholandi. Quyidagi jadval va figuralar asosiy natijalarni ifodalaydi.

1-jadval

Sektorlardagi avtomatlashtirish imkoniyati (%)

Sektor	Avtomatlashtirish imkoniyati (%)
Ishlab chiqarish	63
Transport	55
Qishloq xo‘jaligi	48
Xizmat ko‘rsatish	29
Ta’lim	14

Tahlil: Ushbu jadval turli iqtisodiy tarmoqlar kesimida vazifalar avtomatlashtirilishi mumkin bo‘lgan ulushni ko‘rsatadi.

Mazkur ma’lumotlar ishlab chiqarish va transport sohalari eng yuqori avtomatlashtirish potensialiga ega ekanini ko‘rsatadi.

2-jadval

2020–2030 yillarda AI ta’sirida bandlikdagi o‘zgarishlar (%)

Sektor	Ish o‘rinlarining qisqarishi (%)	Yangi ish o‘rinlari (%)
Ishlab chiqarish	–22	8
Xizmatlar	–5	19
IT va High-tech	+12	34
Transport	–18	5

Tahlil: Jadval SI joriy etilishi natijasida ish o‘rinlari qisqarishi va yangi ishlarning yaratilishi bo‘yicha prognozlarni ifodalaydi.

Tadqiqot natijalari SI va avtomatlashtirishning mehnat bozoriga ta’siri tarmoqlar bo‘yicha sezilarli farq qilayotganini ko‘rsatadi. Jumladan, Jadval 1 ma’lumotlariga ko‘ra, ishlab chiqarish (63%) va transport (55%) tarmoqlari avtomatlashtirishga eng yuqori darajada moyil bo‘lgan sektorlardir [9]. Bu sektorlar yuqori darajada takrorlanuvchi, algoritmlashtiriladigan vazifalarga ega bo‘lgani sababli SI ularga tez moslashadi. Ta’lim sektorida avtomatlashtirish faqat 14% bo‘lib, bu sohada insonning muloqot, pedagogik sezgirlik va ijodkorlik kabi omillari hali ham muhimligini bildiradi.

Jadval 2 bandlikka ta’sir bo‘yicha qiziqarli manzarani ko‘rsatadi: ishlab chiqarishda ish o‘rinlari 22% ga qisqarishi kutilsa-da, xizmatlar sohasida aksincha, yangi ish o‘rinlari 19% ga oshishi prognoz qilinmoqda [10]. Bu, xizmatlar sohasida SI inson mehnatini to‘liq almashtirish emas, balki uni kuchaytirish (augmentation) yo‘li bilan qo‘llanayotganini bildiradi. Masalan, mijozlarga xizmat ko‘rsatish, tibbiyot, savdo va logistika jarayonlarida SI yordamchi sifatida ishlashi kuzatilmoqda. IT va High-tech sohasidagi 34% o‘sish esa SI biznes jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash, ma’lumotlar tahlili, algoritmlar ishlab chiqish kabi yuqori malakali vazifalarning jadal kengayayotganini anglatadi [11], [12].



1-rasm. Avtomatlashtirish sharoitida mehnat unumdorligining o‘sish trendlari (2018–2022)

Rasm 1 mehnat unumdorligining 2018-yildan 2022-yilgacha doimiy o‘sib borganini ko‘rsatadi. 2018-yilda 80 bo‘lgan indeks 2022-yilda taxminan 130 ga yetgan [13], [14]. Ushbu o‘sish avtomatlashtirishning iqtisodiy samaradorlikni oshirishi, ishlab chiqarish jarayonlarida xatoliklarning kamayishi va tezlikning ortishi bilan izohlanadi. Ayniqsa pandemiya davrida korxonalar robotlashtirilgan tizimlarga faol o‘tdi va bu tezkor raqamlashtirish unumdorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatdi [15].

Xulosa. Ushbu tadqiqotda avtomatlashtirish va sun’iy intellektning mehnat bozoriga ko‘rsatayotgan ta’siri sektoral, malaka talabi, mehnat unumdorligi va bandlik dinamikasi kesimida chuqur o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, avtomatlashtirish eng avvalo takrorlanuvchi va standartlashtirilgan jarayonlarga ega sohalarda kuchli aks etmoqda. Ishlab chiqarish va transport tarmoqlarida avtomatlashtirish imkoniyati mos ravishda 63% va 55% bo‘lgani holda, xizmat ko‘rsatish va ta’lim sohalari ancha past ko‘rsatkichlarga ega. Bu esa SI’dan foydalanish imkoniyatlarining tarmoqlar bo‘yicha notekis taqsimlanganini bildiradi.

Bandlik bo‘yicha olingan natijalar ham ikki yo‘nalishda o‘zgarish ro‘y berayotganini ko‘rsatdi: ayrim sohalarda ish o‘rinlari qisqarayotgan bo‘lsa-da, raqamli texnologiyalar talab qiladigan sohalarda yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda. Ayniqsa IT va High-tech yo‘nalishlarida 34% yangi ish o‘rni paydo bo‘lishi mehnat bozorida yuqori malaka va texnik ko‘nikmalar ahamiyati keskin oshayotganini tasdiqlaydi. Xizmat ko‘rsatish sohasida esa SI inson mehnatini to‘liq almashtirmasdan, balki uni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida ishlayotgani kuzatiladi.

Mehnat unumdorligining 2018–2022 yillar davomida doimiy o‘sib borishi avtomatlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta’sirini yana bir bor tasdiqlaydi. Yuqori unumdorlikning kuzatilishi korxonalar faoliyatida SI, robotlashtirish va raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot malaka talablari o‘zgarayotganini ham ko‘rsatdi: qo‘l mehnati va rutin vazifalarga talab kamayib borayotgani holda, kognitiv va ayniqsa raqamli ko‘nikmalarga ehtiyoj keskin oshgan. Bu o‘zgarish mehnat bozorida “skill-biased technological change” jarayoni faol ketayotganini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. E. Brynjolfsson and A. McAfee, The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York, NY, USA: W. W. Norton, 2014.
2. C. Frey and M. A. Osborne, “The future of employment: How susceptible are jobs to computerisation?” Technological Forecasting & Social Change, vol. 114, pp. 254–280, 2017.
3. D. Autor, “Why are there still so many jobs? The history and future of workplace automation,” Journal of Economic Perspectives, vol. 29, no. 3, pp. 3–30, 2015.
4. E. Brynjolfsson, T. Mitchell, and D. Rock, “What can machines learn and what does it mean for occupations and the economy?” AEA Papers and Proceedings, vol. 108, pp. 43–47, 2018.
5. M. Arntz, T. Gregory, and U. Zierahn, “The risk of automation for jobs in OECD countries,” OECD Social, Employment and Migration Working Papers, no. 189, 2016.
6. J. Manyika et al., “A future that works: Automation, employment, and productivity,” McKinsey Global Institute, 2017.
7. F. Levy and R. J. Murnane, The New Division of Labor: How Computers Are Creating the Next Job Market. Princeton, NJ, USA: Princeton Univ. Press, 2004.
8. G. Acemoglu and P. Restrepo, “Robots and jobs: Evidence from US labor markets,” Journal of Political Economy, vol. 128, no. 6, pp. 2188–2244, 2020.
9. D. Autor and A. Salomons, “Is automation labor-displacing? Productivity growth, employment, and the labor share,” Brookings Papers on Economic Activity, pp. 1–87, 2018.
10. OECD, “AI and the Future of Skills,” OECD Publishing, Paris, 2021.
11. R. Susskind and D. Susskind, The Future of the Professions: How Technology Will Transform the Work of Human Experts. Oxford, UK: Oxford Univ. Press, 2015.
12. K. Schwab, The Fourth Industrial Revolution. Geneva, Switzerland: World Economic Forum, 2016.
13. P. Bessen, “Automation and jobs: When technology boosts employment,” Economic Policy, vol. 36, no. 106, pp. 205–244, 2021.
14. A. Chui, J. Manyika, and M. Miremadi, “Where machines could replace humans—and where they can’t (yet),” McKinsey Quarterly, 2016.
15. International Labour Organization (ILO), “The impact of technology on the quality and quantity of jobs,” ILO Report, Geneva, 2020.

KAMBAG‘ALLIKGA QARSHI KURASHISHDA XALQARO TAJRIBALAR

Rustamova Dilnoza Adhamjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universtiteti 1-bosqich magistranti
rustamovadilnoz1901@gmail.com
+998905066064

Annotatsiya: *Ushbu yozilayotgan ilmiy tezisda bugungi kunda mamlakatlar iqtisodiyotida kambag‘allik bilan bog‘liq global muammolar va ularni hal etishning xalqaro mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha muvaffaqiyatli tajribalari va manzilli yordam tizimlari o‘rganilgan. Maqola yakunida xalqaro amaliyotning samarali jihatlarini milliy iqtisodiyotga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy himoya, davlat byudjeti.*

Kirish. Bugungi kunda kambag‘allik muammosi nafaqat alohida mamlakatlarning milliy iqtisodiyoti, balki xalqaro tashkilotlar va global hamjamiyat uchun ham eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu muammo iqtisodiy o‘sishni cheklash bilan birga, ijtimoiy tengsizlikning chuqurlashishiga va inson kapitali rivojlanishining sekinlashishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, kambag‘allikni qisqartirish Barqaror rivojlanish maqsadlarining (BRM) ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etilmoqda. Jahon bankining Qashshoqlik va tengsizlik platformasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda dunyo aholisining 9 foizini tashkil etuvchi 692 million kishi kuniga 2,15 dollardan kam pul topadi, asosan Sahroi Kabirdan janubdagi Afrika mamlakatlarida. Mintaqadagi mojarolar jamoalarni parchalaydi, iqlim o‘zgarishi ekinlarni nobud qiladi, zaif iqtisodiyotlar ish o‘rinlarini qisqartiradi. Jahon banki buni kuzatish uchun mahalliy narxlarga moslashtirilgan uy xo‘jaliklari so‘rovlaridan foydalanadi. BMT Taraqqiyot Dasturining Inson taraqqiyoti hisobotiga ko‘ra, Sahroi Kabirdan janubdagi Afrikada qashshoqlik darajasi 30% ni tashkil etadi, bu global o‘rtacha ko‘rsatkichdan uch baravar ko‘p[66].

Qashshoqlik-bu insonlarni birlamchi ehtiyojlarini qondirish uchun mablag‘ va resurslarni yetishmaslik holatidir. Bu muammo nafaqat daromadning pastligi, balki sifatli ta’lim, tibbiy xizmat va toza ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligida ham namoyon bo‘ladi. Ko‘p hollarda qashshoqlik iqtisodiy o‘sishning sekinlashishi va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikning chuqurlashishi natijasida yuzaga keladi. Bundan tashqari, ushbu holat inson kapitalining rivojlanishiga to‘sqinlik qilib, aholining mehnat unumdorligi va ijodiy salohiyatini sezilarli darajada pasaytiradi. Shu sababli, jamiyatda bilim va ko‘nikmalarning yetishmasligi texnologik taraqqiyotdan ortda qolishga va innovatsiyalarning to‘xtab qolishiga sabab bo‘ladi. Qashshoqlikni bartaraf etish nafaqat moliyaviy muammo, balki xalqning intellektual va ijtimoiy uyg‘onishi uchun tashlanadigan eng muhim qadamdir.

[66] https://www.amigosii.org



1-rasm. Kambag‘allikni paydo bo‘lish omillari[67].

Iqtisodiy omil- bu omil mamlakat iqtisodiyotida makro mikro darajada sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar bilan bog‘liq jarayondir. Masalan: inflatsiya darajasini oshishi, ishsizlik darajasi, mehnat unumdorligini pastligi, milliy daromadni adolatsiz taqsimlanishi va inson resurslariga investitsiyalarni yo‘naltirilmaganligi kabi holatlarda namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy omillar- bu aholi turmush darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi jarayonlar bo‘lib, ular sifatli ta’lim olish imkoniyatlarining cheklanganligi, sog‘liqni saqlash tizimidagi muammolar hamda oiladagi ijtimoiy yuklamaning (bolalar va keksalar ulushining) yuqoriligi kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli, kambag‘allikka qarshi kurashishda faqatgina moddiy yordam ko‘rsatish emas, balki ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash va inson salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Demografik omillar- bu aholining jinsi, yosh tarkibi, o‘sish sur’atlari va migratsiya jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni belgilab beradi. Misol uchun: qishloqlarda mehnatga layoqatli yoshlarni o‘qishi, ishlashi uchun shaharga yoki chet elga ko‘chib ketishi hududiy kambag‘allik ko‘rsatgichlariga ta’sir qiladi.

Hududiy va infratuzilma omillari- bu aholining iqtisodiy resurslar, bozorlar va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini belgilovchi shart-sharoitlardir. Transport kommunikatsiyalarining yomonligi, energiya resurslari yetishmovchiligi va raqamli texnologiyalardan uzilib qolganlik hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni chuqurlashtirib, kambag‘allik holatini barqarorlashishiga xizmat qiladi.

Struktura va tizim omillari- bu mamlakat iqtisodiyoti tarkibining xomashyoga bog‘liqligi, institutsional boshqaruv sifati va qonun ustuvorligi bilan bog‘liq jarayonlardir. Tizimli muammolar, jumladan, korrupsiya, mulk huquqining yetarli darajada himoya qilinmaganligi va tadbirkorlik muhitidagi to‘siqlar aholining iqtisodiy imkoniyatlarini cheklab, kambag‘allikning barqaror saqlanib qolishiga zamin yaratadi.

[67] Xamdamov Sh.K. Kambag‘allikka qarshi kurashishda innovatsion moliyaviy mexanizmlar: xalqaro tajriba va milliy yo‘nalishlar. Monografiya –T.: –“Modern science Research” nashriyoti, 2025 y. – 286 b.

Birlashgan Millatlar tashkilotining “Barqaror rivojlanish strategiyasi”- bu strategiya 2015-yilda qabul qilingan bo‘lib 2030-yilgacha dunyo mamlakatlarida barqaror rivojlanish sohasi kun tartibiga qo‘yilganini bildiradi. Barqaror rivojlanish dasturida 17 ta ustuvor maqsad belgilab olingan, maqsadlarni birinchisi kambag‘allik bilan bog‘liq bo‘lib, global darajada kambag‘allikga barham berishga qaratilgan.

Kambag‘allik darajasini pasaytirish bo‘yicha rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini ko‘rib chiqsak.

Germaniya tajribasi. Germaniya kambag‘allik darajasini pasaytirishda kuchli ijtimoiy himoya tizimi, mehnatga rag‘batlantirish mexanizmlari va sifatli ta’limga keng yo‘l ochish orqali yuqori natijalarga erishib kelmoqda. Mamlakat nafaqat o‘z fuqarolarini, balki muhojirlarni ham ish bilan ta’minlash hamda ularga ijtimoiy ko‘mak berish masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Statista va Paritätischer tashkilotlarining ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil holatiga ko‘ra Germaniya aholisining taxminan 16,1 foizi (yoki 13,3 million kishi) qashshoqlik xavfi ostida yashamoqda. Bu shuni anglatadiki, ularning daromadi o‘rtacha ekvivalent daromadning 60 foizidan, ya’ni rasmiy qashshoqlik chegarasidan past ko‘rsatkichni tashkil etayotganini ko‘rsatadi[68]. Germaniyada davlat yordamlaridan tashqari ko‘plab xayriya tashkilotlari ham kambag‘allik darajasini qisqartirishda o‘z yordamlarini ko‘rsatadilar. Misol uchun ular murojaat qilganlarga yashash uchun boshpana topib berishlari, kunlik oziq-ovqat bilan ta’minlashlari yoki ish topib berishlari mumkin.

Xitoy tajribasi. Xitoyda qashshoqlikni bartaraf etish bo‘yicha 4 o‘n yillik yo‘li ishlab chiqilgan bo‘lib, bu yo‘l orqali Xitoy kambag‘allik darajasini yillar davomida samarali strategiyalar orqali pasaytirishga erishdi. Ular kambag‘al hududlar va xonadonlar uchun maxsus moliyaviy yordam hamda qashshoqlikni yumshatish jamg‘armalari, mintaqalararo muvofiqlashtirilgan rivojlanish va o‘zaro yordam strategiyalari hamda Ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy ta'minot va boshqa maqsadli ijtimoiy dasturlar orqali qashshoq qatlamni qo‘llab-quvvatlagan.

Shvetsiya tajribasi. Shvetsiya qashshoqlikni bartaraf etishda yangi ish o‘rinlarini yaratish, tashqi savdoni rivojlantirish va ta’lim tizimini isloh qilish kabi strategik omillardan samarali foydalangan. Shvetsiya kambag‘allikka qarshi kurashda bir nechta asosiy yondashuvni qo‘lladi. Birinchidan, yuqori daromadli soliqlar hisobidan davlat katta miqyosda ijtimoiy dasturlarni moliyalashtira oldi. Ikkinchidan, davlat aholiga bepul ta’lim va tibbiy xizmatlar ko‘rsatib, har bir fuqaroning inson kapitaliga sarmoya kiritdi. Uchinchidan, Shvetsiyada bandlikni ta’minlash va mehnat bozorini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘ldi. To‘rtinchidan, Shvetsiyada eng past maosh oluvchilarning o‘z daromadlarini oshirishga qaratilgan siyosatlar bo‘ldi[69].

Yuqorida keltirilgan tajribalar asosida takliflar va xulosa qiladigan bo‘lsak:

[68] https://vostel.de/blog/en/poverty-germany

[69] Xamdamov Sh.K. Kambag‘allikka qarshi kurashishda innovatsion moliyaviy mexanizmlar: xalqaro tajriba va milliy yo‘nalishlar. Monografiya –T.: –“Modern science Research” nashriyoti, 2025 y. – 286 b.

Takliflar. Birinchidan, O‘zbekistonda ham "Faol ijtimoiy himoya" tamoyilini kuchaytirish. Ya’ni, ishsiz fuqarolarga nafaqa berish bilan cheklanib qolmasdan, ularga malaka oshirish kurslarini majburiy tarzda taklif qilish va mehnat birjalari orqali aniq ish o‘rinlariga yo‘naltirish tizimini Germaniyaning Jobcenter (Ish markazlari) modeliga o‘xshatib takomillashtirish lozim.

Ikkinchidan, O‘zbekistonda daromadi yuqori bo‘lgan Toshkent shahri yoki yirik sanoatlashgan viloyatlar (masalan, Navoiy) korxonalarini iqtisodiy o‘sishi sustroq bo‘lgan chekka tumanlarga (masalan, Surxondaryo yoki Qoraqalpog‘istonning olis tumanlari) biriktirish. Bu tumanlarda sanoat klasterlarini tashkil etish va boyroq hududlardagi korxonalarning filiallarini aynan o‘sha yerda ochish orqali bandlikni ta'minlash.

Uchinchidan, O‘zbekistonning eksport salohiyatini oshirishda mahalliy kichik biznes subyektlarini keng jalb qilish. Tashqi bozorlarga chiqayotgan korxonalarga aynan qashshoqlik darajasi yuqori hududlarda filiallar ochish va mahalliy aholini ishga olish sharti bilan davlat subsidiyalarini ajratish.

Xulosa. O‘zbekistonning kambag‘allikka qarshi kurashdagi o‘z yo‘li-bu “Kambag‘allikdan farovonlikka” tamoyili asosida inson qadrini ulug‘lashdir. Barqaror natijaga erishish uchun iqtisodiy o‘sish sur’atlari ijtimoiy adolat bilan hamnafas bo‘lishi, har bir fuqaro uchun o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga teng imkoniyatlar yaratilishi lozim. Qashshoqlikni yengish-bu faqat hukumatning vazifasi emas, balki butun jamiyatning bilimga intilishi va mehnatsevarligi mahsulidir. Shuning uchun, jamiyatda hamma o‘z salohiyatidan kelib chiqib, nafaqat o‘z farovonligini oshirishga, balki mamlakatning umumiy taraqqiyotiga hissa qo‘shishga mas’uldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xamdamov Sh.K., Sultonov Sh.N., Muradova D.A. “Ijtimoiy himoya moliyasi”. Darslik-T., 2025.
2. Xamdamov Sh.K. Kambag‘allikka qarshi kurashishda innovatsion moliyaviy mexanizmlar: xalqaro tajriba va milliy yo‘nalishlar. Monografiya –T.: – “Modern science Research” nashriyoti, 2025 y. – 286 b.
3. https://www.amigosii.org
4. https://vostel.de/blog/en/poverty-germany

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLINI IJTIMOIY HIMOYALASHNING MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI

Urazov Sadulla Shodiyevich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Menejment” kafedrasi dotsent v.b, PhD.
e-mail: urazov.sadulla28@gmail.com,
telefon:+998(88)-285-28-84
Parmonova Mehribon Shuxratovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 1-kurs
MN-325 guruhi talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola kambag‘allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilishning moliyalashtirish mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda kambag‘allikni kamaytirishning ahamiyati, ijtimoiy himoya tizimining asosiy shakllari va moliyalashtirish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu tizimning samaradorligini oshirish yo‘llari va innovatsion yondashuvlar ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar. *kambag‘allik, ijtimoiy himoya, moliyalashtirish mexanizmlari, aholi farovonligi, ijtimoiy dasturlar, davlat siyosati, barqaror rivojlanish*

Kambag‘allik va aholini ijtimoiy himoya qilish masalalari zamonaviy davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Kambag‘allik nafaqat individual darajada, balki jamiyat darajasida ham ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni buzadi. Shu sababli, kambag‘allikni qisqartirish va aholining zaif qatlamlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning samarali amalga oshirilishi moliyalashtirish mexanizmlarining mustahkamligi va samaradorligiga bog‘liq. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan siyosatning samarali ishlashi nafaqat iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshiradi, balki ijtimoiy barqarorlik va huquqiy tartibni mustahkamlaydi.

Kambag‘allikni kamaytirishning asosiy maqsadi aholi hayot sifatini yaxshilash va ijtimoiy notekislikni kamaytirishdir. Kambag‘allik nafaqat iqtisodiy muammo, balki ijtimoiy inqirozlarni keltirib chiqaradi, masalan: ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlaridan foydalanish imkoniyati cheklanishi, jinoyatchilik va ijtimoiy izolyatsiya xavfi oshishi.

Kambag‘allikni qisqartirishning samarali vositalari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

1. Ijtimoiy yordam dasturlari – nafaqa, pul mablag‘lari va oziq-ovqat yordamini o‘z ichiga oladi.

2. Ta’lim va malaka oshirish dasturlari – kambag‘al oilalar farzandlarining ta’lim olish imkoniyatini kengaytiradi va ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini oshiradi.

3. Sog‘liqni saqlash tizimi – aholining zaif qatlamlari uchun bepul yoki arzon tibbiy xizmatlarni ta’minlash.

Ushbu choralar aholi farovonligini oshirishga, ish bilan ta’minlashni kengaytirishga va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy himoya tizimi aholining zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks choralardan iborat. U quyidagi asosiy shakllarni o‘z ichiga oladi:

- nafaqa va pensiyalar,
- ijtimoiy yordam dasturlari (pul mablag‘lari, oziq-ovqat, kiyim-kechak),
- ish bilan ta’minlash va malaka oshirish dasturlari.

Ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi moliyalashtirish mexanizmlariga bevosita bog‘liq. Agar moliyalashtirish uzluksiz va barqaror bo‘lmasa, ijtimoiy dasturlar o‘z maqsadiga yetmaydi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish va kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini moliyalashtirishning bir nechta asosiy mexanizmlari mavjud (1-rasm).



1-rasm. Aholini ijtimoiy himoya qilish va kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini moliyalashtirish mexanizmlari

1. Davlat byudjeti mablag‘lari – markaziy va mahalliy byudjetdan ajratmalar orqali ijtimoiy dasturlarni qo‘llab-quvvatlash.

2. Soliq va majburiy yig‘imlar – ijtimoiy fondlar, pensiya jamg‘armalari va sog‘liqni saqlash fondlari orqali mablag‘ jalb qilish.

3. Xalqaro tashkilotlar mablag‘lari – grantlar, kreditlar va texnik yordam orqali qo‘shimcha resurslar olish.

4. Xususiy sektor ishtiroki – korporativ ijtimoiy mas’uliyat dasturlari va xayriya loyihalari orqali moliyalashtirish.

Ushbu mexanizmlar birgalikda ishlaganda aholining eng zaif qatlamlarini samarali qo‘llab-quvvatlash va kambag‘allikni kamaytirish imkonini beradi.

Moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligini oshirish uchun quyidagi choralar zarur:

- resurslar taqsimotida shaffoflikni ta’minlash;
- ijtimoiy yordamning maqsadli va ehtiyojga yo‘naltirilgan tizimini yaratish;
- monitoring va baholash mexanizmlarini joriy etish;
- innovatsion moliyalashtirish usullarini tatbiq etish (raqamli transferlar, elektron ijtimoiy kartalar).

Shuningdek, davlat, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar o‘rtasida

hamkorlikni kuchaytirish ijtimoiy barqarorlikni oshirish va kambag‘allikni sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi.

Xulosa qilib shini ta’kidlash kerakk, kambag‘allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilishning samarali moliyalashtirish mexanizmlari jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Davlat siyosati, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlarning hamkorligi resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion yechimlarni joriy etish orqali kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini oshirish aholining hayot sifatini yaxshilash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.

Kambag‘allikni qisqartirish va aholining zaif qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan quyidagi ilmiy takliflar ishlab chiqilishi mumkin.

Birinchidan, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarur. Bu davlat byudjeti mablag‘lari bilan cheklanmasdan, xususiy sektor va notijorat tashkilotlarni ijtimoiy dasturlarga jalb qilishni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, ijtimoiy yordamning maqsadli tizimini rivojlantirish lozim. Aholining eng zaif qatlamlariga yordamni ehtiyojga qarab taqsimlash moliyaviy resurslarning samarali ishlatilishini ta’minlaydi. Buning uchun elektron ijtimoiy kartalar, raqamli transferlar va shaxsni aniqlash tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, innovatsion moliyalashtirish usullarini tatbiq etish muhim. Raqamli texnologiyalar va elektron xizmatlar orqali ijtimoiy yordamning monitoringi kuchaytiriladi, bu esa resurslarning yo‘qotilishini kamaytiradi va moliyalashtirish samaradorligini oshiradi. Mobil ilovalar va onlayn platformalar bu jarayonda samarali vosita sifatida ishlatilishi mumkin.

To‘rtinchidan, kambag‘allikni qisqartirish strategiyalarini integratsiyalash lozim. Moliyaviy, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ish bilan ta’minlash dasturlarini birlashtirgan kompleks yondashuv kambag‘allikni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Shu tarzda ishlab chiqilgan ilmiy takliflar kambag‘allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini samarali va barqaror qilishga, resurslardan oqilona foydalanishga va aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahmonov O. Ijtimoiy himoya va kambag‘allikni qisqartirish tizimi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 256 b.

2. Karimov A. Davlat ijtimoiy siyosati va aholining zaif qatlamlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 198 b.

3. Islomov D. Moliyalashtirish mexanizmlari va ijtimoiy barqarorlik // Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali. – 2020. – №4(2). – B. 45–53.

4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Davlat byudjeti to‘g‘risida hisobot. – Toshkent, 2022.

5. World Bank. Poverty Reduction Strategies in Central Asia. – Washington, D.C.: World Bank Publications, 2022. – 134 p.

6. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report 2021/2022. – New York: UNDP, 2022. – 300 p.

O‘ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YANGI ISH O‘RINLARINI YARATISH

Abduvoxidova N.G'.
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistri
Ilmiy rahbar: Karimova A.M.
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Bank ishi kafedrasi mudiri, i.f.d., prof.

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati va uning yangi ish o‘rinlarini yaratishdagi o‘rni kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida kapital bozorining rivojlanishi investitsiya jarayonlarini faollashtirishi, moliyaviy infratuzilmaning kengayishi va xizmatlar sektorining rivojlanishiga turtki berishi asoslab berilgan. Shuningdek, milliy iqtisodiyot sharoitida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *qimmatli qog‘ozlar bozori, kapital bozori, investitsiya, bandlik, iqtisodiy o‘sish, moliyaviy vositachilar, IPO, xizmatlar sektori, employment, stock market, investitsiya.*

Аннотация. *В данной статье всесторонне рассматривается значение развития рынка ценных бумаг в Узбекистане и его роль в создании новых рабочих мест. Обосновано, что развитие рынка капитала способствует активизации инвестиционных процессов, расширению финансовой инфраструктуры и росту сектора услуг. Также выявлены существующие проблемы и предложены научно обоснованные рекомендации по их устранению.*

Ключевые слова: *рынок ценных бумаг, рынок капитала, инвестиция, занятость, экономический рост, финансовые посредники, IPO, сектор услуг, занятость, фондовый рынок, инвестиция.*

Kirish. Global iqtisodiyotda moliyaviy bozorlar, xususan qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiy o‘sishning muhim institutsional omillaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Kapital bozorining rivojlanganligi mamlakatda investitsion muhitning jozibadorligini oshiradi, moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta’minlaydi va iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, moliyaviy bozorlar iqtisodiyotning real sektorini uzoq muddatli moliyalashtirish manbai bilan ta’minlab, innovatsion rivojlanish uchun zarur sharoitlarni yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiya qilish doirasida kapital bozorini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, davlat aktivlarini xususiylashtirish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini transformatsiya qilish, korporativ boshqaruv tizimini

takomillashtirish hamda IPO va SPO mexanizmlarini joriy etish orqali fond bozorining institutsional asoslari mustahkamlanmoqda.

Qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash mexanizmi sifatida muhim o‘rin egallaydi. Klassik iqtisodiy nazariyalarga ko‘ra, kapital bozori jamg‘armalarni investitsiyalarga aylantiruvchi asosiy institutlardan biri bo‘lib, ushbu jarayon iqtisodiy o‘sishning intensiv omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy yondashuvlarda esa fond bozori rivojlanishi kapitalning erkin harakatini ta’minlashi, investitsion risklarni diversifikatsiya qilishi hamda korxonalar uchun muqobil moliyalashtirish manbalarini yaratishi bilan izohlanadi. Shu bois, qimmatli qog‘ozlar bozori nafaqat moliyaviy tizimning ajralmas qismi, balki mehnat bozoriga ham bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim iqtisodiy omil sifatida baholanadi.

Asosqiy qism. Qimmatli qog‘ozlar — bu egasining mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi hamda daromad olish imkonini beruvchi moliyaviy hujjatlardir. Ular moliya bozorining asosiy instrumentlaridan biri bo‘lib, iqtisodiyotda kapitalni jalb qilish va qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. Qimmatli qog‘ozlarning asosiy turlariga aksiyalar, obligatsiyalar va veksellar kiradi. Aksiya korxona ustav kapitalidagi ulushni ifodalab, egasiga dividend olish huquqini beradi. Obligatsiya esa qarz majburiyatini bildirib, uning egasiga belgilangan foiz ko‘rinishida daromad keltiradi.[70]

O‘zbekiston Respublikasida qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyati puxta shakllangan normativ-huquqiy baza asosida tartibga solinadi. Ushbu tizimning asosiy huquqiy poydevorini “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi[71] Qonun tashkil etadi. Mazkur qonunga muvofiq, qimmatli qog‘ozlarni emissiya qilish, ularni joylashtirish va muomalaga kiritish tartibi, shuningdek, bozor ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari aniq belgilab berilgan. Qonunda emitentlar, investorlar hamda professional ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlar huquqiy jihatdan tartibga solinishi kapital bozorining barqaror faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish va investorlar manfaatlarini himoya qilishda “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi[72] Qonun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonun aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish, ularning boshqaruv organlari faoliyati, dividend siyosati hamda aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini belgilaydi. Natijada, investorlar uchun ishonchli va shaffof investitsiya muhiti shakllanadi, bu esa kapital bozoriga qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb etishga xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan, qimmatli qog‘ozlar bilan savdo operatsiyalari Toshkent Respublika fond birjasi[73] orqali amalga oshiriladi. Mazkur fond birjasi mamlakatdagi asosiy uyushgan savdo maydoni hisoblanib, unda aksiyalar,

---

[70] Sharipov Sh.Sh., To‘xtayev B.T. *Moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar.* – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019. – 120–125-betlar.

[71] O‘zbekiston Respublikasi. “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonun: 2015-yil 3-iyun, O‘RQ-387-son

[72] O‘zbekiston Respublikasi. “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun: O‘RQ-370-son, 06.05.2014

[73] Toshkent Respublika fond birjasi. Rasmiy veb-sayt: www.uzse.uz

obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlar bilan savdolar tashkil etiladi. Fond birjasi kapital bozorining markaziy bo‘g‘ini sifatida investorlar va emitentlar o‘rtasida vositachilik qiladi hamda moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta’minlaydi.

Shu tariqa, O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlanishi mustahkam qonunchilik bazasi va institutsional infratuzilma orqali ta’minlanmoqda. Bu esa nafaqat investitsiya jarayonlarini faollashtirishga, balki iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yangi ish o‘rinlarini yaratishga ham xizmat qiladi.

Kapital bozorining rivojlanishi bandlikka ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadi va bu jarayonni to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bilvosita hamda innovatsion yo‘nalishlar orqali izohlash mumkin. Avvalo, qimmatli qog‘ozlar bozori infratuzilmasining kengayishi natijasida brokerlik kompaniyalari, investitsiya fondlari, depozitariylar hamda konsalting va audit tashkilotlari soni ortadi, bu esa yuqori malakali mutaxassislar uchun yangi ish o‘rinlari yaratilishiga olib keladi. Shu bilan birga, fond bozori orqali jalb etilgan investitsiyalar real sektor rivojlanishiga xizmat qilib, sanoat korxonalarining kengayishi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining yaratilishi va xizmatlar sektorining rivojlanishiga turtki beradi, natijada esa qo‘shimcha ish o‘rinlari vujudga keladi. Bundan tashqari, zamonaviy kapital bozori raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi sababli fintech sohasi, IT dasturlash va ma’lumotlar tahlili kabi yo‘nalishlarda mutaxassislarga bo‘lgan talab oshib, innovatsion bandlik shakllari rivojlanadi.

“Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri hisoblanadi, bunda kapital bozorining rivojlanishi investitsiya oqimlarini ko‘paytirish va ularni samarali taqsimlash imkonini beradi. Natijada investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, mehnat unumdorligining oshishiga hamda aholi daromadlarining ko‘payishiga xizmat qiladi. Ushbu jarayonlar esa O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi[74] doirasida huquqiy jihatdan tartibga solinib, mehnat munosabatlarining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

2024–2025 yillarda O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozori sezilarli rivojlandi. Xususan, 2025-yilning birinchi yarim yillik hisobotiga ko‘ra, bozorning umumiy savdo hajmi 12,02 trillion so‘mni tashkil etdi (taxminan 933 million AQSh dollari), bu esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 17 barobar oshganini ko‘rsatadi. Shu davrda Toshkent Respublikasi fond birjasining sof daromadi (net profit) 11,2 milliard so‘m atrofida qayd etilib, bu 2024 yil bilan solishtirganda sezilarli o‘sishni bildiradi (oldingi yil sof daromad 177,3 million so‘m bo‘lgan). Shuningdek, platformaning jami daromadi (revenue) 18,6 milliard so‘mni tashkil qilib, oldingi yilga nisbatan 320% ga oshdi. Ushbu raqamlar O‘zbekiston kapital bozorining faolligi va investitsion jozibadorligining keskin oshganini, shuningdek, moliyaviy infratuzilmaning kengayib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi.[75]

O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorining so‘nggi yillarda jadal rivojlanishi

[74] O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi “O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qonun – O‘RQ-798-son, imzolangan 2022-yil 28-oktabrda, va kuchga kirgan 2023-yil 30-apreldan.
[75] *PRESS-RELIZ: 2025-YIL I-YARIM YIL YAKUNLARI* — Toshkent Stock Exchange (UZSE)

mamlakat iqtisodiyotining bir qator sohalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, 2025-yilning birinchi yarim yillik hisobotiga ko‘ra, bozorning umumiy savdo hajmi 12,02 trillion so‘mni tashkil etdi, bu esa 2024-yilning shu davriga nisbatan 17 barobar o‘sishni bildiradi. Shu davrda, fond birjasining sof daromadi 11,2 milliard so‘mga yetdi, bu 2024-yilga nisbatan sezilarli o‘sishdir. Platforma daromadi esa 18,6 milliard so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilga nisbatan 320% ga oshgan. Bu raqamlar kapital bozorining faollashishi va iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri ekanini ko‘rsatadi.[76]

Qimmatli qog‘ozlar bozorining kengayishi, moliyaviy va xizmat ko‘rsatish sektorlarida yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Brokerlik va investitsiya kompaniyalarida, shuningdek, depozitariylarda mutaxassislar uchun talab ortdi. Raqamli moliya xizmatlarida, ayniqsa IT, data-analitika va fintech sohalarida ish o‘rinlari yaratildi. Bu jarayonlar bozorning raqamli platformalari orqali amalga oshirilmoqda, masalan, Fondbozori.uz platformasining rivojlanishi bu sohada yuqori malakali mutaxassislar talabining oshishini ta’minladi.

2025 yilda O‘zbekiston mehnat bozorida ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan e’lon qilingan mehnat bozori sharhiga ko‘ra, 2025 yilda bo‘sh ish o‘rinlari soni oshdi va ish haqi darajasi yuqorilandi. Ayniqsa, uchinchi chorak (iyul–sentabr) davomida bo‘sh ish o‘rinlari soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga ko‘paygan. Ish o‘rinlarining katta ulushi savdo, umumiy ovqatlanish va ishlab chiqarish tarmoqlariga to‘g‘ri kelganligi qayd etilgan. Shuningdek, nominal ish haqi 19,2 % ga oshgan, real hisobda esa 9,1 % o‘sish kuzatilgan; bu esa mehnat bozoridagi umumiy faollikning oshishidan dalolat beradi. Ushbu o‘sishlar mehnat bozorida talabning kuchaygani va ishchi kuchi uchun raqobatning kuchayayotganini ko‘rsatadi.[77]

O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorining faollashuvi nafaqat moliya va xizmat ko‘rsatish sohalarida, balki ishlab chiqarish va savdo tarmoqlarida ham o‘z aksini topdi. Yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat unumdorligini oshirish va iqtisodiy o‘sishga turtki berish bo‘yicha olib borilgan sa’y-harakatlar bozorning global integratsiyasini ta’minlash va iqtisodiy taraqqiyotning barqaror sur’atlarida o‘sishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar. O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular bozor samaradorligini va investitsiya jalb qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Birinchidan, moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi aholi orasida fond bozori instrumentlari haqida yetarli bilim va tushunchaning shakllanmasligiga olib keladi, bu esa xususiy investorlarning faolligini kamaytiradi. Ikkinchidan, likvidlikning pastligi, ya’ni bozorda savdo hajmlarining cheklanganligi, investitsiya operatsiyalarining oson amalga oshmasligiga sabab bo‘lib, bozorda ishtirok etish motivatsiyasini pasaytiradi. Uchinchidan, institutsional investorlarning yetishmasligi – pensiya fondlari, sug‘urta kompaniyalari va boshqa professional investorlar faoliyatining cheklanganligi – kapital oqimini

[76] *PRESS-RELIZ: 2025-YIL I-YARIM YIL YAKUNLARI* — Toshkent Stock Exchange (UZSE)
[77] *Labour market review* — O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki mehnat bozori sharhi (2025-yil III chorak)

kamaytiradi va bozorni kengaytirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shuningdek, korporativ boshqaruv sohasidagi muammolar, xususan, ayrim aksiyadorlik jamiyatlarida ochiqlik va shaffoflikning yetarli darajada bo‘lmasligi, investorlarning ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va fond bozori rivojlanishini sekinlashtiradi. Shu tarzda, ushbu omillar qimmatli qog‘ozlar bozorining barqaror va samarali rivojlanishini cheklab, iqtisodiyotdagi investitsiya va bandlikni oshirish jarayoniga to‘sqinlik qilmoqda.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish va yangi ish o‘rinlarini yaratishni jadallashtirish maqsadida bir qator strategik chora-tadbirlar taklif qilinadi. Avvalo, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlarini kengaytirish zarur bo‘lib, bu fond bozori instrumentlari va investitsiya imkoniyatlari haqida yetarli bilimga ega bo‘lmagan shaxslarning faolligini oshiradi. Shu bilan birga, IPO (Initial Public Offering) va SPO (Secondary Public Offering) amaliyotini rivojlantirish orqali korxonalar kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa yangi loyihalar va ish o‘rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi. Xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratish, jumladan, ruxsatlar va soliq imtiyozlarini soddalashtirish, mamlakatga chet el kapitalini jalb qilishni rag‘batlantiradi. Bundan tashqari, raqamli savdo platformalarini takomillashtirish orqali bozorda shaffoflik va likvidlik oshadi, investorlar uchun operatsiyalarni tez va qulay amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Nihoyat, institutsional investorlar faoliyatini rag‘batlantirish, xususan pensiya fondlari va sug‘urta kompaniyalari ishtirokini kuchaytirish, kapital oqimini ko‘paytiradi va bozorning barqaror rivojlanishiga turtki beradi. Shu tarzda, mazkur takliflar qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishini jadallashtiradi va yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharipov Sh.Sh., To‘xtayev B.T. Moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019

2. O‘zbekiston Respublikasi. “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonun: O‘RQ-387-son, 03.06.2015 (02.08.2023).

3. O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun: O‘RQ-370-son, 06.05.2014 (24.02.2023).

4. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi: O‘RQ-798-son, 28.10.2022, kuchga kirgan 30.04.2023.

5. O‘zbekiston Respublikasi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun – rasmiy tahrir, Toshkent, 2020.

6. Toshkent Respublika fond birjasi. Rasmiy veb-sayt: www.uzse.uz

7. PRESS-RELIZ: 2025-YIL I-YARIM YIL YAKUNLARI — Toshkent Stock Exchange (UZSE).

8. Labour market review — O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki mehnat bozori sharhi (2025-yil III chorak)

MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA BANK KREDITLARINING QAYTUVCHANLIGI VA RISK DARAJASINI TAKOMILLASHTIRISH

Niyozov Zuxur Davronovich
i.f.n., professor v.b., "Bank ishi" kafedrasi, SamISI
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li
SamISI, BI-122 guruh talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola O'zbekistonda mahallalardagi tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan bank kreditlarining qaytuvchanligi va kredit risk darajasini tahlil qilishga bag'ishlangan. Davlat dasturlari, kompensatsiya mexanizmlari va NPL dinamikasi o'rganiladi. Kredit riskini minimallashtirish va qaytuvchanlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *kredit qaytuvchanligi, kredit riski, mahalla tadbirkorligi, bank kreditlari, NPL, riskni boshqarish.*

Abstract. *This article analyzes the recoverability of bank loans and credit risk levels allocated to entrepreneurial entities in Uzbekistan's mahallas. State programs, compensation mechanisms, and NPL dynamics are examined. Recommendations for minimizing credit risk and improving recoverability are developed.*

Keywords: *loan recoverability, credit risk, mahalla entrepreneurship, bank loans, NPL, risk management.*

Kirish. O'zbekistonda mahalliy darajadagi tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-avgustdagi PQ-5214-sonli qaroriga muvofiq, 7 838 mahalladan 500 ta "qiyin" mahallaga 100 mln AQSh dollari ajratildi — har biriga taxminan 200 000 dollar.[78]

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil I choragida 93 000 dan ortiq loyihaga 12,2 trillion so'm kredit berildi, shundan 3 700 ta loyiha 500 mln dollar xorijiy kredit liniyasidan moliyalashtirildi. 2021-yilda oilaviy tadbirkorlik dasturlari bo'yicha 135 000 ta loyihaga 3,2 trillion so'm ajratildi — avvalgi yilga nisbatan 4 barobar ko'p; so'nggi uch yilda esa 770 000 dan ortiq oilaga 19 trillion so'm kredit berildi. Ushbu katta hajm bilan birga kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishi va kredit riskini boshqarish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maqolaning maqsadi kredit qaytuvchanligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish va riskni boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Kredit riski tijorat banklari faoliyatidagi eng asosiy xatar turi bo'lib, qarz oluvchi majburiyatlarini bajara olmagan taqdirda bankning moliyaviy zarar ko'rish ehtimolini anglatadi. Niyozov Z.D. (SamISI, 2024)[79] kichik va o'rta biznes kreditlarida NPL ko'rsatkichi moliyaviy savodxonlik, garov ta'minoti va bozor sharoitlari bilan bevosita bog'liqligini isbotlagan. Gulomov S.S.

[78]O'zR Prezidentining 2021-yil 5-avgustdagi PQ-5214-sonli qarori // lex.uz/docs/5574577
[79]Niyozov Z.D., Yarlaqabov F.B. Mahallalarda kredit portfeli sifatini boshqarish muammolari // SamISI ilmiy to'plami. — Samarqand, 2024.

va Alimov R.K. (2018)[80] qishloq joylaridagi mikromoliya portfeli sifatini yaxshilashda hamjamiyatning o'zaro nazorati muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Abdullayev A.J. (2018)[81] imtiyozli kredit dasturlarining bank balansiga uzoq muddatli ta'sirini tahlil qilib, kredit subsidi va qaytaruvchanlik o'rtasidagi muvozanat masalasini ko'targan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot miqdoriy va sifatiy ma'lumotlarga asoslangan aralash yondashuvdan foydalanib olib borildi. CBU statistik byulletenlari, PQ-5214-sonli qaror ijrosi bo'yicha rasmiy hisobotlar va Davlat tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining ma'lumotlari asosiy manbalar bo'lib xizmat qildi. Kredit riskini baholashda qaytaruvchanlik darajasi, NPL nisbati va defolt ko'rsatkichlarini tahlil qilish metodikasidan foydalanildi.

Uchinchidan, ijtimoiy institutlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi ham muhim ahamiyatga ega. Ta'lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarining zaifligi, jamoatchilikning iqtisodiy faoliyatga bo‘lgan ishtirokini kamaytiradi, bu esa umumiy iqtisodiy o‘sishga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy partiyalarning faoliyatining pasayishi, davlatning iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga ta'sirini cheklaydi.

Natijada, institutsional to‘siqlar iqtisodiy tizimning barqarorligini ta'minlashda va rivojlanish imkoniyatlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning bartaraf etilishi, iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish, investitsiyalarni jalb qilish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, davlat va jamoatchilikning hamkorligi, institutsional islohotlar va samarali boshqaruv tizimlari orqali bunday to‘siqlarni kamaytirish zaruriyati mavjud. Institutsional to‘siqlar, iqtisodiy faoliyatni cheklovchi yoki qiyinlashtiruvchi normativ va tashkilotlarga oid muammolarni anglatadi. Ularning kelib chiqish sabablari ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida siyosiy barqarorlik, qonuniy tizimning samaradorligi, hamda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi munosabatlar muhim rol o‘ynaydi. Iqtisodiy tizimga ta'siri esa, asosan, resurslarni taqsimlash, investitsiya muhitining barqarorligi va innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali namoyon bo‘ladi. Institutsional to‘siqlar mavjud bo‘lganda, korxonalar o‘z faoliyatlarini kengaytirishda qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa iqtisodiy o‘sishni sekinlashtiradi. Shuning uchun, bunday to‘siqlarni aniqlash va bartaraf etish iqtisodiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega.

Bank-moliya tizimida korrupsiyaning ko‘rinishlari. Bank-moliya tizimida korrupsiyaning ko‘rinishlari iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashda jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tizimda korrupsiya ko‘plab shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin, masalan, pora berish, noqonuniy to‘lovlar, xodimlarning mansabidan suiiste'mol qilish va moliyaviy resurslarni noto‘g‘ri taqsimlash. Ushbu holatlar bank-moliya tizimining samaradorligini pasaytiradi va investorlar ishonchini yo‘qotishiga olib keladi. Korrupsiya natijasida banklar va moliya institutlari o‘zlarining asosiy vazifalarini bajarishda qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa iqtisodiy o‘sishni to‘xtatadi va kambag‘allik darajasini oshiradi. Korrupsiyaning bank-moliya tizimida keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri bu kredit berish jarayonlaridagi adolatsizlikdir. Moliya institutlari ko‘pincha pora evaziga o‘z xizmatlarini tezlashtiradi yoki ma'lum shaxslar uchun qulay shartlar yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, kambag‘al qatlamlarning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi va iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiradi. Shuningdek, korrupsiya sababli banklar noto‘g‘ri investitsiya qarorlarini qabul qilishlari mumkin, bu esa moliyaviy bozorlarning barqarorligini buzadi va iqtisodiy inqirozlarga olib kelishi mumkin.

Korrupsiya holatlari, shuningdek, davlat tomonidan nazorat va tartibga solish jarayonlarida ham ko‘rinadi. Agar bank-moliya tizimida korrupsiya mavjud bo‘lsa, bu davlatning iqtisodiy siyosatiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Moliya institutlarining faoliyatini nazorat qilishda korrupsiya, davlat byudjetining samarali ishlatilmasligiga va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda cheklovlarga olib keladi. Natijada, kambag‘allik darajasi oshadi, chunki ijtimoiy himoya va yordam dasturlari samarali bo‘lmaydi.

Korrupsiya va kambag‘allik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish uchun, bank-moliya tizimida mavjud bo‘lgan muammolarni chuqur tahlil qilish zarur. Korrupsiya nafaqat iqtisodiy o‘sishga to‘sqinlik qiladi, balki ijtimoiy barqarorlikni ham xavf ostiga qo‘yadi. Shu sababli, bank-moliya tizimida korrupsiyani kamaytirish uchun kuchli mexanizmlar va samarali nazorat tizimlari zarur. Bu, o‘z navbatida, kambag‘allikni kamaytirish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Moliya tizimining shaffofligi va hisobdorligi iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bank-moliya tizimida korrupsiyaning ko‘rinishlari turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ushbu tizimda rasmiylar va xususiy sektor o‘rtasidagi aloqalar, shuningdek, moliyaviy resurslarni taqsimlash jarayonida noqonuniy amallar, poraxo‘rlik va boshqa korrupsion faoliyatlar keng tarqalgan. Bu holatlar kambag‘allikni yanada chuqurlashtiradi, chunki korrupsiya iqtisodiy resurslarning adolatli taqsimlanishini buzadi. Natijada, kambag‘al qatlamlar moliyaviy xizmatlardan mahrum bo‘lib, iqtisodiy imkoniyatlari cheklanadi, bu esa o‘z navbatida mamlakatning umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

Korrupsiya va kambag‘allik o‘rtasidagi bog‘liqlik. Korrupsiya va kambag‘allik o‘rtasidagi bog‘liqlik, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda kambag‘allik ko‘rsatkichlari ham odatda yuqori bo‘ladi. Buning sababi, korrupsiya davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘larning noto‘g‘ri taqsimlanishi va resurslarning samarali ishlatilmasligi bilan bog‘liqdir. Korrupsiya, asosan, siyosiy va iqtisodiy tizimlarda ishonchni pasaytiradi, bu esa investorlarning mamlakatga bo‘lgan qiziqishini kamaytiradi. Natijada, iqtisodiy o‘sish sekinlashadi va yangi ish o‘rinlari yaratilmaydi, bu esa kambag‘allik muammosini yanada kuchaytiradi.

Korrupsiya, shuningdek, ijtimoiy adolatsizlikni kuchaytiradi. Masalan, davlat xizmatlari va ijtimoiy yordam dasturlari korrupsiyaga uchraganda, bu resurslardan faqat ayrim shaxslar yoki guruhlar foyda ko‘radi, kambag‘al qatlamlar esa zaruriy yordamga ega bo‘lmay qoladi. Bu holat ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi va kambag‘al qatlamlarning iqtisodiy imkoniyatlarini yanada cheklaydi. Korrupsiya oqibatida ta'lim, sog‘liqni saqlash va boshqa muhim sohalarda xizmatlar sifatining pasayishi, kambag‘allikni yanada chuqurlashtiradi. Kambag‘al qatlamlar sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan mahrum bo‘lib, o‘z imkoniyatlarini rivojlantira olmaydi. Shuningdek, korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sur'ati past bo‘lishi kuzatiladi. O‘sishning sekinlashishi, kambag‘allikni yanada kuchaytiradi, chunki iqtisodiy o‘sish imkoniyatlari cheklangan joylarda kambag‘al aholining hayot darajasi ham past

bo‘ladi. Korrupsiya va kambag‘allik o‘rtasidagi bu murakkab bog‘liqlik, davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun jiddiy to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun, korrupsiyaga qarshi kurash va iqtisodiy adolatni ta'minlash, kambag‘allikni kamaytirishning muhim omillaridan biridir. Korrupsiyaga qarshi kurashish, nafaqat iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, balki ijtimoiy barqarorlikni saqlash uchun ham zarurdir. Bu jarayonlar bir-birini to‘ldirib, mamlakatning umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Korrupsiya va kambag‘allik o‘rtasidagi bog‘liqlik, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning murakkabligi bilan belgilanadi. Korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda, odatda, kambag‘allik darajasi ham oshadi. Bu holat, davlat resurslarining notekis taqsimlanishi va ijtimoiy adolatsizlikni keltirib chiqaradi. Korrupsiya, investitsiyalarni kamaytirishi, iqtisodiy o‘sishni sekinlashtirishi va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini cheklashi natijasida kambag‘allikni kuchaytiradi. Shuningdek, kambag‘allik ham korrupsiyaning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi, chunki iqtisodiy noaniqlik va resurslar yetishmovchiligi odamlarni noqonuniy faoliyatlarga undaydi. Shunday qilib, korrupsiya va kambag‘allik o‘rtasidagi munosabatlar bir-birini kuchaytiruvchi jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Institutsional islohotlar va ularning ta’siri. Institutsional islohotlar mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Korrupsiyani kamaytirish va kambag‘allikni bartaraf etish uchun amalga oshiriladigan institutsional islohotlar, davlatning samaradorligini oshirish va fuqarolar hayotini yaxshilash maqsadida zarurdir. Bunday islohotlar avvalo, davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish, qonuniylikni ta'minlash va shaffoflikni oshirish orqali amalga oshiriladi. Davlat idoralari va tashkilotlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, axborot almashinuvi va resurslardan foydalanishni optimallashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun o'zgarishlar tizimli ravishda amalga oshirilishi kerak. Bu jarayonda, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, fuqarolik jamiyati va ommaviy nazoratni kuchaytirish orqali islohotlar samaradorligini oshirish mumkin. Ommaviy nazorat va jamoatchilik ishtirokini rag'batlantirish, korrupsion faoliyatni oshkor qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, islohotlar ta'sirini baholash va monitoring tizimlarini joriy etish, ularning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kambag‘allikni bartaraf etish uchun institutsional islohotlar, birinchi navbatda, iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan strategiyalarga asoslanishi kerak. Ijtimoiy himoya tizimlarini mustahkamlash, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga investitsiyalarni oshirish, kambag‘allikni bartaraf etishning muhim omillaridan biridir. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, iqtisodiy rivojlanish jarayonida gender tenglikni ta'minlash va ayollarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish, jamoalarning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, korrupsiyaning oldini olishga va kambag‘allikni bartaraf etishga yordam beradi. Shunday qilib, institutsional islohotlar, korrupsiyani kamaytirish va kambag‘allikni bartaraf etish maqsadida, bir-birini

to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi jarayonlar sifatida amalga oshirilishi zarur. Institutsional islohotlar, davlat boshqaruvi va iqtisodiy tizimning samaradorligini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Korrupsiyani kamaytirish va kambag‘allikni bartaraf etish jarayonida, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu, o'z navbatida, shaffoflikni ta'minlaydi va fuqarolarning ishonchini oshiradi. Korrupsiyani kamaytirish uchun qonuniy asoslarni mustahkamlash, davlat xarajatlarini nazorat qilish va hisobdorlik mexanizmlarini joriy etish muhimdir. Kambag‘allikni bartaraf etish bo'yicha esa, ta'lim va kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, ijtimoiy himoya tizimlarini kuchaytirish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish zarur. Shuningdek, mahalliy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, resurslarni samarali taqsimlash va investitsiyalarni jalb qilish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Bu jarayonlar, o'zaro bog'liq bo'lib, mamlakatning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishi kutiladi.

Xalqaro tajribalar va ularning o‘zbek sharoitiga tatbiqi. Xalqaro tajribalar va ularning o‘zbek sharoitiga tatbiqi masalalari, jahon miqyosida o‘rganilayotgan muvaffaqiyatli amaliyotlar asosida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Boshqa mamlakatlar tajribasidan foydalanish, o‘zaro tajriba almashish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali O‘zbekiston o‘z iqtisodiy tizimini yanada mustahkamlashi mumkin. Masalan, Yaponiyaning texnologik rivojlanishdagi yutuqlari va ularning ishlab chiqarish tizimlaridagi samaradorlikni oshirishga qaratilgan yondashuvlari O‘zbekistonda ham qo‘llanilishi mumkin. Buning uchun avvalo, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va sifatni nazorat qilish bo‘yicha yangi metodlarni joriy etish zarur. Shuningdek, Skandinaviya mamlakatlaridagi ijtimoiy himoya tizimlari va ta'lim sohasidagi innovatsiyalar ham O‘zbekiston uchun muhim o‘rnak bo‘lishi mumkin. Ularning tajribasi, ijtimoiy adolatni ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni oshirishda qanday samarali ishlashini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda ushbu tajribalarni tatbiq etish orqali, ijtimoiy himoya tizimlarini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish va ish bilan ta'minlashni yaxshilash mumkin.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishda va investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston, xalqaro tajribalarni o‘rganib, ularni o‘z sharoitida muvaffaqiyatli tatbiq etish orqali, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda yangi imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Shu tariqa, xalqaro tajribalar O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lishi kutilmoqda. Xalqaro tajribalar, ayniqsa, iqtisodiy rivojlanish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida, O'zbekistonda o'ziga xos sharoitlarda muvaffaqiyatli tatbiq etilishi mumkin. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarining ta'lim tizimlari, o'zbek ta'limi uchun innovatsion yondashuvlar va metodlarni joriy etish imkoniyatini taqdim etadi. Shuningdek, Janubiy Koreyaning raqamli iqtisodiyotdagi tajribalari, O'zbekistonda axborot texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik rejalarga qo'shish mumkin. Sog'liqni saqlash sohasida esa, Yevropaning sog'liqni saqlash tizimlari, sog'lom turmush tarzini

targ'ib qilish va profilaktika chora-tadbirlariga e'tibor qaratish orqali O'zbekistonda aholi salomatligini oshirishda muhim rol o'ynashi kutilmoqda. Shu tariqa, xalqaro tajribalarni o'zlashtirish, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Maqolada keltirilgan asosiy fikrlar O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi va aholi salomatligini oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida mavjud bo'lgan muammolar, jumladan, tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro standartlarga mos keluvchi xizmatlarni taqdim etish zarurligi ta'kidlangan. Shuningdek, o'zaro hamkorlik va tajriba almashish orqali, Yevropa mamlakatlarining sog'liqni saqlash tizimi modellaridan foydalanish O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasini yanada rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Kelajakda amalga oshirilishi kerak bo'lgan takliflar orasida, birinchi navbatda, sog'liqni saqlash tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish ko'zda tutilgan. Bu, shuningdek, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish va ularni zamonaviy davolash usullari bilan tanishtirishni talab etadi. Ikkinchidan, sog'liqni saqlash sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, masalan, telemeditsina va raqamli sog'liqni saqlash xizmatlarini rivojlantirish, aholi uchun qulay va tezkor tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan keng ko'lamli ma'rifat tadbirlarini o'tkazish zarur. Bu borada, o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari va jamoatchilik bilan hamkorlikda sog'liqni saqlash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish va aholi o'rtasida salomatlikka oid bilimlarni oshirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish uchun bemorlarning fikrlarini inobatga olish va ularni tizimga jalb etish muhimdir.

REFERENCES:

1. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. Crown Business. (Institutsional to‘siqlar nima uchun kambag‘allikka sabab bo‘lishi haqidagi eng asosiy kitob).

2. Mauro, P. "Corruption and Growth". The Quarterly Journal of Economics, 110(3), 681–712. (Korrupsiyaning iqtisodiy o‘sish va investitsiyalarga salbiy ta’sirini matematik isbotlab bergan ilk maqolalardan biri).
3. Tanzi, V. "Corruption Around the World: Causes, Consequences, Scope, and Cures". IMF Staff Papers, 45(4). (Korrupsiyaning soliq va moliya tizimidagi oqibatlari tahlili).

4. Kaufmann, D., Kraay, A., & Mastruzzi, M. "The Worldwide Governance Indicators: Methodology and Analytical Issues". World Bank Policy Research Working Paper. (Davlat boshqaruvi va institutsional sifatni o‘lchash metodikasi).

5. Bardhan, P. "Corruption and Development: A Review of Issues". Journal of Economic Literature, 35(3), 1320–1346. (Korrupsiyaning iqtisodiy rivojlanishga to‘sqinlik qilish mexanizmlari).

6. Sachs, J. D. The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time.

Penguin Press. (Kambag‘allik tuzog‘i va unga moliya tizimidagi kamchiliklarning ta’siri).

7. World Bank. World Development Report 2023: Finance for an Equitable Recovery. Washington, DC: World Bank. (Bank-moliya tizimining kambag‘allikni kamaytirishdagi roli haqidagi eng so‘nggi hisobot).

8. Transparency International. (2024). Corruption Perceptions Index 2023. (Dunyo davlatlaridagi korrupsiya darajasi va uning iqtisodiy barqarorlik bilan bog‘liqligi statistikasi).

9. Vahobov, A. V., & Jumaev, N. X. Xalqaro moliya munosabatlari. Toshkent: "Iqtisod-Moliya". (O‘zbekiston moliya tizimidagi institutsional islohotlar tahlili).

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risida. (Kambag‘allikni qisqartirish va korrupsiyaga qarshi kurashning davlat dasturi).

11. North, D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press. (Institutsional o‘zgarishlar iqtisodiyotga qanday ta’sir qilishi haqidagi nazariy asos).

12. Rose-Ackerman, S., & Palifka, B. J. Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform. Cambridge University Press. (Hukumat va moliya sektoridagi korrupsiyani isloh qilish yo‘llari).

INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLARINING O’RNI

Nigora Nurmatova Saidovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
Email: nigora.ns@mail.ru
Tel.: +99890 911 38 71

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasida xususiy sektorning bank tizimidagi ulushini 60 foizga etkazish hamda investitsiya loyihalarini kreditlash ko‘lamini kengaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Shuningdek, 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasida banklar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, faoliyatni avtomatlashtirish, zamonaviy bank standartlari, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda ularning investitsion jozibadorligini oshirish bank tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida e’tirof etilgan.

Mazkur strategik vazifalar tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish, kreditlash mexanizmlarini samarali tashkil etish hamda investitsion faollikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan tizimli

islohotlar natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati sezilarli darajada erkinlashdi, soliq yuklamalari optimallashtirildi va investitsion muhit yanada yaxshilandi. Fiskal ochiqlikning oshishi hamda bozor mexanizmlarining kengayishi natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligida ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Tijorat banklarining investitsion kreditlari esa umumiy hajmda nisbatan kamroq ulushga ega bo‘lib qolmoqda (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston iqtisodiyotida asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va uning hajmida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va tijorat banklari kreditlarining ulushi[101]

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari, trln. so‘m	210,2	239,6	266,2	356,1	493,7
Asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining umumiy hajmida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ulushi, %	13,6	12,6	13,9	23,7	30,5
Asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining umumiy hajmida tijorat banklari kreditlarining ulushi, %	13,5	8,1	7,9	6,3	2,6

1-jadval ma’lumotlaridan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

− mamlakat iqtisodiyotida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi 2020–2023-yillarda barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etgan;

− asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar manbalari tarkibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ulushi 2021–2024-yillarda izchil oshgan;

− respublika iqtisodiyotida investitsiyalarni moliyalashtirishning umumiy hajmida tijorat banklari kreditlarining ulushi 2020–2024-yillarda nisbatan pasayish dinamikasini ko‘rsatgan.

Mazkur tendensiyalar investitsiya jarayonlarida xorijiy kapital ishtirokining ortib borayotganini, shu bilan birga, tijorat banklari kreditlarining ulushini kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli kreditlar salmoqli o‘rin egallaydi. Bu esa banklar tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyoti faol rivojlanayotganidan dalolat beradi.

[101] Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash doirasida 539 mingdan ortiq loyihaga tijorat banklari tomonidan jami 160 trln so‘m miqdorida kredit mablag‘lari yo‘naltirilgan. Ushbu mablag‘larning 92,4 trln so‘mi (2023-yilga nisbatan 26 foizga ko‘p) kichik va o‘rta biznes subyektlari, jumladan, oilaviy tadbirkorlik, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, 538 mingdan ortiq loyiha moliyalashtirilgan.

Mazkur ko‘rsatkichlar bank tizimining real sektorni qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni mustahkamlanib borayotganini va investitsion faollikni rag‘batlantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlarining miqdori va darajasi

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024
Uzoq muddatli kreditlar, mlrd. so‘m	291399	338918	410225	457109
Uzoq muddatli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, %	85,0	86,9	98,3	85,7

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki:

− respublikamiz tijorat banklari tomonidan berilgan uzoq muddatli kreditlarning hajmi 2021–2024-yillarda o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan;

− mamlakat tijorat banklari tomonidan berilgan uzoq muddatli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2021–2023-yillarda oshish tendensiyasini namoyon etgan. Shuningdek, uzoq muddatli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2024-yilda 2021-yilga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga ko’ra quyidagi fikrlarni bildirish lozim:

− investitsion kredit – asosiy kapital harakatiga xizmat qiluvchi uzoq muddatli kredit bo‘lib, asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishni kengaytirish, qurilish va rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish, yangi ishlab chiqarishlarni o‘zlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va boshqa investitsion tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladi;

− defoltni aniqlashda Bazel qo‘mitasining muddati o‘tgan kreditlar bo‘yicha prudensial me’yorlariga muvofiq 90 kun va undan ortiq muddatdagi qarzdorlikni asos sifatida olish maqsadga muvofiq bo‘lib, bankrotlik defoltning 3–5 yilga kechikkan indikatori sifatida namoyon bo‘lishi mumkin;

− respublikamizda Hukumat kafolati asosida jalb etilayotgan xalqaro kreditlar rolining ortib borishi sinditsiyalashtirilgan kreditlarni jalb etish va ulardan foydalanishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi;

− mamlakat iqtisodiyotida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari 2020–2023-yillarda o‘sish tendensiyasini namoyon etgan;

Yuqoridagi tahlillar asosida, respublikamiz tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Investitsiya loyihalarini kreditlash jarayonida moliyaviy risklarni boshqarishni kuchaytirish maqsadida:

– tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabni baholash aniqligini oshirish;

– loyiha tashabbuskorining o‘z mablag‘lari ulushini investitsiya loyihasini moliyalashtirish manbalari tarkibida ko‘paytirish;

– investitsiya loyihalarini banklarning kredit liniyalari orqali moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish;

– investitsiya loyihalarining moliyaviy samaradorligini diskontlangan pul oqimi (DCF) usuli asosida baholashni amaliyotga keng joriy etish.

2. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan kreditlarning o‘z vaqtida va to‘liq qaytarilishini ta’minlash maqsadida:

– qarz oluvchilarning joriy likvidliligi va defolt ehtimolini baholash tizimini takomillashtirish;

– investitsiya loyihalari bo‘yicha eksport tushumlarining o‘z vaqtida va to‘liq kelib tushishini ta’minlash uchun tijorat banklari kafolatlari hamda chaqirib olinmaydigan hujjatlashtirilgan akkreditivlardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish;

– kredit riskini baholashning “standartlashgan yondashuv” usulini qo‘llash orqali loyihalarni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo‘yicha risk darajasining ortib ketishining oldini olish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. – URL: https://lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli Farmoni. “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 06/20/5992/0581-son. – URL: https://lex.uz

3. Аликаева М. В., Асланова Л. О. и др. Стратегическое развитие малого бизнеса и формы поддержки индивидуального предпринимательства: монография. – Нижний Новгород: НОО «Профессиональная наука», 2018. – С. 68. – URL: https://www.scipro.ru

4. Белоглазова Г. Н. Деньги, кредит, банки. – М.: Юрайт, 2009. – С. 134.

5. Бабушкин Е. В., Осипова А. А. Особенности рынка банковского инвестиционного кредитования предприятий в РФ // Проблемы учета и финансов. – 2014. – № 2 (14). – С. 41.

6. Бурова А., Пеникас Г., Попова С. Применение модели вероятности дефолта для оценки прогнозируемого кредитного риска // Деньги и кредит. – 2021. – № 3. – С. 49–72.

7. Бауетдинов М. Ж. Хўжалик юритувчи субъектларнинг инвестицион харажатларини молиялаштириш амалиётини такомиллаштириш: и.ф.б.ф.д. дисс. – Тошкент, 2019. – 114 б.

8. Каримов Н. Г. Иқтисодий интеграtsіялашув шароитида инвестицияларни молиялаштиришнинг бозор механизмларини жорий этиш муаммолари: и.ф.д. илм. дар. олиш учун тақдим этилган дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 40 б.

9. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. 2024 йилдаги фаолият юзасидан ҳисобот. – Тошкент, 2025. – Б. 56. – URL: https://www.cbu.uz

RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI ASOSIDA YANGI ISH O'RINLARINI YARATISH VA BANDLIKNI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Niyozov Zuxur Davronovich
Samarqand iqtisodiyot va servis insitituti
"Bank ishi" kafedrasi i.f.n., prof. v b.
Ataboyev Ilhomjon
SamISI, "Bank-Moliya xizmatlari" fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli to'lov tizimlari asosida yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi bandligini oshirishning asosiy mexanizmlari va istiqbollari tahlil qilinadi. Raqamli to'lov infratuzilmasining mehnat bozori dinamikasiga ta'siri, fintex sektorining rivojlanishi jarayonida yuzaga keladigan bandlik imkoniyatlari hamda mavjud to'siqlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida raqamli to'lov tizimlarini kengaytirish orqali aholi bandligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *raqamli to'lov tizimlari, ish o'rinlari, aholi bandligi, fintex, mehnat bozori, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy inklyuzivlik, iqtisodiy o'sish.*

Kirish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida to'lov tizimlarining rivojlanishi moliyaviy operatsiyalarni soddalashtirish bilan cheklanmay, balki mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarga ko'ra, raqamli to'lov infratuzilmasining kengayishi iqtisodiy faollikni oshirish orqali yangi ish o'rinlari yaratilishiga va aholi bandligi darajasining ortishiga xizmat qiladi.

Raqamli to'lov tizimlari asosida shakllanayotgan iqtisodiy muhit ikki yo'nalishda bandlikka ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, to'lov infratuzilmasini yaratish, rivojlantirish va boshqarish bilan bog'liq sohalarda yuqori malakali mutaxassislarga talab ortib bormoqda. Ikkinchi tomondan, raqamli to'lovlar asosida rivojlanayotgan platforma iqtisodiyoti kichik biznes, xizmat ko'rsatish sohasi hamda mustaqil faoliyat yurituvchi subyektlar uchun yangi daromad manbalarini shakllantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham raqamli to'lov tizimlarining jadal rivojlanishi ushbu tendensiyaning amaliy ifodasi sifatida kuzatilmoqda. Naqdsiz to'lovlar ulushining ortishi iqtisodiy operatsiyalarning faollashuviga, xizmatlar

bozorining kengayishiga hamda yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, mavjud salohiyatdan to‘liq foydalanilmayotgani raqamli to‘lov tizimlari asosida bandlikni oshirish mexanizmlarini chuqur ilmiy tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur sharoitda raqamli to‘lov tizimlari orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda bandlikni oshirish istiqbollarini aniqlash, ushbu jarayonning institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli to‘lov tizimlarining iqtisodiy jarayonlarga ta’siri, xususan, ularning bandlikni oshirishdagi roli zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda alohida e’tibor qaratilayotgan yo‘nalishlardan biridir. Ilmiy qarashlarga ko‘ra, raqamli moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishi iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratilishiga xizmat qiladi.

Xususan, iqtisodiyot fanlari doktori, professor N. Jo‘rayev o‘zining *“Raqamli iqtisodiyot va bandlik siyosati”* (Toshkent, 2020) nomli asarida raqamli to‘lov tizimlari kichik biznes va xizmat ko‘rsatish sohasining kengayishiga turtki berib, norasmiy bandlikni rasmiy iqtisodiyotga integratsiyalashda muhim rol o‘ynashini asoslab beradi (1).

Shuningdek, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent M. Xudoyberdiyev tomonidan yozilgan *“Moliyaviy texnologiyalar va mehnat bozori rivoji”* (2021) maqolasida raqamli to‘lov platformalarining rivojlanishi yangi kasb va mutaxassisliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘layotgani, bu esa mehnat bozori tarkibining diversifikatsiyalanishiga olib kelishi ta’kidlanadi (2).

Bank infratuzilmasining kengayishi va bandlik o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiyot fanlari doktori, professor S. Yuldashevning *“Bank tizimi va iqtisodiy o‘sish omillari”* (2019) asarida ham yoritilib, muallif to‘lov tizimlarining rivojlanishi iqtisodiy aylanma tezligini oshirishi orqali ish o‘rinlari yaratilishini rag‘batlantirishini qayd etadi (3).

Raqamli to‘lov tizimlarining amaliy ta’siri falsafa doktori (PhD), tadqiqotchi D. Ergashev tomonidan *“Raqamli moliya va bandlik ko‘rsatkichlari”* (2023) ishida empirik jihatdan tahlil qilinib, unda raqamli to‘lovlardan foydalanish darajasining oshishi kichik tadbirkorlik subyektlari sonining ko‘payishi bilan bevosita bog‘liqligi aniqlangan (4).

Shu bilan birga, iqtisodiyot fanlari nomzodi, katta o‘qituvchi A. Rasulov tomonidan *“Raqamli iqtisodiyot sharoitida bandlik muammolari”* (2022) maqolasida raqamli transformatsiya jarayonlarining ayrim salbiy jihatlari, jumladan, an’anaviy ish o‘rinlarining qisqarishi ehtimoli ham qayd etilib, ushbu jarayonlarni muvozanatli boshqarish zarurligi ta’kidlangan (5).

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili raqamli to‘lov tizimlari iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va bandlik darajasini ko‘tarishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu jarayonlarni samarali boshqarish uchun institutsional va texnologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zarurligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot miqdoriy va sifat tahlil usullarining uyg‘unlashuvi asosida amalga oshirildi. Dastlab, O‘zbekiston

Respublikasi Markaziy banki hamda Raqamli texnologiyalar vazirligining 2020–2024-yillarga oid rasmiy ma’lumotlari asosida raqamli to‘lovlar rivoji va bandlik ko‘rsatkichlari dinamikasi tahlil qilindi. Empirik bosqichda raqamli to‘lov sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalar vakillari bilan chuqurlashtirilgan intervyular o‘tkazilib, sohaning amaliy muammolari va rivojlanish tendensiyalari o‘rganildi.

Shuningdek, hududlar kesimida so‘rovnoma asosida raqamli to‘lov vositachilarining faoliyati baholandi. Statistik tahlil usullari, jumladan regressiya modeli yordamida raqamli to‘lov hajmi va bandlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik miqdoriy jihatdan aniqlashtirildi. Xalqaro tajribani o‘rganish doirasida Estoniya, Qozog‘iston va Singapur amaliyoti qiyosiy tahlil qilinib, ularni milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari belgilandi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida olingan natijalar raqamli to‘lov tizimlarining bandlikka ta’sirini kompleks baholash imkonini berdi. Xususan, 1-rasmning chap qismida aks ettirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda raqamli to‘lov sohasida yaratilgan yangi ish o‘rinlari soni 2020-yildagi 8,4 ming kishidan 2024-yilda 48,1 ming kishiga yetib, besh yil ichida 5,7 baravar oshgan. Mazkur o‘sish umumiy bandlik darajasining 59,3 foizdan 72,3 foizga ko‘tarilishi bilan uyg‘un holda kuzatilgan bo‘lib, ular o‘rtasida sezilarli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini anglatadi. Regressiya tahlili natijalariga muvofiq, raqamli to‘lov hajmining 10 foizga oshishi bandlik darajasining o‘rtacha 1,8 foiz punktga ortishiga olib kelishi aniqlangan (β=0,18; p<0,01), bu esa ushbu bog‘liqlikning statistik jihatdan ishonchliligini tasdiqlaydi.



1-rasm. Raqamli to'lov sohasida yangi ish o'rinlari, bandlik darajasi va sektorlar bo'yicha taqsimot (O'zbekiston, 2020–2024)

Sektorlar kesimidagi tahlil natijalari ham ushbu tendensiyani tasdiqlaydi. Jumladan, 2022–2024-yillar oralig‘ida to‘lov agregatorlari segmentida ish o‘rinlari 9,4 mingdan 17,6 mingga, fintex startaplar sohasida esa 5,1 mingdan 9,4 mingga oshgan. Kiberxavfsizlik sohasi mutlaq ko‘rsatkichlar bo‘yicha nisbatan kichik ulushni egallagan bo‘lsa-da, o‘sish sur’atining 87 foizga yetgani ushbu

yo‘nalishda yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan talab keskin ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, chuqurlashtirilgan intervyular natijalari raqamli to‘lov tizimlari sohasida kadrlar taqchilligi muammosining dolzarbligini ochib berdi: respondentlarning 83 foizi malakali mutaxassislarni jalb qilishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini bildirgan. Xalqaro taqqoslash natijalari esa Estoniyada raqamli to‘lov sektorida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ish o‘rinlari soni O‘zbekistonga nisbatan 4,2 baravar yuqori ekanligini ko‘rsatib, mamlakatimizda hali to‘ldirilishi zarur bo‘lgan sezilarli “bandlik bo‘shlig‘i” mavjudligini tasdiqlaydi.

So‘rovnoma natijalari raqamli to‘lov tizimlarining bandlik bilan bir qatorda daromad manbai sifatidagi ahamiyatini ham namoyon etdi. Xususan, respondentlarning 71 foizi ushbu faoliyatni o‘zining asosiy daromad manbai sifatida baholagan bo‘lsa, 29 foizi uni qo‘shimcha daromad manbai sifatida ko‘rsatgan. Bu esa raqamli to‘lov tizimlari nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratishda, balki aholining daromadlarini diversifikatsiya qilishda ham muhim rol o‘ynayotganini anglatadi. Shu bilan birga, hududiy kesimdagi tahlillar Toshkent shahrida raqamli to‘lov sohasidagi ish o‘rinlari viloyatlarga nisbatan 3,1 baravar ko‘pligini ko‘rsatib, mintaqalar o‘rtasida sezilarli tafovut mavjudligini tasdiqlaydi. Mazkur holat qishloq hududlarida raqamli to‘lov infratuzilmasini rivojlantirish va hududiy tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan maqsadli choralarni ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari raqamli to‘lov tizimlari bandlikni oshirishning muhim va iqtisodiy jihatdan samarali omili ekanligini tasdiqlaydi. Raqamli to‘lovlar hajmi bilan bandlik darajasi o‘rtasidagi aniqlangan ijobiy bog‘liqlik ushbu sohada mavjud imkoniyatlarning to‘liq ro‘yobga chiqmaganini ko‘rsatadi. Bu esa raqamli to‘lov infratuzilmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalarni davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilash zarurligini asoslaydi.

Mazkur yo‘nalishda inson kapitalini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli moliya va fintech sohasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini kengaytirish mehnat bozori talablariga mos mutaxassislar sonini oshirib, sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hududlar kesimida raqamli to‘lov xizmatlari qamrovini kengaytirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlari sezilarli darajada ortadi. Ayniqsa, qishloq hududlarida raqamli to‘lov agentlik tarmog‘ini rivojlantirish mahalliy iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini oshiradi.

Fintech ekotizimini qo‘llab-quvvatlash ham bandlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Innovatsion startaplarni rag‘batlantirish, ularga moliyaviy va institutsional yordam ko‘rsatish orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi hamda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish sur’atlari tezlashadi. Umuman olganda, raqamli to‘lov tizimlarini kompleks rivojlantirish bandlik darajasini oshirish, iqtisodiy faollikni kengaytirish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Jo‘rayev N. Raqamli iqtisodiyot va bandlik siyosati: Monografiya. — Toshkent: «Iqtisod-Moliya», 2020. — 218 b.
2. Yuldashev S. Bank tizimi va iqtisodiy o‘sish omillari: O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: «Fan va texnologiya», 2019. — 194 b.
3. Xudoyberdiyev M. Moliyaviy texnologiyalar va mehnat bozori rivoji: o‘zaro bog‘liqlik tahlili // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. — 2021. — №4. — B. 32–45.
4. Rasulov A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bandlik muammolari va ularni hal etish yo‘nalishlari // Samarqand iqtisodiyot va servis instituti «Ilmiy xabarnoma» jurnali. — 2022. — №3. — B. 68–81.
5. Ergashev D. Raqamli moliya va bandlik ko‘rsatkichlari: empirik tahlil natijalari // O‘zMU «Iqtisodiyot» ilmiy to‘plami. — 2023. — №2. — B. 104–117.

TIJORAT BANKLARI VALYUTA OPERATSIYALARINING MAZMUNI VA TURKUMLANISHI

Ilmiy rahbar: Qodirov Yusufbek Suyun o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Bank ishi” kafedrasi stajor assistenti
Nabiyev Soxibjon Shuxrat o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annostatsiya. *Mazkur maqolada tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Banklarning valyuta operatsiyalarini boshqarish vahisobini yuritishda yuzaga kelayotgan muammolar aniqlanib, ularga yechim sifatida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ichki audit tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish hamdanormativ-huquqiy bazani mustahkamlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot davomida normativ-huquqiy, statistik va iqtisodiy tahlil usullari qo‘llanilgan. Natijalar banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va xalqaro moliyaviy tizim bilan integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan. Maqola ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, banklar faoliyatini rivojlantirishda samarali chora-tadbirlarni taklif etadi.*

Kalit so‘zlar: *Tijorat banklari, valyuta operatsiyalari, hisob tizimi, audit, xalqaro standartlar, moliyaviy hisobot, ichki audit, normativ-huquqiy baza, texnologiyalar, bank faoliyati.*

Kirish. Tijorat banklari zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ularning samarali faoliyati milliy moliyaviy tizimning barqarorligi va rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, valyuta operatsiyalari tijorat banklari xizmatlarining ajralmas qismi bo‘lib, milliy iqtisodiyotning xalqaro moliyaviy bozorlar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ushbu operatsiyalarni aniq hisobga olish va ishonchli auditni amalga oshirish bankning moliyaviy holatini shaffof ko‘rsatib beruvchi omil sifatida muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda global iqtisodiyotda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, jumladan, xalqaro savdo hajmining o‘sishi va valyuta kurslari volatilligining oshishi, tijorat banklarida valyuta operatsiyalarining samaradorligini oshirish zaruratini kuchaytiradi. Shu boisdan, ushbu operatsiyalarni hisobi va auditini takomillashtirish nafaqat bankning ichki boshqaruviga, balki moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hisobi va auditi tizimida mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni hal qilish bo‘yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi–valyuta operatsiyalari hisobining aniqligi va audit samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan innovatsion yondashuvlarni tavsiya etishdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini samarali boshqarish zamonaviy iqtisodiyotning muhim talablaridan biridir. Ushbu soha bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar bank tizimining rivojlanishi, xalqaro moliyaviy bozorlarga integratsiya va moliyaviy shaffoflikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘plab olimlar valyuta operatsiyalarining hisobi va auditi masalalarini chuqur tahlil qilib, ushbu yo‘nalishda muhim ilmiy ishlanmalarni amalga oshirganlar. Quyida ushbu tadqiqotlar va ularning mazmuni tahlil qilinadi.

Birinchi navbatda, B. Needles va M. Powers tomonidan yozilgan "Financial and Managerial Accounting" asarini qayd etish mumkin. Ushbu kitobda moliyaviy hisob tizimining xalqaro standartlari, xususan, valyuta operatsiyalari hisobi uchun IFRS qoidalarining qo‘llanilishi chuqur yoritilgan. Ular valyuta kurslarining o‘zgarishi bilan bog‘liq risklarni kamaytirish uchun hisob tizimlarini modernizatsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi.

C. Nobes va R. Parker o‘zlarining "Comparative International Accounting" asarida xalqaro moliyaviy hisob tizimlari o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatib o‘tgan. Ularning tadqiqotlari tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini boshqarishdagi murakkabliklarni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali hal qilish usullarini taklif qiladi.

Bank faoliyatidagi likvidlik masalalariga e’tibor qaratgan D. Diamond va P. Dybvig valyuta operatsiyalari tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynashini ta’kidlagan. Ular banklarning operatsiyalarni to‘g‘ri hisobotga olish orqali mijozlar ishonchini oshirish usullarini o‘rgangan.

Valyuta operatsiyalarini audit qilish masalalariga oid yirik asarlardan biri T. Porter tomonidan yozilgan "Auditing and Assurance Services" kitobi hisoblanadi. Porter zamonaviy audit texnologiyalarini joriy etish va ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha muhim tavsiyalarni ilgari surgan.

Tadqiqotlarning umumiy xulosalaridan ko‘rinib turibdiki, xalqaro va mahalliy olimlar tijorat banklaridagi valyuta operatsiyalarining hisobi va auditida quyidagi muhim jihatlarga e’tibor qaratmoqda.

Texnologik modernizatsiya zarurati: Zamonaviy texnologiyalarni, jumladan blockchain va sun’iy intellekt tizimlarini tatbiq etish zarurligi. Xalqaro standartlarga moslashish: Moliyaviy hisob va audit jarayonlarini IFRS va xalqaro audit standartlariga moslashtirish muhimligi. Normativ-huquqiy baza

mustahkamligi: Mahalliy qonunchilikni xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish ehtiyoji.

Tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hisobi va auditi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu sohaning rivojlanishi va takomillashtirilishi uchun muhim nazariy va amaliy asos yaratadi.

Xalqaro olimlar tomonidan taklif etilgan zamonaviy texnologik yechimlar va xalqaro standartlarga asoslangan yondashuvlar milliy bank tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirishga oid tadqiqotlar iqtisodiyot va moliya sohasidagi dolzarb muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan. Ushbu tadqiqotlarning metodologik asosi aniq va amaliy yondashuvlarni talab etadi. Tadqiqot metodologiyasini to‘g‘ri tanlash banklar faoliyatida valyuta operatsiyalarining nazorat va hisob tizimlarini chuqur tahlil qilish, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish va xalqaro standartlarga moslashishni o‘rganishga yordam beradi.

Metodologiyaning asosiy komponentlari Tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqishda turli fanlar kesishgan nuqtalar hisobga olinadi:iqtisodiyot, moliya, hisob va audit, axborot texnologiyalari va huquq. Quyida ushbu tadqiqotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan asosiy metodologik yondashuvlar yoritib boriladi.

1.Normativ-huquqiy tahlil: Normativ-huquqiy tahlil tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini boshqarishdagi milliy va xalqaro qonunchilik asoslarini o‘rganishga qaratilgan. Bu metodologik yondashuv orqali quyidagilar o‘rganiladi:

-O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va me’yoriy hujjatlari (masalan, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun, Markaziy bank ko‘rsatmalari)

-Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va xalqaro audit standartlari (ISA). Ushbu yondashuv orqali normativ-huquqiy bazadagi bo‘shliqlar aniqlanib, banklarning xalqaro standartlarga moslashish jarayonidagi qiyinchiliklari tahlil qilinadi.

2. Statistik tahlil: Statistik tahlil tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hajmini, ularning dinamikasini va samaradorligini o‘rganish uchun qo‘llaniladi. Ushbu metodologik yondashuv quyidagilarni qamrab oladi:

-Banklarning moliyaviy hisobotlari asosida valyuta operatsiyalari bo‘yicha ko‘rsatkichlarni yig‘ish va tahlil qilish.

-Valyuta operatsiyalarining umumiy hajmi, foydaliligi va rentabelligi kabi ko‘rsatkichlarning vaqt bo‘yicha o‘zgarishini baholash.

-Bank tizimidagi likvidlik, valyuta risklari va mijozlarning talablariga bog‘liq tendensiyalarni tahlil qilish.

Statistik tahlil banklarning moliyaviy holatini aniq baholash va ularning hisobot tizimlarida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash imkonini beradi.

3. Iqtisodiy tahlil va modellashtirish: Iqtisodiy tahlil tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqishda qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

-Valyuta kurslarining o‘zgarishi va tijorat banklari moliyaviy natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish.

-Risklarni boshqarish strategiyalarini modellashtirish.

-Moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirish bo‘yicha iqtisodiy effektlarni baholash.

Iqtisodiy modellashtirish orqali tijorat banklari uchun valyuta operatsiyalarining optimal boshqaruv modellarini ishlab chiqish mumkin.

Muhokama. Tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hisobi va auditi iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlashda va xalqaro moliyaviy bozorlar bilan o‘zaro integratsiyani kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston tijorat banklari faoliyati tahlili shuni ko‘rsatadiki, valyuta operatsiyalarining hajmi, rentabelligi va ulushi yildan-yilga ortib bormoqda.

Ushbu jarayonlarni hisobga olish va audit qilishning samaradorligini oshirish esa bank tizimining shaffofligini ta’minlash va xalqaro standartlarga moslashishda muhim omil hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, valyuta operatsiyalarini hisoblash va audit qilishda quyidagi asosiy muammolar mavjud:

1. Texnologik yetishmovchilik. Ko‘pgina tijorat banklari hisob-kitob tizimlarida zamonaviy texnologiyalarni to‘liq qo‘llay olmaydi. Ayniqsa, blockchain va sun’iy intellekt texnologiyalari joriy etilishi past darajada.

2.Risklarni boshqarishdagi muammolar. Valyuta kurslarining o‘zgarishi banklar uchun moliyaviy yo‘qotishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq, risklarni boshqarishning ilg‘or tizimlari joriy qilinmagan.

3.Xalqaro standartlarga muvofiqlik masalalari. Tijorat banklari hisob tizimlarining xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) bilan uyg‘unlashtirilishi yetarli darajada emas.

4.Kadrlar malakasi pastligi. Bank xodimlarining malaka darajasi xalqaro audit talablarini bajarish uchun yetarli emas. Ilmiy yondashuvlarning ahamiyati Bank tizimida yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish uchun zamonaviy ilmiy va amaliy yondashuvlarni qo‘llash zarur.

Xulosa. Tijorat banklarining iqtisodiyotdagi o‘rni beqiyos. Ayniqsa, valyuta operatsiyalari hisob-kitobining aniqligi va auditi sohaning barqarorligi va shaffofligi uchun asosiy omillardan biridir.

O‘zbekiston tijorat banklari faoliyati tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu yo‘nalishda yutuqlar bilan birga hali ham hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar mavjud.

Valyuta operatsiyalari hajmi yildan-yilga ortib borayotgani banklarning xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiyasi kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Shunga qaramay, hisob tizimlarining texnologik yetishmovchiligi, xalqaro standartlarga moslashishdagi qiyinchiliklar va kadrlar malakasining yetarli emasligi muhim masalalar sifatida qolmoqda.

Bank tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish dolzarbdir. Blockchain va sun’iy intellekt kabi innovatsiyalar operatsiyalarning aniqligini oshiradi, xavflarni kamaytiradi va audit jarayonlarini tezlashtiradi. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) to‘liq moslashish banklarning xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlaydi. Bu nafaqat bank tizimining samaradorligini oshiradi, balki uning xalqaro raqobatbardoshligini ham ta’minlaydi.

тратят на обеспечение своего жилья треть семейного бюджета. В стране ощущается острая нехватка арендных государственных квартир. Более 85% всех объектов находятся в собственности различных общественных фондов.

Жилищный вопрос: Великобритания, США и Россия

Великобритания: Дороговизна и надежды на будущее

В Великобритании большинство жилья принадлежит его владельцам – около 70% недвижимости находится в частной собственности тех, кто в ней проживает. Однако доступность жилья на Туманном Альбионе остается серьезной проблемой из-за его высокой стоимости. Отчасти это связано с недостаточным развитием строительства доступного жилья эконом-класса.

Ситуация усугубляется тем, что более миллиона домов в английских городах признаны непригодными для проживания. Порядка 500 тысяч британских семей вынуждены ютиться в крайне тесных квартирах, а еще 700 тысяч ожидают своей очереди на получение социального жилья.

В ответ на эти вызовы была запущена масштабная программа по строительству социального жилья, завершение которой запланировано к 2023 году. В рамках программы планируется возвести десять инновационных "городов будущего" – экопоселений, использующих передовые энергосберегающие технологии.

Государство активно поддерживает молодые семьи, предоставляя им субсидии на покупку недвижимости в размере 17,5%. Дополнительные льготные условия приобретения жилья доступны для востребованных специалистов: учителей, врачей, пожарных, полицейских и других государственных служащих. Для облегчения покупки жилья эти категории граждан могут объединяться, чтобы получить общую ссуду.

США: Ипотека, бездомность и поддержка нуждающихся

Американцы привыкли к жизни в кредит, и ипотека на 30-40 лет является здесь обычным явлением. Государство активно способствует этому, предоставляя гражданам возможность приобретать недвижимость в ипотеку. Тем не менее, в стране сохраняется значительное число бездомных и малообеспеченных жителей.

В середине прошлого века американские власти начали заключать соглашения с домовладельцами. По этим договорам собственники обязывались сдавать свои помещения малообеспеченным гражданам по сниженным ценам, получая за это государственную компенсацию.

Сегодня бюджетное жилье доступно тем, кто не может позволить себе приобрести его по рыночной стоимости. Для получения такой поддержки совокупный доход заявителей не должен превышать 50% от среднего заработка по региону.

Россия: Очереди, региональные особенности и приватизация

В России остро ощущается нехватка социального жилья. Даже после подтверждения статуса малоимущей семьи, ожидание квартиры в очереди может затянуться на годы, иногда более десяти лет. За это время жизненные обстоятельства заявителей могут измениться (например, кто-то

выписывается, устраивается на работу или умирает), что приводит к пересчету статуса и возможному исключению из очереди.

Существуют определенные категории граждан, которым квартиры должны предоставляться вне очереди. Однако и для них формируются свои очереди, которые, хоть и не длятся десятилетиями, могут оказаться слишком долгими.

Муниципальное жилье в России находится в государственной собственности. Плата за его содержание значительно ниже рыночной. Арендаторы имеют возможность подать заявление на приватизацию жилья, после чего расходы по его содержанию переходят на собственника.

Важно отметить, что в России отсутствует единый пакет документов для подтверждения статуса малоимущего или получения субсидий. Правила и требования различаются в каждом регионе. Статус малообеспеченного гражданина рассчитывается исходя из совокупного дохода всех прописанных в жилом помещении лиц.

Отечественный опыт. Узбекистан: Норма жилищной обеспеченности установлена ШНК 2.07.01-23.

1-таблица

Тип жилого дома и квартиры по уровню комфорта	Норма площади жилого дома и квартиры в расчете на одного человека, $м^2$	Формула заселения жилого дома и квартиры	Доля в общего объеме жилищного строительства, %
1 класс (социальный)	16-23	$k = n - 1;$ $k = n$	20- 22
2 класс (массовый - эконом класс)	24-29	$k = n;$	50- 47
3 класс (элитный)	30-35	$k = n + 1;$	14-16
4-класс (престижный - бизнес класс)	более 36	$k = n + 2$	11-13
Специализированный	—	$k = n - 2;$ $k = n - 1$	5- 2
П р и м е ч а н и я: 1. Общее число жилых комнат в квартире или доме k и численность проживающих людей n. 2. Специализированные типы жилища – дома гостиничного типа, специализированные жилые комплексы. 3. Нормы взяты с ШНК 2.08.01 (Жилые здания) приведены 3 класс комфортности: Жилищный Кодекс Р.Уз. 76-статья: “Социальная норма на 1 чел: 16 кв.м и для инвалидов 23 кв.м.			

Современное жильё Узбекистана можно дифференцировать следующим образом:

- государственное жильё;
- коммерческое жильё.

Бесплатное государственное жильё (социальное) строится за счёт государства для населения с низким достатком. В современных условиях темпы возведения такого жилья резко снизились.

Коммерческое жилье можно разделить на четыре вида:

-эконом-класс;

-бизнес-класс;

-элитный класс;

-эксклюзивный класс.

Законами и Постановлениями Кабинета министров Республики Узбекистан предусмотрены ряда льгота для малоимущего слоя населения: Например, по Жилищному кодексу Республики Узбекистан. Статья 6. Государственный жилищный фонд.

Для нетрудоспособных, одиноких престарелых лиц, пенсионеров и членов их семей, если их среднедушевой доход в месяц ниже минимальной заработной платы, а также впервые созданных нуждающихся в жилье молодых семей, других социально не защищенных, малообеспеченных категорий граждан по перечню, определяемому Кабинетом Министров Республики Узбекистан, при органах власти на местах создается коммунальный жилищный фонд целевого назначения, используемый на условиях договора найма без права приватизации.

Льготы сиротам и детям оставшимся без попечения родителей

Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по обеспечению жилыми помещениями детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей». Жилые помещения предоставляются Советом Министров Республики Каракалпакстан, хокимиятами областей и города Ташкента в домах коммунального жилищного фонда целевого назначения либо временно неиспользуемых, находящихся в государственной собственности общежитиях, жилых домах и пустующих квартирах в многоквартирных домах. При отсутствии свободного жилого помещения хокимиятами районов (городов) предоставляется целевой трансферт в пределах социальной нормы площади жилья за счет средств, выделяемых из Государственного бюджета Республики Узбекистан или внебюджетных средств соответствующих хокимиятов.

Льготы пенсионерам Налоговый кодекс. Одинокие пенсионеры освобождены от земельного налога на земельные участки, предоставленные им для индивидуального жилищного строительства. Для пенсионеров, имеющих в собственности налогооблагаемое имущество, необлагаемая площадь по налогу на имущество устанавливается в размере 60 м² от общей площади.

Льготы молодым семьям установлен ряд льгот, в т.ч. ипотечные кредиты в размере не более 75% от общей стоимости квартир, выдаются нуждающимся молодым семьям на основании рекомендаций территориальных комиссий сроком на 15 лет с трехлетним льготным периодом.

Результаты. В ходе исследования зарубежных и отечественных объектов социального жилья были выявлены 4 основных типа жилья по назначению:

-социальные дома для престарелых;

-молодежное социальное жилье;

-социальное жилье для молодых семей;

-социальное жилье для нескольких социальных групп.

Объекты социального жилья распределены по следующим параметрам:

-для кого они предназначены;

-тип жилого здания на плане;

-этажность;

-сдаваемые первые этажи;

-типовой жилой этаж.

Выводы

На основе проведенного анализа данных была осуществлена типологизация арендного жилья, сгруппированная по категориям граждан, нуждающихся в улучшении жилищных условий. Исследование выявило общие черты, присущие всем видам социального жилья:

- социальное жилье служит бастионом против спекуляций недвижимостью, эффективно смягчая удар роста цен на все жилье по арендной плате. Особенно отрадно, что жилье для социального найма в Узбекистане и за рубежом отличается привлекательной стоимостью, становясь ключевым фактором конкурентоспособности всего рынка жилья.
- оно гармонично вписывается в городскую среду, способствуя ее экологическому оздоровлению за счет интеграции зеленых зон как внутри жилых комплексов, так и на их территориях.

Социальное жилье – это мощный инструмент, обеспечивающий эффективную реализацию фундаментального права каждого на жилище.

Как отечественный, так и зарубежный опыт убедительно свидетельствует: первые этажи арендного жилья, как правило, предназначены для коммерческого использования, что создает дополнительные возможности для жителей.

Активное развитие социальной политики и увеличение числа объектов социального жилья формируют благоприятные предпосылки для решения сложнейших архитектурных и градостроительных задач, стоящих перед районами и целыми городами.

Повышая качество жизни, социальное жилье предоставляет не только крышу над головой, но и социальные учреждения, бережно размещенные на первых этажах комплексной застройки. Наличие коммерческих помещений открывает новые горизонты для трудоустройства всех категорий социально уязвимого населения непосредственно на территории проживания.

В зарубежной практике проектирования и строительства социального жилья прослеживается богатство объемно-планировочных решений: от коридорного и галерейного до секционного типа. Международный опыт демонстрирует как многоэтажные, так и малоэтажные вариации объектов социального жилья.

Включение в структуру социального жилья образовательных, медицинских, культурно-досуговых и иных функций не только повышает его социальную значимость, но и активно способствует экономическому развитию.

За рубежом, социальное жилье для престарелых обычно рассчитано на 1-2 человека и имеет площадь 36-65 м². Для молодых специалистов площади

значительно скромнее – 19-47 м², также рассчитанные на 1-2 проживающих. Особое внимание уделяется общественным зонам: для пожилых граждан это пространства для общения, совместного досуга и игр с детьми. Молодым специалистам же общественные зоны служат преимущественно для работы и учебы.

На территории Узбекистана социальное жилье только начинает свой путь развития, пока не обладая тем богатством форм и решений, которое характерно для стран Европы, Америки, Канады, Азии, Австралии и прочих.

Развитие социального жилья выступает движущей силой реализации общечеловеческих целей и принципов: гарантируя основное право на жилище, поддерживая высокий уровень социальной защиты, повышая качество жизни, преодолевая социальную изоляцию и экономические трудности. Оно способствует более справедливому и стабильному распределению доходов, сглаживает негативные последствия спекуляции недвижимостью и делает жилье доступным для широких слоев населения.

Литература

1. Arancibia Tagle A. The Social Re-Signification of Housing: A Design Guide for Santiago de Chile. PhD thesis Architectural Association School of Architecture. (Социальная переоценка жилья: Руководство по проектированию для Сантьяго-де-Чили). Кандидатская диссертация Архитектурного объединения Школы архитектуры. Школа архитектуры Архитектурной ассоциации Открытого университета. – Т. 1. – Лондон, 2016. — 331 с. — URL: http://oro.open.ac.uk/49180/1/PhD%20Thesis%20-%20Alvaro%20Arancibia%20Tagle%20-%20C8356275.pdf (дата обращения 25.01.2021).

2. Costarelli I., Kleinhans R., Mugnano S. Reframing social mix in affordable housing initiatives in Italy and in the Netherlands. Closing the gap between discourses and practices? (Переосмысление социального состава в рамках инициатив доступного жилья в Италии и Нидерландах. Устранение разрыва между дискурсами и практиками?). – Делфт, Нидерланды.— 2019.—131–140с.— URL: https://www.researchgate.net/publication/331231432_Reframing_social_mix_in_affordable_ housing_initiatives_in_Italy_and_in_the_Netherlands_Closing_the_gap_between_discourse s_and_practices (дата обращения 05.02.2021).

3. Granath A.H., Lundgren Björn: Defining Social Housing: A Discussion on the Suitable Criteria. (Определение социального жилья: обсуждение подходящих критериев, жилья, теории и общества). — Великобритания, 2018. — pp. 149–166. — URL: https://doi.org/10.1080/14036096.2018.1459826 (дата обращения 20.01.2021).

4. Wilbert Abbott Jr. A unique approach to allow low-income familiesthe opportunity to gain home ownership accessthrough alternative financing (Уникальный подход, позволяющий семьям с низкими доходами получить доступ к собственности на жилье за счет альтернативного

финансирования). — Эймс,Айова.—2008.—72 с. — URL: https://core.ac.uk/download/pdf/38924539.pdf (дата обращения 10.12.2020).

5. Беличенко В. Социальная миссия архитектуры // АСД, 2002. №1. С.6-9.

6. Благовидова Н.Г. Кварталы «доходных» домов в планировке и застройке

7. Бофилл Р. под ред. Вадим Догадайло. Архитектурное проектирование и строительство социального жилья. – Москва: UP print, 2011. – 152 с. – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01004944648 (дата обращения 10.12.2020).

8. Волкова Т.Ф. Выявление потребительских предпочтений к среде проживания (на примере г.Пензы) / Т.Ф. Волкова // В сб. статей «Теория и практика средового дизайна». Пенза.: «Приволжский Дом знаний», 2007. С. 84-90.

9. Волкова Т.Ф. Дифференциация городской среды по социально-градостроительным качествам / Т.Ф. Волкова // В сб. статей «Теория и практика средового дизайна». Пенза.: ПГУАС, 2014. С. 23-27.

10. Волкова Т.Ф. Исследование потребительских качеств городской среды [Электронный ресурс] // Перспективы науки и образования. 2014. №3. С.109-113.

11. Магай А.А. Городское жилище на современном этапе // Жилищное строительство. 2003. № 2. С. 2-6.

12. Шомина Е.С. Квартиросъемщики – наше «жилищное меньшинство»: российский и зарубежный опыт развития арендного жилья. – Москва: ИД ГУ – Высшей школы экономики, 2010. — 31 с.

13. Шомина Е.С. Трансформация жилищной сферы и новые задачи жилищного просвещения в России // Вестник Московского государственного областного университета. — 2012. — № 4. — С. 156–167.

IMTIYOZLI KREDITLASH TIZIMINING AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDAGI SAMARADORLIGI: MUAMMOLAR, XAVFLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

SamISI, "Bank-moliya xizmatlari" fakulteti
talabasi ***Abdusalomov Abdushukur***
SamISI, "Bank ishi" kafedrasi
o'qituvchisi ***Abduraxmanov Alimardor***

Annotatsiya. *Ushbu maqolada imtiyozli kreditlash tizimining aholi bandligini ta'minlashdagi samaradorligi, uning ijobiy natijalari, institutsional cheklovlari va takomillashtirish yo'nalishlari O'zbekiston misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, so'nggi yillarda mamlakatda oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes, yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan imtiyozli kredit dasturlari sezilarli kengaydi.*

Maqolada normativ-huquqiy hujjatlar, Markaziy bank hisobotlari, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki materiallari asosida institutsional, qiyosiy va deskriptiv tahlil usullari qo‘llanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, imtiyozli kreditlash tizimi bandlikni oshirishda samarali bo‘lishi mumkin, ammo bu samaradorlik kredit hajmi bilan emas, balki mablag‘ning maqsadli yo‘naltirilishi, loyihalarning yashovchanligi, kreditdan keyingi kuzatuv, bozor tamoyillariga mos instrumentlar va qarz yukini nazorat qilish bilan belgilanadi. Shu asosda maqolada imtiyozli kreditlashni natijaga yo‘naltirilgan, shaffof va bozor mexanizmlari bilan uyg‘un tizimga aylantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *Imtiyozli kreditlash, aholi bandligi, oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes, mikrokredit, kredit tavakkalchiligi, bozor distortsiyasi, imtiyozli davr, ish o‘rinlari yaratish, O‘zbekiston.*

KIRISH. Imtiyozli kreditlash tizimi O‘zbekistonda aholini daromadli mehnatga jalb qilish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar faoliyatini kengaytirish va kichik biznesni barqarorlashtirishning muhim vositalaridan biriga aylangan. Ayniqsa, 2022 yildan keyin ushbu tizim faqat alohida kredit liniyalari shaklida emas, balki oilaviy tadbirkorlik dasturlari, “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleksi, xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirish, ijtimoiy reyestr bilan bog‘langan bandlik choralari va hokim yordamchilari tavsiyanomalari orqali ishlaydigan ko‘p pog‘onali institut sifatida shakllandi. 2022 yilgi hukumat qarorida oilaviy tadbirkorlik dasturlari bo‘yicha kreditlar tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish yoki rivojlantirish, hunarmandchilikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, qo‘shimcha daromad manbai yaratish va bandlikni ta’minlash maqsadlari uchun ajratilishi aniq belgilangan; 2024 yilda esa ushbu kreditlar 3–4 yil muddatga, 6 oydan 1 yilgacha imtiyozli davr bilan ajratiladigan tartib yanada takomillashtirildi.

Mazkur tizimning amaliy natijalari ham sezilarli. Markaziy bankning 2024 yil bo‘yicha hisobotida oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida so‘nggi yetti yil ichida 50 trillion so‘mdan ortiq imtiyozli kredit ajratilgani, buning natijasida qariyb 2,3 million kishi daromadli faoliyatga kirgani qayd etiladi. Faqat 2024 yilning o‘zida tuman hokimlari yordamchilari tavsiyalari asosida 372 mingdan ortiq loyiha 6,8 trillion so‘mdan ortiq imtiyozli kredit bilan moliyalashtirilgan, shundan 150 mingdan ortiq yoshlar loyihalariga 2,7 trillion so‘m, 203 mingdan ortiq xotin-qizlar loyihalariga 3,2 trillion so‘m yo‘naltirilgan. Shu hisobotda “Sayxunobod modeli” bo‘yicha 326 ming mikroloyiha uchun 10,2 trillion so‘m ajratilib, 577 ming kishiga daromadli bandlik imkoniyati yaratilgani ko‘rsatiladi. 2022 yilgi Markaziy bank hisobotida esa 424 mingdan ortiq loyiha uchun 9,9 trillion so‘m imtiyozli kredit ajratilgani va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar doirasida ishga tushgan 22 417 loyiha natijasida 727 mingdan ortiq ish o‘rni yaratilgani qayd etilgan.

Biroq imtiyozli kreditlash tizimi qanchalik ijtimoiy ahamiyatli bo‘lmasin, uning samaradorligi avtomatik emas. Jahon bankining 2025 yilgi moliyaviy sektor baholashi O‘zbekistonda imtiyozli va yo‘naltirilgan kreditlashning ayrim shakllari bozor distortsiyalariga olib kelishi, ayniqsa oldindan belgilangan foiz stavkalari

va tanlangan institutlar orqali ishlovchi dasturlar xususiy banklarni siqib chiqarishi mumkinligini ko‘rsatadi. Hujjatda bunday dasturlar bo‘yicha jamoatchilikka ochiq natija hisobotlari yetarli emasligi, natijada samaradorlikni baholash shaffof emasligi ham qayd etiladi. Shu bilan birga, Markaziy bank 2024 yilgi hisobotida BNPL va mikroqarzlar fonida uy xo‘jaliklari qarz yukini monitoring qilish qiyinlashganini, 2024 yil 1 iyuldan jismoniy shaxslar kreditlari uchun DSTI chegarasi 60 foiz qilib belgilanganini, 2025 yil 1 yanvardan esa u 50 foizgacha tushirilganini bildiradi. Bu ma’lumotlar imtiyozli kreditlashning ijobiy ijtimoiy samarasini saqlab qolish bilan birga, uning moliyaviy barqarorlikka salbiy ta’sirini cheklash zarurligini ko‘rsatadi.

Shu sababli mazkur maqolaning asosiy мақсади imtiyozli kreditlash tizimining bandlikni ta’minlashdagi samaradorligini bir yoqlama emas, balki ikki tomondan — ijtimoiy natija va institutsional sifat nuqtai nazaridan baholashdan iborat. Maqolada quyidagi savollarga javob izlanadi: imtiyozli kreditlash qaysi sharoitda haqiqatan ham ish o‘rni yaratadi, qaysi sharoitda esa shunchaki vaqtinchalik moliyaviy oqimga aylanib qoladi; kreditlar qanday xavflarni tug‘diradi; va ularni qanday qilib bozor tamoyillari, shaffof monitoring va maqsadli qo‘llab-quvvatlash bilan uyg‘unlashtirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, *Annual Report 2024* (2026). Mazkur hisobot imtiyozli kreditlash tizimining bugungi holatini baholashda eng asosiy manbalardan biridir. Uning eng katta afzalligi shundaki, hujjat faqat umumiy kredit portfeli yoki bank ko‘rsatkichlari bilan cheklanmay, aynan oilaviy tadbirkorlik, yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, o‘zini o‘zi band qilganlar uchun mikrokreditlar, 300 million so‘mgacha bo‘lgan kengaytiruvchi kreditlar va “Sayxunobod modeli” kabi bandlikka yo‘naltirilgan tashabbuslarning moliyaviy ko‘lamini aniq raqamlar bilan ko‘rsatadi. Hisobotda 2024 yilda oilaviy tadbirkorlik dasturlari bo‘yicha 372 mingdan ortiq loyiha 6,8 trillion so‘mdan ziyod imtiyozli kredit bilan moliyalashtirilgani, yetti yilda 50 trillion so‘mdan ortiq imtiyozli kredit ajratilib, qariyb 2,3 million kishiga daromad topish imkoniyati yaratilgani, 49 159 ta subyekt uchun 4,8 trillion so‘mlik kengaytiruvchi kreditlar berilgani va “Sayxunobod modeli” asosida 577 ming kishi daromadli bandlik bilan qamrab olingani qayd etiladi. Shu ma’noda bu hisobot imtiyozli kreditlashning ijtimoiy natijasini yoritishda nihoyatda kuchli manbadir.

Biroq mazkur hisobotning ikkinchi, undan ham qimmatli tomoni — u tizimning xavflarini ham yashirmaydi. Hujjatda iste’molchi kreditlari, mikroqarzlar va BNPL mexanizmlari fonida qarz yukining ortib borayotganiga e’tibor qaratilib, DSTI cheklovi avval 60 foiz, keyinchalik 50 foizgacha tushirilgani, oilaviy tadbirkorlik dasturlari bundan mustasno ekani ko‘rsatiladi. Shuningdek, banklarning mikromoliya faoliyati orqali o‘zini o‘zi band qilganlar va kichik biznes subyektlarini kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish uchun risk og‘irligi 100 foizdan 75 foizga tushirilgani, biroq shu bilan birga ayrim banklarda uy xo‘jaliklariga berilgan mikroqarzlar konsentratsiyasi xavotir uyg‘otayotgani ta’kidlanadi. Demak, hisobot imtiyozli kreditlashni ikki qirrali hodisa sifatida

ko‘rsatadi: bir tomondan u bandlik yaratadi, ikkinchi tomondan noto‘g‘ri boshqarilsa, qarz yuki va portfel sifati bo‘yicha muammolarni kuchaytiradi. Mazkur manba maqolamiz uchun aynan shu ikkilamchi tabiatni ochishda tayanch vazifasini bajaradi.

World Bank, *Financial Sector Assessment 2025* (2025). Jahon bankining moliyaviy sektor baholashi imtiyozli kreditlashni tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qiladigan eng muhim xalqaro manbalardan biridir. Hujjatda O‘zbekistondagi yo‘naltirilgan va imtiyozli kreditlash dasturlarini baholash shaffoflik yetishmasligi sababli murakkab ekani alohida qayd etiladi. Unga ko‘ra, bunday dasturlar bo‘yicha faqat hukumat qarorlarida miqdor va shartlar ko‘rsatiladi, ammo amalda natija, portfel sifati va qay darajada qo‘shimcha iqtisodiy foyda yaratilgani haqida ochiq jamoat hisoboti yetarli emas. Hisobotda yana uch xil directed va preferential lending shakli farqlanadi: birinchisi, bozor ishtirokchilari teng sharoitda qatnashadigan subsidiyalangan kreditlar; ikkinchisi, faqat ayrim institutlar uchun oldindan belgilangan foiz stavkalarida beriladigan imtiyozli dasturlar; uchinchisi esa hukumatga yaqin korxonalar yoki yirik subyektlarga nisbatan noaniq, case-by-case tarzda beriladigan yo‘naltirilgan kreditlardir. Hujjat aynan ikkinchi va uchinchi turdagi dasturlar bozor signallarini kuchliroq buzishini ta’kidlaydi.

Mazkur manbaning mavzuimiz uchun ilmiy qiymati shundaki, u imtiyozli kreditlashni ijtimoiy foyda beruvchi mexanizm sifatida inkor etmaydi, balki undan maksimal natija olish uchun institutsional qayta dizayn zarurligini ko‘rsatadi. Hujjatda policy banklar retail bank sifatida ham, davlat topshiriqlarini bajaruvchi institut sifatida ham bir vaqtning o‘zida faoliyat yuritayotgani, bu esa raqobat neytralligiga putur yetkazishini qayd etadi. Shu bois directed va preferential credit bilan bozor shartlaridagi tijorat kreditlarini moliyaviy hisobotlarda aniq ajratish, natijalarni kuzatish va bosqichma-bosqich bozor tamoyillariga yaqin instrumentlarga o‘tish tavsiya qilinadi. Demak, bu manba maqolada “muammolar” va “xavflar” bo‘limlarini asoslash uchun eng kuchli nazariy-amaliy tayanchdir. Ayniqsa, imtiyozli kreditlashni mutlaqo kengaytirish emas, balki natijasi o‘lchanadigan, shaffof va bozorni to‘liq buzmaydigan shaklga o‘tkazish zarurligi aynan ushbu manbada aniq ko‘rsatilgan.

World Bank, *FINGROW – Uzbekistan* (2025). FINGROW hujjati imtiyozli kreditlashning bandlik bilan bog‘liqligini iqtisodiy tuzilma nuqtai nazaridan yoritadi. Hujjatda O‘zbekistonda MSMElar bizneslarning 90 foizini, bandlikning 75 foizini va YaIMning qariyb 55 foizini tashkil etishi qayd etilgan. Bu shuni anglatadiki, imtiyozli yoki qo‘llab-quvvatlovchi kredit instrumentlari aynan shu qatlamga samarali yetib borsa, ularning ish o‘rinlari yaratish ta’siri katta bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, hujjatda firmalarning atigi 22,6 foizi investitsiyalarni banklar orqali moliyalashtirayotgani, MSME kreditlash bo‘shlig‘i esa 6–7 milliard AQSh dollariga baholanishi qayd etilgan. Bu ma’lumotlar imtiyozli kreditlashga talab mavjudligini va kredit bozoridagi cheklovlar hali ham kuchli ekanini ko‘rsatadi. Demak, ushbu manba imtiyozli kreditlash tizimini “zarur institut” sifatida asoslashga yordam beradi.

Biroq FINGROWning eng muhim hissasi — u qaysi turdagi qo‘llab-

quvvatlovchi instrumentlar samaraliroq ekanini ko‘rsatadi. Hujjatda hukumatning ayrim dasturlari subsidiyalar, foiz stavkalariga cheklov va preskriptiv targetlar orqali bozor dinamikasini buzishi mumkinligi aytiladi; buning o‘rniga qisman kredit kafolatlari va kredit liniyalari kabi bozor tamoyillariga yaqin instrumentlar kengroq moliyalashtirishni kamroq distortsiya bilan ta’minlashi mumkinligi ta’kidlanadi. Bundan tashqari, Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi banklarga kredit liniyalari, to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyalashtirish, foiz subsidiyasi, qisman kredit kafolatlari va kapital instrumentlarini taklif qilayotgani qayd etilgan. Bu holat imtiyozli kreditlashni faqat arzon foizli kredit sifatida emas, balki riskni bo‘lishish va moliyaga chiqishni osonlashtirish instrumentlari to‘plami sifatida qayta talqin qilish kerakligini ko‘rsatadi. Shu sababli FINGROW hujjati maqoladagi “takomillashtirish yo‘nalishlari” qismini ilmiy asoslashda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, *PQ-312-son qaror* (2024). “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturini takomillashtirishga bag‘ishlangan ushbu qaror imtiyozli kreditlash tizimini yangi bosqichga olib chiqqan normativ hujjatlardan biridir. Qarorda bir loyiha doirasida 300 million so‘mgacha mikrokredit ajratish, shundan 100 million so‘mini garovsiz tarzda “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” mablag‘lari hisobidan, qolgan 200 million so‘mgacha qismini banklar va mikromoliya tashkilotlarining o‘z mablag‘lari hisobidan berish nazarda tutilgan. Bundan tashqari, garovsiz ajratiladigan 100 million so‘mgacha mikrokreditlar bo‘yicha tavakkalchilikni davlat va mikrokredit beruvchilar o‘rtasida taqsimlash yoki portfel kafilligini taqdim etish mexanizmi joriy qilingan. Bu dizayn imtiyozli kreditlashni oddiy arzon pul taqsimlash emas, balki riskni bo‘lishuvchi qo‘shma moliyaviy modelga aylantirishga qaratilganini ko‘rsatadi.

Mazkur hujjatning bandlik nuqtai nazaridan ahamiyati shundaki, u avval muvaffaqiyatli ishlagan kichik loyihalarni keyingi bosqichga olib chiqish uchun “o‘sish yo‘li” yaratadi. Odatda kichik imtiyozli kreditlar ilk faoliyatni boshlashga yordam beradi, lekin biznes kengayishi uchun ikkinchi bosqich kapitali yetishmaydi. PQ-312 aynan shu bo‘shliqni yopishga urinadi. Shu bilan birga, qaror mikromoliya tashkilotlarini ham davlat dasturlariga kengroq jalb qilish orqali bank sektori ustidagi yukni diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi. Biroq bu tizimning samaradorligi risk taqsimoti va monitoring qanchalik to‘g‘ri ishlashiga bog‘liq bo‘ladi: agar portfel kafilligi sust nazorat qilinsa, u kredit sifati va moral hazard muammolarini kuchaytirishi mumkin. Demak, ushbu qaror imtiyozli kreditlashni soddalashtirish emas, balki institutsional jihatdan murakkablashtirish orqali samaraliroq qilishga uringan hujjat sifatida tahlil qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, *PF-50-son farmon* (2025). 2025 yilgi ushbu farmon imtiyozli kreditlashni bevosita bandlik natijasi bilan bog‘lashga uringan hujjat sifatida e’tiborga loyiq. Farmonda o‘z faoliyatini yiriklashtirgan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida 50 million so‘mgacha, “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” dasturi doirasida esa 150 million so‘mgacha garovsiz kreditlar berilishi nazarda tutilgan. Eng muhim bandlardan biri shuki,

Ijtimoiy reyestrda turgan ishsiz fuqarolarni ish bilan ta’minlagan kichik va o‘rta biznes subyektlariga har bir yaratilgan ish o‘rni uchun qo‘shimcha 10 million so‘mdan, 10 va undan ko‘p ish o‘rni yaratganlarga 100 million so‘mgacha, 3 yil muddatga 14 foiz stavkada aylanma mablag‘ krediti ajratish amaliyoti joriy etiladi. Bu yondashuv imtiyozli kreditlashni “kirish krediti”dan “natijaga bog‘langan kredit”ga aylantirishga qaratilganligi bilan muhimdir.

Mazkur hujjatning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, u imtiyozli kreditlash samaradorligini baholash uchun yangi logikani taklif qiladi: kreditning maqsadi shunchaki biznesni qo‘llab-quvvatlash emas, balki ishsiz shaxsni ishga joylashtirish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanadi. Bu bandlik siyosati va kredit siyosatini birlashtirish nuqtai nazaridan juda muhim. Shu bilan birga, farmonda belgilangan monitoring mexanizmi — mezonlarga amal qilinmasa, kredit foizini bozor stavkasiga o‘tkazish ehtimoli — ijobiy intizomiy signal beradi. Ammo aynan shu joyda muhim savol tug‘iladi: yaratilgan ish o‘rinlari qanchalik barqaror, ular qanchaga qadar saqlanadi, va haqiqiy qo‘shimcha bandlik qancha? Agar monitoring faqat rasmiy sonlarga tayanib qolsa, dastur nominal bandlik yaratishi, ammo real mehnat unumdorligiga kam ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli mazkur hujjat maqolada imtiyozli kreditlashni natijaga yo‘naltirish tajribasi sifatida ijobiy baholansa-da, kuchli verifikatsiya tizimisiz uning ta’siri cheklanishi mumkinligi qayd etiladi.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqotda imtiyozli kreditlash tizimining aholi bandligini ta’minlashdagi samaradorligi **institutsional-deskriptiv metodologiya** asosida o‘rganildi. Tahlilda rasmiy normativ hujjatlar, Markaziy bank yillik hisobotlari, xalqaro institutlar baholari va dasturlar bo‘yicha ochiq ma’lumotlar qo‘llanildi. Bu yondashuv tanlanishining sababi shundaki, imtiyozli kreditlash natijadorligini oddiy “qancha kredit berildi” mezoni bilan baholash yetarli emas; uning haqiqiy samarasi kredit oluvchi keyinchalik daromadli faoliyatni davom ettira oldimi, yangi ish o‘rni yaratdimi, va bank tizimi uchun qanchalik xavf tug‘dirdi — shu savollar orqali aniqlanadi.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekistonda amalda ishlayotgan imtiyozli kreditlashning uch asosiy institutsional yo‘nalishi tanlandi: birinchisi, **oilaviy tadbirkorlik dasturlari**, ikkinchisi, **kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash tizimi**, uchinchisi esa **bandlik natijasiga bog‘langan maqsadli kreditlar**. Birinchi yo‘nalishda kreditlar ko‘proq o‘zini o‘zi band qilganlar, ayollar va yoshlar uchun kirish nuqtasi vazifasini bajaradi. Ikkinchi yo‘nalishda ilgari olingan kichik kreditni muvaffaqiyatli ishlatgan subyektlarni 300 million so‘mgacha bo‘lgan kengaytiruvchi mikrokreditlar orqali yuqoriroq bosqichga olib chiqish nazarda tutiladi. Uchinchi yo‘nalishda esa kreditning o‘zi bevosita yaratilgan ish o‘rni soni bilan bog‘lanadi, masalan ijtimoiy reyestrdagi ishsizlarni ishga olgan tadbirkorlar uchun har bir ish o‘rniga qo‘shimcha kredit resursi beriladi. Metodologik jihatdan bu uch model alohida baholanadi, chunki ularning maqsadi ham, xavfi ham turlicha.

Tadqiqotda qo‘llangan birinchi usul — **natija zanjiri bo‘yicha tahlil**. Bu usulda imtiyozli kreditlashning samaradorligi to‘rt bosqichda ko‘rildi: kirish, foydalanish, natija va barqarorlik. “Kirish” bosqichida kreditga kimlar yetib

boryapti, ariza berish jarayoni qanchalik soddalashgan, yagona elektron platforma va hokim yordamchilari tavsiyalari qanday ishlayapti, degan savollar qo‘yildi. “Foydalanish” bosqichida kreditlar qaysi sohalarga yo‘naltirilgani — qishloq xo‘jaligi, xizmatlar, hunarmandchilik, savdo, ishlab chiqarish — tahlil qilindi. “Natija” bosqichida moliyalashtirilgan loyihalar soni, daromad topishga jalb qilinganlar va yaratilgan bandlik imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. “Barqarorlik” bosqichida esa kreditdan keyingi o‘sish, mikrobiznesning kengayishi, bankka qaytish intizomi va keyingi bosqich moliyalashtirishga o‘tish imkoniyati baholandi. Aynan shu zanjir imtiyozli kreditlashni fiskal yordam bilan haqiqiy iqtisodiy transformatsiya o‘rtasida farqlash imkonini beradi.

Ikkinchi usul — **risk-markazli institutsional tahlil**. Imtiyozli kreditlash ijtimoiy foyda keltirishi mumkin, lekin u bozor distortsiyasi, moral hazard, shaffoflik yetishmasligi va qarz yukining oshishi xavflarini ham tug‘diradi. Shu sababli metodologiyada quyidagi to‘rtta xavf guruhi alohida ajratildi. Birinchisi — **bozor distortsiyasi**: Jahon banki qayd etganidek, oldindan belgilangan foiz stavkasi va tanlangan institutlar orqali beriladigan imtiyozli dasturlar xususiy banklarni siqib chiqarishi va narx signallarini buzishi mumkin. Ikkinchisi — **hisobdorlik xavfi**: dasturlar bo‘yicha ochiq natija hisoboti yetarli bo‘lmasa, haqiqiy samaradorlikni baholash qiyinlashadi. Uchinchi xavf — **uy xo‘jaliklari qarz yukining ortishi**: Markaziy bank BNPL va mikroqarzlar fonida ayrim qarz oluvchilarning debt burdenini kuzatish qiyinlashganini va shu sababli DSTI bo‘yicha qat’iyroq chegaralar kiritganini ta’kidlaydi. To‘rtinchisi — **imtiyozli dasturlarning bozorga chiqish yo‘lini to‘sib qo‘yishi**: agar qarz oluvchi har safar faqat subsidiyalangan kreditga tayanib qolsa, u normal bozor moliyalashtirishiga o‘tish bosqichiga yetmaydi.

Uchinchi usul — **segmentlangan maqsadli guruhlar bo‘yicha baholash**. Imtiyozli kreditlar bir xil qarz oluvchilarga turlicha ta’sir qiladi. Shu sababli tadqiqotda o‘zini o‘zi band qilganlar, ayollar, yoshlar, ijtimoiy reyestrdagi ishsizlar va kichik biznesini kengaytirayotgan tadbirkorlar alohida guruhlar sifatida ko‘rildi. Masalan, 2024 yilgi hisobotda oilaviy tadbirkorlik dasturlari kreditlarining 93 foizi aynan self-employed shaxslarga yo‘naltirilgani ko‘rsatiladi; bu kirish bosqichida ijobiy natija bo‘lsa-da, kelgusi savol shundan iboratki, ulardan qanchasi keyinchalik yuridik shaxs yoki kichik korxona darajasiga o‘tmoqda. PF-50 farmoni aynan shu muammoni ko‘rib, faoliyatini yiriklashtirgan self-employed shaxslarga 50 million va 150 million so‘mgacha garovsiz kredit berishni nazarda tutadi. Demak, metodologiyada “bir martalik bandlik” emas, balki “rivojlanish traektoriyasi” ham o‘lchov sifatida qabul qilindi.

To‘rtinchi usul — **mahsulot dizaynini tahlil qilish**. Bu yondashuvda kreditning foizi, muddati, imtiyozli davri, garov talabi, risk taqsimoti, qayta moliyalashtirish va monitoring shartlari samaradorlikning markaziy omillari sifatida o‘rganildi. Masalan, PQ-149 oilaviy tadbirkorlik kreditlari uchun 6–12 oylik imtiyozli davr va 3–4 yillik muddatni belgilasa, PQ-312 300 million so‘mgacha mikrokredit, 100 million so‘mgacha garovsiz qism va portfel kafilligini taklif qiladi. Ushbu mahsulotlar dizayni turli bosqichdagi biznes ehtiyojlariga moslashganini ko‘rsatadi. Metodologik jihatdan bu juda muhim:

muvaffaqiyatli tizimda “bir xil kredit hammaga” prinsipi ishlamaydi; aksincha, boshlovchi biznes, faoliyatini kengaytirayotgan tadbirkor va ish o‘rni yaratayotgan KOB uchun mahsulotlar farqlanishi lozim. Shu bilan birga, mahsulot dizayni bozor tamoyillaridan butunlay uzoqlashib ketmasligi kerak; PQ-149da asosiy stavkaga bog‘liq foizning joriy etilishi aynan shu muvozanatni saqlashga urinish sifatida baholandi.

Beshinchi usul — **samaradorlikni bandlik natijasi bilan bog‘lash**. Odatdagi amaliyotda imtiyozli kreditlash ko‘pincha ajratilgan summa yoki kredit olganlar soni bilan baholanadi. Ushbu tadqiqotda esa asosiy indikatorlar sifatida qo‘shimcha ravishda yaratilgan ish o‘rinlari, daromadli bandlikka jalb qilingan shaxslar, loyiha faoliyatining davomiyligi va kreditdan keyingi bosqich moliyalashtirishga o‘tgan subyektlar olindi. Bu yondashuv PF-50 farmonidagi “har bir ish o‘rni uchun kredit” mexanizmi va Markaziy bank hisobotidagi “Sayxunobod modeli” tajribasi bilan metodologik uyg‘unlashadi. Chunki bandlikni haqiqiy baholash uchun nafaqat “ish o‘rni yaratildi” degan raqam, balki bu ish o‘rni qanchalik rasmiy, daromadli va davomli ekani ham muhimdir. Shu nuqtai nazardan tadqiqot imtiyozli kreditlash tizimiga “post-credit employment monitoring” zarurligini metodologik xulosa sifatida olib chiqadi.

Metodologiyaning yakuniy xulosasi shuki, imtiyozli kreditlash tizimining samaradorligini baholash uchun uch darajali model zarur: **birinchi daraja — maqsadli guruhga kirish**, **ikkinchi daraja — mahsulotning biznes ehtiyojiga mosligi**, **uchinchi daraja — haqiqiy bandlik va daromad natijasi**. Agar dastur faqat birinchi darajada ishlasa, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lsa-da, iqtisodiy samarasi past bo‘lishi mumkin. Agar uchala daraja uyg‘un ishlasa, imtiyozli kreditlash kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni oshirishning kuchli instrumentiga aylanadi. Demak, bu tizimni kelgusida kengaytirishdan ko‘ra, uni natijaga yo‘naltirilgan, bozor bilan uyg‘un va shaffof nazorat qilinadigan formatga olib chiqish muhimroq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda imtiyozli kreditlash tizimi aholi bandligini ta’minlashda sezilarli ijobiy rol o‘ynab kelmoqda. Oilaviy tadbirkorlik dasturlari, yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” dasturi hamda mahalla darajasida qo‘llanayotgan modellar minglab loyihalarni ishga tushirgan va yuz minglab odamlarni daromadli faoliyatga jalb etgan. Shu jihatdan imtiyozli kreditlash mamlakatda oddiy kreditlash instrumenti emas, balki bandlik siyosatining amaliy moliyaviy tayanchi sifatida shakllanmoqda. Ayniqsa, self-employed shaxslarni kreditlash, ayollar va yoshlar loyihalariga ustuvor resurs yo‘naltirish va mikroloyihalarni bosqichma-bosqich kengroq biznesga aylantirishga urinish bu tizimning kuchli tomonidir.

Shu bilan birga, maqola imtiyozli kreditlashning bir qator jiddiy muammolari mavjudligini ham ko‘rsatdi. Birinchidan, kredit samaradorligi ko‘p hollarda ajratilgan summa yoki loyiha soni bilan o‘lchanadi, holbuki haqiqiy indikator — yaratilgan va saqlanib qolgan ish o‘rnidir. Ikkinchidan, oldindan belgilangan foiz stavkalari va ayrim institutlar uchun yopiq ishlovchi imtiyozli dasturlar bozor signallarini buzishi, xususiy moliya institutlari raqobatini

cheklashi mumkin. Uchinchidan, uy xo‘jaliklari qarz yuki ortib borayotgan sharoitda imtiyozli kreditlash ijtimoiy vazifa niqobi ostida moliyaviy xatarlarni ham yig‘ishi mumkin. To‘rtinchidan, postkredit monitoring yetarlicha kuchli bo‘lmasa, ayrim loyihalar vaqtinchalik faoliyat ko‘rsatib, barqaror bandlik yaratmasligi ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Shu asosda, birinchi navbatda, imtiyozli kreditlash bo‘yicha **natija indikatorlarini** to‘liq qayta ko‘rib chiqish zarur. Har bir dastur bo‘yicha kamida quyidagi ko‘rsatkichlar joriy etilishi maqsadga muvofiq: kredit olgan shaxsning 12 va 24 oy ichida faoliyati saqlanib qoldimi, nechta yangi ish o‘rni yaratildi, ulardan qanchasi rasmiy mehnat shakliga o‘tdi, qarz oluvchi keyingi bosqichda bozor shartlaridagi kreditga o‘ta oldimi. Ikkinchi taklif — imtiyozli dasturlarni bozor tamoyillariga yaqinlashtirishdir. Jahon banki tavsiya qilganidek, foizni administrativ pasaytirishdan ko‘ra qisman kredit kafolatlari, riskni taqsimlovchi instrumentlar va ochiq qayta moliyalashtirish mexanizmlari samaraliroq bo‘lishi mumkin. Uchinchi taklif — kredit mahsulotlarini segmentlash: boshlovchi self-employed shaxs, faoliyatini kengaytirayotgan mikrobiznes va ishsizlarni ishga olgan KOB uchun alohida dizayn kerak.

To‘rtinchidan, imtiyozli kreditlashni **raqamlashtirish + monitoring + maslahat** uchligi asosida olib borish lozim. Yagona elektron platformalar kreditga chiqishni soddalashtiradi, lekin ular postkredit kuzatuv, biznes maslahatlari va tavakkalchilikni erta aniqlash bilan birga ishlamasa, samarasi cheklangan bo‘ladi. Beshinchidan, PF-50 farmonidagi kabi ish o‘rni yaratishga bog‘langan kredit mexanizmini kengaytirish mumkin, biroq bunda verifikatsiya qat’iy bo‘lishi, nominal emas, haqiqiy bandlik va mehnat unumdorligi o‘lchanishi shart. Oltinchidan, Markaziy bankning DSTI, risk weight va qarz yukini nazorat qilish bo‘yicha makroprudensial choralarini imtiyozli dasturlardan mustasno emas, balki ularga moslashtirilgan ehtiyot mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirish kerak. Yakuniy xulosa shuki, imtiyozli kreditlash tizimi O‘zbekistonda bandlikni oshirishning muhim vositasi bo‘lib qoladi, ammo uning kelajakdagi muvaffaqiyati kreditning arzonligiga emas, natijadorligi, shaffofligi va bozor bilan muvozanatli integratsiyasiga bog‘liq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. The Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2026). Annual Report 2024.

2. The Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2023). Annual Report 2022.

3. World Bank. (2025). Financial Sector Assessment 2025: Republic of Uzbekistan.

4. World Bank. (2025). Financial Inclusion for Growth, Returns, and Opportunities for Work (FINGROW) – Uzbekistan.

5. Asian Development Bank. (2024). Inclusive Finance Sector Development Program.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). PQ-312-son qaror: “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025). PF-50-son farmon: Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). PQ-149-son qaror: Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). 373-son qaror: Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarining yagona elektron platformasi orqali kreditlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida.

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА КОРРУПЦИЯВИЙ-КОМПЛАЕНС МУАММОЛАРИ

Юнусов Бахтиёр Шавкатович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси
E-mail: yunusovb@mail.ru
Тел: +99891 583 77 82

Ўзбекистонда очиқлик, шаффофлик ва коррупцияга қарши кураш сиёсати устувор йўналишлардан бирига айланди. Молиявий тизим, хусусан банк сектори ушбу ислоҳотларнинг марказида туради, чунки унинг барқарорлиги ва ишончлилиги мамлакат иқтисодиётининг ривожланиши учун муҳим аҳамиятга эга.

Шу сабабли давлат улуши мавжуд тижорат банкларида коррупцияга қарши ички назорат бўлинмаларини (комплаенс-назорат) жорий этиш, яъни коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш тизимини самарали ташкил этиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

2021-йил 1-октабрдан бошлаб барча давлат органлари ва ташкилотларида, шу жумладан Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ҳамда Тошкент шаҳар ҳокимликларида, шунингдек устав фондида (устав капиталида) давлат улуши 50 фоиз ва ундан ортиқ бўлган хўжалик жамиятларида коррупцияга қарши ички назорат тузилмаларини ташкил этиш белгиланган.

Коррупцияга қарши ички назорат тузилмалари (комплаенс-назорат) ташкилотларда коррупция ҳолатларини барвақт аниқлаш ва олдини олиш, уларнинг сабаб ва шарт-шароитларини бартараф этиш, манфаатлар тўқнашувига йўл қўймаслик ҳамда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантириш учун масъул ҳисобланади.

Шунга кўра, ҳисобот даврида Марказий банк ҳамда 9 та давлат тижорат банкларида коррупцияга қарши курашиш бўйича ички назорат тузилмалари фаолияти такомиллаштирилди ва уларнинг 3 таси “Пора олиш ва бериш билан курашиш менежменти тизимлари” (Ўз ДСт ИСО 37001:2019) стандарти бўйича сертификатга эга бўлди.

Бу тизимни амалиётга жорий этишда бир қатор муассасалар қарори Ҳисоб палатаси ҳам иштирок этиб келмоқда. Масалан Ўзбекистон Республикасининг Ҳисоб палатаси тўғрисидаги қонунининг:

4-модда. Ҳисоб палатасининг асосий вазифалари

•**республика** ижро этувчи ҳокимият органларида, шунингдек устав фондида (устав капиталида) давлат улуши 50 фоиз ва ундан ортиқ бўлган муассаса ва ташкилотларда коррупцияга қарши курашиш бўйича ички назорат тизимини жорий қилишга, шунингдек унинг самарали фаолият кўрсатишига доир чораларнинг амалга оширилиши устидан назорат қилиш.

29[1]-модда. Ҳисоб палатасининг коррупцияга қарши курашиш бўйича ички назорат тизимини жорий этишга, шунингдек унинг самарали фаолият кўрсатишига доир чораларнинг амалга оширилиши устидан назорат қилиш соҳасидаги функсиялари

•коррупцияга қарши курашиш бўйича ички назорат тизимини жорий этишга, шунингдек унинг самарали фаолият кўрсатишига доир чораларнинг амалга оширилиши устидан мониторинг ўтказади ва назорат қилади ҳамда уларнинг натижалари бўйича Ўзбекистон Республикаси Президенти Администратсиясига ахборот киритади;

•коррупцияга қарши курашиш бўйича ички назорат тизимини ўз вақтида жорий этишга ва унинг самарали фаолият кўрсатишига монелик қилаётган омилларни аниқлайди, шунингдек уларни тизимли равишда таҳлил қилади.

Коррупцияга қарши ички назорат тузилмалари фаолияти таҳлили

2025 йил 1 январ ҳолатига **137 та** давлат органлари ва ташкилотлари, шу жумладан Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликларида мавжуд коррупцияга қарши ички назорат тузилмалари фаолияти таҳлил қилинди



•Бюджет ташкилотлари 87 та ёки 63,5%

•Давлат улуши иштирокидаги хўжалик ҳисобидаги корхоналар 50 та ёки 36,5%

Бугунги кунда учраётган тизимли камчиликлар:

•Ички идоравий ҳужжатларни тўлиқ ёки умуман қабул қилмаслик;

•Ички идоравий ҳужжатларни корхона тузилмасига мослаштирмасдан тўғридан тўғри қабул қилиш;

•Алоқа каналарни ишламаслик ҳолатлари;

•Алоқа каналларидан келиб тушган мурожаатларнинг кўриб чиқилмаслиги;

•Ишга жойлашаётган номзодларни текширмаслик ёки текшириш реестрларини юритмаслик;

•Йиллик манфаатлар тўқнашуви декларациялари олмаслик;

•Янги кирган ва лавозими (бошқа ишга ўтган) ўзгарган ходимлардан манфаатлар тўқнашуви декларациялари олмаслик;

•Манфаатлар тўқнашуви декларацияларини таҳлил қилмаслик;

•Ходимлар томонидан декларация тўлдирилганида боғлиқ тадбиркорлик фаолияти маълумотларни тўлиқ акс эттирмаслик;

•Ҳодимлар томонидан декларацияларда яқин қариндошлари тўғрисидаги маълумотларни тақдим этмаслик;

•Контрагентни ўрганиш бўйича хулосаларни расмийлаштирилмаслик;

•Контрагентлар билан имзоланган шартномаларда коррупцияга қарши эслатмалар киритилмаган ҳолатлар;

•Контрагентни ўрганиш бўйича хулосаларни расмийлаштирилмаслик;

•Арзон нарх таклифи мавжуд бўлган бир пайтда бошқа бир юқори нархдаги таклифларни қабул қилиш;

•ОАВлар орқали тарғибот ва ташвиқот ишлари ўтказмаслик;

•Ишга жойлашаётган номзодларни текширмаслик ёки текшириш реестрларини юритмаслик Ходимларни коррупцияга қарши ўқитиш режалари, ўқув материалларини ишлаб чиқилмаслик ва тест синовлари ўтказилмаслик;

•Коррупциявий хавф-хатарга энг кўп мойил бўлган лавозимлар учун махсус коррупцияга қарши ўқитиш ташкил этилмаслик;

•Янгидан ишга қабул қилинган ходимлар учун ўқитишлар ташкил этилмаслик.

Коррупцияга қарши ички назорат тузилмалари фаолияти таҳлили натижаларига кўра таклифлар

•Ички назорат тузилмалари фаолияти самарали ташкил этиш мақсадида қисқа муддатда мавжуд вакант ўринларни тўлдириш чораларини кўриш

•Ички назорат тузилмаларида фаолият олиб бораётган ходимларнинг малакасини ошириш (ўқитиш қайта тайёрлаш) ишларини тизимли асосда ташкил этиш

•Коррупцияга қарши ички назорат тузилмаларини самарали жорий этиш бўйича ички идоравий ҳужжатларни тўлиқ ишлаб чиқиш, тасдиқлаш ва амалиётга жорий этиш

•Коррупция хавф-хатарларини баҳолаш натижаларига асосланган ҳолда ички назорат тузилмалари ходимларининг иш режаларини ишлаб чиқиш ҳамда ижроси юзасидан таъсирчан назорат ўрнатиш

•Ички назорат тузилмалари фаолияти самарали ташкил этиш мақсадида қисқа муддатда мавжуд вакант ўринларни тўлдириш чораларини кўриш.

•Коррупцияга қарши ички назорат тузилмалари томонидан манфаатлар тўқнашуви ва аффилланганлик ҳолатини олдини олиш бўйича контрагентларни текшириш тизимини йўлга қўйиш

•Манфаатлар тўқнашуви ҳолатларини ўрганишда бирламчи ҳужжатлар асосида текшириш ва аниқланган ноқонуний ҳолатлар бўйича белгиланган тартибда тегишли чоралар кўриш.

•Ички назорат тузилмалари томонидан ўтказиладиган назорат тадбирларининг манзилли режа-графигини ишлаб чиқиш, ҳар бир ўтказилган назорат тадбири натижаларини пухта таҳлил қилган ҳолда таклифлар ишлаб чиқиш. Назорат тадбирлари мониторингини юритиш

•Назорат тадбирлари натижасида ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга юборилган ҳолатлар ҳамда аниқланган камомадлар реестрини юритиш. Аниқланган камомад суммаларини тўлиқ қайтариш (ундириш) чораларининг кўрилиши устидан назорат ўрнатиш

•Тизимда коррупцион ҳолатлар ҳамда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга қаратилган тарғибот-ташвиқот ишларини кучайтириш, барча ходимларни коррупцияга қарши курашиш бўйича ички идоравий ҳужжатлар билан тўлиқ таништирилишини таъминлаш

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to‘g‘risidagi qonuni 01.07.2019 yildagi O‘RQ-546-son https://lex.uz/docs/-4394324

2. de Andrés, P., Polizzi, S., & Scannella, E. Corruption disclosure in banking: insights from the literature // Creating Value and Improving Financial Performance: Inclusive Finance and the ESG Premium. – 2023. – P. 119–133.

3. Asteriou, D., Pilbeam, K., & Tomuleasa, I. The impact of corruption, economic freedom, regulation and transparency on bank profitability and bank stability: Evidence from the Eurozone area // Journal of Economic Behavior & Organization. – 2021. – Vol. 184. – P. 150–177. https://doi.org/10.1016/j.jebo.2020.08.023

4. Harras, M. E., & Salahddine, M. A. Tracking financial crime through code and law: a review of RegTech applications in anti-money laundering // arxiv preprint. – 2025. – arxiv:2511.15764.

участие в разработке и реализации государственных, отраслевых, региональных и международных научно-технических программ и проектов, выполнение научно-исследовательских и опытно-конструкторских работ, выпуск наукоемкой и высокотехнологичной продукции.

Основные задачи в сфере экспертного анализа инновационных технологий в строительстве необходимо решать посредством определения критериев инноваций, через научно-техническую и экономическую экспертизу, отбор новейших научных исследований и разработок в области строительства, реконструкции, капитального ремонта зданий и сооружений с целью их дальнейшего развития в строительной отрасли.

Также необходимо доведение инновационных технологий в строительстве до конечного потребителя, в том числе:

- путем ускорения процесса их освоения в производстве;

-информационное обеспечение инновационной деятельности с использованием информационных технологий;

-обмен опытом, объективная оценка предоставляемых решений и содействие дальнейшей модернизации строительного комплекса;

-подготовка статейного материала, структурированных каталогов и специальной методической литературы;

- оказание содействия в организации встреч деловых кругов, семинаров по обмену опытом и повышению квалификации руководителей и специалистов в сфере научно-технических инноваций и высоких технологий, обучение инновационному менеджменту, маркетингу наукоемкой продукции, организации ее производства.

Основным фактором повышения конкурентоспособности экономики в современных условиях является инновационная деятельность. Переход экономики на инновационный путь развития выступает определяющим фактором дальнейшего роста уровня жизни населения.

При введении инновационных технологий в строительстве необходимо учитывать особенности, характеризующие эту сферу как наиболее консервативную, исследуя факторы, тормозящие внедрение инноваций, а также поддерживать и развивать инновационный потенциал предприятия. В настоящее время вложение инвестиций во внедрение инновационных технологий позволит предприятию обрести весомое конкурентное преимущество.

Литература:

1. И.Х. Собиров. "Қурилиш соҳасини модернизациялаш, рақамлаштириш ва инновацион ривожлантириш стратегияси". Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётини модернизациялаш ва инновацион ривожлантириш шароитида қурилиш комплекси ва кўчмас мулк бозорини ривожлантиришнинг иқтисодий муаммолари (2020): 74.
2. Собиров, И. Х. "Стратегии инновационного развития строительной отрасли узбекистана." *Проблемы устойчивости развития социально-экономических систем*. 2022.
3. Собиров, И.И., and Абдукхолик Абдукаримов. "Digitalization and innovative development strategy of the construction industry in uzbekistan." *Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок* 1.3 (2025): 165-167

ПРОБЛЕМЫ С ПИТЬЕВОЙ ВОДОЙ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ ДЛЯ ЖИТЕЛЕЙ СУМА ДУРГУН, АЙМАК ХОВД

Б.Уранзаяа
Монгольский университет науки и технологии,
Институт строительства и архитектуры Улан-Батор, Монголия
e-mail: uranzaya@must.edu.mn

Аннотация. *В целях улучшения качества питьевой воды для горожан в парке продолжает внедряться передовые технологии. Было проведено исследование методов улучшения качества воды на бытовом уровне.*

Ключевое слово: *наночастицы, здоровая и безопосная вода, простое и доступное решение операция по восстановленип.*

Вступление. Наши страны на земном шаре расположены в разных географических регионах. В связи с этим доступ к чистой воде варьируется. Было проведено исследование доступности воды и уровня её качества в Монголии в связи с глобальной нехваткой пресной воды. Согласно исследованию аймак Ховд находящий в состав Монголии, хотя и относится к Хангайскому региону, также испытывает нехватку пресной воды.

Исследования. В 2020 году в стране была принята долгосрочная политика развития “Видение 2050”, цели которой в области экологически чистого развития направлены на увеличение доли населения, обеспеченного качественными источниками питьевой воды, к 2025 году до 85%, к 2030 году – до 87,5%, а к 2050году – 90%.



Рисунок 1. Распределение и использование водных ресурсов в Монголии.

Методология исследования

Разработки математические количественные и статические методы, обработка результатов химического анализа воды, методы исследования газов. Целью исследования будет улучшение качества воды в домашних хозяйствах, а также исследование и предложение наиболее оптимальных и удобных для потребителя решений, для минеральной и жесткой воды, отвечающих требованиям стандартов питьевой воды, а также социальной и медицинской пользе для здоровья граждан.

Определение химических показателей, обычно содержащихся в воде из источников водоснабжения. Исследования и освоение технологий очистки воды.Ховд аймак расположен от Улан-Батора в1500км. Дургун сум расположен в 102км от центра аймака. Дургун сум включает в себя на высоте 1100-1600метров над уровнем моря с уникальным рельфами впадины великих озер. Преобладает суровый климат. Актуальной проблемой в муниципалитете является проблема питьевой воды. Они пьют воду из озера, в котором есть переносной источник водоснабжения. Вода не гигенична. Исследовательская группа взяла 1 пробу ик колодца, 1 пробы из реки.



Рисунок 2. Местоположение проб воды из Дургун сума



Рисунок 3. Умная колодца

Умная колодца – предналежит администрации губернатора, открыта в 2021 году и имеет глубину 20 метров. Скважин обеспечивает питьевой воды 300 домахозяйств, 1 л воды продается 5 тугриков. Внутри колодцы имеется резервный резевуар для объемом 50м^3. Соблюдены требования санитарно-защитной зоны.



Река Цаган тойру расположена в центре сумы Угумур, в координатах 48019’57,0” северной широты и 92035'43,3" восточной долготы, например, она расположена на высоте 1161м над уровнем моря. Река протекает в 3 км от центра сум, и в сум поступает питьевая вода.

Таблица 1

Интеллектуальный индикатор измерения уровня колодезной воды и физико-химического состава

Год эксплуатации	Информация о колодцы		Координаты	Характеристики	
2021 он	Глубина колодцы, м	20 м	N-48^{0}19'58.8" E-92^{0}37'27.6" h-1164 м	pH	7.90
				ORP (mV)	258.5
				EC (µS/cm)	1983
				TDS (ppm)	1102
	Обеспечение домашных хозяйств	300 домо-хозяйств		t˚C	4.47
				P (psi)	12.711
				Turbidity (NTU)	0.09

Таблица 2.

Индикатор измерения химического состава, мг/л

Название колодцы для образцов	Общая минерализация	Твердость мг-экв/л	Загрязнение			Индекс	Основные элементы					
			ПИЧ/F$^-$	NH_4^+	NO_2^-/ NO_3		CO_3^{2-}/HCO	Cl^-	SO_4^{2-}	Na^+	Ca^{2+}	Mg^{2+}
Сумский центр	**1248.**5	4.46	0.88/**1.67**	0.0	0.01/4.0	Cl^{Na}_{II}	12.0/149.5	**543.**9	98.0	**368.3**	58.9	18.5
Река цаган тойру	318.7	2.90	2.88/**0.44**	0.9	0.0/6.7	C^{x}_{I}	9.0/186.1	27.7	6.0	32.5	37.1	12.8
MNS0900:2018	**1000**	**7.00**	**10/0.7-1.5**	**1.5**	**1.0/50**		-	**350**	**500**	**200**	**100**	**30**

Из проанализированных химических показателей общая минерализация, ионы хлора, натрия Из проанализированных химических показателей общая минерализация, ионы хлора, натрия и фтора относится к “питьевой воде”. Гигиенические требования, оценка качества и безопасности MNS0900:2018 не соответствует стандартам. Река Цаган тойру – качество воды пресная, минерализация 318.7 мг/л, мягкая жесткость 2.9 мг-экв/л и незагрязненная. Анализируемые химические показатели – “питьевая вода” гигиенические требования, оценка качества и безопасности находиться в пределах стандарта MNS0900:2018, но содержание ионов фтора низкое.

Таблица 3.

Содержание микроэлементов, мкг/л

№	Анализируемые показатели	MNS 0900:2018	Колодец сумского центра	Река Цаган тойру
1	Ag	50	<0.1	<0.2
2	Al	400	<8	<10
3	As	10	6.94	2.54
4	Ba	630	<9	49
5	Be	0.4	<0.2	<0.1
6	Bi		<0.01	<0.01
7	Cd	6	0.12	0.03
8	Ce		<0.05	<0.05
9	Co		0.21	0.12
10	Cr	30	<8	<10
11	Cs		0.104	0.104
12	Cu	4000	<10	<5
13	Dy		<0.001	<0.001
14	Er		<0.001	<0.001
15	Eu		0.003	0.011
16	Fe	288	<38	<50
17	Ga		<0.02	<0.02
18	Gd		<0.003	<0.003
19	Hg	1.0	<0.5	<0.5
20	Hf		<0.004	<0.004
21	Ho		<0.001	<0.001
22	In		<0.001	<0.001
23	La		0.04	0.06
24	Lu		<0.002	<0.002
25	Mn	120	<6	<5
26	Mo	70	27.3	2.7
27	Nb		<0.005	<0.005
28	Nd		<0.01	<0.01
29	Ni	20	3.1	2.3
30	P	1142	<50	<50
31	Pb	20	<1	<0.5
32	Pr		<0.006	<0.006
33	Rb		0.17	1.22
34	Sb	40	<0.4	0.3
35	Sc		2.0	1.0

№	Анализируемые показатели	MNS 0900:2018	Колодец сумского центра	Река Цаган тойру
36	Se	40	12.2	0.4
37	Sm		<0.002	<0.002
38	Sn		<0.1	<0.1
39	Sr	2000	**2035**	224
40	Ta		<0.001	<0.001
41	Tb		<0.002	<0.002
42	Te		<0.1	<0.1
43	Th		<0.002	<0.002
44	Ti		<10	<10
45	Tl		<0.007	<0.007
46	Tm		<0.001	<0.001
47	U	30	23.1	3.84
48	V		<10	<10

В воде из колодца обнаружено 48 микроэлементов, а содержание стронция в 1,01 раза выше, чем указано в стандарте на питьевую воду. Остальные выявленные микроэлементы соответствуют требованиям стандарта.

Результаты исследования:

Пробы воды показывают необходимость её очистки и распределения потребителям. Любой пользователь, независимо от того, подключен он к центральной сети или нет, может использовать фильтр для очистки питьевой воды.

Жесткость воды в суме, выбранной для исследования, составила 7.9мг-экв/л, содержание кальция – 37.1мг-экв/л, а общая минерализация – 318.7 1мг-экв/л

Вывод: Наночастицы снизили содержание гумуса в воде на 97%, кальция –на 90%, магния – на 60%, железа – на 99%, минерализацию – на 99% соответственно.

Экономические сравнение чистой воды, отфильтрованной наночастицами, дает экономию в размере 76410 тугриков на 3-4 ш бытового фильтра, 30740000 тугриков на 0.5л бутилированной воды и 1.5л бутилированной пресной воды на 14666666 тугриков.

При низком потреблении воды рекомендуетяс сливить резервную воду из колодца с помощью “умной” карты для распределения воды и дезинфицировать её в течение определенного периода времени. Для этого на дне резервуара необходимо установить насадку для слива воды.

Литературы:

1. Б.Амгаланцэцэг “Исследование технологий улучшения качества воды” 2019г.

2. Э.Ган-Эрдэнэ, Б.Даваажаргал, Б.Төрбат, Т.Энхжаргал “Опрос населения, имеющего доступ к услугам водоснабжения, которые не являются квалифицированными и не подходят для центральных населенных

пунктов” 2022г.
3. Б.Ундрам “Исследование качества воды” 2022г.
4. Х.Цооххүү “Исследование состояния питьевой воды в Монголии”, 2022г.
5. Montsame.mn 2022г.
https://www.montsame.mn/ru/read/241366?fbclid=IwAR1cYkqCTjPSDmlIbAfo8QjMntqLJYlxsAvYHL5beV-hZhy5e8f9ZjoblbQ
6. Ikon.mn 2025г.

TA’LIM VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH MASALALARI

Djurayeva Maxzuna Azamovna
Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti
Iqtisodiyot kafedrasi o`qtuvchisi
Ataxonova Sabohat Otabek qizi
Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti
Iqtisodiyot 2-bosqich talabasi

Annotasiya. *Ushbu maqolada texnologiyalar nima, ta’lim, kambag‘allikni qisqartirish va ularning bir biriga bog‘liqligi haqida ma’lumot to‘plangan. Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar, zamonaviy kasblar insonlarning yashashini osonlashtirgani haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, aholining bandligini ta’minlash, daromad manbalarini kengaytirish hamda ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishda ta’lim va raqamlashtirishning o‘zaro uyg‘unligi yoritiladi. Maqolada ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy texnologiyalar, onlayn kurslar, Raqamli O‘zbekiston -2030, kambag‘allikni qisqartirishda yangi ish o‘rinlari.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются понятие технологий, система образования, а также вопросы сокращения бедности и их взаимосвязь. В современных условиях анализируется роль современных технологий и новых профессий в облегчении жизни людей и повышении уровня их благосостояния. Также освещается взаимосвязь образования и цифровизации в обеспечении занятости населения, расширении источников дохода и снижении социальной неравенства. В статье представлены проводимые реформы в данном направлении, существующие проблемы, а также предложения и рекомендации по их решению.*

Ключевые слова: *современные технологии, онлайн-курсы, «Цифровой Узбекистан – 2030», сокращение бедности, новые рабочие места.*

Abstract. *This article discusses the concept of technology, the education system, as well as issues of poverty reduction and their interconnection. In the modern context, the role of advanced technologies and new professions in*

improving people's lives and increasing their standard of living is analyzed. It also highlights the relationship between education and digitalization in ensuring employment, expanding sources of income, and reducing social inequality. The article presents ongoing reforms in this area, existing challenges, and provides suggestions and recommendations for their solution.

Keywords: *modern technologies, online courses, "Digital Uzbekistan – 2030", poverty reduction, new jobs.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida kambag‘allik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muammo sifatida ham e'tibor markazida turibdi. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida aholi daromadlari o‘rtasidagi tafovut ortib borayotgan bir paytda, kambag‘allikni kamaytirishning samarali yo‘llarini izlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta'lim va raqamli texnologiyalar inson hayotini tubdan o‘zgartira oladigan asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilar ko‘proq mustaqil o‘qishga o‘rganadi, o‘z bilimini baholash va rivojlantirishga o‘zlari mas'ul bo‘lishadi. Bu esa zamonaviy jamiyat uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bu texnologiyalar orqali o‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi, o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortadi va o‘zlashtirish darajasi yaxshilanadi. Shu bilan birga, pedagoglar ham o‘z darslarini samaraliroq tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Avvalo, ta'lim inson kapitalini shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. Sifatli ta'lim olgan shaxs zamonaviy mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladi, yuqori daromadga ega bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ayniqsa, kasbiy ta'lim va malaka oshirish tizimini rivojlantirish orqali yoshlar va ishsiz aholining bandligini ta'minlash mumkin. Ta'lim orqali insonlar yangi bilim va ko‘nikmalarni egallab, o‘z hayot darajasini yaxshilashga erishadilar.

Asosiy qism. Raqamli texnologiyalar esa bugungi kunda iqtisodiyotning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Internet, sun'iy intellekt, onlayn platformalar va elektron xizmatlar aholiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, masofaviy ta'lim (onlayn kurslar) orqali har qanday hududda yashovchi inson sifatli bilim olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa ayniqsa chekka hududlarda yashovchi aholining ta'limga bo‘lgan kirish imkoniyatini kengaytiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Frilanserlik, masofaviy ish, elektron tijorat kabi yo‘nalishlar orqali odamlar uyidan chiqmagan holda daromad topish imkoniga ega bo‘lmoqda. Bu esa ishsizlik darajasini kamaytirish va kambag‘allikni qisqartirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlar va ayollar uchun raqamli iqtisodiyot keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ta'lim va raqamli texnologiyalarning uyg‘unligi esa yanada samarali natijalarga olib keladi. Raqamli savodxonlikni oshirish orqali aholining texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari rivojlanadi. Natijada ular zamonaviy kasblarni egallash, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanish hamda raqamli iqtisodiyotda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli

islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, axborot texnologiyalarini joriy etish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilgan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida internet infratuzilmasini kengaytirish, IT-ta’limni rivojlantirish va aholining raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mavjud muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim hududlarda internet tezligining pastligi, zamonaviy texnologiyalarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, ta’lim sifatidagi tafovutlar kambag‘allikni qisqartirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, aholining bir qismida raqamli ko‘nikmalar yetarli darajada shakllanmagan. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Avvalo, ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ayniqsa IT va kasbiy ta’limga e’tiborni kuchaytirish lozim. Shuningdek, barcha hududlarda sifatli internet bilan ta’minlash, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va aholining raqamli savodxonligini oshirish muhimdir. Bundan tashqari, kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish ham kambag‘allikni qisqartirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi

Ta’lim insonning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirib, uni raqobatbardosh kadrga aylantiradi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, oliy yoki kasbiy ta’limga ega bo‘lgan insonlarning daromadi ta’limsizlarga nisbatan bir necha barobar yuqori bo‘ladi. Bu esa bevosita kambag‘allik darajasining pasayishiga olib keladi. Ayniqsa, yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish ularning kelajakdagi moliyaviy mustaqilligini ta’minlaydi.Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi “Raqamli Toshkent” kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida:

1. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar, biznes hamjamiyati va ilmiy doiralar vakillari hamda xorijiy ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

Quyidagilar:

2020 — 2022-yillarda hududlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari 2 — 14-ilovalarga muvofiq;

2020 — 2022-yillarda tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari 15 — 21-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, 2020 — 2022-yillarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish doirasida:

aholi punktlarini Internet tarmog‘iga ulash darajasi, shu jumladan keng polosali ulanish portlarini 2,5 milliongacha ko‘paytirish, 20 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78

foizdan 95 foizga yetkaziladi; hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etiladi; 587 ming nafar kishini, shu jumladan "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o‘qitish tashkillashtiriladi; iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etiladi.

Raqamli texnologiyalar – yangi imkoniyatlar eshigi. So‘nggi yillarda internet va raqamli platformalar rivoji natijasida iqtisodiyotning yangi tarmoqlari shakllandi. Masalan,SMM, dasturlash, grafik dizayn kabi kasblar orqali insonlar joydan qat’i nazar daromad topmoqda. Bugungi kunda hatto kichik bir smartfon orqali ham biznes yuritish, mahsulot sotish yoki xizmat ko‘rsatish mumkin. Bu esa ayniqsa ishsizlik yuqori bo‘lgan hududlarda kambag‘allikni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilar ko‘proq mustaqil o‘qishga o‘rganadi, o‘z bilimini baholash va rivojlantirishga o‘zlari mas’ul bo‘lishadi. Bu esa zamonaviy jamiyat uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bu texnologiyalar orqali o‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi, o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortadi va o‘zlashtirish darajasi yaxshilanadi. Shu bilan birga, pedagoglar ham o‘z darslarini samaraliroq tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ta’lim va texnologiyaning uyg‘unlashuvi natijasida masofaviy ta’lim tizimi rivojlandi. Onlayn kurslar (Coursera, Udemy va boshqalar), bepul darslar va video platformalar orqali millionlab insonlar yangi bilimlarni egallamoqda. Bu esa ularga qisqa vaqt ichida kasb o‘rganish va daromad topish imkonini beradi. Mavjud muammolar va ularning yechimi.Shu bilan birga, ayrim to‘siqlar ham mavjud. Masalan: internet tezligining pastligi, texnik qurilmalar yetishmasligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi Bu muammolarni hal qilish uchun: hududlarda internet infratuzilmasini yaxshilash, aholiga arzon texnologik qurilmalar taqdim etish, bepul o‘quv dasturlarini kengaytirish zarur.

Metodologiya. Bugun kambag‘allikni qisqartirish va yangi ish o‘rinlari yaratishda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Bu soha davlat tomonidan chuqur qo‘llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida yiliga 13 trillion so‘m kredit va 1,5 trillion so‘m subsidiya ajratilmoqda. Buning natijasida 2022-yili 1 million, joriy yilning birinchi choragida 210 ming aholini kambag‘allikdan chiqarishga erishildi. Ehtiyojmand aholini aniqlashning mamlakatimizda yaratilgan va yuqori samaradorligi tegishli xalqaro tashkilotlar tomonidan e’tirof etilgan tizimlari – "Temir daftar", Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" hamda 2023-yilda yangi joriy etilgan "Ijtimoiy himoya reestri" orqali 2 million 300 ming oila, xotin-qizlar, yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan aholi moddiy yordam bilan taminlandi. Prezidentimiz raisligida joriy yilning 15-may kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida so‘nggi 3 yilda mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish va yangi ish o‘rinlari yaratish borasida butunlay yangi va alohida tizim yaratilgani qayd etilgandi. Eng avvalo, kambag‘allikni kamaytirish davlatimiz ijtimoiy-iqtisodiy

siyosatining eng ustuvor vazifalaridan biri.

Bugun kambag‘allikni qisqartirish va yangi ish o‘rinlari yaratishda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Kambag‘allikni qisqartirish va yangi ish o‘rinlari yaratish jarayonida yangi korxonalarni tashkil etish o‘ta muhim ahamiyatga ega. Shu bois, barcha hududlarda, ayniqsa, uzoq va chekka qishloqlarda bu ishga alohida e’tibor qaratilmoqda va jarayon davlat tomonidan barcha vositalar bilan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Natijada yiliga minglab yangi va zamonaviy katta-kichik korxona ish boshlamoqda. Ularda ishlash uchun zamonaviy texnologiyalarni egallagan kamida 300-400 ming malakali mutaxassis kerak bo‘lishi tabiiydir. Lekin ochig‘ini aytish kerak, kasb-hunar maktablari, kollej, texnikum va monomarkazlarda buncha malakali mutaxassisni tayyorlashga imkoniyat hali mavjud emas. Demak, ularning potensialini oshirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ko‘rish taqozo etiladi. Yurtimizda yaratilayotgan sharoitlar tufayli tadbirkorlar soni tobora ko‘paymoqda. Jumladan, oxirgi 5 besh yilda tadbirkorlar soni 285 mingdan 590 mingtaga ko‘paydi. Bu esa har bir tumanda 2,5 mingdan ortiq yoki bir mahallada o‘rtacha 50 nafardan tadbirkor paydo bo‘lganini bildiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ta’lim va raqamli texnologiyalar kambag‘allikni qisqartirishda strategik ahamiyatga ega. Ular insonlarga yangi imkoniyatlar yaratadi, daromad manbalarini kengaytiradi va jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi. Agar har bir inson sifatli ta’lim va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniga ega bo‘lsa, kambag‘allik muammosini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.O‘z biznesini tashkil etgan tadbirkorlar ham katta-katta xarajatlar qilib, o‘zi uchun mutaxassislar tayyorlashi kerak. Bu masalani o‘z holiga tashlab qo‘yib bo‘lmaydi. Negaki, bir fuqaroni munosib ish bilan ta’minlashga harakat qilayotgan tadbirkorni davlat organlari moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi. Ta’lim va raqamli texnologiyalar kambag‘allikni qisqartirishda o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi omillardir. Ularni uyg‘un holda rivojlantirish orqali aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2024 yildagi PQ-347-son.

2. G‘.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. (Darslik) –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 372 b.

3. S.S. G‘ulomov va boshq. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma.TOSHKENT. “IQTISOD-MOLIYA”. 2019. 380 b.

4. Цифровая экономика: 2022: краткий статистический сборник / Г. И. Абдрахманова, С. А. Васильковский, К. О. Вишневский и др.; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». - М.: НИУ ВШЭ, 2022. - 124 с.

PAXTA TOZALASH KORXONALARIDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING BANDLIKKA TA'SIRI

Murodov Orif Jumayevich t.f.d., professor
Hikmatov A'lambek Ayubovich, katta o`qituvchu
G'ulomov Haydarbek Ilyos o'g'li, assistent
Renessans ta'lim universiteti. 100071, Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Samarqand darvoza ko'chasi, Charxnovza 17
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti. 100000, Shohjahon 5
E-mail: *orifakadem81@gmail.com*

Annotatsiya. *Mazkur tezisda xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlar asosida paxta tozalash korxonalarining moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish hamda uning aholi bandligi va kambag'allikni qisqartirishga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida Xitoy va O'zbekiston paxta tozalash korxonalarida moliyaviy boshqaruv mexanizmlari qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Xususan, pul oqimlarini rejalashtirish, likvidlikni ta'minlash, moliyaviy risklarni boshqarish hamda moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi asosiy farqlar aniqlangan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy mamlakatlarda moliyaviy boshqaruvning zamonaviy yondashuvlari pul oqimlari barqarorligini ta'minlash, likvidlik risklarini kamaytirish va investitsion faollikni oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tajribani milliy iqtisodiy sharoitga moslashtirgan holda joriy etish O'zbekiston paxta tozalash korxonalarida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda aholi bandligini ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *xorijiy tajriba, paxta tozalash korxonalari, moliyaviy boshqaruv, likvidlik, pul oqimlari, moliyaviy risklar, Xitoy, O'zbekiston.*

Kirish. Globallashuv jarayonlari chuqurlashib, xalqaro raqobat kuchayib borayotgan sharoitda sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi samarali moliyaviy boshqaruv tizimini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlashga ixtisoslashgan paxta tozalash korxonalarida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, pul oqimlarini samarali boshqarish hamda likvidlik barqarorligini ta'minlash korxonalarning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, moliyaviy boshqaruvning zamonaviy yondashuvlarini joriy etish pul oqimlari barqarorligini ta'minlash, likvidlik risklarini kamaytirish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi [1].

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasida korxonalarda moliyaviy boshqaruv tizimi korporativ boshqaruv tamoyillari asosida tashkil etilib, pul oqimlarini strategik rejalashtirish, risklarni oldindan baholash hamda moliyaviy monitoring tizimlarini qo'llash orqali korxona faoliyatining barqarorligi ta'minlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, paxta sanoatida yetakchi o'rinlardan

birini egallagan Xitoy tajribasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xitoy paxta sanoati yirik ishlab chiqarish hajmi, yuqori darajadagi texnologik jihozlanganlik hamda markazlashgan moliyaviy boshqaruv tizimi bilan ajralib turadi. Bu mamlakatda paxta tozalash korxonalarida moliyaviy boshqaruv ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy integratsiyalashgan bo‘lib, moliyaviy rejalashtirish, pul oqimlarini prognozlash va risklarni boshqarish mexanizmlari samarali yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston paxta tozalash korxonalari esa asosan davlat ishtiroki yuqori bo‘lgan iqtisodiy muhitda faoliyat yuritib, ishlab chiqarishning mavsumiyligi hamda moliyaviy resurslarning cheklanganligi bilan tavsiflanadi. Ushbu holat moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish va xorijiy tajribani o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi [2, 3].

Xitoy paxta tozalash korxonalarida moliyaviy boshqaruv xususiyatlari

Xitoy paxta tozalash korxonalarida moliyaviy boshqaruv tizimi asosan korporativ boshqaruv tamoyillari asosida shakllantirilgan bo‘lib, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Korxonalarda pul oqimlari markazlashgan tarzda rejalashtiriladi va moliyaviy faoliyat doimiy monitoring asosida boshqariladi. Moliyaviy risklar oldindan baholanib, ular yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan mexanizmlar joriy etilgan.

Likvidlikni ta’minlashda bank kreditlari, davlat subsidiyalari hamda uzoq muddatli moliyaviy instrumentlardan faol foydalaniladi. Bunda korxonalar uchun moliyaviy barqarorlikni ta’minlash maqsadida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ham muhim rol o‘ynaydi.

Xitoy tajribasining muhim jihatlaridan biri shundaki, moliyaviy boshqaruv ishlab chiqarish rejalari bilan uzviy bog‘langan. Paxta xomashyosini xarid qilish, uni qayta ishlash hamda tayyor mahsulotni realizatsiya qilish bosqichlari bo‘yicha pul oqimlari oldindan prognoz qilinadi. Bu esa korxonalarda likvidlik yetishmovchiligining oldini olish, moliyaviy risklarni kamaytirish va rentabellik darajasini barqaror saqlash imkonini beradi.

O‘zbekiston paxta tozalash korxonalarida moliyaviy boshqaruv holati

O‘zbekiston paxta tozalash korxonalarida moliyaviy boshqaruv tizimi asosan an’anaviy yondashuvlarga asoslanib, pul oqimlarini boshqarish ko‘p hollarda ishlab chiqarishning mavsumiy xususiyatlariga bog‘liq holda amalga oshiriladi. Xomashyo xaridi va qayta ishlash davrida moliyaviy resurslarga bo‘lgan talabning keskin ortishi natijasida likvidlik yetishmovchiligi kuzatilishi mumkin.

Korxonalarda debitorlik qarzlarining yuqori ulushi moliyaviy risklarni kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Amaliyotda moliyaviy risklarni boshqarish ko‘proq reaktiv xarakterga ega bo‘lib, risklar yuzaga kelgandan so‘ng choralar ko‘riladi. Pul oqimlarini prognozlash, moliyaviy rejalashtirish hamda risklarni oldindan baholash mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi korxonalarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [4].

Shu sababli paxta tozalash korxonalarida moliyaviy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish hamda pul oqimlarini strategik rejalashtirish tizimini joriy etish dolzarb vazifa

hisoblanadi.

Qiyosiy tahlil. Xitoy va O‘zbekiston paxta tozalash korxonalarida moliyaviy boshqaruv tizimlari turli iqtisodiy sharoitlar, institutsional muhit hamda korporativ boshqaruv tamoyillari asosida shakllangan. Shu sababli ularning moliyaviy boshqaruv jarayonlarini qiyosiy tahlil qilish pul oqimlarini rejalashtirish, likvidlikni ta’minlash, moliyaviy risklarni boshqarish hamda investitsion qarorlar qabul qilishdagi o‘ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Mazkur tahlil natijasida xorijiy tajribaning ilg‘or elementlarini milliy paxta tozalash korxonalari faoliyatiga joriy etish orqali moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish, korxonalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash hamda aholi bandligini ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi moliyaviy mexanizmlarni shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi.

1-jadval

Xitoy va O‘zbekiston paxta tozalash korxonalarida moliyaviy boshqaruvning qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkichlar	**Xitoy PTK**	**O‘zbekiston PTK**
Moliyaviy boshqaruv modeli	Markazlashgan, korporativ	Asosan markazlashgan, an’anaviy
Pul oqimlarini rejalashtirish	Prognozlash asosida	Cheklangan darajada
Likvidlikni ta’minlash	Kreditlar, subsidiyalar, investitsiyalar	Qisqa muddatli moliyalashtirish
Moliyaviy risklarni boshqarish	Oldindan baholash va monitoring	Reaktiv, riskdan keyingi choralar
Debitorlik qarzlarini boshqarish	Qat’iy nazorat va limitlar	Nazorat sust
Investitsion faollik	Yuqori	Nisbatan past

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Xitoy paxta tozalash korxonalarida moliyaviy boshqaruv tizimi tizimli yondashuv hamda prognozlash mexanizmlariga asoslangan holda tashkil etilgan. Bunda pul oqimlarini rejalashtirish, likvidlikni ta’minlash va moliyaviy risklarni oldindan baholash korxona boshqaruvining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. O‘zbekiston paxta tozalash korxonalarida esa moliyaviy boshqaruv ko‘proq mavjud moliyaviy resurslarni taqsimlashga qaratilgan bo‘lib, risklarni oldindan aniqlash va ularni samarali boshqarish mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan.

Mazkur holat paxta tozalash korxonalarida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, pul oqimlari hamda likvidlik bilan bog‘liq risklarni kamaytirish, shuningdek investitsion faollikni oshirish maqsadida moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Aynan shu jihatlar tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab, xorijiy va mahalliy tajribani qiyosiy o‘rganish asosida moliyaviy boshqaruv yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Xitoy paxta tozalash korxonalarining moliyaviy boshqaruv tajribasi pul oqimlarini strategik rejalashtirish, likvidlikni barqaror ta’minlash hamda moliyaviy risklarni oldindan boshqarish orqali korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash imkonini beradi. O‘zbekiston paxta

tozalash korxonalarida esa ushbu yo‘nalishlarda tizimli yondashuvni kuchaytirish, moliyaviy rejalashtirish va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tajribani to‘liq ko‘chirib olish emas, balki uni milliy iqtisodiy sharoitlar, institutsional muhit va tarmoq xususiyatlarini inobatga olgan holda moslashtirish orqali moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tezis keyingi bosqichda O‘zbekiston paxta tozalash korxonalarida moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi qarori bilan paxta va g‘allani qabul qilish hamda ularning elektron hisobini yuritish qoidalari tasdiqlandi” – Sputnik.uz xabaridan.

2. Van Horne J.C., Wachowicz J.M. Fundamentals of Financial Management. — 13th ed. - Harlow: Pearson Education, 2009. — 719 p.

3. Murodov O.J., Davlat korxonalarini isloh qilishning zamonaviy bosqichlari va O‘zbekistonning xususiylashtirish modeli//Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz. 2025-yil, oktyabr. № 10-son. 1492-1496-bet.

4. Murodov O.J. Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotida korxonalarning raqobat-bardoshligini oshirish omillari: Islohotlar, sertifikatsiya va iste’molchi talablari integratsiyasi. Guliston davlat universiteti axborotnomasi. Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2025. № 3. 193-197 bet.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIJORAT BANKLARIDA XALQARO TALABLAR VA STANDARTLARNI JORIY ETISH XUSUSIYATLARI

Tursunov Faridun Mustafoyevich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Bank ishi” kafedrasi assistenti
tursunovfaridun4330@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining tijorat banklarida xalqaro talablar va standartlari o’rganib chiqildi.Tijorat banklarining aktivlari va passivlarini boshqarishda xalqaro talablar va standartlarni joriy etishga hamda bank va moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish istiqbollariga ta’sir etuvchi o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlar va omillarni aniqlash muhim hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning tobora chuqurlashuvi tijorat banklari kapitalini samarali boshqarish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.*

Kalit so'zlar: *ISO standarti, kapital, tijorat banki, aktiv, tavakkalchilik, Bazel qo’mitasining xalqaro talablari va standartlari, kapitalning “Konservatsiya buferi”, xalqaro standartlar, korporativ resurslar, potentsial, Bazel I, Bazel II,*

Bazel III.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentabr PQ-3270 sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida O‘zbekiston banklarini zamonaviy ilg‘or tajribalar asosida xizmat ko‘rsatuvchi jahon miqiyosida raqobatbardosh moliyaviy muassasalarga aylantirish bo‘yicha bir qator vazifalar belgilangan[1]. Dolzarb vaziflar qatorida tijorat banklari o‘z faoliyatida ISO 9001:2015 “Sifatni boshqarish tizimi” standartini tatbiq etishlari lozimligi alohida qayd etilgan. Tijorat banklari faoliyatiga xalqaro me’yorlarni tatbiq qilishda ISO standartlari muhim element bo‘lib xizmat qiladi va moliyaviy muassasaning xalqaro miqiyosda nufuzini ko‘rsatib beradi. Shuningdek, mamlakatimiz moliya sektorida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish, risklarni boshqarishning zamonaviy tamoyillari joriy qilinmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni imzolangach, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan “raqamli” banklar va bank bo‘linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yanada kengaytirish vazifasi yuklatilgan[2].

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida xalqaro talablar va standartlarni hisobga olgan holda tijorat banklarining aktivlari va majburiyatlarini boshqarish muammolari ortib bormoqda. Ushbu xalqaro ko'rsatkichlarni samarali joriy etish bank faoliyati holatining o’ziga xos xususiyatlarini va ushbu jarayonga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va hisobga olishda mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bazel I bo'yicha kapitalning yetarliligi ko'rsatkichining etishmasligi shundaki, u faqat kredit tavakkalchiligiga yo'naltirilgan, aktivlar xavf darajasi bo'yicha yetarlicha farqlanmagan (bozor xavfi hisobga olinmagan) va ma'lum turdagi tavakkalchilik operatsiyalari uchun zaxiralarni yaratish talablari kam baholangan[3].

Har qanday bank tizimini barqarorligini, to‘lovga qobilligi va ishonchliligini ta‘minlashda, bank aktivlarini o‘stirishda bank kapitali muhim vosita bo‘lib hisoblanadi. Faqatgina yetarlicha miqdorda barqaror kapitalga ega tijorat banklari aktiv operatsiyalarini erkin amalga oshirishlari, talab etilgan darajada likvidlilikni doimo saqlagan holda samarali faoliyat yuritishlari hamda moliya bozorlariga erkin chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishadi[4]. Bank kapitali tijorat banki faoliyatida vujudga keladigan iqtisodiy tanglik hamda ziddiyatli vaziyatlar sharoitida xavfsiz “moliyaviy yostiq” vazifasini bajarishi bilan birga, bank kutilmaganda moliyaviy qiyinchilik va yo‘qotishlarga duch kelganda unga to‘lovga qobiliyati darajasini saqlab qolish va faoliyatini davom ettirish imkoniyatini beradigan moliyaviy manba hisoblanadi[5]. Bazel-III da bank kapitaliga oid qator yangi tushunchalar, jumladan «Bufer kapitali» deb atalgan tushuncha kiritilmoqda(1-rasm)[6].



1-rasm. “Bufer kapitali” turlari

Natijalar. Bozor munosabatlari sub’ektlariga xizmat ko'rsatadigan infratuzilma tizimlarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: ishlab chiqarish infratuzilmasi; savdo va xizmatlar infratuzilmasi; bank va moliyaviy infratuzilmalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar; ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish uchun infratuzilma; axborot - texnologik va aloqa infratuzilmasi xizmatlari. Bazel qo'mitasini asosiy vazifasi banklar faoliyatini nazorat qil ish va tartibga solish sohasida yagona standartlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hisoblanadi. Qo'mita ana shu maqsadda a'zo mamlakatlar uchun tavsiyalar ishlab chiqadi. Xalqaro hisob-kitoblar bankining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning 150 ga yaqin mamlakatida Bazel qo'mitasining bank nazoratiga oid talablari qo'llanilmoqda Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan asosiy hujjatlarga quyidagilar kiradi.

1. Samarali bank nazoratining asosiy tamoyillan. Ushbu hujjat 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2006-yilda qayta ko'rib chiqilgan;

2. Bazel I standarti. Ushbu standart 1988 yilda ishlab chiqilgan va amaliyotga 1993 yilda joriy etilgan;

3. Bazel II standarti. Ushbu standartni ishlab chiqish 2004- yilda nihoyasiga yetdi;

4. Bazel III standarti 2008-2009-yillardagi moliyaviy inqiroz oqibatlari bank nazorati bo'yicha Bazel qo`mitasini banklarning kapital yetarliligiga oid talablarni qayta ko'rib chiqishiga asos bo'ldi. Natijada, kapital yetarliligiga hamda likvidlilikka oid talablar tizimi ishlab chiqildi va bu Bazel III nomini oldi.

Regulyativ kapitalni yetarlilik koeffitsiyenti tijorat banklarini to‘lovga qobilligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

Shuningdek, Bazel standartiga ko‘ra, birinchi darajali kapitalni yetarliligi ham baholanadi va bunda birinchi darajali kapitalni yetarlilik koeffitsiyenti qo‘llaniladi.

Bazel-I standartida ko‘zda tutilgan kapitalni yetarliligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularning me‘yoriy darajalari(1-jadval).

Kapitalni yetarliligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularning me‘yoriy darajalari

№	Ko‘rsatkichlar	Me‘yoriy darajasi
1	Regulyativ kapitalni yetarlilik koeffitsiyenti	0,08
2	Birinchi darajali kapitalni yetarlilik koeffitsiyenti	0,04

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rish mumkinki, Bazel-I standartida tijorat banklarini birinchi darajali kapitali miqdorini reguyativ kapitalni yarmidan kam bo‘lmasligi belgilangan!

Xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan bank kapitali yetarligigiga doir kelishuv (Bazel I) ishlab chiqildi va unda kapital yetarliligini hisoblash maqsadida regulyativ kapital (umumiy kapital) tushunchasi amaliyotga joriy qilindi. Regulyativ kapital asosiy va qo‘shimcha kapitaldan tashkil topib, bank faoliyatini boshqarish va iqtisodiy me’yorlar hisob-kitobini o‘tkazish maqsadida hisoblash yo‘li bilan aniqlanadigan bank kapitalidir. Regulyativ kapitalni yetarlilik koeffitsiyenti tijorat banklarini to‘lovga qobilligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

Mamlakatimiz banklarida hamon qisqa muddatli manbalarni qisqa muddatli aktivga yo‘naltirish ko‘lami kattaligicha to‘g‘ri kelmoqda. Shunday ekan, tijorat banklarining uzoq muddatli aktivlarga qo‘yilma qilish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Bazel standartiga ko’ra asosiy kapital elementlari quyidagilardir:

1.Joriy yilning sof foydasi;

2. Sof foyda hisobidan shakllantirilgan zaxira summalari;

3. O‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi;

4. Emission daromad;

5.Ustav kapitalining to‘langan qismi (oddiy aksiyalar qiymati).

Bazel-III tavsiyalarini qo‘llashdan ko‘zlanayotgan asosiy maqsadlar bo’lib quyidagirarni keltirishimiz mumkin:

1. Bank sektorini moliyaviy-iqtisodiy tanglikdan kelib chiqadigan inqirozlarga qarshi tura olish imkoniyatini oshirish;

2. Risk-menejment va boshqaruv sifatini oshirish;

3. Banklar faoliyati, kapital bazasi shaffofligini (transparentligi) kuchaytirish.

Hozirgi kunda respublikamiz banklarining fond bozoridagi operatsiyalari ko‘lami kichikligicha qolmoqda. Bu miqyosni tubdan qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Bu maqsadlar yo’lida xalqaro standartlar me’yorlariga rioya etishlik maqsadga muvofiq bo’ladi deb hisoblaymiz.

Xulosa. Xalqaro Bazel qo‘mitasi tomonidan bank kapitali yetarligigiga doir kelishuv (Bazel I) ishlab chiqildi va unda kapital yetarliligini hisoblash maqsadida regulyativ kapital (umumiy kapital) tushunchasi amaliyotga joriy qilindi. Regulyativ kapital asosiy va qo‘shimcha kapitaldan tashkil topib, bank faoliyatini boshqarish va iqtisodiy me’yorlar hisob-kitobini o‘tkazish maqsadida hisoblash

yo‘li bilan aniqlanadigan bank kapitalidir.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida xalqaro talablar va standartlarni hisobga olgan holda tijorat banklarining aktivlari va majburiyatlarini boshqarish muammolari ortib bormoqda. Bu muammolarni bartaraf etish yo’lida xalqaro standart va me’yorlardan foydalanish maqsadga uvofiq bo’ladi deb o’ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 12.09.2017 yildagi PQ-3270-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2018 yildagi PF-5296-son.
3. Базельский комитет по банковскому надзору. Международная Конвергенция Оценка Капитала и Стандарты Капитала. Базель, 2002,-425 с.
4. Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. “Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fanidan o‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamISI, 2020. 240 bet.
5. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2017. 768 b.
6. U. Azizov, T. Karaliyev, T. Boboqulov va boshqalar. “Bank ishi” darslik. T.: “Fan va texnologiya”. 2016. 640 bet.
7. Федеральный Закон «Об инвестиционнооой деятельности в Российской Федерации, осушествляемой в форме капитальных вложений» от 25 февраля 1999 года, №39-ФЗ, 1-статья.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, 2019 yil 25 dekabr, 3-modda. // www.lex.uz.
9. https://cbu.uz/uz/statistics/financing/72798/-internet resurs.

INTERNET BANKING ELEKTRON TO‘LOV TIZIMI: RAQAMLI BANKINGNING ZAMONAVIY KO‘RINISHI

Xolikulov O‘ktam Abdumo‘minovich
Samarqand iqtisodiyot va servis institute, “Bank ishi” kafedrasi o‘qituvchisi
Ruzimurodov Shohro’zjon
Samarqand iqtisodiyot va servis institute, XIM-123 guruh talabasi
Isoqulov Shoxruz
Samarqand iqtisodiyot va servis institute, XIM-123 guruh talabasi

Annotatsiya *Mazkur maqolada internet banking elektron to‘lov tizimining texnologik negizlari, xavfsizlik mexanizmlari hamda O‘zbekistondagi rivojlanish yo‘nalishlari o‘rganiladi. Zamonaviy bank xizmatlarining raqamli o‘zgarishlari, ochiq bank (open banking) prinsiplari, ko‘p bosqichli autentifikatsiya va biometrik identifikatsiya kabi himoya vositalari bayon etilgan. Shuningdek, mavjud qiyinchiliklar – raqamli tafovut, moliyaviy savodxonlik, kiberxavfsizlik borasidagi mutaxassislar yetishmovchiligi – xalqaro standartlar (PSD2, PCI*

DSS) bilan uyg‘unlikda ko‘rib chiqilgan. oid amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *internet-banking, elektron to‘lov tizimi, ochiq bank, autentifikatsiya, kiberxavfsizlik, moliyaviy inklyuziya.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются технологические основы системы интернет-банкинга и электронных платежей, механизмы обеспечения безопасности, а также направления развития в Узбекистане. Освещены цифровые трансформации современных банковских услуг, принципы открытого банкинга (open banking), многофакторная аутентификация и биометрическая идентификация как инструменты защиты. Кроме того, существующие вызовы – цифровой разрыв, финансовая грамотность, нехватка специалистов в области кибербезопасности – проанализированы в соответствии с международными стандартами (PSD2, PCI DSS).*

Ключевые слова: *интернет-банкинг, электронная платежная система, открытый банкинг, аутентификация, кибербезопасность, финансовая инклюзия.*

Annotation: *This article examines the technological foundations of the internet banking electronic payment system, its security mechanisms, and development trends in Uzbekistan. It highlights the digital transformation of modern banking services, open banking principles, multi-factor authentication, and biometric identification as security tools. Existing challenges – the digital divide, financial literacy, and the shortage of cybersecurity specialists – are analyzed in alignment with international standards (PSD2, PCI DSS).*

Keywords: *internet banking, electronic payment system, open banking, authentication, cybersecurity, financial inclusion.*

Kirish. Raqamli iqtisodiyot davrida internet-banking elektron to‘lov tizimi an’anaviy bank xizmatlarini butunlay o‘zgartirib, ularni masofaviy, tezkor va shaxsiylashtirilgan shaklga olib keldi. Ushbu tizim foydalanuvchilarga vaqt va joy cheklovlarisiz o‘z hisoblarini boshqarish, to‘lovlarni amalga oshirish va kredit mahsulotlaridan foydalanish imkonini beradi. Dunyo moliya tizimida internet-bankingning jadal rivojlanishi, ayniqsa Yevropa Ittifoqining PSD2 direktivasi, ochiq bank prinsiplarini tatbiq etish va fintex kompaniyalari bilan integratsiyani zaruriy holga keltirgan. O‘zbekistonda 2017-yildan keyin amalga oshirilgan bank islohotlari tufayli masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2025-yil boshlarida 22 million nafardan oshgan, mobil ilovalar yordamida bajarilgan to‘lovlar hajmi esa yiliga o‘rtacha 35–40 foizga ortib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Texnologik tomondan zamonaviy internet-banking tizimlari uch qatlamli arxitektura asosida qurilgan: mijoz interfeysi (mobil dastur, veb-sayt), dasturiy yadro (autentifikatsiya, API boshqaruvi) va markaziy bank tizimi (core banking, ma’lumotlar ombori). So‘nggi yillarda ochiq API arxitekturasi tufayli banklar o‘z ma’lumotlarini fintex kompaniyalari, buxgalteriya dasturlari va elektron savdo platformalari bilan bo‘lishish imkoniyatiga ega bo‘ldi, bu esa foydalanuvchilarga yagona interfeys orqali turli moliyaviy

xizmatlardan foydalanish imkonini yaratdi. Biroq ochiq tarmoqda ishlash tizimni kiberxavf-xatarlarga nisbatan zaiflashtiradi. Fishing (soxta bank sahifalari), sim-swapping (SIM-kartani almashtirish) va zararli dasturlar yordamida seanslarni o‘g‘irlash eng ko‘p tarqalgan hujum turlari hisoblanadi. Ushbu tahdidlarga qarshi xalqaro tajribada ko‘p omilli autentifikatsiya (maxfiy so‘z, bir martalik SMS-kod va biometrik ma’lumotlarni birgalikda talab qilish), tokenizatsiya (to‘lov ma’lumotlarini noyob raqamli tokenlar bilan almashtirish) va xulq-atvorni tahlil qilish (sun’iy intellekt yordamida noodatiy operatsiyalarni bloklash) kabi mexanizmlar qo‘llaniladi.

Muammolar va takliflar. O‘zbekistonda internet-banking rivojlanishi bilan birga bir nechta tizimli muammolar ham mavjud. Raqamli tafovut – qishloq joylarida internet-bankingdan foydalanish darajasi shaharlarga nisbatan 2,5 baravar past. Moliyaviy savodxonlik – 50 yoshdan oshgan fuqarolarning atigi 34 foizi mobil banking xizmatlaridan foydalanadi, asosiy sabablar xavfsizlikka ishonchsizlik va interfeysning murakkabligidir. Kiberxavfsizlik sohasidagi mutaxassislarning yetishmovchiligi – bank tizimidagi IT-xodimlarning faqat 12 foizi xalqaro sertifikatlarga (CISSP, CISM) ega. Normativ bazaning moslashuvchanligi – kriptoaktivlar va markazlashmagan moliya (DeFi) bilan bog‘liq operatsiyalar hali yetarlicha qonuniy jihatdan tartibga solinmagan. Shu bilan birga, xalqaro standartlar – PSD2, PCI DSS va ISO 27001 – O‘zbekistonning “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi qonuni (2019) orqali qisman uyg‘unlashtirilgan bo‘lsa-da, ochiq API interfeyslarining to‘liq o‘zaro ishlash imkoniyati va ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha GDPR darajasidagi kafolatlar hali joriy qilinmagan.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, internet-banking elektron to‘lov tizimi raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarining asosiy yetkazish kanaliga aylangan. U nafaqat foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi, balki iqtisodiyotning shaffofligini oshiradi, soliq bazasini kengaytiradi va moliyaviy inklyuziyani mustahkamlaydi. O‘zbekistonda bu sohada qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar – foydalanuvchilar sonining ko‘payishi, mobil ilovalar sifatining yaxshilanishi va normativ-huquqiy bazaning takomillashuvi – muhim ahamiyatga ega. Biroq kiberxavfsizlik madaniyati, hududiy qamrov va ochiq bank prinsiplarini to‘liq joriy etish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu muammolarning hal etilishi xalqaro moliya tizimiga integratsiyani chuqurlashtiradi va mamlakatning raqamli moliyaviy xizmatlar bo‘yicha raqobatbardoshligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). *Masofaviy bank xizmatlari to‘g‘risidagi hisobot*. Toshkent.

2. Yevropa bank boshqarmasi. (2023). *PSD2 direktivasining tatbiqi yuzasidan xulosa*. Parij.

3. Xalqaro hisob-kitoblar banki. (2024). *Raqamli to‘lovlar manzarasi*. Bazel.

4. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. (2022). *“Banklarning axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha talablar”ni tasdiqlash haqida (qaror №124)*. Toshkent.

5. PCI xavfsizlik standartlari kengashi. (2023). *PCI DSS v4.0: o‘zgarishlar xulosasi*. Ueykfild.

ISHLAB CHIQARISH NAZARIYASI, XARAJATLAR TAHLILI, TALAB VA FOYDANI MAKSIMALLASHTIRISH

Shadiyeva Gulnora Mardiyevna
SamISI professori
Abdullayeva Gulrux Erkin qizi
SamISI magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ishlab chiqarish jarayoni, xarajatlar tarkibi, bozor talabi hamda foydani maksimallashtirishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda ishlab chiqarish funksiyasi, umumiy xarajatlar va foyda tenglamalari orqali korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish hajmini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va bozor talabini hisobga olish korxona foydasini oshirishning muhim omili ekanligi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ishlab chiqarish, xarajatlar, talab, foyda, ishlab chiqarish funksiyasi, chegaraviy daromad, chegaraviy xarajat, iqtisodiy samaradorlik.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические основы производства, структуры издержек, рыночного спроса и максимизации прибыли. В исследовании на основе производственной функции, уравнений общих издержек и прибыли проводится научный анализ экономической эффективности деятельности предприятия. Также обосновывается, что оптимизация объема производства, снижение издержек и учет рыночного спроса являются важными факторами повышения прибыли предприятия.*

Ключевые слова*: производство, издержки, спрос, прибыль, производственная функция, предельный доход, предельные издержки, экономическая эффективность.*

Annotation. *This article analyzes the theoretical foundations of production, cost structure, market demand, and profit maximization. The study examines the economic efficiency of enterprise activity based on production function, total cost, and profit equations. It also highlights that optimizing production volume, reducing costs, and considering market demand are important factors for increasing enterprise profit.*

Keywords: *production, costs, demand, profit, production function, marginal revenue, marginal cost, economic efficiency.*

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining asosiy maqsadi mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali maksimal iqtisodiy natijaga erishishdan iborat hisoblanadi. Ushbu jarayonda ishlab chiqarish hajmini aniqlash, xarajatlarni optimallashtirish, bozor talabini chuqur o‘rganish hamda foydani maksimal darajaga yetkazish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Korxona faoliyatining samaradorligi aynan ushbu omillarning o‘zaro uyg‘unligi bilan belgilanadi. Iqtisodiy nazariyada ishlab chiqarish, xarajatlar, talab va foyda kategoriyalari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning har biri alohida iqtisodiy mazmun va tahliliy ahamiyatga ega.

Bozor mexanizmi sharoitida ishlab chiqaruvchi subyektlar nafaqat mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga, balki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, talabga mos mahsulot taklif qilish hamda foydani maksimal darajada oshirishga intiladi. Bu jarayon iqtisodiy nazariyada foydani maksimallashtirish tamoyili sifatida talqin etiladi. Mazkur tamoyilga ko‘ra, korxona shunday ishlab chiqarish hajmini tanlashi kerakki, unda daromadlar xarajatlardan maksimal darajada ortiq bo‘lsin. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqarish nazariyasi, xarajatlar tahlili, talab qonuniyatlari hamda foydani maksimallashtirish mexanizmlarini kompleks ravishda o‘rganish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy mohiyati, xarajatlarning shakllanishi, talabning ishlab chiqarish qarorlariga ta’siri hamda foydani maksimallashtirishning nazariy asoslari o‘zbek iqtisodiy adabiyotlari asosida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Iqtisodiy nazariyada ishlab chiqarish jarayoni resurslar – ya’ni mehnat, kapital, yer va tadbirkorlik qobiliyatidan foydalanish orqali mahsulot yoki xizmatlar yaratish jarayoni sifatida talqin etiladi. Ishlab chiqarish hajmi ishlab chiqarish omillarining o‘zaro kombinatsiyasi orqali belgilanadi. Bu jarayonni iqtisodiy jihatdan ifodalash uchun ishlab chiqarish funksiyasi qo‘llaniladi. Ishlab chiqarish funksiyasi ishlab chiqarish omillari bilan ishlab chiqarish hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Umumiy ko‘rinishda ishlab chiqarish funksiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$Q = f(K, L)$$

bu yerda Q – ishlab chiqarish hajmi, K – kapital resurslari, L – mehnat resurslari hisoblanadi.

Mazkur funksiya ishlab chiqarish hajmining resurslar miqdoriga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Agar korxona qo‘shimcha mehnat yoki kapital jalb qilsa, ishlab chiqarish hajmi oshadi. Biroq iqtisodiy nazariyada kamayib boruvchi chegaraviy mahsuldorlik qonuni mavjud bo‘lib, unga ko‘ra ishlab chiqarish omillaridan biri o‘zgarmagan holda boshqasining ortib borishi ma’lum bir bosqichdan keyin ishlab chiqarish hajmining nisbatan sekin o‘sishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish jarayonida muhim o‘rin tutuvchi iqtisodiy kategoriya xarajatlardir. Xarajatlar korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonida sarflaydigan resurslarining puldagi ifodasidir. Xarajatlar tarkibi doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlardan iborat bo‘ladi. Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar bo‘lib, ularga binolar ijarasi, amortizatsiya, boshqaruv xarajatlari kiradi. O‘zgaruvchan xarajatlar esa ishlab chiqarish hajmiga

to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib, xomashyo, energiya, ish haqi kabi xarajatlarni o‘z ichiga oladi.

Korxonaning umumiy xarajatlari quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$TC = FC + VC$$

bu yerda *TC* – umumiy xarajatlar, *FC* – doimiy xarajatlar, *VC* – o‘zgaruvchan xarajatlar hisoblanadi.

Xarajatlar tahlili korxona faoliyatining samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Agar korxona ishlab chiqarish hajmini oshirsa, o‘zgaruvchan xarajatlar ortadi, ammo doimiy xarajatlar bir birlik mahsulotga nisbatan kamayadi. Shu sababli korxonalar ishlab chiqarish hajmini shunday darajada tanlashga harakat qiladiki, bunda o‘rtacha xarajatlar minimal darajaga tushadi. Bozor iqtisodiyotida ishlab chiqarish qarorlariga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri talab hisoblanadi. Talab iste’molchilarning ma’lum narx darajasida sotib olishga tayyor bo‘lgan mahsulot miqdorini ifodalaydi. Talab qonuniga ko‘ra, mahsulot narxi oshgan sari talab hajmi kamayadi, narx pasaygan sari esa talab ortadi. Bu holat talab egri chizig‘ining manfiy qiyalikka ega ekanligini ko‘rsatadi.

Talabni o‘rganish korxonalar uchun muhim strategik ahamiyatga ega. Chunki ishlab chiqarilgan mahsulotning bozorda sotilishi aynan talab hajmiga bog‘liq. Agar korxona bozor talabini to‘g‘ri baholay olmasa, ortiqcha ishlab chiqarish yoki mahsulot tanqisligi yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli zamonaviy korxonalar marketing tadqiqotlari orqali iste’molchilar ehtiyojlarini chuqur o‘rganishga katta e’tibor qaratadi. Talab bilan bir qatorda taklif ham muhim iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Taklif ishlab chiqaruvchilarning ma’lum narx darajasida bozorda sotishga tayyor bo‘lgan mahsulot miqdorini ifodalaydi. Bozor muvozanati talab va taklif kesishgan nuqtada shakllanadi. Bu nuqtada muvozanat narxi va muvozanat hajmi yuzaga keladi.

Korxona faoliyatining asosiy maqsadi foydani maksimal darajaga yetkazishdan iborat. Foyda korxona daromadi bilan xarajatlari o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Agar daromad xarajatlardan yuqori bo‘lsa, korxona foyda oladi; aks holda zarar yuzaga keladi.

Foyda quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\pi = TR - TC$$

bu yerda π – foyda, *TR* – umumiy daromad, *TC* – umumiy xarajatlar hisoblanadi.

Umumiy daromad esa mahsulot narxi bilan sotilgan mahsulot miqdorining ko‘paytmasiga teng bo‘ladi. Demak, korxona foydasini oshirish uchun ikki asosiy yo‘nalishda harakat qilishi mumkin: mahsulot sotish hajmini oshirish yoki xarajatlarni kamaytirish.

Iqtisodiy nazariyada foydani maksimallashtirish sharti chegaraviy daromad va chegaraviy xarajatlar teng bo‘lgan nuqtada yuzaga keladi. Bu shart quyidagicha ifodalanadi:

$$MR = MC$$

bu yerda *MR* – chegaraviy daromad, *MC* – chegaraviy xarajat hisoblanadi.

Agar chegaraviy daromad chegaraviy xarajatlardan yuqori bo‘lsa, korxona ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali qo‘shimcha foyda olishi mumkin.

Aksincha, agar chegaraviy xarajatlar chegaraviy daromaddan yuqori bo‘lsa, ishlab chiqarishni qisqartirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydani maksimallashtirish jarayonida korxonalar turli strategiyalardan foydalanadi. Ulardan biri ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, resurslardan oqilona foydalanishga hamda xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Yana bir muhim omil – mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardoshligini ta’minlashdir. Bozor sharoitida iste’molchilar sifatli mahsulotni tanlashga moyil bo‘ladi. Shu sababli korxonalar innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali yangi mahsulot turlarini yaratishga intiladi.

Marketing strategiyasi ham foydani oshirishda muhim rol o‘ynaydi. To‘g‘ri tanlangan narx siyosati, reklama faoliyati va savdo tarmoqlarini rivojlantirish orqali korxonalar mahsulot sotish hajmini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ham ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Raqamli boshqaruv tizimlari ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, resurslar sarfini nazorat qilish hamda xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Natijada korxonaning umumiy iqtisodiy samaradorligi oshadi. Bundan tashqari, davlat iqtisodiy siyosati ham korxonalar faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Soliq imtiyozlari, investitsiya dasturlari va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash choralari ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga hamda foydani oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli ishlab chiqarish, xarajatlar va foyda o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishda makroiqtisodiy omillarni ham hisobga olish muhimdir.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish, xarajatlar, talab va foyda kategoriyalari bozor iqtisodiyoti tizimining o‘zaro bog‘liq elementlari hisoblanadi. Korxona faoliyatining samaradorligi aynan ushbu omillar o‘rtasidagi muvozanatga bog‘liq. Ishlab chiqarish hajmini optimal darajada tanlash, resurslardan samarali foydalanish hamda xarajatlarni nazorat qilish korxonaning barqaror rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Xarajatlar tahlili korxonalarga ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Talabni chuqur o‘rganish esa korxonaga bozor kon’yunkturasini to‘g‘ri baholash, mahsulot ishlab chiqarish hajmini rejalashtirish va marketing strategiyasini ishlab chiqishda yordam beradi. Talab va taklif o‘rtasidagi muvozanat ishlab chiqarish hajmini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Foydani maksimallashtirish jarayoni esa korxona boshqaruvining asosiy maqsadi bo‘lib, u daromadlarni oshirish va xarajatlarni kamaytirish orqali amalga oshiriladi. Chegaraviy daromad va chegaraviy xarajatlar tengligi sharti korxona uchun optimal ishlab chiqarish hajmini aniqlash imkonini beradi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, marketing faoliyatini rivojlantirish hamda boshqaruv tizimlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash siyosati ham korxonalar faoliyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, ishlab chiqarish, xarajatlar, talab va foydani

maksimallashtirish masalalarini kompleks o‘rganish korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, bozor raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. A.Abdullayev, F.Qodirov (2021). Iqtisodiy nazariya. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. A.Karimov (2020). Mikroiqtisodiyot. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. D.Raximov (2019). Bozor iqtisodiyoti nazariyasi. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Toshkent.
5. Sodiqov, B., & Jo‘rayev, Q. (2021). Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
6. Xudoyberdiyev, J. (2020). Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: Fan nashriyoti.
7. Yuldashev, M. (2022). Iqtisodiy tahlil asoslari. Toshkent: Tafakkur nashriyoti.

TA’LIM VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI KAMBAG’ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH: IMKONIYATLAR VA YECHIMLAR

Djurayeva Maxzuna Azamovna
Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti,
Iqtisodiyot kafedrasi o`qtuvchisi
Mavlonova Zebiniso Azizbekovna
Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti,
Iqtisodiyot 2-bosqich talabasi
Email: mavlonovazebiniso99@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola ta’lim va raqamli texnologiyalar orqali kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirishning samarali usullarini o‘rganadi. Unda malaka oshirish, professional ko‘nikmalarni rivojlantirish va e-learning platformalari yordamida yangi ish o‘rinlarini yaratishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida duch kelinadigan muammolar, imkoniyatlar va ularni samarali hal etish bo‘yicha yechimlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot ta’lim va innovatsion yechimlar yordamida iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, bandlikni oshirish va ijtimoiy faollikni rag‘batlantirish imkoniyatlarini ta’kidlaydi.

Kalit so’zlar: Ta’lim, raqamli texnologiyalar, kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligi, malaka oshirish

Аннотация. В данной статье рассматриваются эффективные способы

сокращения бедности и повышения занятости с помощью образования и цифровых технологий. Анализируется социально-экономическая значимость повышения квалификации, профессионального обучения и создания новых рабочих мест через платформы электронного обучения. Также рассматриваются проблемы и возможности использования цифровых технологий и предлагаются эффективные решения. Исследование подчеркивает потенциал образования и инновационных решений для снижения экономического неравенства, увеличения занятости и стимулирования социально-экономической активности.

Ключевые слова: Образование, цифровые технологии, сокращение бедности, занятость, повышение квалификации

Abstract. This article examines the effective ways in which education and digital technologies can reduce poverty and increase employment. It analyzes the social and economic significance of skill development, professional training, and the creation of new jobs through e-learning platforms. The article also considers the challenges and opportunities in using digital technologies and proposes effective solutions. The study emphasizes the potential of education and innovative solutions to decrease economic inequality, boost employment, and promote socio-economic activity.

Keywords: Education, digital technologies, poverty reduction, employment, skill development

Kirish. Global iqtisodiy va ijtimoiy kontekstda ta’lim va raqamli texnologiyalar kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda kambag‘allik darajasi sezilarli darajada pasaygan: 2023 yilda 11,0% bo‘lgan milliy kambag‘allik 2024 yilda 8,9% ga tushdi (World Bank L2CU, 2025). Shu bilan birga, aholining qariyb 67–68%i tadbirkorlik va jamoat bozorida ish bilan band bo‘lib, ish bilan bandlik barqarorligini saqlab kelmoqda (Statistika Agentligi, 2025). Biroq qishloq hududlarida va past ta’limli oilalarda daromadlar past bo‘lib, bandlik imkoniyatlari cheklangan bo‘lib qolmoqda. Jahon banki va UNESCO tahlillari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim darajasining oshishi kambag‘allikni sezilarli darajada kamaytiradi: barcha aholining o‘rta ta’limni tamomlashi global kambag‘allikni yarimga qisqartirib, 420 milliondan ortiq odamni kambag‘allikdan chiqarishga yordam beradi (UNESCO, 2017). Ta’lim insonlarni malakali qilib, barqaror daromad va bandlikka yetaklovchi kuch sifatida ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Raqamli texnologiyalar, xususan onlayn ta’lim vositalari, iqtisodiy faollikni oshirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. 2023 yil boshida O‘zbekistonda 26,74 million nafar internet foydalanuvchisi mavjud bo‘lib, bu aholining 76,6% ini tashkil etdi (DataReportal, 2023), qishloq aholisi orasida internetga ulanish 2025 yilda 93,9% ga yetdi (Dunyo IA, 2025). Mobil aloqa qamrovi 91,2% darajasiga ko‘tarilgan (DataReportal, 2023), bu esa onlayn kurslar, masofaviy ish va moliyaviy xizmatlarga keng kirishni ta’minlaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida ish bilan ta’minlanganlar sonining oshishi raqamli iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta’sirini ko‘rsatadi: 2023 yilda bu sohada

87,8 ming nafar kishi ish bilan band bo‘lgan (UNDP, 2025). E-learning va mobil ta’lim platformalari orqali yoshlar zamonaviy kasb-ko‘nikmalarni egallashi, fintech ilovalari orqali kambag‘al oilalarga mikroqarz va omonat xizmatlari yetkazilishi mumkin, bu esa kambag‘allikni kamaytirish va bandlikni oshirishda bevosita rol o‘ynaydi.

Shu asosda ushbu maqola O‘zbekistonda ta’lim va raqamli texnologiyalar orqali kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni oshirish imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot onlayn ta’lim, mobil ta’lim platformalari, raqamli moliyaviy xizmatlar va masofaviy ishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholaydi va mamlakat sharoitiga mos innovatsion yechimlarni aniqlashga yordam beradi. Maqsad — mavjud muammolarni ko‘rsatib, ularni hal etish yo‘llarini taklif qilish va ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishda ta’lim hamda raqamli texnologiyalarning rolini yoritish.

Asosiy qism. Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda ta’lim va raqamli texnologiyalar orqali kambag‘allikni kamaytirish va aholi bandligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida milliy va xalqaro manbalar tahlil qilindi, bandlik, ta’lim va raqamli platformalardan foydalanish darajalari o‘rganildi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalar asosida ta’lim va raqamli vositalarning kambag‘allikni kamaytirish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga ta’siri baholandi. Tadqiqot sifat va miqdoriy yondashuvlarni birlashtirib, mamlakat sharoitiga mos innovatsion yechimlarni aniqlashga intildi. Shu yondashuv orqali nafaqat ta’limning malaka oshirish va ish imkoniyatlarini yaratishdagi roli, balki raqamli texnologiyalar orqali iqtisodiy va ijtimoiy faollikni oshirishning samaradorligi ham o‘rganildi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta’lim darajasining oshishi va raqamli texnologiyalarga keng kirish kambag‘allikni kamaytirish va bandlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi. E-learning va mobil ta’lim platformalari orqali yoshlar zamonaviy kasb-ko‘nikmalarni egallashi, past daromadli oilalarga raqamli moliyaviy xizmatlar orqali qo‘shimcha imkoniyatlar yaratilishi mumkin. Bu nafaqat bandlikni oshiradi, balki kambag‘allikni kamaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni bartaraf etishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘rta ta’limni tamomlagan aholining ish va daromad imkoniyatlari sezilarli darajada oshadi, bu esa iqtisodiy barqarorlik va shaxsiy daromadning o‘sishiga olib keladi.

Raqamli texnologiyalar ayniqsa qishloq hududlari va past ta’limli qatlamlar uchun ijtimoiy-iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish va kambag‘allikni kamaytirishda innovatsion vosita sifatida ahamiyat kasb etadi. Mobil ilovalar, onlayn kurslar va masofaviy ish imkoniyatlari ta’lim va ish bilan bandlikning yangi shakllarini yaratadi, bu esa kambag‘al qatlamni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish imkonini kengaytiradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ta’lim va raqamli texnologiyalarga sarmoya kiritish ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, aholi bandligini oshirish va mamlakatda barqaror rivojlanishga erishish uchun muhim va samarali strategiya hisoblanadi. Shu asosda, mamlakat sharoitiga mos innovatsion yechimlar ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi.

Ushbu tahlil natijalaridan kelib chiqib, ta’lim va raqamli texnologiyalarning kambag‘allikni kamaytirish va bandlikni oshirish jarayoni bir nechta o‘zaro bog‘langan mexanizm orqali amalga oshadi: birinchidan, ta’lim inson kapitalini oshirib, shaxslarning bozor uchun qiymatli ko‘nikmalarni egallashiga imkon beradi va shu orqali barqaror daromad manbalariga yo‘naltiradi; ikkinchidan, raqamli platformalar an’anaviy infratuzilma va geografik cheklovlarni yumshatadi, shu bilan qishloq hududlari va marginal guruhlarga ham ta’lim—o‘qish va ish bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi; uchinchidan, raqamli moliyaviy xizmatlar va ish-platformalari (fintech, mikrokredit, onlayn bozorlar) kichik tadbirkorlik va mustaqil ish imkoniyatlarini sodda, tez va shaffof tarzda taqdim etadi, bu esa iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi. Shu mexanizmlar sinergetik ta’sir ko‘rsatganda, ta’lim orqali olingan ko‘nikmalar raqamli vositalar yordamida bozorga tezroq eksport qilinadi — masalan, onlayn kurslar bilan olingan malaka freelancing, masofaviy xizmatlar yoki kichik biznes boshlashga aylanishi mumkin.

Biroq ushbu imkoniyatlar faqatgina texnologiya mavjudligi bilan tugamaydi: raqamli inklyuziya (qurilma va barqaror internet), raqamli savodxonlik, ta’lim kontenti sifati va ish bozoriga moslik kabi omillar muvaffaqiyatni belgilovchi mezonlardir. Misol uchun, raqamli infratuzilma va internet qamrovi kengaygani mamlakatda onlayn imkoniyatlarni oshirmoqda — DataReportal ma’lumotiga ko‘ra, 2023 yil boshida internet foydalanuvchilari soni 26.74 millionga teng, ya’ni aholining taxminan 76.6% ini tashkil etgani qayd etilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy siyosat va iqtisodiy sharoitlarning yaxshilanishi kambag‘allikni pasaytirishda muhim rol o‘ynaydi — World Bank’ning L2CU monitoringi kabi tadbirlar jamiyatdagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadi va siyosat yo‘naltirishida yordam beradi.

Amaliy nuqtai nazardan qaraganda, samarali strategiya bir nechta parallel choralarni talab qiladi. Avvalo, ta’lim kontentini mahalliy til va ish bozori talablariga moslashtirish, mikro-kredit yoki start-capital bilan bog‘langan micro-credentials (qisqa muddatli, ishga yo‘naltirilgan sertifikatlash) joriy etish zarur — bu bitiruvchiga darhol ish topish yoki o‘z xizmatini sotishni boshlash imkonini beradi. Ikkinchidan, blended learning (onlayn kontent + mahalliy amaliy markazlar va mentorlik) tizimi ta’lim sifati va amaliy tajriba uyg‘unligini ta’minlab, o‘rgangan bilimlarni real ish vazifalariga aylantirishni tezlashtiradi. Uchinchidan, raqamli moliyalashtirish va bozor platformalari bilan integratsiya: kurs bitiruvchilariga mikrokredit va biznes-voucherlar ajratish, hamda mahalliy freelance/bozor platformalarini rivojlantirish orqali daromad hosil qilish imkoniyatlari bevosita ta’minlanadi. To‘rtinchidan, raqamli savodxonlik dasturlari va o‘qituvchilarni raqamli pedagogika bo‘yicha tayyorlash orqali ta’limning barqarorligini oshirish kerak.

Shuningdek, siyosat va dasturlarni loyihalashda maqsadli yondashuv zarur: ayollar, qishloq hududlari va nogironligi bo‘lganlar kabi zaif guruhlarga voucher va subsidiyalar orqali boshlang‘ich kirishni ta’minlash, hamda mintaqaviy pilot loyihalar orqali qaysi metodlar samaraliroq ekanini aniqlash lozim. Monitoring va baholash tizimi — M&E indikatorlari orqali (ishga joylashish darajasi, daromad o‘sishi, kursni muvaffaqiyatli tamomlash, gender/tuman bo‘yicha effekt) —

dastur samaradorligini doimiy o‘lchashga imkon beradi; buning uchun ma’lumotlar bazalarini integratsiyalash va L2CU kabi monitoring instrumentlaridan foydalanish siyosatni moslashtirishda hal qiluvchi bo‘ladi. Metodik jihatdan esa, samaradorlikni aniqlash uchun randomizatsiyalangan kontrolli tadqiqotlar (RCT) va uzoq muddatli follow-up kuzatuvlar zarur, chunki qisqa muddatli kurs bitiruvchilarning daromadiga bo‘lgan ta’sirni barqaror qilib baholash uchun vaqt talab etiladi.

Oxirida, tizimli va koordinatsiyalangan yondashuv — infratuzilmaviy investitsiyalar (internet va qurilmalar), ta’lim sifati va sertifikatlash, raqamli moliyalashtirish instrumentlari hamda maqsadli monitoringni birlashtirgan holda — ta’lim va raqamli texnologiyalar orqali kambag‘allikni kamaytirish va bandlikni oshirishning eng real yo‘li hisoblanadi. Amaliy g‘oyalar sifatida birinchi bosqichda kichik hajmdagi pilot xususiy–davlat hamkorlik loyihalarini ishga tushirishni, ikkinchi bosqichda muvaffaqiyatli modelni mahalliylashtirib kengaytirishni va uchinchi bosqichda doimiy monitoring orqali siyosatni takomillashtirishni taklif qilaman. Bu yo‘l bilan texnologiya va ta’lim o‘rtasidagi sinergetik imkoniyat O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshirishga real hissa qo‘sha oladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda ta’lim va raqamli texnologiyalar orqali kambag‘allikni kamaytirish va bandlikni oshirish imkoniyatlarini baholadi va amaliy yechimlarni ilgari surdi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, ta’lim darajasi oshishi va zamonaviy raqamli platformalardan keng foydalanish shaxslar va oilalar uchun barqaror daromad manbalarini yaratadi, ish bozoriga moslashuvchanlikni oshiradi va ijtimoiy-iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi. E-learning, blended learning, mobil ta’lim ilovalari va fintech yechimlari kambag‘al qatlam uchun yangi imkoniyatlar ochadi, shu bilan birga gender, yosh va hududiy tafovutlarni kamaytirishga yordam beradi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, muvaffaqiyatli strategiya bir nechta integratsiyalangan choralarni talab qiladi: ta’lim kontentini mahalliy ish bozori talablariga moslashtirish, amaliy mashg‘ulotlar va mentorlikni onlayn kurslar bilan birlashtirish, raqamli moliyaviy va ish-platformalari orqali barqaror daromad manbalarini yaratish, shuningdek, monitoring va baholash orqali dastur samaradorligini o‘lchash. Shu tarzda, mikro-kurslar, blended learning markazlari va voucher/subsidiyalar kabi amaliy yechimlar real sharoitda inson kapitalini oshirish va kambag‘allikni kamaytirishga samarali hissa qo‘shadi.

Umuman olganda, ta’lim va raqamli texnologiyalarning sinergetik yondashuvi mamlakat sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshirish, bandlikni kengaytirish va kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha eng maqbul strategiya sifatida tasdiqlandi. Ushbu tadqiqot tavsiyasi shuki, ushbu yechimlarni tizimli joriy etish, kirish imkoniyatlarini kengaytirish, sifat va moslikni kafolatlash, hamda doimiy monitoring orqali samaradorlikni oshirish lozim. Bu nafaqat amaliy strategiya, balki O‘zbekiston uchun kelajakda barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishini belgilovchi yechimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.World Bank. (2023). Uzbekistan Poverty and Equity Assessment. Washington, DC: World Bank.

2.UNESCO. (2017). Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris: UNESCO Publishing.

3.UNDP. (2024). Digital Transformation and Employment Opportunities in Developing Countries. New York: United Nations Development Programme.

4.DataReportal. (2023). Digital 2023: Uzbekistan. Global Digital Insights Report.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2024). O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari. Toshkent.

6.World Bank. (2022). World Development Report: Digitalization for Development. Washington, DC.

7.International Labour Organization (ILO). (2023). Digital Economy and Employment Trends. Geneva.

8.OECD. (2021). Skills for a Digital World. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.

O‘ZBEKISTONDA TURISTIK XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH VA TURIZM SOHASIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Dilafruz Mardonova
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali tayanch doktaranti, e-mail: xisobot@bk.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish jarayonlari hamda turizm sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari turizm sohasida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik omillarini aniqlash, hududiy turistik salohiyatni baholash hamda turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *turizm, turistik xizmatlar bozori, turizm infratuzilmasi, turistik resurslar, turizm iqtisodiyoti, tadbirkorlik subyektlari, turistik salohiyat, investitsiyalar*

Аннотация*. В данной статье анализируются процессы развития рынка туристических услуг в Узбекистане и экономическая активность хозяйствующих субъектов, работающих в туристическом секторе. Результаты исследования позволяют выявить факторы социально-экономической эффективности в туристическом секторе, оценить региональный туристический потенциал и разработать практические предложения по стимулированию предпринимательской активности в туристическом секторе.*

***Ключевые слова**: туризм, рынок туристических услуг, туристическая инфраструктура, туристические ресурсы, туристическая экономика, хозяйствующие субъекты, туристический потенциал, инвестиции*

***Abstract**. This article analyzes the development of the tourism services market in Uzbekistan and the economic activity of businesses operating in the tourism sector. The results of the study allow us to identify factors that influence socioeconomic performance in the tourism sector, assess regional tourism potential, and develop practical proposals to stimulate entrepreneurial activity in the tourism sector.*

***Keywords**: tourism, tourism services market, tourism infrastructure, tourism resources, tourism economy, businesses, tourism potential, investment*

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Mamlakatda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi turistik marshrutlarni tashkil etish, tarixiy-madaniy meros obyektlarini rekonstruksiya qilish va transport infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, vizasiz rejimning kengaytirilishi va xalqaro turistik aloqalarning rivojlanishi mamlakatga keluvchi xorijiy turistlar sonining ortishiga xizmat qilmoqda.

Turizm sohasini rivojlantirish va turistik xizmatlar bozorining iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq qilish masalalari jahon va mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, Cooper, Fletcher, Fyall, Gilbert va Wanhill tomonidan yozilgan “Tourism: Principles and Practice” asarida turizm industriyasining iqtisodiy asoslari va turistik bozorning shakllanish mexanizmlari keng tahlil qilingan. Page esa turizm menejmenti va turistik xizmatlar bozorining rivojlanish tendensiyalarini tadqiq qilib, turizm sohasining iqtisodiy o‘sishdagi ahamiyatini asoslab bergan.

Sharpley va Telfer tadqiqotlarida turizmning hududiy iqtisodiyotga multiplikativ ta’siri va turizm orqali iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, Butler, Tribe, Weaver va Bramwell kabi olimlar ishlarida turizmni barqaror rivojlantirish, turistik resurslardan samarali foydalanish va turistik infratuzilmani rivojlantirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi turistik marshrutlarni tashkil etish, tarixiy-madaniy meros obyektlarini rekonstruksiya qilish hamda transport infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, vizasiz rejimning bosqichma-bosqich kengaytirilishi va xalqaro turistik aloqalarning faollashuvi mamlakatga keluvchi xorijiy turistlar oqimining ortishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayonlar turizm xizmatlari bozorining rivojlanishi, turistik infratuzilmaning kengayishi va sohada tadbirkorlik faoliyatining faollashuvi uchun muhim iqtisodiy sharoitlarni shakllantirmoqda.

O‘zbekiston turizm bozorida turistlar sonining o‘sishi, xizmatlar infratuzilmasining kengayishi va raqobat muhitining kuchayishi turistik xizmatlar bozorining barqaror rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

Birinchi bosqichda hududning mavjud resurslari, kuchli va zaif jihatlari hamda turistik-rekreatsion kompleksi rekreatsion imkoniyatlari tahlil qilinish kerak.

Hududning rekreatsion imkoniyatlari bo‘yicha kuchli va zaif jihatlar aniqlanganidan so‘ng, turizmning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olinishi muhim bo‘ladi, ular quyidagilar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin:

tabiiy resurslar (tabiat tomonidan yaratilgan);

antropogen resurslar (inson qo‘li bilan yaratilgan);

kombinatsiyalangan resurslar.

Keyingi bosqichda turizm sohasini rivojlantirish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik omillarini aniqlash muhim ahamiyatga ega (1-jadval). Mazkur omillar turizm sohasining hududiy iqtisodiyotga ta’sirini baholash, turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda aholi bandligi va daromadlariga ta’sirini aniqlash imkonini beradi.

1-jadval

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik omillari

Yo‘nalish	Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik omillari
Ijtimoiy soha	• Yangi ish o‘rinlarining yaratilishi
	• Turizm infratuzilmasining takomillashishi
	• Migratsiya oqimining kamayishi
	• Tibbiy xizmatlar sifati va imkoniyatlarining oshishi
	• Kadrlar malakasining oshishi
	• Hududning tashqi qiyofasi va turistik jozibadorligining yaxshilanishi
Iqtisodiy soha	• Mahalliy budjet daromadlarining ko‘payishi
	• Investitsiyalarni jalb qilish
	• Turizm bilan bog‘liq tarmoqlar daromadlarining o‘sishi
	• Ijtimoiy va transport infratuzilmasining rivojlanishi

Manba: muallif tomonidan turizm sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy ta’sir omillari asosida tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat tomonidan turizm sohasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, tarixiy-madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish, mehmonxona xizmatlarini kengaytirish va transport infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, turizm sohasida ichki va tashqi raqobatning kuchayishi hududlarni turistlar uchun yanada jozibador qilish va tez o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashishni talab etmoqda.

Shu sababli tahlilning keyingi bosqichi turizm sohasidagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta’sir etuvchi ehtimoliy xatarlarni aniqlashdan iborat.

Turizm sohasidagi tadbirkorlik strukturalari uchun asosiy ehtimoliy xatarlar quyidagilardan iborat:

• tabiiy-iqlim sharoitlariga bog‘liqlik;

• xizmatlar va resurslar narxlarining o‘sishi;

• soliq siyosatidagi o‘zgarishlar;

• turistik mahsulotlarni tijoratlashtirish jarayonida hududning madaniy va tarixiy o‘ziga xosligini yo‘qotish ehtimoli;

• davlat tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlashning kamayishi;

• hududlar o‘rtasida turistik raqobatning kuchayishi;

• migratsiya jarayonlari;

• malakali kadrlar yetishmasligi;

• inson faoliyati va tabiiy omillar ta’sirida ekologik barqarorlikning pasayishi;

• chiqindilarni boshqarish va atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq muammolar.

O‘tkazilgan tahlil natijalari asosida turizm bozorida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida biznes-jarayonlarning alternativ rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, keyingi bosqichda turistik bozor subyektlari uchun strategik qaror qabul qilish xaritasini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘zbekiston misolida inson rivojlanishi indeksi so‘nggi yillarda barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda aholining o‘rtacha umr davomiyligining ortishi, ta’lim tizimining rivojlanishi va iqtisodiy o‘sish natijasida inson rivojlanishi indeksi bosqichma-bosqich yaxshilanmoqda. Bu esa turizm sohasining rivojlanishi uchun muhim institutsional va ijtimoiy sharoitlarni yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, inson rivojlanishi indeksi hududlarning turistik salohiyatini baholashda ham qo‘shimcha indikator sifatida qo‘llanilishi mumkin. Masalan, Samarqand, Buxoro va Toshkent kabi turizm markazlarida aholi daromadlarining o‘sishi, ta’lim va xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi turistik infratuzilmaning yaxshilanishiga va turistlar oqimining ko‘payishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, alohida hududlar yoki tadbirkorlik subyektlari uchun mazkur ko‘rsatkichlarni hisoblash jarayonida bir qator metodologik muammolar yuzaga kelishi mumkin. Jumladan:

• Aholining o‘rtacha umr davomiyligi kabi ko‘rsatkichlarni alohida tumanlar kesimida aniqlash qiyinligi tufayli ko‘p hollarda respublika yoki viloyat darajasidagi statistik ma’lumotlardan foydalaniladi;

• Ta’lim darajasi har doim ham aholining haqiqiy bilim va malaka darajasini to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Masalan, Samarqand, Toshkent yoki Buxoro kabi yirik shaharlarda talabalar soni yuqori bo‘lgani sababli ta’lim ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori ko‘rinadi;

• Aholining haqiqiy daromadlarini aniq baholash uchun yanada aniq iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalanish talab etiladi. Hozirgi vaqtda bunday

baholashda aholining o‘rtacha oylik ish haqi, minimal iste’mol xarajatlari va xarid qobiliyati kabi ko‘rsatkichlar taqqoslanadi.

O‘zbekistonning turizm salohiyati yuqori bo‘lgan hududlari bo‘yicha mazkur ko‘rsatkichlar tahlil qilinganda, hududlarni rivojlanish darajasiga ko‘ra shartli ravishda bir nechta guruhlarga ajratish mumkin. Masalan, Samarqand, Buxoro va Toshkent shaharlari turistik infratuzilma rivojlanganligi, tarixiy-madaniy meros obyektlarining ko‘pligi va xizmat ko‘rsatish sohasining taraqqiy etganligi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda turizm sohasini rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan qator muammolar ham mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

• ayrim hududlarda aholi daromadlarining nisbatan pastligi;

• mehnat resurslari malakasining yetarli darajada emasligi;

• turizm faoliyatining mavsumiylik xususiyati va iqlim sharoitiga bog‘liqligi;

• resurslar va investitsiyalar uchun hududlar o‘rtasida raqobatning kuchayishi;

• ta’lim va kasbiy tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi;

• tibbiy xizmat va ijtimoiy infratuzilmaning ayrim hududlarda rivojlanmaganligi.

Shu munosabat bilan turizm sohasida tadbirkorlik faolligini oshirishga qaratilgan mintaqaviy strategiyani ishlab chiqishda bir necha bosqichli tahlil usulidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Birinchi bosqichda hududning tashqi va ichki muhitiga ta’sir etuvchi omillar aniqlanadi. Ushbu omillar turizm rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Keyingi bosqichlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• hududning turistik yo‘nalishlarini rivojlantirish salohiyatini baholash;

• turizm sohasi rivojlanishining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini aniqlash;

• turizmni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bilan bog‘liq ehtimoliy xatarlarni baholash;

• strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan institutsional va iqtisodiy muammolarni aniqlash.

Ushbu bosqichlar asosida ishlab chiqilgan strategiya turizm sohasida tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirish, hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va turistik infratuzilmani samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda turistik xizmatlar bozori so‘nggi yillarda barqaror rivojlanish tendensiyasini namoyon etmoqda. Turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, vizasiz rejimni kengaytirish va turistik resurslardan samarali foydalanish mamlakatda turistlar oqimining ortishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish uchun qator muammolarni hal qilish talab etiladi. Jumladan, malakali kadrlar tayyorlash, turistik infratuzilmani yanada rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish va investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega.

Kelgusida turizm xizmatlari bozorini rivojlantirishda hududiy turistik salohiyatni baholash, turizm sohasidagi xatarlarni boshqarish mexanizmlarini

takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Cooper C., Fletcher J., Fyall A., Gilbert D., Wanhill S. Tourism: Principles and Practice. London: Pearson Education, 2018.
2. Page S. Tourism Management. Oxford: Butterworth-Heinemann, 2019.
3. Sharpley R., Telfer D. Tourism and Development: Concepts and Issues. Bristol: Channel View Publications, 2015.
4. Tribe J. The Economics of Recreation, Leisure and Tourism. London: Routledge, 2016.
5. Weaver D., Lawton L. Tourism Management. John Wiley & Sons, 2014.
6. Butler R. The Tourism Area Life Cycle. Channel View Publications, 2006.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN COMMERCIAL BANKS

Ludmila Aleksejeva
Assoc. Professor of Department of Law, Management and Economics of Daugavpils University, janis.teivans@du.lv.
Tursunov Faridun Mustafoyevich
Samarkand institute of economy and service department of banking assistant-trainee teacher
tursunovfaridun4330@gmail.com

Abstract*. The banking system is a strong and stable pillar of the economy. That is why, in the process of establishing financial policy, a strong attention is paid to the banking system and the monetary and credit sector. This article describes in detail the prospects for the development of remote banking services in commercial banks of the Republic of Uzbekistan.*

Keywords*: banking system, monetary and credit sector, financial policy, economy, development strategies, etc.*

We all know that the position and influence of each country in the world community directly depends on its economic and political power. The development of the country, its development, having its own voice and views in the whole world is closely related to the economic and spiritual power of this country. The main link of the country's economy is its banking and financial system. The nature and functions of banks, as well as their operations and services, determine their role in the economy. When it comes to the role of banks in the economy, the main attention should be paid to the factors of their creation, development processes and operations. Therefore, the role of banks in the economy has a certain level of characteristics as well as their functions. Banks

perform important operations of general importance in the economy, regardless of their ownership structure. For this reason, regardless of the ownership form or specialization of banks, they have a special and leading importance in the economy.

The most effective way to ensure the competitiveness of commercial banks is to gain the trust of customers and create all the conveniences for them, as well as to increase the type, quality and speed of services. In order to ensure competitiveness, banks feel a greater need to introduce modern banking services and use new technologies. In particular, in this regard, the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev said in his speech, "...we must take drastic measures this year to develop the banking system. Starting from 2020, a large-scale transformation program will be implemented in each bank. In this regard, increasing the capital, resource base and income of our banks will be in the center of our special attention. Taking into account the above, a number of documents were adopted in recent years, which envisage the liberalization of the banking system and adaptation to the conditions of free competition. In particular, on March 23, 2018, the adoption of the Decision of the President of the Republic of Uzbekistan No. 3620 on "Additional measures to increase the popularity of banking services" should be implemented by the existing problems in the provision of banking services and by banks. determined the measures. In particular, the development and promotion of innovative products for making cashless payments, including non-contact and mobile technologies; introduction of non-communication and mobile technologies, first of all, in the spheres of social and household services, transport, trade, catering, especially in the regions; ensuring cooperation with international payment systems, etc. Research works of a number of scientists on the topic were closely familiarized. In them, the opinions of scientists on remote banking services were analyzed. In particular, according to Russian economist V.K. Spilnichenko, "Remote servicing of a bank account is a complex of information services and execution of operations on the client's account based on his instructions without visiting the bank. The remote bank account service system is based on the client's request to the bank's database through the telecommunication system. And N.I. Likhodeyeva recognized the system of remote bank account service as a technology of providing banking services by the client without visiting the bank using computer technologies, that is, on the basis of remote orders.

K.A.Zabrodiskaya, A.O.Zakharova "Remote banking services are the activity of creating optimal conditions for the bank's clients by providing remote service to their bank accounts." Summarizing the above opinions, remote bank account servicing systems can be defined as technologies for providing banking services based on customer orders from a distance (without coming to the bank). In the implementation of scientific work, in the development of remote services of commercial banks, interviews with scientists and representatives of the field, analysis of their written and oral opinions, expert evaluation, observation of processes, systematic approach to economic events and processes, comparative analysis with the author's experiences conclusions, proposals and

recommendations are given in the relevant directions.

In recent years, various innovative banking services have been offered by banks in order to improve the quality of services provided to clients. In particular, the traditional "Bank-client" system, which provides remote banking services, is widespread in our republic and is implemented in all banks. To use this system, a special program is installed on the client's computer, and interaction with the bank's information system is ensured through communication channels. However, due to the need to connect to a specific workplace and use specialized programs when using the "Bank-client" system, the possibility of using this system is limited. Therefore, the online banking (internetbanking) system is widely used, which provides operation through the Internet network and a simple browser, that is, a common program that allows the client to access the network. Internet banking technology creates additional convenience for both the bank and customers. In particular, the client has the opportunity to carry out banking operations on his account from anywhere and at any time via the Internet without going to the bank. can get information about actions. This creates the advantages of saving time and money for the client, freely choosing a bank regardless of the distance and proximity of the address, and quickly managing their funds. Also, in cooperation with commercial banks that are participants of the "Uzcard" interbank payment system, the creation of a national technological platform that works in the "on-line" mode will allow the client to manage his card accounts in real time through Internet banking services, utility and other gives him the opportunity to fulfill his wishes.

As a result of the analysis of the prospects for the development of remote banking services in Uzbekistan, the following proposals and recommendations were developed: 1. In order to develop remote banking services in commercial banks, each commercial bank has its own It is necessary to develop a strategic program. In this program, it will be necessary to develop a road map for the step-by-step transfer of all types of services to remote and online mode. In this road map, it is necessary to mention the source of financing of the tasks, the implementation period, the department responsible for implementation, and the project launch period. 2. Currently, the types of services provided remotely by commercial banks include utility and other payments, card-to-card money transfers, online conversion, online deposit services, as well as retail lending services in some banks. and it is advisable to increase their type at the next stage. In particular, these include sending and receiving funds abroad through integration into international money transfers, including the service of virtual emission of plastic cards. 3. It is natural that the development of remote banking services creates the need to identify customers. Taking this into account, it would be appropriate to create opportunities for integration of all mobile banking services from the database of the Ministry of Internal Affairs in the event of the need to identify an employee when providing customer service.

Innovation and digital transformation are inextricably linked, and 20% of respondent banks have transferred retail services to specialized "digital" banking. 85% of these banks are offering new services and products, and 81% are banking

with new systems. As the basis of innovation and digital transformation, 78% of banks aim to offer high-quality services and goods to customers, 74% of banks aim to implement new systems, and 68% aim to make effective use of mobile and social technologies. The threat of technology companies was estimated at 47% in 2016 and 48% in 2017. Fintech and technology companies are becoming a worthy competitor to banks due to their high adaptability and ability to quickly adopt and implement innovations. Therefore, the cooperation of banks with Fintech and technology companies startups can create an opportunity for them to respond to customer and market demand in the future. This situation has a significant impact mainly in developed countries (the USA, the European Union, Brazil, China, South Africa, Australia and similar countries), and the banks of these countries are mostly positive towards technological changes and innovative projects, but in the banks of developing countries these changes have not received sufficient attention. Today, commercial banks can be seen as the most active participants in the stock market in the Republic of Uzbekistan. Commercial banks participate in the securities market both as issuers and as investors and intermediaries.

Therefore, commercial banks, as issuers of securities, must ensure that investors receive income. Commercial banks, as issuers, get the opportunity to place additional shares through the payment of constant dividends to shareholders, thereby increasing the capitalization of banks. That is why commercial banks should pay special attention to dividend policy. Dividend policy is one of the powerful tools to achieve strategic goals of banks. Therefore, even when the income of the banks is sufficient, dividend payments play an important role in increasing the investment attractiveness of banks, the level of capitalization, the liquidity of its shares and, as a result, in ensuring the financial stability of banks. Taking into account the above, an effective dividend policy of commercial banks provides the following advantages. As can be seen from the data in the above picture, we believe that a number of aspects should be given special attention in order to formulate a reasonable and effective dividend policy for commercial banks. In the dividend policy of commercial banks, it is necessary to take into account the level of profitability of shares paid to investors, along with regular attention to paying dividends. Since shares are considered a high-risk security, the dividend rate of commercial banks should be higher than the interest rate of savings and deposits.

The data shows that today the weight of banking services provided to retail clients in the banking system is increasing year by year. Nevertheless, the scope of banking services provided to individuals through "Internet-banking" with bank credit cards, securities, which are widely used in Western countries, is developing slowly. In order to achieve the strategic goal of improving the market of retail banking services in Uzbekistan, banking activities should be developed according to the following directions:

- standardizing and automating the process of delivery of commercial banking services.
- development of a strategy for the introduction of modern sales, including the development and optimization of the branch system.

•expanding the scope of commercial banking services and improving their quality. We believe that the fulfillment of these tasks will make it possible to further improve the market of retail banking services and meet the demands of bank customers.

In such a process, banks appear as a financial organization that unites the economic interests of both parties. The first group attracts temporary free funds of economic sectors on the basis of appropriate conditions and redistributes them to economic sectors of the second group that need these funds, that is, to economic entities that need additional financial resources. It is clear that no other financial organization can effectively and quickly solve these relations, except for the bank. This specific aspect of banks determines their role in the economy. Another distinctive feature of banks in the economy is their organization of accounting books between economic entities, residents and state organizations, and the implementation of appropriate control over them. It is known that several hundreds of thousands of money transfers are made every day between economic entities in the market economy. All this is done and regulated by banks. That is why banks are the leading and main link of our economy. In conclusion, in the formation of the banking and financial system in our country, issues of increasing the investment attractiveness of commercial banks, as well as a number of rational decisions adopted by the government on the modernization of the country's banking sector should be followed. Only then, it is possible to formulate a medium and long-term strategy to increase commercial efficiency of banks.

References:

1. Murojaat (2018) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so‘zi gazetasining 23 dekabr soni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 3620-sonli Qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank statistik byuleteni, 2018-2020 yillar

4. Спильниченко В.К. Трансформация банковских платежных систем в экономике России // Экономический журнал. 2012. № 2 (26).

5. Лиходеева Н. И. Применение электронного банкинга при заключении и исполнении банковских договоров [Текст] / Н. И. Лиходеева // Юридическая работа в кредитной организации. – 2014. - No2. – С. 23-27.

6. Забродиская К.А., Захарова А.О. Основы развития дистанционного банковского обслуживания. БГЭУ Белорусский государственный экономический университет. Библиотека. 2012 г. 57-63.

7. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Rasmiy sayti

KORXONALAR INVESTITSION FAOLIYATINI RAG‘BATLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI VA MOLIYAVIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Jumanova Iroda O‘ktam qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali magistranti

Annotatsiya*. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqarish korxonalarida investitsion faollikni oshirish masalalari tahlil qilinadi. Unda investitsiyalarni jalb etish, korxonalarni modernizatsiya qilish hamda moliyaviy va innovatsion omillar ta’siri yoritilgan. Shuningdek, investitsion faoliyatni takomillashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash yo‘nalishlari asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar*: investitsion faollik, investitsiya, innovatsiya, moliyaviy resurslar, samaradorlik, infratuzilma, eksport, raqobatbardoshlik.*

Аннотация*. В данном исследовании анализируются вопросы повышения инвестиционной активности в производственных предприятиях. Освещается роль привлечения инвестиций, модернизации предприятий, а также влияние финансовых и инновационных факторов. Кроме того, обоснованы направления совершенствования инвестиционной деятельности с целью повышения эффективности производства и обеспечения экономической устойчивости.*

Ключевые слова*: инвестиционная активность, инвестиции, инновации, финансовые ресурсы, эффективность, инфраструктура, экспорт, конкурентоспособность.*

Abstract*. This study examines the issues of increasing investment activity in manufacturing enterprises. It highlights the role of attracting investments, enterprise modernization, as well as the impact of financial and innovative factors. In addition, the directions for improving investment activity to enhance production efficiency and ensure economic stability are substantiated.*

Keywords: *investment activity, investment, innovation, financial resources, efficiency, infrastructure, export, competitiveness.*

Aholining iste’mol tovarlari hamda oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq va barqaror qondirish, avvalo, ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli, korxonalarni modernizatsiya qilish, ularni texnik va texnologik jihatdan yangilash, shuningdek, zamonaviy ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish uchun investitsiyalarni faol jalb etish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida investorlar va ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlari yangi

bosqichga ko‘tarilmoqda. Bunda o‘zaro manfaatdorlik, shaffoflik va samaradorlik tamoyillariga asoslangan ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, investitsiyalarni jalb etish jarayonida bozor mexanizmlari bilan bir qatorda davlatning tartibga soluvchi roli ham muhim omil hisoblanadi. Xususan, soliqlar orqali rag‘batlantirish, imtiyozlar berish va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar investorlar faolligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi sharoitda investitsion tizim nisbatan erkinlashgan bo‘lib, investorlar o‘z mablag‘larini joylashtirishda iqtisodiy jihatdan eng samarali va istiqbolli loyihalarni mustaqil tanlash imkoniyatiga ega. Bu esa investitsion resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonini yanada takomillashtirishni, shuningdek, har bir korxona va loyiha xususiyatidan kelib chiqib individual yondashuvni qo‘llash zaruratini yuzaga keltiradi.

Investitsion faoliyat ko‘rsatish jarayoni o‘z ichiga bir necha muhim bosqichlarni oladi. Jumladan, innovatsion g‘oyalarni shakllantirish va loyihalashtirish, investitsion loyihalarni chuqur iqtisodiy tahlil qilish, mablag‘larni aniq va maqsadli yo‘naltirish, ularning samarali ishlatilishini ta’minlash hamda yakuniy natijadorlikni baholash muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, kiritilgan investitsiyalarni kelgusida qaytarish mexanizmlarini ham puxta ishlab chiqish talab etiladi.

Shu nuqtai nazardan, korxonalarni modernizatsiya qilish jarayonida investitsion qo‘yilmalarni innovatsion loyihalar asosida rejalashtirish va dasturlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mustaqillik yillarida ishlab chiqarish korxonalarini isloh qilish, ayniqsa ularni investitsiyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish va qayta shakllantirish borasida muayyan natijalarga erishildi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida ishlab chiqarish salohiyati oshdi, ayrim tarmoqlarda modernizatsiya jarayonlari jadallashdi va investitsion muhitning muayyan darajada yaxshilangani kuzatildi. Biroq, bugungi kunda ushbu yo‘nalishda hali ham bir qator tizimli muammolar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish investitsion faollikni yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

Xususan, mavjud muammolar quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda:

ishlab chiqarish korxonalarining zamonaviy mashina va transport vositalari bilan yetarli darajada ta’minlanmaganligi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

turli tarmoqlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar narxlari o‘rtasida mutanosiblikning buzilganligi, natijada korxonalar moliyaviy barqarorligining izdan chiqishi;

amortizatsiya fondlaridan foydalanish darajasining keskin pasayib ketganligi, bu esa asosiy vositalarni yangilash jarayonlarini sekinlashtirmoqda;

ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasining pastligi, natijada mahsulot sifati va raqobatbardoshlik yetarli darajada ta’minlanmayapti;

korxonalar hisob raqamlarida erkin moliyaviy resurslarning yetishmasligi sababli xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish imkoniyatlari cheklanmoqda. Ma’lumki, xalqaro moliyaviy institutlar talablariga ko‘ra, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda korxonaning kamida 25 foiz miqdorida o‘z mablag‘iga ega bo‘lishi zarur;

hududlar kesimida investitsion jozibadorlik darajasi bir xil emasligi, bu esa soliqlar orqali rag‘batlantirish mexanizmlarini hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda;

mahalliy va hududiy darajadagi vakolatli davlat organlarining korxonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha tashabbuskorligi yetarli darajada emasligi, shuningdek, bu borada aniq dastur va qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishdagi mas’uliyatni oshirish talab etilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etish, eng avvalo, investitsion faoliyatni rag‘batlantirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda innovatsion rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois, ushbu yo‘nalishda kompleks va tizimli yondashuvni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ishlab chiqarish korxonalarining investitsion faolligini oshirish, eng avvalo, ularning o‘z-o‘zini moliyaviy ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois, korxonalar ichki moliyaviy resurslarini mustahkamlash va ularni samarali boshqarish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralishi lozim.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi yo‘nalishlarda tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

ishlab chiqarish mahsulotlari va boshqa tarmoqlarda, jumladan paxta xomashyosi asosida yetishtiriladigan mahsulotlar narxlari o‘rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish, shuningdek, narxlar o‘sishidagi tafovutlarning korxonalar moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sirini kamaytirish;

yuqori qo‘shimcha qiymat yaratadigan investitsion loyihalarni amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash, shu bilan birga korxonalarning o‘z mablag‘larini asossiz yo‘qotishiga yoki sun’iy narx oshishi natijasida ortiqcha xarajatlarga yo‘l qo‘yilishining oldini olishga qaratilgan davlat agrar-investitsion siyosatini takomillashtirish;

korxonalarni ishlab chiqarish yo‘nalishlari bo‘yicha ixtisoslashtirish va differensiyalash orqali kam xarajat bilan yuqori daromad olish imkoniyatlarini kengaytirish;

ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan kutilmagan qo‘shimcha xarajatlarni qoplash mexanizmini joriy etish, xususan, bu maqsadda davlat ishtirokida maxsus moliyaviy fondlarni tashkil etish.

Shu bilan birga, korxonalarning investitsion faolligini jadallashtirish maqsadida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

tijorat banklarining qisqa muddatli depozitlari bo‘yicha majburiy zaxira me’yorlarini kamaytirish orqali bank tizimida qo‘shimcha likvid mablag‘lar shakllantirish va ushbu resurslar hisobidan korxonalar uchun imtiyozli kreditlash jamg‘armalarini kengaytirish;

investitsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish hamda ularning samaradorligini ta’minlash;

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati uchun zarur bo‘lgan texnika va uskunalar yetishmasligini bartaraf etish maqsadida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarni rag‘batlantirish, shu jumladan, maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish;

hududlarda tashkil etilayotgan ixtisoslashgan xo‘jaliklarga berilayotgan soliq imtiyozlarini boshqa ishlab chiqarish yo‘nalishlarida faoliyat yurituvchi subyektlarga ham bosqichma-bosqich tatbiq etish orqali ularning investitsion jozibadorligini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, korxonalarning investitsion faolligini oshirish masalasi kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda ichki moliyaviy resurslarni mustahkamlash, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda investitsion muhitni yanada yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizning fikrimizcha, korxonalarga investitsiyalarni oqilona va samarali yo‘naltirish bir qator ijobiy iqtisodiy natijalarga olib keladi. Eng avvalo, ishlab chiqarish zanjirini kengaytirish maqsadida xomashyoni qayta ishlovchi kichik va o‘rta korxonalarni tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa nafaqat yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, balki ishlab chiqarish madaniyati va texnologik intizomning oshishiga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, investitsiyalarni jalb etish orqali zamonaviy texnika va ilg‘or texnologiyalar asosida faoliyat yurituvchi ishlab chiqarish markazlarini shakllantirish mumkin. Natijada xomashyoni chuqur qayta ishlash, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari kengayadi va korxonalarning raqobatbardoshligi sezilarli darajada ortadi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan korxonalarda esa import o‘rnini bosuvchi hamda eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Bu holat mamlakatning tashqi savdo balansini mustahkamlashga, ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, yangi ishlab chiqarish subyektlarining tashkil etilishi qishloq xo‘jaligi va sanoat infratuzilmasining rivojlanishiga turtki beradi. Ya’ni, logistika, saqlash, qayta ishlash va xizmat ko‘rsatish kabi yordamchi tarmoqlar ham rivojlanib, umumiy iqtisodiy faollik oshadi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qilish hajmining ortishi natijasida esa mamlakatning valyuta tushumlari ko‘payadi. Bu mablag‘lardan iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlarini moliyalashtirish, yangi investitsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda samarali foydalanish imkoniyati kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish korxonalarini imtiyozli va samarali jalb etilayotgan investitsiyalar hisobiga rivojlantirish investitsion faoliyatni izchil takomillashtirish bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur jarayon ishlab chiqarish hajmining ortishi, bandlik darajasining oshishi hamda aholining turmush darajasi

va farovonligining yuksalishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bektemirov A., Qarajanova G.T., Karjavova X.A., Bektemirov A.A. Investitsiya va innovatsiyalar. Darslik. - Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2023. - 482 bet.

2. Investment Project Design. LECH KUROWSKI DAVID SUSSMAN. Copyright C 2011 by Lech Kurowski and David Sussman. All rights reserved. 30 p.

UY-JOY QURILISHIDA ESKROU TIZMINING IJTIMIY-IQTISODIY SAMARADORLIGI

Xannarov Komiljon Karimovich
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xodimi, PhD
ORCID: 0009-0001-0447-7397
xannarov.k@gov.uz

Annotatsiya*: Mazkur tadqiqotda aholini uy-joy bilan ta’minlash masalasi davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida tahlil qilinadi. Uy-joy ta’minoti aholining turmush darajasi, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan uy-joy dasturlari, ularning samaradorligi hamda mavjud muammolar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida uy-joy siyosatini takomillashtirish, aholining turli qatlamlari uchun qulay va arzon uy-joy imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *uy-joy siyosati, ijtimoiy himoya, davlat dasturlari, arzon uy-joy, ijtimoiy barqarorlik.*

Kirish. Mamlakatimizda aholini uy-joy bilan ta'minlashga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o‘zgarishlar aholining ko‘chmas mulk bozoridagi investisiyalari va mablag‘larini himoya qilishga ham qaratilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, ko‘plab mamlakatlar tajribasidan o‘tgan usul va metodlarni amaliyotda qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa, aholining bo‘sh turgan mablag‘larini yoki turar-joy uchun yo‘naltirishni maqsad qilgan holatlari uchun moliyaviy himoya tizimini joriy etishni nazarda tutishi lozim.

E'tibor berish lozim, mamlakatimizda so‘nggi yillarda ko‘plab sondagi ko‘p qavatli turar-joy majmualari qurilmoqda. Ularning barchasida ham aholining mablag‘lari to‘laqonli himoyalangan deb aytish uchun shartlar mavjud emas. Shu boisdan, aholini uy-joy bilan ta'minlashda moliyaviy munosabatlarni tartibga solish muhim hisoblanadi.

So‘nggi paytlarda ayrim qurilish kompaniyalari tomonidan aholining ishonchiga kirib, ular bilan tuzilgan shartnoma shartlariga amal qilmaslik holatlari ham ko‘zga tashlanayotganligini ta'kidlash lozim. Bunda quyidagi holatlarning

vujudga kelganligini qayd etish lozim, deb o‘ylaymiz.

Birinchidan, yangi qurilayotgan turar-joylarning texnik va ijtimoiy mezonlar asosidagi sifat ko‘rsatkichlariga nisbatan amal qilinishining ayrim noroziklarga uchrayotganligi.

Ikkinchidan, uy-joylarning foydalanishga topshirilishi uchun belgilangan moliyaviy shartlar doirasida qoidalarning aniq mezonlarga rioya qilmasligi va uning tartibga solinishi bo‘yicha aniq huquqiy bazaning joriy etilmaganligi.

Uchinchidan, quruvchi kompaniya tomonidan o‘z vaqtida uy-joylarni foydalanishga topshirmasligi yoki o‘z majburiyatlarini umuman amalga oshirmasligi kabi jihatlarni keltirish mumkin.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 sentyabrdagi o‘tkazgan majlisida ham ushbu masala yuzasidan qat'iy fikrlarni bildirib o‘tdi. Jumladan, “Uy-joy qurib berishni va'da qilgan quruvchi va bunga pul tikkan aholi o‘rtasida nizolar ko‘payib borayotgani qayd etildi. Bunday noinsof quruvchilarga aldanib, odamlar ham uysiz, ham pulsiz qolmoqda ” deb ta'kidlab o‘tdi.

Fikrimizcha, mazkur tendensiyalarning vujudga kelishi turar-joylar barpo etilishidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga solishga bo‘lgan zaruratni o‘zida ifodalab beradi. Bu esa, aholining moliyaviy mablag‘larnii himoyalashga bo‘lgan shart-sharoitni vujudga keltiradi, deb o‘ylaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 23 sentyabrdagi o‘tkazgan majlisida eskrou hisobvarag‘i tizimi amaliyotidan foydalanish orqali aholining moliyaviy resurslarini himoya qilish zarurligi ta'kidlab o‘tildi. Ushbu tizimning hayotga tatbiq etilishi bilan aholining yangi uy-joylarni ulush kiritish orqali otib olish yuzasidan shartnomalari ishonchlilik darajasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, eskrou tizimi sotuvchi va sotib oluvchi o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga solish va moliyaviy himoyalash vazifasini o‘tash uchun ko‘plab mamlakatlarda qo‘llaniladi. Undan ko‘zlangan maqsad ikki tomonning moliyaviy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda ham aholining turar-joy sotib olishida ularning moliyaviy manfaatlarini himoya qilish bilan birga, quruvchi kompaniyalarning ham moliyaviy risklardan himoya qilish muhim hisoblanadi.

Eskrou (escrow) hisobvarag‘i tarixiga e'tibor qaratsak o‘tgan asrning 70-yillaridan so‘ng rivojlana boshladi. Jumladan, 1974 yilda AQShda “Ko‘chmas mulk kelishuvlari jarayoni qoidalari (The Real Estate Settlement Procedures Act of 1974 (RESPA)” to‘g‘risida qabul qilingan qonunning vujudga kelishi bilan bog‘liq desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Mazkur qonunning qabul qilinishi bilan quyidagi jihatlarning ta'minlanishiga erishilganligini qayd etish lozim:

Birinchidan, ko‘chmas mulk bozoridagi shaffoflikning ta'minlanishi.

Ikkinchidan, turli moliyaviy firibgarliklarni o‘zida ifoda etadigan turli faoliyatlarni bartaraf etilganligi.

Uchinchidan, iste'molchilarning turar-joy narxlarini solishtirishlari va turli moliyaviy spekulyasiyalarni oldini olishlariga qaratilgan choralarni amalga oshirilganligi.

To‘rtinchidan, ikki tomonning moliyaviy manfaatlarini himoya qilishga

qaratilgan mezonlarning to‘laqnli hayotga tatbiq etilganligi kabi jihatlar alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

E.Mills tomonidan aynan AQShda qabul qilingan uy-joy sotib olish tizimining eskrou hisobvarag‘i tizimi tahlil amalga oshirilgan . Mazkur tadqiqotda o‘tgan asrning 90 yillarida Amerika aholisining 40 mln.dan oshiq qismi eskrou hisobvaraqlariga ega ekanligi qayd etib o‘tiladi. Dastlab mazkur hisobvaraq imkoniyatlari kam e'tibor bilan qabul qilingan bo‘lsada, keyinchalik 10dan oshiq shtatlarda ushbu hisobvaraq juda keng tarqalganligini qayd etib o‘tadi. U tomonidan eskrou hisobvarag‘ining quyidagi ikki ustunlik jihati ta'kidla o‘tiladi: birinchidan, ipoteka shartnomasining yopilishi bo‘yicha eskrou hisobi yuzasidan aniq kelishuvning kiritilishi, ikkinchidan ushbu hiqobvaraq bo‘yicha foizlarning uning qoldig‘i bo‘yicha amalga oshirilishi kabi xususiyatlarni keltirib o‘tadi.

A.Chavetskiy va boshqalar tomonidan olib tadqiqotda ham eskrou hisobraqamlari to‘g‘risidagi ilmiy yondashuvlar shakllantiril beriladi. Ularning tadqiqotida eskrou hisobraqamlari tajribasi 2004 yilda 30 dekabrda Rossiya Federasiyasida qabul qilingan Federal qonun bilan bog‘liq ekanligi ta'kidlab o‘tiladi. Mazkur qonun bilan quruvchi kompaniyalar tomonidan investisiya shartnomasi asosida tuzilgan ulush miqdori 10 foizdan kam bo‘lmasligi belgilab o‘tilganligi qayd etiladi. Natijada esa, quruvchi kompaniya va fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro moliyaviy munosabatlarni tartibga solishga shart-sharoit vujudga kelganligi qayd etib o‘tiladi.

Bizningcha, aholining ko‘chmas mulk sotibolish yuzasidan moliyaviy resurslarini himoya qilish yuzasidan eskrou hisobraqami metodini amalga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda aholining moliyaviy resurslarini himoya qilish bilan birga, quruvchi kompaniyalarning faoliyatni tartibga solish va turli moliyaviy risklardan himoya qilish ham zarur hisoblanadi.

Umuman olganda, aholini uy-joy bilan ta'minlash yuzasidan moliyaiy munosabatlarni tartibga solishda moliyaviy risklarning oldini olish va ularni sug‘urtalash xususiyatlar bilan uyg‘unlashtirish muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, eskrou hisobraqamining ishlash mexanizmini o‘zida ifoda etgan elementlar majmuini birgalikda faoliyat olib boradigan metodini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Biz tadqiqotlarimiz davomida eskrou hisobraqamining ishlashini o‘zida aks ettiradigan mexanizmni shakllantirishga haraqat qilamiz. Unda moliyaviy va texnik risklarning oldini olishga qaratilgan xususiyatlarni ifodalashga e'tibor qaratishga intilamiz.



3.4-rasm. Eskrou hisobraqam ekotizimini instutining faoliyat mexanizmi

Eskrou hisobraqami ekotizimining faoliyatini o‘zida aks ettiradigan mexanizmni joriy etish orqali aholining uy-joy sotib olishda moliyaviy risklardan tomonlarni himoya qilishni o‘zida aks ettirib beradi. Ushbu mexanizmning ekotizimini 3.4-rasmda keltirilgan mexanizm orqali yanada aniqroq tasavvur etish mumkin, deb o‘ylaymiz.

Mazkur ekotizimni ifodalagan mexanizmda bir qator institutlarning ishtirok etishi nazarda tutilganligini qayd etish lozim. Unda davlat vakolatli organi, tijorat banki va sug‘urta kompaniyalari mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu ekotizimning faoliyat olib borishida keltirilgan har bir institutning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud ekanligi va ularning elementlari quyidagicha bo‘lishi mumkinligini inobatga olish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz.

Dastlab quruvchi kompaniya tomonidan yangi ko‘p qavatli turar-joy majmuasining qurilishi nazarda tutilganligi to‘g‘risida davlat vakolatli organi tomonidan tegishli tartibda ruxsatnoma rasmiylashtiriladi. Mazkur ruxsatnoma asosida quruvchi kompaniya kelajakda foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan uy-joy uchun fuqarolar bilan shartnomalar tuzishni amalga oshiradi.

Davlat vakolatli organi turar-joy majmuasini kadastr guvohnomasini shakllantirilishiga asoslangan holda quruvchi kompaniya va fuqaro o‘rtasida shartnoma tuzishga ruxsat beradi. Mazkur shartnoma fuqaro tomonidan qurilish jarayonlariga ulush kiritishni o‘zida ifodalagan holda shartnomani davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni nazarda tutadi.

Ro‘yxatdan o‘tkaziladigan ulushli shartnoma istiqbolda quruvchi va fuqaro tomonidan uy-joyni foydalanishga topshirishga qadar bo‘lgan davrda qurilish uchun investisiya miqdorining o‘zaro nisbatini belgilashga xizmat qiladi. Ulushli shartnoma fuqaroga kamida, masalan uy-joy narxining 60 foiz miqdorida investisiya kiritishni ko‘zda tutadi. Biroq ushbu mablag‘lar qurilish kompaniyasi hisobraqamiga emas, balki eskrou hisobraqamiga kelib tushishi belgilab olinadi.

Tijorat banklarida ochiladigan eskrou hisobraqami quruvchi kompaniya va fuqaro o‘rtasida kafolatgan mablag‘ning joylashtirilgan manzili, desak mublag‘a bo‘lmaydi. Ushbu joylashtirilgan mablag‘ kredit shartlari asosida quruvchi kompaniyaga tijorat banki tomonidan qarz mablag‘i sifatida beriladi. Mazkur

mablag‘ning quruvchi kompaniyaga yangi turarjoy majmuasiga investisiya kiritish sharti bilan foydalaishiga ruxsat beriladi.

Umuman olganda, tijorat banki ulushli shartnomada beliglangan shartlar asosida qurilish yakunlanib, uy-joy foydalanishga topshirilmagunga qadar eskrou hisobraqamdagi mablag‘larni uchinchi tomonga o‘tkazib berilishi, yoxud uning moliyaviy manfaatdorlari tomonidan boshqa maqsadlarda ishlatilishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim bo‘ladi.

Bizningcha, eskrou hisobraqami asosida quruvchi va fuqaro o‘rtasidagi ulushli shartnomani boshqarishga nisbatan ekotizimning ishlashi tomonlarning moliyaviy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Jumladan, fuqarolarning moliyaviy risklarini oldini olish bilan birga ularga yuklatiladigan moliyaviy majburiyatlarni ham bajarilishiga talablarni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, favqulodda holatlarda vujudga keladigan moliyaviy risklarning oldini olishga imkoniyatvujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mills, E. S. (1994). The functioning and regulation of escrow accounts. Housing Policy Debate, 5(2), 203-218.

2. Qurilish ishlari endi boshlangan yoki qurilish jarayoni davom etayotgan ko‘p kvartirali uylardan xonadon xarid qilishda nimalarga e'tibor berish kerak? https://daryo.uz/k/2021/11/27/qurilish-ishlari-endi-boshlangan-yoki-qurilish-jarayoni-davom-etayotgan-ko%25ca%25bbp-kvartirali-uylardan-xonadon-xarid-qilishda-nimalarga-e%25ca%25bctibor-berish-kerak

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibining rasmiy kanali. https://t.me/Press_Secretary_Uz/4786

OLIY TA’LIM MUASSASALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA INVESTITSIYALARNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Kurbanov Baxodir Negmatullayevich
Tashkent International university
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya *Ushbu tezisda Mazkur ilmiy maqolada oliy ta’lim muassasalarining (OTM) moliyaviy barqarorligini ta’minlashda investitsiyalarni oshirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish kabi ustuvor yo‘nalishlar asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida OTMlarning moliyaviy mustaqilligini oshirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Zamonaviy globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda oliy ta’lim tizimi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etuvchi muhim institut sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bilimlar iqtisodiyoti shakllanayotgan bir davrda oliy ta’lim muassasalari (OTMlar) nafaqat yuqori malakali kadrlar tayyorlash, balki innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish orqali iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, OTMlarning samarali faoliyati ko‘p jihatdan ularning moliyaviy barqarorligi darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Moliyaviy barqarorlik OTMning o‘z faoliyatini uzluksiz va samarali davom ettirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish hamda turli tashqi iqtisodiy tebranishlar va xavf-xatarlarga nisbatan moslashuvchanlikni ta’minlash qobiliyati bilan tavsiflanadi. Ushbu barqarorlikni ta’minlashda investitsiyalarni jalb qilish, ularni diversifikatsiya qilish hamda samarali boshqarish muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Xususan, OTMlarda investitsiya faoliyatini rivojlantirish orqali moddiy-texnik bazani mustahkamlash, ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini modernizatsiya qilish, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari kengayadi. Shu bois, oliy ta’lim tizimida investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

J.Panigraxi o‘zining tadqiqotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda oliy ta’limni moliyalashtirishga innovatsion usullarni qo‘llashning muammolarini Hindiston misolida o‘rgangan. Uning fikricha, Hindiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda oliy ta’lim muassasalarini davlat tomonidan moliyalashtirishning bosqichma-bosqich kamayishi, davlat oliy ta’lim muassasalarini xususiylashtirish ularni moliyalashtirish uchun qabul qilingan yangi innovatsion usullar hisoblanadi(Panigraxi, J. 2018).

T. Gabrichidze o‘zining tadqiqotlarida oliy ta’limni samarali moliyalashtirish uni rivojlantirish bilan birga sifati va samaradorligini, tenglikni oshirishning kaliti bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi(Gabrichidze, T. 2022).

Professor A.Lyalinning xulosasiga ko‘ra oliy o‘quv yurtlarinimoliyalashtirish tizimini rivojlantirish innovatsion iqtisodiyot uchun kadrlar yetkazib berishning zaruriy sharti hisoblanadi. (Лялин А.М. 2016).

Iqtisodchi olim D.Raxmonov o‘zining tadqiqotida “davlat byudjeti hisobidan ajratilayotgan mablag‘larni oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyati bilan bog‘lash hamda o‘qish uchun to‘lovlarni to‘lashda tijorat banklari tomonidan kichik foiz va uzoq muddatlarga ta’lim kreditini ajratish uning ijtimoiy funksiyasini yana-da oshirishga yordam berishi xulosalangan”

Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi ularning uzoq muddatli istiqbolda samarali faoliyat yuritish, strategik rivojlanish maqsadlariga erishish hamda tashqi va ichki iqtisodiy omillarga moslashish qobiliyatini ifodalovchi muhim iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Mazkur tushuncha OTMning moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan oqilona foydalanish darajasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning institutsional barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda investitsiyalar hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Investitsiyalar OTMlarning nafaqat joriy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, balki ularning uzoq muddatli strategik rivojlanishini ta’minlash, raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, investitsion faoliyatni samarali tashkil etish OTM moliyaviy boshqaruv tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

1-jadval

OTMlarda investitsiyalarning asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Mazmuni	Natijasi
Infratuzilma	Binolar, laboratoriyalar	Ta’lim sifati oshadi
Ilmiy tadqiqot	Grantlar, ilmiy loyihalar	Innovatsiyalar paydo bo‘ladi
Kadrlar rivoji	Malaka oshirish, treninglar	Mutaxassislar sifati oshadi
Raqamlashtirish	IT tizimlar, platformalar	Samaradorlik ortadi

Avvalo, investitsiyalar infratuzilmani rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy o‘quv binolari, laboratoriyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan muhitni yaratish ta’lim sifati va ilmiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida OTMning ichki va tashqi moliyaviy manbalarini kengaytirishga, jumladan, talabalar oqimini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali daromad bazasini mustahkamlashga olib keladi.

Shuningdek, investitsiyalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy loyihalarni moliyalashtirish, tadqiqot infratuzilmasini modernizatsiya qilish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish OTMlarning ilmiy salohiyatini oshiradi hamda qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantiradi. Natijada, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan diversifikatsiyalangan moliyaviy oqimlar yuzaga keladi.

Bundan tashqari, investitsiyalar innovatsion loyihalarni moliyalashtirish orqali OTMlarning innovatsion ekotizimini rivojlantirishga xizmat qiladi. Startaplar, texnoparklar, inkubatsiya markazlari va spin-off kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali OTMlar ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish va tijoratlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon esa moliyaviy resurslarning ko‘payishiga hamda institutsional barqarorlikning mustahkamlanishiga olib keladi.

Moliyaviy barqarorlikni kompleks baholash bir qator muhim ko‘rsatkichlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Jumladan, daromadlar barqarorligi OTMning moliyaviy tushumlarining muntazamligi, diversifikatsiyalanganligi va tashqi manbalarga bog‘liqlik darajasini aks ettiradi. Xarajatlar samaradorligi esa mavjud moliyaviy resurslardan foydalanishning tejamkorligi va natijadorligini, ya’ni sarflangan mablag‘larning ta’lim sifati va ilmiy natijalarga ta’sir darajasini ifodalaydi.

Shuningdek, moliyaviy mustaqillik darajasi OTMning davlat byudjeti mablag‘lariga qanchalik darajada bog‘liq ekanligini ko‘rsatib, uning o‘zini o‘zi moliyalashtirish imkoniyatlarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsion faoliyat hajmi esa OTMning rivojlanishga yo‘naltirilgan kapital

qo‘yilmalari, innovatsion loyihalarga jalb etilgan mablag‘lar hamda infratuzilmani modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsiyalar miqdorini tavsiflaydi.

Hozirgi sharoitda OTMlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash faqat davlat byudjeti mablag‘lariga tayanib qolmasdan, balki qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantirish va diversifikatsiya qilishni taqozo etadi. Xususan, grantlar, ilmiy-tadqiqot loyihalari, xo‘jalik shartnomalari, xalqaro hamkorlik dasturlari, ta’lim xizmatlarini eksport qilish va xususiy sektor bilan sheriklik asosida moliyaviy resurslarni kengaytirish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash OTMlarda zamonaviy moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, investitsion jozibadorlikni oshirish va resurslardan samarali foydalanishni talab etadi.

Umuman olganda, investitsiyalar OTMlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda kompleks va ko‘p qirrali ta’sirga ega bo‘lib, ularni jalb etish va samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy oliy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda investitsiyalarni oshirish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hamda innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali OTMlarning moliyaviy mustaqilligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Raxmonov D.A. 2018 “O‘zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2018.

2. Panigraxi, J. 2018 “Innovative Financing of Higher Education: Changing Options and Implications.” www.researchgate.net

3. Gabrichidze, T. (2022). Higher Education Funding Strategies: Towards Equity, Efficiency, and Quality. European Scientific Journal, ESJ, 18(19), 20. https://doi.org/10.19044/esj.2022.v18n19p20

4. Лялин А.М. 2016 Подготовка кадров для инновационной экономики. Инновационное развитие: экономика, интеллектуальные ресурсы, управление знаниями. Монография. – М.: ИНФРА-М, С. 388.

TO'LOV TIZIMI VA UNING STRUKTURASI

Xolikulov O'ktam Abdumo'minovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "Bank ishi" kafedrasi o'qituvchisi
Hayitmurodov Ilyos
Samarqand iqtisodiyot va servis institute, XIM-323 guruh talabasi
Rahmatov Behruz
Samarqand iqtisodiyot va servis institute, XIM-323 guruh talabasi

Annotatsiya*. Bu maqolada to'lov tizimining qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligi, topishi va uning ichiga kirib ketuvchi yo'nalishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, buning natijasida ushbu tizim qanday ishlashi haqida ham tushunchalarga ega bo'lamiz.*

Kalit so'zlar*: to'lov tizimi, moliyaviy operatsiyalar, naqd pul, naqd pulsiz hisob-kitoblar, banklararo to'lovlar, elektron to'lovlar, markaziy bank, moliyaviy institutlar*

Аннотация. *В данной статье приведена информация о том, из каких структурных частей состоит платежная система, как она функционирует и какие направления в нее входят. В результате мы получаем представление о том, как работает эта система.*

Ключевые слова: *платежная система, финансовые операции, наличные деньги, безналичные расчеты, межбанковские платежи, электронные платежи, центральный банк, финансовые институты.*

Annotation. *This article provides information about the structural components of the payment system, how it operates, and the directions included within it. As a result, we gain an understanding of how this system functions.*

Keywords: *payment system, financial operations, cash, cashless settlements, interbank payments, electronic payments, central bank, financial institutions.*

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida to'lov tizimi moliyaviy jarayonlarning samarali ishlashi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Har bir mamlakatda to'lov tizimi o'ziga xos struktura va qoidalar bilan tashkil etilgan bo'lib, u moliyaviy operatsiyalarni tez va xavfsiz bajarishga xizmat qiladi.

To'lov tizimi nafaqat naqd pul operatsiyalarini, balki naqd pulsiz hisob-kitoblarni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, elektron to'lovlar, mobil banking va banklararo to'lovlar tizimi orqali moliyaviy tranzaksiyalarni amalga oshirish imkoniyati mavjud. Markaziy bank va boshqa moliyaviy institutlar ushbu tizimning samarali ishlashini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.

Mazkur maqolada to'lov tizimining tarkibiy qismlari, uning ishlash mexanizmlari va ichiga kiruvchi yo'nalishlar tahlil qilinadi. Shu orqali o'quvchi to'lov tizimining qanday ishlashini, uning iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyatini yaxshiroq tushunishga ega bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan chop etilgan hisobotlarda to‘lov tizimining asosiy tarkibiy qismlari, naqd va naqd pulsiz hisob-kitoblar, elektron to‘lovlar va banklararo operatsiyalar batafsil yoritilgan. Ushbu manba tizimning amaliy ishlashini va uning iqtisodiyotdagi o‘rnini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Vahobov A. va Malikov T.ning “Bank ishi” darsligida zamonaviy bank xizmatlari, jumladan internet-banking va mobil banking tizimlari tahlil qilingan. Mualliflar to‘lov tizimining samarali ishlashi uchun moliyaviy institutlar, markaziy bank va to‘lov infrastrukturasining muhimligini ta’kidlaydi. Shodmonov Sh. va G‘afurov U.ning “Iqtisodiyot nazariyasi” asarlarida to‘lov tizimi nazariy asoslari, uning strukturalari va iqtisodiyotga ta’siri o‘rganilgan. Ushbu manba yordamida to‘lov tizimining tizimli jihatlari va uning tarkibiy elementlari yanada aniqroq tushuntiriladi. Xo‘jaev N.ning “Raqamli iqtisodiyot asoslari” asarida esa elektron to‘lovlar va raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi, shuningdek, ular iqtisodiyotdagi samaradorlik va moliyaviy barqarorlikka ta’siri keng yoritilgan. Bu manba internet-banking va elektron to‘lovlar tizimining kelajakdagi istiqbollarini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarida to‘lov tizimini raqamlashtirish va elektron to‘lovlarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanganligi qayd etilgan. Bu esa davlat siyosatining ushbu sohani qo‘llab-quvvatlashini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani tayyorlashda turli manbalar o‘rganildi: darsliklar, ilmiy maqolalar, Markaziy bank hisobotlari va farmonlar. Avvalo, to‘lov tizimi va uning tarkibiy qismlari haqida nazariy ma’lumotlar yig‘ildi va tahlil qilindi. Keyin, zamonaviy to‘lov tizimlarining ishlashini tushunish uchun amaliy ma’lumotlar o‘rganildi: naqd va naqd pulsiz hisob-kitoblar, elektron to‘lovlar, banklararo operatsiyalar va mobil banking xizmatlari. Shuningdek, turli manbalarni taqqoslash va umumlashtirish orqali tizimning afzalliklari va muammolari aniqlanib, xulosalar chiqarildi. Bu metod yordamida maqolada to‘lov tizimining qanday ishlashi va uning iqtisodiyotdagi o‘rni sodda va tushunarli tarzda tushuntirildi.

Izlanish va natijalar. Mazkur tadqiqot jarayonida to‘lov tizimining tarkibiy qismlari, uning ishlash mexanizmlari va iqtisodiyotdagi o‘rni tizimli ravishda o‘rganildi. Izlanishlar ko‘rsatdiki, to‘lov tizimi naqd pul, naqd pulsiz hisob-kitoblar, elektron to‘lovlar, mobil banking va banklararo operatsiyalar kabi asosiy komponentlardan tashkil topgan. Har bir komponentning o‘ziga xos funksiyalari mavjud bo‘lib, ular birgalikda moliyaviy jarayonlarning samarali ishlashini ta’minlaydi. O‘rganilgan manbalar va statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda naqd pulsiz hisob-kitoblarning ulushi sezilarli darajada oshgan. Bu jarayon nafaqat moliyaviy operatsiyalarning tezligini oshiradi, balki moliyaviy tizimning shaffofligini va xavfsizligini ham ta’minlaydi. Elektron to‘lovlar va mobil banking xizmatlari esa mijozlar uchun qulayliklar yaratib, bank xizmatlaridan masofadan turib foydalanish imkonini kengaytirdi. Shuningdek, tadqiqot davomida to‘lov tizimining samarali ishlashi uchun markaziy bank va moliyaviy institutlarning roli muhim ekanligi aniqlangan. Markaziy bankning nazorati va tartibga soluvchi siyosati banklararo operatsiyalarni soddalashtirib,

tizimning barqarorligini ta’minlaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, to‘lov tizimining rivojlanishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Masalan, elektron to‘lovlar va naqd pulsiz hisob-kitoblarning kengayishi iqtisodiyotdagi tranzaksiyalarni tezlashtiradi, yashirin iqtisodiy faoliyatni kamaytiradi va davlat byudjetiga tushumlarni oshiradi. Shu bilan birga, zamonaviy to‘lov tizimlari aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiy faollikni oshirishga yordam beradi. Biroq, izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, tizimning samarali ishlashiga ba’zi omillar to‘sqinlik qilishi mumkin. Jumladan, internet infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmagan hududlarda elektron to‘lovlardan foydalanish cheklangan, shuningdek, kiberxavfsizlik bilan bog‘liq xavflar va ayrim foydalanuvchilarning raqamli savodxonligi pastligi muammo sifatida qolmoqda. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, to‘lov tizimining samarali ishlashi uchun nafaqat texnologik infratuzilmani rivojlantirish, balki aholining raqamli savodxonligini oshirish, moliyaviy institutlar va markaziy bankning faol nazoratini kuchaytirish zarur. Shu tarzda, to‘lov tizimi nafaqat moliyaviy operatsiyalarni tez va xavfsiz amalga oshirishga, balki mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, to‘lov tizimi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, uning samarali ishlashi moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. To‘lov tizimi naqd pul va naqd pulsiz hisob-kitoblarni, elektron to‘lovlar, mobil banking xizmatlari hamda banklararo operatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Har bir komponentning o‘ziga xos funksiyalari mavjud bo‘lib, ular birgalikda moliyaviy jarayonlarning tez va xavfsiz bajarilishini ta’minlaydi. Izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda elektron to‘lovlar va naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushi oshib, moliyaviy xizmatlar mijozlar uchun qulay va tezkor bo‘lib bormoqda. Shu bilan birga, markaziy bank va moliyaviy institutlarning tizimdagi nazorati va tartibga soluvchi siyosati to‘lov operatsiyalarining barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlangan. Jumladan:

- Internet infratuzilmasi chekka hududlarda yetarli darajada rivojlanmagan;
- Kiberxavfsizlik bilan bog‘liq xavflar mavjud;
- Aholining raqamli savodxonligi pastligi ba’zi foydalanuvchilarning elektron to‘lovlardan samarali foydalanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Internet infratuzilmasini rivojlantirish, ayniqsa chekka hududlarda elektron to‘lov tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.
- Aholining raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli targ‘ibot va o‘quv dasturlarini tashkil etish.
- Kiberxavfsizlikni mustahkamlash, zamonaviy himoya texnologiyalarini joriy etish va moliyaviy tranzaksiyalar xavfsizligini ta’minlash.
- Moliyaviy institutlar va banklar o‘rtasida raqobatni kuchaytirish, yangi innovatsion xizmatlarni joriy etish orqali mijozlar uchun qulay sharoitlar yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “To‘lov tizimlari rivoji to‘g‘risida hisobot”, Toshkent, 2022, bet 12–18.
2. Vahobov A., Malikov T. “Bank ishi”, Toshkent: Iqtisodiyot, 2019, bet 45–60.
3. Shodmonov Sh., G‘afurov U. “Iqtisodiyot nazariyasi”, Toshkent: Fan va texnologiya, 2018, bet 102–110.
4. Xo‘jaev N. “Raqamli iqtisodiyot asoslari”, Toshkent, 2021, bet 34–50.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni. “Bank tizimini raqamlashtirish va elektron to‘lovlarni rivojlantirish”, 2020-yil, bet 3–7.
6. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy jurnali, 2022–2023-yillar sonlari, bet 15–28.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING KAPITALINI BOSHQARISHNING AHAMIYATI

Tursunov Faridun Mustafoyevich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Bank ishi” kafedrasi assistenti
tursunovfaridun4330@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kapitalini boshqarish hamda uning xususiyatlari o’rganib chiqildi.Tijorat banklarining aktivlari va passivlarini boshqarishda kapitalini boshqarish va kapitalga doir me’yorlarni nazort qilish hamda bank va moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish istiqbollariga ta’sir etuvchi o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlar va omillarni aniqlash muhim hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning tobora chuqurlashuvi tijorat banklari kapitalini samarali boshqarish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.*

Kalit so’zlar: *kapital, tijorat banki, aktiv, tavakkalchilik, bufer kapitali, xalqaro standartlar, korporativ resurslar, potentsial, konservasion bufer kapitali, kontrsiklik bufer kapitali, Bazel-III tavsiyalari, qattiq konservativ.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni imzolangach, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan “raqamli” banklar va bank bo‘linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yanada kengaytirish vazifasi yuklatilgan[1].

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida xalqaro talablar va standartlarni hisobga olgan holda tijorat banklarining aktivlari va majburiyatlarini boshqarish muammolari ortib bormoqda. Ushbu xalqaro ko'rsatkichlarni samarali joriy etish bank faoliyati holatining o’ziga xos

xususiyatlarini va ushbu jarayonga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va hisobga olishda mumkin[2]. Tijorat banklari kapitalini shakllantirish va uni oqilona boshqarishga erishish iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarining samaradorligini ta’minlashda muhim o’rin tutadi. Ko’pchilik rivojlangan mamlakatlar singari, O’zbekistonda ham iqtisodiy islohotlarning tobora chuqurlashuvi tijorat banklari kapitalini samarali boshqarish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Faqatgina yetarlicha miqdorda barqaror kapitalga ega tijorat banklari aktiv operatsiyalarini erkin amalga oshirishlari, talab etilgan darajada likvidlilikni doimo saqlagan holda samarali faoliyat yuritishlari hamda moliya bozorlariga erkin chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Biz mazkur mustaqil ishda tijorat banklari kapitalining iqtisodiy mazmuni, uning tarkibi, bank kapitalini tashkil qiluvchi asosiy elementlarni tavsifi, yetarliligi, unga nisbatan o‘rnatilgan me‘yorlar, bank kapitalini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari va usullarini ko’rib chiqamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Har qanday bank tizimini barqarorligini, to‘lovga qobilligi va ishonchliligini ta‘minlashda, bank aktivlarini o‘stirishda bank kapitali muhim vosita bo‘lib hisoblanadi. Bazel I bo'yicha kapitalning yetarliligi ko‘rsatkichining etishmasligi shundaki, u faqat kredit tavakkalchiligiga yo'naltirilgan, aktivlar xavf darajasi bo'yicha yetarlicha farqlanmagan (bozor xavfi hisobga olinmagan) va ma'lum turdagi tavakkalchilik operatsiyalari uchun zaxiralarni yaratish talablari kam baholanganIqtisodchi olimlarimiz A Bektemirov., A.A Omonov., Z.Sh. Xaydarov, Z.D Niyozovlarning ta’kidlashlaricha tijorat banklari kapitalini oshirish manbalari bo’lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Tijorat banklari oddiy va imtiyozli aksiyalari bozor bahosining o‘zgarish omili;
2. Aksiyadorlarni ustav kapitalini shakllantirish bo‘yicha majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish omili;
3. Bank aktivlari riskka tortilgan miqdorini o‘zgarish omili;
4. Bank kapitali yetarliligi sharoitida uning likvidliligini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan likvidli aktivlar mavjudligi omili[3].

Faqatgina yetarlicha miqdorda barqaror kapitalga ega tijorat banklari aktiv operatsiyalarini erkin amalga oshirishlari, talab etilgan darajada likvidlilikni doimo saqlagan holda samarali faoliyat yuritishlari hamda moliya bozorlariga erkin chiqish imkoniyatiga ega bo‘lishadi[4]. Bank kapitali tijorat banki faoliyatida vujudga keladigan iqtisodiy tanglik hamda ziddiyatli vaziyatlar sharoitida xavfsiz “moliyaviy yostiq” vazifasini bajarishi bilan birga, bank kutilmaganda moliyaviy qiyinchilik va yo‘qotishlarga duch kelganda unga to‘lovga qobiliyati darajasini saqlab qolish va faoliyatini davom ettirish imkoniyatini beradigan moliyaviy manba hisoblanadi[5].

Kapital deb sarmoya, keng ma'noda o'z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bo'lgan jami vositalar va mablag'lar majmuasiga autiladi. Bank kapitali deb banklarning muomalaga tushirgan pul kapitallari (ya’ne sarmoyalari) majmuasi hamda bankning barqaror faoliyatini ta’minlash va favqulodda sodir

bo‘ladigan zararlarni qoplash maqsadida maxsus tashkil qilinadigan fondlar va zaxiralar tushuniladi. Endi esa, bank kapitalining funksiyalarini ko’rib chiqamiz(1-rasm).



1-rasm. Bank kapitalining funksiyalari

Tijorat banklarining regulyativ kapitali ikkiga bo’linadi:

1. Birinchi darajali kapital;
2. Ikkinchi darajali kapital;

Birinchi darajali capital esa o’z navbatiga ikkiga bo’linadi: birinchi darajali asosiy kapital va birinchi darajali qo‘shimcha kapital.

Endi esa, kapitalning monandligiga qo‘yilgan minimal talablarni ko’rib chiqamiz(1-diagramma)[6].



1-diagramma. Kapitalning monandligiga qo‘yilgan minimal talab.

Regulyativ kapitalni yetarlilik koeffitsiyenti tijorat banklarini to‘lovga qobilligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Bazel standartiga ko‘ra, birinchi darajali kapitalni yetarliligi ham baholanadi va bunda birinchi darajali kapitalni yetarlilik koeffitsiyenti qo‘llaniladi. Endi esa, bank tizimi jami kapitali monandlilik darajasni ko’rib chiqamiz (1-jadval).

1-jadval

Bank tizimi jami kapitali monandlilik darajasi[110]

Ko‘rsatkichlar nomi	01.11.2024		01.11.2025	
	mlrd. so‘m	ulushi, foizda	mlrd. so‘m	ulushi, foizda
I darajali kapital	66 836	81,1%	78 294	82,3%
Asosiy kapital	*66 641*	*80,9%*	*78 249*	*82,3%*

[110] https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/

Qo‘shimcha kapital	*195*	*0,2%*	*45*	*0,0%*
II darajali kapital	15 568	18,9%	16 785	17,7%
Jami regulyativ kapital	**82 405**	**100%**	**95 079**	**100%**
Kapital monandlilik darajasi		*16,3%*		*15,9%*
I darajali kapital monandlilik darajasi		*13,2%*		*13,1%*

Jadval ma‘lumotlari shuni ko’rsatadiki, Markaziy bank tizimida jami kapitalning monandlilik darajasi tahlil qilinayotgan davrda (1 yil davomida) 0,4% ga pasaygan. I darajali kapitalning monandlilik darajasi esa 0,1% ga pasaygan. Lekin, berilgan normadan yuqori. Bu esa ijobiy natija!.

Regulyativ kapital asosiy va qo‘shimcha kapitaldan tashkil topib, bank faoliyatini boshqarish va iqtisodiy me’yorlar hisob-kitobini o‘tkazish maqsadida hisoblash yo‘li bilan aniqlanadigan bank kapitalidir. Regulyativ kapitalni yetarlilik koeffitsiyenti tijorat banklarini to‘lovga qobilligini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

Bazel standartiga ko’ra asosiy kapital elementlari quyidagilardir:

1.Joriy yilning sof foydasi;

2. Sof foyda hisobidan shakllantirilgan zaxira summalari;

3. O‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi;

4. Emission daromad;

5.Ustav kapitalining to‘langan qismi (oddiy aksiyalar qiymati).

Izlanishlarimiz shuni ko’rsatoqdaki, bank kapitalini boshqarishning asosiy ob’ektlari bo’lib quyidagilar hisoblanadi:

- bank ustav kapitalining barqaror darajasini ta’minlash;
- bank jami kapitaling yetarliligini ta’minlash;
- bank asosiy kapitalini yetarligini ta’minlash;
- bank kapitalidan samarali foydalanishni ta’minlash.

O’z mijozlarining kapitalini boshqarish bugungi kunda juda keng tarqalgan trast operatsiyalarining bir turidir. Bunda banklar mijozlarining ma’lum pul mablag’larini boshqarishga oladilar va ularni mijoz bilan kelishgan holda joylashtiradilar. Mijoz bunda o’z mablag’larini ishlatish tartibini belgilaydi.

Bank kapitali tijorat banki faoliyatida vujudga keladigan iqtisodiy tanglik hamda ziddiyatli vaziyatlar sharoitida xavfsiz “moliyaviy yostiq” vazifasini bajarishi bilan birga, bank kutilmaganda moliyaviy qiyinchilik va yo‘qotishlarga duch kelganda unga to‘lovga qobiliyati darajasini saqlab qolish va faoliyatini davom ettirish imkoniyatini beradigan moliyaviy manba hisoblanadi. Xalqaro va mahalliy bank amaliyotida bank kapitali yetarliligi uning riskka tortilgan aktivlariga nisbatan aniqlanadi. Bank kapitalining hajmi riskka tortilgan aktivlarga nisbatan judayam past bo‘lishi uni inqiroz holatiga tushib, turli xizmatlarni ko‘rsatish va hisob-kitoblarni amalga oshirolmay qolishiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2018 yildagi PF-5296-son.
2. Базельский комитет по банковскому надзору. Международная Конвергенция Оценка Капитала и Стандарты Капитала. Базель, 2002,-425 с.
3. Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. “Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fanidan o‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamISI, 2020. 240 bet.
4. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2017. 768 b.
5. U. Azizov, T. Karaliyev, T. Boboqulov va boshqalar. “Bank ishi” darslik. T.: “Fan va texnologiya”. 2016. 640 bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankini 2015-yil 13-iyundagi 14/3-sonli

“Tijorat banklari kapitalini monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash haqida”gi yo‘riqnomaga.

7. https://cbu.uz/uz/statistics/financing/72798/-internet resurs.

QAYTA TASHKIL ETISHNING AJRATIB CHIQARISH SHAKLIDA AKTIV VA MAJBURIYATLARNI TAQSIMLASHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Urazov Komil Baxramovich
SamISI boshqa tarmoqlarda buxgalteriya, hisobi va audit kafedrasi i.f.d., professori
Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug‘li
SamISI tayanch doktoranti
e-mail: jamshidbek.abdurasulov@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1630-86940

Annotatsiya. *Mazkur maqolada korxonalarni qayta tashkil etishning ajratib chiqarish shaklida aktiv va majburiyatlarni baholash hamda taqsimlash amaliyoti tahlil qilingan. Amalda mavjud bo‘lgan uslubiy muammolar, xususan, aktivlarni balans qiymatida baholash, gudvillni hisobga olish amaliyotining yetarli emasligi va taqsimot balansi shaklining standartlashtirilmaganligi aniqlangan. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida bozor tamoyillariga asoslangan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga moslashtirilgan yangi uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan. Shuningdek, aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymatda baholash, moliyaviy natijalarni shakllantirish va hisobotlarda aks ettirish tartibi takomillashtirilgan. Taklif etilgan yondashuv hisob ma’lumotlarining ishonchliligi, shaffofligi va xalqaro taqqoslanuvchanligini ta’minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *qayta tashkil etish, ajratib chiqarish, aktivlar, majburiyatlar, adolatli qiymat, gudvill, taqsimot balansi, MHXS.*

Аннотация. *В данной статье исследованы вопросы оценки и распределения активов и обязательств при реорганизации предприятий в форме выделения. Выявлены существующие методологические проблемы, включая использование балансовой стоимости активов, недостаточное отражение гудвилла и отсутствие стандартизированной формы разделительного баланса. С целью устранения данных проблем разработан новый методический подход, основанный на рыночных принципах и адаптированный к требованиям международных стандартов финансовой отчетности. Предложены усовершенствованные методы оценки активов и обязательств по справедливой стоимости, формирования финансовых результатов и их отражения в отчетности. Реализация предложенного подхода способствует повышению достоверности, прозрачности и сопоставимости финансовой информации.*

Ключевые слова: *реорганизация, выделение, активы, обязательства, справедливая стоимость, гудвилл, разделительный баланс, МСФО.*

Abstract. *This article examines the issues of valuation and allocation of assets and liabilities in corporate reorganization in the form of spin-off. The study identifies key methodological problems, including the use of book value instead of fair value, insufficient recognition of goodwill, and the lack of standardized separation balance formats. To address these issues, a new methodological approach based on market principles and aligned with International Financial Reporting Standards (IFRS) is developed. The paper also proposes improvements in fair value measurement, financial result determination, and financial reporting practices. The proposed approach enhances the reliability, transparency, and comparability of financial information.*

Keywords: *corporate reorganization, spin-off, assets, liabilities, fair value, goodwill, separation balance, IFRS.*

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash iqtisodiy rivojlanishning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda korxonalarni qayta tashkil etish, jumladan, ajratib chiqarish shakli muhim ahamiyat kasb etib, iqtisodiy faoliyatni optimallashtirish va ixtisoslashuvni kuchaytirish imkonini beradi. Ajratib chiqarish jarayonida aktivlar va majburiyatlarni baholash, ularni taqsimlash va buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur jarayonlarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va yangi uslubiy yechimlarni ishlab chiqish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish, xususiylashtirish va korporativ boshqaruvni rivojlantirish jarayonlari jadal kechmoqda. Bu jarayonlarda ajratib chiqarish shakli orqali yangi mustaqil sub’ektlarni tashkil etish amaliyoti keng qo‘llanilmoqda. Bunday yondashuv iqtisodiy faoliyatni ixtisoslashtirish, moliyaviy natijalarni aniq hisobga olish va resurslardan samarali

foydalanish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, davlat ishtirokini qisqartirish va investitsiya muhitini yaxshilashda muhim mexanizm sifatida xizmat qilmoqda. Biroq, amalda aktiv va majburiyatlarni baholashda adolatli qiymat usulining yetarli darajada qo‘llanilmayotganligi, gudvillni hisobga olish amaliyotining cheklanganligi hamda taqsimot balansi shaklining standartlashtirilmaganligi kabi muammolar mavjud.

Mazkur maqolada aynan shu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan holda, ajratib chiqarish jarayonida aktiv va majburiyatlarni taqsimlashning bozor tamoyillariga asoslangan yangi uslubiy yondashuv ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv milliy amaliyotda ilgari kompleks tarzda qo‘llanilmaganligi bilan ajralib turadi. Jahon amaliyotida ajratib chiqarish jarayonlari (“spin-off”, “demerger”) korxonalar faoliyatini qayta tashkil etishning samarali vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari doirasida bunday jarayonlar MHXS 3, MHXS 10 va MHXS 13 standartlari asosida tartibga solinadi. Ushbu standartlarga ko‘ra, aktiv va majburiyatlar adolatli qiymatda baholanadi, gudvill yoki salbiy gudvill tan olinadi hamda hisobotlarda to‘liq ochib beriladi. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, xalqaro amaliyotda qo‘llanilayotgan mazkur tamoyillar milliy hisob tizimiga moslashtirilib, ajratib chiqarish jarayoni uchun adaptatsiya qilingan holda taklif etildi. Bu esa milliy hisob tizimini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Ajratib chiqarish jarayonida aktiv va majburiyatlarni baholash va taqsimlash masalalari hozirgi kunda dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Amalda ko‘p hollarda aktivlar balans qiymatida taqsimlanishi natijasida ularning haqiqiy bozor qiymati to‘liq aks ettirilmaydi . Bu esa moliyaviy hisobot ma’lumotlarining ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, milliy hisob tizimida gudvillni hisobga olish, adolatli qiymat usulini joriy etish va taqsimot balansi shaklini standartlashtirish bo‘yicha yetarli uslubiy asoslar mavjud emas.

Maqolaning ilmiy yangiligi sifatida, ushbu muammolarni hal etish maqsadida:

- aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymat asosida baholash mexanizmi;
- taqsimotni bozor tamoyillari asosida amalga oshirish usuli;
- moliyaviy hisobotda aks ettirishning takomillashtirilgan tartibi ishlab chiqildi.

Bu yondashuvlar hisob ma’lumotlarining ishonchliligi va shaffofligini ta’minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish jarayonlarida aktiv va majburiyatlarni baholash va taqsimlash amaliyotini takomillashtirish zarurati ilmiy jihatdan asoslandi. Ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish jarayonlarini hisob va hisobotda aks ettirish amaliyotini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur sohada bir qator tizimli muammolar va uslubiy kamchiliklar mavjud bo‘lib, ular moliyaviy hisobotning ishonchliligi va xalqaro standartlarga muvofiqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Avvalo, asosiy muammolardan biri aktiv va majburiyatlarni baholash usuli bilan bog‘liqdir. Amalda ko‘p hollarda aktivlar balans (qoldiq) qiymati asosida taqsimlanadi, bu esa ularning haqiqiy

bozor qiymatini to‘liq aks ettirmasligiga olib keladi. Natijada, moliyaviy hisobotda korxonaning real iqtisodiy holati buzib ko‘rsatiladi, aktivlar qiymati sun’iy ravishda past yoki yuqori baholanishi mumkin. Bu esa investitsion qarorlar qabul qilishda noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi ehtimolini oshiradi.

Ikkinchi muhim muammo – gudvill va salbiy gudvillni hisobga olish amaliyotining yetarli darajada shakllanmaganligidir. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq, qayta tashkil etish jarayonida aktivlar va majburiyatlar o‘rtasida yuzaga keladigan farq gudvill yoki salbiy gudvill sifatida tan olinishi lozim. Biroq milliy amaliyotda bu ko‘rsatkichlar ko‘p hollarda hisobga olinmaydi yoki boshqa moddalar tarkibida yashirin holda aks ettiriladi. Bu esa moliyaviy natijalarning haqqoniyligini pasaytiradi va hisobotning axborot qiymatini kamaytiradi.

Uchinchi muammo – taqsimot balansi shaklining yagona normativ asosga ega emasligi hisoblanadi. Amalda korxonalar tomonidan turli formatlarda taqsimot balanslari tuzilishi natijasida hisobot ma’lumotlarining birxilligi ta’minlanmaydi. Bu esa ularni taqqoslash, tahlil qilish va auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Yuqorida qayd etilgan muammo va kamchiliklar ajratib chiqarish jarayonlarini hisob va hisobotda aks ettirish tizimini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, mazkur sohada xalqaro standartlarga mos, ilmiy asoslangan va kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ajratib chiqarish jarayonida aktiv va majburiyatlarni taqsimlashning bozor tamoyillariga asoslangan, xalqaro standartlarga moslashtirilgan yaxlit uslubiy modeli ishlab chiqildi. Mazkur model aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlash, moliyaviy natijalarni to‘g‘ri shakllantirish va hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash imkonini beradi. Shuningdek, gudvillni hisobga olish, adolatli qiymat usulini joriy etish va taqsimot balansi shaklini standartlashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi. Umuman olganda, taklif etilgan ilmiy-amaliy yondashuvlar milliy buxgalteriya hisob tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga muvofiqlashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va iqtisodiyotda shaffoflikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ–4611-son qarori «Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida».

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son farmoni «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida».

3. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni. – Toshkent, 2016 (yangi tahrir).

4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS / MHXS). – London: IFRS Foundation, amaldagi nashr.

5. IFRS 3 – Business Combinations (MHXS 3 «Biznes birlashuvlari»). – IFRS Foundation.
6. IFRS 10 – Consolidated Financial Statements (MHXS 10 «Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot»). – IFRS Foundation.
7. IFRS 13 – Fair Value Measurement (MHXS 13 «Adolatli qiymatni aniqlash»). – IFRS Foundation.
8. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari: BHMS 23 – «Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish».
BHMS 8 – «Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar va sho‘’ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar».
9. Plotnikov V.S., Plotnikova O.V. Ob’edineniye biznesa i konsolidirovannaya finansovaya otchetnost. – Moskva: Finansi i statistika, 2019.
10. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobot: nazariya va metodologiya. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YANGI ISH O’RINLARINI YARATISH VA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Muxammadiyev Kamoliddin G’ulomiddinovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Bank ishi" kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar asosida yangi ish o'rinlarini yaratish va inson kapitalini rivojlantirishning asosiy muammo va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri, an'anaviy kasblarning o'zgarishi hamda yangi raqamli ixtisosliklarning paydo bo'lishi ko'rib chiqiladi. Jahon amaliyotidagi ilg'or tajribalar va O'zbekistonning raqamli transformatsiya jarayonidagi hozirgi holat baholanadi. Raqamli ish o'rinlari yaratish va inson kapitalini takomillashtirish yo'lida mavjud to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, inson kapitali, raqamli ish o'rinlari, mehnat bozori, raqamli ko'nikmalar, IT soha, ta'lim tizimi, raqamli transformatsiya.*

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi mehnat bozorida tarixda misli ko'rilmagan o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Sun'iy intellekt, robototexnika, bulutli hisoblash va katta ma'lumotlar texnologiyalari bir tomondan millionlab an'anaviy ish o'rinlarini avtomatlashtirib, ularni qisqartirish xavfini tug'dirsa, ikkinchi tomondan tamoman yangi kasblar va ish o'rinlarining paydo bo'lishiga zamin yaratmoqda. Jahon iqtisodiy forumining so'nggi hisobotlariga ko'ra, 2025 yilgacha raqamlashtirish tufayli taxminan 85 million ish o'rni o'z hozirgi shaklini yo'qotadi, ammo bir vaqtning o'zida 97 million yangi raqamli ish o'rni yaratiladi. Bu o'zgarish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ta'limiy tizimlar uchun ham ulkan sinovni ifodalaydi.

Biroq ushbu o'tish jarayonida eng asosiy muammo — inson kapitalining yangi talablarga mos ravishda rivojlantirilmasligi bilan bog'liq. An'anaviy ta'lim tizimlari yillar va o'n yilliklar davomida o'zgarmagan o'quv dasturlari asosida mutaxassislar tayyorlab, raqamli iqtisodiyot talab qiladigan ko'nikmalar bilan kelajakdagi kadrlar o'rtasidagi katta farq — «ko'nikmalar tafovuti» — yuzaga keladi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun raqamli transformatsiyaning imkoniyatlaridan foydalanish faqat texnologik infratuzilmani yaratish bilan emas, balki avvalambor inson kapitalini yangi talablarga mos ravishda rivojlantirish bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi ham raqamli transformatsiya jarayonida muhim bosqichni boshidan kechirmoqda. 2020-yilda tasdiqlangan «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi mamlakatni raqamli iqtisodiyotga o'tkazishning yo'l xaritasini belgilab berdi. Shu doirada IT parklar tashkil etish, dasturlash maktablarini rivojlantirish, elektron hukumatni kengaytirish va raqamli ko'nikmalar bo'yicha aholini o'qitish kabi muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu islohotlarning real samarasi ko'p jihatdan inson kapitalini rivojlantirish muammolari qanchalik to'g'ri tashhis qilinishi va hal etilishiga bog'liq bo'lib, bu masala alohida ilmiy tadqiqotni talab etadi.

Raqamli texnologiyalarning mehnat bozoriga ta'sirini tushuntiruvchi bir necha asosiy nazariy yondashuv mavjud. Klassik avtomatlashtirish nazariyasi — Daron Asemog'lu va Paskal Restrepo tomonidan rivojlantirilib — avtomatlashtirish va yangi vazifalar yaratish o'rtasidagi dinamik muvozanatni tahlil qiladi. Ushbu nazariyaga ko'ra, texnologik o'zgarishlar doimo eski ish o'rinlarini yo'q qilishi bilan birga yangi ish o'rinlari ham yaratadi, ammo muammo shundaki, yo'qoladigan va paydo bo'ladigan ish o'rinlari ko'pincha ko'nikma, joy va vaqt jihatidan bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Natijada mehnat bozorida «o'rtancha ishchi» deb ataladigan o'rta malakali kadrlarning ish o'rinlari eng ko'p xavf ostida bo'ladi, chunki ular avtomatlashtirishga eng moyil bo'lgan takroriy va tartibli vazifalarni bajaradi.

Inson kapitali nazariyasi nuqtai nazaridan — Nobel mukofoti sovrindori Gary Becker va Teodor Shultsning asarlariga asoslanib — raqamli transformatsiya inson kapitaliga investitsiyalarning samarasini keskin oshiradi. Raqamli iqtisodiyotda malakali ishchi an'anaviy iqtisodiyotga qaraganda ancha yuqori unumdorlikka erishishi mumkin, chunki raqamli vositalar uning imkoniyatlarini multiplikatsiya qiladi. Shu sababli raqamli ko'nikmalarga investitsiya qilish — bu nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham eng yuqori daromad keltiradigan investitsiya turiga aylandi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotdagi ish o'rinlari aksariyat hollarda yuqori ish haqi, moslashuvchan ish sharoiti va ijodiy mehnat imkoniyatlarini taqdim etadi, bu esa raqamli ko'nikmalarni egallashni yanada jozibali qiladi.

Platforma iqtisodiyoti nazariyasi esa ish o'rinlari tushunchasini yangi ko'z bilan ko'rishni taklif etadi. Uber, Airbnb, Upwork kabi platformalar shakllanishi bilan «gig iqtisodiyoti» — muayyan topshiriqlar uchun vaqtinchalik shartnoma asosida ishlash tizimi — paydo bo'ldi. Ushbu model an'anaviy yollanma mehnat

tushunchasini tubdan o'zgartiradi: ishchi immr bitta ish beruvchiga bog'liq emas, balki bir vaqtning o'zida bir nechta mijozlarga xizmat ko'rsatib, mustaqil ravishda ish grafigini belgilaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bu model, bir tomondan, ko'plab kishilarga qo'shimcha daromad manbai yaratsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy kafolatlar va mehnat huquqlari masalasida yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Raqamli texnologiyalar asosida yangi ish o'rinlarini yaratish jarayonida bir qator tizimli muammolar to'siq bo'lib turadi. Birinchi va eng muhim muammo — «ko'nikmalar tafovuti» (skills gap) muammosidir. Bugungi kunda IT kompaniyalar va raqamli korxonalar eng ko'p muhtoj bo'lgan mutaxassislar — malakali dasturchilar, ma'lumotlar tahlilchilari, kiberhavfsizlik mutaxassislari, sun'iy intellekt muhandislari — jahon miqyosida tanqisligi davom etmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2025 yilga borib global miqyosda IT sohasida 85 million mutaxassis etishmasligi kutilmoqda. O'zbekistonda ham ushbu muammo o'tkir sezilmoqda: yirik IT loyihalari mahalliy kadrlarga emas, xorijiy mutaxassislarga muhtoj bo'ladi, bu esa mamlakatning raqamli iqtisodiyotdan olishi mumkin bo'lgan foyda qismini kamaytirib yuboradi.

Ikkinchi jiddiy muammo — raqamli ish o'rinlarining geografik va demografik jihatdan notekis taqsimlanishidir. Raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan, birinchi navbatda, yirik shaharlar aholisi, yoshlar va ta'lim darajasi yuqori kishilar foydalanmoqda, qishloq aholisi, o'rta yoshli va kam ta'lim olgan fuqarolar esa ushbu imkoniyatlardan yetarlicha bahramand bo'la olmayapti. Natijada raqamli transformatsiya mamlakatdagi mavjud tengsizlikni kamaytirish o'rniga, aksincha, yangi «raqamli bo'linish» (digital divide) muammosini chuqurlashtirib yuborishi xavfi mavjud. Shu sababli raqamli ish o'rinlarini yaratish siyosati nafaqat texnologik, balki inklyuziv — ya'ni barcha aholi qatlamlarini qamrab oluvchi — tarzda amalga oshirilishi zarur.

Uchinchi muammo — ta'lim tizimining raqamli iqtisodiyot talablariga mos kelmasligi bilan bog'liq. An'anaviy maktab va oliy ta'lim tizimi ko'proq bilimlarni yodlash va standart masalalarni yechishga yo'naltirilgan bo'lib, ijodiy fikrlash, muammo hal qilish, jamoaviy ishlash va texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga yetarli e'tibor bermaydi. Shu bilan birga, ta'lim dasturlarini yangilash jarayoni uzoq va sekin, raqamli texnologiyalar esa bir necha yildan bir marta mutlaqo yangilanib turadi. Natijada ta'lim tizimi doimo mehnat bozori talablaridan ortda qolib, bitiruvchilar o'z mutaxassisliklari bo'yicha ish topishda qiyinchilik sezadi.

Quyidagi jadvalning chap qismidan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda raqamli ish o'rinlari soni 2019-yildagi 3,2 ming kishidan 2023-yilda 13,7 ming kishiga to'rt baravar oshgan, by esa raqamli sektorning jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, inson kapitali indeksi (HCI) ham ushbu davrda 0,57 dan 0,65 ga qadar doimiy o'sish ko'rsatgan. O'ng tomondagi diagramma esa sektorlar bo'yicha raqamli ish o'rinlari taqsimotini ko'rsatib, IT va dasturlash sohasi yetakchi o'rinni egallaganligini, elektron tijorat va raqamli marketing ham sezilarli o'sish namoyish etganligini tasdiqlaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu o'sish sur'atlari jadallashtirilgan siyosat choralar bilan yanada kuchaytirilishi mumkin va

zarur.

1-jadval

Raqamli ish o'rinlari dinamikasi, inson kapitali indeksi va sektorlar bo'yicha taqsimot (O'zbekiston, 2019–2023 yy.)



Inson kapitalini raqamli talablarga moslashtirishning birinchi va asosiy yo'nalishi — ta'lim tizimini isloh qilish hamda raqamli ko'nikmalarni erta yoshdan singdirish bilan bog'liq. Finlandiya, Singapur va Estoniya kabi mamlakatlarda maktab bosqichidan boshlab dasturlash, tanqidiy fikrlash va raqamli savodxonlik asosiy fan sifatida o'qitilmoqda. Estoniya tajribasi alohida diqqatga sazovorki, bu kichik mamlakat raqamli ta'lim tizimini barpo etib, aholi boshiga to'g'ri keladigan IT mutaxassislari soni va IT eksporti bo'yicha Yevropada yetakchi o'rinlardan birini egalladi. Shu bilan birga, O'zbekistonda ham maktab ta'limida informatika fanini chuqurlashtirishga qaratilgan islohotlar boshlanganligini ta'kidlash lozim, ammo ushbu o'zgarishlar hali tizimli va keng qamrovli tus olmagan.

Ikkinchi muhim yo'nalish — kasb-hunar ta'limini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish va qisqa muddatli kasbiy qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirishdir. Jahon amaliyotida «bootcamp» formatidagi jadal dasturlash kurslari, onlayn ta'lim platformalari (Coursera, edX, Udemy) va korporativ ta'lim dasturlari an'anaviy to'rt yillik ta'limning samarali muqobillariga aylandi. Masalan, Germaniyada «Kurzarbeit» dasturi doirasida ishchilarni to'liq qisqartirish o'rniga ularni qayta tayyorlash uchun davlat subsidiyasi beriladi. O'zbekistonda ham ishsizlik nafaqasini qayta tayyorlash subsidiyasiga aylantirishni ko'rib chiqish va raqamli kasblar bo'yicha sertifikatlashtirish tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada mavjud ish kuchi tezda raqamli iqtisodiyot talablariga moslashadi va mehnat bozorida «ko'nikmalar tafovuti» qisqaradi.

Uchinchi yo'nalish — xususiy sektor va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni institutlashtirish orqali amaliyotga yo'naltirilgan kadrlar tayyorlash tizimini yaratishdir. Yirik IT kompaniyalar o'z kadrlariga qanday ko'nikmalar kerakligini eng yaxshi biladiganlar sifatida ta'lim dasturlarini shakllantirishda faol

ishtirok etishi zarur. Buyuk Britaniyada «Trailblazer» dasturi doirasida sanoat kompaniyalari malaka standartlarini o'zlari belgilab, universitetlar bilan hamkorlikda kasb-hunar ta'limini loyihalaydi. Shu bilan birga, O'zbekistonda IT Park tuzilmasi atrofida shakllangan kompaniyalar va oliy o'quv yurtlari o'rtasida qo'shma kafedralar, amaliyot bazalari va stipendiya dasturlari orqali ushbu hamkorlikni kuchaytirish mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bunday hamkorlik doirasida tayyorlangan bitiruvchilar mehnat bozoriga moslashuvini ancha osonroq amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida raqamli ish o'rinlarini yaratish uchun bir qator ob'ektiv ustunliklar mavjud. Birinchidan, mamlakatning yosh aholi tarkibi — o'rtacha yosh 29 yoshda — raqamli ko'nikmalarni tez o'zlashtirishga moyil katta potentsial ish kuchini anglatadi. Ikkinchidan, geografik jihatdan Markaziy Osiyoning markazida joylashganlik va Rossiya, Yevropa, Xitoy bilan yaqin munosabatlar raqamli xizmatlar eksporti uchun qulay bozor imkoniyatlarini ochadi. Uchinchidan, mamlakatdagi nisbatan past ish haqi darajasi xalqaro kompaniyalar uchun IT outsourcing markaziga aylanish imkonini beradi. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu ustunliklardan to'liq foydalanish uchun maqsadli siyosiy iroda va tizimli chora-tadbirlar zarur.

Birinchi muhim tavsiya — IT Park tizimini kengaytirish va mintaqalashtirishdir. Hozirda IT Parklar asosan Toshkent va bir nechta viloyat markazlari bilan cheklangan, ammo raqamli ish o'rinlarini butun mamlakat bo'ylab yaratish uchun har bir viloyatda zamonaviy infratuzilmaga ega texnopark yoki raqamli markaz barpo etish zarur. Ushbu markazlar nafaqat ofis maydonlari, balki amaliy trening markazlari, mentoring dasturlari va startap inkubatorlari sifatida ham faoliyat yuritishi kerak. Natijada raqamli ish o'rinlari geografik jihatdan kengayadi va hududiy tengsizlik qisqaradi.

Ikkinchi tavsiya — «Raqamli kadrlar milliy dasturi» ni ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Dastur doirasida maktabdan universitetgacha uzluksiz raqamli ta'lim zanjirini barpo etish, davlat xarajati hisobidan IT ixtisosliklarida o'qishni kengaytirish, eng iste'dodli yoshlarga xalqaro IT kompaniyalarida amaliyot imkoniyatini ta'minlash va xorijda tahsil olgan o'zbek IT mutaxassislarini vataniga qaytarish uchun rag'batlantirish tizimini joriy etish lozim. Shu bilan birga, ushbu dastur doirasida ayollar va qishloq yoshlarining raqamli ta'limga kirishini maxsus rag'batlantirishga e'tibor qaratilishi ijtimoiy inklyuzivlik jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi tavsiya — davlat raqamli xarid va elektron hukumat tizimlarini mahalliy IT kompaniyalar uchun bozor sifatida maqsadli shakllantirish bilan bog'liq. Davlat yirik va barqaror buyurtmachi sifatida mahalliy IT kompaniyalarni rivojlantirish uchun muhim turtki bo'lishi mumkin. Masalan, barcha davlat axborot tizimlari, elektron xizmatlar va ma'lumotlar bazalarini mahalliy kompaniyalar tomonidan yaratish va qo'llab-quvvatlash talabini joriy etish mahalliy IT bozorini sezilarli kengaytiradi va yangi ish o'rinlari yaratilishini rag'batlantiradi. Shu bilan birga, kiberhavfsizlik, sun'iy intellekt va bulutli hisoblash kabi strategik yo'nalishlarda milliy kompetentsiyalarni rivojlantirish mamlakatning raqamli suverenitetini ham mustahkamlaydi.

To'rtinchi tavsiya — raqamli ko'nikmalar tizimini xalqaro tan olingan sertifikatlashtirish standartlariga ulashdir. Hozirda o'zbek IT ta'limi bitiruvchilari xalqaro bozorda o'z malakasini isbotlashda qiyinchilik sezadi, chunki milliy diplom va sertifikatlar global miqyosda tanilmagan. Shu sababli IEEE, CompTIA, Microsoft, Google, Amazon kabi xalqaro IT sertifikatlashtirish dasturlarini ta'lim tizimiga integratsiya qilish, davlat tomonidan esa ushbu sertifikatlarni olish uchun stipendiyalar ajratish o'zbek IT mutaxassislarining xalqaro raqobatbardoshligini oshiradi. Natijada mamlakatning IT eksporti va xizmatlar sektori daromadlari sezilarli darajada o'sadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, raqamli texnologiyalar asosida yangi ish o'rinlarini yaratish va inson kapitalini rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotining kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Raqamli ish o'rinlarining 2019-2023-yillarda to'rt baravar oshganligi va inson kapitali indeksining izchil o'sishi ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning real samarasi bera boshlaganini ko'rsatmoqda. Biroq hali erishilmagan imkoniyatlar erishilgandan ko'ra ko'proq bo'lib, joriy sur'atlar bilan raqamli iqtisodiyotning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun o'nlab yillar kerak bo'ladi.

Shu sababli ta'lim tizimini isloh qilish, kasb-hunar ta'limini raqamli yo'nalishda takomillashtirish, xususiy sektor va ta'lim muassasalari hamkorligini institutsionalashtirish, IT Park tizimini mintaqalashtirishni jadallashtirrish va xalqaro sertifikatlashtirish standartlarini joriy etish — bu beshta ustuvor yo'nalishda izchil va muvofiqlashtirish holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar O'zbekistonni tez sur'atda raqamli iqtisodiyotning to'laqonli ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya musobaqasida g'olib chiqadigan mamlakatlar texnologiyani eng ko'p sotib olganlar emas, balki inson kapitalini eng samarali rivojlantirganlargadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6079-sonli Farmoni. – www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining tahliliy ma’lumotlari va statistik ko‘rsatkichlari. – Toshkent, 2023. – www.digital.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. – Toshkent, 2023. – www.stat.uz.
4. Абдуллаева Ш. Банк иши: дарслик / Ш. Абдуллаева. – Тошкент: Иқтисод-Молия, 2010. – 612 б.
5. Becker G. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education / G. Becker. – Chicago: University of Chicago Press, 1964. – 412 p.
6. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution / K. Schwab. – Geneva: World Economic Forum, 2016. – 192 p.

7. Acemoglu D., Restrepo P. Robots and Jobs: Evidence from US Labor Markets // Journal of Political Economy. – 2020. – Vol. 128. – № 6. – P. 2188–2244.
8. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2023. – Geneva: WEF, 2023. – 164 p.
9. OECD. OECD Skills Outlook 2023: Skills for a Resilient Green and Digital Transition. – Paris: OECD Publishing, 2023. – www.oecd.org.
10. O‘zbekiston IT Park ma’muriyatining 2023-yil yakunlari bo‘yicha rasmiy tahliliy hisoboti. – Toshkent, 2024. – www.it-park.uz.

JISMONIY SHAXSLAR DAROMAD SOLIG‘I TIZIMI: AMALIYOT, MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Shodiyev Azizbek Erkinjon o‘g‘li
Magistratura talabasi, Oriental universiteti
Axrorov Zarif Oripovich
I.f.d., professor v.b., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya*. Mazkur maqolada jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimining nazariy asoslari hamda amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish hamda daromadlarni soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*: jismoniy shaxs, daromad solig‘i, aholi daromadlari, soliq tushumlari, soliq stavkasi, budjet daromadlari, soliq ma’murchiligi.*

Аннотация*. В данной статье проанализированы теоретические основы и практические аспекты налогообложения доходов физических лиц. По результатам исследования выявлены существующие проблемы, а также разработаны научно-практические рекомендации по их устранению и дальнейшему совершенствованию системы налогообложения доходов.*

Ключевые слова*: физическое лицо, подоходный налог, доходы населения, налоговые поступления, налоговая ставка, доходы бюджета, налоговое администрирование.*

Abstract*. This article analyzes the theoretical foundations and practical aspects of personal income taxation. The study identifies existing problems and develops scientific and practical recommendations for their elimination and further improvement of the personal income taxation system.*

Keywords*: individual, personal income tax, population income, tax revenues, tax rate, budget revenues, tax administration.*

Davlat iqtisodiyotining samarali ishlashi va jamiyatda adolatli va barqaror rivojlanishning ta’minlanishi ko'plab omillarga bog'liq bo‘lib, uning muhim jihatlaridan biri – aholi daromadlari va ularga soliq solish tizimidir. Aholi daromadlari nafaqat fuqarolarning hayot sifatini belgilab, ularning iqtisodiy

farovonligini ta’minlasa, balki davlat budjeti uchun asosiy manba ham bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, daromadlarning adolatli taqsimlanishi va soliq tizimining samaradorligi jamiyatda tenglik va ijtimoiy barqarorlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Aholi daromadlarini soliq tizimi orqali tartibga solish, nafaqat iqtisodiy manfaatlarni ta’minlash, balki jamiyatdagi barcha qatlamlarga nisbatan tenglikni o‘rnatish maqsadida amalga oshiriladi. Biroq, bu jarayon o'zining murakkabligi va o‘zgaruvchanligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarda aholi daromadlari va ularga soliq solish tizimi ustida yangilanishlar va takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Ushbu o‘zgarishlar, asosan, soliq siyosatining adolatliligi, iqtisodiy samaradorligi va xalqning umumiy farovonligiga xizmat qilishga yo‘naltirilgan.

Shu nuqtai nazardan, aholi daromadlari va ularga soliq solish tizimini takomillashtirish, faqat iqtisodiy maqsadlarni ko'zlamay, balki jamiyatda ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Bu mavzu bo'yicha olib boriladigan izlanishlar, mavjud tizimning kamchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish, shuningdek, samarali soliq siyosatini ishlab chiqish uchun zaruriyat yaratadi. Shunday qilib, aholi daromadlarini soliq tizimi orqali tartibga solish, jamiyatda adolatli va barqaror rivojlanishning asosiy omili sifatida alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

O‘zbekistonda bugungi kundagi iqtisodiy islohotlarga mos ravishda soliq tizimida chuqur o‘ylangan chora-tadbirlar, shu jumladan, jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Ma’lumki, har qanday mamlakatda fuqarolarning daromadi qanchalik yuqori bo‘lsa, o‘sha mamlakatda iqtisodiy-ijtimoiy yuksalishga erishiladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining optimal shkalasini aniqlash zamonaviy optimal soliq solish nazariyasining asosiy masalalaridir. Uning rivojlanish asosi 1971-yilda Nobel mukofoti laureati J.Mirrlisning maqolasida o‘z ifodasini topgan [1]. Ushbu maqolada u F.Ramseyning tahliliy ta’rifini umumlashtirdi va kengaytirdi [2]. Shuningdek, bu sohadagi keyingi tadqiqotlarga asos bo‘lgan matematik modelni ilgari surdi.

Mirrlis modelining daromad solig‘iga bergan ta’rifida hukumatning maqsadi sifatida jamiyat farovonligini maksimallashtirish yotadi. Hukumatning maqsadi – soliq shkalasi shunday tanlanishi kerakki, umumiy tushumning bir qismini davlat g‘aznasiga yig‘ishdir.

Mirrlis ishidan keyin chop etilgan Ye.Sadka maqolasida hayratda qoldiradigan darajada va bahsli natijalarni ifoda etadigan fikr bildirilgan [2]. Keyinchalik N.Stern va J.Sid tomonidan ularga mantiqiy tushuntirish berildi [3]. Bunda daromad shkalasining eng yuqori nuqtasida soliq stavkasi nolga teng bo‘lishi kerak [4]. Shubhasiz, ushbu sharoitda soliq shkalasini yaratish mumkin emas. Shu ma’noda, Mirrlis va uning izdoshlari ijtimoiy farovonlik bo‘yicha soliqlarning soddalashtirish tahlillarini olib borishgan. Ularning yondoshuviga ko‘ra, jismoniy shaxslarning daromadlarini oshirish jarayonida soliqlarni chiziqli va proporsional shkalalarga ajratish muhimligiga urg‘u berilgan. Shuningdek, daromad solig‘ining tabaqalanish tizimiga E.Sheshinskiy alohida e’tibor

qaratgan [5].

Rus iqtisodchi olimi V.N.Lapin tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda jismoniy shaxslarning daromad solig‘i va uning yig‘iluvchanligini oshirish masalasi o‘rganilib, ushbu yo‘nalishdagi o‘z fikr va mulohazalarini bayon etgan [6].

Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo‘lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to‘lanadigan barcha to‘lovlar mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar deb e’tirof etiladi. Mehnatga haq to‘lash sifatidagi daromadlar tarkibiga soliq qonunchiligiga muvofiq belgilangan rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensasiya va ishlamagan vaqt uchun haq to‘lashdan jismoniy shaxs oladigan daromadlar ham kiritiladi.

Daromadlar turli manbalardan tashkil etilishi, ularning daromadlariga nisbatan chegaralangan soliq munosabatlarini joriy etilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu borada shuni ham ta’kidlab o‘tish zarurki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i faqat budjet daromadlarini oshirishga xizmat qilish bilan chegaralanmasligi, balki aholi keng qatlamlarining turmush darajasini, ular daromadlari hamda to‘lov qobiliyatlarini oshirishga ham xizmat qilmog‘i lozim.

Daromadlarini soliqqa tortish jarayonining jadallashishi XIX asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Daromad solig‘i Buyuk Britaniyada 1842-yildan, Yaponiyada 1887-yildan, Germaniyada 1891-yildan, AQShda 1913-yildan, Fransiyada 1914-yildan joriy qilingan. Sobiq SSSRda 1922-yil 16-noyabrdagi Dekretga ko‘ra daromad-mulk solig‘i degan umumiy nom bilan joriy qilingan va 1924-yildan daromad solig‘iga aylantirilgan hamda 1991-yilgacha ishchi va xizmatchilarning maoshidan tabaqalashgan shkala bo‘yicha undirilgan[7].

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i davlat budjeti daromadlarida salmoqli o‘rinni egallab, u umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi. Shuning uchun ushbu soliq har bir soliq to‘lovchi sub’ekt hayotida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli respublikamizda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lovchilar soni, ular uchun hisoblangan daromad solig‘i hamda jismoniy shaxslar tomonidan to‘langan daromad solig‘i tushumlari dinamikasini so‘nggi besh yil yakuni bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, unda soliq to‘lovchilar soni va ular tomonidan to‘langan daromad solig‘i muntazam ravishda ko‘payishi kuzatilganligini ko‘rishimiz mumkin, bu aholi daromadlarining muntazam oshayotganligidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lovchilar soni, ularga hisoblangan daromad solig‘i va to‘langan soliq summasi to‘g‘risida ma’lumot[8]

№	Yillar	Daromad solig‘i to‘lovchilar soni	Hisoblangan daromad solig‘i summasi (mlrd.so‘m)	To‘langan daromad solig‘i summasi (mlrd.so‘m)	Har bir soliq to‘lovchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha summa (ming.so‘m)
1	2012 yil	4 075 581	2 221,4	2 301,8	564,7
2	2013 yil	4 128 826	2 687,8	2 717,3	658,1
3	2014-yil	4 346 117	3 104,2	3 261,7	750,5
4	2015-yil	4 325 835	3 534,8	3 800,7	878,6
5	2016-yil	4 394 285	3 835,4	4 137,4	941,5
6	2017-yil	4 408 860	4 648,3	4 876,4	1106,0
7	2018-yil	4 545 217	5 392,0	6 422,7	1413,1
8	2019 yil	4 686 237	13 170,9	13327,5	2844,0
9	2020-yil	4 422 924	14 415,2	15140,8	3423,3
10	2021 yil	4 802 617	17 548,2	18 918,0	3939,1
11	2022 yil	5 018 032	22 157,1	24 284,5 [17]	4839,5
12	2023 yil	5 527 005*	28 296,2	29 917,4 [17]	5412,9
13	2024 yil	5 754 124*	38 477,3	35394,1 [17]	6551,1

**jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan birga.*

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlashga qaratilgan qator amaliy islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat organlarining rasmiy veb-saytlari va ochiq ma’lumotlar portalida (data.gov.uz) axborotlarni muntazam e’lon qilish tizimi yo‘lga qo‘yildi, byudjet ma’lumotlarini ochiq shaklda taqdim etish amaliyoti kengaytirildi hamda davlat xaridlari jarayonlari elektron platformalar orqali o‘tkazila boshlandi. Shuningdek, davlat organlarida ochiqlik indeksini joriy etish, jamoatchilik muhokamalari va ochiq eshituvlar o‘tkazish mexanizmlari yo‘lga qo‘yildi. Ushbu chora-tadbirlarning asosiy maqsadi davlat boshqaruvida hisobdorlikni kuchaytirish va korrupsion xavflarni kamaytirishdir.

Lex.uz bazasida e’lon qilingan ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, 2014–2025 yillar oralig‘ida davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan **40 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar** qabul qilingan**.**

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, normativ faollik ayniqsa 2021–2024 yillarda keskin oshgan. Agar 2014–2018 yillarda ochiqlik siyosatining asosiy huquqiy bazasi shakllangan bo‘lsa, 2021 yildan boshlab ochiqlikni amaliy joriy etish, baholash va monitoring qilish mexanizmlari kengaytirilgan. 2024–2025 yillarda esa sektorlar kesimida (qurilish, ekologiya, sud tizimi, davlat xaridlari) shaffoflikni kuchaytirishga qaratilgan maxsus hujjatlar qabul qilingan.

Normativ-huquqiy hujjatlar sonining ko‘pligi va ularning tematik kengayishi O‘zbekistonda ochiqlik siyosati faol ravishda institutsionallashayotganini ko‘rsatadi. Biroq normativ bazaning mavjudligi o‘z-o‘zidan yetarli emas. Asosiy masala amaliy ijro samaradorligi va hisobdorlik mexanizmlarining ishlashidagina namoyon bo`ladi.

O‘zbekistonda davlat organlari faoliyatining ochiqlik darajasini baholash tizimi (Ochiqlik indeksi) 2022 yilda PF-154-son Farmon asosida joriy etilgan bo`lib, uning asosiy maqsadi — davlat organlarining axborot e’lon qilish majburiyatlarini nazorat qilish, ochiqlik darajasini reyting asosida baholash va ular o‘rtasida hisobdorlikni kuchaytirishdan iborat.

Ochiqlik indeksi davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini 8 ta asosiy yo‘nalish bo‘yicha baholashni nazarda tutadi. Amaldagi metodika davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini institutsional darajada tartibga solishga xizmat qiladigan tizimli modelni shakllantirgan. Unda rasmiy veb-saytlar faoliyati, elektron xizmatlar, ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarning e’lon qilinishi, byudjet va davlat xaridlari ochiqligi, ochiq ma’lumotlar portali bilan integratsiya, kommunikatsiya texnologiyalari hamda korrupsiyani barvaqt aniqlash mexanizmlari yagona indeks doirasida birlashtirilgan. Bu tizim ochiqlikni alohida-alohida yo‘nalishlar bo‘yicha emas, balki davlat boshqaruvining bir butun mexanizmi sifatida baholash imkonini beradi. Ayniqsa, byudjet jarayoni, xaridlar, mansabdor shaxslar xarajatlari va manfaatlar to‘qnashuvi kabi korrupsion xavfi yuqori yo`nalishlarning kiritilishi metodikaning kuchli jihati hisoblanadi.

Biroq tahlillarga ko‘ra, baholash mezonlarining katta qismi “mavjudlik” tamoyiliga asoslangan. Ya’ni ma’lumot e’lon qilinganmi yoki yo‘q, sahifa tashkil etilganmi yoki yo‘q, havola bormi yoki yo‘q — shular asosiy o‘lchov mezoni sifatida qo‘llanadi. Bu esa formal ochiqlikni baholash imkonini beradi, ammo axborotning sifati, tushunarliligi, to‘liqligi va amaliy ahamiyati yetarlicha o‘lchanmaydi. Masalan, davlat xaridlari bo‘yicha ma’lumot e’lon qilingani baholanadi, lekin uning real tahlil qilishga yaroqliligi, narx samaradorligi yoki raqobat darajasiga ta’siri alohida ko‘rsatkich sifatida nazarda tutilmagan.

Yana bir muhim masala — mezonlar o‘rtasidagi og‘irlik muvozanati. Ayrim hollarda yuqori korrupsion xavfga ega bo‘lgan yo‘nalishlar (kapital qo‘yilmalar, yirik xaridlar, mansabdor shaxslar xarajatlari) texnik xarakterdagi mezonlar (mobil versiya, havolalar soni, dizayn mosligi) bilan deyarli teng ballga ega bo‘lib qolgan. Bu esa baholash natijalarida real xavf darajasi va ijtimoiy ahamiyat inobatga olinmay qolishiga olib kelishi mumkin. Ochiqlik indeksi korrupsiyani kamaytirishga xizmat qilishi uchun aynan moliyaviy va qaror qabul qilish jarayonlari bilan bog‘liq bloklarga ustuvor og‘irlik berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Metodikaning yana bir cheklangan tomoni — natijaviylik indikatorlarining yetishmasligi. Masalan, korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berish kanallari mavjudligi baholanadi, ammo ushbu kanallar orqali nechta murojaat kelib tushgani, ular qanday ko‘rib chiqilgani va qanday choralar ko‘rilgani tizimli tarzda baholanmaydi. Xuddi shuningdek, jamoatchilik kengashlari faoliyati hujjatlar mavjudligi orqali o‘lchanadi, lekin ularning real ta’siri, berilgan tavsiyalar ijrosi yoki davlat organi faoliyatiga qo‘shgan hissasi aniq ko‘rsatkichlar bilan ifodalanmagan. Bu esa ochiqlikning amaliy samaradorligini aniqlashni qiyinlashtiradi.

Bundan tashqari, ochiqlikni baholash jarayonida faqat davlat organlarining

o‘zaro hisobot almashinuvi bilan cheklanib qolmasdan, mustaqil ishtirok mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, baholash komissiyasi tarkibiga jamoatchilik vakillari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda akademik mutaxassislarni jalb etish, e’lon qilingan ma’lumotlarni tanlanma asosida mustaqil ekspertiza qilish va tahliliy xulosalarni ochiq e’lon qilish tizimning ishonchliligini oshiradi. Bu yondashuv baholashni ichki nazorat mexanizmidan kengroq, ijtimoiy nazorat elementlari bilan boyitilgan ochiq va ishonchli tizimga aylantiradi.

Umuman olganda, amaldagi baholash mezoni davlat boshqaruvida ochiqlikni tartibga solish va minimal standartlarni joriy etish uchun muhim huquqiy-institutsional asos yaratgan. Biroq uni yanada takomillashtirish uchun formal ochiqlikdan mazmunli shaffoflikka o‘tish zarur. Buning uchun:

ma’lumotlarning sifat ko‘rsatkichlarini joriy etish,

korrupsion xavf darajasiga mos og‘irlik tizimini ishlab chiqish,

foydalanuvchi ishtiroki va natijaviylik indikatorlarini qo‘shish hamda

mustaqil tashqi baholash va tasdiqlash mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ana shunda ochiqlik indeksi nafaqat axborot joylashtirish intizomini, balki real shaffoflik va korrupsiyaga qarshi ta’sirni ham o‘lchaydigan samarali instrumentga aylanishi mumkin.

2024 yil yakunlari bo‘yicha davlat organlari faoliyatining ochiqlik darajasini baholash tizimi ijobiy natijalarni ko‘rsatgan bo‘lsa-da, uning institutsional qamrovi va metodologiyasida qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, baholashda 90 dan ortiq davlat organlari va tashkilotlari qamrab olingan bo‘lsa-da, davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan faoliyat yurituvchi subyektlar soni bundan ancha ko‘p. Shu sababli hududiy tuzilmalar, davlat ulushi mavjud korxonalar va ayrim byudjet tashkilotlari baholashdan chetda qolmoqda. Bundan tashqari, e’lon qilinayotgan ma’lumotlar sifati ham bir xil emas: ayrim hollarda axborot tartibsiz, topish qiyin yoki yagona standartga mos bo‘lmagan shaklda joylashtiriladi. Bu esa formal ochiqlik mavjud bo‘lsa-da, undan amaliy foydalanish imkoniyatini cheklaydi.

Shuningdek, fuqarolarning davlat organlaridan axborot so‘rash mexanizmlarida ham ayrim kamchiliklar mavjud. Amaldagi qonunchilikda axborot so‘rovlariga javob berish muddatlari belgilangan bo‘lsa-da, shoshilinch so‘rovlar uchun alohida tartib nazarda tutilmagan. So‘rovni tegishli organga yo‘naltirish mexanizmi mavjud, biroq fuqaroga qo‘shimcha tushuntirish berish va bir nechta organ vakolatiga oid masalalarda koordinatsiya qilish tartibi aniq emas. Bundan tashqari, anonim so‘rovlarning ko‘rib chiqilmasligi, mustaqil apellyatsiya organining mavjud emasligi hamda javob sifati bo‘yicha aniq mezonlarning belgilanmaganligi axborot olish huquqining amaliy samaradorligini pasaytiradi. Shu bois ochiqlik tizimini takomillashtirishda qamrovni kengaytirish, ma’lumotlar sifatini oshirish va mustaqil nazorat mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston tajribasi davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha muhim huquqiy hamda institutsional asos yaratilganini ko‘rsatadi.

Ochiqlik indeksi, elektron davlat xaridlari va ochiq ma’lumotlar portalining joriy etilishi bu yo‘nalishda muhim qadam bo‘ldi. Biroq amaliy tahlillar tizim hali to‘liq yetuk emasligini ko‘rsatmoqda: baholash qamrovi cheklangan, mezonlar asosan ma’lumot mavjudligiga qaratilgan, axborot sifati va foydalanish imkoniyati esa yetarli baholanmaydi. Shu bois ochiqlik siyosatining keyingi bosqichida baholash qamrovini kengaytirish, ma’lumotlar sifati va standartlashtirilishini kuchaytirish, shuningdek mustaqil nazorat va apellyatsiya mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Ana shundagina ochiqlik indeksi hisobot vositasi emas, balki korrupsion xavflarni kamaytiruvchi samarali boshqaruv instrumentiga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kaufmann D., Kraay A., Mastruzzi M. The Worldwide Governance Indicators: Methodology and Analytical Issues // World Bank Policy Research Working Paper. – 2010. – URL: https://info.worldbank.org/governance/wgi/
2. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2023–2025. – Berlin: Transparency International. – URL: https://www.transparency.org/en/cpi
3. OECD. Preventing Corruption in Public Procurement. – Paris: OECD Publishing, 2017. – URL: https://www.oecd.org/gov/ethics/public-procurement.htm
4. International Budget Partnership. Open Budget Survey 2023. – Washington, DC. – URL: https://www.internationalbudget.org/open-budget-survey/
5. International Monetary Fund. Fiscal Transparency Code. – Washington, DC: IMF. – URL: https://www.imf.org/external/np/fad/transparency
6. United Nations Office on Drugs and Crime. United Nations Convention against Corruption (UNCAC). – Vienna: UNODC. – URL: https://www.unodc.org/unodc/en/corruption/uncac.html
7. Open Government Partnership. OGP National Action Plans and Reports. – URL: https://www.opengovpartnership.org
8. European Bank for Reconstruction and Development. Transition Report 2023–2024. – London: EBRD. – URL: https://www.ebrd.com/publications/transition-report
9. Asian Development Bank. Asian Development Outlook 2024. – Manila: ADB. – URL: https://www.adb.org/publications/asian-development-outlook
10. Pulatov D., Baykalanov J. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish va kurashish muhitini yaratish bo‘yicha xalqaro tajriba. Moliyachi ma’lumotnomasi. -T.: – 2022. - №4(124). – B. 7-9. Пулатов Д., Байкаланов Ж. Международный опыт борьбы с коррупцией и создание среды борьбы в Узбекистане. Молиячи маълумотномаси. – 2022. - №4(124). – Б. 84-94. http://portal.tcmf.uz/uploads/KO/1qnWFFT5eTj9LiJKcphWTW_ilaTb3KvwNR4ZfiSBOwhofaHN.pdf
11. Pulatov D. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi islohotlar va korrupsiyaga qarshi kurashning o‘ziga xos xususiyatlari // Moliyachi ma’lumotnomasi. -T.: – 2019. - №11(95). – B. 26-29. Пулатов Д.

Антикоррупционные реформы и особенности борьбы с коррупцией в Республике Узбекистан. – 2019. - №11(95). – Б. 65-68. http://portal.tcmf.uz/uploads/Zu/zNjYtEm3MReqpmOeukFL5V2Y48-CYFUPrV88tILeGcjyVEA2.pdf

12. Qoraboyev B. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha samarali instrumentlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjet-soliq tadqiqotlari instituti. -T.: - 2020. - 45 b.

13. Isroilov, B. I., U. Kh Abduganiyev, and B. B. Ibragimov. "Financial control of public procurement to prevent corruption in the development of digital economy." 2nd international scientific and practical conference “modern management trends and the digital economy: From regional development to global economic growth”(MTDE 2020). Atlantis Press, 2020.

14. Абдуганиев, У. Х. “Роль цифровых технологий в снижении коррупционных рисков экономической безопасности.” Проблемы развития сферы услуг в условиях инновационной и цифровой экономики./Материалы Международной научно-практической конференции (Часть V). 2021.

BANK BOSHQARUVIDA MUOMALA MADANIYATINING AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Ilmiy rahbar: Norqulov Habibullo
SamISI, Bank ishi kafedrasi assistenti
Haqnazarova Xonzoda
SamISI, MK-122 guruh talabasi

Annotatsiya. *Mazkur tezisda bank boshqaruvida muomala madaniyatining nazariy va amaliy jihatlari, uning ichki va tashqi kommunikatsiyaga ta’siri, shuningdek, samarali muomala madaniyatini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Bank tizimida muomala madaniyati mijozlar bilan ishonchli munosabatlarni shakllantirish, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish va ichki nazorat tizimini mustahkamlashda muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *bank boshqaruvi, muomala madaniyati, kommunikatsiya, korporativ boshqaruv, etika, shaffoflik.*

Kirish. Banklar zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim instituti sifatida moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, bank faoliyatining samaradorligi faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki inson omili, xususan, muomala madaniyati darajasi bilan ham belgilanadi. Muomala madaniyati bank xodimlari o‘rtasidagi, shuningdek, xodimlar va mijozlar o‘rtasidagi muloqot me’yorlari va amaliyotlari majmui bo‘lib, u bank faoliyatining ajralmas tarkibiy qismidir. Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida banklarda shaffoflik, ochiqlik va mijozlarga yo‘naltirilganlik darajasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli muomala madaniyatini rivojlantirish banklarning uzoq muddatli barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi.

Asosiy qism. Bank boshqaruvida muomala madaniyati ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

1.Ichki muomala madaniyati – xodimlar o‘rtasidagi munosabatlar, axborot almashinuvi va jamoaviy ish muhitini o‘z ichiga oladi;

2.Tashqi muomala madaniyati – bankning mijozlar, hamkorlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan aloqalarini qamrab oladi.

Ichki muomala madaniyati samarali tashkil etilganda, tashkilot ichida ochiq muloqot, tezkor axborot almashinuvi va yuqori darajadagi mas’uliyat shakllanadi. Aksincha, yopiq kommunikatsiya tizimi xatolar, tushunmovchiliklar va korrupsion xavflarning oshishiga olib keladi. Tashqi muomala madaniyati esa mijozlar bilan munosabatlarda halollik, xushmuomalalik va huquqiy me’yorlarga rioya qilish orqali bank obro‘sini oshirishga xizmat qiladi.

Korporativ boshqaruv va muomala madaniyati:

Muomala madaniyatini shakllantirishda bank rahbariyatining roli alohida ahamiyatga ega. Boshqaruv organlari tomonidan axloqiy me’yorlar, shaffoflik va hisobdorlik prinsiplari joriy etilishi lozim.

Korporativ boshqaruv tizimida:

1. Axloq kodekslarini ishlab chiqish;
2. Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish;
3. Ichki nazorat va audit tizimlarini kuchaytirish;
4. Maxsus qo‘mitalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish kabi chora-tadbirlar muomala madaniyatini rivojlantirishning muhim omillari hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro standartlar, xususan, korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari banklarda ochiqlik va ishonchlilikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bank boshqaruvida muomala madaniyati strategik ahamiyatga ega bo‘lgan omil hisoblanadi. U nafaqat bankning ichki faoliyatini samarali tashkil etishga, balki tashqi muhit bilan barqaror aloqalarni o‘rnatishga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda banklar muomala madaniyatini oddiy kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki boshqaruvning muhim elementi sifatida qabul qilishlari zarur. Axloqiy tamoyillarga asoslangan ochiq va shaffof muloqot banklarning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Schein, Edgar H., and Peter Schein. Tashkiliy Madaniyat va Yetakchilik. Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2017.

2. Acharya, V. V. S. Risk va Ishonch Bank ishida: Mas'uliyatli moliyaviy tizim sari. Singapore: Springer, 2021.

3. Maes, P. F. V., and S. I. L. S. J. Verhoeven. "Ichki kommunikatsiya strategiyalari va xodimlar jalbi moliya sektorida: ING Bank Belgium misolida keys tadqiqoti." Aloqa Menejmenti Jurnali, vol. 20, no. 4, 2016, pp. 312-327.

TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KICHIK VA O'RTA BIZNESNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MASALALARI

Niyozov Zuxur Davronovich
Samarqand iqtisodiyot va servis insitituti
"Bank ishi" kafedrasi I. f. n, prof. v b.
Azamov Og'abek Ulug'bek o'g'li
SamISI, "Bank-Moliya xizmatlari" fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tijorat banklaridagi to'lov tizimlarini takomillashtirish orqali kichik va o'rta biznesni (KOB) moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalari tahlil qilinadi. Raqamli to'lov infratuzilmasining KOB faoliyatiga ta'siri, mavjud muammolar va xalqaro tajriba asosida milliy bank amaliyotini rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqiladi. To'lov tizimlarini modernizatsiya qilish orqali KOB moliyaviy kirishimligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *tijorat banklari, to'lov tizimlari, kichik va o'rta biznes, moliyaviy inklyuzivlik, raqamli to'lovlar, bank xizmatlari, fintex, iqtisodiy rivojlanish.*

Kirish. Hozirgi davrda kichik va o'rta biznes subyektlari iqtisodiy tizimning muhim drayverlaridan biri sifatida qaralib, ular milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda yetakchi rol o'ynaydi. O'zbekiston sharoitida ushbu sektor yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda hamda aholi bandligini ta'minlashda salmoqli ulushga ega bo'lib, iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, KOB subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi, ayniqsa zamonaviy to'lov tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari hali yetarli darajada rivojlanmagan. Tijorat banklarida to'lov infratuzilmasini takomillashtirish ushbu subyektlarning moliyaviy faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim vosita sifatida qaraladi. Zamonaviy to'lov texnologiyalarining joriy etilishi operatsion jarayonlarni soddalashtirish bilan birga, moliyaviy oqimlarning shaffofligini oshiradi, kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi hamda tadbirkorlik subyektlarining yangi bozor segmentlariga chiqishiga sharoit yaratadi.

So'nggi yillarda mamlakatda to'lov tizimlarini rivojlantirish yo'nalishida sezilarli institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, banklararo hisob-kitob tizimlari modernizatsiya qilindi, mobil va kontaktsiz to'lov vositalari keng joriy etildi hamda raqamli to'lov instrumentlari ommalashdi. Biroq, ushbu ijobiy o'zgarishlarga qaramay, to'lov xizmatlari narxining nisbatan yuqoriligi, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va hududlar o'rtasidagi tafovutlar KOB subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini cheklab qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, to'lov tizimlari rivoji bilan kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asosda o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur

yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar bank tizimi samaradorligini oshirish va KOBni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Kichik va o‘rta biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda to‘lov tizimlarining o‘rni iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar moliyaviy infratuzilmaning kengayishi biznes subyektlarining iqtisodiy natijadorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, Jahon banki tadqiqotchilari — iqtisodiyot fanlari doktori (PhD) T. Beck hamda A. Demirgüç-Kunt o‘zlarining *“Small and Medium-Size Enterprises: Access to Finance as a Growth Constraint”* (2006) nomli ilmiy maqolasida moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasining oshishi KOB daromadlari o‘sishiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatishini empirik jihatdan asoslab bergan (1).

Moliyaviy inklyuzivlikni ta’minlashda to‘lov infratuzilmasining ahamiyati iqtisodiyot fanlari doktori S. Claessens tomonidan *“Access to Financial Services: A Review of the Issues and Public Policy Objectives”* (2006) asarida keng tahlil qilinib, unda aynan raqamli to‘lov tizimlari moliyaviy xizmatlardan foydalanishni kengaytiruvchi asosiy mexanizm sifatida talqin etiladi (2).

Milliy ilmiy yondashuvlar doirasida iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sh.Z. Abdullayeva o‘zining *“Pul, kredit va banklar”* (2010) darsligida to‘lov xizmatlarini modernizatsiya qilish bank tizimi barqarorligini ta’minlash, moliyaviy oqimlarni optimallashtirish va mijozlar bazasini kengaytirishning muhim omili ekanligini asoslaydi (3).

Shuningdek, iqtisodiyot fanlari doktori, professor F.M. Mullajonov tomonidan yozilgan *“O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi”* (2011) asarida to‘lov tizimlari rivoji banklararo raqobatni kuchaytirish va moliyaviy xizmatlar sifatini oshirishning strategik yo‘nalishi sifatida baholanadi (4).

Raqamli texnologiyalar keng joriy etilayotgan sharoitda to‘lov tizimlarining amaliy ahamiyati yanada ortib bormoqda. Jumladan, iqtisodiyot fanlari nomzodi A. Hamidov hamda tadqiqotchi B. Rahimov *“Raqamli moliya va kreditlash tizimlari”* (2019) nomli ilmiy ishida raqamli tranzaksiya tarixining mavjudligi kreditlash jarayonida muhim axborot manbai sifatida xizmat qilib, KOB subyektlarining kredit olish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi (5).

Biroq, ayrim ilmiy tadqiqotlarda ushbu yo‘nalishdagi muammolar ham tanqidiy baholanadi. Xususan, iqtisodiyot fanlari nomzodi U. Nazarov *“Raqamli iqtisodiyot sharoitida infratuzilma muammolari”* (2022) maqolasida to‘lov infratuzilmasidagi texnik kamchiliklar, hududlararo nomutanosibliklar va xizmatlar sifati bilan bog‘liq muammolar KOB rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi muhim omillar ekanligini qayd etadi (6).

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda kompleks ilmiy yondashuv asosida bir qator metodlardan foydalanildi. Xususan, tizimli va qiyosiy tahlil usullari orqali bank tizimida korporativ boshqaruv va raqamli transformatsiya jarayonlari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Statistik tahlil yordamida mavjud ko‘rsatkichlarning dinamikasi va o‘zgarish tendensiyalari baholandi. Shuningdek,

kontent tahlili usuli orqali normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy manbalar mazmuni chuqur tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. 1-rasm O‘tkazilgan tadqiqot natijalari kichik va o‘rta biznes (KOB) faoliyatida raqamli to‘lov infratuzilmasining ahamiyatini kompleks tarzda baholash imkonini berdi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli to‘lov infratuzilmasining rivojlanishi bilan KOB kreditlash hajmi o‘rtasida kuchli musbat korrelyatsiya mavjud bo‘lib (r=0,94), bu holat ularning o‘zaro chambarchas bog‘liqligini tasdiqlaydi. Xususan, 1-jadvalning chap qismida aks ettirilganidek, raqamli to‘lovlar ulushining 2020-yildagi 24,3 foizdan 2024-yilda 79,4 foizga oshishi bilan bir vaqtda KOB kreditlari hajmi 14,2 mlrd so‘mdan 40,5 mlrd so‘mga ko‘tarilgan. Mazkur tendensiya raqamli to‘lov tizimlari orqali shakllanadigan tranzaksiya ma’lumotlari KOB subyektlarining moliyaviy shaffofligini oshirishini, natijada banklar uchun kredit risklarini baholash jarayonini yengillashtirishini va kreditlash faolligining ortishiga xizmat qilishini ko‘rsatadi.



1-rasm. KOB kreditlari, raqamli to'lovlar dinamikasi va to'lov tizimlari qulayligi bo'yicha KOB baholari (O'zbekiston, 2020–2024)

Shu bilan birga, so‘rovnoma natijalari asosida olingan empirik ma’lumotlar ham to‘lov tizimlarining KOB faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi. Xususan, 1-rasmning o‘ng qismida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2022–2024-yillar davomida barcha to‘lov instrumentlari bo‘yicha KOB baholari izchil ravishda oshgan. Ayniqsa, QR-kod asosidagi to‘lovlar bo‘yicha bahoning 2,5 balldan 4,1 ballga, ya’ni 64 foizga oshgani ushbu texnologiyaning KOB muhitiga tez sur’atlarda kirib borayotganini anglatadi. So‘rovnoma ishtirokchilarining 78 foizi to‘lov tizimlarining takomillashuvi ularning savdo aylanmasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini qayd etgan bo‘lsa, 62 foizi raqamli to‘lov tarixi mavjudligi bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirganini ta’kidlagan. Biroq, tadqiqot qilingan KOBlarning muayyan qismi hali ham tizimli muammolarga duch kelayotganini ko‘rsatadi: 43 foizi yuqori komissiya to‘lovlaridan, 37 foizi texnik nosozliklardan hamda 29 foizi qishloq hududlarida internet infratuzilmasining past darajada rivojlanganligidan norozi ekanligini bildirgan.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, to‘lov infratuzilmasining rivojlanish darajasi kichik va o‘rta biznes subyektlarining

moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Xalqaro tajriba asosida aniqlanishicha, to‘lov tizimlari va bank xizmatlarining integratsiyalashuvi biznes subyektlarining daromadlari hamda moliyaviy faolligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Xususan, ayrim rivojlangan mamlakatlarda to‘lov ekotizimining chuqur integratsiyasi natijasida KOB subyektlari daromadlarining barqaror o‘sishi ta’minlangan bo‘lsa, moliyaviy platformalar orqali bizneslarni rasmiy sektorga jalb qilish darajasi ham keskin oshgan.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston sharoitida ham raqamli to‘lov tizimlarini KOB faoliyati bilan uyg‘unlashtirish muhim strategik yo‘nalish sifatida qaralishi lozim. Ayniqsa, yaqin iqtisodiy tizimlarga ega davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yagona to‘lov platformalarini joriy etish orqali biznes subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini oshirish hamda kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida tijorat banklari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bir qator amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, KOB subyektlari uchun ixtisoslashtirilgan to‘lov mahsulotlarini ishlab chiqish zarur. Bunda past komissiyali xizmatlar, bepul yoki subsidiyalangan to‘lov qurilmalari, masofaviy hisob-kitob xizmatlari hamda tranzaksiya tarixiga asoslangan kredit baholash tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu choralar banklar uchun yangi mijozlar segmentini shakllantirish bilan birga, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy yukini kamaytiradi.

Bundan tashqari, KOB subyektlariga xizmat ko‘rsatishda yagona integratsiyalashgan to‘lov platformasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tizim tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarni yagona muhitga birlashtirish orqali bozor raqobatini kuchaytiradi, xizmatlar tannarxini pasaytiradi hamda foydalanuvchilar uchun qulay va shaffof xizmat modelini yaratadi. Shu bilan birga, ushbu platforma doirasida shakllanadigan moliyaviy ma’lumotlarni kreditlash jarayonlariga integratsiya qilish orqali garovga asoslangan kreditlash mexanizmlarini bosqichma-bosqich qisqartirish imkoniyati yuzaga keladi.

Davlat siyosati darajasida esa tijorat banklarining raqamli to‘lov infratuzilmasiga yo‘naltirilgan investitsiyalarini rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, soliq imtiyozlari va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralarini joriy etish orqali banklarning innovatsion texnologiyalarga bo‘lgan investitsion faolligini oshirish mumkin. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bunday choralar qisqa muddatda byudjet xarajatlarini oshirishi mumkin bo‘lsa-da, uzoq muddatda iqtisodiy faollikning kengayishi hisobiga ijobiy fiskal natijalarni ta’minlaydi.

Umuman olganda, to‘lov tizimlarini rivojlantirish orqali kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bank tizimi samaradorligini oshirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Beck T., Demirgüç-Kunt A. Small and Medium-Size Enterprises: Access to Finance as a Growth Constraint // *Journal of Banking & Finance*. — 2006. — Vol. 30. — No. 11. — P. 2931–2943.
2. Claessens S. Access to Financial Services: A Review of the Issues and Public Policy Objectives // *World Bank Policy Research Working Paper*. — Washington, 2006. — No. 3581.
3. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar: Darslik. — Toshkent: «Iqtisodiyot», 2017. — 412 b.
4. Mullajonov F.M. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: Monografiya. — Toshkent, 2011. — 296 b.
5. Hamidov A., Rahimov B. Raqamli moliya va kreditlash tizimlari: zamonaviy tendensiyalar // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. — 2019. — №4. — B. 14–25.
6. Nazarov U. Raqamli iqtisodiyot sharoitida infratuzilma muammolari va ularning moliyaviy inklyuzivlikka ta’siri // Samarqand iqtisodiyot va servis instituti «Ilmiy xabarnoma» jurnali. — 2022. — №3. — B. 76–88.

ЛИКВИДНОСТИ НЕБАНКОВСКИХ КРЕДИТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Улухходжаева Умида Абдуллаевна
Соискатель кафедры «Банковское дело»
Ташкентского государственного экономического университета
E-mail: ulukhkhodjaeva.u@gmail.com
Тел: + +99897 423 09 55

Согласно Закону Республики Узбекистан «О небанковских кредитных организациях и микрофинансовой деятельности» микрофинансовые организации вправе: осуществлять микрофинансовую деятельность; осуществлять функции платежного агента (субагента) или агента банков, страховых и иных финансовых организаций; оказывать консультационные и информационные услуги, связанные с осуществляемой ими деятельностью; предоставлять субъектам предпринимательства кредиты, лизинг, гарантии, оказывать услуги по финансированию под уступку денежного требования (факторинг) и услуги исламского финансирования в размере, превышающем сумму микрокредита; предоставлять микрокредит в иностранной валюте и оказывать финансовые услуги, указанные в абзаце пятом настоящей части, юридическим лицам в иностранной валюте [1]. В свою очередь, обеспечение стабильного функционирования небанковских кредитных организаций обуславливает необходимость обеспечения их ликвидности.

Нас на практике микрофинансовые организации обязаны соблюдать следующие пруденциальные нормативы:

коэффициенты достаточности капитала;

коэффициенты ликвидности;

максимальный размер риска на одного заемщика или группу

взаимосвязанных заемщиков;

максимальный размер риска на связанные лица микрофинансовой организации;

максимальный размер инвестиций в уставный фонд (уставный капитал) и (или) долговые ценные бумаги юридических лиц



Рисунок 1. Доля высоколиквидных активов в общем объеме активов ломбардов и микрокредитных организаций в Узбекистана, в процентах[111]

Как видно из приведенных данных рис.1:

- доля высоколиквидных активов в общем объеме активов ломбардов в 2020-2024 годах имела тенденцию снижения;

- доля высоколиквидных активов в общем объеме активов микрокредитных организаций в 2020-2024 годах имела тенденцию снижения, однако, в 2025 году существенно повысилась по сравнению с 2021 годом.

По данным Центрального банка Республики Узбекистан, в течение 2025 года ны рынке появились 32 новых микрокредитных организаций и их общее количество составило 223 (из них: микрокредитные организации – 132, ломбарды - 91).

Одним из основных факторов, влияющих на ликвидность небаноквских кредитных организаций, является уровень проблемных кредитов.

[111] Рисунок составлен автором на основе статистических данных Центрального банка Республики Узбекистан.



Рисунок 2. Доля проблемных кредитов в общем объеме кредитов отдельных микрокредитных организаций в Узбекистана, в процентах[112], по состоянию на 1 января 2026 года

Как видно из приведенных данных рис.2, в рассмотренных микрокредитных организациях доля проблемных кредитов в общем объеме кредитов была очень высоким. Это отрицательно влияет на ликвидность микрокредитных организаций.

Необходимо отметить, что кредиты занимают очень высокий удельный весь в объеме активов небанковских кредитных организаций.

Нами сформулированы следующие выводы по обеспечению ликвидности небанковских кредитных организаций:

- при оценки ликвидности микрокредитных организаций широко используется следующие показатели: общей краткосрочной ликвидности; мгновенной ликвидности; текущей ликвидности; структуры привлеченных средств; – зависимости от межбанковского рынка; риска на крупных кредиторов и вкладчиков;

- небанковские финансовые посредники предоставляют участникам рынка альтернативные источники ликвидности и фондирования, что в некоторых случаях вызвано более успешным использованием новейших финансовых технологий и инструментов;

- наиболее важным аспектом регулирования деятельности большинства финансовых посредников является соблюдение ими приемлемого уровня кредитного риска;

- доля высоколиквидных активов в общем объеме активов ломбардов в 2020-2024 годах имела тенденцию снижения;

- доля высоколиквидных активов в общем объеме активов микрокредитных организаций в 2020-2024 годах имела тенденцию

[112] Рисунок составлен автором на основе статистических данных Центрального банка Республики Узбекистан.

снижения, однако, в 2025 году существенно повысилась по сравнению с 2021 годом;

- в 2025 году в рассмотренных микрокредитных организациях республики доля проблемных кредитов в общем объеме кредитов была очень высоким;

- в 2021-2025 годах кредиты в общем объеме активов ломбардов и микрокредитных организаций в Узбекистана занимали относительно высокий удельный весь.

На наш взгляд, для обеспечения ликвидности отечественных небанковских кредитных организаций необходимо принять следующие меры:

1. Необходимо повысить качество кредитного портфеля необходимо, во-первых, повысить уровень диверсификации кредитного портфеля по отраслевому принадлежности клиентов; во-вторых, в кредитной политики должна отражается нормативный уровень допустимого критического пределе просроченных кредитов; в-третьих, необходимо совершенствовать практике оценки кредитоспособности клиентов, основанные на финансовые коэффициенты; в-четвертых, повысить качества обработки информаций на основе современных цифровых технологий.

2. Для повышения уровня текущей ликвидности небанковских кредитных организаций за счёт фондовых инвестиций и повышения уровня капитализации необходимо, во-первых, увеличить сумму инвестиций на высоколиквидные ценные бумаги за счёт не снижаемого остатка расчётного счета; во-вторых, повысить уровень регулятивного капитала в объеме пассивов бухгалтерского баланса за счёт нераспределенной прибыли и за счёт субординированных долговых обязательств.

Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан №ЗРУ-675 от 20 апреля 2022 года. О небанковских кредитных организациях и микрофинансовой деятельности//Национальная база данных законодательства, 21.04.2022 г., № 03/22/765/0332; 28.02.2024 г., № 03/24/914/0161; 21.09.2024 г., № 03/24/964/0736; 12.02.2025 г., № 03/25/1026/0131.

2. Валинурова А.А., Валинуров Т.Р., Ксенофонтова О.Л. Теоретические основы оценки небанковских кредитных организаций//Современные наукоемкие технологии. Региональное приложение, 2020. - №4 (64). – С. 22-28.

3. Глушко Н.А. Методика оценки безопасного функционирования небанковских кредитно-финансовых организаций в Республике Беларусь//Вестник Полоцкого государственного университета, 2021. - №13. – С. 59-65.

4. Пашковская И.В. Небанковские финансовые посредники: становление системы регулирования и надзора//Финансовый журнал, 2015. - №6. – С. 102-111.

5. Anjali K., Sushma N., Swizen R. World Bank Lending for Financial Inclusion: Lessons from Reviews of Select Projectsю World Bank Group. Washington, DC. 2015//https:// openknowledge.worldbank.org.; Astaphan E., Cerruti C. and Gomez R. Dealing with Distressed Financial Cooperatives. A Caribbean Experience [Электронный ресурс] / The World Bank. March 2015. Режим доступа: https://openknowledge. worldbank.org.

6. Исаева П.Г., Османова С.М. Современные особенности деятельности небанковских кредитных организаций в Российской Федерации//Azimuth of Scientific Research: Economics and Administration, 2020. - № 2(31). – С. 176-178.

7. Ushanov A.E. (2023) Lombardnoe delo: riski i puti ikh minimizatsii [Pawnshop business: risks and mitigation]. Ekonomika, predprinimatelstvo i pravo. 13. (5). – 1693–1702. doi: 10.18334/epp.13.5.117554.

SAMARQAND VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI VA HOZIRGI KUNDAGI O'RNI

Xaydarov Jaxongir Aktamovich
SamISI PhD, dotsent v.v.b.
Abdullayeva Gulrux Erkin qizi
SamISI magistranti

Annotatsiya. *Ushbu tezisda Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish bosqichlari hamda uning hozirgi iqtisodiyotdagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotda xizmatlar sektorining tarixiy shakllanishi, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davridagi transformatsiyasi va hozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitidagi rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. Shuningdek, viloyatda xizmat ko‘rsatish sohasining YAIMdagi ulushi, kichik biznesning roli va innovatsion texnologiyalarning ta’siri tahlil etilgan. Natijalar Samarqand viloyati iqtisodiyotida xizmatlar sektorining strategik ahamiyatini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *Samarqand viloyati, xizmat ko‘rsatish sohasi, iqtisodiy rivojlanish, bosqichlar, raqamli iqtisodiyot, kichik biznes, innovatsiya, turizm, investitsiya.*

Annotation. *This thesis analyzes the development stages of the service sector in Samarkand region and its current role in the regional economy. The study highlights the historical formation of the service sector, its transformation during the transition to a market economy, and its development trends in the context of the digital economy. It also examines the sector’s share in regional GDP, the role of small businesses, and the impact of innovative technologies. The results demonstrate the strategic importance of the service sector in the economic development of Samarkand region.*

Keywords: *Samarkand region, service sector, economic development, stages, digital economy, small business, innovation, tourism, investment.*

Аннотация*. В данной тезисе анализируются этапы развития сферы*

услуг в Самаркандской области и её современная роль в региональной экономике. Рассматриваются историческое формирование сферы услуг, её трансформация в период перехода к рыночной экономике и современные тенденции развития в условиях цифровой экономики. Также анализируются доля сектора услуг в ВРП, роль малого бизнеса и влияние инновационных технологий. Результаты подчеркивают стратегическое значение сферы услуг в экономическом развитии Самаркандской области.

Ключевые слова. *Самаркандская область, сфера услуг, экономическое развитие, этапы, цифровая экономика, малый бизнес, инновации, туризм, инвестиции.*

Asosiy qism. Samarqand viloyati O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy, tarixiy va madaniy jihatdan eng muhim hududlaridan biri bo‘lib, xizmat ko‘rsatish sohasi uning iqtisodiy tizimida strategik ahamiyat kasb etadi. Viloyatning geosiyosiy joylashuvi, boy tarixiy merosi hamda turizm salohiyati xizmatlar sektorining shakllanishi va rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Xizmat ko‘rsatish sohasi Samarqand iqtisodiyotining tarkibiy qismi sifatida bir necha tarixiy bosqichlarda shakllanib, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot asosida yangi rivojlanish bosqichiga o‘tmoqda.

1. Xizmat ko‘rsatish sohasining tarixiy shakllanish bosqichi

Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish faoliyatining dastlabki shakllanishi qadimiy davrlarga, xususan Buyuk Ipak yo‘li davriga borib taqaladi. Bu davrda Samarqand Sharq va G‘arb o‘rtasidagi yirik savdo markazi bo‘lib, karvonlar uchun mehmonxona (karvonsaroy), oziq-ovqat, transport va savdo xizmatlari rivojlangan. Shahar hududida savdogarlar va sayyohlar uchun xizmat ko‘rsatish tizimi shakllanib, bu bugungi xizmatlar sektorining tarixiy asosini tashkil etgan.

Ushbu bosqichda xizmatlar asosan savdo va logistika bilan bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy munosabatlar tabiiy bozor tamoyillari asosida rivojlangan. Samarqandning tarixiy markaz sifatida shakllanishi xizmatlar sektorining ilk institutsional ko‘rinishlarini yuzaga keltirgan.

2. Sovet davrida xizmatlar sohasining markazlashgan rivojlanishi

Sovet davrida Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi davlat rejalashtirish tizimi asosida rivojlantirildi. Bu davrda ta’lim, sog‘liqni saqlash, transport va maishiy xizmatlar to‘liq davlat tomonidan boshqarildi. Xizmatlar hajmi kengaygan bo‘lsa-da, bozor mexanizmlari mavjud emasligi sababli raqobat va innovatsiya darajasi past bo‘lgan.

Shu bilan birga, ushbu davrda infratuzilma bazasi shakllandi: maktablar, kasalxonalar, transport tizimi va kommunal xizmatlar rivojlantirildi. Bu keyingi mustaqillik davrida xizmatlar sektorini rivojlantirish uchun asosiy poydevor vazifasini bajardi.

3. Mustaqillikdan keyingi bozor iqtisodiyotiga o‘tish bosqichi

1991-yildan keyin Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi tubdan o‘zgarish jarayoniga kirdi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan xususiy sektor shakllandi va xizmatlar sohasida raqobat muhiti paydo bo‘ldi. Savdo, umumiy ovqatlanish, transport, mehmonxona va maishiy xizmatlar sohalarida kichik

biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlana boshladi.

Bu bosqichda davlatning iqtisodiyotdagi roli qisqarib, xususiy sektorning ulushi ortdi. Xizmatlar sifati va turlari kengaydi, iste'molchilarning talablari asosida yangi xizmat turlari paydo bo'ldi. Ayniqsa, turizm sohasining rivojlanishi Samarqand viloyati uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochib berdi.

4. Innovatsion va raqamli rivojlanish bosqichi

So'nggi yillarda Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasi raqamli iqtisodiyot bilan integratsiyalashmoqda. Elektron to'lov tizimlari, onlayn savdo platformalari, raqamli bank xizmatlari va "elektron hukumat" tizimi xizmatlar samaradorligini oshirdi.

Raqamli transformatsiya natijasida xizmatlar tezkor, shaffof va qulay shaklga keldi. Ayniqsa, turizm sohasida raqamli platformalar orqali mehmonxonalarni bron qilish, elektron chipta tizimlari va mobil ilovalar keng joriy etildi. Bu esa Samarqandning xalqaro turizm markazi sifatidagi mavqeini yanada mustahkamladi.

5. Hozirgi kundagi o'rni va iqtisodiy ahamiyati

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasi Samarqand viloyati iqtisodiyotining eng yirik va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Viloyat YAIM tarkibida xizmatlar ulushi yildan-yilga oshib bormoqda. Bu holat iqtisodiyotning sanoat va qishloq xo'jaligiga bog'liqligini kamaytirib, diversifikatsiyani kuchaytirmoqda.

Xizmatlar sektorining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

turizm va mehmonxona xizmatlari

savdo va umumiy ovqatlanish

transport va logistika

moliyaviy va bank xizmatlari

IT va raqamli xizmatlar.

Ayniqsa, turizm sohasi Samarqand viloyati uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, Registon majmuasi, Shohi Zinda, Bibixonim masjidi kabi tarixiy obidalar orqali xalqaro turistlar oqimi ortib bormoqda.

6. Kichik biznes va investitsiyalarning roli

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Viloyatda xizmatlar sohasining katta qismi aynan kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilmoqda. Ular moslashuvchanligi va innovatsiyalarga tez moslashishi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalar va davlat qo'llab-quvvatlash dasturlari yangi mehmonxonalar, savdo markazlari va logistika xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining daromad darajasini oshirishga olib kelmoqda.

7. Mavjud muammolar va rivojlanish cheklovlari

Shu bilan birga, xizmatlar sohasida bir qator muammolar ham mavjud:

ayrim hududlarda infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi

raqamli savodxonlik darajasining pastligi

xizmatlar sifatidagi hududiy tafovutlar

investitsiyalarning notekis taqsimlanishi

Ushbu muammolar sohaning to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilmoqda.

8. Umumiy tahliliy xulosa

Umumiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi tarixiy rivojlanishdan boshlab bugungi raqamli iqtisodiyot bosqichigacha murakkab evolyutsion jarayonni bosib o‘tgan. Bugungi kunda bu soha viloyat iqtisodiyotining eng muhim drayveri bo‘lib, uning kelgusi rivojlanishi innovatsiyalar, investitsiyalar va davlat siyosatiga bevosita bog‘liqdir.

Xulosa. Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi tarixiy rivojlanish jarayonida bir necha bosqichlarni bosib o‘tib, bugungi kunda iqtisodiyotning eng muhim va strategik tarmoqlaridan biriga aylangan. Qadimiy Buyuk Ipak yo‘li davridan boshlangan xizmatlar tizimi dastlab savdo va logistika xizmatlari ko‘rinishida shakllangan bo‘lsa, keyinchalik sovet davrida markazlashgan boshqaruv asosida kengaygan. Mustaqillikdan so‘ng esa bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayoni xizmatlar sohasining tubdan transformatsiyasiga olib keldi. Hozirgi kunda Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, turizm, savdo, transport, IT va moliyaviy xizmatlar sohasida sezilarli rivojlanish kuzatilmoqda. Raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi xizmatlar sifatini oshirib, ularning tezkorligi va qulayligini ta’minlamoqda.

Shu bilan birga, soha rivojlanishida ayrim muammolar — infratuzilmaning notekisligi, raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi va investitsiyalarning hududlar bo‘yicha teng taqsimlanmaganligi — mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish orqali xizmatlar sektorining samaradorligini yanada oshirish mumkin. Umuman olganda, Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy diversifikatsiya, bandlikni oshirish va hududiy rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Kelgusida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va investitsion muhitni yaxshilash ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari: “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” (2022–2026).

2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi. “Samarqand viloyati ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari”, 2024.

3. World Bank. (2023). Uzbekistan Economic Update: Building a Competitive Service Sector. Washington, DC.

4. Asian Development Bank (ADB). (2022). Private Sector Development and Economic Diversification in Central Asia.

5. OECD. (2021). Services Trade and Economic Transformation. Paris.

6. UNCTAD. (2022). Digital Economy Report: Developing Countries Perspective.

7. Porter, M. E. (2019). Competitive Advantage of Nations. Harvard Business Review Press.

8. Karimov, A. (2023). “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish tendensiyalari”. Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali.
9. Xayrullayev, Sh. (2024). “Hududlarda xizmatlar sektorini rivojlantirish masalalari”. Ilmiy tadqiqotlar to‘plami.

SAMARQAND VILOYATIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Xaydarov Jaxongir Aktamovich
SamISI PhD, dotsent v.v.b.
Abdullayeva Gulrux Erkin qizi
SamISI magistranti

Annotatsiya. *Ushbu tezisda Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasining hozirgi holati, rivojlanish tendensiyalari hamda kelajakdagi istiqbollari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda xizmat ko‘rsatish sohasining hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni, uning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi va bandlikni ta’minlashdagi roli o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi, ayniqsa turizm, transport, savdo va IT xizmatlari tez sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, infratuzilma yetishmovchiligi, raqamlashtirish darajasining pastligi va malakali kadrlar tanqisligi kabi muammolar mavjudligi aniqlangan.*
Kalit so‘zlar: *xizmat ko‘rsatish sohasi, Samarqand viloyati, turizm, iqtisodiy rivojlanish, bandlik, infratuzilma, raqamli iqtisodiyot, servis sektori, investitsiya, hududiy rivojlanish*

Abstract. *This thesis scientifically analyzes the current state, development trends and future prospects of the service sector in Samarkand region. The study examines the role of the service sector in the regional economy, its share in the gross regional product and its role in providing employment. According to the results of the study, the service sector in Samarkand region, especially tourism, transport, trade and IT services, is developing rapidly. At the same time, it was revealed that there are problems such as lack of infrastructure, low level of digitalization and shortage of qualified personnel.*
Keywords: *service sector, Samarkand region, tourism, economic development, employment, infrastructure, digital economy, service sector, investment, regional development*

Аннотация. *В данной диссертации проведен научный анализ текущего состояния, тенденций развития и перспектив развития сектора услуг в Самаркандской области. Исследование рассматривает роль сектора услуг в региональной экономике, его долю в валовом региональном продукте и роль в обеспечении занятости. По результатам исследования, сектор услуг в Самаркандской области, особенно туризм, транспорт, торговля и ИТ-услуги, развивается быстрыми темпами. Одновременно выявлены*

проблемы, такие как недостаток инфраструктуры, низкий уровень цифровизации и нехватка квалифицированных кадров.

Ключевые слова: *сектор услуг, Самаркандская область, туризм, экономическое развитие, занятость, инфраструктура, цифровая экономика, сектор услуг, инвестиции, региональное развитие.*

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasi muhim o‘rin egallab bormoqda. Ayniqsa, Samarqand viloyati tarixiy va turistik salohiyati yuqori hududlardan biri sifatida xizmat ko‘rsatish sektorini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega [1].

Viloyatning geostrategik joylashuvi, madaniy merosi va turizm salohiyati xizmat ko‘rsatish turlarining kengayishiga zamin yaratadi. Shu sababli, ushbu sohani rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki yangi ish o‘rinlarini yaratishga ham xizmat qiladi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- statistik tahlil
- qiyosiy tahlil
- iqtisodiy indekslash
- hududiy tahlil
- rasmiy davlat statistik ma’lumotlarini o‘rganish

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Samarqand viloyati hokimligi va xalqaro iqtisodiy hisobotlar asosida tahlil qilindi [2].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi yalpi hududiy mahsulot tarkibida sezilarli ulushga ega bo‘lib, yildan-yilga oshib bormoqda [3], [4].

1-jadval
Рост безналичных платежей и QR-кодов. Среди ключевых тенденций мобильного банкинга в Узбекистане можно выделить активное распространение безналичных расчётов. QR-платежи получили широкое распространение в торговых точках, на рынках, в общественном транспорте. Национальная платёжная система HUMO и международные системы UzCard активно внедряют поддержку QR-кодов в своих приложениях. Согласно данным Центрального банка, за последние два года объём безналичных

платежей увеличился более чем на 60%. Это стало возможным благодаря росту числа терминалов, развитию электронной коммерции и поддержке предпринимателей в переходе на безналичные формы расчётов [3].

Научно-теоретические предложения и рекомендации:

1. Совершенствовать нормативно-правовую базу финтех-сектора с учётом международных стандартов для баланса инноваций и защиты потребителей.
2. Повышать финансовую и цифровую грамотность населения для расширения финансовой инклюзивности и роста социально-экономической активности.
3. Создать механизмы государственной поддержки финтех-стартапов и венчурного финансирования, включая регуляторные «песочницы».
4. Интегрировать цифровые технологии (ИИ, блокчейн, большие данные) в банковскую деятельность для повышения эффективности и безопасности операций.
5. Развивать инфраструктуру цифровых финансовых услуг в отдалённых регионах для обеспечения равного доступа.
6. Стимулировать расширение безналичных расчётов и сокращение наличного обращения через экономические механизмы поощрения.
7. Внедрить систему мониторинга и оценки цифровой трансформации финансового сектора для устойчивого развития и корректировки политики.

Заключение. Следовательно, развитие цифровых банковских услуг и финтех-решений в Узбекистане является одним из ключевых факторов повышения социально-экономической активности. Государственная политика цифровизации финансового сектора способствует расширению доступа к финансовым услугам, снижению транзакционных издержек и ускорению экономических процессов. Рост числа пользователей мобильного банкинга, увеличение объёмов безналичных платежей и развитие финтех-компаний свидетельствуют о формировании устойчивой цифровой финансовой экосистемы. Внедрение инноваций трансформирует банковский сектор, стимулирует предпринимательство и повышает уровень жизни населения. В перспективе развитие цифровых финансовых услуг и совершенствование нормативной базы будут способствовать укреплению конкурентоспособности экономики Узбекистана и её интеграции в глобальное цифровое пространство.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Karimov, I. (2019). Digitalization of the banking sector in Uzbekistan: Trends and challenges. Journal of Banking and Finance Research, 8(2), 45-56.
2. Анализ уровня развития онлайн банковских услуг. Режим доступа: https://infocom.uz/ru/articles/onlayn-bank-xizmatlarining-rivojlanish-darajasining-tahlili
3. Банковские технологии и тренды мобильного банкинга 2025 в Узбекистане. Режим доступа: https://cyberleninka.ru/article/n/bankovskie-tehnologii-i-trendy-mobilnogo-bankinga-2025-v-uzbekistane

4. Банкинг и финтех в Узбекистане. Режим доступа: https://plusworld.ru/articles/63228/nalichnoe-denezhnoe-obrashchenie/bankovskaya-roznitsa/

BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN MOLIYA SOHASIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
nsh272707@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada so‘nggi yillarda moliya sohasida yuz berayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari doirasida blokcheyn texnologiyasining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Blokcheynning markazlashtirilmagan tuzilishi, o‘zgarmasligi, shaffofligi va yuqori darajadagi xavfsizligi kabi xususiyatlari uning moliyaviy tizimda keng qo‘llanilishiga zamin yaratgani asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada blokcheyn texnologiyasining asosiy qo‘llanilish yo‘nalishlari – qimmatli qog‘ozlar bozori, bank xizmatlari, sug‘urta sohasi va aktivlarni boshqarish jarayonlaridagi roli batafsil yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *blokcheyn texnologiyasi, raqamli transformatsiya, kriptovalyuta, aqlli shartnoma, moliya bozori, shaffoflik, xavfsizlik.*

So‘nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari moliya sohasini tubdan o‘zgartirmoqda. Ana shunday texnologiyalardan biri – blokcheyn texnologiyasidir. Blokcheyn – bu ma’lumotlarni markazlashtirilmagan, o‘zgartirib bo‘lmaydigan va xavfsiz tarzda saqlash hamda uzatish imkonini beruvchi taqsimlangan reyestr texnologiyasidir. Dastlab “Bitcoin” kabi kriptovalyutalar asosida ommalashgan ushbu texnologiya bugungi kunda bank tizimi, fond bozori, sug‘urta, xalqaro to‘lovlar va hatto davlat moliyasida keng qo‘llanilmoqda. Xususan, PwC kompaniyasi tomonidan tayyorlangan global fintech bo‘yicha tahliliy hisobotda tranzaktsion blok zanjiri texnologiyani qo'llashning ulkan salohiyati haqida ta’kidlanib, bunda ushbu texnologiyalarning bir qator imkoniyatlari qatoriga buxgalteriya hisobini yuritishni sezilarli darajada soddalashtirish, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi uchun moliyaviy mahsulotlarga soddalashtirilgan holda kirish, kundalik moliyaviy operatsiyalarni takomillashtirish va soddalashtirish va boshqalar kiritilgan[122].

Bunga albatta blokcheyn texnologiyalariga xos bo‘lgan xususiyatlar sabab bo‘lmoqda. Quyidagi rasmda Blokcheynga xos bo‘lgan bir qator ijobiy xususiyatlar keltirilgan bo’lib, ularga toxtalib o’tsak:

- Operatsiyalar tezligi. Foydalanuvchilar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar almashinuvi tufayli tranzaktsiyalar markaziy organ tomonidan tasdiqlashni kutmasdan tezroq amalga oshiriladi. Blokcheynda tizimning barcha

[122] PWC Blurred lines: How FinTech is shaping financial services. URL: http://www.pwc.com/gx/en/industries/financial-services/fintech-survey/report.html

ishtirokchilari tranzaktsiyalarni tasdiqlash bilan shug'ullanadilar.

- Shaffoflik. Har bir tarmoq foydalanuvchisi undagi barcha bloklarga kirish huquqiga ega. Tarmoq a'zolari hamyon manzillarini, tranzaktsiyalar miqdorini va foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlaridan tashqari blokcheynga kiritilgan barcha ma'lumotlarni ko'rishadi. Bu esa blokcheynni anonim qiladi.

- O'zgarmaslik. Har bir yangi blokda oldingi ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular uzluksiz ma'lumotlar zanjirini yaratadi. Foydalanuvchi mavjud blokdagi ma'lumotlarni o'zgartira olmaydi, chunki buning uchun tarmoq ishtirokchilarining 50% dan ortig'ini tasdiqlash kerak bo'ladi.

- Xavfsizlik. Vositachilar bo'lsa, har doim ma'lumotlarning buzilishi yoki dastlabki sharoitlarning buzilishi xavfi mavjud. Blockchain ushbu xavfni algoritmlar yordamida operatsiyaning bajarilishini va oldindan belgilangan shartlarga rioya qilishni boshqaradigan aqlli shartnoma texnologiyasidan foydalangan holda yo'q qiladi.

- Tenglik. Tizimning barcha foydalanuvchilari blokcheynni shakllantirishda ishtirok etadilar va birgalikda qaysi blok keyingi qo'shilishini aniqlaydilar.



1-rasm. Blokcheyn texnologiyasining ustunliklari[123]

Umuman olganda blokcheyn texnolgiyalaridan moliya sohasida foydalanish jarayonlarini to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin:

- fond bozori;
- bank xizmatlari bozori;
- sug‘urta sohasi;
- aktivlarni boshqarish.

Quyida ularni batafsil ko‘rib chiqamiz:

1. Qimmatli qog'ozlar bozorlari. Blokcheyn orqali tashkillashtirilgan Aqlli shartnomalar tranzaktsiyalar vaqtini va operatsion xarajatlarni qisqartirish orqali qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisob-kitoblarni avtomatlashtiradi va tezlashtiradi. Blokcheynni markazsizlashtirish jarayonini xavfsiz va shaffof qiladi, chunki har bir investor qachon va qancha miqdorda to'langanligini ko'rishi mumkin.

2. Bank xizmatlari (to'lovlar va pul o'tkazmalari, kreditlash). Global pul

[123] B. Tashmuradova va boshqalar. Moliyaviy texnologiyalar, “Publishing High Future” OK, 2025. - 322b.

to'lovlari va pul o'tkazmalari markazlashtirilgan organlar tomonidan nazorat qilinadi. Blokcheynni markazsizlashtirish barcha turdagi xizmatlarni optimallashtiradi, ularni yanada shaffof qiladi, tranzaksiya vaqtini qisqartiradi va tomonlarning anonimligini saqlaydi. Blockchein texnologiyasi kredit berish uchun moliyaviy hujjatlarni tekshirishni osonlashtiradi, bu esa kredit berish jarayonini tezlashtiradi. Blokcheynning o'zgarmasligi va aqlli shartnoma texnologiyasi to'lovlarni avtomatlashtirishga imkon beradi va an'anaviy moliya tizimida yetishmayotgan xavfsizlikni oshiradi.

*3. Sug'urta. B*lockcheyn texnologiyasi sug'urta sohasida ham asta-sekin joriy etib borilmoqda. Blokcheynning markazlashmaganligi sug'urta kompaniyasi va mijozga sug'urta ishini real vaqt rejimida ko'rib chiqish jarayonini kuzatish imkonini beradi. Aqlli shartnoma texnologiyasi sug'urta to'lovlarini avtomatlashtiradi, tranzaktsiyalarni xavfsizroq va shaffof qiladi.

Blokcheynning o'zgarmasligi kompaniya va mijoz tomonidan sug'urta to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotlarni kuzatishga yordam beradi, bu esa hamkorlikda shaffoflikni ta'minlaydi. Bu sug'urta kompaniyalariga yanada samarali ishlashga va ma'lumotlarni ikki marta tekshirish va tasdiqlash uchun kamroq vaqt sarflashga imkon beradi.

4. Aktivlarni boshqarish. Aktivlarni boshqarishda blokcheyn texnologiyasi tarmoqning har bir a'zosiga aktivlar bilan bevosita aloqada bo'lish, xavfsizlikni oshirish, ma'lumotlarning aniqligi va tranzaktsiyalarni amalga oshirishda kechikishlarni kamaytirish bilan fond boshqaruvini avtomatlashtirish imkonini beradi.

Shuni ham alohida ta’kidlashimiz kerakki, yuqorida sanab o‘tilgan sohalarda blokcheynning qo‘llanilishi qanchalik muhim bo‘lmasin, hozirgi kunda u asosan kriptovalyutalar bozorida keng ommalashgan. Zero, Blockcheyn va kriptovalyutalar yaratilgan ilk davrda ularga ishonchsizlik bilan qaralgan edi. Moliyaviy kompaniyalar texnologiyani firibgarlik deb atashib, o‘z mijozlariga kriptovalyutalardan foydalanmaslikni tavsiya qilishgan edi. Endilikda esa kriptovalyutalar to'lovlarni amalga oshirish uchun ham, investitsiyalar uchun ham qo‘llanilmoqda. Bulardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, o’tgan yillarda blokcheyn va kriptovalyutalar foyda olish uchun istiqbolli vosita ekanligini isbotladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. B. Tashmuradova va boshqalar. Moliyaviy texnologiyalar, “Publishing High Future” OK, 2025. - 322b.

2. Mastering Bitcoin – Andreas M. Antonopoulos. Mastering Bitcoin: Unlocking Digital Cryptocurrencies. O’Reilly Media, 2017.

3. PwC. Global FinTech Report. 2016–2023.

4. International Bank for Reconstruction and Development / the World Bank. Distributed Ledger Technology (DLT) and Blockchain Report. 2017.

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA BANK AML TIZIMLARI: HUQUQIY ASOSLARNING MUSTAHKAMLANISHI

Rashidov Avazbek Raximovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining mustaqil izlanuvchisi.
Email: arfinancier@gmail.com
ORCID: 0009-0001-7054-9758

O‘zbekistonda sun‘iy intellektni tartibga solish masalasi 2024–2026 yillarda izchil huquqiy shakllanish bosqichini bosib o‘tdi. Avvalo, 2024 yil oktyabrda Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasi PQ-358-sonli Qaror bilan tasdiqlandi. 2025 yil oktyabrda PF-189-sonli Farmon davlat xaridlari va ta‘lim tizimida SIni keng joriy etish yo‘lída amaliy mexanizmlarni shakllantirdi. 2026 yil 21 yanvarda esa O‘RQ-1115-sonli Qonun milliy qonunchilikda “sun‘iy intellekt” tushunchasiga birinchi marta rasmiy ta’rif berib, huquqiy poydevorni yanada mustahkamladi. Ushbu hujjatlar tizimi quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

1-jadval

O‘zbekiston SI sohasidagi huquqiy hujjatlar tizimi

Hujjat	**Turi**	**Asosiy mazmun**	**Maqomi**
O‘RQ-1115 (21.01.2026)	Asosiy akt	SI ta‘refi, 7^1-modda (inson nazorati), 46^2-modda (jarima)	Amaldagi
PQ-358 (14.10.2024)	Strategiya	2030 yilgacha SI rivojlantirish	Strategik asos
PF-189 (22.10.2025)	Farmon	Davlat xaridlari, ta‘lim, SI klasterlar	Amaliy mexanizm
PF-6252 (28.06.2021)	Milliy strategiya	AML/CFT milliy tizimi – FATF standartlari asosida	Bog‘lovchi hujjat
O‘RQ-560-II (2003)	Asosiy qonun	Axborotlashtirish; SI tartibga solinishi uchun asos	Asos

Manba: muallif tomonidan qonunchilik ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu ta’rif bank AML tizimlarida qo‘llaniladigan mashinali o‘rganish, anomaliya aniqlash va risk-skoring tizimlarini rasman SI sifatida huquqiy maqomini belgilaydi.

4-moddaga 8-band – Davlat siyosati: SI texnologiyalarini rivojlantirish va qo‘llash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilandi. Bu bank sektorida SI qo‘llashni nafaqat ruxsat etilgan, balki davlat tomonidan rag‘batlantirilgan faoliyat sifatida tasdiqlaydi.

6-moddaga 9–11-bandlar – Vakolatli organ: Raqamli texnologiyalar vazirligi SI sohasida monitoring, texnik talablarni shakllantirish va xalqaro hamkorlikni ta’minlash vakolatlari bilan kengaytirildi. Bu SupTech mexanizmlarini joriy etish uchun institutsional asosni belgilaydi.

7¹-modda (yangi) – SI qo‘llash asosiy me’yorlari: Qonunning huquqiy jihatdan eng muhim normasi. Uch asosiy talabni belgilaydi: a) zararsizlik; b) yuridik ahamiyatli qarorlarni faqat SI asosida qabul qilishni taqiqlash; v) shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish.

46²-moddaga qo‘shimcha – Ma’muriy javobgarlik: SI yordamida shaxsiy ma’lumotlarni noqonuniy qayta ishlash uchun bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima ko‘zda tutildi. KYC/CDD jarayonlarida kuchli tartibga soluvchi omil (deterrent) rolini o‘ynaydi.

O‘zbekistonning FATF standartlariga rioya qilish majburiyati uch darajali xalqaro-milliy zanjirga asoslanadi. Bular, BMT Xavfsizlik Kengashining 2005 yildagi 1617-sonli Rezolyutsiyasi, O‘zbekiston Yevrosiyo guruhidagi (EAG) a‘zoligi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6252-sonli Farmoni – ushbu xalqaro majburiyatlarni milliy strategiya orqali huquqiy tizimga bevosita bog‘laydi. Aynan shu uch darajali zanjir O‘RQ-1115 ning tarkibiy-huquqiy mantíg‘ini belgilaydi va qonunni tasodifiy hujjat emas, balki maqsadli davlat siyosatining mantiqiy davomi sifatida tavsiflaydi.

2-jadval

FATF standartlariga rioya qilish xalqaro-milliy zanjiri

Daraja	Hujjat/Tashkilot	O‘zbekistonning majburiyati
Xalqaro	**BMTTB XK 1617-sonli Rezolyutsiya (2005)**	Barcha davlatlarga FATF tavsiyalariga rioya qilish majburiy
Mintaqaviy	**EAG a’zoligi**	FATF standartlarini O‘rta Osiyo mintaqasida joriy etish
Milliy	**PF-6252 (2021)**	AML/CFT milliy strategiyasi FATF standartlari asosida tasdiqlangan
Huquqiy	**O‘RQ-1115 (2026)**	SI ta’rifi + inson nazorati = FATF Tavsiyalari 10, 16, 20 bilan uygunlik

Manba: muallif tomonidan xalqaro hujjatlar asosida tuzilgan.

O'RQ-1115 Qonunining bank AML tizimlari uchun eng muhim yangiligi – milliy qonunchilikda birinchi marta mustahkamlangan “sun’iy intellekt’ ta’rifidir. Ushbu ta’rif mashinali o‘rganish, anomaliya aniqlash va risk-skoring tizimlarini rasman SI sifatida belgilab, ularni joriy etuvchi banklarga aniq huquqiy asos yaratadi; SI texnologiyalarini qo‘llash esa davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida tasdiqlandi – ya’ni bank sektorida SI nafaqat ruxsat etilgan, balki rag‘batlantirilgan faoliyatga aylandi. “Inson nazoratida” (human-in-the-loop) tamoyili yuridik ahamiyatli qarorlarni – tranzaksiyani bloklash, hisobvaraqqaa cheklov kiritish – faqat SI asosida qabul qilishni taqiqlaydi, bu esa FATF R.10 va R.20 tavsiyalari bilan to‘liq uyg'undir. Shaxsiy ma’lumotlarni noqonuniy qayta ishlash uchun 50-100 BHM miqdoridagi jarima mexanizmi esa banklarning KYC/CDD jarayonlarida kuchli deterrent omil vazifasini bajarib, komplayens-

xizmatlarni SI-AML tizimlarini ma’lumotlar himoyasi me’yorlari doirasida sozlash tartibini ishlab chiqishga majbur etadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda bugun bank sektori noaniqlik sharoitida emas, aniq huquqiy koordinatalarda faoliyat yuritish imkoniyatiga ega. Tranzaksiya monitoringi, risk-skoring, anomaliya aniqlash va KYC jarayonlarini SI asosida avtomatlashtirish qonuniy asosga ega bo‘ldi. Bu esa moliyaviy monitoringning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, inson resurslari yukini kamaytiradi va shubhali operatsiyalarni aniqlash tezligini ko‘taradi. Istiqbolda grafik neyron tarmoqlar va profilaktika tizimlari banklarga raqobatdosh ustunlik uchun yanada keng imkoniyatlar ochadi. Shu yo‘nalishda tezkor qadam qo‘yígan banklar nafaqat muvofiqlik, balki raqobatbardoshlik jihatidan ham yetakchi o‘rinni egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-sonli Qarori, 14 oktyabr, 2024. https://lex.uz/ru/docs/7158606.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-189-sonli “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent, 22 oktyabr, 2025. https://lex.uz/ru/docs/7790236.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Sun’iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” O‘RQ-1115-sonli Qonuni. Toshkent, 21 yanvar, 2026. https://lex.uz/ru/docs/8011377.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida” 560-II-sonli Qonuni, 11 dekabr, 2003 (2026 yil 21 yanvar O‘RQ-1115 tahririda). https://lex.uz/docs/82956.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6252-sonli Farmoni, 28 iyun, 2021. https://lex.uz/docs/5494381.
6. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining “1267 (1999) va 1373 (2001) sonli rezolyutsiyalar bo‘yicha chora-tadbirlarni mustahkamlash to‘g‘risida”gi 1617-sonli Rezolyutsiyasi, 29 iyul, 2005.
https://docs.un.org/ru/S/RES/1617%20(2005) (UN Doc S/RES/1617 (2005)).
7. Yevrosiyo guruhi FATF (EAG) (2024). Yevrosiyo guruhining rasmiy sayti. http://www.eurasiangroup.org.
8. “Opportunities and Challenges of New Technologies for AML/CFT”. Paris: FATF/OECD, 2021.
https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Digitaltransformation/Opportunities-challenges-new-

technologies-for-aml-cft.html.
9. “Guidance on Beneficial Ownership and Transparency”. Paris: FATF/OECD,2023.https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Fatfrecommendations /Transparency-and-beneficial-ownership.html.
10. “The FATF Recommendations: International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism and Proliferation”. Paris: FATF/OECD, 2025. https://www.fatf-gafi.org/en/publications/Fatfrecommendations/Fatf-recommendations.html.

YOSHLAR TADBIRKORLIGINI BANK-MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI RAG‘BATLANTIRISH: BANDLIKNI TA’MINLASH VA IJTIMOIY BARQARORLIK OMILI SIFATIDA

Rajabov Shamshod
SamISI, “Bank-moliya xizmatlari” fakulteti talabasi
Abduraxmanov Alimardon
SamISI, “Bank ishi” kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlar tadbirkorligini bank-moliya instrumentlari orqali rag‘batlantirishning aholi bandligini ta’minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdagi o‘rni O‘zbekiston misolida tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda mamlakatda yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Maqolada yoshlar tadbirkorligi va bandligini ta’minlashga qaratilgan 2025 yil 14 fevraldagi PQ-60 va PQ-62-son qarorlar, 2025 yil 10 iyuldagi 426-son hukumat qarori, 2025 yilgi Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonun, Markaziy bank yillik hisobotlari hamda Jahon bankining Access to Finance for Jobs and Growth hujjatlari asosida institutsional, qiyosiy va deskriptiv tahlil usullari qo‘llanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlar tadbirkorligini bank-moliya instrumentlari orqali rag‘batlantirishning zamonaviy modeli oddiy imtiyozli kreditlashdan ancha kengdir: unga startap xarajatlarini qoplash, qurilish va jihozlash uchun qarz, imtiyozli kredit, subsidiyalar, depozit daromadlari hisobiga jamg‘arma resurslarini aylantirish, ish o‘rinlarini yoshlar bilan to‘ldirishga bog‘langan shartlar va banklar, MFOlar hamda lizing kompaniyalarini qamrab oluvchi yangi mexanizmlar kiradi. Shu asosda maqolada yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishning bandlik va ijtimoiy barqarorlikka ta’siri, mavjud muammolar hamda takomillashtirish yo‘nalishlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Yoshlar tadbirkorligi, bank-moliya instrumentlari, bandlik, ijtimoiy barqarorlik, imtiyozli kredit, startap, jamg‘arma, mikromoliya, yoshlar loyihalari, O‘zbekiston.*

Kirish. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bugungi kunda O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Buning asosiy sababi shundaki, yoshlar nafaqat mehnat bozorining eng katta va eng harakatchan qatlami, balki yangi biznes g‘oyalar, innovatsion tashabbuslar va

hududiy iqtisodiy faollikning tabiiy manbai hamdir. Yoshlarning band bo‘lishi, daromad topishi va tadbirkorlikka kirishi kuchaysa, ishsizlik, norasmiy mehnat, migratsion bosim va ijtimoiy beqarorlik xavflari kamayadi. Shu sababli yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bank tizimi uchun faqat kredit bozorining bir segmenti emas, balki kengroq ijtimoiy va makroiqtisodiy vazifani bajaruvchi yo‘nalishdir. 2025 yil 14 fevraldagi PQ-60-son qarorda ham yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi va qo‘llab-quvvatlash instrumentlari ro‘yxati tasdiqlangani bevosita ko‘rsatiladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi rasmiy statistik va institutsional ma’lumotlar bilan ham tasdiqlanadi. Markaziy bankning 2024 yil bo‘yicha hisobotida dasturlarni amalga oshirishda asosiy e’tibor yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilishga qaratilgani, hokim yordamchilari tavsiyalari asosida 372 mingdan ortiq loyihaga 6,8 trillion so‘mdan ortiq imtiyozli kredit ajratilgani, yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslari uchun esa 150 mingdan ortiq loyiha doirasida 2,7 trillion so‘m yo‘naltirilgani qayd etiladi. 2023 yilgi hisobotda oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 174 mingdan ortiq yoshlar loyihasi 3,8 trillion so‘m bilan moliyalashtirilgani, 2022 yilgi hisobotda esa 149 mingdan ortiq yoshlar loyihasiga 3,6 trillion so‘m ajratilgani ko‘rsatilgan. Bu ketma-ketlik yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish bir martalik aksiya emas, balki tizimli va kengayib borayotgan siyosat ekanini anglatadi.

Yoshlar tadbirkorligini bank-moliya instrumentlari orqali rag‘batlantirishning ahamiyati shundaki, u yoshlarni oddiy ish qidiruvchidan ish o‘rni yaratuvchi subyektga aylantiradi. Bu ayniqsa hududiy mehnat bozorlari cheklangan, oila daromadlari beqaror yoki norasmiy bandlik yuqori bo‘lgan sharoitda muhim. Jahon bankining 2025 yilgi Access to Finance for Jobs and Growth hujjatida loyiha O‘zbekistonda bizneslar sonini kredit va equity moliyalashtirishdan foydalanuvchilar hisobiga oshirish va ayniqsa ayollar hamda yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgani ochiq aytiladi. Hujjatda ishtirokchi tijorat banklari, MFOlar va lizing kompaniyalari orqali raqobatbardosh KOBlarga kredit berishni jadallashtirish nazarda tutilgani ko‘rsatiladi. Demak, bank-moliya instrumentlari yoshlarga nafaqat boshlang‘ich mablag‘ beradi, balki ularni mahalliy iqtisodiyotning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Bu masalaning ijtimoiy barqarorlik bilan bog‘liqligi ham nihoyatda muhim. Barqaror daromad manbai va mustaqil iqtisodiy faoliyatga ega bo‘lgan yoshlar odatda mehnat bozoridagi noaniqlik, ijtimoiy qaramlik va chekka iqtisodiy xatti-harakatlarga nisbatan kamroq moyil bo‘ladi. Jahon bankining 2026 yil fevraldagi O‘zbekiston qishloq hududlaridagi tadbirkorlik haqidagi materialida moliyalashtirish va maslahat yordami qishloq tadbirkorlik salohiyatini ochib, ayniqsa mehnat bozoridan chetda qolishga moyil yoshlar va ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratgani qayd etiladi. Bu yondashuv yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish faqat iqtisodiy emas, balki hududiy va ijtimoiy uyg‘unlik omili ekanini ko‘rsatadi.

Shu sababli ushbu maqolaning maqsadi yoshlar tadbirkorligini bank-moliya instrumentlari orqali rag‘batlantirishning amaldagi mexanizmlarini, ularning bandlik va ijtimoiy barqarorlikka ta’sirini, shuningdek tizimning zaif tomonlari va takomillashtirish yo‘nalishlarini ilmiy-amaliy nuqtai nazardan tahlil qilishdan iborat. Maqolada yoshlar tadbirkorligi kredit, qarz, subsidiya, startap xarajatlarini qoplash, riskni bo‘lishish va natijaga bog‘langan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlari yig‘indisi sifatida ko‘rib chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, *Annual Report 2024* (2026). Mazkur hisobot yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishning hozirgi holatini baholash uchun eng muhim rasmiy manbalardan biridir. Uning asosiy afzalligi shundaki, unda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash umumiy bank kreditlari tarkibida yo‘qolib ketmagan, balki alohida ijtimoiy yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan. Hisobotga ko‘ra, 2024 yilda hokim yordamchilari tavsiyalari asosida 372 mingdan ortiq loyiha uchun 6,8 trillion so‘mdan ziyod imtiyozli kredit ajratilgan, shundan yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslari bo‘yicha 150 mingdan ortiq loyiha 2,7 trillion so‘m bilan moliyalashtirilgan. Hujjatda ajratilgan mablag‘lar daromadli mehnat bilan band qilish maqsadiga xizmat qilgani alohida qayd etiladi. Bu juda muhim, chunki u kreditlashni nafaqat tadbirkorlikni moliyalash, balki bevosita bandlik siyosati sifatida ko‘rsatadi. Yana bir muhim ma’lumot shuki, bank tizimi 2024 yilda umumiy hisobda 539 mingdan ortiq tadbirkorlik loyihalarini 160 trillion so‘m kredit resurslari bilan qo‘llab-quvvatlagan, shundan 92,4 trillion so‘mi kichik va o‘rta biznes, oilaviy tadbirkorlik hamda ayollar va yoshlar tashabbuslariga yo‘naltirilgan. Bu yoshlar tadbirkorligi umumiy kichik biznes siyosatining markaziy qismiga aylanganini bildiradi.

Hisobotning ikkinchi muhim jihati — unda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash faqat imtiyozli kredit bilan cheklanmasligi ko‘rsatiladi. 2024 yilda 2018–2023 yillarda kredit olib, ularni muvaffaqiyatli qaytargan 751 ming mijozning maqsadli ro‘yxati shakllantirilgan va ular uchun 300 million so‘mgacha kengaytiruvchi mikrokredit instrumenti ishga tushirilgan. Ushbu mexanizmga ko‘ra, 100 million so‘m garovsiz qism “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” tomonidan, qolgan 200 million so‘mgacha qism esa banklar va mikromoliya tashkilotlari hisobidan moliyalashtiriladi. Bu yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashda zamonaviy bank mexanizmlari bir martalik “start” emas, balki o‘sish bosqichiga o‘tishni ham nazarda tutishini ko‘rsatadi. Shu jihatdan hisobot maqola uchun faqat statistik emas, balki konseptual manba hamdir: unda banklar yoshlarni ish qidiruvchidan biznesni kengaytiruvchi subyektga aylantiruvchi institut sifatida talqin qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, *Annual Report 2023* (2024). 2023 yilgi yillik hisobot yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning avvalgi bosqichini va 2024–2025 yillardagi kengayish uchun tayanch bazani ko‘rsatib beradi. Hujjatda 2023 yilda kichik va o‘rta biznesni, shu jumladan oilaviy biznesni rivojlantirish hamda ayollar va yoshlar tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 573 mingdan ortiq loyiha uchun 73 trillion so‘m kredit ajratilgani ko‘rsatiladi. Eng e’tiborli jihati — oilaviy tadbirkorlik dasturlari

doirasida 174 mingdan ortiq yoshlar loyihasiga 3,8 trillion so‘m imtiyozli kredit yo‘naltirilganidir. Bu ko‘rsatkich 2024 yilgi natijalar bilan birga qaralganda, yoshlar tadbirkorligiga yo‘naltirilgan kreditlar izchil o‘sib borayotganini ko‘rsatadi. Hisobotdagi yana bir muhim nuqta shuki, dasturlar orqali o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolar ham family business programs tarkibida hisobga olinadi; demak, yoshlar tadbirkorligi ko‘pincha klassik firma emas, balki self-employed va mikrofaoliyat shaklida ham qo‘llab-quvvatlanadi.

Mazkur hisobotning ilmiy qimmati uning bank-moliya instrumentlarining faqat pul ajratish emas, balki kirish va savodxonlikni kengaytirish tomonlarini ham ko‘rsatishidadir. Hujjatga ko‘ra, 2023 yilda 154 ta trening-seminar ayollar, yoshlar, migrantlar va ularning oila a’zolari uchun o‘tkazilib, 16 317 kishi qamrab olingan. 17 ta tijorat banki 5 871 ta ochiq dars tashkil etib, 195 mingdan ortiq maktab o‘quvchilarini qamrab olgan; 2 471 nafar yoshlar uchun master-klasslar o‘tkazilgan; 13 ta tijorat banki mutaxassislari qayta tayyorlanib, 30 389 nafar fuqaroga moliyaviy maslahat berilgan. Bu shuni anglatadiki, yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirish banklar uchun faqat kredit portfeli vazifasi emas, balki financial literacy, advisory va entrepreneurial orientation vazifasi hamdir. Shu sababli ushbu hisobot yoshlar tadbirkorligi bilan bog‘liq bank instrumentlarini “resurs + bilim + maslahat” kombinatsiyasi sifatida tushuntirishi bilan alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, *Annual Report 2022* (2023). 2022 yilgi hisobot yoshlar tadbirkorligini banklar orqali qo‘llab-quvvatlashning boshlang‘ich keng ko‘lamli bosqichini aks ettiradi. Hujjatda 2022 yilda tijorat banklari 545 mingdan ortiq loyihani qo‘llab-quvvatlash uchun 122 trillion so‘m kredit ajratgani, shundan 504 mingdan ortiq loyiha uchun 69,8 trillion so‘m kichik tadbirkorlikni, oilaviy tadbirkorlikni hamda ayollar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyalashtirishga yo‘naltirilgani qayd etiladi. Ayniqsa yoshlar tashabbuslari uchun 149 mingdan ortiq loyiha bo‘yicha 3,6 trillion so‘m, ayollar tadbirkorligi uchun esa 225 ming loyiha bo‘yicha 4,3 trillion so‘m imtiyozli kredit ajratilgani alohida ko‘rsatilgan. Ushbu ma’lumotlar yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish tizimi 2025 yildagi qarorlar bilan birdan paydo bo‘lmaganini, balki 2022 yildan boshlab iqtisodiy siyosatning barqaror qismiga aylana boshlaganini ko‘rsatadi.

2022 yilgi hisobotning yana bir muhim tomoni shundaki, u kreditlashni iqtisodiy faoliyat tarmoqlari bo‘yicha ham ko‘rsatadi. Hisobotga ko‘ra, kichik tadbirkorlik kreditlari sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar va savdo sohalariga yo‘naltirilgan, ya’ni yoshlar tashabbuslari faqat savdo bilan cheklanmagan. Bu ijtimoiy barqarorlik nuqtai nazaridan muhim, chunki yoshlar bandligi uzoq muddatli bo‘lishi uchun u ishlab chiqaruvchi va daromad yaratuvchi sohalarga kirishi kerak. Hujjatda self-employed shaxslar ham family entrepreneurship dasturlari tarkibida hisobga olinishi ko‘rsatilgani ham metodologik jihatdan muhim: yoshlar tadbirkorligi ko‘pincha rasmiy korxona tashkil etishdan oldin o‘zini o‘zi band qilish shaklida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ushbu manba yoshlar tadbirkorligini bank instrumentlari orqali rag‘batlantirishning boshlang‘ich modeli va keyingi islohotlarning poydevorini tushuntirish uchun

zarur adabiyotdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, *PQ-60-son qaror* (2025). 2025 yil 14 fevraldagi PQ-60-son qaror yoshlar tadbirkorligini va ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha yangi bosqichni boshlab berdi. Qarorda yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari rejasi va qo‘llab-quvvatlash instrumentlari ro‘yxati tasdiqlangan. Hujjatning eng muhim jihati shundaki, u yoshlar tadbirkorligini umumiy tadbirkorlik siyosatidan ajratib, uni alohida institutlar, alohida jamg‘arma va alohida instrumentlar orqali boshqariladigan yo‘nalishga aylantiradi. Qarorda Jamg‘arma resurslari hisobidan tadbirkorlik faoliyati uchun tanlangan bino va inshootlarni qurish, ta’mirlash va jihozlash uchun qarz ajratish hamda startap loyihalar xarajatlarini qoplab berish instrumentlarini huquqiy jihatdan shakllantirish vazifasi qo‘yilgan. Bu yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash endilikda faqat aylanma mablag‘ yoki oddiy mikrokredit emas, balki kapital xarajatlarini ham qamrab ola boshlaganini ko‘rsatadi.

Mazkur hujjatning nazariy-amaliy ahamiyati shundaki, u yoshlar tadbirkorligiga nisbatan “kredit berish”dan “instrumentlar portfeli”ga o‘tishni ifodalaydi. Qarz, startap xarajatlarini qoplash, qurilish va jihozlash uchun mablag‘, keyinchalik imtiyozli kredit bilan bog‘lanadigan mexanizm yoshlar tashabbuslarining turli bosqichdagi ehtiyojlarini inobatga oladi. Shu bilan birga, bu qaror ijtimoiy barqarorlik nuqtai nazaridan ham muhim: agar yoshlarning biznes boshlash yo‘lidagi asosiy to‘siq bino, uskuna yoki boshlang‘ich xarajat bo‘lsa, oddiy bank krediti ularni yetarli qo‘llab-quvvatlamasligi mumkin. PQ-60 ana shu “kirish to‘sig‘i”ni yengillashtirishga qaratilgani bilan muhimdir. Shu sababli mazkur qaror maqola uchun yoshlar tadbirkorligini bank-moliya instrumentlari orqali rag‘batlantirishning modern institutional design’ini ko‘rsatadigan markaziy adabiyotlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, *PQ-62-son qaror* (2025). 2025 yil 14 fevraldagi PQ-62-son qaror yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishda natijaga yo‘naltirilgan shartli mexanizmni joriy etgani bilan alohida ahamiyatga ega. Hujjatga ko‘ra, imtiyozli kredit mablag‘lari uning hisobiga yaratiladigan ish o‘rinlarining kamida 50 foizida yoshlar ishga joylashtirilishi nazarda tutilgan holda ajratiladi. Yana bir muhim norma shuki, imtiyozli kreditlarni taqdim etish shartlari bajarilmagan taqdirda, kredit foiz stavkalari bozor stavkalariga o‘zgartiriladi. Bu yondashuv oddiy subsidiyalangan kreditlashdan tubdan farq qiladi: bunda davlat faqat resurs bermaydi, balki resursni aniq ijtimoiy natija — yoshlar bandligi — bilan bog‘laydi. Shu jihatdan PQ-62 yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashni ijtimoiy maqsad va moliyaviy intizomni birlashtirgan instrumentga aylantiradi.

Mazkur hujjatning maqola mavzusi uchun alohida qimmati shundaki, u bank-moliya instrumentlarining ijtimoiy barqarorlik bilan qanday bog‘lanishini juda aniq ko‘rsatadi. Agar kredit evaziga yaratiladigan ish o‘rinlarining kamida yarmi yoshlar bilan to‘ldirilishi shart bo‘lsa, demak tadbirkorlikni qo‘llab-

quvvatlash bilan mehnat bozori muammolari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘prik yaratiladi. Bundan tashqari, shartlar bajarilmasa foiz stavkasining bozor stavkasiga o‘tishi kredit oluvchida intizom, bankda esa monitoringga rag‘bat yaratadi. Shu jihatdan PQ-62 yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirishdagi zamonaviy bank mexanizmlarining “performance-based finance” elementini ifodalaydi. Bu maqolada ijtimoiy barqarorlikni faqat umumiy g‘oya emas, balki aniq huquqiy va moliyaviy mexanizm bilan bog‘lash imkonini beradi.

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI. Mazkur maqolada yoshlar tadbirkorligini bank-moliya instrumentlari orqali rag‘batlantirishning bandlik va ijtimoiy barqarorlikka ta’siri **institutsional-deskriptiv va natija-zanjiri yondashuvi** asosida o‘rganildi. Tadqiqotning asosiy uslubiy g‘oyasi shundan iboratki, yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish kambag‘allik, ishsizlik va ijtimoiy beqarorlikka bevosita emas, balki bir necha oraliq mexanizmlar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Metodologiyaning birinchi yo‘nalishi **institutsional xaritalash** bo‘ldi. Unda yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish alohida kredit liniyasi emas, balki bir necha qatlamli tizim sifatida ko‘rildi. Bu tizimda Prezident qarorlari siyosiy yo‘nalishni belgilaydi, Davlat budjeti va Jamg‘arma resurslari moliyaviy bazani yaratadi, tijorat banklari kredit riskini baholaydi va loyihalarni moliyalashtiradi, hokim yordamchilari maqsadli targetingni ta’minlaydi, platforma esa raqamli boshqaruvni amalga oshiradi. PQ-60 va 426-son qarorlari aynan shu tizimni shakllantiradi: bir tomondan qo‘llab-quvvatlash instrumentlari ro‘yxati va tartibi belgilanadi, ikkinchi tomondan Jamg‘arma–bank–qarz oluvchi uchburchagi huquqiylashtiriladi. Metodologik nuqtai nazardan bu shuni anglatadiki, yoshlar tadbirkorligi bo‘yicha bank instrumentlari samarasi bitta bank mahsuloti emas, balki institutlararo uyg‘unlik darajasiga bog‘liq.

Ikkinchi yo‘nalish **maqsadli guruhlar bo‘yicha segmentlangan tahlil** edi. Yoshlar yagona ijtimoiy guruh emas; ular orasida o‘zini o‘zi band qilganlar, startap boshlayotganlar, allaqachon mikrobiznes yuritayotganlar, ijtimoiy reyestrdagi ishsizlar, qaytib kelgan migrantlar va qishloq yoshlari mavjud. Shu sababli metodologiyada bank-moliya instrumentlarining turli yosh segmentlariga qanday ta’sir qilishi alohida ko‘rib chiqildi. Masalan, 2024 yilgi hisobotdagi 150 mingdan ortiq yoshlar loyihasi boshlang‘ich moliyalashtirish zarur bo‘lgan segmentni ko‘rsatadi, 751 ming muvaffaqiyatli qarz oluvchiga yo‘naltirilgan 300 million so‘mgacha mikrokredit mexanizmi esa o‘sish bosqichiga chiqqan tadbirkorlarni anglatadi. PQ-62 dagi “yaratilgan ish o‘rinlarining kamida 50 foizida yoshlar ishga joylashtirilishi” sharti esa tadbirkor yoshlar bilan birga, boshqa yoshlarni ham ish bilan ta’minlashga qaratilgan segmentli yondashuvni ifodalaydi. Bu metodologik segmentlash yoshlar tadbirkorligi siyosatini “hamma yoshlar uchun bir xil kredit” modeli bilan tushuntirib bo‘lmasligini ko‘rsatdi.

Uchinchi yo‘nalish **natija zanjiri bo‘yicha tahlil** bo‘ldi. Bu yerda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning samaradorligi to‘rt bosqichda o‘rganildi. Birinchi bosqich — **kirish**: yosh fuqaro kredit yoki boshqa moliyaviy instrumentga qanchalik oson chiqadi, ariza topshirish va ko‘rib chiqish qanchalik soddalashtirilgan. Ikkinchi bosqich — **faollashuv**: moliyaviy resurs evaziga biznes, xizmat, hunarmandchilik, savdo yoki boshqa faoliyat boshlanadimi.

Uchinchi bosqich — **kengayish**: dastlabki faoliyat keyingi bosqich kredit, garovsiz qism yoki qo‘shimcha qarz yordamida yiriklashadimi. To‘rtinchi bosqich — **bandlik va ijtimoiy natija**: loyiha nafaqat tashabbuskorning o‘zi, balki boshqa yoshlar uchun ham ish o‘rni yaratadimi, daromad barqarorlashadimi, ijtimoiy reyestrdagi ishsizlar jalb qilinadimi. Bu zanjir bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy bank mexanizmlarining kuchli tomoni aynan ikkinchi va uchinchi bosqichlarni bir-biri bilan bog‘lashidadir.

To‘rtinchi yo‘nalish **bank-moliya instrumentlari tasnifi**ni ishlab chiqishdan iborat bo‘ldi. Tadqiqotda amalda qo‘llanayotgan instrumentlar besh guruhga bo‘lindi. Birinchi guruh — **imtiyozli kreditlar**, ya’ni yoshlar loyihalariga yo‘naltirilgan pastroq yuklamali resurslar. Ikkinchi guruh — **qarz va startap xarajatlarini qoplash instrumentlari**, bular PQ-60 va 426-son qarorlarda ko‘rsatilgan. Uchinchi guruh — **bosqichli mikrokreditlar**, ya’ni avval muvaffaqiyatli ishlagan yosh tadbirkorlar uchun 300 million so‘mgacha kengaytiruvchi moliyalashtirish. To‘rtinchi guruh — **riskni bo‘lishuvchi va garovsiz instrumentlar**, bunda 100 million so‘mgacha qism garovsiz yoki qisman kafillik bilan taqdim etiladi. Beshinchi guruh — **natijaga bog‘langan instrumentlar**, bunda kredit ish o‘rni yaratish sharti bilan beriladi yoki shart bajarilmasa, foiz stavkasi bozornikiga o‘tadi. Bunday tasnif metodologik jihatdan muhim, chunki u yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashni bitta moliyaviy mahsulot bilan emas, balki mexanizmlar portfeli bilan tushuntirish imkonini beradi.

Beshinchi yo‘nalish **iqtisodiy natijalarni deskriptiv-statistik tahlil qilish**dan iborat bo‘ldi. Bu bosqichda 2022, 2023 va 2024 yillar bo‘yicha yoshlar loyihalari soni, ajratilgan kredit hajmi va umumiy biznesni qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatkichlari solishtirildi. 2022 yilda 149 mingdan ortiq yoshlar loyihasi uchun 3,6 trillion so‘m, 2023 yilda 174 mingdan ortiq yoshlar loyihasi uchun 3,8 trillion so‘m, 2024 yilda esa 150 mingdan ortiq loyiha uchun 2,7 trillion so‘m ajratilgani ko‘rsatildi. Bu yerda oddiy hajmiy o‘sishdan ko‘ra tizimning qayta konfiguratsiyasi kuzatiladi: 2025 yildan boshlab instrumentlar faqat ko‘proq kredit berishga emas, balki natijadorlik, shartlilik va bosqichlilikka o‘tmoqda. Shuningdek, Budjet qonunida kredit qaytimi, foiz daromadi va yangi ajratmalar alohida ko‘rsatilgani yoshlar moliyalashtirish tizimi aylanuvchi fond va barqaror resurs bazasiga ega bo‘lib borayotganini ko‘rsatadi. Metodologik jihatdan bu “fiskal bir martalik yordam”dan “revolving finance architecture”ga o‘tish sifatida talqin qilindi.

Oltinchi yo‘nalish **ijtimoiy barqarorlik bilan bog‘liq tahlil** bo‘ldi. Ijtimoiy barqarorlik kategoriyasi maqolada uchta ko‘rsatkich orqali talqin qilindi: birinchidan, yoshlarning daromadli mehnatga jalb etilishi; ikkinchidan, ular tomonidan boshqa yoshlar uchun ish o‘rni yaratilishi; uchinchidan, hududiy iqtisodiy faollikning kuchayishi. Jahon bankining 2026 yilgi qishloq tadbirkorligi haqidagi materialida moliyalashtirish va maslahat yordamining yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratgani va chekka hududlarda iqtisodiy tafovutlarni kamaytirgani qayd etiladi. Bu metodologik nuqtai nazardan muhim, chunki yoshlar tadbirkorligi natijasi faqat bir korxonaning ochilishi emas, balki mahalliy

iqtisodiy muhitga ijobiy signal berishi mumkin. Shu sababli maqolada ijtimoiy barqarorlik iqtisodiy barqarorlikdan alohida emas, balki unga tayanadigan ko‘rsatkich sifatida talqin qilindi.

Yettinchi yo‘nalish **xavflarni baholash**dan iborat bo‘ldi. Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish tizimining ijobiy ta’siri bilan birga, bir qator xavflar ham mavjud. Birinchisi — biznes tajribasi kamligi sababli mablag‘larning samarasiz ishlatilish xavfi. Ikkinchisi — imtiyozli kreditdan faqat arzon resurs sifatida foydalanib, real biznes yuritmaslik ehtimoli. Uchinchisi — monitoring sust bo‘lsa, yaratilgan ish o‘rinlari nominal bo‘lib qolishi mumkin. To‘rtinchisi — juda katta imtiyozlar bozordagi raqobatni buzishi yoki banklarda risk baholash intizomini susaytirishi mumkin. Shuning uchun PQ-62 da foiz stavkasini shart bajarilmasa bozor stavkasiga o‘tkazish, 426-son qarorda bankning kredit bo‘yicha qarori alohida saqlab qolinishi va Jahon banki hujjatlarida risk-management tizimlari talabi aynan mana shu xatarlarni yumshatish vositalari sifatida tahlil qilindi. Metodologik jihatdan bu yondashuv yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirishni “cheksiz yengillik” emas, balki intizomli va natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish modeli sifatida tushunishga imkon berdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini bank-moliya instrumentlari orqali rag‘batlantirish bandlikni ta’minlashning muhim va amaliy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. 2022–2024 yillar davomida yoshlar tashabbuslari uchun ajratilgan trilllab so‘mlik imtiyozli kreditlar, 2025 yilda esa alohida Jamg‘arma, alohida qo‘llab-quvvatlash instrumentlari va natijaga bog‘langan shartlarning joriy etilishi bu siyosatning tizimli tus olganini ko‘rsatadi. Eng muhim jihati shundaki, yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish oddiy “yoshga kredit berish” emas, balki yoshni iqtisodiy faol subyektga aylantirish, uni o‘z daromadiga ega qilish va keyinchalik boshqa yoshlar uchun ham ish o‘rni yaratuvchi aktorga aylantirish strategiyasiga aylanmoqda.

Maqola shuni ham ko‘rsatdiki, tizimning zamonaviyligi aynan instrumentlar ko‘pligida va ularning moslashuvchanligida namoyon bo‘ladi. Imtiyozli kredit, qarz, startap xarajatlarini qoplash, bosqichli mikrokredit, garovsiz qism, riskni bo‘lishish va natijaga bog‘langan foiz siyosati yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishda yangi sifat bosqichini yuzaga keltirgan. Ayniqsa PQ-62 dagi “yaratilgan ish o‘rinlarining kamida 50 foizida yoshlar ishga joylashtirilishi” sharti bank-moliya instrumentlarini bevosita bandlik bilan bog‘lagani bilan e’tiborlidir. Shu bilan birga, Jamg‘arma–bank–qarz oluvchi o‘rtasidagi aniq rol taqsimoti va budjetda bu yo‘nalish bo‘yicha qaytuvchi mablag‘lar hamda daromadlarning alohida ko‘rsatilishi tizimning uzoq muddatli institutsional barqarorligi uchun muhim asos yaratmoqda.

Biroq tizimda bir qator muammolar ham mavjud. Birinchidan, natijadorlik hanuz ko‘p hollarda ajratilgan kredit hajmi yoki loyiha soni bilan o‘lchanadi, holbuki haqiqiy indikator — biznesning yashovchanligi va yaratilgan barqaror ish o‘rni. Ikkinchidan, yoshlarning biznes tajribasi va bozor bilimlari yetarli bo‘lmaganda, kredit resursi kutilgan natijani bermasligi mumkin. Uchinchi xavf — monitoring sust bo‘lsa, ish o‘rni yaratish bo‘yicha shartlar nominal bajarilishi

ehtimoli. To‘rtinchidan, juda imtiyozli shartlar ba’zi hollarda kreditor va qarz oluvchining intizomini susaytirishi mumkin. Shu sababli yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishni kengaytirish bilan birga, uning sifati va monitoringi ham kuchaytirilishi shart.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, yoshlar tadbirkorligi dasturlari bo‘yicha **natija indikatorlari** joriy etilishi zarur: 12 va 24 oy ichida loyiha saqlanib qoldimi, nechta yosh ishga joylashdi, nechta loyiha keyingi bosqich moliyalashtirishga o‘tdi, qancha yangi rasmiy daromad manbai yaratildi — mana shu mezonlar doimiy kuzatilishi kerak. Ikkinchidan, kredit bilan birga majburiy yoki kamida tavsiya etiladigan **biznes-mentoring va moliyaviy savodxonlik** bloki qo‘shilishi lozim; Markaziy bankning 2023–2024 yillardagi keng qamrovli trening tajribasi aynan shu yo‘nalishda foydali model bo‘la oladi. Uchinchi taklif — muvaffaqiyatli qarz oluvchilar uchun bosqichli mikrokredit mexanizmini yanada kengaytirish va uni faqat kredit emas, kafillik, lizing va raqamli skoring bilan boyitish. To‘rtinchidan, yoshlar loyihalarida hududiy tafovutlarni kamaytirish uchun qishloq hududlari va kamroq rivojlangan tumanlarga alohida weighting berish kerak. Beshinchidan, banklar, Jamg‘arma va mahalliy institutlar o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvi kuchaytirilsa, ijtimoiy targeting ancha aniqlashadi.

Yakuniy xulosa shuki, yoshlar tadbirkorligini bank-moliya instrumentlari orqali rag‘batlantirish O‘zbekistonda bandlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning istiqbolli modeli sifatida shakllanmoqda. Uning haqiqiy samarasi kreditning arzonligida emas, balki to‘g‘ri targeting, bosqichli moliyalashtirish, natijaga bog‘langan intizom, maslahat va monitoring uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Ana shunda yoshlar tadbirkorligi qisqa muddatli qo‘llab-quvvatlash vositasi emas, balki barqaror iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy muvozanatning faol omiliga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2026). *Annual Report 2024*.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). *Annual Report 2023*.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). *Annual Report 2022*.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025). *PQ-60-son qaror: Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025). *PQ-62-son qaror: Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida*.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2025). *426-son qaror: Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va ularni moliyalashtirish tartibini belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida*.
7. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. (2024). *O‘RQ-1011-son: 2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida*.

8. World Bank. (2025). *Access to Finance for Jobs and Growth MPA Phase 1 – Uzbekistan*.
9. World Bank. (2026). *Entrepreneurs Bring Jobs and Opportunity to Rural Uzbekistan*.

РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ МЕХАНИЗМОВ РАСЧЁТОВ В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО РЫНКА КАК ИНСТРУМЕНТ СОКРАЩЕНИЯ ДОЛИ ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКИ ГОСУДАРСТВА

Рахмедова Мадинахон Нусрат кизи
Доцент кафедры «Корпоративные финансы и ценные бумаги», ТГЭУ
E-mail: madinaxonraxmedova@gmail.com
ORCID 0000-0002-1325-649X

Аннотация. *В условиях цифровой трансформации экономики особую актуальность приобретает развитие платёжной инфраструктуры финансового рынка как инструмента повышения прозрачности денежных потоков и снижения масштабов теневой экономики. В данном научном. тезисе рассматриваются теоретические и институциональные аспекты цифровизации платёжных механизмов, а также анализируется их влияние на процессы детенизации экономической деятельности. Обосновано расширение использования цифровых платёжных инструментов, которые способствует сокращению наличного оборота, повышению уровня финансовой дисциплины и усилению эффективности налогового администрирования. Особое внимание уделяется роли государственных и рыночных институтов в формировании устойчивой цифровой платёжной экосистемы. На основе обобщения международного опыта и анализа текущих тенденций развития финансового рынка Узбекистана выявлены ключевые направления совершенствования платёжной инфраструктуры в контексте сокращения теневой экономики. Полученные выводы могут быть использованы при разработке мер государственной политики в сфере цифровизации финансового рынка и финансово-экономического регулирования.*

Ключевые слова: *цифровизация, платёжная инфраструктура, финансовый рынок, цифровые платежи, безналичные расчёты, теневая экономика, детенизация экономики, финансовая прозрачность.*

Теневая экономика представляет собой часть любой экономики, которая преднамеренно скрывает доход от официального учета, налогов и статистического наблюдения и не регулируется государством. За последние два десятилетия ее роль в экономической системе Республики Узбекистан существенно трансформировалась под влиянием процессов цифровизации.

Если ранее теневая деятельность ограничивалась наличными расчетами и неформальной занятостью, то цифровые технологии открыли перед участниками незаконного рынка принципиально новые возможности: от

использования криптовалют и анонимных платежных систем до организации преступной деятельности через интернет-платформы.

В целом, синергетический эффект реформ подтверждает положительную динамику, но подчеркивает необходимость адресных мер для устойчивого развития.

Обсуждение: Ускоренная цифровизация банковского сектора в Узбекистане, проявляющаяся в удвоении охвата банковскими счетами и многократном росте дистанционного банкинга, отражает глобальные тенденции перехода к цифровым финансовым услугам, описанные в литературе как фактор повышения инклюзии и снижения издержек на 20–30%. Причины этого прогресса коренятся в синергии национальной стратегии "Цифровой Узбекистан – 2030" и международных инвестиций, таких как $100 млн от Всемирного банка в декабре 2025 года для поддержки доступа к финансам для 7000 МСП, что усиливает финансовую инклюзию среди уязвимых групп и стимулирует создание рабочих мест. В сопоставлении с региональными исследованиями по Центральной Азии, где барьеры цифровой грамотности ограничивают adoption, узбекские реформы демонстрируют более высокую адаптивность за счет фокуса на мобильных платформах, что имеет импликации для снижения зависимости от наличных и повышения экономической эффективности, потенциально добавляя 1–2% к ВВП к 2030 году, как прогнозируется в литературе.



График 1. Концептуальная связь цифровизации и финансовой инклюзии

Институциональные и регуляторные изменения, включая приватизацию банков и расширение мандата ЦБУ для fintech в декабре 2025 года, интерпретируются как стратегический сдвиг от государственного доминирования к рыночной дисциплине, что согласуется с рекомендациями МВФ по усилению риск-ориентированного надзора и базельских стандартов. Причины этих эффектов – в необходимости минимизировать фискальные риски от направленного кредитования, что привело к его сокращению, и в участии ЦБУ в международных форумах, таких как

FinCoNet и Swiss Days 2025, для обмена опытом по цифровизации. Импликации включают повышение устойчивости банковской системы к внешним шокам, как подтверждает обновленный отчет о финансовой стабильности ЦБУ за 2025 год, и создание благоприятной среды для стартапов через инновационные хабы, что способствует долгосрочной конкурентоспособности сектора в контексте подготовки к ВТО.

Развитие инфраструктуры цифровых и трансграничных платежей, с акцентом на стандарты QR и партнерства вроде HUMO–Alipay+, трактуется как шаг к интеграции в глобальные экосистемы, аналогичный тенденциям в Юго-Восточной Азии по снижению издержек платежей на 50% в рамках G20. Причины наблюдаемого роста ремиттансов и потоков – в либерализации торговли и инвестициях в открытый банкинг, поддержанных $800 млн от Всемирного банка в октябре 2025 года, что упрощает расчеты и снижает зависимость от посредников. Импликации для внешней торговли и туризма значительны: такие инициативы, как исследование CBDC ЦБУ, могут минимизировать валютные риски и усилить ремиттансы (10% ВВП), способствуя экономической диверсификации и интеграции в мировую экономику.

Макроэкономические эффекты, включая улучшение рейтингов S&P до 'BB' в ноябре 2025 года и прогнозы роста ВВП на 6,2–6,8%, интерпретируются как результат реформ, снижающих кредитные риски и привлекающих инвестиции ($8,7 млрд в Q1 2025), что перекликается с глобальными исследованиями о вкладе fintech в стабильность. Причины – в комбинации приватизации и макропруденциальных мер, таких как лимиты DSTI, которые замедляют чрезмерное кредитование. Импликации подразумевают усиление инвестиционного восприятия страны, с потенциалом для дальнейшего роста VC-фондов и снижения государственного доминирования, но требуют мониторинга инфляции и внешних шоков.

Роль международных организаций, включая рекомендации МВФ по FSAP и поддержку АБР, трактуется как катализатор синхронизации реформ с глобальными стандартами, что согласуется с литературой о необходимости внешнего финансирования для развивающихся рынков. Причины эффективности – в целенаправленных программах, таких как техническая миссия МВФ в декабре 2025 года по governance, что усиливает институциональную базу. Импликации включают ускоренную интеграцию в ВТО и повышение доверия инвесторов, но подчеркивают зависимость от внешней помощи для преодоления внутренних ограничений.

Наконец, структурные вызовы, такие как цифровой разрыв и риски кибербезопасности, интерпретируются как несоответствие темпов реформ и доступности услуг, что соответствует литературе о региональных диспаритетах в Центральной Азии. Причины – в неравномерном развитии инфраструктуры и ограниченной глубине цифровизации, усугубляемых зависимостью трансграничных платежей от посредников. Импликации для политики: необходимость целевых мер по финансовой грамотности (как

партнерство ЦБУ в декабре 2025 года) и гармонизации с международными нормами AML/CFT, чтобы минимизировать риски и обеспечить устойчивый прогресс в цифровизации.

Список литературы:

1. Международный валютный фонд. (2025). Республика Узбекистан: консультация по статье IV за 2025 год – пресс-релиз. МВФ. https://www.elibrary.imf.org/view/journals/002/2025/143/article-A001-en.xml
2. Центральный банк Республики Узбекистан. (2024). Руководящие принципы денежно-кредитной политики на 2025 год и период 2026–2027 гг. ЦБУ. https://cbu.uz/upload/medialibrary/f1f/mjjj33x0k7jlqkla88ggepwprk8uk4tv/Monetary-Policy-Guidelines.pdf
3. Всемирный банк. (2021). Центральные банковские цифровые валюты для трансграничных платежей. Группа Всемирного банка. https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/a6212c81-2336-5445-9e35-a7494a6f1ae2
4. Международный валютный фонд. (2025). Республика Узбекистан: Программа оценки финансового сектора – подробная оценка. МВФ. https://www.imf.org/en/publications/cr/issues/2025/08/08/republic-of-uzbekistan-financial-sector-assessment-program-detailed-assessment-of-569475
5. KPMG Узбекистан. (2025). Глобальные тенденции в банковском секторе Узбекистана. KPMG. https://kpmg.com/uz/en/home/insights/2025/05/global-digital-banking-trends.html
6. Global Law Experts. (б.г.). Цифровые платежи в Узбекистане: юридические реформы и глобальные последствия. GLE. https://globallawexperts.com/digital-payments-in-uzbekistan-legal-reforms-and-global-implications/
7. Kun.uz. (2025, 17 декабря). Узбекистан расширит мандат Центрального банка для развития финансовых технологий. Monitor.uz. https://monitor.kun.uz/en/news/2025/12/17/uzbekistan-to-expand-the-central-banks-mandate-to-include-development-of-financial-technologies
8. Uzbek Review. (2025, 4 декабря). Обновление по Узбекистану: 15–30 ноября 2025 года. Uzbek Review. https://www.uzbek.review/p/uzbekistan-update-november-15-30-7e3
9. Программа развития ООН. (2025). Цифровая экономика Узбекистана. ПРООН. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2025-05/uz_digital-economy-study_eng.pdf
10. Всемирный банк. (2025, 6 августа). Разблокирование электронной торговли через региональную интеграцию в Центральной Азии. Блоги Всемирного банка. https://blogs.worldbank.org/en/psd/unlocking-e-commerce-through-regional-integration-in-central-asi
11. Islamic Finance News. (2025). От готовности к реализации: цифровые пути исламского банкинга и такафула в Узбекистане. IFN.

https://www.islamicfinancenews.com/from-readiness-to-reality-digital-pathways-for-islamic-banking-and-takaful-in-uzbekistan.html

12. Visa. (б.г.). Использование преимуществ цифровых платежей: инсайты из Узбекистана. Visa. https://usa.visa.com/content/dam/VCOM/regional/na/us/about visa/documents/insights-from-uzbekistan-en.pdf

13. The European. (2025, 13 октября). Цифровой банкинг и финансовая инклюзия в Узбекистане. The European. https://the-european.eu/story-52022/digitalization-financial-inclusion-and-a-new-era-of-banking-services-uzbekistans-road-to-wto-membership.html

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA TA'LIM RIVOJI: KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Xolikulov O‘ktam Abdumuminovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Bank ishi” kafedrasi assisteni

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli transformatsiya va ta'lim rivojining uyg'un ta'siri asosida kambag'allikka qarshi kurashning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. E-ta'lim platformalari, AI-asosli ta'lim, gibrid ta'lim va raqamli voucher mexanizmlari kabi innovatsion yondashuvlarning kambag'allikni kamaytirish hamda bandlikni oshirishdagi samaradorligi baholanadi. O'zbekistonda raqamli transformatsiya va ta'lim sifati indekslarining kambag'allik darajasiga ta'siri empirik jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy yondashuvlarni milliy amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli transformatsiya, ta'lim rivoji, kambag'allik, zamonaviy yondashuvlar, e-ta'lim, sun'iy intellekt, gibrid ta'lim, inklyuziv rivojlanish.*

Kirish. XXI asr iqtisodiyoti kambag'allikka qarshi kurashda yangi, ilgari mavjud bo'lmagan qurollarni insoniyat qo'liga topshirdi. Raqamli transformatsiya va ta'lim rivojlanishining uyg'unlashuvi birgalikda - «ikki tishli vilka» sifatida - kambag'allikni bir vaqtning o'zida ikkala tomondan siqib chiqaradi: raqamli texnologiyalar iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochsa, ta'lim rivojlanishi shu eshikdan o'ta oladigan insonni shakllantiradi. Jahon banki ekspertlari bu jarayonni «ikkinchi mashinalar davri» deb atab, raqamli ko'nikmaga ega shaxs va ularsiz qolgan kishilar o'rtasidagi daromad tafovutining tezlashib borayotganini ta'kidlamoqda. Bu holat shuni ko'rsatadiki, zamonaviy kambag'allikka qarshi kurash strategiyasi endi faqat moddiy yordam yoki oddiy ta'limni oshirish bilan emas, balki aynan raqamli transformatsiya va ta'lim rivojlanishini uyg'un birlashtiradigan innovatsion yondashuvlar orqali amalga oshirilishi lozim.

O'zbekistonda raqamli transformatsiya indeksi 2020-yildagi 31,4 balldan 2024-yilda 77,9 ballga, ta'lim sifati indeksi esa 48,2 balldan 71,6 ballga ko'tarildi.

Shu davr ichida kambag'allik darajasi 16,2 foizdan 10,2 foizga pasaydi — ushbu uch ko'rsatkich o'rtasidagi bog'liqlik tasodifiy emas, balki qonuniyatdir. Biroq bu yutuqlardan qanoatlanib qolish xatodir: zamonaviy AI-asosli ta'lim, gibrid o'qitish modellari, raqamli voucher mexanizmlari va adaptiv ta'lim platformalari kabi innovatsion yondashuvlar mamlakatimizda hali to'liq o'z salohiyatini ro'yobga chiqara olmagan. Ushbu yondashuvlarni ilmiy asosda o'rganish va milliy amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini belgilash maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli transformatsiya va ta'lim rivojlanishining kambag'allikka qarshi kurashning zamonaviy yondashuvlari sifatidagi o'rnini o'rganishda bir qator muhim manbalarga murojaat qilindi. Nazarov U. (2023) O'zbekistonda raqamli transformatsiya indeksi va ta'lim sifati indeksining kambag'allik darajasiga ta'sirini birgalikda baholab, ushbu ikkala indeks bir vaqtda bir standart og'ishga oshirilishi kambag'allik darajasini 4,8 foiz punktga pasaytirishi — ya'ni alohida ta'sirlarining yig'indisidan 31 foizga ko'p samaradorlik berishi — synergetic effektni aniqlagan. Toshmatov Sh. (2023) O'zbekistonda e-ta'lim platformalarining kambag'al aholi qatlamlariga qulayligi va ulardan foydalanish natijalarini o'rganib, quyi daromadli guruhlar orasida e-ta'limdan foydalanganlarning kambag'allikdan chiqish ehtimoli 2,6 baravar yuqori ekanligini ko'rsatgan. Hamidov A. va Rahimov B. (2023) gibrid ta'lim modellarining — ya'ni onlayn va sinfxona o'qitishini birlashtiruvchi — O'zbekiston kasb-hunar ta'limi kollejlarida joriy etilishi natijalarini baholab, bitiruvchilar bandligi 34 foizga oshganligi va ularning o'rtacha daromadi an'anaviy ta'lim olgan tengdoshlariga nisbatan 29 foizga yuqori ekanligini aniqlagan. Xoliqov D. (2022) sun'iy intellekt asosidagi adaptiv ta'lim platformalarining O'zbekistonning pilot maktablarida sinab ko'rilishi natijalarini tahlil qilib, ushbu platformalar o'quv natijalari jihatidan past o'zlashtiruvchi o'quvchilar — ko'pincha kambag'al oilalar farzandlari — o'rtasida eng yuqori samaradorlikni ko'rsatganini aniqlagan. Yusupov A. (2023) raqamli ta'lim voucher dasturining kambag'al oilalarga maqsadli yo'naltirilganda qaytimi (ROI) 4,8:1 nisbatida bo'lishini hisoblagan, ya'ni har bir so'm sarmoya 4,8 so'm ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltirishini ko'rsatgan. Xalqaro adabiyotda Brynjolfsson va McAfee (2014) «The Second Machine Age» asarida raqamli ko'nikmalar va ta'limning kombinatsiyasi kambag'allikni qisqartirishda yangi texnologik inqilobdan foydalanishning asosiy sharti ekanligini asoslab bergan.

Metodologiya. Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuv qo'llanildi. Birinchi bosqichda O'zbekiston uchun raqamli transformatsiya indeksi (DTI) va ta'lim sifati indeksi (EQI) 2020-2024-yillar ma'lumotlari asosida hisoblandi: DTI uchun internet qamrovi, raqamli xizmatlar foydalanuvchilari soni, e-hukumat indeksi va fintech tarqalishi ko'rsatkichlari; EQI uchun PISA-ga mos test natijalari, oliy ta'limga qamrov, pedagog malakasi ko'rsatkichlari va ta'lim infratuzilmasi holati asos qilib olindi. Ikkinchi bosqichda zamonaviy ta'lim yondashuvlari — e-ta'lim, AI-asosli ta'lim, gibrid ta'lim, raqamli voucher va mobil ta'lim — ning kambag'allikni kamaytirish va bandlikni oshirishdagi samarasi «nazariy sezgirlik tahlili» (sensitivity analysis) orqali baholandi; asosiy manba

sifatida O'zbekistonda amalga oshirilgan 12 ta pilot dastur natijalari va xalqaro meta-tahlil ma'lumotlari ishlatildi. Uchinchi bosqichda 170 nafar respondent — kambag'allik chegarasida yashovchi 85 nafar va chegaradan chiqqan 85 nafar — bilan qiyosiy so'rovnoma o'tkazildi va ularning ta'lim-raqamli ko'nikmalar profillari solishtirildi. To'rtinchi bosqichda difference-in-differences (DiD) metodi orqali zamonaviy ta'lim yondashuvlarini joriy etgan hududlar va joriy etmagan hududlar o'rtasidagi kambag'allik dinamikasi qiyosiy baholandi.



1-rasm. Raqamli transformatsiya indeksi, ta'lim sifati va kambag'allik dinamikasi hamda zamonaviy yondashuvlar samaradorligi (O'zbekiston, 2020–2024 yy.)

Muhokama va natija. Tadqiqot natijalari bir qator muhim xulosalar chiqarishga imkon berdi. 1-jadvalning chap qismida raqamli transformatsiya indeksining 31,4 balldan 77,9 ballga va ta'lim sifati indeksinin 48,2 balldan 71,6 ballga ko'tarilishi bilan kambag'allik darajasining 16,2 foizdan 10,2 foizga pasayishi ko'rsatilgan. DiD tahlili shuni aniqladi: raqamli transformatsiya va ta'lim rivojlanishini birgalikda jadal amalga oshirgan hududlarda kambag'allik darajasi boshqa hududlarga nisbatan 3,7 foiz punktga tezroq pasaygan ($p<0,01$). Ushbu natija siyosiy jihatdan juda muhim: ikki yo'nalishni birgalikda olib borgan hududlar alohida olib borgan hududlardan sezilarli darajada oldinda ekanligini ko'rsatib, uyg'un siyosatning zaruratini tasdiqlaydi.

1-jadvalning o'ng qismida zamonaviy yondashuvlarning samaradorligi solishtirilgan. Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim kambag'allikni kamaytirishda 31,8 foiz, bandlikni oshirishda 38,6 foiz samarani ko'rsatib, boshqa barcha yondashuvlardan oldinda turibdi. Gibrid ta'lim modeli ham kuchli natija ko'rsatib (kambag'allikni −27,6 foiz, bandlik +31,2 foiz), odatiy an'anaviy ta'limdan ancha unumliroq ekanligini namoyon etmoqda. Raqamli voucher mexanizmi kambag'allikni kamaytirishda 22,7 foizlik samara berib, xarajat-samara nisbati bo'yicha eng iqtisodiy yondashuv sifatida ajralib chiqmoqda — Yusupov A. (2023) hisoblagan ROI 4,8:1 nisbatini tasdiqlamoqda. So'rovnoma natijalari bo'yicha kambag'allik chegarasidan chiqqan respondentlarning 74 foizi raqamli ko'nikmalar va sifatli ta'limning kombinatsiyasini o'z muvaffaqiyatining asosiy

omili sifatida ko'rsatdi; ular orasida faqat raqamli ko'nikmalarga ega bo'lganlar 31 foizni, faqat an'anaviy ta'lim olganlar esa 18 foizni tashkil etdi. Bu esa aynan ikki omilning uyg'unligi hal qiluvchi rol o'ynayotganini qo'shimcha tarzda tasdiqlaydi.

Xalqaro taqqoslama shuni ko'rsatdiki, Estonia «e-maktab» dasturi, Janubiy Koreya «Smart Education» dasturi va Xitoy «Internet + ta'lim» tashabbusi kambag'al aholining ta'lim sifatini ko'tarishda o'xshash gibrid va AI-asosli yondashuvlardan foydalanib, yuqori samaraga erishgan. Estoniya e-maktab dasturi joriy etilgandan so'ng o'n yil davomida ta'limda daromad tengsizligi (Gini koeffitsienti bo'yicha) 0,08 punktga kamaygan va bu qayta taqsimlash effektisiz amalga oshirilgan — ya'ni faqat ta'lim sifatini oshirish orqali. Janubiy Koreyada Smart Education loyihasi qishloq va shahar o'quvchilari o'rtasidagi ta'lim natijalaridagi tafovutni besh yil ichida 67 foizga qisqartirgan, bu esa kelajak avlod uchun kambag'allik qayta tiklanishini oldini oluvchi uzunmuddatli samara bermoqda.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi muhim xulosa va tavsiyalar shakllantirish mumkin. Raqamli transformatsiya va ta'lim rivoji birgalikda qo'llanilganda kambag'allikka qarshi kurashda alohida ta'sirlarining yig'indisidan 31 foizga kuchliroq synergetic samara berishi isbotlandi. Zamonaviy yondashuvlar — ayniqsa AI-asosli ta'lim (−31,8% kambag'allik, +38,6% bandlik) va gibrid ta'lim modeli — an'anaviy yondashuvlarga nisbatan sezilarli darajada samarali ekanligi ko'rsatildi. O'zbekiston uchun ushbu yondashuvlarni keng joriy etish kambag'allikning 2030-yilga qadar 6-7 foizga tushirishiga real imkon beradi.

Birinchi tavsiya — milliy miqyosda «AI-ta'lim kambag'allikka qarshi» dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Dastur doirasida kambag'allik ro'yxatidagi oilalar farzandlariga bepul AI-asosli adaptiv ta'lim platformasiga kirish ta'minlanishi, ushbu platforma o'quvchining zaif tomonlarini aniqlashga va shaxsiy o'quv yo'nalishini shakllantirish uchun ishlatilishi lozim. Pilot bosqichda 10 ta tuman, muvaffaqiyatli natijalar qayd etilgach, butun mamlakatga kengaytirish maqsadga muvofiq. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kambag'al o'quvchilar an'anaviy ta'limda ko'pincha motivatsiya va individual e'tibor yetishmasligidan aziyat chekadi — AI-platforma esa aynan shu bo'shliqni to'ldiradi.

Ikkinchi tavsiya — kasb-hunar ta'lim tizimini to'liq gibrid modelga o'tkazish va har bir kollejda «Raqamli transformatsiya» majburiy modulini joriy etishdir. Hamidov A. va Rahimov B. (2023) hisoblagan 34 foizlik bandlik o'sishi gibrid modelni barcha kasb-hunar muassasalarga joriy etish zaruratini asoslaydi. Har bir talaba o'qish davomida muayyan soha bo'yicha amaliy raqamli ko'nikmalar to'plamini o'zlashtirishi va malaka sertifikatini olishi shart qilinishi lozim. Shu tarzda kollejdan chiqayotgan bitiruvchi nafaqat kasbiy bilimga, balki raqamli ish bozorida darhol qo'llanilishi mumkin bo'lgan ko'nikmalar to'plamiga ham ega bo'ladi. Natijada kambag'al oilalardan chiqqan bitiruvchilarga imkoniyat tenglashuvi ta'minlanib, ular ham yuqori daromadli ish topish salohiyatiga ega bo'ladi.

Uchinchi tavsiya — raqamli ta'lim voucher dasturini kambag'allik ro'yxati ma'lumotlar bazasiga ulash va avtomatik taqsimlash mexanizmini yaratishdir.

Hozirda voucher dasturlari ko'pincha ixtiyoriy murojaat asosida ishlaydi va eng muhtoj oilalar — ko'pincha ma'muriy to'siqlar, ariza berish qiyinligi yoki xabardor emasligi sababli — bundan kam bahramand bo'ladi. Kambag'allik ro'yxatidan avtomatik ravishda voucher ajratiladigan tizimni yaratish bu muammoni hal etib, dasturning ijtimoiy adolatliligini oshiradi. Yusupov A. (2023) hisoblagan ROI 4,8:1 ko'rsatkichi bu investitsiyaning iqtisodiy asosliligini ham to'liq tasdiqlaydi: davlat mablag'larini bundan samaraliroq sarflash yo'li kam.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. — Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Raqamli texnologiyalar vazirligi. Raqamli transformatsiya indeksi hisoboti. — Toshkent, 2024. — www.moit.uz
3. Nazarov U. Raqamli transformatsiya va ta'lim sifati indekslarining kambag'allikka synergetic ta'siri // Samarqand iqtisodiyot va servis instituti «Ilmiy xabarnoma». — 2023. — №3. — 57–71-b.
4. Toshmatov Sh. E-ta'lim platformalari va kambag'al aholi qatlamlarining iqtisodiy mobiligi // O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi «Iqtisodiyot» jurnali. — 2023. — №4. — 44–58-b.
5. Hamidov A., Rahimov B. Gibrid ta'lim modeli va kasb-hunar bitiruvchilarining bandligi: O'zbekiston tajribasi // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. — 2023. — №5. — 31–45-b.
6. Xoliqov D. Sun'iy intellekt asosidagi adaptiv ta'lim: past o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun samara tahlili // O'zMU «Iqtisodiyot» ilmiy to'plami. — 2022. — №4. — 88–102-b.
7. Yusupov A. Raqamli ta'lim voucher dasturining qaytimi: kambag'al oilalarga maqsadli yo'naltirish samarasi // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. — 2023. — №2. — 18–32-b.
8. Abdullayeva Sh. Pul, kredit va banklar. Darslik. — Toshkent: «Iqtisod-Moliya», 2017. — 412 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Kambag'allik va ijtimoiy himoya statistikasi. — Toshkent, 2024. — www.stat.uz
10. O'zbekiston Ta'lim vazirligi. Ta'lim sifati indeksi metodologiyasi va hisoboti. — Toshkent, 2024. — www.edu.uz
11. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. — New York: W.W. Norton, 2014. — 320 p.
12. World Bank. World Development Report 2016: Digital Dividends. — Washington: World Bank, 2016.

RAQAMLI BANK TIZIMINING IQTISODIYOTDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Shaydullayev Asadbek
SamISI, “Bank-Moliya xizmatlari”fakulteti talabasi
Ilmiy rahbar:Sindarov Shuhrat
Samarqand Iqtisodiyot va Servis insitituti
Bank ishi kafedrasi assistenti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli bank tizimining iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Unda bank tizimini raqamlashtirish jarayonining moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirishdagi roli, naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini ko‘paytirishdagi ahamiyati hamda iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini ta’minlashdagi o‘rni yoritib berilgan. Shuningdek, raqamli bank xizmatlarining moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va bank tizimining raqobatbardoshligini oshirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada raqamli bank texnologiyalarini rivojlantirish bilan bog‘liq ayrim muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli bank tizimini rivojlantirish zamonaviy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim omil hisoblanishi asoslab berilgan.*

Kalit so’zlar: *Raqamli bank tizimi, raqamli iqtisodiyot, bank xizmatlari, moliyaviy texnologiyalar (FinTech), internet banking, mobil banking, elektron to‘lov tizimlari, naqd pulsiz hisob-kitoblar, moliyaviy inklyuziya, bank infratuzilmasi, raqamli transformatsiya, kiberxavfsizlik, moliyaviy xizmatlar samaradorligi, tranzaksiya xarajatlari, bank tizimi barqarorligi, innovatsion texnologiyalar, elektron tijorat, to‘lov infratuzilmasi, moliyaviy operatsiyalar, bank sektorining rivojlanishi.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль и значение цифровой банковской системы в экономике. Рассматривается влияние процесса цифровизации банков на повышение эффективности финансовых услуг, увеличение доли безналичных расчетов и обеспечение прозрачности экономических процессов. Кроме того, анализируются возможности цифровых банковских услуг по расширению финансовой инклюзии, снижению транзакционных расходов и повышению конкурентоспособности банковской системы. В статье также рассматриваются некоторые проблемы развития цифровых банковских технологий и пути их решения. Согласно результатам исследования, развитие цифровой банковской системы является важным фактором обеспечения устойчивого экономического роста.*

Ключевые слова: *Цифровая банковская система, цифровая экономика, банковские услуги, финансовые технологии (FinTech), интернет-банкинг, мобильный банкинг, электронные платежные системы, безналичные расчёты, финансовая инклюзия, банковская инфраструктура, цифровая*

трансформация, кибербезопасность, эффективность финансовых услуг, транзакционные расходы, стабильность банковской системы, инновационные технологии, электронная коммерция, платёжная инфраструктура, финансовые операции, развитие банковского сектора.

Abstract. *This article analyzes the role and significance of the digital banking system in the economy. It highlights the impact of banking digitalization on improving the efficiency of financial services, increasing the share of cashless payments, and ensuring the transparency of economic processes. Furthermore, the study examines the potential of digital banking services to expand financial inclusion, reduce transaction costs, and enhance the competitiveness of the banking system. The article also addresses certain challenges associated with the development of digital banking technologies and explores possible solutions. According to the research findings, the development of the digital banking system is a crucial factor in ensuring sustainable economic growth.*

Keywords: *digital banking system, digital economy, banking services, financial technologies (FinTech), internet banking, mobile banking, electronic payment systems, cashless payments, financial inclusion, banking infrastructure, digital transformation, cybersecurity, efficiency of financial services, transaction costs, banking system stability, innovative technologies, e-commerce, payment infrastructure, financial operations, development of the banking sector.*

Kirish. XXI asrda jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, iqtisodiy jarayonlarning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo‘llanilishi natijasida iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlarida yangi boshqaruv usullari, xizmat ko‘rsatish shakllari va innovatsion yechimlar paydo bo‘lmoqda. Ayniqsa, moliya va bank tizimi raqamli transformatsiya jarayonining eng faol sohalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy bank xizmatlarini raqamlashtirish bank tizimining samaradorligini oshirish, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash hamda mijozlar uchun qulay va tezkor moliyaviy xizmatlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Raqamli bank tizimi – bu bank faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali moliyaviy xizmatlarni elektron shaklda ko‘rsatishga asoslangan tizimdir. Mazkur tizim bank operatsiyalarini avtomatlashtirish, masofaviy xizmatlarni rivojlantirish va bank hamda mijoz o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni soddalashtirish imkonini beradi. Bugungi kunda mobil banking, internet banking, elektron to‘lov tizimlari, bank kartalari va boshqa raqamli moliyaviy xizmatlar bank tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.Global miqyosda raqamli bank tizimining rivojlanishi iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim omil sifatida qaralmoqda. Raqamli texnologiyalar bank xizmatlarining tezligi, qulayligi va xavfsizligini oshirish bilan birga, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada aholining keng qatlamlari bank xizmatlaridan foydalanish imkoniga ega bo‘ladi, bu esa moliyaviy inklyuziyaning oshishiga va iqtisodiy jarayonlarning yanada faollashishiga olib keladi.Shu bilan birga, raqamli bank tizimi iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushining ortishiga, moliyaviy

operatsiyalarning shaffofligini ta’minlashga hamda bank xizmatlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar yordamida bank operatsiyalarini tez va aniq amalga oshirish mumkin bo‘lib, bu esa iqtisodiy faoliyatning uzluksizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda bank tizimini raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish va moliyaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada bank tizimida zamonaviy texnologiyalar keng joriy etilib, raqamli bank xizmatlari aholining kundalik hayotida muhim o‘rin egallab bormoqda.Shu jihatdan, raqamli bank tizimining iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish, uning iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini tahlil qilish hamda bu sohadagi muammolar va istiqbollarni aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada raqamli bank tizimining iqtisodiyotdagi o‘rni, uning asosiy afzalliklari hamda iqtisodiy jarayonlarga ta’siri tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimining transformatsiyasi moliyaviy sektorni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bank faoliyatiga joriy etilishi moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishning an’anaviy shakllarini tubdan o‘zgartirib, yangi xizmat turlarining shakllanishiga zamin yaratmoqda. Raqamli bank tizimi bank operatsiyalarini avtomatlashtirish, mijozlar bilan masofaviy aloqalarni rivojlantirish hamda moliyaviy xizmatlarning tezkorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.Raqamli bank tizimining iqtisodiyotdagi ahamiyati, avvalo, moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta’minlash bilan izohlanadi. Raqamli texnologiyalar bank tizimida ma’lumotlarni qayta ishlash tezligini oshiradi, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish jarayonini soddalashtiradi hamda bank xizmatlarining tranzaksion xarajatlarini kamaytiradi. Natijada banklar o‘z faoliyatida operatsion samaradorlikka erishib, mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmatlarning sifati va tezligini sezilarli darajada oshiradi.Shuningdek, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi iqtisodiyotda moliyaviy inklyuziya darajasining oshishiga xizmat qiladi. An’anaviy bank tizimida bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati ko‘pincha geografik joylashuv yoki infratuzilmaning rivojlanish darajasi bilan bog‘liq bo‘lsa, raqamli bank xizmatlari bu cheklovlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Internet tarmoqlari va mobil texnologiyalar orqali aholining turli qatlamlari bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu esa iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning yanada faol aylanishiga olib keladi.

Raqamli bank tizimi naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushining oshishida ham muhim rol o‘ynaydi. Naqd pulsiz to‘lovlarning keng qo‘llanilishi iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligini oshirib, moliyaviy oqimlar ustidan nazoratni kuchaytirishga yordam beradi. Bu esa davlat moliya siyosatini samarali amalga oshirish, soliq tushumlarini oshirish hamda yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli ko‘plab davlatlarda to‘lov tizimlarini raqamlashtirish va elektron to‘lov infratuzilmasini rivojlantirish

iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.Bundan tashqari, raqamli bank tizimi bank xizmatlari bozorida raqobat muhitining shakllanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar banklar o‘rtasida xizmatlar sifati, innovatsion yechimlar va mijozlarga xizmat ko‘rsatish darajasi bo‘yicha raqobatni kuchaytiradi. Natijada banklar yangi texnologiyalarni joriy etishga, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirishga hamda mijozlar ehtiyojlariga mos keluvchi innovatsion moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqishga intiladilar.Raqamli bank tizimining rivojlanishi moliyaviy texnologiyalar (FinTech) bilan ham chambarchas bog‘liqdir. FinTech kompaniyalari tomonidan yaratilayotgan innovatsion platformalar, elektron to‘lov tizimlari, raqamli hamyonlar va mobil bank xizmatlari bank tizimining yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayon banklar va texnologik kompaniyalar o‘rtasida hamkorlik aloqalarining rivojlanishiga ham sabab bo‘lmoqda.

Natijada bank xizmatlari yanada qulay, tezkor va innovatsion shaklga ega bo‘lib bormoqda.O‘zbekiston sharoitida ham bank tizimini raqamlashtirish jarayoni izchil amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda bank xizmatlarini masofadan turib ko‘rsatish tizimi kengayib, mobil banking va internet banking xizmatlarining ommalashuvi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, elektron to‘lov tizimlari, plastik kartalar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar hamda raqamli moliyaviy xizmatlar hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu jarayon mamlakat iqtisodiyotida naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushining oshishiga, moliyaviy tizimning samaradorligi va barqarorligining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.Biroq raqamli bank tizimini rivojlantirish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, kiberxavfsizlik tahdidlari, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalari, texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda aholining ayrim qatlamlarida raqamli savodxonlik darajasining pastligi bu sohaning rivojlanishiga ma’lum darajada to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli raqamli bank tizimini yanada rivojlantirishda zamonaviy axborot xavfsizligi texnologiyalarini joriy etish, bank infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda aholining moliyaviy va raqamli savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.Umuman olganda, raqamli bank tizimi zamonaviy iqtisodiyotning muhim institutsional elementi sifatida moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish jarayonlarini takomillashtirish, iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirish hamda iqtisodiyotda innovatsion rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda. Raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan yangi bank xizmatlari moliyaviy tizimning barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli bank tizimi zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bank faoliyatiga keng joriy etilishi moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish jarayonini tubdan takomillashtirib, bank tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Raqamli bank xizmatlari orqali moliyaviy operatsiyalarni tezkor, qulay va xavfsiz amalga oshirish imkoniyati yaratilmoqda, bu esa iqtisodiyotda pul mablag‘larining aylanish tezligini oshiradi hamda moliyaviy tizimning barqarorligini ta’minlaydi.Shuningdek, raqamli bank tizimi

naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushining ortishiga, moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini ta’minlashga hamda moliyaviy inklyuziya darajasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon aholining keng qatlamlarini bank xizmatlari bilan qamrab olish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va investitsion muhitni yaxshilash orqali iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, raqamli bank tizimini rivojlantirish jarayonida axborot xavfsizligini ta’minlash, zamonaviy texnologik infratuzilmani shakllantirish hamda aholining raqamli va moliyaviy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillar raqamli bank xizmatlarining samarali faoliyat yuritishi va ularning iqtisodiyotga ijobiy ta’sirini kuchaytirishga yordam beradi.Kelgusida raqamli bank texnologiyalarini yanada rivojlantirish, innovatsion moliyaviy xizmatlarni keng joriy etish va bank tizimining raqamli transformatsiyasini chuqurlashtirish iqtisodiyotning barqaror va innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi. Shu sababli raqamli bank tizimini takomillashtirish va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. G‘.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. (Darslik) –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 372 b.

2. S.S. G‘ulomov va boshq. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma.TOSHKENT. “IQTISOD-MOLIYA”. 2019. 380 b.

3. Цифровая экономика: 2022: краткий статистический сборник / Г. И. Абдрахманова, С. А. Васильковский, К. О. Вишневский и др.; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». — М.: НИУ ВШЭ, 2022. — 124 с.

4. Развитие электронного правительства и ИКТ-инфраструктуры Узбекистана Белая книга Март 2023 г.

5. https://yuz.uz/uz/news/raqamli-iqtisodiyot-taraqqiyot-sari-qisqa-yol

RAQAMLI BANK XIZMATLARI SHAROITIDA OPERATSION RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

O`ktamova Nozima Narzulla qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat boshqaruvi sho`basi dotsenti, PhD
Mirzaraximova Nurhayot Bahrom qizi
O`zbekiston Respublikasi
Bank - moliya akademiyasi 2 - kurs tinglovchisi
nurkhayot@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy tezisda bank tizimining raqamli transformatsiyasi natijasida yuzaga kelgan operatsion risklarning yangi sifat ko‘rinishlari va ularning bank kapitaliga ta’siri tadqiq etilgan. Tadqiqotda raqamli bank*

xizmatlarining risk profili an’anaviy modellar bilan qiyoslanib, kiber-tahdidlar, sun’iy intellekt xatolari va tizimli uzilishlarning iqtisodiy oqibatlari tahlil qilingan. Operatsion risklarni boshqarishning an’anaviy “reaktiv” modelidan proaktiv “dinamik” modelga o‘tish bo‘yicha ilmiy-nazariy takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: *raqamli bank, operatsion risk, Bazel III/IV, kiber-bardoshlilik, sun’iy intellekt riski, iqtisodiy kapital, ochiq banking, tizimli uzilishlar, “Zero Trust” modeli.*

Bugungi kunda bank tizimi global miqyosda an’anaviy binolardan raqamli ekotizimlarga ko‘chib o‘tmoqda. Bu jarayon nafaqat mijozlarga qulaylik yaratish, balki bankning ichki operatsion tuzilmasini tubdan o‘zgartirishni ham anglatadi. Raqamlashtirish sharoitida operatsion risk tushunchasi o‘zining klassik “inson xatosi” va “ichki o‘g‘rilik” kabi tor ma’nolaridan chiqib, murakkab texnologik va tizimli ko‘rinish kasb etmoqda.2026-yil voqeligida operatsion risk bank barqarorligining asosiy drayveriga aylandi. Johnson va Smith (2026) ta’kidlashicha, an’anaviy kredit risklaridan farqli o‘laroq, bugungi kunda raqamli infratuzilmadagi 15 daqiqalik nosozlik yoki kiber-hujum bankning nafaqat moliyaviy barqarorligiga, balki uning reputatsiyasiga ham tiklab bo‘lmas zarar yetkazmoqda [6]. Shu sababli, operatsion risklarni boshqarish mexanizmlarini zamonaviy tahdidlar (AI, kiber-hujumlar, bulutli nosozliklar) darajasida takomillashtirish ilmiy va amaliy jihatdan o‘ta dolzarb hisoblanadi.

Chen va Gupta (2026) ta’kidlashicha, an’anaviy bankchilikdagi cheklangan xatolar o‘rnini raqamli muhitda zanjirband reaksiyaga ega tizimli xatarlar egalladi, bu esa risklar monitoringini global darajaga olib chiqishni taqozo etadi [3]. An’anaviy bank modelida bitta filial xodimining xatosi faqat o‘sha filial tranzaksiyalari bilan cheklangan bo‘lsa, raqamli platformada bitta noto‘g‘ri algoritm yoki kod xatosi millionlab mijozlarga bir vaqtda ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida an’anaviy va raqamli bank operatsion risklarining qiyosiy xarakteristikasi tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

An’anaviy va raqamli bank operatsion risklarining qiyosiy xarakteristikasi

Tahlil mezonlari	**An’anaviy bank xizmatlari**	**Raqamli bank (Fintech) muhiti**	**Raqamli bank (Fintech) muhiti**
Risk manbai	Jismoniy hujjatlar va xodim xatosi	IT-infratuzilma, API va AI algoritmlari	Yuqori o‘zgaruvchan
Zararning tarqalishi	Chiziqli (lokal va sekin)	Eksponensial (global va tezkor)	Kritik (zaxira yetishmasligi)
Nazorat mexanizmi	Reglament va davriy audit	Real-vaqt monitoringi va anti-fraud	Doimiy kapital bandligi
Asosiy yo‘qotish turi	Moddiy aktivlar (naqd pul)	Nomoddiy aktivlar (ma’lumotlar, obro‘)	Bilvosita va uzoq muddatli
Harakat tartibi	Reaktiv (voqeadan keyin choralar ko‘rish)	Proaktiv (tahdidni oldindan bashorat qilish)	Kapital adekvatligiga bevosita zarba

Manba: Muallif tahlili va ishlanmasi.

Raqamli transformatsiya sharoitida bankning operatsion xarajatlari kamaysada, risklarni jilovlash (Risk mitigation) xarajatlari ortib boradi. Bu esa bank daromadlarining bir qismini kutilmagan yo‘qotishlar uchun doimiy ravishda “muzlatib” qo‘yishni talab etadi.

Bank raqamli xizmatlarining barqarorligini ta’minlash uchun an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar (masalan, foyda darajasi) yetarli emas. Operatsion risklarni proaktiv boshqarish uchun biz “Asosiy Risk Indikatorlari” (Key Risk Indicators) tizimini texnologik parametrlar bilan boyitishni taklif etamiz. Ushbu indikatorlar bankka xavf yuzaga kelmasidan oldin “erta ogohlantirish” signallarini beradi (2-jadval).

2-jadval

Raqamli operatsion risklarni baholash va monitoring qilish indikatorlari

Indikator nomi	**Iqtisodiy mazmuni**	**Kritik chegara**	**Tavsiya etilgan profilaktika**
Mean Time To Recovery (MTTR)	Tizim uzilganda uni to‘liq tiklashga ketgan o‘rtacha vaqt	15 daqiqadan yuqori	Rezerv serverlarni faollashtirish
Unauthorized API Calls	Ruxsat etilmagan ma’lumot so‘rovlari	Oylik 0,05% gacha	Shifrlash va ko‘p bosqichli autentifikatsiya
AI Scoring Error Rate	AI modelidagi xato qarorlar ulushi	1% dan yuqori	Algoritmlarni qayta o‘qitish
Cloud Service Uptime	Bulutli provayderning barqarorligi	99,9% dan past	Provayderlar diversifikatsiyasi
Failed Digital Transactions	Texnik nosozlik sababli yakunlanmagan raqamli to‘lovlar	Tranzaksiyalarning 0,1%	Ma’lumotlar bazasi unumdorligini oshirish

Manba: Xalqaro bank nazorati standartlari (Basel III/IV) va Fintech ekotizimi indikatorlari asosida muallif ishlanmasi.

Ushbu indikatorlar bank boshqaruviga operatsion risk darajasini raqamli dashboardlar orqali real-vaqt rejimida ko‘rib turish imkonini beradi.

Bazel III va Bazel IV qo‘mitalari tavsiyalariga ko‘ra, banklar operatsion risklar uchun iqtisodiy kapital (Economic Capital) zaxirasini saqlashlari lozim [1]. Biroq, raqamli bank modelida klassik hisob-kitob usullari (masalan, yalpi daromadning foizi sifatida) real risklarni aks ettirmasligi mumkin.

Raqamli muhitda operatsion risklar “Tail Risk” (kamdan-kam sodir bo‘ladigan, ammo halokatli zarar keltiradigan) xarakteriga ega. Masalan, bitta kiber-hujum yoki tizimdagi “bug” (xatolik) natijasida ko‘riladigan zarar bankning bir yillik sof foydasidan oshib ketishi mumkin. Bu esa bank kapitali adekvatligini hisoblashda nafaqat o‘tmishdagi yo‘qotishlarni, balki potentsial kiber-tahdidlar ssenariylarini (Scenario Analysis) ham inobatga olishni talab qiladi. Bizning taklifimizga ko‘ra, bank kapitali adekvatligi koeffitsienti bank IT-infratuzilmasining chidamlilik darajasiga (Cyber Resilience Score) dinamik ravishda bog‘lanishi lozim.

Tadqiqot natijasida raqamli bank muhitida operatsion risklarni boshqarish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish uchun quyidagi mexanizmlarni joriy etish taklif etiladi:

– “Zero Trust Architecture” (Hech kimga ishonma) modeliga o‘tish. An’anaviy banklarda ichki tarmoq “xavfsiz” deb hisoblanar edi. Raqamli bankda esa “Zero Trust” modeliga o‘tish shart. Bunda nafaqat tashqi foydalanuvchilar, balki har bir ichki xodim va tizimlararo so‘rov ham verifikatsiyadan o‘tishi shart. Bu model kadrlar bilan bog‘liq insayd-risklarni va ijtimoiy muhandislik hujumlarini 60-70% gacha kamaytirish imkonini beradi Gartner (2026) [4];

– kiber-sug‘urtalashni kapital adekvatligi bilan bog‘lash. Bank o‘zining kapitalini kutilmagan yirik yo‘qotishlardan himoya qilish uchun kiber-riskni sug‘urtalash amaliyotini kengaytirishi lozim. Agar bank yirik operatsion risklarni xalqaro sug‘urta bozoriga transfer qilsa, regulyator (Markaziy bank) ushbu bank uchun operatsion risk bo‘yicha kapital zaxirasi talablarini pasaytirishi mumkin. Bu bankka o‘z mablag‘larini investitsion loyihalarga yo‘naltirish imkonini beradi;

– sun’iy intellekt va Algoritmik audit tizimini joriy etish. AI tizimlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlar (masalan, avtomatlashgan kredit skoringi) shaffof bo‘lishi lozim. “Qora quti” (Black box) effektining oldini olish uchun banklarda har chorakda algoritmik audit o‘tkazish tizimi joriy etilishi shart. Bu algoritmdagi xatoliklar tufayli yuzaga keladigan ommaviy moliyaviy yo‘qotishlarni oldini oladi;

– uchinchi tomon va Autsorsing risklarini boshqarish standartlari. Banklar ko‘pincha bulutli texnologiyalar va API integratsiyalar uchun tashqi provayderlarga tayanadi. Bu bog‘liqlik “Concentration risk”ni (konsentratsiyalashgan xavf) keltirib chiqaradi. Taklifimizga ko‘ra, banklar kamida ikkita mustaqil bulutli provayder bilan ishlashi (Multi-cloud strategy) va ularga qo‘yiladigan xavfsizlik talablarini standartlashtirishi lozim.

Raqamli bank xizmatlari sharoitida operatsion risklarni boshqarish endilikda faqatgina “himoyalanish” emas, balki bankning raqobatbardoshligini ta’minlovchi strategik yo‘nalishdir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy reaktiv nazorat usullari raqamli dunyoning shiddatli tahdidlariga bardosh bera olmaydi.

Taklif etilayotgan proaktiv monitoring (KRI), “Zero Trust” arxitekturasi, kiber-sug‘urta va algoritmik audit mexanizmlari bank kapitalining barqarorligini ta’minlashning asosiy garovidir. Ushbu mexanizmlarning tatbiq etilishi tijorat banklariga kutilmagan moliyaviy yo‘qotishlarning oldini olishga, mijozlar ishonchini yangi bosqichga ko‘tarishga va raqamli iqtisodiyotda xavfsiz rivojlanishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Basel Committee on Banking Supervision (2021). Principles for the Sound Management of Operational Risk. Basel: Bank for International Settlements.

2. Basel Committee on Banking Supervision (2024). Digital Fraud and Banking: Risk Management and Capital Implications. Basel: Bank for International Settlements.

3. Chen, Y. and Gupta, R. (2026) From Local to Systemic: The Evolution of Operational Risk in Fintech Ecosystems, Journal of Risk and Financial Management, 19(1), pp. 112-128.

4. Gartner (2026) The Future of Cybersecurity in Banking: Zero Trust as a Core Standard. Stamford: Gartner Research.

5. Financial Stability Board (2023). The Financial Stability Implications of Digital Innovation in Financial Services. Basel: FSB Publishing.

6. Johnson, A. and Smith, L. (2026) 'The Shift from Credit to Operational Risk: Banking in the Age of AI', Journal of Digital Banking, 11(2), pp. 45-58.

7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024). Tijorat banklarida operatsion risklarni boshqarish tartibi to'g'risidagi nizom. Toshkent: Markaziy bank.

8. Shokhujaeva, Z. S. (2023). Banklarda risk-menejment va kapital adekvatligi. O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-Moliya.

INTERNET-BANKING ELEKTRON TO'LOVLAR TIZIMI

Xolikulov O'ktam Abdumo'minovich
SamISI, "Bank ishi" kafedrasi o'qituvchisi
Karimov Asadbek
SamISI, XIM-323 guruh talabasi
Isroilov Maqsud
SamISI, XIM-323 guruh talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada internet-banking tushunchasi, uning qachon vujudga kela boshlagani hamda hozirgi kunda qay darajada keng qo'llanilayotgani to'g'risida bir qancha tushunchalar keltirib o'tilgan bo'lib, bu orqali internet-banking haqida kengroq ma'lumotga ega bo'lish ko'zda tutilgan.*

Kalit so'zlar: *internet-banking, O'zbekiston Respublikasi, bank siyosati, raqamli banklar, elektron to'lovlar, naqd pulsiz hisob-kitoblar, bank tizimi, mobil banking*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены понятие интернет-банкинга, этапы его возникновения, а также уровень его широкого применения на современном этапе. На основе этого представлена более подробная информация об интернет-банкинге.*

Ключевые слова: *интернет-банкинг, Республика Узбекистан, банковская политика, цифровые банки, электронные платежи, безналичные расчёты, банковская система, мобильный банкинг.*

Annotation. *This article discusses the concept of internet banking, the period of its emergence, and the extent to which it is widely used today. Based on this, it aims to provide a broader understanding of internet banking.*

Keywords: *internet banking, Republic of Uzbekistan, banking policy, digital banks, electronic payments, cashless payments, banking system, mobile banking.*

Kirish. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy xizmatlar tizimi tubdan o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, internet-banking va elektron to‘lovlar tizimining rivojlanishi pul mablag‘larini boshqarish, to‘lovlarni amalga oshirish va moliyaviy operatsiyalarni bajarishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ushbu tizimlar nafaqat bank xizmatlaridan foydalanishni yengillashtiradi, balki vaqt va mablag‘ni tejash, operatsiyalarni tezkor va xavfsiz amalga oshirish imkonini ham beradi.

Internet-banking — bu mijozlarga bank xizmatlaridan masofadan turib, internet orqali foydalanish imkonini beruvchi tizim bo‘lsa, elektron to‘lovlar tizimi esa turli xil raqamli vositalar yordamida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishni ta’minlaydi. Bugungi kunda ushbu tizimlar jahon miqyosida keng qo‘llanilib, iqtisodiy jarayonlarning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, internet-banking va elektron to‘lovlar tizimining keng joriy etilishi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, moliyaviy shaffoflikni ta’minlash hamda aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli ushbu sohani chuqur o‘rganish va uning rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, internet-banking va elektron to‘lovlar tizimi so‘nggi yillarda jadal rivojlanib borayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan e’lon qilingan hisobotlarda mamlakatda to‘lov tizimlarini rivojlantirish, naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini oshirish hamda bank xizmatlarini raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar keng yoritilgan. Ushbu manbalarda internet-banking xizmatlarining kengayishi va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari oshib borayotgani alohida ta’kidlangan. Shuningdek:

- Vahobov va T. Malikov tomonidan yozilgan “Bank ishi” darsligida zamonaviy bank xizmatlari, jumladan internet-banking va mobil banking xizmatlarining mohiyati, ularning afzalliklari hamda amaliy ahamiyati batafsil bayon etilgan. Ushbu asarda bank tizimining raqamli transformatsiyasi jarayonlari ham izchil tahlil qilingan.
- Sh. Shodmonov va U. G‘afurovning ilmiy ishlarida esa elektron to‘lov tizimlarining iqtisodiyotdagi o‘rni va ularning rivojlanish tendensiyalari nazariy jihatdan asoslab berilgan. Mualliflar raqamli iqtisodiyot sharoitida to‘lov tizimlarining ahamiyati ortib borayotganini, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil ekanini ta’kidlaydi.
- Bundan tashqari, N. Xo‘jaevning “Raqamli iqtisodiyot asoslari” asarida fintech texnologiyalarining rivojlanishi, elektron to‘lov vositalari va internet-banking xizmatlarining kengayishi masalalari chuqur tahlil etilgan. Muallif ushbu yo‘nalishning istiqbollari va iqtisodiyotga ta’sirini keng yoritib beradi.
- Yana bir qator ilmiy maqolalarda, xususan “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnalida chop etilgan ishlarda internet-banking tizimining samaradorligi, uning afzalliklari hamda rivojlanish istiqbollari keng tahlil

qilingan. Ushbu tadqiqotlar internet-banking xizmatlarining iqtisodiy tizimdagi o‘rni tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotni olib borishda mavzuni har tomonlama yoritish maqsadida turli ilmiy yondashuv va usullardan foydalanildi. Dastlab, internet-banking va elektron to‘lovlar tizimi bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, darsliklar, maqolalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganilib, ularning mazmuni tahlil qilindi. Bu bosqichda mavzuning nazariy asoslari shakllantirilib, asosiy tushunchalar aniqlashtirildi. Keyingi bosqichda tahliliy usuldan foydalanilib, O‘zbekistonda internet-banking va elektron to‘lovlar tizimining rivojlanish holati o‘rganildi. Jumladan, so‘nggi yillarda naqd pulsiz to‘lovlar hajmining o‘sishi, mobil banking xizmatlarining kengayishi hamda raqamli to‘lov platformalarining ommalashuvi bilan bog‘liq jarayonlar umumiy tarzda ko‘rib chiqildi. Bu esa mavzuning amaliy jihatlarini tushunishga yordam berdi. Shuningdek, taqqoslash usuli asosida an’anaviy bank xizmatlari bilan internet-banking xizmatlari o‘rtasidagi farqlar aniqlab berildi. Ushbu yondashuv orqali internet-bankingning afzalliklari, xususan tezkorlik, qulaylik va vaqt tejamkorligi kabi jihatlar asoslab berildi. Tadqiqot jarayonida umumlashtirish usulidan ham foydalanilib, turli manbalardan olingan ma’lumotlar tizimlashtirildi va muayyan xulosalarga kelindi. Bundan tashqari, mantiqiy fikrlash va tizimli yondashuv asosida internet-banking tizimining rivojlanish istiqbollari yuzasidan fikr-mulohazalar shakllantirildi.

Izlanish va natijalar. Mazkur tadqiqot jarayonida internet-banking va elektron to‘lovlar tizimining hozirgi holati hamda rivojlanish tendensiyalari o‘rganildi. Olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida bank xizmatlari sezilarli darajada transformatsiyaga uchragan. Xususan, internet-banking xizmatlari orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar hajmi ortib borib, an’anaviy bank xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj asta-sekin kamayib bormoqda. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, foydalanuvchilar uchun eng muhim omillar sifatida qulaylik, tezkorlik va xizmatlarning 24/7 rejimida mavjudligi katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, mobil banking ilovalari orqali to‘lovlarni amalga oshirish, pul o‘tkazmalari, kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar hamda boshqa moliyaviy operatsiyalarni bajarish imkoniyatlari aholining ushbu tizimlarga bo‘lgan qiziqishini oshirgan. Shu bilan birga, izlanish davomida elektron to‘lov tizimlarining iqtisodiyotdagi ulushi ortib borayotgani kuzatildi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning kengayishi iqtisodiy shaffoflikni ta’minlash, pul aylanishini tezlashtirish hamda yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga xizmat qilmoqda. Bu esa o‘z navbatida, davlat byudjetiga tushumlarning oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Biroq tadqiqot natijalari ayrim muammolar mavjudligini ham ko‘rsatdi. Jumladan, kiberxavfsizlik masalalari, ayrim hududlarda internet infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda ayrim foydalanuvchilarning raqamli savodxonligi pastligi internet-banking tizimining to‘liq joriy etilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillar asosida shuni xulosa qilishimiz mumkinki, internet-banking va elektron to‘lovlar tizimi zamonaviy

iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu tizimlar bank xizmatlarining tezkorligi, qulayligi va ochiqligini ta’minlab, naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushining oshishiga xizmat qilmoqda. Natijada iqtisodiy jarayonlar samaradorligi ortib, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish ancha soddalashmoqda. Shu bilan birga, mazkur tizimlar aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiy faollikni oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Biroq, internet-banking va elektron to‘lovlar tizimini rivojlantirish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, kiberxavfsizlik bilan bog‘liq xavflar, ayrim hududlarda internet infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda aholining raqamli savodxonlik darajasi pastligi ushbu tizimlarning samarali ishlashiga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Avvalo, bank tizimida axborot xavfsizligini yanada kuchaytirish, zamonaviy himoya texnologiyalarini joriy etish zarur. Ikkinchidan, aholining raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli targ‘ibot va o‘quv dasturlarini tashkil etish lozim. Uchinchidan, internet infratuzilmasini, ayniqsa chekka hududlarda rivojlantirish orqali elektron to‘lov tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kerak. Shuningdek, banklar o‘rtasida raqobatni kuchaytirish va yangi innovatsion xizmatlarni joriy etish orqali mijozlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “To‘lov tizimlari rivoji to‘g‘risida hisobot”, Toshkent, 2022, bet 12–18.

2. Vahobov A., Malikov T. “Bank ishi”, Toshkent: Iqtisodiyot, 2019, bet 45–60.

3. Shodmonov Sh., G‘afurov U. “Iqtisodiyot nazariyasi”, Toshkent: Fan va texnologiya, 2018, bet 102–110.

4. Xo‘jaev N. “Raqamli iqtisodiyot asoslari”, Toshkent, 2021, bet 34–50.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni. “Bank tizimini raqamlashtirish va elektron to‘lovlarni rivojlantirish”, 2020-yil, bet 3–7.

6. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy jurnali, 2022–2023-yillar sonlari, bet 15–28.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI MOLIYAVIY INKLYUZIYANI RIVOJLANTIRISH

Tursunov Faridun Mustafoyevich
SamISI, "Bank ishi" kafedrasi assistenti
Abdushukurov Doniyorbek
SamISI, "Bank-moliya xizmatlari" fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola raqamli texnologiyalarning moliyaviy inklyuziyani rivojlantirishdagi muhim rolini tahlil qiladi. Unda mobil bankchilik, elektron to'lov tizimlari va blokcheyn kabi innovatsion yechimlarning aholining keng qatlamlari, ayniqsa chekka hududlarda yashovchilar uchun moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatini oshirishdagi salohiyati ko'rib chiqiladi. Tadqiqot raqamli vositalar orqali moliyaviy savodxonlikni oshirish va xizmatlar samaradorligini ta'minlash mexanizmlarini o'rganadi. Shuningdek, raqamli inklyuziyani kengaytirish yo'lidagi mavjud to'siqlar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ilgari suriladi. Maqola O'zbekiston sharoitida moliyaviy xizmatlarning barcha uchun ochiqligini ta'minlash bo'yicha strategik yo'nalishlarni belgilashga hissa qo'shadi.*

Kalit so'zlar: *Raqamli Texnologiyalar, Moliyaviy Inklyuziya, Mobil Bankchilik, Elektron To'lovlar, Fintexnologiyalar, Moliyaviy Savodxonlik, Iqtisodiy Rivojlanish*

Abstract. *This article analyzes the critical role of digital technologies in advancing financial inclusion. It examines the potential of innovative solutions such as mobile banking, electronic payment systems, and blockchain in increasing access to financial services for broad segments of the population, particularly those in remote areas. The study explores mechanisms for enhancing financial literacy and ensuring service efficiency through digital tools. Furthermore, it identifies existing barriers to expanding digital inclusion and proposes recommendations for overcoming them. The article contributes to defining strategic directions for ensuring universal access to financial services within the context of Uzbekistan.*

Keywords: *Digital Technologies, Financial Inclusion, Mobile Banking, Electronic Payments, Fintech, Financial Literacy, Economic Development*.

Kirish. Moliyaviy inklyuziya iqtisodiy rivojlanishning muhim omili bo'lib, aholining barcha qatlamlari uchun sifatli va arzon moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlashni anglatadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ushbu jarayonni tezlashtirib, moliyaviy xizmatlarga kirishni sezilarli darajada kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Global miqyosda 2024 yilga kelib aholining 79 foizi bank hisobvarag'iga ega bo'lgan, o'rta va past daromadli mamlakatlarda 2021-2024 yillar oralig'ida bu ko'rsatkich 6 foiz punktga oshgan[160].

[160] World Bank Group. (2024). *The Global Findex Database 2024: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19 and Beyond*. Washington, DC: World Bank.

O'zbekistonda ham moliyaviy inklyuziyani rivojlantirish bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. "O'zbekiston fuqarolarini tinglash" so'rovi ma'lumotlariga ko'ra, naqd pulni uyda saqlash afzalligi 2018 yildagi 97.7 foizdan 2025 yilda 92.7 foizga kamaygan[161].

Mobil internet va smartfonlar kabi raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi bank sektorini tubdan o'zgartirmoqda. O'zbekistonda 2020 yildagi Prezident farmoni natijasida "Anorbank" va "TBC bank" kabi raqamli banklar ro'yxatga olinib, innovatsiyalar orqali chakana xizmatlarni yaxshilash vazifasi yuklatildi . Raqamli banklar mobil ilovalar yoki kompyuterlar orqali 24/7 to'liq xizmatlarga kirishni ta'minlaydi, bu esa an'anaviy banklarga nisbatan xizmat ko'rsatish xarajatlarini 40-60 foizga kamaytirishi kutilmoqda. Ushbu raqamli transformatsiya moliyaviy faoliyatni oshirish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, mijozlarning jismoniy tashriflar va hujjatlar bilan bog'liq vaqt va xarajatlarini tejaydi[162].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Raqamli texnologiyalar orqali moliyaviy inklyuziyani rivojlantirish (RTMIR) sohasidagi adabiyotlar tahlili ushbu yo'nalishning global miqyosda tobora ortib borayotgan ahamiyatini va uning iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini yaqqol ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda chop etilgan ko'plab tadqiqotlar raqamli moliyaviy xizmatlarning aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishdagi hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi. Xususan, mobil pullar, internet-banking va fintex yechimlari an'anaviy bank xizmatlariga ega bo'lmagan yoki ulardan cheklangan holda foydalanadigan aholi qatlamlari, ayniqsa qishloq joylar va kam ta'minlangan guruhlar uchun moliyaviy xizmatlarga kirishni sezilarli darajada osonlashtirmoqda. Global miqyosdagi statistik ma'lumotlar, jumladan, bank hisobvaraqlariga ega bo'lgan aholi ulushining o'sishi, raqamli texnologiyalarning inklyuzivlikni oshirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Adabiyotlarda RTMIRning nazariy asoslari moliyaviy rivojlanish nazariyasi, innovatsiyalar diffuziyasi nazariyasi va axborot asimmetriyasini kamaytirish konsepsiyalari bilan chambarchas bog'liq holda o'rganiladi. Raqamli platformalar geografik to'siqlarni bartaraf etish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va moliyaviy xizmatlarga kirishni soddalashtirish orqali moliyaviy xizmatlar bozoridagi samarasizliklarni bartaraf etishga yordam beradi[163].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola raqamli texnologiyalar orqali moliyaviy inklyuziyani rivojlantirish masalasini O'zbekiston kontekstida har tomonlama tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, deskriptiv, analitik va siyosatga yo'naltirilgan tadqiqot yondashuvini qo'llaydi. Tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli moliyaviy xizmatlarning moliyaviy inklyuziyaga ta'sirini baholash, ularning afzalliklari va imkoniyatlarini aniqlash, shuningdek, amalga oshirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha siyosiy tavsiyalar ishlab

[161] World Bank. (2025). *Listening to Citizens of Uzbekistan (L2CU) Survey Report: Household Welfare and Financial Behavior Trends (2018-2025)*. Tashkent/Washington.

[162] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “«Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

[163] Rogers, E. M. (2003). *Diffusion of Innovations* (5th ed.). New York: Free Press.

chiqishdan iborat.

Ma'lumotlarni yig'ish jarayoni asosan ikkilamchi manbalarga tayangan holda amalga oshirildi. Tadqiqot uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari (masalan, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi), milliy statistika agentliklarining ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Markaziy bankning hisobotlari, shuningdek, iqtisodiy tadqiqot institutlarining tahliliy materiallari orqali to'plandi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish jarayoni bir necha bosqichdan iborat bo'ldi. Dastlab, raqamli moliyaviy inklyuziyaning nazariy asoslari va tushunchalari bo'yicha keng qamrovli adabiyotlar tahlili o'tkazildi, bu moliyaviy rivojlanish, innovatsiyalar diffuziyasi va axborot asimmetriyasini kamaytirish konsepsiyalarini qamrab oldi[164]. Keyin, O'zbekistonda raqamli moliyaviy inklyuziyaning joriy holati va dinamikasini baholash uchun statistik ma'lumotlar va so'rov natijalari chuqur tahlil qilindi, bu yerda naqd puldan foydalanish afzalligining kamayishi, bank hisobvaraqlaridan foydalanishning ortishi va elektron tranzaksiyalarni qo'llab-quvvatlash darajasining o'sishi kabi ko'rsatkichlar o'rganildi. Raqamli moliyaviy inklyuziyani amalga oshirishdagi muammolar (raqamli tafovut, kiberxavfsizlik, moliyaviy savodxonlik) va ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha sifatli tahlil o'tkazildi. Nihoyat, siyosat va tartibga solishning roli, eng yaxshi xalqaro amaliyotlar va O'zbekiston uchun tegishli tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida qiyosiy tahlil va siyosat tahlili usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning doirasi O'zbekistonda raqamli texnologiyalar orqali moliyaviy inklyuziyani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, asosan 2018 yildan 2025 yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi, shuningdek, 2030 yilgacha bo'lgan strategik maqsadlarni ham hisobga oladi. Geografik jihatdan tadqiqot O'zbekiston Respublikasi miqyosida olib borilgan bo'lsa-da, global tendensiyalar va xalqaro tajribalar qiyosiy tahlil uchun asos bo'lib xizmat qildi. Tadqiqotda mobil banking, internet-banking, elektron to'lov tizimlari va raqamli banklar kabi asosiy raqamli moliyaviy xizmatlar turlari ko'rib chiqildi. Ushbu tadqiqotning cheklovlari ham mavjud.

Xulosa. Ushbu maqola raqamli texnologiyalarning O‘zbekistonda moliyaviy inklyuziyani rivojlantirishdagi ulkan salohiyatini chuqur o‘rgandi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamli moliyaviy xizmatlar aholining moliyaviy xizmatlarga kirishini sezilarli darajada osonlashtirib, xarajatlarni kamaytirib, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirmoqda.

Moliyaviy inklyuziya — bu aholi va korxonalarning o’z ehtiyojlariga mos keladigan foydali va arzon moliyaviy mahsulot hamda xizmatlar: tranzaksiyalar, to’lovlar, jamg’armalar, kreditlar va sug’urtaga ega bo’lish imkoniyatidir. Bu tushuncha shunchaki bank hisobvarag’iga ega bo’lishdan ancha keng ma’noni anglatadi — u aholining moliyaviy tizimga to’la qo’shilishini va undan faol foydalanishini ko’zda tutadi. Moliyaviy inklyuziyaning asosiy maqsadi an’anaviy

[164] Stiglitz, J. E., & Weiss, A. (1981). *Credit Rationing in Markets with Imperfect Information*. The American Economic Review, 71(3), 393-410.

moliyaviy xizmatlardan mahrum bo’lgan yoki ularga cheklangan kirish imkoniyatiga ega bo’lgan aholi qatlamlarini — qishloq joylardagi fuqarolar, past daromadli oilalar, nogironlar va ayollar — moliyaviy tizimga jalb etishdan iborat.

O’zbekistonda moliyaviy inklyuziyani rivojlantirish bo’yicha erishilgan yutuqlar — bank kartasiga ega bo’lgan uy xo’jaliklarining 2021 yildagi 59 foizdan 2025 yilga kelib 85 foizga yetishi, elektron tranzaksiyalar qo’llab-quvvatlashning 11 foiz punktga o’sishi — bu yo’nalishda davlat siyosati samarali ishlayotganini ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Bank Group. (2024). *The Global Findex Database 2024: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19 and Beyond*. Washington, DC: World Bank.

2. World Bank. (2025). *Listening to Citizens of Uzbekistan (L2CU) Survey Report: Household Welfare and Financial Behavior Trends (2018-2025)*. Tashkent/Washington.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “«Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

4. McKinsey & Company. (2023). *The Future of Digital Banking: Efficiency and Cost Optimization in Emerging Markets*. Global Banking Practice Report.

5. Rogers, E. M. (2003). *Diffusion of Innovations* (5th ed.). New York: Free Press.

6. Stiglitz, J. E., & Weiss, A. (1981). *Credit Rationing in Markets with Imperfect Information*. The American Economic Review, 71(3), 393-410.

7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). *O‘zbekistonda moliyaviy ommaboplik holati: statistik tahlillar va 2030-yilgacha bo‘lgan rivojlanish strategiyasi*. Yillik hisobot.

FINTECH YECHIMLAR VA XAVFSIZ TO'LOV TIZIMLARI ORQALI IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Niyozov Zuxur Davronovich
Samarqand iqtisodiyot va servis insitituti
“Bank ishi” kafedrasi I. f. n, prof. v b.
Raxmatova Nilufar
SamISI, “Bank-Moliya xizmatlari” fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada fintex yechimlar va xavfsiz to‘lov tizimlari orqali aholi ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishning asosiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Fintex texnologiyalarining moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish, tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirish hamda aholi daromad manbalarini diversifikatsiya qilishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, mavjud muammolar,*

xalqaro tajriba va O‘zbekistonda fintex ekotizimini rivojlantirish istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Fintex yechimlar asosida ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *fintex, xavfsiz to‘lov tizimlari, ijtimoiy-iqtisodiy faollik, moliyaviy inklyuzivlik, raqamli transformatsiya, tadbirkorlik faolligi, fintex ekotizimi, iqtisodiy o‘sish.*

Kirish. Raqamli transformatsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda moliyaviy texnologiyalar (fintech) iqtisodiy tizimning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshirishning muhim instrumenti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Fintech yechimlarining joriy etilishi moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, ilgari bank tizimidan chetda qolgan aholi qatlamlarini — jumladan, qishloq aholisi, yoshlar, ayollar hamda past daromadli guruhlarni — rasmiy moliyaviy tizimga jalb etishga xizmat qilmoqda.

Mazkur jarayonda xavfsiz to‘lov infratuzilmasi alohida ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy operatsiyalarning ishonchliligi va himoyalanganligi foydalanuvchilarning bank xizmatlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, bu esa ularning iqtisodiy faolligini oshirishga, yangi daromad manbalarini shakllantirishga hamda tadbirkorlik tashabbuslarini kengaytirishga zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasida fintech sektorining rivojlanishi so‘nggi yillarda yuqori sur’atlarda amalga oshirilmoqda. Mahalliy raqamli to‘lov platformalarining keng ommalashuvi aholining moliyaviy xulq-atvorida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirib, naqdsiz to‘lovlar ulushining ortishi hamda iqtisodiy operatsiyalarning jadallashuviga olib kelmoqda. Aholining katta qismi tomonidan fintech xizmatlaridan foydalanish darajasining oshishi ijtimoiy-iqtisodiy faollikning kengayishiga xizmat qilayotgan muhim omillardan biri sifatida baholanmoqda.

Shu bilan birga, fintech yechimlarining iqtisodiy samaradorligi va xavfsiz to‘lov tizimlari bilan o‘zaro bog‘liqligini chuqur ilmiy tahlil qilish zarurati ortib bormoqda. Xususan, raqamli moliyaviy texnologiyalar orqali ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshirish mexanizmlarini aniqlash va ularni amaliyotga joriy etish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Fintech texnologiyalarining iqtisodiy jarayonlarga ta’siri zamonaviy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilib, ularning moliyaviy inklyuzivlikni oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishdagi roli alohida e’tirof etilmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirib, kichik biznes va aholining iqtisodiy faolligini oshiradi .

Xavfsiz to‘lov tizimlari ushbu jarayonning asosiy infratuzilma elementi sifatida qaraladi. Xususan, fintech sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar kiberxavfsizlik choralarining kuchaytirilishi moliyaviy operatsiyalarning ishonchliligini ta’minlab, foydalanuvchilarning bank xizmatlariga bo‘lgan ishonchini oshirishini ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy faollikning

kengayishiga xizmat qiladi.

Moliyaviy inklyuzivlik va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiyot fanlari doktori, professor S. Yuldashev tomonidan *“Raqamli iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalar rivoji”* (2021) asarida tahlil qilinib, fintech yechimlari orqali moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi yangi biznes tashabbuslari va daromad manbalarini shakllantirishga olib kelishi asoslab berilgan (1).

Shuningdek, iqtisodiyot fanlari doktori, professor B. Iskandarov o‘zining *“To‘lov tizimlari xavfsizligi va bank xizmatlari samaradorligi”* (2022) monografiyasida xavfsiz to‘lov infratuzilmasi bank tizimi barqarorligini ta’minlash bilan birga iqtisodiy operatsiyalar hajmini oshirishini va mijozlar ishonchini mustahkamlashini ta’kidlaydi (2).

Raqamli moliyaning ijtimoiy ta’siri iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent D. Qodirov tomonidan *“Fintech va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mexanizmlari”* (2023) maqolasida o‘rganilib, unda fintech platformalari orqali iqtisodiy faol subyektlar sonining ortishi hamda xizmatlar bozorining kengayishi qayd etiladi (3).

Biroq ayrim tadqiqotlarda raqamli moliya rivojining salbiy jihatlari ham ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatining kengayishi ayrim hollarda ortiqcha qarzdorlik xavfini oshirishi mumkin . Bu esa fintech rivojini xavfsizlik mexanizmlari bilan uyg‘un holda olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili fintech texnologiyalari va xavfsiz to‘lov tizimlari iqtisodiy faollikni oshirish, moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish hamda yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot kompleks metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Dastlab, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Davlat statistika qo‘mitasining 2020–2024-yillarga oid ma’lumotlari asosida fintech xizmatlaridan foydalanish ko‘lami, to‘lov tizimlari tranzaksiyalari va ijtimoiy-iqtisodiy faollik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Empirik bosqichda Toshkent, Samarqand, Farg‘ona va Qashqadaryo viloyatlarida 250 nafar respondent ishtirokida so‘rovnoma o‘tkazilib, aholining turli ijtimoiy guruhlari kesimida fintech xizmatlarining ta’siri baholandi. Shuningdek, mahalliy fintech kompaniyalari vakillari bilan yarim tuzilgan intervyular o‘tkazildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari fintex yechimlarining ijtimoiy-iqtisodiy faollikka ta’sirini kompleks tarzda baholash imkonini berdi hamda o‘zaro bog‘liq muhim xulosalarni shakllantirishga xizmat qildi. Xususan, 1-rasmning chap qismida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda fintex xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2020–2024-yillar davomida 3,2 million kishidan 29,3 million kishiga yetib, 9,2 baravar oshgan. Ushbu dinamik o‘sish ijtimoiy-iqtisodiy faollik indeksining 42,1 balldan 72,4 ballgacha ko‘tarilishi bilan parallel ravishda kuzatilgan bo‘lib, ular o‘rtasida yuqori darajadagi ijobiy bog‘liqlik mavjudligini anglatadi. Panel ma’lumotlar tahlili natijalari fintex foydalanuvchilari sonining 10 foizga oshishi ijtimoiy-iqtisodiy faollik indeksining

o‘rtacha 3,1 ballga ortishiga olib kelishini ko‘rsatdi (β=0,31; p<0,001). Mazkur natijalar fintex texnologiyalarining jamiyat iqtisodiy faolligini oshirishdagi muhim omil ekanligini statistik jihatdan ishonchli tarzda tasdiqlaydi.



1-rasm. Fintech foydalanuvchilari, ijtimoiy-iqtisodiy faollik indeksi va fintech sohalari bo'yicha aholi qamrovi (O'zbekiston, 2020–2024)

Sektorlar kesimidagi tahlil natijalari fintex yo‘nalishlarining alohida ta’sirini yanada aniqlashtiradi. Jumladan, mobil to‘lovlar qamrovining 2022-yildagi 58,4 foizdan 2024-yilda 82,1 foizga oshishi ushbu yo‘nalishning iqtisodiy faollikka bevosita va keng ko‘lamli ta’sir ko‘rsatayotganini anglatadi. Onlayn kreditlash qamrovining 34,2 foizdan 56,8 foizgacha kengayishi ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo‘lib, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatining ortishi tadbirkorlik faolligini rag‘batlantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, raqamli jamg‘arma va sug‘urta texnologiyalari (insurtech) bo‘yicha kuzatilayotgan yuqori o‘sish sur’atlari aholining moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan xatti-harakatlari faollashayotganini ko‘rsatadi.

So‘rovnoma natijalari ham fintex xizmatlarining amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Xususan, respondentlarning 74 foizi fintex xizmatlaridan foydalanish natijasida o‘z iqtisodiy faolligi kengayganini, 68 foizi yangi daromad manbalariga ega bo‘lganini, 62 foizi esa moliyaviy muammolarni hal etish qobiliyati oshganini qayd etgan. Ayniqsa, qishloq hududlarida ushbu ko‘rsatkichlarning nisbatan yuqori bo‘lishi — respondentlarning 81 foizi fintex xizmatlari orqali ilgari mavjud bo‘lmagan imkoniyatlardan foydalana boshlaganini bildirishi — raqamli moliyaviy xizmatlarning hududiy tengsizlikni kamaytirishdagi ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Xalqaro tajriba tahlili ham fintex ekotizimini rivojlantirishning yuqori samaradorligini ko‘rsatadi. Jumladan, Singapur 2015–2024-yillar davomida fintex sektoriga YaIMning 1,2 foizi miqdorida investitsiya yo‘naltirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy faollik indeksini 31 foizga oshirishga erishgan. Estoniyada e-rezidensiya tizimi va fintex integratsiyasi kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faolligini 48 foizga kuchaytirgan. Qozog‘istonda esa “Digital Kazakhstan” dasturi doirasida

fintex yechimlarning keng joriy etilishi 2020–2023-yillar oralig‘ida aholi iqtisodiy faolligining 27 foizga oshishiga xizmat qilgan. Mazkur xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, maqsadli va tizimli siyosat yuritilgan taqdirda fintex texnologiyalari orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni sezilarli darajada tezlashtirish mumkin.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari fintech yechimlar va xavfsiz to‘lov tizimlari aholi ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishda muhim va empirik jihatdan asoslangan omil ekanligini ko‘rsatdi. Fintech xizmatlaridan foydalanish darajasining ortishi bilan iqtisodiy faollik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik mazkur yo‘nalishning yuqori salohiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayotgani ushbu sohada tizimli yondashuvlarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Fintech xizmatlarining hududiy qamrovini kengaytirish ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda raqamli moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish orqali aholining iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki sezilarli darajada faollashadi. Bu esa mahalliy darajada daromad manbalarining ko‘payishi va iqtisodiy muhitning jonlanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, fintech xizmatlarining xavfsizligini ta’minlash va foydalanuvchilar ishonchini mustahkamlash ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi. Xavfsizlik standartlarini joriy etish va ularni amaliyotda qo‘llash moliyaviy operatsiyalarning barqarorligini oshirib, fintech ekotizimining rivojlanishini jadallashtiradi. Natijada iqtisodiy faollik va moliyaviy aylanma hajmi ortadi.

Raqamli moliyaviy xizmatlarni ijtimoiy sohalar bilan integratsiyalash esa uzoq muddatli ijobiy natijalarni ta’minlaydi. Ijtimoiy to‘lovlar va davlat xizmatlarining raqamli platformalar orqali amalga oshirilishi aholining fintech tizimlariga moslashuvini tezlashtirib, ularni kundalik iqtisodiy faoliyatning ajralmas qismiga aylantiradi. Umuman olganda, fintech va xavfsiz to‘lov tizimlarini kompleks rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy faollikni barqaror oshirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Yuldashev S. Raqamli iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalar rivoji: Monografiya. — Toshkent: «Iqtisod-Moliya», 2021. — 234 b.

2. Iskandarov B. To‘lov tizimlari xavfsizligi va bank xizmatlari samaradorligi: O‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2022. — 188 b.

3. Qodirov D. Fintech va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mexanizmlari: nazariy yondashuvlar // Samarqand iqtisodiyot va servis instituti «Ilmiy xabarnoma» jurnali. — 2023. — №3. — B. 45–57.

SAVDO KORXONALARINI TIJORAT BANKLARI ORQALI RIVOJLANISH TENDINSIYALARINI JAHON TAJRIBASI ASOSIDA YO‘LGA QO‘YISH

Ilmiy rahbar: Qodirov Y.S
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Bank ishi” kafedrasi assitenti stajori
Sultonova Nigora
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada savdo korxonalarining rivojlanishida tijorat banklarining roli, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va jahon tajribasi asosida samarali yo‘nalishlar tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy bank xizmatlari, kreditlash tizimi va innovatsion moliyaviy instrumentlarning savdo sohasiga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida milliy iqtisodiyot sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *savdo korxonalari, tijorat banklari, kreditlash, moliyaviy instrumentlar, jahon tajribasi, iqtisodiy rivojlanish.*

Annotation: *This article examines the role of commercial banks in the development of trade enterprises, analyzes financial support mechanisms, and identifies effective directions based on global experience. It also explores the impact of modern banking services, lending systems, and innovative financial instruments on the trade sector. As a result of the study, practical recommendations applicable to the national economy have been developed.*

Keywords: *trade enterprises, commercial banks, lending, financial instruments, global experience, economic development.*

Kirish. Bugungi kunda savdo korxonalari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular nafaqat tovar va xizmatlar aylanishini ta’minlaydi, balki ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi asosiy bo‘g‘in sifatida iqtisodiy tizimning uzluksiz ishlashida muhim rol o‘ynaydi. Savdo korxonalarining samarali faoliyati ichki bozorni to‘ldirish, aholi ehtiyojlarini qondirish va yalpi ichki mahsulot hajmini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo subyektlari faoliyati tobora murakkablashib bormoqda. Raqobatning kuchayishi, iste’molchilar talabining o‘zgaruvchanligi hamda global iqtisodiy integratsiya jarayonlari savdo korxonalaridan yuqori moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvni talab etmoqda. Bunday sharoitda ularning moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyoji yanada ortib, ayniqsa, aylanma mablag‘larni to‘ldirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va operatsion faoliyatni kengaytirish uchun tashqi moliyaviy manbalarga ehtiyoj kuchaymoqda.

Tijorat banklari ushbu ehtiyojlarni qondirishda asosiy moliyaviy vositachi sifatida maydonga chiqadi. Ular savdo korxonalariga kreditlar ajratish, hisob-kitob xizmatlarini ko‘rsatish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hamda turli xil moliyaviy instrumentlarni taklif etish orqali ularning barqaror faoliyat yuritishiga ko‘maklashadi. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun

tijorat banklarining qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ushbu toifadagi korxonalar ko‘pincha o‘z mablag‘lari bilan cheklangan bo‘ladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bank tizimining samarali ishlashi savdo sektorining rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biridir. Masalan, AQSh, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlarda tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan imtiyozli kreditlar, innovatsion moliyaviy xizmatlar va raqamli bank texnologiyalari savdo korxonalarining raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, davlat va banklar o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlari orqali risklar kamaytiriladi va tadbirkorlik faoliyati rag‘batlantiriladi.

Shu bilan birga, globallashuv jarayonlari va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bank xizmatlarining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Masalan, fintech texnologiyalari, onlayn kreditlash platformalari, elektron to‘lov tizimlari savdo korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirib, operatsion samaradorligini oshirmoqda. Bu esa tijorat banklari faoliyatining transformatsiyasini va ularning savdo sektoriga ta’sirini yanada kuchaytirmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham savdo korxonalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda bank tizimini modernizatsiya qilish, kreditlash hajmini oshirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, mavjud muammolar — jumladan, kredit resurslarining yetarli emasligi, foiz stavkalarining yuqoriligi va moliyaviy xizmatlarning yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi — savdo korxonalarining rivojlanishiga ma’lum darajada to‘sqinlik qilmoqda.

Shu sababli, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi savdo korxonalarini tijorat banklari orqali rivojlantirishning samarali yo‘llarini jahon tajribasi asosida chuqur tahlil qilish va milliy iqtisodiyot sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari savdo sektori va bank tizimi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda savdo korxonalarini tijorat banklari orqali rivojlantirish jarayonlarini chuqur o‘rganish maqsadida kompleks yondashuv asosida turli ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy tahlillarni uyg‘unlashtirgan holda shakllantirildi.

Birinchidan, **tahlil va sintez usuli** qo‘llanilib, savdo korxonalari va tijorat banklari o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarning mazmuni, shakllari va rivojlanish tendensiyalari o‘rganildi. Ushbu usul orqali mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirildi hamda bank xizmatlarining savdo sektoriga ta’siri tizimli ravishda tahlil qilindi.

Ikkinchidan, **taqqoslash (komparativ) usuli** yordamida rivojlangan davlatlar, xususan AQSh, Germaniya va Yaponiya tajribasi milliy bank tizimi bilan solishtirildi. Bu orqali xorijiy amaliyotdagi ilg‘or yondashuvlar, samarali moliyalashtirish mexanizmlari va ularning afzalliklari aniqlanib, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

Uchinchidan, **statistik tahlil usuli** asosida savdo korxonalarining moliyaviy ko‘rsatkichlari, kreditlash hajmi, bank xizmatlaridan foydalanish darajasi kabi

muhim indikatorlar o‘rganildi. Statistik ma’lumotlarni qayta ishlash orqali bank xizmatlarining samaradorligi va ularning savdo sektoriga ta’siri haqida aniq xulosalar chiqarildi.

To‘rtinchidan, tadqiqotda **induktiv va deduktiv yondashuvlar** keng qo‘llanildi. Induktiv yondashuv yordamida alohida fakt va kuzatishlardan umumiy xulosalar chiqarildi, deduktiv yondashuv orqali esa nazariy qoidalar asosida amaliy jarayonlar tahlil qilindi. Bu yondashuvlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minlashga xizmat qildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida **tizimli yondashuv**dan foydalanilib, savdo korxonalari va tijorat banklari o‘rtasidagi munosabatlar yagona iqtisodiy tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Bu esa ularning o‘zaro bog‘liqligi va ta’sir mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini berdi.

Tadqiqotning axborot bazasini shakllantirishda xalqaro va milliy manbalardan keng foydalanildi. Jumladan, xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi) hisobotlari, yetakchi iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, tijorat banklari faoliyatiga oid statistik ma’lumotlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganildi.

Bundan tashqari, zamonaviy ilmiy tadqiqot talablariga mos ravishda ma’lumotlarning ishonchliligi, dolzarbligi va aniqligiga alohida e’tibor qaratildi. Olingan natijalar tahlil qilinib, ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan davlatlarda savdo korxonalarini qo‘llab-quvvatlashda tijorat banklari kompleks va tizimli yondashuv asosida faoliyat yuritadi. Ushbu jarayonda banklar nafaqat moliyalashtirish manbai, balki biznesni rivojlantirishning muhim hamkori sifatida ham namoyon bo‘ladi.

1. Kreditlash tizimining rivojlanganligi

Rivojlangan mamlakatlar, jumladan AQSh, Germaniya va Yaponiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, savdo korxonalarini moliyalashtirishda kreditlash tizimi yuqori darajada rivojlangan. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan:

- past foiz stavkalarida kreditlar ajratilishi
- uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlari
- imtiyozli kredit liniyalari va maxsus dasturlar mavjudligi

Bunday yondashuv savdo korxonalarining aylanma mablag‘larini to‘ldirish, yangi filiallar ochish, logistika tizimini rivojlantirish hamda savdo hajmini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, ushbu korxonalar bozorda barqaror o‘rin egallab, raqobatbardoshligini oshiradi.

2. Innovatsion moliyaviy xizmatlarning keng qo‘llanilishi

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, rivojlangan davlatlarda tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan innovatsion moliyaviy xizmatlar savdo korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Jumladan:

- faktoring – debitorlik qarzlarini tezda naqd pulga aylantirish imkonini beradi

- lizing – asosiy vositalarni katta xarajatlarsiz foydalanish imkonini yaratadi
- overdraft – qisqa muddatli likvidlik muammolarini hal qilishga yordam beradi
- elektron to‘lov tizimlari – hisob-kitoblarni tez va qulay amalga oshirishni ta’minlaydi

Mazkur xizmatlar savdo operatsiyalarini sezilarli darajada tezlashtirib, korxonalar pul oqimini samarali boshqarishiga imkon yaratadi. Bu esa ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

3. Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi

Raqamli texnologiyalar rivoji natijasida bank xizmatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, internet-banking va mobil bank xizmatlari savdo korxonalari faoliyatini sezilarli darajada yengillashtiradi:

- tezkor va xavfsiz to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyati
- real vaqt rejimida moliyaviy operatsiyalarni kuzatish
- masofadan turib kredit olish va hisob ochish imkoniyatlari

Bu esa korxonalar uchun vaqt va xarajatlarni tejashga, shuningdek, biznes jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qiladi. Natijada, savdo korxonalari o‘z faoliyatini yanada samarali tashkil etadi.

4. Davlat va banklar o‘rtasidagi samarali hamkorlik

Ko‘plab rivojlangan davlatlarda savdo korxonalarini qo‘llab-quvvatlashda davlat va tijorat banklari o‘rtasidagi hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hukumat tomonidan quyidagi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari keng qo‘llaniladi:

- kreditlar bo‘yicha davlat kafolatlari berilishi
- subsidiyalar va grantlar ajratilishi
- soliq imtiyozlari va preferensiyalar taqdim etilishi

Ushbu choralar banklarning kreditlashdagi risklarini kamaytiradi hamda savdo korxonalariga moliyaviy resurslardan foydalanishni osonlashtiradi. Natijada, banklar va biznes subyektlari o‘rtasida o‘zaro ishonch mustahkamlanadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi umumiy natijalarga kelindi:

- tijorat banklari savdo korxonalarining rivojlanishida strategik ahamiyatga ega
- innovatsion moliyaviy xizmatlar biznes samaradorligini oshiradi
- raqamli bank tizimlari operatsion jarayonlarni optimallashtiradi
- davlat va bank hamkorligi moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi

Shunday qilib, rivojlangan davlatlar tajribasi savdo korxonalarini tijorat banklari orqali qo‘llab-quvvatlashda kompleks va integratsiyalashgan yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama. O‘zbekiston sharoitida ham savdo korxonalarini rivojlantirishda tijorat banklarining roli yildan-yilga ortib bormoqda. So‘nggi yillarda bank tizimini modernizatsiya qilish, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va kreditlash hajmini kengaytirish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirildi. Natijada savdo korxonalarining bank xizmatlaridan foydalanish darajasi sezilarli oshdi. Biroq, mavjud imkoniyatlarga qaramasdan, ushbu sohada qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Avvalo, kredit foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi savdo korxonalarining moliyaviy resurslardan keng foydalanishini cheklaydi. Yuqori foiz stavkalari ayniqsa kichik biznes subyektlari uchun qo‘shimcha moliyaviy yuk yaratib, ularning investitsion faolligini pasaytiradi. Natijada, ko‘plab korxonalar o‘z faoliyatini kengaytirish yoki modernizatsiya qilish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi.

Ikkinchidan, garov talablarining murakkabligi va yuqori darajada qo‘yilishi ham muhim to‘siqlardan biri hisoblanadi. Tijorat banklari kredit ajratishda yuqori likvidli aktivlarni garov sifatida talab qiladi, bu esa aksariyat savdo korxonalari, ayniqsa yangi tashkil etilgan biznes subyektlari uchun qiyinchilik tug‘diradi. Bu holat kreditlash jarayonida inklyuzivlik darajasini pasaytiradi.

Uchinchidan, moliyaviy savodxonlik darajasining yetarli emasligi ham savdo korxonalarining bank xizmatlaridan samarali foydalanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘plab tadbirkorlar zamonaviy moliyaviy instrumentlar, kredit shartlari yoki risklarni boshqarish mexanizmlari haqida yetarli bilimga ega emas. Bu esa noto‘g‘ri moliyaviy qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

To‘rtinchidan, innovatsion bank xizmatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ham dolzarb muammo hisoblanadi. Raqamli bank xizmatlari, faktoring, lizing va boshqa zamonaviy moliyaviy vositalar hali ham to‘liq ommalashmagan. Bu esa savdo korxonalarining likvidlikni boshqarish va operatsion samaradorligini oshirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Jahon tajribasini chuqur tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur. Xususan, quyidagi strategik yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- kichik biznes uchun maxsus kredit dasturlarini kengaytirish, jumladan past foizli va imtiyozli kredit liniyalarini joriy etish
- raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, internet-banking va mobil ilovalar orqali moliyaviy xizmatlardan foydalanishni soddalashtirish
- faktoring va lizing xizmatlarini ommalashtirish, bu orqali savdo korxonalarining aylanma mablag‘larini oshirish va asosiy vositalarni yangilash imkoniyatini kengaytirish
- bank va davlat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, kredit kafolatlari, subsidiyalar va soliq imtiyozlari orqali bank risklarini kamaytirish

Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, moliyaviy infratuzilmani takomillashtirish, fintech texnologiyalarini joriy etish va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa savdo korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash va ularning iqtisodiyotdagi ulushini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, O‘zbekiston sharoitida savdo korxonalarini tijorat banklari orqali rivojlantirish uchun mavjud muammolarni tizimli ravishda hal etish va jahon tajribasiga asoslangan innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur hisoblanadi.

Takliflar. Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Kichik va o‘rta savdo korxonalari uchun imtiyozli kredit dasturlarini kengaytirish

Past foizli, uzoq muddatli va qulay shartlarga ega kredit liniyalarini joriy etish orqali tadbirkorlarning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish zarur.

2. Tijorat banklarida faktoring va lizing xizmatlarini rivojlantirish

Ushbu moliyaviy instrumentlarni keng qo‘llash orqali savdo korxonalarining likvidligini oshirish va asosiy vositalarni yangilash imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

3. Raqamli bank xizmatlarini (fintech) joriy etishni jadallashtirish

Internet-banking, mobil ilovalar va onlayn kreditlash tizimlarini rivojlantirish orqali bank xizmatlarining qulayligi va tezkorligini oshirish maqsadga muvofiq.

4. Kredit olish jarayonlarini soddalashtirish va shaffofligini ta’minlash

Hujjatlar sonini kamaytirish, garov talablarini optimallashtirish va kredit ajratish jarayonini tezlashtirish orqali tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratish zarur.

5. Davlat tomonidan kafolat va subsidiyalar tizimini kengaytirish

Tijorat banklari uchun risklarni kamaytirish maqsadida kredit kafolatlari berish va foiz stavkalarini subsidiyalash mexanizmlarini rivojlantirish lozim.

6. Tadbirkorlar uchun moliyaviy savodxonlik dasturlarini tashkil etish

Treninglar, seminarlar va amaliy qo‘llanmalar orqali tadbirkorlarning moliyaviy bilim va ko‘nikmalarini oshirish zarur.

7. Bank va savdo korxonalari o‘rtasida uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish

Individual yondashuv asosida xizmat ko‘rsatish va maslahat berish tizimini joriy etish orqali o‘zaro ishonchni mustahkamlash mumkin.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, savdo korxonalarini tijorat banklari orqali rivojlantirish iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy resurslar, kreditlash mexanizmlari va zamonaviy bank xizmatlari savdo korxonalarining barqaror faoliyat yuritishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Jahon tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda samarali faoliyat yuritayotgan bank tizimi savdo sektorining uzluksiz ishlashini, uning raqobatbardoshligini oshirishni hamda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashni kafolatlaydi. Ayniqsa, innovatsion moliyaviy instrumentlar, raqamli bank xizmatlari va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining uyg‘unligi savdo korxonalarining rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston sharoitida ham bank tizimini yanada takomillashtirish, xalqaro tajribani samarali joriy etish hamda savdo korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish orqali ushbu sohani yangi bosqichga olib

chiqish mumkin. Bu esa nafaqat savdo sektorining rivojlanishiga, balki umuman milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, savdo korxonalari va tijorat banklari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish hamda mavjud muammolarni bartaraf etish orqali iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari
2. Jahon banki (World Bank) ma’lumotlari
3. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) tahlillari
4. Mishkin F. – “The Economics of Money, Banking and Financial Markets”
5. Rose P. – “Commercial Bank Management”
6. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va normativ aktlari

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ КАНАЛОВ ОБСЛУЖИВАНИЯ КЛИЕНТОВ В КОММЕРЧЕСКОМ БАНКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Хасанова Нигина
Студентка 4 курса, СамИЭС
Махсудов Ориф Шакирович
Научный руководитель: старший преподаватель СамИЭС

Аннотация. *В статье рассматривается эффективность внедрения цифровых каналов обслуживания клиентов в коммерческих банках Республики Узбекистан. Актуальность темы обусловлена активной цифровой трансформацией банковского сектора страны, расширением дистанционных сервисов и ростом объёма безналичных операций. Цель исследования заключается в оценке эффективности цифровых каналов обслуживания на основе официальных статистических и нормативных источников.*

Ключевые слова: *цифровые каналы обслуживания, коммерческий банк, банковские услуги, цифровизация, Республика Узбекистан, дистанционное банковское обслуживание, банковские карты, NFC-платежи, безналичные расчёты, банковская инфраструктура*.

Yo‘lovchi tashishda avtomobil transporti yetakchilik qilib uning hissasi 95,8% ni elektr transporti yordamida yo‘lovchi tashish 3,9%, temir yo‘l orqali 0,2% va havo transportlari orqali esa 0,1% ni tashkil etgan.[2] Logistik xizmatlarni ko‘rsatishni yo‘lovchilarni bir manzildan ikkinchi manzilgacha yetkazib bersa, yuk tashishda tovar va hom ashyolarni ishlab chiqarish korxonalaridan iste’molchilargacha yetkazib berish faoliyati nazarda tutiladi. Bunday xizmatlar optimal transport turi va marshrutni tanlab xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini beradi.

Aholini bevosita ish o‘rinlari bilan ta’minlab kambag‘allikdan chiqarishda logistika ham bevosita o‘zining munosib hissasini qo‘shadi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2025- yil 26- dekabrdagi xalqiga va parlamentiga murojaatnomasida quyidagilarni ta’kidlab o‘tdi. 2016- yilda mamlakatimiz aholisining 3 dan 1 qismi kambag‘allikni chegarasida yashab kelmoqda edi. Joriy yilda 5 million aholi daromadli bo‘lib, ishsizlik darajasi 5,5% dan 4,9%gacha tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag‘allikdan chiqdi. Kambag‘allik darajasi yil boshidagi 8,9% dan 5,8% gacha tushdi. Davlat tomonidan imtiyozli kredit, subsidiya, kompensatsiya kabi 100 dan ziyod xizmatlar orqali ijtimoiy himoyaning mutlaqo yangi tizimi yo‘lga qo‘yildi. Natijada 8 yarim milliondan ziyod fuqarolarimiz kambag‘allikdan chiqarilib 2 barobarga qisqardi.[1] O‘zbekiston Respublikasida logistik xizmatlarni yalpi ichki mahsulotdagi hissasi 5,5%ni egallashi va 3,6% kompaniyalar transport logistika doirasida faoliyat yuritishini inobatga olsak aholini ish bilan ta’minlashda va kambag‘allikdan chiqarishda tarmoq katta imkoniyatga ega. [5]

Bizning fikrimizcha mamlakatimiz aholisining logistika sohasida ish bilan ta’minlab kambag‘allikdan chiqarishning yo‘nalishlari mavjud. Transport vositalarini turiga qarab haydash guvohnomasi bor kishilar bevosita yo‘lovchi va yuk tashish faoliyati bilan shug‘ullanishlari mumkin. Kuryerlik faoliyati ham ish o‘rinlarini yaratishda o‘zining munosib hissasini qo‘shadi. Yuk ortish va tushirish mexanizmlaridan foydalaniladiganlar bevosita omborxonalarga ishlash imkoniyatlariga ega.

Logistika sohasida malakasiz ishchilar bevosita yukni tushirish, ortish, omborxonalarda joylashtirish, qadoqlash kabi jarayonlarda ham bevosita qatnashishlari mumkin. Shu sohada kerakli bilimga ega bo‘lgan kishilar esa yuk harakatidagi optimal marshrutni tanlash, bojxonada yuklarni rasmiylashtirish (deklorantlik xizmatlar), tovar zahiralarini harid qilish va taqsimlash, operatorlik qilish, call-markazlarida ishlash, marketing, menejment, tovarlar sifatini aniqlashda ekspert faoliyati, dasturchi kabi ishlarni bajarishda ish bo‘limlarini egallashlari mumkin.

Logistik xizmatlarni tashkil etishda fulfillment shakllaridan ham foydalanish yuqori samara beradi. Fulfillment bu yukni to iste’molchigacha yetkazib berish jarayonigacha barcha xavfsizlikni ta’minlab, budligini saqlagan holda, belgilangan manzilgacha yukni professional darajada kuzatib borishni nazarda tutadi.

Bundan tashqari logistik xizmatlarda drop shiping usulidan ham keng foydalanilmoqda. Ya’ni bunday usulda tovarlarni bevosita ishlab chiqarish korxonalaridan omborxonalarni chetlab to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’molchigacha yetkazib berish nazarda tutiladi.

Logistik xizmatlarni tashkil etishda u jarayonda bevosita qatnashish shart emas. Nogironligi bor yoki ayrim sabablarga ko‘ra logistik xizmatlarda to‘liq qatnasha olmaydiganlar uchun logistik xizmatlarni masofadan turib ham bajarish mumkin. Bu sohada Samarqand shahridagi " Global IT center" faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, uning rahbari Mo‘minov Sanjar samarali faoliyat yuritmoqda. 2 gektar yer maydonida birdaniga 200 ta talabani o‘qitish imkoniyatiga ega bo‘lgan va yashash sharoitlari yaratilgan kompleks faoliyat ko‘rsatmoqda.

Logistik xizmatlarida asosan professional xodimlar AQSh va Yevropa mamlakatlarida masofadan turib logistik xizmatlarni yo‘lga qo‘ygan. Logistik xizmatlaridan habari yo‘q kishilar murojaat qilsa alohida-alohida namunaviy kompyuter va texnologiyalar bilan jihozlangan mahsus auditoriyalarni logistika xizmatlarini tashkil etish bilan birga amaliy darslar o‘tiladi. Agar ishga da’vogar chet tilini bilmasa boshqa auditoriyada chet tilini o‘rganish bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etilgan. Kompyuter savodxonligini oshirish kabi ishlarni tashkil etish bilan birga boshqa auditoriyalar jihozlangan. Logistik xizmat bilan faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan shaxsning moliyaviy imkoniyati bo‘lmagan taqdirda kelgusidagi daromadi hisobidan ham nasiyaga o‘qitilmoqda.

Logistik xizmatlaridan ham samaraliroq xizmat ko‘rsatish turlari ham ko‘paytirilmoqda. Bizning fikrimizcha, Sanjar aka tashkil etgan IT markazni masofaviy biznes inkubator desak ham adashmaymiz. Chunki o‘quv markazida chet tilini mukammal o‘rgangan masofaviy xizmat turlaridan mukammal bilim va

amaliy koʻnikmaga ega boʻlgan kishilar esa oʻquv xonasida toʻgʻridan-toʻgʻri biznes xonasiga amaliy ishlar uchun koʻchiriladi. Logistik xizmatlar ish vaqti AQSh va Yevropa mamlakatlarining ish grafigi mos kelmaganligi sabab logistika sohasidagi xizmatchilarga yotoqxona, oshxona, dam olish zonalari , sport maydonchalari kabi barcha shart sharoitlar yaratilgan. Hozirgi kunda bu markazda logistik xizmatlardan tashqari tibbiy yordam call-markazi ham tashkil etilgan. Bu yoʻnalishdagi operatorlar 3 guruhga boʻlinib masofadan tibbiy yordamni yoʻlga qoʻygan.

Hozirgi kunda xizmatlar call-markazi tajriba sifatida AQSh bilan hamkorlikda faoliyat yuritib 1- guruh hududlaridagi bemorlar bilan shugʻullanib toʻgʻrisidagi maʼlumot toʻplasa, 2- guruh bemorlarning qanday muammolari bor va muammolar yechimida bevosita bemorlarga yaqin hududda joylashgan shifokorlarni topib, ularni yuzlashtirish bilan shugʻullanadilar. 3- guruh esa tibbiy xizmatlarning tan narxini hisoblash bilan shugʻullanadilar.

Masofaviy logistik xizmatlardan va tibbiy xizmatlardan tashqari yana moliyaviy xizmatlar koʻrsatish markazi ham tashkil etilgan. Bu moliyaviy call-markazida AQShda joylashgan tijorat banklarining mijozlar bilan ishlash yoʻlga qoʻyilmoqda. Global IT markaz qoshida xususiy maktab ochilganda oʻquvchiga moʻljallangan va yaqin atrofdagi bolalarni ingliz tilini oʻrganish va kompyuter savodxonligiga chuqurlashtirilgan oʻrgatishga maktab faoliyat koʻrsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O’zbekiston Respublikasida 2026-yilda 1 million ish o’rinlari yaratilib kambag’allik darajasini 4.5% gacha tushurish asosiy maqsadlardan biri deb belgilangan. Ushbu maqsadga erishish uchun logistika sohasida ham keng imkoniyatlar mavjud bo’lib tarmoq o’zining munosib hissasini qo’shish imkoniyatiga ega. Logistika sohasida ish o’rinlariga da’vo qiluvchilar qanchalik bilim darajasi, amaliy tajribasi, chetel tillarini bilishi, dasturlar tuzishdan xabardor bo’lishi kabi qo’shimcha bilimlarga ega bo’lishi, ularni nafaqat ish o’rinlar bilan ta’minlash balki yuqori daromad olish imkoniyatini beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Oʻzbekiston Respublikasining Prezidentining 2025- yil 26- dekabrdagi xalqiga va parlamentiga murojaatnomasi
2. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari. - www.stat.uz
3. RASULOV M.X va boshqalar Transport Servisi Toshkent
4. Frank uz (news) 19.02.2026 yil 16:47.
5. Logistal.info 10 556. 26.03.2026 yil

FINTECH YECHIMLARINING AHOLI BANDLIGI VA ADBIRKORLIK FAOLLIGIGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Muxammadiyev Kamoliddin G'ulomiddinovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Bank ishi" kafedrasi assistenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda fintech yechimlarining rivojlanishi va ularning aholi bandligi hamda tadbirkorlik faolligiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli moliya vositalarining kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish va tadbirkorlikka kirishish imkoniyatlarini kengaytirishdagi o'rni yoritiladi. Sohadagi tizimli muammolar va tartibga solish cheklovlari ko'rib chiqiladi. Fintech ekotizimini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va tadbirkorlik faolligini yuksaltirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *fintech, raqamli moliya, aholi bandligi, tadbirkorlik, kichik biznes, moliyaviy inklyuziya, mobil to'lovlar, O'zbekiston.*

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida moliyaviy texnologiyalar — fintech — global miqyosda iqtisodiy rivojlanishning eng dinamik va o'zgaruvchan sohalaridan biriga aylandi. Fintech yechimlar an'anaviy bank xizmatlarini raqamlashtirish, kredit va to'lov tizimlarini demokratlashtirish va moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini sezilarli kengaytirish orqali nafaqat moliya bozori ko'rinishini o'zgartiryapti, balki real iqtisodiyotga, ayniqsa kichik va o'rta biznes sektoriga va aholi bandligiga ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida fintech yechimlarning tarqalishi kichik biznes moliyasiga kirish imkoniyatini o'rtacha 34 foizga oshirdi va shu orqali 95 million yangi ish o'rnining yaratilishiga bevosita hissa qo'shdi.

Biroq fintech ning bandlik va tadbirkorlikka ta'siri bir qolipli emas — u mamlakatning raqamli infratuzilmasi, regulyatorlik muhiti, aholining moliyaviy savodxonlik darajasi va mavjud tadbirkorlik ekotizimi bilan chambarchas bog'liq. Bu holat shuni ko'rsatadiki, fintech yechimlarning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi o'z-o'zicha ro'y bermaydi — u maqsadli davlat siyosati, tarmoq ishtirokchilarining hamkorligi va instituttsional islohotlar bilan uyg'unlikda amalga oshganda eng yuqori natijalarga erishiladi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston tajribasi alohida qiziqish uyg'otadi: mamlakat 2017-yildan boshlab iqtisodiy islohotlar doirasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga katta e'tibor qaratdi va bu sohada kam vaqtda sezilarli natijalarga erishdi.



1-rasm. Fintech foydalanuvchilar soni va KOB bandlik ulushi dinamikasi[174] (2019–2024, mln kishi / %)

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda fintech xizmatlaridan foydalanadigan foydalanuvchilar soni 2019-yildagi 4,2 million kishidan 2024-yilda 34,1 million kishiga, ya'ni sakkiz barobarga oshdi. Shu bilan parallel ravishda kichik va o'rta biznes sektoridagi bandlik ulushi ham 28,1 foizdan 42,8 foizga ko'tarildi. Ushbu ikki ko'rsatkichning bir vaqtda o'sishi tasodifiy emas: mobil to'lov tizimlari va raqamli kreditlash platformalarining kengayishi bozorga kirish to'siqlarini pasaytirdi, yosh tadbirkorlar uchun muqobil moliyalashtirish kanallarini ochdi va shu orqali kichik biznes sektorida yangi ish o'rinlari yaratilishiga bevosita hissa qo'shdi. Natijada bandlik va fintech inklyuziyasi o'rtasida musbat korrelyatsiya shakllandi.

Fintech yechimlarning tadbirkorlik faolligiga ta'siri bir necha asosiy mexanizm orqali amalga oshadi. Birinchi va eng kuchli mexanizm — raqamli mikrokreditlash platformalarining tarqalishi. An'anaviy bank tizimida kichik tadbirkor kredit olish uchun ko'p hujjat, garov va uzoq kutish vaqtiga duch kelardi. Fintech platformalari esa algoritmik kredit baholash, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili orqali foydalanuvchi kredit tarixini real vaqtda baholab, daqiqalar ichida kredit berish imkonini yaratdi. O'zbekistonda Payme Nasiya va Uzum bank platformalari 2023-yilda jami 2,4 trillion so'mlik garovsiz mikrokreditlarni kichik tadbirkorlarga ajratdi — bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan uch barobarga ko'pdir. Shuni ta'kidlash lozimki, har bir muvaffaqiyatli moliyalashtirilgan kichik biznes loyihasi o'rtacha 2-3 yangi ish o'rnini yaratdi, bu esa milliy bandlik ko'rsatkichlariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ikkinchi mexanizm — raqamli to'lov tizimlarining savdo faolligini oshirishdagi roli. Mobil to'lovlarning keng tarqalishi kichik savdogarlar, hunarmandlar va xizmat ko'rsatuvchilar uchun mijozlar bilan hisob-kitob qilish jarayonini tubdan soddalashtirgani bilan birga, ularning faoliyatini rasmiylashtirish imkonini ham yaratdi. O'zbekiston Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, rasmiy ro'yxatdan o'tgan kichik savdogarlar soni 2019-

[174] O'zbekiston MBK; IFC Fintech Report 2024; Statistika agentligi 2024.

yildan 2024-yilga qadar 2,4 barobarga oshdi va buning asosiy dvigateli sifatida aynan raqamli to'lov tizimlariga ulashish imkoniyatining kengayishi ko'rsatilmoqda. Bu holat shunday muhim ijtimoiy samarani ham keltirib chiqardiki: ilgari norasmiy sektorda faoliyat yuritgan va ijtimoiy himoyadan mahrum bo'lgan ko'plab tadbirkorlar endi rasmiy iqtisodiyotning bir qismiga aylandi.

Uchinchi mexanizm — onlayn bozorlar va raqamli platformalarning geografik chegara to'siqlarini bartaraf etishdagi roli. Uzum Market, OLX.uz va Arzon.uz kabi onlayn savdo platformalari fermer, hunarmand va ishlab chiqaruvchilarga o'z mahsulotlarini butun mamlakat, hatto xorijiy bozorga chiqarish imkonini berdi. 2024-yilga kelib ushbu platformalarda 340 000 dan ortiq faol sotuvchi ro'yxatdan o'tdi va ularning katta qismi ilgari hech qanday rasmiy biznesga ega bo'lmagan odamlardir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, raqamli bozorga kirish nafaqat mavjud tadbirkorlarga kengayish imkonini berdi, balki ko'plab yangi tadbirkorlarning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi.

1-jadval

Fintech yechimlarining bandlik va tadbirkorlikka ta'siri yo'nalishlari

Yo'nalish	Fintech vositasi	Bandlik ta'siri
Mikrokreditlash	Payme Nasiya, Uzum bank	Garovsiz kreditlash kichik biznes boshlang'ich kapitalini ta'minlaydi; 1 ta loyiha o'rtacha 2-3 ish o'rni
Raqamli to'lovlar	Click, Payme, Humans	Savdo qulayligi o'sishi bilan kichik savdogarlar soni 2019-2024 yillarda 2,4 barobarga oshdi
Onlayn bozorlar	Uzum Market, Olx.uz	Fermer va hunarmandlarni yangi bozorga chiqarish; 340 000+ faol sotuvchi (2024)
Crowdfunding	StartUp.uz platformalari	Innovatsion loyihalar uchun muqobil moliya; 2023 yilda 87 ta loyiha moliyalashtirildi
Raqamli sug'urta	Upay, online agentlar	Tadbirkorlik xavfini kamaytiradi; kichik biznes ochilish sur'ati 18% oshdi

Manba: O'zbekiston MBK, Uzum Group, Statistika agentligi; muallif tuzgan.

Shunday bo'lsa-da, O'zbekistonda fintech ning tadbirkorlik va bandlikka ta'sirini yanada kuchaytirish yo'lida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Birinchi muammo — raqamli tengsizlik va infratuzilma cheklovlari. Toshkent va yirik shaharlarda fintech xizmatlaridan foydalanish darajasi 70 foizdan oshgan bo'lsa, qishloq hududlarida bu ko'rsatkich hali 28 foiz atrofida qolmoqda. Bu holat fintech ning bandlik va tadbirkorlikka ijobiy ta'siridan aynan kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan hududlar kamroq foyda olayotganligini anglatadi — ya'ni fintech foydalari hali teng taqsimlangani yo'q.

Ikkinchi muammo — tartibga solish muhitining kechikishi. O'zbekistonda fintech sohasini tartibga soluvchi normativ baza hali shakllanish jarayonida bo'lib, ba'zi yangi fintech mahsulotlari — xususan, crowd-lending, islom fintech va embedded finance — qonunchilikda to'liq tartibga solinmagan. Bu esa innovatsion fintech startaplarning rivojlanishini sekinlashtiradi va xorijiy

investorlarni jalb etishda to'siq bo'ladi. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlik darajasining yetarli emasligi ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda: O'zbekiston Markaziy banki tadqiqotlariga ko'ra, aholi va kichik tadbirkorlarning 43 foizi fintech xizmatlaridan xavotirlanish sababli foydalanmaydi, bu esa texnologik ishonchsizlik va savodxonlik masalasini hal etish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda fintech ning bandlik va tadbirkorlikka ijobiy ta'sirini yanada kuchaytirish uchun bir necha yo'nalishda kompleks chora-tadbirlar zarur. Birinchi tavsiya sifatida qishloq hududlarida raqamli infratuzilmani tezkor rivojlantirish va agro-fintech xizmatlarini joriy etishni ko'rsatish mumkin. Fermerlar va qishloq tadbirkorlariga mobil kreditlash, raqamli sug'urta va elektron bozorga kirish imkonini berish ushbu hududlarda bandlik muammosini sezilarli yengillashtirishga xizmat qiladi. Natijada ishchi kuchining shaharlarga migratsiyasi kamayadi va qishloq iqtisodiyoti mustahkamlanadi.

Ikkinchi tavsiya — Regulatory Sandbox mexanizmini instituttsionallash. Yangi fintech mahsulotlarni cheklangan muhitda sinab ko'rib, muvaffaqiyatli natijalari asosida tezlashtirilgan lisenziyalash tartibini joriy etish innovatsiyalarni rag'batlantiradi va xorijiy fintech startaplari uchun O'zbekistonni jozibali bozorga aylantiradi. Singapur va Buyuk Britaniya tajribasi ko'rsatadiki, Sandbox muhiti fintech sektoridagi ish o'rinlari sonini o'rtacha 3 yil ichida 2,5 barobarga oshirdi. Uchinchi tavsiya — fintech va bandlik siyosatini integratsiyalash: Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Markaziy bank o'rtasida fintech sektori tomonidan yaratilayotgan ish o'rinlarini kuzatib boruvchi birgalikdagi monitoring tizimini yo'lga qo'yish zarur. Bu esa siyosat samaradorligini o'lchash va resurslarni to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, fintech yechimlar O'zbekistonda aholi bandligi va tadbirkorlik faolligiga allaqachon sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq bu ta'sirning to'liq ro'yobga chiqishi uchun texnologik rivojlanish bilan bir qatorda raqamli infratuzilma, tartibga solish muhiti va moliyaviy savodxonlik ham parallel tarzda mustahkamlanishi shart. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, fintech faqat moliyaviy vosita emas — u tadbirkorlik imkoniyatlarini demokratlashtiruvchi, yangi ish o'rinlari yaratuvchi va kambag'allikni qisqartiruvchi kuchli ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmdir. Shu sababli fintech sektorini maqsadli rivojlantirish O'zbekistonning 2030-yilga qadar belgilangan iqtisodiy maqsadlariga erishishning ajralmas qismi bo'lib qolishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6079-sonli Farmoni. – www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti. – Toshkent, 2024. – www.cbu.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ko‘rsatkichlari 2024: statistik to‘plam. – Toshkent, 2024. – www.stat.uz.

4. Buckley R., Arner D., Zetzsche D. Fintech and the Future of Financial Services / R. Buckley, D. Arner, D. Zetzsche. – Oxford: Oxford University Press, 2021. – 288 p.
5. Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D. Financial Inclusion and Fintech // Journal of Financial Economics. – 2022. – Vol. 143. – P. 1–19.
6. International Finance Corporation (IFC). Fintech and the Future of Finance: Market and Policy Implications. – Washington: IFC, 2024. – 112 p.
7. Pazarbasioglu C. et al. Fintech: The Experience So Far. IMF Policy Paper. – Washington: IMF, 2020.
8. World Bank. Global Findex Database 2022: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience. – Washington: World Bank, 2022. – www.worldbank.org.
9. O‘zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi. 2023-yilgi tahliliy hisobot: raqamli to‘lovlar va kreditlash. – www.uba.uz, 2024.
10. Uzum Group. Yillik hisobot 2023: Foydalanuvchilar statistikasi va ijtimoiy-iqtisodiy ta’sir tahlili. – Toshkent, 2024. – www.uzum.uz.

FINTECH KOMPANIYALARINING AN’ANAVIY BANKLARGA TA’SIRI

Toshpo’latov Temurjon
Samarqand iqtisodiyot va servis institute talabasi
Ilmiy rahbar:Sindarov Sh.K.
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti assistenti

Annotation: *Ushbu maqolada fintech kompaniyalarining an’anaviy banklarga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Fintechning rivojlanishi bank tizimlariga qanday o‘zgarishlar kiritgani va iqtisodiyotdagi o‘rni tahlil qilinadi.*
Keywords: *fintech, bank, moliyaviy texnologiyalar, iqtisodiyot, innovatsiya.*

Kirish. Fintech va an’anaviy banklar o‘rtasidagi farq va ularning o‘zaro ta’siri zamonaviy iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Fintech, ya'ni moliyaviy texnologiyalar, raqamli platformalar va innovatsion yechimlar orqali moliyaviy xizmatlarni taqdim etadi. Bu soha, an’anaviy banklarga nisbatan tezkorlik, qulaylik va xarajatlarni kamaytirish kabi afzalliklar bilan ajralib turadi. Fintech kompaniyalari odatda yangi texnologiyalarni joriy etish orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga intiladi. Bunga misol sifatida mobil to‘lovlar, kripto-valyutalar va onlayn kreditlash tizimlarini keltirish mumkin.

Biroq, an’anaviy banklar o‘z tarixiy asoslari, ishonchli brendlar va keng qamrovli xizmatlar bilan ajralib turadi. Ular ko‘pincha mijozlarga xavfsizlik va barqarorlik ta’minlaydi. Fintech va an’anaviy banklar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, yangi moliyaviy xizmatlarni yaratish va raqobatni kuchaytirish orqali amalga oshadi. Ushbu jarayon, moliya bozorlarida innovatsiyalarni rag‘batlantirib, iste’molchilarga kengroq imkoniyatlar taqdim etadi. Shunday qilib, Fintech va an’anaviy banklar o‘rtasidagi munosabatlar, moliyaviy xizmatlarning kelajagini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Fintech va an’anaviy banklar o‘rtasidagi

farq, ularning xizmat ko‘rsatish usullari va mijozlarga yondashuvlarida namoyon bo‘ladi. Fintech innovatsion texnologiyalar orqali tezkor va qulay xizmatlar taklif etsa, an’anaviy banklar barqarorlik va ishonchlilikni taqdim etadi. Bu ikki soha o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, moliyaviy ekosistemani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Fintechning tarixi va rivojlanishi. Fintech, ya'ni moliyaviy texnologiyalar, 20-asrning oxirlarida va 21-asrning boshlarida paydo bo'lgan innovatsion sohadir. Ushbu soha, asosan, raqamli texnologiyalar va internetning rivojlanishi bilan bog'liq. Fintech kompaniyalari dastlab an'anaviy bank xizmatlarini raqamlashtirishga qaratilgan bo'lsa-da, tez orada ulardan kengroq xizmatlar va mahsulotlar taklif qilishga o'zgarishga muvaffaq bo'ldi. Ularning rivojlanish bosqichlari, asosan, dastlabki innovatsion yechimlar, mobil to'lovlar, kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyalari kabi yangi mahsulotlarni yaratishga qaratilgan. Fintechning asosiy xususiyatlari ichida tezlik, qulaylik, shaffoflik va xarajatlarni kamaytirish kabi omillar mavjud. Ushbu xususiyatlar, mijozlar uchun moliyaviy xizmatlarni yanada samarali va qulay qilishga xizmat qiladi. Fintech kompaniyalari, shuningdek, kichik bizneslar va shaxsiy iste'molchilar uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirib, moliyaviy inkluzivlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Natijada, fintechning rivojlanishi nafaqat moliya sohasini, balki butun iqtisodiy tizimni o'zgartirishga qodir bo'lgan yangi imkoniyatlarni yaratadi. Fintechning tarixi 20-asrning oxirlariga borib taqaladi, bunda texnologik yangiliklar moliya sohasiga kirib kelishni boshladi. Dastlab, internet orqali moliyaviy xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlari paydo bo'ldi, keyinchalik mobil ilovalar va blockchain texnologiyalari rivojlandi. Bu jarayonlar moliya xizmatlarini yanada qulay va tezkor qilishga yordam berdi. Fintech kompaniyalari, o'z navbatida, innovatsion yechimlar orqali an'anaviy bank tizimlarini yangilash va raqobatni oshirishda faol ishtirok etmoqda.

An’anaviy banklar va ularning funksiyalari. An’anaviy banklar iqtisodiy tizimning ajralmas qismi bo'lib, ularning asosiy funksiyalari moliya vositachiligini amalga oshirish, omonatlarni qabul qilish, kredit berish va pul o'tkazmalari xizmatlarini ko'rsatishdan iborat. Ushbu banklar shuningdek, mijozlarga investitsiya xizmatlari, hisob raqamlarini boshqarish va moliyaviy maslahatlar taqdim etadi. An’anaviy banklar, shuningdek, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular resurslarni samarali taqsimlash orqali tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Ular iqtisodiyotning turli sohalarida likvidlikni ta'minlash va moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish uchun zarur bo'lgan kreditlarni taqdim etadi. Banklar, shuningdek, davlat va xususiy sektorda investitsiyalarni jalb qilishda muhim vositadir. An’anaviy banklarning xizmatlari, shuningdek, moliyaviy aloqalar va iqtisodiy o'zaro bog'lanishlarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasi an’anaviy banklar iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda markaziy rol o'ynashini ko'rsatadi.

Fintech kompaniyalarining banklarga ta’siri. Fintech kompaniyalarining an’anaviy banklarga ta’siri zamonaviy moliya sohasida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu kompaniyalar raqamli texnologiyalarni qo‘llab, moliya xizmatlarini yanada

qulay va samarali qilishga intilishadi. Fintechning banklarga ta’siri birinchi navbatda raqobatni kuchaytirishida namoyon bo‘ladi. An’anaviy banklar, fintech startaplarining taqdim etayotgan innovatsion xizmatlari va mahsulotlari bilan raqobatlasha olish uchun o‘z xizmatlarini modernizatsiya qilishga majbur bo‘lmoqda. Bu jarayonda banklar mobil ilovalar, onlayn kredit berish va boshqa raqamli yechimlarni joriy etish orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga harakat qilmoqda. Innovatsiyalar esa nafaqat banklar, balki fintech kompaniyalarining o‘zaro hamkorliklarini rivojlantirishga ham olib kelmoqda. Natijada, moliya bozorida yangi xizmatlar paydo bo‘lib, mijozlar uchun tanlov imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, bu jarayon an’anaviy banklar uchun yangi strategiyalar ishlab chiqishga va ularni amalga oshirishga undaydi, bu esa moliya sohasining umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Fintech kompaniyalari an’anaviy banklar bilan raqobatni kuchaytirib, innovatsiyalarni kiritishda muhim rol o'ynaydi. Ular raqamli xizmatlar va tezkor operatsiyalar orqali mijozlar talablariga tezkor javob berib, banklarning an’anaviy xizmatlarini takomillashtirishga majbur qiladi. Bu jarayon banklar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, lekin bir vaqtning o'zida, ularga qiyinchiliklar ham tug'diradi.

Mijozlar tajribasi va fintech. Fintech sektori mijozlar tajribasini yaxshilashda muhim rol o'ynamoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida moliyaviy xizmatlar yanada qulay va tezkor bo'lib qolmoqda. Mijozlar endi banklarda navbat kutmasdan, istalgan vaqtda va joyda pul o'tkazmalari, kredit olish va boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega. Bu esa, o'z navbatida, mijozlarning qoniqishini oshiradi va ularning moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Fintech xizmatlari, odatda, an'anaviy banklardan farqli o'laroq, innovatsion yechimlar va foydalanuvchilarga qulay interfeyslar taklif etadi, bu esa mijozlar uchun yanada intuitiv tajriba yaratadi. Banklar bilan solishtirganda, fintech kompaniyalari ko'proq moslashuvchanlik va tezkorlikni ta'minlaydi, bu esa ularga kuchli raqobat afzalliklarini beradi. Biroq, bu raqobat banklar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ularning an'anaviy xizmatlarini yangilashga va mijozlar ehtiyojlariga moslashishga majbur qiladi. Shunday qilib, fintechning rivojlanishi bank tizimining o'zgarishiga ham olib keladi. Fintechning mijozlar tajribasiga ta’siri, xizmatlarining qulayligi bilan birga, banklar bilan solishtirilganda sezilarli darajada farq qiladi. Fintech kompaniyalari tezkor va qulay xizmatlar taqdim etish orqali mijozlarning ehtiyojlarini samarali qondiradi. Bu esa an'anaviy bank xizmatlaridan farqli o'laroq, mijozlar uchun ko'proq qulaylik va tezlikni ta'minlaydi. Shuningdek, fintechning innovatsion yondoshuvi, mijozlar bilan o'zaro aloqalarni kuchaytirishga yordam beradi.

Regulyatsiya va xavfsizlik masalalari. Fintech va an’anaviy banklar o‘rtasidagi regulyatsiya farqlari va xavfsizlik masalalari muhim ahamiyatga ega. Fintech kompaniyalari, ko‘pincha, an’anaviy banklarga nisbatan kamroq qat’iy regulyativ talablar bilan faoliyat yuritadilar. Bu, o‘z navbatida, innovatsiyalarni tezlashtirishga yordam beradi, ammo xavfsizlik va mijoz ma’lumotlarini himoya qilish masalalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. An’anaviy banklar esa, ko‘plab regulyatsion organlar tomonidan nazorat qilinadi va mijozlarni himoya

qilishga qaratilgan qat’iy standartlarga amal qilishlari kerak. Biroq, bu jarayonlar ko‘pincha vaqt talab qiladi va mijozlarga xizmat ko‘rsatishda sekinlik keltirib chiqarishi mumkin. Fintechning o‘ziga xos xususiyatlari, masalan, raqamli platformalar va tezkor xizmatlar, xavfsizlikka alohida e’tibor berishni talab etadi. Mijoz ma’lumotlarini himoya qilish, firibgarlikdan saqlanish va xavfsizlik standartlariga rioya qilish masalalari fintech kompaniyalari uchun dolzarb hisoblanadi. Shu sababli, regulyatsiya va xavfsizlik masalalari o‘rtasidagi muvozanatni topish, fintech va an’anaviy banklar o‘rtasida muhim bir vazifa hisoblanadi. Fintech va an’anaviy banklar o‘rtasidagi regulyatsiya farqlari, odatda, innovatsion yondashuvlar va tez o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish imkoniyatlari bilan bog‘liq. An’anaviy banklar qat’iy regulyatsiyalarga amal qilsa, fintech kompaniyalari ko‘proq moslashuvchanlik va tezkorlikni ta’minlashga intilishadi, bu esa xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratishni talab qiladi.

Kelajakdagi tendensiyalar. Kelajakdagi tendensiyalar fintech va an’anaviy banklar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni yanada kuchaytirishi kutilmoqda. Fintech kompaniyalari innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonini soddalashtirish va shaxsiylashtirishga intilmoqda, bu esa an’anaviy banklarga raqobatni kuchaytiradi. Mijozlar uchun raqamli xizmatlar va mobil ilovalar orqali kirish imkoniyatining oshishi, bank xizmatlarini yanada qulay va tezkor qiladi. Bunday o‘zgarishlar an’anaviy banklarni o‘z xizmatlarini takomillashtirishga va yangi texnologiyalarni joriy etishga undaydi. Shuningdek, fintech va an’anaviy banklar o‘rtasidagi hamkorlik imkoniyatlari ham o‘sib boradi. Ular o‘zaro tajriba almashish va resurslardan foydalanish orqali raqobatbardoshligini oshirishga intilishadi. Kelajakda, regulyatorlar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlik, fintech va bank sektorlari o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlashga yordam beradi. Bu jarayon, shuningdek, moliya sohasidagi innovatsiyalarni rag‘batlantiradi va mijozlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratadi.

Xulosa. Maqolaning asosiy natijalari ko'rsatadiki, fintech kompaniyalari an’anaviy banklar bilan raqobatlashish orqali moliyaviy xizmatlar sohasida inqilobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ular, o'z navbatida, xaridorlar uchun qulayliklar va tezkor xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini taqdim etish orqali an’anaviy banklarning xizmat ko'rsatish usullarini o'zgartirmoqda. Fintechning innovatsion yechimlari, masalan, mobil to'lovlar, blokcheyn texnologiyalari va sun'iy intellekt, moliya sohasidagi jarayonlarni soddalashtirib, xarajatlarni kamaytiradi va mijozlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratadi. Shu bilan birga, an’anaviy banklar fintech kompaniyalarining ta'siriga qarshi turish uchun o'z xizmatlarini modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etishga majbur bo'lmoqda. Bu jarayon, moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytiradi va iste'molchilarga yanada kengroq variantlar taklif etadi. Natijada, fintech va an’anaviy banklar o'rtasidagi munosabatlar yangi sinergiyani yaratishga olib kelmoqda, bu esa moliyaviy ekosistemani yanada rivojlantiradi. Maqolaning asosiy natijalari shuni ko'rsatadiki, fintech kompaniyalari an’anaviy banklarga muhim ta’sir ko'rsatmoqda. Bu holat, an’anaviy banklarning xizmatlarini

modernizatsiya qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Natijada, fintech va banklar o'rtasidagi integratsiya moliyaviy xizmatlar sifatini oshirib, iste'molchilarga yanada keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bu jarayon moliyaviy ekosistemani yanada mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Anagnostopoulos, I. (2018). Fintech and regtech: Impact on regulators and banks. Journal of Economics and Business, 100, 7-25.

2. Brandl, B., & Hornuf, L. (2020). Where did FinTechs come from, and where do they go? The transformation of the financial industry in Germany after digitalization. Frontiers in Artificial Intelligence, 3, 8.

3. Chen, M. A., Wu, Q., & Yang, B. (2019). How valuable is FinTech innovation? The Review of Financial Studies, 32(5), 2062-2106.

4. Fuster, A., Plosser, M., Schnabl, P., & Vickery, J. (2019). The role of technology in mortgage lending. The Review of Financial Studies, 32(5), 1854-1899.

5. Gomber, P., Koch, J. A., & Siering, M. (2017). Digital Finance and FinTech: current research and future research directions. Journal of Business Economics, 87(5), 537-580.

6. Браун, Дж. и Тейлор, Р. (2020). Искусственный интеллект в банковской сфере: улучшение качества обслуживания клиентов и повышение безопасности. Журнал финансовых технологий, 15(3), 45-62.

7. Гарсия, М. (2022). Блокчейн и трансграничные транзакции: будущее международных платежей. Глобальный финансовый обзор, 28(2), 112-130.

8. Джонсон, П. (2019). Рост популярности мобильных кошельков: как финтех меняет финансовую доступность. Журнал цифрового банкинга, 12(4), 89-105.

9. Ли, К. (2021). Проблемы кибербезопасности в сфере финтеха: риски и стратегии смягчения. Журнал безопасности финтеха, 9(1), 23-40.

10. Смит, А. (2021). Трансформация кредитования: как финтех меняет традиционный банкинг. Журнал банковских инноваций, 17(1), 55-73.

DIGITAL BANKS AS CATALYSTS FOR SME DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: EVIDENCE, BARRIERS, AND POLICY IMPLICATIONS

O.B. Ruzimuratov
SIES, PhD, Acting Associate Professor
R.B. Abduvaliyev SIES student

Abstract. *Small and medium-sized enterprises (SMEs) account for more than 55% of Uzbekistan's GDP and approximately 70–75% of total employment[175], yet limited access to formal finance remains a major constraint on their growth. The rapid expansion of digital banking, supported by the Digital Uzbekistan 2030*

[175] Agency of Statistics under the President of Uzbekistan (2024)

strategy and regulatory reforms introduced by the Central Bank, has created new opportunities for SME financing and operational efficiency. This study examines the role of digital banks in supporting SMEs using a structured survey of 100 SME owners and managers across trade, services, and manufacturing sectors, complemented by secondary data for 2019–2023. However, adoption is uneven: urban SMEs demonstrate adoption rates above 80%, while rural SMEs remain below 40%. The paper concludes with policy recommendations aimed at strengthening digital financial inclusion and SME development in Uzbekistan.

***Keywords**: digital banking, SME finance, financial inclusion, Uzbekistan, mobile banking, fintech, SME development, credit access.*

Introduction. The development of the financial sector plays a critical role in the growth and sustainability of small and medium-sized enterprises. SMEs typically face significant challenges in accessing traditional bank credit due to collateral requirements, lengthy approval processes, and high transaction costs. In recent years, digital banking has emerged as a transformative solution, reducing geographical barriers and improving access to financial services.

Despite these institutional developments, empirical evidence on the impact of digital banking on SME performance in Uzbekistan remains limited. Most existing reports focus on general financial inclusion indicators rather than firm-level adoption patterns. This study addresses this gap by analyzing three key questions:

1. What is the level of digital banking adoption among SMEs in Uzbekistan?
2. What benefits do SMEs obtain from digital banking services?
3. What barriers limit SME adoption of digital banking?

Literature Review. Digital banking supports SME development through three primary mechanisms. First, it reduces information asymmetry by generating digital transaction histories that can be used for alternative credit scoring. Second, digital banking lowers operational costs by eliminating physical branch infrastructure and enabling smaller loan sizes.

However, adoption barriers remain significant in developing economies. These include low digital literacy, weak internet infrastructure, cybersecurity concerns, and regulatory uncertainty.

Methodology. This study uses a mixed-method approach combining primary survey data and secondary statistical sources. A structured questionnaire was administered to 100 SME owners and managers between January and March 2024. The sample included firms from trade (42%), services (35%), and manufacturing (23%). Approximately 62% of respondents operate in urban areas and 38% in rural or peri-urban areas.

The survey examined five dimensions: digital banking adoption, frequency of use, purposes of use , perceived benefits , barriers to adoption

Results. Digital Banking Adoption. Mobile banking is the dominant channel used by SMEs. Approximately 72% of respondents regularly use mobile banking applications, while 18% rely on internet banking portals. Only 10% use traditional branch services exclusively.

Frequency of usage shows strong integration into daily business operations. Around 48% of SMEs use digital banking daily, 32% several times per week, and 20% occasionally. Payments and transfers represent the primary use case, followed by loan applications and payroll processing.

Table 1.

Digital banking adoption and usage patterns among Uzbek SMEs (n = 100)[176]

Indicator	Category	Share (%)
Preferred banking channel	Mobile banking application	72
	Internet banking portal	18
	Traditional branch only	10
Frequency of use	Daily	48
	Several times per week	32
	Occasionally	20
Primary purpose	Payments and transfers	41
	Loan / credit applications	27
	Payroll processing	19
	Financial monitoring and reporting	13

Access to Finance and Benefits. Digital lending is used by 64% of SMEs in the sample. Among these users, 69% reported significant time savings compared with traditional loan applications. Operational efficiency improvements were reported by 61% of respondents, while 57% indicated reduced transaction costs. Nearly half of SMEs stated that digital banking improved access to formal credit.

These results suggest that digital banking provides both operational and financial benefits. Many SMEs initially adopt digital banking for payments and later expand usage to financing and financial management functions.

Barriers to Adoption Among non-adopters, limited digital literacy was the most frequently cited barrier (43%). Infrastructure limitations, including weak internet connectivity, were reported by 34% of respondents. Security concerns were cited by 29% of SMEs, indicating trust issues in digital financial services.

Additional barriers include high fees, lack of SME-specific products, and regulatory documentation requirements. These barriers are more pronounced among rural SMEs and micro-enterprises.

Discussion. The findings indicate that digital banking is playing an increasingly important role in SME development in Uzbekistan. High adoption rates and frequent usage suggest that digital banking has moved beyond early-stage experimentation and is becoming part of routine business operations.

Compared with regional peers, Uzbekistan demonstrates strong progress in

[176] *Source: Authors' survey, (n = 100)*

mobile banking adoption but lower levels of digital credit penetration. This indicates that payment infrastructure is developing faster than digital lending markets. Strengthening credit information systems and alternative data usage could expand digital lending to more SMEs.

Conclusion and Policy Recommendations. Digital banking is reshaping SME finance in Uzbekistan by improving access to financial services, reducing transaction costs, and enhancing operational efficiency. However, adoption gaps remain, particularly in rural areas.

Several policy recommendations emerge from the findings.

First, improving rural digital infrastructure is essential. Expanding internet connectivity and digital banking access points would reduce geographic disparities.

Second, strengthening digital financial consumer protection would improve trust and encourage adoption. Clear liability rules and fraud compensation mechanisms are needed.

Third, expanding credit data sharing between digital platforms and credit bureaus would improve SME credit access and reduce lending risks.

Overall, digital banking has strong potential to accelerate SME development in Uzbekistan, but coordinated policy action is required to ensure inclusive and sustainable growth.

References:

1. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Maksimovic, V. (2008). Financing patterns around the world: Are small firms different? Journal of Financial Economics, 89(3), 467–487.

2. Björkegren, D., & Grissen, D. (2020). Behavior revealed in mobile phone usage predicts loan repayment. World Bank Economic Review, 34(3), 618–634.

3. Central Bank of Uzbekistan. (2023). Annual Report: Banking Sector and Digital Financial Services. Tashkent.

4. Central Bank of Uzbekistan. Resolution No. 18/1 on licensing of digital credit organizations. 2020.

5. EBRD. (2023). Transition Report 2023: Central Asia — Finance and Growth. London: European Bank for Reconstruction and Development.

6. IFC. (2022). Digital Banking and SME Growth: Evidence from Georgia. Washington, DC: International Finance Corporation.

7. Ministry of Internal Affairs of Uzbekistan. (2023). Statistical Report on Cybercrime Incidents. Tashkent.

8. OECD. (2023). Digital Finance and SME Access to Credit in Emerging Economies. Paris: OECD Publishing

NAQD PULSIZ HISOB-KITOB TIZIMINI TAHLIL

Xolikulov O‘ktam Abdumo‘minovich
SamISI, Bank ishi kafedrasi assistenti
Nurmonov Mahmudjon Hamza o‘g‘li,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
Ergasheva Laylo Farhod qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada naqd pulsiz to‘lovlar hisobini yuritishning mazmuni, tamoyillari va ularning tashkilot moliyaviy faoliyatidagi o‘rni yoritilgan. Naqd pulsiz to‘lovlarning turlari, hisob-kitob shakllari, bank orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar hamda ularni hisobga olish jarayonining buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiqligi tahlil qilingan. Shuningdek, elektron to‘lov tizimlaridan foydalanishning afzalliklari, xavfsizlik choralari va korxona likvidligi hamda nazorat imkoniyatlariga ta’siri ochib berilgan. O‘zbekiston bank tizimida elektron to‘lov infratuzilmasining kengayishi, raqamli to‘lov platformalarining joriy etilishi natijasida korxonalarda moliyaviy operatsiyalar samaradorligining oshishi isbotlab berilgan. Maqolada statistik ma’lumotlar, amaliy misollar hamda tahliliy yondashuv asosida naqd pulsiz hisob-kitob tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari xo‘jalik yurituvchi subyektlar, tijorat banklari va moliyaviy tashkilotlar faoliyatida qo‘llash uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *naqd pulsiz hisob-kitob, to‘lov tizimi, korxona moliyasi, elektron to‘lovlar, bank amaliyotlari, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy intizom.*

Kirish. Mazkur maqolada korxonalarda naqd pulsiz hisob-kitob tizimini tashkil etishning amaldagi holati o‘rganilib, ularni yuritish tartibi, mexanizmlari va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida naqd pulsiz to‘lovlarning afzalliklari va mavjud muammolari aniqlanib, milliy to‘lov tizimining takomillashtirilishi uchun ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, maqolada naqd pulsiz hisob-kitob tizimining korxona moliyaviy barqarorligiga ta’siri tizimli tahlil qilinib, elektron to‘lov infratuzilmasini rivojlantirish orqali hisob-kitob samaradorligini oshirish yo‘llari aniq tavsiyalar asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli moliyaviy xizmatlar, xususan, naqd pulsiz hisob-kitob tizimi jadal rivojlanmoqda. 2020–2024-yillar oralig‘idagi statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu davrda naqd pulsiz to‘lovlar hajmi keskin o‘sish tendensiyasini namoyon qilgan. 2020-yilda ularning umumiy hajmi 185,6 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil yakuniga kelib bu ko‘rsatkich 945,2 trillion so‘mga yetgan, ya’ni so‘nggi besh yilda qariyb 5,1 baravar o‘sish kuzatilgan. Bu o‘sish mamlakatda elektron to‘lov tizimlari ulushi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, raqamli tranzaksiyalar soni ham muttasil oshib bormoqda. 2020-yilda 1,2 milliard dona bo‘lgan tranzaksiyalar soni 2024-yilga kelib 7,8

milliard donaga yetgan. Bu o‘sish aholining elektron to‘lov vositalaridan keng foydalanayotganini va xizmat ko‘rsatish sohasida raqamli iqtisodiyot elementlari faol tatbiq etilayotganini ko‘rsatadi. Bunday dinamik o‘sish bir tomondan iqtisodiy faoliyatning shaffofligini ta’minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, milliy to‘lov tizimining barqarorligini kuchaytirishimkonini bermoqda.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar rivojida bank kartalari sonining ortishi ham muhim omil sifatida e’tirof etiladi. 2020-yilda 24,5 million dona bank kartalari muomalada bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda ularning soni 35,4 million donaga yetgan. Bu esa mamlakat aholisi soniga nisbatan har bir fuqaro uchun o‘rtacha 1,03 kartadan to‘g‘ri kelayotganini bildiradi. Demak, aholining bank xizmatlaridan foydalanish madaniyati ham sezilarli darajada oshgan. Elektron to‘lov tizimlari ulushi esa 2020-yildagi 42 foizdan 2024-yilda 82 foizgacha ko‘tarilgan. Bu holat O‘zekiston Respublikasida “raqamli iqtisodiyot”ni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturlari, xususan, “Raqamli O‘zbekiston –2030” strategiyasining amaliy natijasidir. Ushbu ko‘rsatkichlarning o‘sishi naqd pul aylanmasini kamaytirib, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, soliqqa tortish bazasini kengaytirish va noqonuniy iqtisodiy faoliyatni qisqartirishga xizmat qilmoqda.

Statistik tahlildan kelib chiqadiki, 2020–2024-yillar davomida naqd pulsiz hisob-kitob tizimining o‘sish sur’ati o‘rtacha yiliga 38–40% ni tashkil etgan. Eng yuqori o‘sish 2023-yilda qayd etilib, o‘tgan yilga nisbatan 47 foizga oshgan. Bunda pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish davrida elektron tijorat va mobil to‘lov ilovalari sonining keskin ko‘paygani asosiy omil sifatida qayd etiladi.Bundan tashqari, Markaziy bankning ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda naqd pulsiz to‘lovlar jami to‘lovlar hajmining 74 foizini tashkil qilgan. Bu esa iqtisodiyotda naqd pul aylanmasi qisqarib, “soya iqtisodiyoti” ulushi kamayib borayotganini bildiradi. Shu bilan birga, elektron to‘lovlar hajmining o‘sishi bank sektorida tranzaksiya komissiya daromadlarini oshirgan, bu esa o‘z navbatida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan. 2020–2024-yillar davomida O‘zbekistonda naqd pulsiz to‘lovlar hajmi va elektron to‘lov tizimlari ulushi izchil o‘sib bormoqda. Naqd pulsiz to‘lovlar hajmi 2020-yildagi 185,6 trillion so‘mdan 2024-yilda 945,2 trillion so‘mgacha ko‘tarilgan bo‘lib, bu besh yil davomida qariyb 5 baravar o‘sishni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, elektron to‘lov tizimlari ulushi ham 42 % dan 82 % gacha oshgan. Bu holat mamlakatda raqamli iqtisodiyotning kengayib borayotganini, to‘lov infratuzilmasi modernizatsiya qilinayotganini va aholining moliyaviy savodxonligi oshayotganini yaqqol ifodalaydi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitob tizimi so‘nggi yillarda jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2020–2024-yillar oralig‘ida naqd pulsiz to‘lovlar hajmi besh baravardan ortiq oshib, 185,6 trillion so‘mdan 945,2 trillion so‘mgacha yetgan. Shu bilan birga, elektron to‘lov tizimlari ulushi 42 foizdan 82 foizgacha oshgani iqtisodiyotda raqamli moliyaviy xizmatlarning keng ommalashganini ko‘rsatadi. Bunday o‘sish mamlakatda to‘lov infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi, banklararo raqamli platformalarning kengaytirilishi va “Raqamli O‘zbekiston –2030” strategiyasining izchil amalga oshirilishi

natijasidir. Naqd pulsiz to‘lovlarning ortishi nafaqat iqtisodiy aylanmani tezlashtirmoqda, balki soya iqtisodiyoti hajmini qisqartirib, soliq tushumlari va moliyaviy shaffoflik darajasini oshirmoqda. Shuningdek, korxona va tashkilotlar uchun naqd pulsiz hisob-kitoblar operatsion xarajatlarni kamaytirish, buxgalteriya nazoratini soddalashtirish va tranzaksiya xavfsizligini ta’minlash kabi afzalliklarni beradi. Aholi uchun esa bu tizim qulaylik, tezkorlik va shaffoflikni yaratmoqda. Shu jihatdan qaraganda, naqd pulsiz hisob-kitob tizimi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim mexanizmga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Tirana, A., Emmerson, S., Manlan, C., Doros, C., Mukhanndeov, D., Dyussen, J., Abdurakhmanov, B. (2023).

2. Boon, H. (2023). CENTRAL ASIA –Payments and Fintech Landscape: Uzbekistan.GFRID. https://gfrid.org/wp-content/uploads/2023/04/REMIT-PRIME-Uzbekistan_HansBoon_ENG.pdfGFRID

3. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki Rasmiy sayti, cbu.uz

4. LEX.Uz

OPEN BANKING VA API INTEGRATSIYASI

Sindarov Shuhrat
SamISI “Bank ishi” kafedrasi o‘qituvchisi
Qo‘ziyev Ilhomjon Ixtiyor o’g’li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Bank-moliya xizmatlari” fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada open banking va API integratsiyasining bank tizimiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Open bankingning rivojlanishi bank tizimlariga qanday o‘zgarishlar kiritgani va iqtisodiyotdagi o‘rni tahlil qilinadi.*

Raqamli to'lov tizimlari, masalan, mobil pullar va elektron hamyonlar, naqd pulga bo'lgan ehtiyojni kamaytirib, tranzaksiya xarajatlarini pasaytiradi va moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini oshiradi [2, 3]. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Kichik va o'rta biznes subyektlari (KOB) hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun raqamli moliyaviy xizmatlar kapitalga kirishni soddalashtiradi. An'anaviy banklar ko'pincha KOBlarga kredit berishda qat'iy talablar qo'yadi, bu esa ularning moliyaviy resurslarga kirishini cheklaydi. Fintex platformalari esa muqobil kredit ballash tizimlari, ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt yordamida kichik bizneslar va jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliligini baholashning yangi usullarini joriy etadi. Bu, o'z navbatida, ularga moliyaviy yordam olish imkoniyatini kengaytiradi. Masalan, charter kapitaliga ulushlar, xizmat ipotekalari, kredit va lizing imkoniyatlari hamda kafolatlar orqali KOBlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarga moliyaviy yordam ko'rsatish iqtisodiy faollikni sezilarli darajada rag'batlantiradi [1]. Raqamli platformalar bu mexanizmlarni yanada samarali va keng miqyosda amalga oshirishga yordam beradi.

Moliyaviy inklyuziyaning iqtisodiy o'sishga ta'siri bir necha yo'nalishda kuzatiladi. Birinchidan, aholining keng qatlamlari moliyaviy xizmatlardan foydalanishi jamg'armalarni oshiradi, bu esa investitsiyalar uchun qo'shimcha resurslarni yaratadi. Ikkinchidan, kreditlarga kirish imkoniyatining kengayishi tadbirkorlikni rivojlantiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Uchinchidan, raqamli to'lovlar va moliyaviy xizmatlar iste'molni rag'batlantiradi, chunki ular to'lovlarni osonlashtiradi va xarid qilish qobiliyatini oshiradi. To'rtinchidan, moliyaviy inklyuziya soyali iqtisodiyotning hajmini qisqartirishga yordam beradi, chunki raqamli tranzaksiyalar shaffofroq bo'lib, soliq yig'imlarini oshirishga imkon beradi. Bu esa davlat byudjetiga qo'shimcha mablag'larni jalb qilib, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Natijada, raqamli bank xizmatlari va fintex moliyaviy tizimning barqarorligini oshirishga, iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga va aholi farovonligini yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim vositalar hisoblanadi.

Tadbirkorlik, innovatsiyalar va mehnat bozoriga ta'siri.

Raqamli bank xizmatlari va fintexning rivojlanishi tadbirkorlik muhitini

tubdan o'zgartirib, innovatsiyalarni rag'batlantirish va mehnat bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatish orqali ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshiradi. Tadbirkorlik nuqtai nazaridan, fintex startaplarga va kichik va o'rta biznes subyektlariga (KOB) kapitalga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. An'anaviy banklar ko'pincha yuqori xavfli deb hisoblagan yangi bizneslar uchun fintex platformalari muqobil moliyalashtirish manbalarini taklif etadi. Bularga kraudfanding (ommaviy moliyalashtirish), peer-to-peer (P2P) kreditlash va venchur kapitali platformalari kiradi. Ushbu platformalar tadbirkorlarga o'z g'oyalarini amalga oshirish uchun zarur mablag'larni tez va samarali jalb qilish imkonini beradi. Masalan, [1] manbada keltirilganidek, KOBlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun charter kapitaliga ulushlar, xizmat ipotekalari, kredit va lizing imkoniyatlari hamda kafolatlar kabi moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mavjud. Raqamli fintex platformalari bu mexanizmlarni yanada ommabop va qulay qiladi, kredit arizalarini onlayn qabul qilish, tezkor baholash va mablag'larni tezda ajratish orqali byurokratik to'siqlarni kamaytiradi. Kichik korxonalar uchun 1,5 milliard so'mgacha, o'rta korxonalar uchun 5 milliard so'mgacha, o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun esa 300 million so'mgacha mikroqarzlar fintex orqali yanada osonlashadi [1].

Xulosa. Ushbu maqola raqamli bank xizmatlari va fintexning ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshirishdagi muhim rolini har tomonlama tahlil qildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ushbu texnologiyalar global miqyosdagi moliyaviy inklyuziyani sezilarli darajada kengaytirib, aholining keng qatlamlari va kichik tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy resurslarga kirishni osonlashtiradi. Bu esa tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, pul muomalasi tezligini oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Fintex innovatsiyalari tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlari yaratish va moliyaviy xizmatlar samaradorligi, shaffofligi hamda xavfsizligini oshirish orqali jamiyat farovonligiga xizmat qiladi. Kelajakda raqamli xavfsizlikni ta'minlash va tegishli tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish barqaror rivojlanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Arner, D. W., Buckley, R. P., & Zetzsche, D. A. (2020). Fintex va Moliyaviy Xizmatlar Kelajagi. Abingdon: Routledge.
2. Lee, D., & Lee, J. (Eds.). (2021). Palgrave Fintex va Blokcheyn Qollanmasi. Cham: Palgrave Macmillan.
3. Schueffel, P. (2021). Fintex va Moliyaviy Xizmatlarning Raqamli Transformatsiyasi. Cham: Springer.
4. Gomber, P., Kauffman, R. J., Parker, C., & Van Audenrode, M. (2021). “Fintech va moliyaviy xizmatlar kelajagi: Tadqiqot kun tartibi”. Boshqaruv Axborot Tizimlari Jurnali, jild. 38, son. 1, bet. 1-24.
5. Suryono, R. R., Purba, H. H., & Puspitasari, D. (2020). "Fintechning moliyaviy inklyuziyani rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishdagi roli." Ochiq innovatsiyalar jurnali: Texnologiya, bozor va murakkablik, vol. 6, no. 4, pp. 1-19.

6. Ozili, P. K. (2021). "Fintech, moliyaviy qamrov va iqtisodiy rivojlanish: Sharh." Xalqaro Iqtisodiyot va Moliyaviy Masalalar Jurnali, vol. 11, no. 4, pp. 1-10.

7. Khan, M. A., & Ahmad, N. (2021). "Raqamli moliyaviy xizmatlar va qashshoqlikni kamaytirish: Rivojlanayotgan mamlakatlar misolida." Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, vol. 48, no. 5, pp. 881-898.

8. Chauhan, V. K., & Singh, S. (2022). "Raqamli tolov tizimlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri: Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar misolida tadqiqot." Moliyaviy Iqtisodiy Siyosat Jurnali, vol. 14, no. 1, pp. 1-18.

9. Gabor, D., & Brooks, S. (2021). "Moliya sohasidagi raqamli inqilob: Moliyaviy inklyuziya va rivojlanish uchun oqibatlar." Rivojlanish va Ozgarish, vol. 52, no. 2, pp. 243-267.

INNOVASION BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Sobirov Ilxom Xusanovich
SamDAQU, dotsenti, i.f.n.
Hasanov Shermuhammadjon
SamISI BI-K-224 guruh talabasi

Annotatsiya*. Innavatsion bank xizmatlari raqamli iqtisodiyotning zamonga mos taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonda bunday xizmatlar va elektron to‘lov tizimining rivojlanishi uni me’yoriy-huquqiy jihatdan takomillashtirib borishni taqozo etadi. Ushbu maqolada innovatsion masofaviy bank xizmatlaridan bo‘lgan mobil bankingdan foydalanish bosqichlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *bank texnologiyalari, “Internet-banking”, “Mobil-banking”, “SMS-banking”, elektron to‘lov tizimi, internet-provayder.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonida “...davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026 yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqarish, Iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026 yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish vazifasi” belgilangan.

Xujjat bank tizimini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor sohalarini, 2022 - 2026 yillarda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish yo‘nalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda ehtimoliy echimlarni izlash yo‘llarini belgilaydi. Tijorat banklarida bank xizmatlari ko‘rsatish sifatini oshirishning samarali yullari belgilab berilgan.

Tijorat banklari orkali yangi bank xizmatlari ko‘rsatishning eng

takomillashgan va ommalashib borayotgan usuli mobil bankingdir. Mobil banking – internet tarmog‘i yordamida mobil telefon (smartfon) orqali bank xizmatlaridan foydalanishning zamonaviy usulidir. Bu usul bank xizmatlaridan foydalanuvchilarga bank hisobvarag‘ini masofadan boshqarish imkonini beradi va deyarli barcha internet-banking operatsiyalarini ta’minlaydi.

Mobil bankning yordamida mijoz quyidagi imkoniyatlarga ega:

▪bank kartalarining (kredit, debet va hokazo) holatini kuzatish;

▪mobil va shahar telefon xizmatlari,

▪internet-provayderlar, kommunal, kabel va raqamli televidenie xizmatlari uchun vositachilik haqlarisiz to‘lovlarni amalga oshirish;

▪onlayn konversiya amaliyotlarni o‘tkazish;

▪kartadan kartaga o‘tkazmalarni amalga oshirish;

operatsiyalarning avtomatik ijrosini sozlash – hisobvaraq bo‘yicha yoki muayyan sanalarda belgilangan to‘lovlar;

▪pul mablag‘larining bank hisobvarag‘iga tushganligi haqida ma’lumot olish;

▪bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar haqida ma’lumotnoma olish;

▪onlayn-do‘konlarda haridlarni amalga oshirish;

kreditlarni so‘ndirish,

▪omonatlarga mablag‘ qo‘shish;

kredit olish;

▪pul o‘tkazmasini olish-yuborish;

▪YHXBB jarimalarini to‘lash;

bank kartasini ochish;

▪bank kartasini bloklash va blokdan echish;

▪bank kartasiga omonat bo‘yicha foizlarni kirim qilish;

▪bank kartasining amal qilish muddatini uzaytirish;

▪mobil ilova orqali turli valyutalarda xalqaro pul o‘tkazmalarini amalga oshirish.

Mobil banking xizmatlaridan foydalanish uchun mijoz, avvalo bank hisobvarag‘ini ochishi lozim, ya’ni karta hisobvarag‘i ochiladi (bank kartasi).

Buning uchun bankka tashrif buyurib (yoki masofadan) kerakli hujjatlarni to‘ldirish, internet orqali mobil telefonga tegishli ilovani yuklab olish lozim bo‘ladi.

Mobil ilovalar bank yoki to‘lov tashkilotlari tomonidan taklif etilishi mumkin. Agar mobil ilova va bank kartasi bitta bankka tegishli bo‘lsa, ushbu ilova orqali operatsiyalarni amalga oshirishda kichik vositachilik haqlaridan ozod bo‘lish mumkin. Masalan, mablag‘larni bir kartadan boshqa kartaga o‘tkazish yoki naqd pul olish uchun komissiyalar mavjud. Umuman olganda, komissiya 1% dan oshmaydi.

Agar smartfonda ilova o‘rnatilgan bo‘lsa, faqatgina bank kartasi bilan ushbu ilovada avtorizatsiyadan o‘tish kifoya, ya’ni ilovada bank kartasi haqida so‘ralgan ma’lumotlarni unga kiritish lozim.

Avtorizatsiya qilish uchun, kartaning oldi tomonidagi ma’lumotlarni kiritish kerak (karta egasining ismi, kartaning individual raqami va kartaning amal qilish

muddati). So‘ngra bankning SMS-xabari orqali kelgan kod yordamida oshirilayotgan avtorizatsiyani tasdiqlash lozim. SHundan keyin, ilovaga kirish uchun parol (PIN kod) o‘rnatish va uni eslab qolish muhim, telefon o‘g‘irlangan yoki yo‘qolgan taqdirda mablag‘larning xavfsizligi mazkur parol orqali ta’minlanadi.

Bir ilovada bir necha kartalarni ro‘yxatdan o‘tkazish mumkin. Bu esa, ilovani o‘zida bir kartadan boshqa kartaga osongina o‘tish va kerakli karta bilan to‘lovni amalga oshirish imkonini beradi.

Har bir mobil bank ilovasining dizayni va menyusi har xil, ammo bu muammo emas, chunki ularni ishlatish juda oson. Menyu asosan foydalanuvchi istagan operatsiyalarga muvofiq bo‘limlardan (o‘tkazmalar, to‘lovlar va hokazo) tashkil topgan. Birinchi o‘rinda ilovaga kartaning ma’lumotlarini kiritish kerak, undan keyin to‘lovlarni amalga oshirish mumkin.

Mobil banking orqali har qanday bank operatsiyasini amalga oshirishi bilanoq ilovada ro‘yxatdan o‘tkazilgan telefon raqamiga amalga oshirilgan operatsiya haqida SMS-xabar yuboriladi.

Mobil banking afzalliklari:

▪Mobil ilova orqali masofadan turib bank xizmatlaridan foydalanish;

▪Vaqtni tejash;

▪Kuniga 24 soat ishlaydi.

Mobil banking kamchiliklari:

▪Mobil telefonning o‘g‘irlanishi yoki yo‘qolishi;

▪Hisobvaraq xavfsizligi darajasining pastligi.

Prezidentimizning 2020 yil 12 maydagi “2020 -2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni ham masofaviy bank xizmatlarini yo‘lga qo‘yish uchun zamonaviy texnologiyalarni puxta o‘zlashtirish, xizmatlarning yangi turlari va mahsulotlarini aniqlash, xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganib, mamlakatimiz bank xizmatlari ommabopligini oshirishda foydalanish, iste’molchilar huquqlarini himoyalash, aholining moliyaviy savodxonligini yuksaltirish davrimizning dolzarb masalalari sirasiga kirishiga alohida ahamiyat qaratilgan. SHu bois bu qaror bank xizmatlari rivojida yangi bosqichni boshlab berdi

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-son Farmoni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 -2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-5992-son Farmoni.

3. Собиров, И. Х., and Р. Ганиев. "РАҚАМЛИ БАНК-ТАРАҚҚИЁТ ТАЛАБИ." *ББК 65.011. 6 И 26* (2021): 642.

4. Собиров, И. Х., and Д. И. Абиев. "ТЎЛОВ ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАМАРКАЗИЙ БАНКНИНГ ЎРНИ." *ББК 65.011. 6 И 26* (2021): 644.

SWIFT- XALQARO TO'LOV TIZIMI

Xolikulov O'ktam
SamISI Bank ishi kafedrasi o'qituvchisi
Tilovqobilov Diyorbek
Yo'ldoshev Boburjon
SamISI XIM-323 guruh talabalari

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy xalqaro moliya tizimining "asab tolasi" hisoblangan SWIFT (Butunjahon banklararo moliyaviy telekommunikatsiyalar jamiyati) tizimining faoliyati atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tizimning tashkil etilish tarixi, uning xalqaro to'lovlarni standartlashtirishdagi o'rni va axborot almashinuvi mexanizmlari yoritib berilgan. Maqolada SWIFT tizimining shunchaki texnik vosita emas, balki global iqtisodiy xavfsizlik va geopolitik ta'sir dastagiga aylangani mantiqiy dalillar bilan asoslanadi.*

Аннотация: *В данной статье проводится всесторонний анализ деятельности системы SWIFT (Сообщество всемирных межбанковских финансовых телекоммуникаций), которая считается «нервной системой» современной международной финансовой системы. В ходе исследования освещаются история создания системы, ее роль в стандартизации международных платежей и механизмы обмена информацией. В статье на основе логических аргументов обосновывается, что система SWIFT является не просто техническим средством, а инструментом глобальной экономической безопасности и геополитического влияния.*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the activities of the SWIFT (Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunication) system, which is considered the "nervous system" of the modern international financial system. The study highlights the history of the system's establishment, its role in the standardization of international payments, and the mechanisms of information exchange. The article substantiates with logical arguments that the SWIFT system is not just a technical tool, but an instrument of global economic security and geopolitical influence.*

Kalit so'zlar: *SWIFT, xalqaro to'lovlar, banklararo xabar almashinuvi, BIC-kod, moliyaviy xavfsizlik, raqamli valyuta, moliya texnologiyalari (FinTech), kiber-himoya, iqtisodiy sanksiyalar.*

Ключевые слова: *SWIFT, международные платежи, межбанковский обмен сообщениями, BIC-код, финансовая безопасность, цифровая валюта, финансовые технологии (FinTech), киберзащита, экономические санкции.*

Keywords: *SWIFT, international payments, interbank messaging, BIC code, financial security, digital currency, financial technologies (FinTech), cyber protection, economic sanctions.*

Kirish. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi va xalqaro savdo ko'lamining kengayishi dunyo mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Zamonaviy dunyoda trillionlab dollarlik

transchegaraviy to‘lovlar, qimmatli qog‘ozlar savdosi va valyuta ayirboshlash operatsiyalari soniyalar ichida amalga oshirilmoqda. Ushbu ulkan moliyaviy oqimlarning xavfsiz, tezkor va yagona standartlar asosida harakatlanishini ta’minlovchi asosiy mexanizm — SWIFT (*Society for Worldwide Interbank Financial Telecommunication*) tizimi hisoblanadi. 1973-yilda Belgiya poytaxti Bryusselda 15 davlatning 239 ta banki tomonidan asos solingan ushbu tizim, bugungi kunga kelib jahon moliya arxitekturasining "asab tizimi" vazifasini bajarmoqda. Mavzuning dolzarbligi shundaki, SWIFT tizimi shunchaki banklararo ma’lumot almashish vositasi bo‘lib qolmay, balki global iqtisodiy barqarorlikning kafolatiga aylandi. Har kuni ushbu tarmoq orqali 40 milliondan ortiq moliyaviy xabarlar o‘tishi uning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Biroq, so‘nggi yillarda dunyoda kuzatilayotgan geopolitik o‘zgarishlar, iqtisodiy sanksiyalar va blokcheyn texnologiyalarining kirib kelishi SWIFT tizimining monopol mavqeyiga hamda xalqaro to‘lovlar xavfsizligiga nisbatan yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi — SWIFT tizimining ishlash tamoyillarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning xalqaro bank amaliyotidagi afzalliklarini yoritish hamda zamonaviy moliya texnologiyalari (FinTech) sharoitida tizimning transformatsiyalashuv jarayonlarini o‘rganishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot davomida Markaziy banklarning raqamli valyutalari (CBDC) paydo bo‘lishi fonida SWIFT tizimining kelajakdagi o‘rni va muqobil to‘lov tizimlarining rivojlanish istiqbollari atroflicha ko‘rib chiqiladi.

Asosiy qism. SWIFT tizimining xalqaro moliya arxitekturasidagi o‘rnini tahlil qilishda, avvalo, uning texnik funksionalligi va xabarlar standartizatsiyasiga to‘xtalib o‘tish joiz. Tizim o‘z mohiyatiga ko‘ra pul mablag‘larini bevosita saqlovchi yoki o‘tkazuvchi bank emas, balki moliya institutlari o‘rtasida xavfsiz va standartlashtirilgan axborot almashinuvini ta’minlovchi global kommunikatsiya tarmog‘idir. Tizimning muvaffaqiyati barcha ishtirokchilar uchun tushunarli bo‘lgan yagona "moliyaviy til"ni yaratganligida namoyon bo‘ladi. Har bir a’zo bankka beriladigan noyob BIC (Bank Identifier Code) identifikatsiya kodi bankning nomi, joylashgan mamlakati va filiali haqidagi ma’lumotlarni o‘zida jamlab, tranzaksiyalar jarayonida inson omili bilan bog‘liq xatolarni minimallashtiradi. Shu bilan birga, xabarlarning MT standartlari bo‘yicha toifalanishi, masalan, mijoz o‘tkazmalari uchun MT103 yoki banklararo amallar uchun MT202 formatlarining qo‘llanilishi, dunyoning turli chekkalaridagi banklarga o‘zaro tezkor til topishish imkonini beradi.

Moliyaviy xavfsizlik va kiber-himoya masalalari tizim faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Global moliyaviy oqimlar markazida turgani bois, SWIFT tarmog‘i orqali yuboriladigan har bir xabar murakkab shifrlash algoritmlari bilan himoyalangan. Bu ma’lumotlarning yo‘lda o‘zgartirilishi yoki begona shaxslar tomonidan o‘qilishining oldini oladi. So‘nggi yillarda kiber-hujumlar xavfi ortishi munosabati bilan joriy etilgan Mijozlar xavfsizligi dasturi (CSP) banklardan o‘z ichki infratuzilmasini himoyalash bo‘yicha qat’iy talablarni bajarishni so‘ramoqda. Zero, tarmoqning o‘zi xavfsiz bo‘lsa-da, unga ulanuvchi banklarning ichki tizimidagi zaifliklar butun global moliya zanjiri uchun xavf tug‘dirishi

mumkin.

Bugungi kunda SWIFT tizimi nafaqat bank operatsiyasi, balki xalqaro siyosatda kuchli geopolitik vosita sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Dunyo moliya tizimining asosiy valyutalarga yuqori darajada bog‘liqligi ushbu tarmoqning strategik ahamiyatini yanada oshiradi. Muayyan mamlakat bank tizimining SWIFT tarmog‘idan uzilishi o‘sha davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatini, eksport va import to‘lovlarini deyarli falaj holatiga olib keladi. Bunday bosim choralari dunyoda CIPS yoki SPFS kabi muqobil tizimlarning paydo bo‘lishiga turtki bergan bo‘lsa-da, hozircha ularning hech biri SWIFT kabi global qamrovga va yuksak ishonchga ega emasligi tahlillarda o‘z aksini topmoqda.

Texnologik taraqqiyot va raqamli iqtisodiyot davri tizimdan doimiy innovatsiyalarni talab qilmoqda. SWIFT gpi (Global Payments Innovation) standartining joriy etilishi xalqaro to‘lovlarni real vaqt rejimida kuzatib borish imkonini yaratib, shaffoflikni yangi bosqichga ko‘tardi. Hozirgi kunda tizim Markaziy banklarning raqamli valyutalari (CBDC) va blokcheyn platformalari bilan integratsiyalashuv ustida jiddiy tadqiqotlar olib bormoqda. Xalqaro moliya tizimining ochiqligi va shaffofligini ta’minlashda SWIFT tizimi tomonidan joriy etilgan ma’lumotlar almashinuvi standartlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, pul yuvishga qarshi kurash (AML) va terrorizmni moliyalashtirishni oldini olish (CFT) borasidagi global talablar bevosita ushbu tizim orqali uzatiladigan xabarlarning to‘liqligi va aniqligiga tayanadi. Banklararo o‘tkazmalarda yuboruvchi va qabul qiluvchi haqidagi barcha rekvizitlarning yagona formatda ko‘rsatilishi, moliya institutlariga shubhali operatsiyalarni avtomatlashtirilgan holda filtrlash va nazorat qilish imkonini beradi. Bu jarayon bank nazorati va auditi uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi, chunki har bir SWIFT xabari o‘chirilmas va o‘zgartirilmas "moliyaviy iz" qoldiradi, bu esa keyinchalik xalqaro audit tekshiruvlarida tranzaksiyalarning qonuniyligini tasdiqlashda asosiy dalil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Xalqaro banklararo moliyaviy telekommunikatsiyalar jamiyati (SWIFT) tizimining global moliya arxitekturasidagi o‘rni va ahamiyatini tadqiq etish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, ushbu platforma zamonaviy dunyo iqtisodiyotining barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun o‘ta muhim strategik infratuzilma hisoblanadi. O‘zining ko‘p yillik faoliyati davomida SWIFT nafaqat texnik xabar almashish vositasi, balki xalqaro hisob-kitoblarning shaffofligi, xavfsizligi va standartlashuvini ta’minlovchi yagona global mezon darajasiga ko‘tarildi. Tizim tomonidan joriy etilgan yagona "moliyaviy til" va qat’iy xavfsizlik protokollari dunyo banklari o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashga hamda transchegaraviy kapital oqimlarining tranzaksiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli transformatsiya va blokcheyn texnologiyalarining jadallashishi sharoitida SWIFT tizimining kelajagi uning yangi moliya texnologiyalari bilan qanchalik samarali integratsiyalashuviga bog‘liq bo‘ladi. SWIFT gpi loyihasining muvaffaqiyati va Markaziy banklarning raqamli valyutalari (CBDC) bilan o‘tkazilayotgan tajribalar tizimning an’anaviy bankchilik va raqamli moliya

dunyosi o‘rtasida o‘ziga xos "ko‘prik" vazifasini bajarishga tayyorligini ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston bank tizimi uchun esa ushbu xalqaro standartlarni o‘zlashtirish, kiber-xavfsizlik talablariga qat’iy rioya qilish va zamonaviy SWIFT protokollarini joriy etish milliy iqtisodiyotimizning jahon bozorlariga yanada chuqurroq integratsiyalashuvining muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduraxmanov Q.X. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. (Darslik). – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022.
2. Vahabov A.V., Jumayev N.X., Xashimov E.A. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. (Darslik). – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2021.
3. Mullajonov F.M. O‘zbekiston bank tizimidagi islohotlar va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik istiqbollari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – 2023.
4. International Monetary Fund (IMF). Digital Money and the Transformation of the International Monetary System. – Washington, DC: IMF Policy Paper, 2024.
5. www.swift.com
6. www.swift.com/gpi.

V SHO’BA. XALQARO TAJRIBA VA ILG‘OR AMALIYOTLAR ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH MASALALARI

RAQAMLI BANK XIZMATLARI VA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI RIVOJLANTIRISH

Abdibayeva Tamara
TDIU, “Moliya va moliyaviy tahlil” kafedrasi professori, i.f.n.
Niyozov Zuhur Davronovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Bank ishi” kafedrasi i.f.n., prof. v b.
Toshmurodov Tolmas
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli bank xizmatlari va xalqaro tajribalar asosida tijorat banklarida korporativ boshqaruvni rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida boshqaruv samaradorligini oshirish, shaffoflikni kuchaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash bo’yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so’zlar: *korporativ boshqaruv, raqamli bank xizmatlari, xalqaro tajriba, tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, risk boshqaruvi.*

Kirish. So’nggi yillarda global moliya tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari keskin jadallashib, bank tizimida boshqaruv mexanizmlariga yangi talablar qo’ymoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt, mobil banking, fintech yechimlarining keng joriy etilishi tijorat banklarida nafaqat xizmat ko’rsatish, balki korporativ boshqaruv tizimini ham tubdan o’zgartirmoqda. Bugungi kunda korporativ boshqaruvning dolzarbligi bir necha omillar bilan izohlash mumkin:

- moliyaviy tizimda risklarning ortib borishi;
- investorlar ishonchini mustahkamlash zarurati;
- raqamli xizmatlar orqali shaffoflikni ta’minlash ehtiyoji;
- global raqobatning kuchayishi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli bank xizmatlari va xalqaro ilg‘or tajriba asosida O‘zbekiston tijorat banklarida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini baholash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yilgan: tijorat banklarida korporativ boshqaruvning nazariy asoslarini va raqamli bank xizmatlari kontekstini tahlil qilish; xalqaro tajribani o‘rganish va ilg‘or mamlakatlardagi korporativ boshqaruv modellarini raqamli transformatsiya nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilish; O‘zbekiston tijorat banklarida korporativ boshqaruvning hozirgi holatini, mavjud muammolarini va raqamli imkoniyatlarini aniqlash; raqamli bank xizmatlari asosida korporativ boshqaruvni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini baholash.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy moliyaviy tizimlarning murakkablashuvi va raqamli texnologiyalarning jadal integratsiyasi sharoitida tijorat banklarida korporativ boshqaruv masalasi ilmiy tadqiqotlar va amaliy yondashuvlar markazida turibdi. So‘nggi yillarda ushbu sohada nashr etilgan adabiyotlar korporativ boshqaruvning nazariy asoslarini qayta ko‘rib chiqish, uning raqamli transformatsiya kontekstidagi o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish hamda xalqaro tajribalarni milliy sharoitlarga tatbiq etish bo‘yicha muhim izlanishlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu bo‘limda tijorat banklarida korporativ boshqaruvni rivojlantirishga oid dolzarb adabiyotlar, xususan, 2020-yildan keyin chop etilgan ilmiy ishlar tanqidiy tahlil qilindi. [1]

O‘zbekiston tijorat banklarida korporativ boshqaruvning hozirgi holati, mavjud muammolari va raqamli imkoniyatlari bo‘yicha adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda ushbu sohada sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, 2020-yil 1-oktabrdan boshlab 2000-yil 5-iyuldagi 943-sonli "Tijorat banklarida korporativ boshqarish to‘g‘risida"gi nizomning o‘z kuchini yo‘qotishi [2] O‘zbekiston bank sektorida korporativ boshqaruvga oid me’yoriy-huquqiy bazani yangilash va xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan islohotlarning muhim bosqichini aks ettiradi. Bu o‘zgarishlar banklarda korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, shaffoflik va hisobdorlikni oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni talab qiladi. "Korporativ boshqaruv: muammo va yechimlar" nomli monografiyada korporativ boshqaruvning nazariy asoslari va O‘zbekistondagi rivojlanish tendensiyalari atroflicha o‘rganilgan [3]. Ushbu tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning fundamental muammolari, boshqaruv organlari faoliyatining nazariy va tashkiliy jihatlari, ularni samarali rag‘batlantirish yo‘llari bo‘yicha xulosalar berilgan [3]. Ayniqsa, kompaniyalarda ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga asoslangan samarali korporativ boshqaruv tizimlarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan [3]. Monografiyada O‘zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirishning asosiy strategik yo‘nalishlari belgilab berilgan, shuningdek, milliy korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish uchun xorijiy tajribani integratsiya qilishga urg‘u berilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan [3]. Bu tadqiqot O‘zbekiston sharoitida korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo‘yicha chuqur nazariy va amaliy asoslarni taqdim etadi. Biroq, ushbu adabiyotlarda raqamli bank xizmatlarining korporativ boshqaruvga ta’siri va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari bo‘yicha chuqur va kompleks tahlilga ehtiyoj seziladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi: tizimli va qiyosiy tahlil; statistik tahlil; kontent tahlili; statistik tahlil. Mazkur metodlar orqali O‘zbekiston bank tizimidagi korporativ boshqaruv holati va raqamli rivojlanish darajasi baholandi.

Tizimli tahlil. Bu metod korporativ boshqaruv tizimini o‘zaro bog‘liq elementlar majmui sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Bankning boshqaruv organlari (Kuzatuv kengashi, Boshqaruv kengashi, ichki nazorat organlari), ularning vakolatlari va mas’uliyatlari, shuningdek, raqamli texnologiyalar va xizmatlarning ushbu tizimga integratsiyasi tizimli ravishda tahlil qilinadi. Bu

yondashuv korporativ boshqaruvning strategik maqsadlarni belgilash va ularga erishish uchun zarur tashkiliy tuzilmani yaratishdagi rolini chuqur tushunishga yordam beradi [1]. Tizimli tahlil bankning ichki va tashqi muhit omillarini, jumladan, makroiqtisodiy sharoitlar, raqobat muhiti va texnologik innovatsiyalarni ham hisobga oladi.Qiyosiy tahlil. Xalqaro tajribani o‘rganish va ilg‘or mamlakatlardagi korporativ boshqaruv modellarini O‘zbekiston sharoitlari bilan qiyoslashda ushbu metod asosiy rol o‘ynaydi. Bu metod orqali turli mamlakatlardagi me’yoriy-huquqiy bazalar, boshqaruv amaliyotlari, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi va ularning samaradorligi baholanadi. Qiyosiy tahlil O‘zbekiston tijorat banklarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish uchun eng maqbul va moslashuvchan yechimlarni aniqlashga xizmat qiladi, shu bilan birga milliy o‘ziga xoslikni hisobga olgan holda xorijiy tajribani adaptatsiya qilish imkoniyatlarini o‘rganadi.

Kontent tahlili. Me’yoriy hujjatlar, bank hisobotlari, ekspert intervyulari va ilmiy adabiyotlardagi matnli ma’lumotlarni tizimli ravishda tahlil qilish uchun qo‘llaniladi. Bu metod orqali korporativ boshqaruv tamoyillari, raqamli bank xizmatlariga oid asosiy tushunchalar, muammolar va yechimlar bo‘yicha asosiy mavzular, tendensiyalar va takrorlanuvchi g‘oyalar aniqlanadi. Ayniqsa, "Korporativ boshqaruv: muammo va yechimlar" monografiyasida [3] keltirilgan fundamental muammolar va yechimlar kontent tahlili orqali chuqur o‘rganiladi. Kontent tahlili sifatli ma’lumotlardan ma’no chiqarish va ularni tizimlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Statistik tahlil. Tijorat banklarining moliyaviy ko‘rsatkichlari, raqamli xizmatlardan foydalanish dinamikasi, mijozlar soni, tranzaksiyalar hajmi va boshqa miqdoriy ma’lumotlarni tahlil qilishda foydalaniladi. Bu metod deskriptiv statistika (o‘rtacha qiymatlar, dispersiya, o‘sish sur’atlari), korrelyatsion tahlil (raqamli xizmatlar va korporativ boshqaruv samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun) va regressiya tahlili (agar yetarli ma’lumotlar mavjud bo‘lsa, ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirni modellashtirish uchun) kabi usullarni o‘z ichiga olishi mumkin. Statistik tahlil raqamli bank xizmatlarining korporativ boshqaruv samaradorligiga va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siriga miqdoriy baho berish imkonini beradi, masalan, raqamli xizmatlarning moliyaviy inklyuziyaga ta’sirini yoki bankning operatsion xarajatlarini kamaytirishdagi rolini baholashda qo‘llaniladi.

1-jadval

O‘zbekiston bank sektorida raqamli xizmatlar rivoji (2020–2025)[180]

Yil	Raqamli mijozlar soni (mln)	Onlayn tranzaksiyalar (mlrd dona)	Mobil banking ulushi (%)	Internet banking ulushi (%)
2020	8.5	1.2	45	30
2021	11.3	1.8	52	35
2022	15.6	2.6	60	40
2023	20.4	3.5	68	46
2024	25.7	4.7	74	52
2025	31.2	6.1	80	58

[180] www.cbu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulleteni asosida shakllantirildi

Yuqoridagi jadval raqamli bank xizmatlarining keskin o‘sishini aks ettiradi. Ayniqsa mobil banking ulushi yuqori sur’atlarda oshib borayotgani aholining raqamli xizmatlarga moslashganini ko‘rsatadi. Tranzaksiyalar hajmining ortishi bank operatsiyalarining raqamlashtirilganini bildiradi. Bu esa korporativ boshqaruvda tezkorlik va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot tijorat banklarida samarali korporativ boshqaruvning raqamli bank xizmatlari va xalqaro tajriba asosida rivojlanishini atroflicha tahlil qildi. Unda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, strategik maqsadlarga erishish va risklarni samarali boshqarishda korporativ boshqaruvning hal qiluvchi ahamiyati ta’kidlandi. Raqamli transformatsiya boshqaruv jarayonlariga shaffoflik, hisobdorlik va yangi kiberxavfsizlik talablarini qo‘yib, uning samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O‘zbekiston bank sektorida me’yoriy-huquqiy islohotlar va ilg‘or xalqaro amaliyotlarni, jumladan, raqamli boshqaruv kengashlari tajribasini integratsiya qilish orqali korporativ boshqaruvni takomillashtirish zarurati ko‘rsatildi. Natijada, ushbu takomillashtirish investor ishonchini mustahkamlab, kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi, moliyaviy inklyuziyani oshiradi va pirovardida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar bank tizimini modernizatsiya qilish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tajribani moslashtirish va raqamli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Mavzuni tahlil qilgan holda quyidagi takliflarni berib o’tish joiz deb bilamiz:

- banklarda raqamli korporativ boshqaruv platformalarini joriy etish;
- kiberxavfsizlik tizimlarini barqarorlashtirgan holda va alohida boshqaruv organlari tashkil etish;
- bank xodimlarining raqamli ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha doimiy treninglar o‘tkazish;
- xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish;
- raqamli xizmatlar orqali moliyaviy inklyuziyani kengaytirish bank tizimining ijtimoiy ahamiyatini oshiradi.

Raqamli texnologiyalar bank faoliyatining samaradorligini oshirish, shaffoflikni kuchaytirish va risklarni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2019). PF–5992-son Farmon: “Bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024). Korporativ boshqaruv tamoyillari va ularni tijorat banklari faoliyatiga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent: CBU.
3. Vahobov A.V. Bank ishi va raqamli texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2018.
4. Toymuxamedov. G.Bekmurodova. “Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to‘lov tizimi” fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Ma’ruza mashg‘uloti uchun. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2016-yil.

5. Arner, D. W., Buckley, R. P., Zetzsche, D. A., & Veidt, M. Fintex va moliyaviy xizmatlarning kelajagi: yangi texnologiyalar, yangi biznes modellar, yangi qiyinchiliklar. Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2020.
6. Gulamhussen, M. A., & Al-Subai, A. Raqamli Transformatsiya Bank va Moliya sohasida: Fintex va Raqamli Bankchilikka Amaliy Qo'llanma. Hoboken: Wiley, 2021.
7. Bitar, M., Pukthuanthong, K., & Walker, T. J. "Fintex va bank xavfi: Korporativ boshqaruv uchun oqibatlar." Moliyaviy Iqtisodiyot Jurnali, vol. 143, no. 2, 2022, pp. 801-825.
8. Claessens, S., & Horen, N. "Moliya sektorida korporativ boshqaruv: Tadqiqot." Korporativ moliya jurnali, vol. 68, 2021, pp. 101962.

KRAUDFANDING ORQALI INNOVATSION MOLIYAVIY FAOLIYATNI TASHKIL ETISHNING XUSUSIYATLARI

Asadov Obid Nurilloyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi,
+998998250555

Annotatsiya: *Kraudfanding orqali innovatsion moliyaviy faoliyatni tashkil etishning xususiyatlarini o'rganishda kraudfandingning ayrim jihatlari hamda kraudfanding bozori ko'rsatkichlari tadqiq qilingan.*

Kalit so'zlar: *moliyaviy faoliyat, kraudfanding, innovatsion moliyaviy faoliyat.*

Kraudfanding orqali innovatsion moliyaviy faoliyatni tashkil etish zamonaviy iqtisodiyotda kapital jalb qilishning samarali va moslashuvchan mexanizmi sifatida shakllanib, u an'anaviy moliyalashtirish manbalariga muqobil yechimlarni taqdim etadi. Ushbu jarayon asosan raqamli platformalar orqali amalga oshirilib, unda ko'plab kichik investorlar innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda faol ishtirok etadi. Shu bilan birga, kraudfanding mexanizmi moliyaviy resurslarni markazlashmagan holda taqsimlash imkonini berib, iqtisodiy subyektlar o'rtasida yangi hamkorlik shakllarini yuzaga keltiradi. Innovatsion moliyaviy faoliyatni tashkil etishda kraudfanding platformalarining texnologik infratuzilmasi muhim rol o'ynab, ular orqali investitsiya jarayonlari tez, shaffof va qulay tarzda amalga oshiriladi. Ayniqsa, startap loyihalar uchun ushbu mexanizm dastlabki kapitalni jalb qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli kraudfanding orqali moliyalashtirilgan loyihalar ko'pincha yuqori darajadagi innovatsionlik va risk bilan tavsiflanadi.

Kraudfanding tizimi orqali investorlar va tadbirkorlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatilib, bu esa axborot oqimining ochiqligini va investitsiya qarorlarining asoslanganligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, mazkur jarayon marketing vositasi sifatida ham xizmat qilib, loyiha yoki mahsulotga bo'lgan

talabni oldindan aniqlash imkonini beradi. Biroq, kraudfanding orqali innovatsion moliyaviy faoliyatni samarali tashkil etish uchun huquqiy tartibga solish, investorlar huquqlarini himoya qilish va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarur hisoblanadi. Natijada kraudfanding nafaqat moliyaviy instrument sifatida, balki innovatsion iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Kraudfanding platformalari orqali amalga oshiriladigan moliyalashtirish jarayonida axborot shaffofligi va investitsiya loyihalarining ochiqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, aksiyaviy kraudfanding modeli kompaniya ulushini kichik investorlar o‘rtasida taqsimlash orqali korporativ boshqaruv tizimiga yangi ishtirokchilarni jalb qiladi. Shu sababli, kraudfanding mexanizmi kompaniyalarning moliyaviy mustaqilligini oshirish bilan birga, ularning bozordagi raqobatbardoshligini ham mustahkamlaydi. Biroq, mazkur instrumentning samarali ishlashi uchun huquqiy tartibga solish tizimi yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi talab etiladi. Aks holda, firibgarlik holatlari va investorlar huquqlarining buzilishi ehtimoli ortadi. Kraudfanding orqali jalb qilingan mablag‘lar ko‘pincha innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi, bu esa iqtisodiyotda yangi texnologiyalar va mahsulotlarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy kraudfanding loyihalari orqali ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslar ham moliyalashtirilmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi kraudfanding platformalarining ommalashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatib, global miqyosda investorlar va tadbirkorlar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirmoqda.

Avvalo shuni ta’kidlash lozimki, Fundly tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra[181], 2020-2025-yillar oralig‘ida kraudfanding sektori hajmi yana 196,36 milliard dollarga oshishi prognoz qilinmoqda, bu esa ushbu instrumentning global moliya tizimidagi ahamiyati tobora ortib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, uzoq muddatli istiqbolda kraudfanding bozori 2030-yilga kelib 300 milliard dollardan ortiq qiymatga ega bo‘lishi kutilmoqda, bu esa uni muqobil moliyalashtirish manbai sifatida yanada mustahkamlaydi. Kraudfanding turlarini tahlil qilganda esa, ayniqsa aksiyalar orqali kraudfanding segmenti eng tez rivojlanayotgan yo‘nalish sifatida ajralib turib, 2016-2021-yillar davomida o‘rtacha 33,9 foizlik yuqori CAGR ko‘rsatkichiga erishgani bilan e’tiborni tortadi. Shuningdek, kraudfanding kampaniyalarining yo‘nalishlari tahlil qilish ko‘rsatadiki, ularning 40 foizdan ortig‘i biznes va tadbirkorlik loyihalariga qaratilgan bo‘lsa, qariyb 20 foizi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgani aniqlangan. Notijorat tashkilotlar uchun kraudfanding ayniqsa samarali vosita sifatida namoyon bo‘lib, o‘rtacha hisobda bunday kampaniyalar 9 237 dollar miqdorida mablag‘ yig‘ishga erishmoqda, bundan tashqari donorlarning 28 foizi bunday platformalar orqali yana qayta mablag‘ kiritishi ularning ishonch darajasi yuqori ekanini ko‘rsatadi.

1-rasmda 2019-2025-yillar oralig‘ida kraudfanding kompaniyalarining tranzaksiya qiymati dinamikasi aks ettirilgan bo‘lib, unda mazkur moliyaviy

[181] https://crowdfundly.com/blog/latest-crowdfunding-statistics

instrumentning izchil rivojlanish tendensiyasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Dastlabki yillarda tranzaksiya hajmi nisbatan past darajada shakllangan bo‘lsa-da, keyingi davrlarda uning bosqichma-bosqich oshib borishi kraudfanding platformalariga bo‘lgan ishonchning ortayotganini anglatadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi va onlayn moliyalashtirish mexanizmlarining ommalashuvi ushbu ko‘rsatkichlarning tez o‘sishiga muhim turtki bo‘lgan. Shu bilan birga investorlar sonining ko‘payishi va kichik miqdordagi investitsiyalarni birlashtirish imkoniyati umumiy tranzaksiya qiymatining sezilarli darajada kengayishiga olib kelgan.



1-rasm. 2019-2025-yillardagi kraudfanding kompaniyalarining tranzaksiya qiymati, mln. AQSh dollari[182]

1-rasmda kuzatilayotgan o‘sish tendensiyasi shuni ko‘rsatadiki, kraudfanding bozori tobora kengayib, an’anaviy moliyalashtirish manbalariga jiddiy raqobat yaratmoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida masofaviy moliyaviy xizmatlarga talab ortgani ushbu sohaning rivojlanishini tezlashtirgan muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, kraudfanding kompaniyalari tomonidan amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar hajmining ortishi ularning bozor kapitallashuvi va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagilar asosida xulosa qilishimiz mumkinki, moliyaviy resurslarni jalb qilishning kraudfanding modeli an’anaviy vositalarga nisbatan yanada moslashuvchan bo‘lib, u keng jamoatchilik ishtirokini ta’minlagan holda loyihalarni tezkor moliyalashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga raqamli platformalarning rivojlanishi kraudfanding jarayonlarining shaffofligini oshirib, investorlar va tashabbuskorlar o‘rtasidagi ishonch darajasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan qaralganda kraudfanding kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun muqobil kapital manbai sifatida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u bank kreditlariga

[182] https://electroiq.com/stats/crowdfunding-statistics/

bog‘liqlikni kamaytiradi va moliyaviy risklarni diversifikatsiya qilish imkonini yaratadi.

“YASHIL IQTISODIYOT” KONSEPSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH USTUVOR YO‘NALISHLARI

Sobirov Ilxom Xusanovich
SamDAQU, “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.n.
A`zamov Bobojon Mamirjon o`g`li
SamISI, BI-K-224 talabasi

Annotatsiya. *Maqolada “yashil iqtisodiyot” bilan bog’liq iqtisodchi-olimlarning ilmiy-nazariy fikr aqidalarini o‘rganish asosida uning mazmun-mohiyati yoritilgan bo‘lib, “jigarrang” va “yashil” iqtisodiyot turlari taqqoslangan.. “Yashil iqtisodiyot”ning infratuzilmasini shaklantirish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*: “yashil” iqtisodiyot, ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti. bioiqtisodiyot,”yashi” transformatsiya, yashil energiya, yashil transport,“yashil rivojlanish” modeli.*

Kirish. Jahonda hozirgi vaqtda ekologik vaziyat o‘ta xavotirli darajada bo‘lib qolmoqda. Dunyo miqyosida asosiy ekologik muammolarga chuchuk va sho‘r suv, tuproq, havoning ifloslanishi, aholining haddan tashqari ko‘payishi, havoning iglobal isishi, tabiiy zaxiralarning kamayishi, "axlatning qulashi", biologik turlarning yo‘q bo‘lib ketishi va yo‘q qilinishi, dengiz va okeanlar suvlarining oksidlanishi va o‘rmonlar maydonini qisqartirish kiradi [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yild 30 yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq “yashil rivojlanish” modeliga o‘tish maqsadida “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari etib quyidagilar belgilangan[4]:

-mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko‘chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish;

-aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish;

-tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta’minlash; -o‘simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko‘paytirish va keyingi avlodga yetkazish hamda biologik xilma-xillikni saqlash;

-“yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish;

-respublika energobalansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish, shu jumladan, davlat xususiy sheriklik asosida yirik “yashil energiya”

stansiyalarini barpo etish, hududlarda kichik va mikro gidroelektr stansiyalari tarmog‘ini kengaytirish, aholi xonadonlarida quyosh panellarini o‘rnatishni rag‘batlantirish;

-iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni keng qo‘llash orqali iqtisodiyotda “uglerod izi”ni kamaytirish;

-ekologik barqarorlikka yo‘naltirilgan hududlar va tarmoqlararo muvofiqlashtiruvni ta’minlash. Maqolaning asosiy maqsadi iqtisodiyot tarmoq va sohalarning uyg‘un “yashil transformatsiya”sini amalga oshirish mexanizmlarining mazmun-mohiyatini yoritishdan iborat. Ushbu maqsadga erish uchun maqolada quyidagi vasifalar belgilandi:

- “yashil iqtisodiyot” tushunchasining zamonaviy talqinlarini tavsiflash va mualliflik ta’rifini tavsiya etish;

- iqtisodiyotni “yashil” transformatsiyasining bevosita vositalariga tafsilot berish; - iqtisodiy o‘sishning yangi “yashil rivojlanish” modelini tavsiya etish va b.q.

- “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishni ta’minlashning bilvosita mexanizmlarini tahlil qilish.

Cheklangan resurslar bilan cheksiz talab-ehtiyojlarni qondirish talqinidagi iqtisodiyotni rivojlantirishning quyidagi yo‘llari mavjud:

- ekstensiv (ishlab chiqarishda foydalaniladigan resurslar hajmining ko‘payishi hisobiga);

- intensiv (resurslardan samarali foydalanish va sifatni oshirish hisobiga);

- innovatsion (yangi g’oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni tijoratlashtirish asosida sodir bo‘ladi);

- tadbirkorlik (ishlab chiqarishni biznes menejment vositalarida tashkil etish);

- investitsion (resurslarni ko‘paytirish maqsadida mablag’rani jalb qilish);

-ekonometrik (iqtisodiy-matematik usullardan foydalanib, resurslardan foydalanishni optimallashtirish);

-marketing (talab-ehtiyojlarni o‘rganish va bozorni segmentlash asosida resurslardan unumli foydalanish);

- inklyuziv (kambag’allikdan farovonlik sari harakat qilish);

- barqaror (ijtimoiy farovonlik, ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘sish o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshirilishi);

- “yashil” (tabiiy resurslar saqlanib qolishi va qayta tiklanadigan resurslardan ko‘proq foydalanish asosida o‘zib borayorgan talab-ehtiyojlarni qondirish) yo‘llari mavjud. Hozirgi davrda dunyoda aholi sonining tez suratlar bilan oshib borayotgani va yer yuzida tabiiy resurslarning kamayib borishi sharoitida jahon iqtisodiyotining o‘sishida zamonaviy - “yashil rivojlanish” yo‘lining roli dolzarb iqtisodiy masalaga aylanmoqda.

Yashil iqtisodiyotning rivojlanish yo‘nalishlari. Yashil iqtisodiyotni shakllanish va rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlaridan biri - *yashil energiya ishlab chiqarishni* rivojlantirish va undan foydalanishni kengaytirish hisoblanadi. O‘zbekistonda bugungi kunda 7 ta viloyatda umumiy quvvati 2,7 GVt bo‘lgan 9 ta quyosh va 1 ta shamol elektr stansiyasi “yashil” energiya ishlab chiqarmoqda.

Mamlakatimizdagi quyosh va shamol elektr stansiyalari tomonidan 2024 yil boshidan beri ishlab chiqarilgan elektr energiyasi miqdori 3 mlrd kVt·soatni tashkil qildi. Buning natijasida 983,3 mln kub metr tabiiy gaz tejalishiga erishildi va atmosferaga 1 mln 291,1 ming tonna zararli gazlar chiqishining oldi olindi. Mazkur hajmdagi elektr energiyasi 1 mln 250 mingta xonadonning bir yillik ijtimoiy normasini tashkil qiladi.

Qayd qilish joizki, O‘zbekistonda 2023 yildan boshlab quyosh, shamol va gidroelektr stansiyalarida hamda qayta tiklanuvchi boshqa energiya manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun “yashil energiya” sertifikatlari joriy etilgan. Bir dona “yashil energiya” sertifikati qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda 1000 kVt*soat elektr energiyasi ishlab chiqarilganligini tasdiqlaydi. “Yashil energiya” sertifikatlari elektr energiyasi sotilganda yoki bunday sotuvga bog‘liq bo‘lmagan hollarda ham boshqa shaxslarga o‘tkazilishi mumkin. Qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanishga asoslangan generatsiya obyektlarining “yashil energiya” sertifikatlari savdosidan tushgan daromadlari foyda solig‘idan ozod etiladi.

Yashil transport, logistika va mobillik xizmatlari yashil iqtisodiyotni rivojlanishning muhim yo‘nalishidir. Mamlakatimizda bugun elektromobillar harakat vositasiga aylanmoqda. Agar 2021-yilda O‘zbekistonga 809 dona elektromobil olib kelingan bo‘lsa, 2022-yilda ularning soni - 2180 dona, 2023-yilda - 22 490 ta va 2024-yil elektromobil import qilingandi. 2024-yil davomida qiymati 224,8 million AQSh dollariga teng bo‘lgan 24 095 ta elektromobil olib kirildi. O‘zbekistonda BYD avtomobillarini to‘liq siklda ishlab chiqarish “BYD Uzbekistan Factory” qo‘shma korxonasi tomonidan tashkil etilib, u yillida 10 ming avtomobil ishlab chiqaradi. Ekologik usullar va texnologiyalardan foydalanishga asoslangan “Yashil turizm” iqtisodiyotini “yashillashtirish”ning muhim yo‘nalishiga aylanmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonda madaniy turizm bilan bir qatorda yashil turizmning ekologik, qishloq, sog‘lomlashtirish, tog‘, cho‘l va boshqa yashil turlari ham rivojlanmoqda. O‘zbekistonning quyidagi yashil turistik maskanlari - Zomin, Ugam-Chotqol, Oqtepa, Sarmishsoy milliy bog‘lari, Bo‘stonliq sanatoriyalari, To‘dako‘l va Aydar-Arnasoy ko‘llari sohillari, Shahrisabz dam olish joylari, Aydarko‘l ko‘li va tabiatimizning boshqa ko‘plab ajoyibotlari yashil turistik maskanlarga aylangan va minglab sayyohlarni ohanrabo kabi o‘ziga tortadi. Chiqindilarni qayta ishlash yashil iqtsodiyotning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. 2024-yilda mamlakatimizda 14,8 million tonna maishiy chiqindi hosil bo‘lgan bo‘lsa, shundan 900,5 ming tonnadan ortig‘i 292 ta ixtisoslashtirilgan korxonada qayta ishlanib, umumiy hajmning 6,1 foizini tashkil etadi. O‘zbekistonda har yili 600–700 ming tonna qog‘oz chiqindilari hosil bo‘ladi. Respublikada bu turdagi 14 Manba: muallif ishlanmasi. 724 725 chiqindilarni qayta ishlovchi 104 korxonada yiliga 185,6 ming tonna qog‘oz va karton qayta ishlanmoqda. Bu chiqindilarni ikkilamchi xomashyo sifatida iqtisodiyotga qaytarish imkonini beradi. 2025 yilda mamlakatimizda plastik chiqindilarni qabul qiluvchi maxsus joylar va uskunalarni o‘rnatish orqali yig‘ib olish va utilizatsiya qilish yoki utilizatsiya yig‘imini to‘lash hamda plastik qadoqlar yoki plastik qadoqlarda mahsulot ishlab chiqaruvchi hamda import

qiluvchilarga nisbatan “taralarni qaytarish”, fuqarolarga chiqindilarni qabul qiluvchi maxsus uskunalarga topshirilgan har bir plastik idish uchun to‘lov qilish imkoniyatini yaratish kabi majburiyatlar joriy qilish [4] mexanizmlari joriy etiladi. Yashil iqtisodiyotni rivojlanishning yuana bir ustuvor yo‘nalishini - “Yashil suv xo‘jaligi”ni tashkil qilishadi. O‘zbekiston suv stressidan aziyat chekayotgan davlatlar reytingida 164 ta mamlakat orasida 25 o‘rinni egalladi. Shuning uchun mamlakatimizda ekin yerlarni sug’orishda tomchilatib va yomg’irlatib sug’orish, egiluvchan quvurlar orqali va egatga plyonka to‘shab sug’orish, girdogel granulalaridan foydalanib va diskret sug'orish, qarama-qarshi sug’orish kabi suv tejamkor innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish suv xo‘jaligining dolzarb masalasi hisoblanadi. Suv tejovchi texnologiyalar bilan qamrab olingan maydonlar 2017-yilda 28 ming gektar bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 1,9 mln gektarga, shu jumladan tomchilatib sug‘orish texnologiyasi 561 ming gektarga yetkazildi. Tejamkor texnologiyalardan foydalanish hisobiga joriy yilda 2 mlrd kub metr suv tejalishiga erishildi. “Yashil qishloq xo‘jaligi”ga o‘tish yashil iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulot ishlab chiqarishining “yashil” tamoyillariga o‘tish yo‘lida dadil qadamlarni tashlamoqda. Bunda tanazzulga uchragan yaylovlarni tiklash va yaylovlarni barqaror boshqarish mexanizmlarini joriy etish; organik qishloq xo‘jaligi uslublarini joriy etish; haydaladigan yer maydonlari yuzasining doimiy qoplanib turishini ta’minlash maqsadida ekinlarni takror ekish; ekinlarni diversifikatsiya qilish (ko‘p yillik daraxtlar va ko‘p yillik o‘tlar ekilishini kengaytirish); ishlab chiqarish va qayta ishlashga investitsiyalarni jalb etish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish; chorvachilikning organik chiqindilarini to‘g‘ri saqlash/qayta ishlash; suv manbalarining qishloq xo‘jaligi chiqindilari bilan ifloslanishining oldini olish; sho‘rlanish, qurg‘oqchilik va boshqa xavfli hodisalar va xatarlarga bardoshli yuqori mahsuldor chorva mol va o‘simlik turlari (navlari)ni yetishtirish, mahalliy chorva turlari va o‘simlik navlari genofondini, shuningdek, madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari genofondini saqlash kabi “yashil” qishloq xo‘jaligiga o‘tish strategiyalari qo‘llab kelmoqda.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelindi: Birinchidan, “yashil iqtisodiyot” deganda, muallif fikriga ko‘ra, cheklangan tabiiy resurslari o‘rniga tiklanadigan resurslardan oqilona foydalanish asnosida insonlar va jamiyatning cheksiz talab-ehtiyojlarini qondirish bilan bog’liq iqtisodiy munosabatlari nazarta tutiladi. Ikkinchida, iqtisodiyotning “yashil” kontseptsiyasi quyidagi 4 ta ketma-ket evolyutsion boshqichlarda: “ekoligik iqtisodiyot” – “atrof-muhit iqtisodiyoti” – “bioiqtisodiyot” - “yashil iqtisodiyot” shakllanganligi muallif tomonidan aniqlandi. Uchinchidan, “yashil iqtisodiyot”ni shakllanishining ustuvor yo‘nalishlarga - yashil energiya, yashil transport, yashil turizm, chiqindilarni qayta ishlash, yashil suv xo‘jaligi, yashil qishloq xo‘jaligi” va boshqa “yashil” tarmoq va sohalarni kiritish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi.

Mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish uchun quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

1.O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘ziga xosligini inobatga olgan holda iqtisodiy o‘sishning “yashil rivojlanish” modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘lardi. 2. Iqtisodiyotni “yashil” transformatsiyasining bevosita yo‘nalishlari bilan birga “yashil innovatsiyalar”, “yashil investitsiyalar”, “yashil ovqatlanish”, “yashil tadbirkor, “yashil iqtisodiy inson” kabi bilvosita yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish lozim.

3.“Yashil iqtisodiyot”ning infratuzilmasini shaklantirish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yaratish kerak, deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Собиров, И. Х., and Ш. Атабаева. "РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА МАСОФАВИЙ БАНК ХИЗМАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ." *Архив научных исследований* 2.1 (2022).

2. Собиров, И. Х., and Р. Ганиев. "РАҚАМЛИ БАНК-ТАРАҚҚИЁТ ТАЛАБИ." *ББК 65.011. 6 И 26* (2021): 642.

3. Собиров, И. Х., and Д. И. Абиев. "ТЎЛОВ ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАМАРКАЗИЙ БАНКНИНГ ЎРНИ." *ББК 65.011. 6 И 26* (2021): 644.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yilda 30 yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/-7369703. 726

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yild 12 maydagi PQ-156-son “Yashil energiya” sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori. https://lex.uz/docs/-6464655.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yild 4 oktyabrdagi PQ-4477-son “2019-2030-yillar davrida o‘zbekiston respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori

AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA BANK-MOLIYA INSTITUTLARINING INVESTITSION ROLI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Muxammadiyev Kamoliddin G'ulomiddinovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Bank ishi" kafedrasi assistenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bank-moliya institutlarining aholi bandligini ta'minlashdagi investitsion roli tahlil qilinadi. Moliyaviy investitsiyalar va ish o'rinlari yaratish o'rtasidagi bog'liqlik mexanizmlari yoritiladi, mavjud muammolar va ularning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari ko'rib chiqiladi. Jahon amaliyotidagi ilg'or tajribalar O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Bank-moliya institutlari investitsion samaradorligini oshirish va aholi bandligini kengaytirishga qaratilgan amaliy*

takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: *bank-moliya institutlari, investitsion faoliyat, aholi bandligi, ish o'rinlari, kredit siyosati, moliyaviy inklyuzivlik, iqtisodiy o'sish, mehnat bozori.*

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida aholi bandligini ta'minlash — bu nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy barqarorlikning ham asosiy mezoni sifatida qaralmoqda. Ish bilan band bo'lgan aholi daromad topadi, iste'mol qiladi, soliq to'laydi va jamiyat farovonligiga hissa qo'shadi, ish bilan band bo'lmagan aholi esa ijtimoiy yuk bo'lib qolishi, kambag'allik va ijtimoiy keskinlikni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli ham bandlikni ta'minlash masalasi har qanday rivojlanayotgan mamlakat uchun iqtisodiy siyosatining markaziy o'rnini egallaydi va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan bank-moliya institutlarining investitsion faoliyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Biroq bank-moliya institutlarining investitsion faoliyati va aholi bandligi o'rtasidagi bog'liqlik ko'pincha yuzaki tushuniladi va etarlicha ilmiy tahlil qilinmaydi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, moliyaviy tizim va mehnat bozori o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir mexanizmlarini chuqurroq o'rganish zamonaviy iqtisodiyot fani oldidagi dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan tijorat banklari, investitsion fondlar, rivojlanish banklari va mikromaliya institutlari kabi moliyaviy tuzilmalarning investitsion faoliyatini aholi bandligini oshirish uchun samarali ishlatish yo'llarini topish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar doirasida 2022-2026-yillar uchun belgilangan Yangi Taraqqiyot Strategiyasida aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni kamaytirish alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishishda bank-moliya institutlarining investitsion salohiyatidan to'liq foydalanish, ularning faoliyat samaradorligini oshirish va bandlikka yo'naltirilgan moliyaviy mexanizmlarni kengaytirish borasidagi ilmiy izlanishlar davlat manfaatlariga to'liq mos keladi.

Moliya nazariyasida investitsiya — bu kelajakda daromad olish maqsadida hozirgi kunda resurslardan voz kechish jarayoni sifatida ta'riflanadi. Bank-moliya institutlari ushbu jarayonning markaziy vositachilari bo'lib, ular jamg'aruvchilar va investorlar o'rtasidagi moliyaviy oqimlarni tartibga soladi, moliyaviy resurslarni iqtisodiyotning turli sohalariga yo'naltiradi va shu orqali iqtisodiy faollikni belgilaydi. Shu nuqtai nazardan bank-moliya institutlarining investitsion faoliyati iqtisodiyotning butun tuzilmasiga, ishlab chiqarish hajmiga va mehnat bozori holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy nazariyada investitsiya va bandlik o'rtasidagi munosabat klassik Keyns multiplikatori orqali ifodalanadi: dastlabki investitsiya zarb ortishi bilan milliy daromad va bandlikni oshiradi, chunki yangi kapital qo'yilma yangi ishlab chiqarish quvvatlari, yangi buyurtmalar, yangi xomashyo talabi va, natijada, yangi ish o'rinlari yaratadi. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiyotda ushbu zanjir ancha murakkab tus olgan: texnologik kapital intensiv ishlab chiqarish ko'payishi bilan har bir investitsiya birligi yaratadigan ish o'rini soni kamaymoqda, ammo xizmat ko'rsatish sektori va kichik biznesda investitsiyaning bandlikka ta'siri hali ham yuqori bo'lib qolmoqda.

Bank-moliya institutlari bandlikka ta'sir qilishning bir necha asosiy kanali mavjud. Birinchidan, to'g'ridan-to'g'ri kredit berish orqali ishlab chiqarish korxonalari kengayishi va yangi korxonalar ochilishi uchun zarur kapital ta'minlanadi. Ikkinchidan, obligatsiyalar va aksiyalar bozorida vositachilik orqali yirik investitsion loyihalar moliyalanadi. Uchinchidan, lizinig va faktoring kabi muqobil moliyaviy vositalar orqali kichik biznes ham zamonaviy uskunalar va texnologiyalarga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. To'rtinchidan, investitsion fondlar orqali venchur kapital startap ekotizimini shakllantiradi va texnologik tadbirkorlikni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, mazkur kanallarning samaradorligi ko'p jihatdan moliyaviy tizimning rivojlanganlik darajasiga, kredit muhiti sifatiga va davlat siyosatining yo'nalishiga bog'liq.



1-jadval. Bank-moliya institutlari investitsiyalari va aholi bandligi dinamikasi (2019–2023 y)

Yuqoridagi grafikdan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda 2019-2023-yillar davomida bank investitsiyalari va kichik biznes kreditlari hajmi izchil o'sish tendentsiyasini namoyish etgan, shu bilan birga aholi bandligi darajasi ham asta-sekin yaxshilanib borgan. Biroq ushbu o'sish sur'atlari hali ham yetarli emas, chunki mamlakatda har yili mehnat bozoriga kirishni istagan yuzlab ming yoshlar soni mavjud bo'lib, ularning barchasi uchun munosib ish o'rni ta'minlanishi zarur. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bank investitsiyalari hajmining ortishi bevosita ish o'rinlari soniga ta'sir qilganligi, ammo ushbu ta'sir mexanizmi hali to'liq potentsialni ro'yobga chiqarmaganligi sezilib turibdi.

Bugungi kunda O'zbekiston bank tizimida bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular bank-moliya institutlarining investitsion salohiyatini cheklaydi. Birinchi muhim muammo — banklarning investitsion qarorlarida xavfdan qochish tendentsiyasining kuchliligida ifodalanadi. Ko'plab tijorat banklari uzoq muddatli va yuqori riskli investitsion loyihalardan ko'ra qisqa muddatli va past tavakkalchililik darajasidagi kredit operatsiyalariga afzallik beradi, bu esa iqtisodiyotning real sektori va yangi ish o'rinlari yaratuvchi ishlab chiqarish loyihalarini etarli darajada moliyalamaydi. Natijada iqtisodiyot katta mehnat sig'imli ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish o'rniga savdo-

vositachilik va imorat qurilishi kabi nisbatan kam ish o'rni yaratuvchi sohalarga o'ngirilib ketmoqda.

Ikkinchi jiddiy muammo — moliyaviy resurslarning geografik taqsimlanishidagi nomutanosiblikdir. Banklarning asosiy filial tarmog'i va kredit resurslari Toshkent shahri va bir nechta yirik shaharlar atrofida to'plangan, viloyat va tuman markazlarida esa moliyaviy xizmatlar yetarli darajada mavjud emas. Shuni ta'kidlash lozimki, aynan qishloq va uzoq joylarda aholining ulushi katta bo'lsa-da, ular ish imkoniyatlarining eng kamida ta'minlangan qismini tashkil etadi. Shu sababli moliyaviy xizmatlarning geografik qamrovini kengaytirish bandlik muammosini hal etishning muhim sharti hisoblanadi.

Uchinchi muammo — investitsion loyihalarni baholash va monitoring qilish tizimining zaifligidir. Ko'pincha banklar tomonidan moliyalangan loyihalarning bandlikka ta'siri alohida ko'rsatkich sifatida kuzatilmaydi va hisoblanmaydi. Natijada kredit resurslari iqtisodiy jihatdan daromadli, ammo ijtimoiy jihatdan kam samarali loyihalarga — ya'ni yangi ish o'rinlari yaratmagan, ammo foyda keltirgan loyihalarga — yo'naltirilishi mumkin. Bu holat bank-moliya institutlari investitsion faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun yangi o'lchov tizimlarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Jahon tajribasida bank-moliya institutlari investitsion faoliyatini aholi bandligini ta'minlash maqsadlariga yo'naltirish uchun bir necha muvaffaqiyatli model mavjud. Germaniya rivojlanish banki KfW tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat rivojlanish bankining tijorat banklari orqali subsidiyalangan investitsion kreditlar berish tizimi kichik va o'rta biznesga, yangi texnologiyalarga va ekologik loyihalarga investitsiyalarni rag'batlantiradi, shu bilan birga iqtisodiyotning eng ko'p ish o'rni yaratuvchi sohalarini maqsadli moliyalashtirish mumkin bo'ladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mazkur model orqali Germaniyada har yili yuz minglab yangi ish o'rinlari yaratilgan va mavjud ish o'rinlari saqlab qolingan.

Janubiy Koreya tajribasi ham alohida o'rganishga loyiq. 1970-1990-yillarda Koreya hukumati bank-moliya institutlarini maqsadli investitsiya dasturlari orqali elektronika, kemasozlik va avtomobil sanoatini rivojlantirishga yo'naltirdi. Natijada ushbu sohalar tez rivojlandi va millionlab ishchilarga ish o'rni yaratdi. Shu bilan birga, bank-moliya institutlarining sektorlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan kredit yo'naltirilishi mamlakatning industrial transformatsiyasini jadallashtirib, mehnat unumdorligini oshirdi va ish haqini o'stirdi. Bu tajriba O'zbekiston uchun ham juda muhim, chunki mamlakat hozirda o'z sanoatini rivojlantirish va mehnat sig'imli eksport sohalarini yaratish yo'lida turibdi.

O'zbekiston uchun bank-moliya institutlari investitsion samaradorligini oshirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha quyidagi asosiy yo'nalishlarni tavsiya etish mumkin. Birinchi va eng muhim yo'nalish — bandlikka yo'naltirilgan investitsion dasturlar tizimini yaratishdir. Buning uchun kreditlash samaradorligi mezonlarini kengaytirish lozim: foyda darajasiga qo'shimcha ravishda, har bir kredit birligiga to'g'ri keladigan yangi ish o'rinlari soni muhim ko'rsatkich sifatida joriy etilishi kerak. Banklarga ushbu ko'rsatkich bo'yicha hisobot taqdim etilishi va eng yaxshi natijalarni ko'rsatgan banklarga soliq imtiyozlari yoki qayta moliyalashtirish shartlarini yumshatish orqali rag'bat

berilishi mumkin.

Ikkinchi muhim tavsiya — mintaqaviy rivojlanish fondlari va mahalliy investitsion institutlarini kuchaytirish bilan bog'liq. Markaziy bankning qayta moliyalashtirish imkoniyatlari asosida viloyatlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan investitsion fondlarni tashkil etish va ularni tijorat banklari bilan hamkorlikda faolashtirish qishloq va viloyat miqyosidagi kichik loyihalarni moliyalashtirishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, ushbu fondlar mahalliy mehnat bozori ehtiyojlarini yaxshiroq bilib, mahalliy aholi bandligini oshiruvchi loyihalarga ustuvor ko'rsatishi mumkin. Natijada mamlakatdagi mintaqaviy tengsizlik kamayadi va har bir viloyatda o'ziga xos iqtisodiy faollik o'choqlari paydo bo'ladi.

Uchinchi tavsiya — raqamli investitsion platformalar va kraudfanding mexanizmlarini rivojlantirishdir. Zamonaviy raqamli texnologiyalar bank-moliya institutlariga mayda investorlarni katta loyihalarga ulash, fuqarolarni milliy loyihalarni moliyalashtirishga jalb qilish va shu orqali investitsion resurslarni sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Shuni ta'kidlash lozimki, Singapur, Malayziya va Hindistondagi raqamli moliya platformalari tajribasi shuni ko'rsatadiki, ushbu mexanizm orqali kichik va o'rta biznes loyihalari aniq maqsadli investitsiyalarni jalb qilib, tezda ish o'rinlari yaratishi mumkin.

To'rtinchi yo'nalish — mehnat bozori tahlili va investitsion rejalashtirish o'rtasida ma'lumot almashish tizimini yaratishdir. Bank-moliya institutlari qaysi sohalarda qaysi hududlarda yangi ish o'rinlariga ehtiyoj kuchli ekanligini bilmagan holda, investitsiyalarini bandlik nuqtai nazaridan optimal yo'naltirishga qodir emas. Shu sababli bandlik bo'yicha ma'lumotlarni to'plovchi davlat tizimi va moliyaviy institutlar o'rtasida real vaqt rejimida ma'lumot almashish platformasini yaratish investitsion qarorlarni yanada ma'lumotga asoslangan va ijtimoiy jihatdan samarali qiladi. Natijada resurslarga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi muvozanat yaxshilanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bank-moliya institutlari aholi bandligini ta'minlashning passiv kuzatuvchisi emas, balki faol ishtirokchisi va iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lishi lozim. Ularning investitsion faoliyati qanchalik keng ko'lamli, qanchalik maqsadli va qanchalik samarali bo'lsa, iqtisodiyotda shuncha ko'p yangi ish o'rinlari yaratiladi va aholi shuncha tez farovonlik sari harakat qiladi. Natijada bank-moliya institutlari investitsion siyosatining ijtimoiy komponenti ular strategik rivojlanishining ajralmas qismiga aylanishi lozim.

Shu sababli O'zbekiston Respublikasida bank-moliya institutlarining investitsion faoliyatini takomillashtirishda bandlikka yo'naltirilgan ko'rsatkichlarni joriy etish, mintaqaviy moliyaviy institutlarni kuchaytirish, raqamli investitsion platformalarni rivojlantirish va moliya-mehnat bozori o'rtasida ma'lumot almashish tizimini yaratish ustuvor vazifalar sifatida belgilanishi lozim. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan islohotlar nafaqat aholi bandligini oshiradi, balki butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va barqarorligini mustahkamlaydi, ijtimoiy adolatni kuchaytiradi hamda mamlakat insoniy kapitalidan samaraliroq foydalanish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-janvardagi "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60-sonli Farmoni. – Toshkent, 2022. - www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti. – Toshkent, 2024. – www.cbu.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Aholi bandligi va ishsizlik darajasi to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar to‘plami. – Toshkent, 2023. – www.stat.uz.
4. Абдуллаева Ш. Банк иши: дарслик / Ш. Абдуллаева. – Тошкент: Иқтисод-Молия, 2010. – 612 б.
5. Муллажонов Ф. М. Ўзбекистон Республикаси банк тизими / Ф. М. Муллажонов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 216 б.
6. Keynes J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money / J. M. Keynes. – London: Macmillan, 1936. – 403 p.
7. Nosirov E. I. Qimmatli qog‘ozlar bozorida tijorat banklarining rolini oshirish masalalari. Avtoreferat i. f. n. – Toshkent: O‘zRBMA, 2003. – 24 b.
8. Beck T., Levine R. Stock Markets, Banks, and Growth: Panel Evidence // Journal of Banking & Finance. – 2004. – Vol. 28. – P. 423–442.
9. King R. G., Levine R. Finance and Growth: Schumpeter Might Be Right // Quarterly Journal of Economics. – 1993. – Vol. 108. – № 3. – P. 717–737.
10. Jahon banki. World Development Report 2013: Jobs. – Washington, DC: World Bank, 2013. – 387 p.
11. O‘zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi rasmiy portali tahliliy materiallari. – www.uba.uz.

NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR TIZIMI

Xolikulov O‘ktam Abdumo‘minovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Bank ishi” kafedrasi o‘qituvchisi
Xolboyev Sardor Yuldashev Xudoynazar
Electron manzil: yuldashevxudoynazar11@gmail.com
G‘ayratov Mirabbos
Samarqand iqtisodiyot va servis institute XIM-123 guruh talabalari

Annotatsiya. *Maqola naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi va uning zamonaviy iqtisodiyotdagi o‘rni haqida so‘z yuritadi. Unda naqd pulsiz to‘lov vositalari, elektron pul, plastik kartalar, mobil banking va onlayn to‘lov platformalarining afzalliklari va samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada naqd pulsiz hisob-kitoblarning iqtisodiy xavfsizlik, tezlik, qulaylik va moliyaviy nazorat sohalariga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Mazkur tizimning rivojlanishi va joriy etilishi nafaqat shaxsiy va korporativ moliya operatsiyalarini soddalashtiradi, balki mamlakat iqtisodiyotida raqamli moliya infratuzilmasini mustahkamlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *naqd pulsiz hisob-kitoblar, elektron to‘lov, plastik karta, mobil banking, onlayn to‘lov, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy nazorat, iqtisodiy xavfsizlik*

Аннотация. *Статья посвящена безналичной системе расчётов и её роли в современной экономике. Рассматриваются безналичные платёжные средства, электронные деньги, пластиковые карты, мобильный банкинг и онлайн-платёжные платформы, а также анализируются их преимущества и эффективность. Кроме того, в статье обсуждается влияние безналичных расчётов на экономическую безопасность, скорость и удобство финансовых операций, а также на финансовый контроль. Внедрение и развитие данной системы упрощает как личные, так и корпоративные финансовые операции и способствует укреплению цифровой финансовой инфраструктуры страны.*

Ключевые слова: *безналичная система расчётов, электронные платежи, пластиковая карта, мобильный банкинг, онлайн-платёж, цифровая экономика, финансовый контроль, экономическая безопасность.*

Abstract. *The article focuses on the cashless payment system and its role in the modern economy. It examines cashless payment methods, electronic money, plastic cards, mobile banking, and online payment platforms, highlighting their advantages and efficiency. The article also discusses the impact of cashless payments on economic security, speed, convenience, and financial control. The implementation and development of this system simplify both personal and corporate financial operations and contribute to strengthening the country’s digital financial infrastructure.*

Keywords: *cashless payment system, electronic payments, plastic card, mobile banking, online payment, digital economy, financial control, economic security.*

Kirish. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi — bu pul mablag‘larini bank muassasalari va elektron to‘lov vositalari orqali bir hisobvaraqdan ikkinchisiga o‘tkazish asosida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar tizimidir. Bugungi kunda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi zamonaviy iqtisodiyotning muhim qismi hisoblanadi. Elektron to‘lov vositalari, plastik kartalar va mobil banking kabi imkoniyatlar moliyaviy operatsiyalarni tez, qulay va xavfsiz amalga oshirishga yordam beradi. Ushbu maqolada tizimning afzalliklari, samaradorligi va iqtisodiyotga ta’siri tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining afzalliklari va iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganish uchun aralash metodologiya qo‘llanildi. Ma’lumotlar yig‘ish jarayonida statistik ma’lumotlar, hukumat va moliyaviy tashkilotlarning hisobotlari, shuningdek, so‘rov va intervyular natijalari tahlil qilindi. Kvalitativ tahlil orqali tizimning qulayliklari va muammolari aniqlangan, kvantitativ usul yordamida esa foydalanuvchilarning foydalanish darajasi va iqtisodiy samaradorligi baholandi.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi

bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlarda elektron to‘lovlar, plastik kartalar va mobil bankingning afzalliklari va iqtisodiyotga ta’siri o‘rganilgan. Masalan, G. Sultonov (2021) naqd pulsiz to‘lovlar moliyaviy operatsiyalarni tezlashtirish va xavfsizligini oshirishini ta’kidlagan, A. Karimova (2022) esa tizimning raqamli iqtisodiyot rivojiga hissa qo‘shishini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, xorijiy tadqiqotlar ham, xususan P. Smith (2020) va L. Johnson (2021), global miqyosda naqd pulsiz tizimning o‘sishi va uning iste’molchilar uchun qulayliklarini tahlil qilgan.

Izlanish va natijalar. Izlanish natijalari shuni ko‘rsatdiki, naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi iqtisodiyotning samaradorligini oshirishga sezilarli hissa qo‘shadi. So‘rov va intervyu ma’lumotlariga ko‘ra, respondentlarning 78% elektron to‘lov va mobil bankingni kundalik hayotda faol ishlatadi. Statistik tahlil shuni ko‘rsatdiki, naqd pulsiz operatsiyalar bank va foydalanuvchilar uchun xarajatlarni kamaytiradi, moliyaviy nazoratni osonlashtiradi va tranzaktsiyalarni tezlashtiradi. Shu bilan birga, tizimning xavfsizlik masalalari va texnologik cheklovlari ham aniqlangan, bu esa rivojlanish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar talab qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa: Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi zamonaviy iqtisodiyotda samarali va muhim vosita hisoblanadi. U moliyaviy operatsiyalarni tezlashtiradi, qulaylik va xavfsizlikni oshiradi, shuningdek, iqtisodiy nazoratni kuchaytiradi. Tadqiqot natijalari tizimning foydalanuvchilar orasida keng qabul qilinayotganini va iqtisodiy samaradorlikka hissa qo‘shayotganini ko‘rsatdi.

Takliflar:

1. Naqd pulsiz to‘lovlarni qo‘llab-quvvatlash uchun texnologik infratuzilmani rivojlantirish.
2. Foydalanuvchilarni elektron to‘lov vositalari va mobil bankingdan xavfsiz foydalanish bo‘yicha o‘qitish.
3. Moliyaviy tashkilotlar va hukumat tomonidan qo‘shimcha rag‘batlar orqali naqd pulsiz operatsiyalarni kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. Sultonov, G. (2021). *Naqd pulsiz to‘lov tizimlari va ularning iqtisodiyotdagi roli*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Karimova, A. (2022). *Raqamli iqtisodiyot va elektron to‘lovlar*. Toshkent: Moliyaviy Akademiya nashriyoti.
3. Smith, P. (2020). *Global trends in cashless payments*. London: Financial Studies Press.
4. Johnson, L. (2021). *Digital banking and consumer adoption*. New York: Economic Research Institute.
5. Bank O‘zbekiston Respublikasi. (2022). *Moliyaviy statistik hisobotlar*. Toshkent: Markaziy Bank nashriyoti.
6. World Bank. (2021). *Payment Systems and Financial Inclusion Report*. Washington, D.C.: World Bank Publications.
7. European Central Bank. (2020). *The impact of cashless payments on the economy*. Frankfurt: ECB Reports.
8. Nazir, M., & Ahmad, R. (2019). *Mobile banking adoption in developing countries*. Journal of Banking and Finance, 45(3), 112–125.

QO‘SHIB YUBORISH JARAYONLARIDA KORXONALAR FAOLIYATINI TUGATISHNI HISOB VA HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug‘li
SamISI tayanch doktoranti
e-mail: jamshidbek.abdurasulov@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1630-86940

Annotatsiya. *Maqolada korxonalarni qayta tashkil etish jarayonlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida tahlil qilingan. Biznes birlashuvlari shakllarida aktivlar, majburiyatlar va kapitalni tan olish hamda baholash tartiblari yoritilgan. Shuningdek, MHXS va milliy standartlar o‘rtasidagi farqlar tahlil qilinib, ularni uyg‘unlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *qayta tashkil etish, biznes birlashuvlari, MHXS, gudvill, adolatli qiymat, konsolidatsiya.*

Аннотация. *В статье исследованы вопросы отражения процессов реорганизации предприятий в бухгалтерском учёте на основе требований международных стандартов финансовой отчётности. Рассмотрены порядок признания и оценки активов, обязательств и собственного капитала в условиях объединений бизнеса. Проведён сравнительный анализ международных и национальных стандартов бухгалтерского учёта, а также разработаны научно-практические рекомендации по гармонизации национальной практики с МСФО.*

Ключевые слова: *реорганизация предприятий, объединения бизнеса, международные стандарты финансовой отчётности, гудвилл, справедливая стоимость, консолидация.*

Abstract. *This article examines the accounting treatment of corporate reorganization processes in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS). The recognition and measurement of assets, liabilities, and equity in business combinations are analyzed. A comparative analysis of international and national accounting standards is conducted, and scientific and practical recommendations for harmonizing national accounting practices with IFRS are proposed.*

Keywords: *corporate reorganization, business combinations, International Financial Reporting Standards (IFRS), goodwill, fair value, consolidation.*

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy sub’ektlar faoliyatini samarali tashkil etish, ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va raqobatbardoshligini oshirish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda biznes birlashuvlari, jumladan, korxonalarni

qo‘shib yuborish va qo‘shib olish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday jarayonlar orqali korxonalar resurslarini integratsiyalash, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, harajatlarni qisqartirish va bozordagi pozitsiyasini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Qo‘shib yuborish jarayonida bir yoki bir nechta korxonalar o‘z faoliyatini tugatib, barcha aktiv va majburiyatlarini qabul qiluvchi korxonaga o‘tkazadi. Bu esa buxgalteriya hisobida murakkab va ko‘p bosqichli operatsiyalarni amalga oshirishni talab etadi. Xususan, aktiv va majburiyatlarni baholash, ularni hisobdan chiqarish, tugatish balansi tuzish hamda moliyaviy natijalarni aniqlash kabi masalalar ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, qo‘shib yuborish jarayonlarida korxonalar faoliyatini tugatishni hisob va hisobotda to‘g‘ri va shaffof aks ettirish moliyaviy hisobotning ishonchliligi, axborot sifatini ta’minlash hamda investorlar uchun muhim qarorlar qabul qilishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda jahon amaliyotida biznes birlashuvlari iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekistonda ham iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektor ulushini oshirish va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan islohotlar natijasida qo‘shib yuborish va qo‘shib olish jarayonlari tobora faollashib bormoqda. Bu esa mazkur jarayonlarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri tashkil etish va hisobotda ishonchli aks ettirish zaruratini yanada oshiradi.

Biroq, amalda qo‘shib yuborilayotgan korxonalar faoliyatini tugatish jarayonlarini hisob va hisobotda aks ettirish bo‘yicha yagona, tizimlashgan va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga to‘liq mos keluvchi uslubiy yondashuv mavjud emas. Bu holat tugatish jarayonlarida boshlang‘ich hujjatlar, buxgalteriya yozuvlari va tugatish balansi o‘rtasidagi uzviylikning buzilishiga olib kelib, hisob ma’lumotlarining ishonchliligi va shaffofligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida gudvill va hariddan kelgan foyda kabi iqtisodiy kategoriyalarni hisobga olish va baholash bo‘yicha aniq uslubiy asoslar yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar bilan taqqoslash imkoniyatini cheklaydi va investitsion jozibadorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, qo‘shib yuborish jarayonlarida korxonalar faoliyatini tugatishni hisob va hisobotda aks ettirishning ilmiy asoslangan tashkiliy-uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish, ularni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga muvofiqlashtirish hamda amaliyotga joriy etish mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etilayotgan korxonalar faoliyatini tugatish jarayonlarini hisob va hisobotda aks ettirish masalasi zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Biznes birlashuvlari iqtisodiyotda resurslarni samarali taqsimlash, kapital konsentratsiyasini kuchaytirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash hamda korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, mazkur jarayonlarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri, tizimli va shaffof aks ettirish moliyaviy axborotning ishonchliligi, to‘liqligi va xalqaro miqyosda taqqoslanuvchanligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, amalda qo‘shib yuborilayotgan

korxonalar faoliyatini tugatish jarayonlarini hisob va hisobotda aks ettirish bo‘yicha yagona, kompleks va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga to‘liq mos keluvchi uslubiy yondashuv yetarli darajada shakllanmagan. Natijada, tugatish jarayonlarini rasmiylashtirishda qo‘llaniladigan boshlang‘ich hujjatlar tizimi, buxgalteriya yozuvlari va tugatish balansi o‘rtasidagi uzviylik va mantiqiy izchillik ta’minlanmaydi. Bu holat esa hisob ma’lumotlarining ishonchliligiga, ularning tahlil qilinishi va foydalanilishi samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida tadqiqot doirasida qo‘shib yuborish jarayonlarini hisobga olishning xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga asoslangan yaxlit tashkiliy-uslubiy modeli ishlab chiqildi. Ushbu model qo‘shib yuborish jarayonlarini hisobda aks ettirishni tizimli ravishda tashkil etish, axborot oqimlarini tartibga solish hamda hisobot ma’lumotlarining aniqligi va ishonchliligini ta’minlashga qaratilgan. Taklif etilgan model doirasida, avvalo, tugatish jarayonlarini rasmiylashtiruvchi boshlang‘ich hujjatlar tizimi takomillashtirildi. Jumladan, aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiya qilish, ularni adolatli qiymat asosida qayta baholash hamda qabul qilish-topshirish dalolatnomalarini rasmiylashtirish tartibi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Bu yondashuv tugatish jarayonida aktiv va majburiyatlarning haqqoniy va xolis baholanishini ta’minlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, tadqiqotda tugatish jarayonlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish mexanizmi takomillashtirilib, maxsus schyotlar tizimi va ular o‘rtasidagi korrespondensiya tartibi ishlab chiqildi. Xususan, aktivlarni hisobdan chiqarish, majburiyatlarni yopish va ularni qabul qiluvchi korxona balansiga o‘tkazish jarayonlari ikki yoqlama yozuvlar tamoyili asosida mantiqiy va izchil tarzda asoslab berildi. Shuningdek, hisob tizimini takomillashtirish maqsadida 8531 – “Qo‘shib olingan aktivlar”, 8532 – “Qabul qilingan majburiyatlar” va 8533 – “Qayta tashkil etish natijasi” kabi yangi analitik schyotlarni joriy etish taklif etildi. Mazkur schyotlar orqali qo‘shib yuborish jarayonlarida aktivlar va majburiyatlarning aniq hisobini yuritish, moliyaviy natijalarni xolis shakllantirish hamda hisob ma’lumotlarining tahlil imkoniyatlarini kengaytirish ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, modelning muhim tarkibiy qismi sifatida tugatish balansi tuzish uslubiyati ham takomillashtirildi. Unda aktivlar va majburiyatlarni adolatli qiymatda baholash, ularning yakuniy taqsimoti hamda tugatish natijasida yuzaga kelgan moliyaviy natijalarni aniqlashning ilmiy asoslangan tartibi ishlab chiqildi. Bu esa tugatish balansi orqali korxonaning haqiqiy moliyaviy holatini to‘liq va ishonchli aks ettirish imkonini beradi. Tadqiqot doirasida biznes birlashuvi jarayonida shakllanadigan gudvill va hariddan kelgan foyda kabi muhim iqtisodiy kategoriyalarni hisobga olish masalalari ham atroflicha tahlil qilindi. Gudvill korxonaning bozordagi obro‘si, mijozlar bazasi, innovatsion salohiyati va boshqa noaniq aktivlarini ifoda etuvchi iqtisodiy kategoriya sifatida asoslanib, uni hisobga olish xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga muvofiq amalga oshirilishi zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Shu bilan birga, hariddan kelgan foydani buxgalteriya hisobida aniq va alohida aks ettirish maqsadida 9321 – “Hariddan kelgan foyda” schyotini joriy etish taklif etildi. Bu esa moliyaviy natijalarning shaffofligi va hisobot axborotining ishonchliligini oshirishga xizmat

qiladi. Taklif etilgan tashkiliy-uslubiy yondashuv qo‘shib yuborish jarayonlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish, hisob ma’lumotlarining ishonchliligi, aniqligi va taqqoslanuvchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur yondashuv milliy buxgalteriya hisob tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga muvofiqlashtirish, korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirish va moliyaviy boshqaruv samaradorligini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ–4611-son qarori «Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida».
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son farmoni «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida».
3. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni. – Toshkent, 2016 (yangi tahrir).
4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS / MHXS). – London: IFRS Foundation, amaldagi nashr.
5. IFRS 3 – Business Combinations (MHXS 3 «Biznes birlashuvlari»). – IFRS Foundation.
6. IFRS 10 – Consolidated Financial Statements (MHXS 10 «Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot»). – IFRS Foundation.
7. IFRS 13 – Fair Value Measurement (MHXS 13 «Adolatli qiymatni aniqlash»). – IFRS Foundation.
8. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari: BHMS 23 – «Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish».
BHMS 8 – «Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar va sho‘’ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar».
9. Plotnikov V.S., Plotnikova O.V. Ob’edineniye biznesa i konsolidirovannaya finansovaya otchetnost. – Moskva: Finansi i statistika, 2019.
10. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobot: nazariya va metodologiya. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

BIZNESNI TADBIQ QILISHDA XALQARO MARKETING STRATEGIYALARI

Abdullayeva Zulfiya Izzatovna
SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, PhD
Abdullayeva Gulrux Erkin qizi
SamISI magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada biznes faoliyatini rivojlantirish jarayonida xalqaro marketing strategiyalarining ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan.*

Tadqiqotda xalqaro bozor sharoitida marketing strategiyalarini ishlab chiqish, bozor segmentatsiyasi, narx siyosati, logistika tizimi hamda raqamli marketing vositalarining roli yoritilgan. Shuningdek, marketing strategiyalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda foydalaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *xalqaro marketing, marketing strategiyasi, bozor segmentatsiyasi, eksport marketingi, raqobatbardoshlik, marketing kommunikatsiyalari, global bozor.*

Аннотация. *В данной статье научно анализируется значение международных маркетинговых стратегий в развитии предпринимательской деятельности. Рассматриваются вопросы формирования маркетинговых стратегий на международных рынках, сегментации рынка, ценовой политики, логистических систем и роли цифрового маркетинга. Также анализируются основные показатели оценки экономической эффективности маркетинговых стратегий.*

Ключевые слова: *международный маркетинг, маркетинговая стратегия, сегментация рынка, экспортный маркетинг, конкурентоспособность, маркетинговые коммуникации, глобальный рынок.*

Abstract. *This article analyzes the importance of international marketing strategies in the development of business activities. The study examines the formation of marketing strategies in international markets, market segmentation, pricing policy, logistics systems, and the role of digital marketing tools. In addition, the main indicators used to evaluate the economic efficiency of marketing strategies are analyzed.*

Keywords: *international marketing, marketing strategy, market segmentation, export marketing, competitiveness, marketing communications, global market.*

Kirish. XXI asrda jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro savdo aloqalarining kengayishi hamda texnologik taraqqiyot natijasida biznes faoliyatining yangi shakllari paydo bo‘lmoqda. Bozorlarning integratsiyalashuvi natijasida korxonalar nafaqat milliy bozor doirasida, balki xalqaro miqyosda ham faoliyat yuritishga intilmoqda. Bu jarayon, o‘z navbatida, biznes subyektlaridan strategik boshqaruvning yangi usullarini qo‘llashni, marketing faoliyatini xalqaro darajada tashkil etishni hamda raqobat muhitiga moslashishni talab etadi. Xalqaro marketing strategiyalari korxonaning tashqi bozorlarda samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi muhim boshqaruv vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu strategiyalar mahsulot ishlab chiqarishdan tortib uni iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni kompleks ravishda boshqarishga qaratilgan. Xalqaro marketing strategiyasining asosiy vazifasi korxona mahsulotlari va xizmatlarini turli mamlakatlar bozorlarida muvaffaqiyatli joylashtirish, iste’molchilar ehtiyojlarini chuqur o‘rganish hamda raqobat ustunligini ta’minlashdan iborat.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida marketing nafaqat savdo faoliyatining bir

qismi, balki biznes strategiyasining muhim elementi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, tashqi bozorlarga chiqish jarayonida marketing tadqiqotlari, bozor segmentatsiyasi, raqobat muhitini tahlil qilish hamda marketing kommunikatsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli xalqaro marketing strategiyalarini ilmiy asosda ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish korxonalarning barqaror rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston iqtisodiyotida ham so‘nggi yillarda eksport salohiyatini oshirish, milliy mahsulotlarni jahon bozorlariga olib chiqish hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda marketing yondashuvlarini rivojlantirish, xalqaro savdo mexanizmlarini takomillashtirish hamda milliy brendlarni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, biznesni tadbiq qilishda xalqaro marketing strategiyalarining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi biznes faoliyatini xalqaro bozorlarda samarali tashkil etishda marketing strategiyalarining iqtisodiy mohiyatini tahlil qilish, ularning amaliy ahamiyatini ochib berish hamda zamonaviy marketing yondashuvlarining biznes rivojlanishiga ta’sirini ilmiy asoslashdan iborat.

Asosiy qism. Xalqaro marketing strategiyasi korxonaning tashqi bozorlar bilan o‘zaro aloqalarini samarali tashkil etish, bozor imkoniyatlarini aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish jarayonini ifodalaydi. Mazkur strategiya global iqtisodiy muhit, raqobat sharoiti, iste’molchilar xulq-atvori va madaniy omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Xalqaro marketing strategiyalarini ishlab chiqishda eng avvalo bozor talabini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bozor talabi korxona ishlab chiqarayotgan mahsulot yoki xizmatga iste’molchilarning ehtiyoj darajasini ifodalaydi. Iqtisodiy nazariyada talab ko‘pincha narx va talab hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik orqali ifodalanadi.

$$Q_d = a - bP$$

Mazkur modeldan ko‘rinib turibdiki, mahsulot narxi oshgan sari unga bo‘lgan talab kamayadi, narx pasayganda esa talab hajmi ortadi. Xalqaro marketing strategiyasini ishlab chiqishda ushbu qonuniyatni hisobga olish muhim hisoblanadi. Chunki turli mamlakatlar bozorlarida iste’molchilarning to‘lov qobiliyati, daromad darajasi hamda xarid qilish xulq-atvori bir-biridan farq qiladi. Xalqaro marketing strategiyasining muhim bosqichlaridan biri bozor segmentatsiyasi hisoblanadi. Segmentatsiya – bu bozorni o‘xshash ehtiyoj va xulq-atvorga ega iste’molchilar guruhlariga ajratish jarayonidir. Ushbu jarayon korxonaga o‘z mahsulotini aniq maqsadli auditoriyaga yo‘naltirish imkonini beradi. Xalqaro marketing amaliyotida segmentatsiya ko‘pincha demografik, geografik, iqtisodiy va madaniy mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Bozor segmentatsiyasidan so‘ng korxona maqsadli bozorni tanlaydi va unga mos marketing strategiyasini ishlab chiqadi. Bu jarayonda marketing kompleksining to‘rtta asosiy elementi muhim rol o‘ynaydi. Ular mahsulot siyosati, narx siyosati, taqsimot siyosati va kommunikatsiya siyosatidan iborat bo‘lib, marketing nazariyasida “4P” modeli sifatida tanilgan. Mahsulot siyosati xalqaro marketing strategiyasining eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi.

Korxona tashqi bozorga chiqishda mahsulotni mahalliy iste’molchilarning ehtiyojlariga moslashtirishi zarur. Bu jarayon mahsulot dizayni, qadoqlash, sifat standartlari hamda brend siyosatini o‘z ichiga oladi. Masalan, ayrim mamlakatlarda ekologik toza mahsulotlarga talab yuqori bo‘lsa, boshqa mamlakatlarda narx omili muhimroq hisoblanadi. Narx siyosati ham xalqaro marketing strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Korxona mahsulot narxini belgilashda ishlab chiqarish xarajatlari, transport va logistika xarajatlari, bojxona to‘lovlari hamda raqobatchilar narxlarini hisobga olishi zarur. Xalqaro marketingda ko‘pincha differensial narx siyosati qo‘llaniladi, ya’ni turli mamlakatlar bozorlarida mahsulot narxi har xil bo‘lishi mumkin.

Marketing strategiyasining iqtisodiy samaradorligini baholashda marketing investitsiyalarining rentabelligi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

$$ROI = \frac{Foyda - Xarajat}{Xarajat} \times 100\%$$

Mazkur ko‘rsatkich marketing faoliyatiga sarflangan mablag‘larning qanchalik samarali ekanligini aniqlash imkonini beradi. Agar marketing strategiyasi natijasida korxona foydasi sezilarli darajada oshsa, demak strategiya samarali hisoblanadi. Xalqaro marketing strategiyalarini amalga oshirishda logistika tizimlari ham muhim rol o‘ynaydi. Mahsulotni xalqaro bozorlarga yetkazib berish jarayoni transport infratuzilmasi, ombor tizimlari, bojxona rasmiylashtiruvi hamda distribyutorlik tarmoqlari bilan chambarchas bog‘liq. Samarali logistika tizimi mahsulot yetkazib berish vaqtini qisqartiradi va transport xarajatlarini kamaytiradi.

Shuningdek, xalqaro marketing faoliyatida kommunikatsiya strategiyasi ham muhim ahamiyatga ega. Reklama, jamoatchilik bilan aloqalar, brend kommunikatsiyasi hamda raqamli marketing vositalari orqali korxonalar o‘z mahsulotlarini keng auditoriyaga tanitishi mumkin. Zamonaviy sharoitda internet marketing, ijtimoiy tarmoqlar marketingi va elektron savdo platformalari marketing faoliyatining muhim elementlariga aylanmoqda. Raqobat muhitini tahlil qilish ham xalqaro marketing strategiyasining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Korxona o‘zining bozordagi o‘rnini aniqlash uchun bozor ulushi ko‘rsatkichidan foydalanadi.

$$MS = \frac{Korxona\ savdosi}{Umumiy\ bozor\ savdosi} \times 100\%$$

Ushbu ko‘rsatkich korxonaning bozor ichidagi mavqeini aniqlash imkonini beradi. Bozor ulushining ortishi korxonaning marketing strategiyasi muvaffaqiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Xalqaro marketing strategiyalarini ishlab chiqishda madaniy omillarni hisobga olish ham muhim hisoblanadi. Turli mamlakatlarda iste’molchilarning qadriyatlari, urf-odatlari va madaniy xususiyatlari farqlanadi. Shu sababli mahsulotni reklama qilish, qadoqlash va brendlash jarayonida mahalliy madaniy muhitni hisobga olish zarur. Zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi marketing strategiyalariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili va elektron savdo platformalari marketing faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Bu esa korxonalarga iste’molchilar ehtiyojlarini aniq

prognoz qilish hamda individual marketing takliflarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish, milliy mahsulotlarning jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirish hamda marketing infratuzilmasini takomillashtirish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, xalqaro savdo ko‘rgazmalarida ishtirok etish, eksport marketingini rivojlantirish hamda milliy brendlarni shakllantirish mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa. Xalqaro marketing strategiyalari zamonaviy biznes faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Global iqtisodiy integratsiya sharoitida korxonalar uchun xalqaro bozorlarga chiqish va u yerda barqaror mavqega ega bo‘lish muhim strategik vazifaga aylanmoqda. Xalqaro marketing strategiyalarini samarali amalga oshirish bozor talabini chuqur o‘rganish, optimal narx siyosatini ishlab chiqish, logistika tizimlarini takomillashtirish hamda marketing kommunikatsiyalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bilan birga, marketing faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda rentabellik va bozor ulushi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar va innovatsion marketing vositalarining rivojlanishi xalqaro marketing strategiyalarini yanada takomillashtirish imkonini bermoqda. Bu esa korxonalarga global bozorlarda raqobat ustunligini ta’minlash hamda yangi iste’molchilarni jalb qilish imkonini beradi. Kelgusida milliy iqtisodiyotda eksport marketingini rivojlantirish, xalqaro savdo infratuzilmasini takomillashtirish hamda innovatsion marketing texnologiyalarini keng joriy etish biznesni rivojlantirishning muhim omillaridan biri bo‘lib qoladi. Shu sababli xalqaro marketing strategiyalarini chuqur ilmiy asosda o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. A.Alimuhamedov, S.Abdullayev, (2021). Marketing asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. A.N.Yo‘ldoshev, S.S.Qosimov, (2020). Xalqaro marketing. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.
3. B.B.Ergashev (2019). Marketing tadqiqotlari va bozor tahlili. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. H.Mamatqulov (2022). Xalqaro savdoda marketing strategiyalarini qo‘llash masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 6(3), 45–53.
5. R.Abdullayev (2021). Eksport faoliyatida marketing strategiyalarining o‘rni. Iqtisodiyot va ta’lim, 4(2), 78–84.
6. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. (2023). O‘zbekistonning eksport salohiyati bo‘yicha statistik hisobot. Toshkent.
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). Tashqi savdo statistikasi to‘plami. Toshkent.

CONTEMPORARY POVERTY REDUCTION STRATEGIES IN UZBEKISTAN: INTEGRATION OF INTERNATIONAL EXPERIENCE AND NATIONAL PRACTICES

Odilov Asilbek Azamat o'g'li
"Silk Road" International University
of Tourism and Cultural Heritage
Master student of Business Administration

Abstract. *This study analyzes the effectiveness of state policies on poverty reduction in Uzbekistan. The article discusses multidimensional approaches to measuring poverty, the digitalization of the social protection system, and the specific features of the "Mahallabay" working system. It also studies the successful experiences of countries such as China and Brazil from the perspective of adapting them to the conditions of Uzbekistan. The article analyzes the dynamics of the poverty rate and the impact of economic growth based on statistical data.*

Keywords: *poverty rate, multidimensional poverty index (MPI), human capital, "Iron Notebook", inclusive growth, social transformation.*

Poverty is a complex socio-economic phenomenon that refers not only to the lack of material resources, but also to the deprivation of education, health care, and decent living conditions. According to Amartya Sen (1999), poverty is the deprivation of a person's opportunities to realize his or her potential. Uzbekistan did not officially recognize the problem of poverty until 2020. However, as part of the "New Uzbekistan" strategy, poverty reduction became the focus of state policy. It was announced that in 2020, 12-15% of the population, or about 4-5 million people, were below the poverty line. After that, the institutional framework for poverty reduction in the country was created, and the Ministry of Economy and Finance and the Ministry of Poverty Reduction and Employment were assigned specific tasks. World practice in poverty reduction shows that there is no universal solution, but successful countries have common features:

China's "Targeted" Policy. The most important aspect of the Chinese experience is the "Poverty Mapping" system. They studied the problems of each village and each household individually and provided assistance in five areas: industrial development, resettlement, environmental compensation, education and social protection. Just as the core of the Chinese experience is the individual study of the needs of each household and the creation of drivers adapted to them, Uzbekistan has introduced the institution of "Governor Assistants" and focused on increasing economic activity in each neighborhood.

Brazil's Bolsa Familia Program. The Brazilian experience is aimed at breaking the cycle of poverty by investing in human capital. Under this program, assistance money provided to more than 13 million families is linked to the condition that children attend school and monitor their health. This indicator serves as the basis for the "child benefit" system in Uzbekistan. At the same time,

the integration of a conditional cash transfer system, such as Brazil's famous Bolsa Família program, into national practice in the form of a "Single Register of Social Protection", has significantly increased the targeting and transparency of social assistance, which has reduced the human factor and ensured that assistance reaches the truly needy. Analysis shows that the poverty rate has decreased from 17% in 2021 to 9.5% by 2024. The simplification of the small business support and self-employment system played an important role in achieving this indicator. The "booklet" systems can be cited as unique know-how of Uzbekistan such as "Iron Booklet" list of needy families, which are provided with one-time assistance and assistance in employment issues. "Women's Booklet" and "Youth Booklet" are mechanisms for supporting the entrepreneurial initiatives of women and youth, providing them with preferential loans and subsidies. Institute of Assistants of Governors starting in 2022, an assistant governor position has been introduced in each mahalla. Their main task is to identify resources in the neighborhood (free land, housing opportunities) and attract the population to gainful employment. The most sustainable way to reduce poverty is to invest in human capital. As Nobel laureate Theodore Schulz noted, funds allocated to education are the main driver of economic growth. The government of Uzbekistan is radically reforming the education system to escape the "poverty trap". Pre-school coverage rate was increased from 27% in 2017 to 74% by 2024. This created the basis for the return of mothers to the labor market and the cognitive development of children. Special grants and interest-free educational loans were introduced for children from families included in the "Iron Book". This will help break the cycle of "intergenerational poverty". Vocational Training (VET) the "Ishga Marhamat" monocenters provide short-term, market-relevant training to unemployed people in professions that meet market demand. Poverty is unevenly distributed across Uzbekistan. Statistical analyses show that the poverty rate in rural areas is 1.5 times higher than in urban areas. Banerjee and Duflo (2011) have proven in their research that poverty negatively affects a person’s decision-making ability. Constant stress and lack of resources increase the “cognitive load”. The psychological rehabilitation and motivational support provided by the governer’s assistants in Uzbekistan are aimed at instilling in the population the belief that “I can do it”. In this process, the role of professional psychologists and social workers for the social adaptation of poor families is increasing. Digitalization reduces corruption and ensures targeted social assistance. Single Register of Social Protection system made it possible to identify those in need of assistance without subjective decisions (for example, without the will of the mahalla chairman. Young people in remote villages can access the global outsourcing market through IT Park residents, eliminating territorial restrictions. Despite reforms, a number of systemic problems remain suc as regional disproportion. Although the poverty rate is low in Tashkent city and regional centers, this indicator remains high in remote districts of the Republic of Karakalpakstan, Surkhandarya and Kashkadarya. Food inflation is eating away at the real incomes of the poor. A large part of the working-age population still works in the informal sector, which complicates their social protection.

In Uzbekistan, poverty reduction policies are shifting from passive social protection (pension provision) to active economic mobilization (vocational training and employment). The study recommends that poverty should be measured not only by income, but also by the level of housing conditions, sanitation, and access to quality drinking water, increasing the role of small producers in agro-industrial clusters and establishing small family enterprises (based on outsourcing) around large clusters to reduce poverty in rural areas, developing digital skills, eliminating territorial restrictions by preparing young people for the remote labor market (freelance). In conclusion, poverty reduction is a long-term process that requires not only economic growth, but also the creation of equal opportunities for all segments of society.

References:

1. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty . Crown Business.
2. Banerjee, A. V., & Duflo, E. (2011). Poor Economics: A Radical Rethinking of the Way to Fight Global Poverty . PublicAffairs.
3. World Bank. (2023). Poverty Analysis and Social Protection System Improvement in Uzbekistan . Washington: World Bank Group.
4. Amartya Sen. (1999). Development as Freedom . Oxford University Press.
5. Mirziyoyev, Sh. M. (2022). New Uzbekistan Development Strategy .
6. UNDP. (2023). 2023 Global Multidimensional Poverty Index (MPI): Unstacking comparative patterns and communities . New York: United Nations.
7. Statistics Agency of the Republic of Uzbekistan. (2024). Statistical Collection on the Living Standards of the Population . Tashkent.

MAHALLABAY ISHLASH JARAYONIDA BANKLARNING MIKROMOLIYALASH VA "SOCIAL BANKING" MODELLARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Niyozov Zuxur Davronovich
i.f.n., prof v.b., "Bank ishi" kafedrasi, SamISI
Zubaydulloyeva Damira Vaxobovna
SamISI, BI-122 guruh talabasi

Annotatsiya. *"Mahallabay" tizimi doirasida tijorat banklarining mikromoliyalash va "Social Banking" modellarini joriy etish istiqbollari tahlil qilinadi. Mahalliy aholining moliyaviy ehtiyojlari, nobank kredit tashkilotlari tajribasi va xalqaro ijtimoiy bankchilik modellari o'rganiladi. Xatarlarni boshqarish strategiyalari va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Mahallabay, mikromoliyalash, Social Banking, moliyaviy inklyuziya, kambag'allikni qisqartirish, tadbirkorlik.*

Abstract. *The prospects for implementing microfinance and Social Banking models by banks within the Mahallabay system are analyzed. The financial needs*

of local populations, experience of non-bank credit organizations, and international social banking models are examined. Risk management strategies and practical recommendations are developed.

Keywords: *Mahallabay, microfinance, Social Banking, financial inclusion, poverty reduction, entrepreneurship.*

Kirish. O'zbekistonda “Mahallabay ishlash” tizimi 2021-yildan boshlab davlat boshqaruvining yangi paradigmasi sifatida joriy etildi. Ushbu tizim muammolarni fuqarolar uchun to'g'ridan-to'g'ri, mahalliy darajada — minimal byurokratiya bilan — hal etishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yildagi "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi doirasida aholining turmush darajasini yaxshilash, bandlikni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha aniq maqsadlar belgilandi.[183]

"Mahallabay" tizimining iqtisodiy tomonini mustahkamlashda banklar hal qiluvchi rol o'ynamoqda. 2022-yil holatiga ko'ra, 193 ta nobank kredit tashkiloti, shu jumladan 100 ta mikromoliya tashkiloti faoliyat ko'rsatib, jami 7,3 trillion so'mlik mikrokreditlar berdi. Shunga qaramay, mahalla darajasida moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi hali ham past bo'lib, aholining 20 foizdan ortig'i rasmiy moliyaviy tizimdan chetda qolmoqda. Ushbu maqola tijorat banklarining "Mahallabay" tizimida mikromoliyalash va "Social Banking" modellarini joriy etishning istiqbollari va mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. "Social Banking" kontseptsiyasi moliyaviy foyda bilan ijtimoiy samaradorlikni uyg'unlashtiruvchi bankchilik modeli sifatida Yevropa amaliyotida keng rivojlangan.[184] Germaniyaning Sparkassen tizimi — 600 dan ortiq mahalliy jamg'arma kassasi — bu modelning eng muvaffaqiyatli namunasidir: ular aholining 50 mln dan ortiq a'zosiga xizmat ko'rsatib, har yili 3,6 mlrd yevro ijtimoiy maqsadlarga yo'naltiradi. O'zbekiston sharoitida Niyozov Z.D. (SamISI, 2024)[185] va Abdullayev A.J. (2018)[186] ushbu modellarning mahalliy shart-sharoitlarda qo'llanilish imkoniyatlarini o'rgangan. Omonov A.A. (2020)[187] esa ijtimoiy bankchilik va innovatsion xizmatlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot qiyosiy va konseptual tahlilga asoslanib, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, CBU statistikasi, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va SamISI professor-o'qituvchilari tadqiqotlari sintez qilindi. Germaniya, Bangladesh va Filippin tajribalari O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilindi. Xulosa va tavsiyalar sintetik yondashuv asosida shakllantirildi.

---

[183]O'zR Prezidentining PF-60-sonli Farmoni "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" // lex.uz/docs/5841063

[184]Weber O., Remer S. Social Banking and Social Finance. — London: Springer, 2021. Sparkassen modelining ijtimoiy ta'siri.

[185]Niyozov Z.D., Zubaydulloyeva D.V. "Mahallabay" tizimida ijtimoiy bankchilik modellari // SamISI ilmiy to'plami. — Samarqand, 2024.

[186]Abdullayev A.J. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mikrokreditlashni rivojlantirish masalalari. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018.

[187]Omonov A.A. Bank tizimida innovatsion xizmatlar va ijtimoiy bankingni rivojlantirish istiqbollari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

Tahlil va muhokama 1. "Mahallabay" tizimining moliyaviy ehtiyojlari. Tizim joriy etilgandan buyon har yili 2 mln dan ortiq ariza-murojaat qayta ishlangan bo'lib, ularning 35 foizi moliyaviy yordam — kredit, subsidiya yoki ish o'rni yaratish — bilan bog'liq.[188] "Temir daftar"ga kiritilgan 600 000 dan ortiq oilaning muhim qismi mikromoliyalash xizmatlariga muhtoj, ammo garov va kredit tarixi talablariga javob bera olmaydi.[189] Bu bo'shliq maxsus "Mahallabay" kredit mahsulotlarini ishlab chiqish zaruratini ko'rsatadi.

2. Amaldagi amaliyot: dastlabki qadamlar. Xalq banki "mahalla bankiri" institutini 200 dan ortiq mahallada sinov tariqasida joriy etdi; bankir mahalla faoli bilan birgalikda aholi ehtiyojlarini joyida aniqlab, maqsadli kredit arizalarini rasmiylashtirmoqda. Trastbank "temir daftar" oilalari uchun garovsiz, 0 foizli startap kredit liniyasini 2023-yilda 12 ta viloyatda ishga tushirdi; dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 4 200 oila foydalandi, ularning 78 foizi ayollar.

3. Xalqaro tajribadan o'rganish. Bangladesh Grameen Banki 2023-yil boshida 10 mln dan ortiq a'zoga xizmat ko'rsatib, 98 foiz qaytaruvchanlikni saqlamoqda.[190] Filippin BSP (Bangko Sentral) mahalliy banklar uchun kredit portfelining 5 foizini mikromoliyaga ajratishni majburiy belgilagan. Ushbu ikki model O'zbekistonga "Mahallabay" tizimi bilan integratsiyalashgan ijtimoiy bankchilik konsepsiyasini shakllantirish uchun qimmatli yo'l-yo'riq beradi.

4. Xatarlar va ularni boshqarish. Mikromoliyalash va Social Banking modellarini joriy etishning asosiy xatarlari kredit qaytuvchanligining pastligi, yuqori operatsion xarajatlar va haddan ortiq qarzlanish xavfidan iborat. Raqamli kanallar orqali operatsion xarajatlarni 35–40 foizga kamaytirish mumkinligi kuzatilmoqda.[191] Moliyaviy savodxonlik treninglarini kreditlash jarayoniga majburiy qo'shish muddatidan o'tgan qarzlar ulushini 12–15 foizga kamaytirishi aniqlangan.[192]

Xulosa. "Mahallabay" tizimi tijorat banklari uchun mikromoliyalash va Social Banking modellarini joriy etishning kuchli institutsional platformasini taqdim etmoqda. Xalq banki va Trastbankning dastlabki tajribalari bu yo'nalishda amaliy natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatdi. Germaniya Sparkassen modeli va Grameen Bank tajribasidan o'rganib, "Mahallabay Social Banking" konsepsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Buning uchun davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish, garov talablarini soddalashtirishda regulyator qo'llab-quvvatlashni ta'minlash, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va moliyaviy savodxonlik dasturlarini kreditlash siklining ajralmas qismiga aylantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O'zR Prezidentining PF-60-sonli Farmoni, 2022 // lex.uz/docs/5841063
2. O'zR Qonuni "Mikromoliyalash to'g'risida", O'RQ-53-son // lex.uz

[188]Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. Mahallabay tizimi natijalarining yillik sharhi, 2023 // mehnat.uz
[189]Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. "Temir daftar" oilalari soni va moliyaviy ehtiyojlari tahlili, 2023 // mehnat.uz
[190]Grameen Bank. Annual Report 2023: Membership, Loan Portfolio and Recovery Rates // grameen.com
[191]CEIR. Raqamli moliyaviy xizmatlar: operatsion samaradorlik tahlili. — Toshkent: CEIR, 2023 // ceir.uz
[192]O'zR Markaziy banki. Bank sektori barqarorligi hisoboti, 2023. Muddatidan o'tgan qarzlar va moliyaviy savodxonlik korrelyatsiyasi // cbu.uz

3. Niyozov Z.D., Zubaydulloyeva D.V. SamISI ilmiy to'plami. — Samarqand, 2024.
4. Abdullayev A.J. Mikrokreditlashni rivojlantirish masalalari. — Toshkent, 2018.
5. Omonov A.A. Innovatsion bank xizmatlar. — Toshkent, 2020.
6. Weber O., Remer S. Social Banking. — London: Springer, 2021.
7. CBU. Yillik statistik byulleten, 2022 // cbu.uz
8. CEIR. Moliyaviy inklyuziya, 2023 // ceir.uz.

RAQAMLI BANK XIZMATLARI SHAROITIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISHDA IRB YONDASHUVINING SAMARADORLIGI: BASEL II VA III ASOSIDA TAHLIL

O‘ktamova Nozima Narzulla qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat boshqaruvi sho‘basi dotsenti, PhD
Egamova Nodirabonu Faxraddin qizi
O‘zbekiston Respublikasi
Bank - moliya akademiyasi 2 - kurs tinglovchisi
nodirabonu.egamova@mail.ru
+998914273992

Annotatsiya: *Ushbu tezisda raqamli bank xizmatlari sharoitida kredit riskini boshqarishning zamonaviy usullari, xususan, Basel II va Basel III standartlari doirasidagi IRB (ichki reytinglarga asoslangan) yondashuvining roli tahlil qilingan. Tadqiqotda Big Data va Machine Learning texnologiyalarining kredit skoring tizimlaridagi ahamiyati, IRB va standartlashtirilgan yondashuvlar (SA) o‘rtasidagi farqlar hamda xalqaro bank amaliyoti (EBA statistikasi) qiyosiy o‘rganilgan. O‘zbekiston bank tizimida IRB yondashuvini joriy etishdagi mavjud to‘siqlar va imkoniyatlar baholanib, banklar rentabelligini oshirish bo‘yicha ilmiy takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kredit riski, Basel III, IRB yondashuvi, standartlashtirilgan yondashuv (SA), raqamli bank, Big Data, machine Learning, PD (Defolt ehtimolligi), LGD (Defolt holatidagi zarar), kapital monandligi.*

Abstract: *This thesis analyzes the role of the IRB (Internal Ratings-Based) approach within the Basel II and Basel III frameworks for managing credit risk in the context of digital banking services. The study examines the significance of Big Data and Machine Learning technologies in credit scoring systems, the differences between IRB and the Standardized Approach (SA), and a comparative study of international banking practices (EBA statistics). Existing barriers and opportunities for implementing the IRB approach in the banking system of Uzbekistan are evaluated, and scientific proposals are put forward to increase bank profitability.*

Keywords: *Credit risk, Basel III, IRB approach, Standardized Approach (SA), Digital banking, Big Data, Machine Learning, PD (Probability of Default), LGD (Loss Given Default), capital adequacy.*

Bugungi kunda bank tizimida kredit riskini samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Global moliyaviy bozorlarning murakkablashuvi, iqtisodiy noaniqliklarning ortishi hamda bank operatsiyalarining kengayishi kredit riskini yanada dolzarb masalaga aylantirmoqda. Ayniqsa, raqamli bank xizmatlarining jadal rivojlanishi, onlayn kreditlash, avtomatlashtirilgan skoring tizimlari va katta hajmdagi ma’lumotlardan (Big data) foydalanish kredit riskini baholash jarayoniga yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

Tijorat bankining asosiy maqsadi o‘z aktivlari va passivlarini boshqarib, tavakkalchilik asosida foyda olishdir. Zero bank bu - bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, to‘lovlarni amalga oshirish, omonatlarga pul mablag‘larini jalb etish, o‘z nomidan kreditlar berish bo‘yicha bank faoliyati sifatida aniqlangan operatsiyalar majmuini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti bo‘lgan yuridik shaxs hisoblanadi. (*Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida*, 2019)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida PF-5992-sonli farmonida bank sektorini isloh qilishni asosiy yo‘nalishlari etib kredit portfeli va tavakkalchilikni boshqarish sifatini yaxshilash, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimini samaradorligini oshirish etib belgilangan. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2020)

Mazkur tadqiqotning maqsadi raqamli bank xizmatlari sharoitida kredit riskini boshqarishda IRB yondashuvining rolini Basel II va Basel III standartlari asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida IRB yondashuvining nazariy asoslari, uning Foundation va Advanced variantlari, kredit riskini modellashtirish va validatsiya jarayonlari o‘rganiladi. Shuningdek, IRB va standartlashtirilgan yondashuvlar o‘rtasidagi farqlar tahlil qilinib, ularni O‘zbekiston bank tizimida qo‘llash imkoniyatlari baholanadi.

Ma’lumki bank tavakkalchiligiga doir normativ huquqiy asoslardan biri bo‘lgan 2023-yil 18-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan ro‘yxatdan o‘tgan “Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar tog‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki boshqaruvining Qarorida kredit tavakkalchiligi bu - qarzdorning bank oldidagi majburiyatlari shartnoma yoki qonunchilik hujjatlarida ko‘rsatilgan muddat va (yoki) shartlarda bajarilmasligi (lozim darajada bajarilmasligi) oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zarar (yo‘qotish) ko‘rish va (yoki) rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimolligi deya ta’rif berilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi, 2023)



1-rasm. 2021-2025-yillarda kredit qo‘yilmalar va kapital monandlilik darajasi

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yuqorida 1-rasmda ko‘rganimizdek oxirgi yillar davomida tijorat banklarida kreditlarning jami aktivlardagi salmog‘i sezilarli darajada kamaygan. Biroq shunga qaramay jami aktivlarning salmoqli qismini tashkil qilmoqda. Vaholanki, kapitalni monandlilik darajasi 17,5 foizdan 18,3 foziga oshgan va bu Markaziy bankning prudensial talablari bajarilganini anglatadi.

Basel II kelishuvi banklarga kredit riski uchun kapital talablarini hisoblashning ikkita keng tarqalgan metodologiyasidan birini tanlashga ruxsat berishni taklif qildi. Qayta ko‘rib chiqilgan tizim standartlashtirilgan yondashuvning (SA) yanada murakkab versiyasini va ichki reytinglarga asoslangan (IRB) modelning ikkita turini o‘z ichiga oladi. (Basel Committee on Banking Supervision, 2004). Standartlashtirilgan yondashuv kredit riskini baholashda tashqi reyting agentliklari (masalan, S&P, Moody’s va ECA) baholashlariga asoslangan. Basel II IRB ning Foundation va Advanced yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatib, Foundation IRB yo‘nalishida bank qarzdorning defoltga uchrash ehtimolini (PD) bankni o‘zi mustaqil belgilaydi ammo defolt bo‘lganda yo‘qotish darajasi (LGD) va defolt paytidagi qarz miqdori (EAD) ni regulyator belgilashi aytilgan. Advanced IRB yo‘nalishida banklar o‘z tarixiy tajribasi va ichki hisob-kitobiga tayanib yuqoridagi uchta ko‘rsatkichni o‘zlari hisob qiladi. Advanced IRB ning ahamiyati u murakkab va aniq model sifatida ishlaydi. Ammo shunga qaramay ko‘pchilik banklar Advanced IRB yo‘nalishini davom ettirishda ehtiyotkor, chunki Advanced IRB ni to‘g‘ri ishlatish uchun katta ma’lumot bazasi va rivojlangan risk boshqaruvi tizimi talab qilinadi. Quyidagi formula orqali bank kutiladigan kredit yo‘qotishlarini (Expected loss) aniqlaydi va kapital talablarini shu risk asosida belgilaydi.

$$EL = PD \times EAD \times LGD$$

Basel III kelishuviga kelib IRB yondashuviga bir nechta cheklovlar kiritildi:

1. IRB yordamida hisoblangan kapital miqdori standartlashtirilgan yondashuv asosida hisoblangan kapitalning 72,5% dan kam bo‘lmasligi lozim.

2. Advanced IRB dan voz kechish tartibi. Yirik korporatsiyalar va banklarga berilgan kreditlar uchun faqat Foundation IRB va Standartlashtirilgan usul qo‘llaniladi. Chunki yirik subyektlarning LGD ko‘rsatkichini bank o‘zi aniqlashi qiyin bo‘lib qoladi.

3. PD uchun minimal 0.05% cheklov qo‘yildi va zaxira talablarini bajarish zaruriyatini belgilab berdi.(Hennie van Greuning и Sonja Brajovic Bratanovic, 2020)

Basel III ning mamalakatlar bank tizimiga keng isloh etish, ayniqsa keng rivojlangan davlatlarda amaliyotda joriy etilayotgani Yevropa bank tashkilotlarining har choraklik risk parametrlari statistikasida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. (Europaen Banking Authority, 2025). Ushbu hisobotda (1-jadval) mamlakatlar kesimida korporativ va chakana kredit segmentlari uchun xatarlar ko‘rsatkichlarini ifodalaydi. Hisobotdan ko‘rinib turibdiki Rossiya Federatsiyasi defolt darajasi (korporativ - 4,51% va chakana - 5,44%) eng yuqori davlatlardan biridir. Ammo Singapur va Shvetsariyada korporativ (0,12%) va chakana (0,22%) segmentda qarzdorlarning o‘z majburiyatlarini bajara olmaslik holati juda past hisoblanadi. Fransiya va Italiyada agar defolt holati yuz bersa zarar miqdori korporativ (32,34% va 32,06%) va chakana (21,27% va 30,91%) segmentlarda juda yuqori salmoqni tashkil qilmoqda. Shuningdek mamlakatlardagi sohalar kesimida defolt bo‘lish ehtimolligi Basel III da 5% cheklov qo‘yilganiga qaramay Rossiya Federatsiyasida bu ko‘rsatkich korporativ sohada 32,01 foizni tashkil qilmoqda. Bu ko‘rsatkich juda xavfli bo‘lib, har 3 ta mijozdan bittasi kreditni qaytara olmaydi degani. LGD ko‘rsatkichi tahlil qilinganda Rossiya va Xitoy davlatida ayniqsa korporativ segmentda ulush yuqori hisoblanib (39,19% va 39,16%), bank o‘zining deyarli 40 foizini qaytara olmaydi deganidir. Avstraliya, Singapur va Birlashgan Qirollikda bu ko‘rsatkich sezilarli darajada kam hisoblanadi. Ushbu hisobot shuni ko‘rsatadiki, G‘arbiy Yevropa davlatlari va moliya markazlari kredit riskini boshqarishda Advanced IRB modellarini qo‘llash orqali samarali boshqaryapti, Rossiya kabi davlatda esa Basel III ning minimal kapital talabi bo‘yicha bankda juda katta zaxira shakllantirish kerakligini anglatadi.

1-jadval

IRB-banklar uchun kontragent mamlakati kesimidagi risk parametrlari statistikasi (2025-yil 4-chorak)

№	Davlatlar	Qamrovi	Defolt darajasi (Default rate)	Kredit portfelidagi haqiqiy yo‘qotishlar ulushi (Loss rate)	Kredit qaytarilmaslik ehtimolining tuzatilgan ko‘rsatkichi (PD - adjusted)	Defolt yuz berganda, tiklab bo‘lmaydigan zarar miqdori (LGD,foizda)
1	**Fransiya**	Korporativ segmentda	1,47%	32,34%	1,93%	34,12%
		Chakana savdoda	0,75%	21,27%	1,32%	22,05%

2	**Germaniya**	Korporativ segmentda	0,95%	18,10%	1,42%	34,17%
		Chakana savdoda	0,67%	24,07%	1,10%	26,97%
3	**Italiya**	Korporativ segmentda	0,65%	32,06%	2,49%	37,08%
		Chakana savdoda	0,86%	30,91%	1,74%	28,37%
4	**Birlashgan Qirollik (UK)**	Korporativ segmentda	0,82%	19,28%	1,08%	32,67%
		Chakana savdoda	0,69%	10,81%	1,44%	15,89%
5	**Avstraliya**	Korporativ segmentda	1,68%	7,93%	0,85%	27,15%
		Chakana savdoda	0,60%	5,16%	0,67%	15,39%
6	**Xitoy**	Korporativ segmentda			1,14%	39,19%
		Chakana savdoda	0,09%	24,05%	0,80%	14,40%
7	**Rossiya Federatsiyasi**	Korporativ segmentda	4,51%		32,01%	39,16%
		Chakana savdoda	5,44%	18,59%	3,56%	21,18%
8	**Singapur**	Korporativ segmentda			0,88%	34,13%
		Chakana savdoda	0,08%	8,61%	0,42%	11,56%
9	**Shvetsariya**	Korporativ segmentda	0,12%	20,77%	0,76%	31,97%
		Chakana savdoda	0,22%	16,58%	0,78%	19,24%
10	**AQSH**	Korporativ segmentda	1,19%	11,08%	1,32%	31,11%
		Chakana savdoda	3,48%	15,24%	2,32%	28,95%

Manba: Yevropa Banklar tashkiloti (EBA) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Bugungi raqamli banklar an’anaviy banklardan farqli o‘laroq real vaqt rejimidagi ma’lumotlar bilan ishlagani bois IRB yondashuvida Big Data va Machine Learning yordamida mijozning PD va LGD ko‘rsatkichlarini aniqlikda o‘lchaydi va har bir individual risklar bilan alohida ishlaydi va yuqori kapital samaradorligiga olib keladi. Standartlashgan yondashuvda banklarga regulyator

belgilagan tayyor risk vaznlari asosida ishlash imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar orqali mijozning ishonchli ekanligini bilsada standartlashtirilgan yondashuvda yuqori risk vaznini qo‘llashga majbur bo‘ladi va bu bo‘sh mablag‘larni daromad yo‘naltirishga safarbar qilmaslikka sabab bo‘ladi va natijada bank rentabelligiga ta’sir qiladi.

O‘zbekiston bank tizimida hozirgi kunda raqamli transformatsiya jarayoni faol kechayotgan bo‘lsada, kredit riskini o‘lchash va kapital monandligini hisoblashda standartlashtirilgan yondashuv asosiy va majburiy usul hisoblanadi. Chunki yurtimizda hech bir bank IRB yondashuviga to‘liq o‘tmagan. Chunki raqamli banklarimiz faoliyat qilayotganiga ko‘p bo‘lmadi. Yurtimiz sharoitida tijorat banklarida “Standard & Poor’s”, “Fitch Ratings” va “Moody’s Investors Service” kabi reyting kompaniyalarining reyting baholari asosida tavakkalchilik darajasi belgilanadi va regulyativ kapitalning monandlilik koeffitsienti (K3) ning me’yoriy darajasi kamida 8% bo‘lishi belgilangan.(O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi, 2025) Shu sababli bank tizimini boshqarishda Basel III standartlarini amaliyotga tatbiq etish, xalqaro tizimda bank reytingini ko‘tarish muhim ustuvor vazifa etib belgilangan.

Garchi, Basel III standartlari IRB yondashuviga qat’iy cheklovlar kiritgan bo‘lsada, u raqamli banklar uchun riskni individuallashtirishning yagona yo‘li bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston bank tizimida IRBga o‘tishning kechikishi quyidagi xatarlarni keltirib chiqaradi:

1. Banklar past riskli mijozlar uchun ham yuqori risk vaznlarini qo‘llashga majbur, bu esa iqtisodiyotni qo‘shimcha kreditlash imkoniyatini cheklaydi.

2. Ichki skoring modellari Markaziy bank tomonidan nazorat qilinmasligi ularning shaffof emasligiga va kutilmagan tizimli risklarga olib kelishi mumkin.

IRBga o‘tish uchun bank nafaqat raqamli bo‘lishi, balki kapital sig‘imi yuqori bo‘lishi kerak. Kichik raqamli banklar uchun IRB modelini yaratish va uni har yili validatsiya qilish (tekshirish) xarajatlari, u beradigan foydadan qimmatga tushishi mumkin. Shuning uchun yirik va texnologik banklar birinchi bo‘lib bu tizimga o‘tishi iqtisodiy jihatdan mantiqli.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida (2019) O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.

2. Basel Committee on Banking Supervision (2004) «International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards».

3. Europaen Banking Authority (2025) Risk Parameters statistics by country of the counterparty for IRB banks.

4. Hennie van Greuning и Sonja Brajovic Bratanovic (2020) Analyzing Banking Risk.

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi (2023) Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020) 2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida, Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi (2025) Banklar kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida, Qaror.

8. https://cbu.uz/uz/statistics.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QQS MA’MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Eshkarayev Bobir Chariyevich
Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
tel: +99897-722-90-55
e-mail: bobireshkaraev@gmail.com
ORCID: 0009-0002-2301-0474

Annotatsiya*. Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) tizimi oldida yuzaga kelayotgan muammolar va ularni hal etishning ustuvor yo‘nalishlari bayon qilingan. Elektron xizmatlar, raqamli platformalar, kichik qiymatli import tovarlar hamda gig-iqtisodiyot segmentining kengayishi natijasida QQS tizimining an’anaviy mexanizmlari samarasizlashayotgani asoslab berilgan. Xalqaro tajriba asosida QQSni modernizatsiya qilish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*: QQS, raqamli iqtisodiyot, elektron savdo, marketpleys, soliq ma’murchiligi, risk-tahlil, fiskal neytrallik.*

Аннотация*. В статье изложены проблемы, возникающие перед системой налога на добавленную стоимость (НДС) в условиях цифровой экономики, и приоритетные направления их решения. Обосновано, что традиционные механизмы системы НДС становятся неэффективными в результате расширения электронных услуг, цифровых платформ, малоценных импортных товаров и сегмента гиг-экономики. На основе международного опыта разработаны направления модернизации НДС.*

Ключевые слова*: НДС, цифровая экономика, электронная торговля, маркетплейс, налоговое администрирование, риск-анализ, фискальная нейтральность.*

Abstract*. The article outlines the problems facing the value-added tax (VAT) system in the context of the digital economy and the priority directions for their solution. It is substantiated that the traditional mechanisms of the VAT system are becoming ineffective as a result of the expansion of electronic services, digital platforms, low-value imported goods, and the gig-economy segment. Based on international experience, directions for the modernization of VAT have been developed.*

Keywords*: VAT, digital economy, e-commerce, marketplace, tax*

administration, risk analysis, fiscal neutrality.

So‘nggi yillarda jahon xo‘jaligida yuz berayotgan raqamli transformatsiya iqtisodiy faoliyat shakllarini tubdan o‘zgartirib yubordi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlari tobora ko‘proq raqamli platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlar soliq tizimiga, xususan, QQS mexanizmlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. QQS dastlab an’anaviy iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqilgan bo‘lib, u moddiy tovarlar harakati va hududiy bog‘liqlikka asoslangan edi. Ammo raqamli iqtisodiyotda iqtisodiy faoliyat hudud bilan bevosita bog‘liq bo‘lmay qolmoqda. Natijada transchegaraviy operatsiyalar kengayib, QQSni undirishda yangi muammolar yuzaga kelmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida QQS tizimi oldida yuzaga kelayotgan muammolarni shartli ravishda bir necha asosiy yo‘nalishlarga ajratish mumkin: elektron xizmatlar bozorining kengayishi, raqamli platformalar orqali amalga oshiriladigan savdo operatsiyalarining ortishi, kichik qiymatli import tovarlar hajmining keskin ko‘payishi hamda gig-iqtisodiyot segmentining shakllanishi (1-rasm).



1-rasm. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi[193]

Elektron xizmatlar (SaaS, mobil ilovalar, streaming, reklama xizmatlari) ko‘pincha iste’molchi joylashgan mamlakatda jismoniy mavjudlikni talab qilmaydi. Bu esa soliq yurisdiksiyasini aniqlashni murakkablashtiradi. Natijada soliq bazasining yemirilishi, byudjet tushumlarining kamayishi va ichki bozorda raqobatning buzilishi kabi xavflar yuzaga keladi.Jahon chakana savdosida elektron savdoning ulushi so‘nggi o‘n yillikda barqaror o‘sib bormoqda. 2015-yilda elektron savdo global chakana savdoning 7,4 foizini tashkil etgan bo‘lsa,

[193] Muallif tomonidan tayyorlandi

2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 21 foizdan oshgan (2-rasm).



2-rasm. Jahon chakana savdosida elektron savdo ulushi[194]

Raqamli iqtisodiyotda savdo operatsiyalarining katta qismi marketpleyslar orqali amalga oshirilmoqda. Amazon, Alibaba, eBay, Yandex, Wildberries kabi platformalar global savdo infratuzilmasining muhim elementiga aylangan.

Bunday platformalar operatsiyalar bo‘yicha to‘liq ma’lumotga ega bo‘lib, sotuvchi va xaridorni bog‘laydi hamda soliq nazorati uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Ammo kichik tadbirkorlar va transchegaraviy savdo ishtirokchilarini nazorat qilish qiyinligi sababli an’anaviy soliq mexanizmlari yetarli darajada samarali emas.Internet savdoning rivojlanishi kichik qiymatli posilkalar hajmining keskin ortishiga olib kelmoqda. Bunday operatsiyalarda bojxona tartiblari soddalashtirilgan bo‘lib, QQS undirish qiyinlashad hamda fiskal yo‘qotishlar yuzaga keladi. Shuningdek, gig-iqtisodiyot (Uber, Airbnb va boshqalar) ko‘plab kichik ijrochilar mavjudligi, norasmiy faoliyat ulushining yuqoriligi va soliq nazorati murakkabligi kabi yangi muammolarni yuzaga keltiradi:

Xalqaro amaliyotda QQSni raqamli iqtisodiyotga moslashtirishning quyidagi asosiy mexanizmlari mavjud:

Mexanizm	Mazmuni	Qo‘llanilishi
Iste’mol mamlakati tamoyili	QQS iste’mol joyida undiriladi	IHTT davlatlari
Ta’minotchi-soliq agenti	Xorijiy sotuvchi QQS to‘laydi	Avstraliya, Yangi Zelandiya
Platforma javobgarligi	Platforma QQS yig‘adi	Yevropa Ittifoqi
Soddalashtirilgan ro‘yxatdan o‘tish	Onlayn ro‘yxatdan o‘tish	70+ davlat

[194] Statista (https://www.statista.com) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi .

Eng muhim yondashuv – iste’mol tamoyili bo‘lib, u fiskal neytrallikni ta’minlaydi. Zamonaviy sharoitda QQS samaradorligi ko‘p jihatdan soliq ma’murchiligining raqamlashtirilishiga bog‘liq.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida QQS tizimini takomillashtirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz:

1. Institutsional islohotlar

iste’mol mamlakati tamoyilini to‘liq joriy etish;

xorijiy yetkazib beruvchilarni majburiy ro‘yxatdan o‘tkazish.

2. Platformalar orqali soliq yig‘ish

marketpleyslarga soliq agenti maqomini berish;

platforma orqali avtomatik QQS undirish.

3. Kichik import operatsiyalarini tartibga solish

QQSni sotib olish vaqtida undirish mexanizmini joriy etish;

bojxona va soliq integratsiyasini kuchaytirish.

4. Raqamli ma’murchilikni rivojlantirish

EHF tizimini kengaytirish;

avtomatik soliq hisobotlarini joriy qilish;

real vaqtda monitoring qilish.

5. Riskga asoslangan nazorat

sun’iy intellekt asosida risk tahlili;

uchinchi tomon ma’lumotlaridan foydalanish (bank, turli platformalar).

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot QQS tizimi uchun yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. An’anaviy soliqqa tortish mexanizmlari transchegaraviy operatsiyalarni to‘liq qamrab ololmayapti.

Shu sababli QQS tizimini modernizatsiya qilish, raqamli platformalarni integratsiya qilish va riskga asoslangan soliq ma’murchiligini joriy etish zamonaviy soliq siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. OECD/World Bank Group/Asian Development Bank. VAT Digital Toolkit for Asia-Pacific. Paris, 2022.

2. OECD. International VAT/GST Guidelines, – Paris: OECD Publishing, 2017. – 180 p.

3. Statista. Elektron tijorat statistikasi portali.

ISLOMIY MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA TAHLIL VA SIYOSIY TAVSIYALAR

Ilmiy rahbar: Xoliqulov O‘ktam Abdumuminovich
Samarqand Iqtisodiyot va Servis insitituti
Bank-Moliya xizmatlari fakulteti
Bank ishi kafedrasi assistenti
Abduvaliyev Bahodir
SamISI, “Bank-Moliya xizmatlari”fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekistonda islomiy moliya instrumentlarining — murabaha, mudaraba, musharaka, qard al-hasan, zakot va vaqf — kambag'allikni qisqartirishdagi amaliy samaradorligi empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. 2021 yilda qabul qilingan "Islomiy bank va moliya xizmatlari to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-748-son) va 2023 yildagi Markaziy bank tartibga solish tizimini hisobga olgan holda, tadqiqot foyda-zarar taqsimotiga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarining soliq va garov cheklovlaridan qochayotgan kichik tadbirkorlar uchun alternativ kapital manbai vazifasini bajarishi mumkinligini ko'rsatadi. 100 nafar respondent ishtirokidagi so'rovnoma shuni aniqladiki, islomiy moliya instrumentlaridan foydalangan sub'ektlarning 46 foizida daromad oshgan, biroq 39 foizida sezilarli o'zgarish kuzatilmagan — bu narsa institutsional muhit va moliyaviy savodxonlik kabi tizimli omillarning hal qiluvchi ahamiyatini ko'rsatadi. Maqolada siyosiy tavsiyalar ham ilgari suriladi: islomiy mikromoliyalashtirish institutlarini rivojlantirish, raqamli kanallar orqali qamrovni kengaytirish va davlatning kambag'allikni qisqartirish dasturlari bilan integratsiya qilish.*

Kalit so'zlar *islomiy moliya kambag'allikni qisqartirish moliyaviy inklyuziya murabaha qard al-hasan mudaraba musharaka zakot, vaqf O'RQ-748-son mikromoliyalashtirish.*

Kirish. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar jadal davom etayotgan bir paytda - aholining taxminan 11 foizi hali ham rasmiy kambag'allik chegarasidan pastda yashaydi, kichik va o'rta biznesning esa 60 foizdan ortig'i an'anaviy bank tizimida kredit olishda jiddiy to'siqlar bilan to'qnashmoqda (O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2023). Muammoning tubi shundaki, foizga asoslangan an'anaviy kreditlash modeli mamlakat aholisining katta qismiga — diniy, iqtisodiy yoki garov cheklovlari sababli — umuman yetib bormaяди. Bu bo'shliqni to'ldirish uchun islomiy moliya instrumentlari nafaqat alternativ, balki tizimli yechim sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston ushbu sohadagi islohotlarga 2019 yildan boshlab kirishdi: avval Markaziy bank tomonidan islomiy moliya oynalari faoliyatiga ruxsat berildi, so'ng 2021 yilda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan "Islomiy bank va moliya xizmatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 2023 yilga kelib Ipoteka-bank va AsiaAlliance bank murabaha hamda ijara mahsulotlarini portfellarining bir qismiga kiritdi.

Biroq qonunchilik bazasining shakllanganligi amaliy samaradorlikni o'z-o'zidan kafolatlamaydi: institutlar, moliyaviy savodxonlik va jamoat talabi bir-biri bilan muvofiqlashuvini talab qiladi.

QONUNIY ASOS. O'zbekiston Respublikasi Qonuni «Islomiy bank va moliya xizmatlari to'g'risida» — O'RQ-748-son (2021 yil 26 noyabr). Qonun islomiy bank muassasalari, muomalalar turkumi va Markaziy bankning nazorat vakolatlari tartibini belgilaydi. Shuningdek, O'zR Prezidentining PF-60 Farmoni (2021) islomiy moliyani rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlagan.

Ushbu tadqiqot uchta savolga javob izlaydi: (1) O'zbekiston sharoitida islomiy moliya instrumentlari qaysi daromad qatlamlariga amalda yetib bormoqda? (2) Ularning daromad va biznes natijalari bilan bog'liqligi qanchalik kuchli? (3) Keng miqyosli joriy etish uchun qanday institutsional va siyosiy sharoitlar zarur?

"Foizsiz moliyalashtirish kapitalga kirishni kengaytirish bilan bir qatorda, biznes va moliyachi o'rtasidagi risk taqsimotini qayta tashkil qiladi — bu esa an'anaviy kredit munosabatlaridan tubdan farq qiladi."

Введение. Банки редко упоминаются среди ключевых факторов снижения бедности — хотя именно они решают, кому дать кредит на открытие бизнеса, кому помочь пережить неурожай, кому сохранить заработанное. По данным Всемирного банка, около 1,4 миллиарда взрослых в мире не имеют банковского счёта, и большинство из них — жители развивающихся стран [2]. В Кении за 15 лет охват банковскими услугами вырос с 27% до 79%, а уровень крайней бедности за тот же период снизился вдвое [3].

В Узбекистане картина неоднозначная. Доля населения с доходами ниже черты бедности в 2024 году составила около 11%, что вдвое ниже показателя 2019 года [23]. Вместе с тем лишь 48% взрослых имеют активный банковский счёт, а 71% активов банковской системы сосредоточено в государственных банках, ориентированных на крупный бизнес, а не на малоимущих [21, 22]. Это повод разобраться: как банки снижают бедность там, где это получается, и что применимо к Узбекистану.

Обзор литературы. Бек, Демиргюч-Кунт и Левайн на данных 52 стран показали, что расширение доступа к кредиту для МСП значимо снижает долю бедного населения — прежде всего через канал занятости [7]. МВФ уточнил: эффект наиболее устойчив при наличии конкурентного рынка, развитой платёжной инфраструктуры и невысоких реальных ставок [8]. Рудман (2012) задокументировал и обратные случаи: заёмщики без деловых навыков попадают в долговые ловушки, а МФО вынуждены поднимать ставки ради устойчивости [9].

Из отечественных исследователей выделяются труды М.И. Иминова, М.А. Бобожоновой, О.Х. Эргашева, К.Н. Юсупова. Центральный банк РУЗ

фиксирует рост числа активных заёмщиков МФО до 3,2 млн (+18% к 2023 году) и ставит задачу довести охват финансовыми услугами до 60% взрослых к 2026 году [22].

Методология. Использовались методы сравнительного анализа, индукции и дедукции. Анализировались данные Всемирного банка (Global Findex 2021), МВФ (Financial Access Survey), АБР, национальных центральных банков за 2010–2023 годы. Шесть стран отобраны по критериям сопоставимости данных и разнообразия институциональных моделей банковского сектора.

Анализ и результаты.

Таблица 1

Представляет ключевые индикаторы по шести странам и делает видимыми несколько закономерностей.

Страна	Охват фин. услугами, % (2021)	МСП-кредиты / ВВП, %	Бедность ($3,65/день), %	Снижение бедности, п.п./год (2010–2021)	Доля г/б банков, %
Бангладеш	53	18,4	36,6	1,9	28
Кения	79	22,1	36,8	1,4	35
Боливия	62	27,3	15,6	1,2	55
Индонезия	66	20,8	13,1	1,1	43
Гана	58	16,2	48,2	1,6	38
Узбекистан	45	13,7	11,2	0,8	71

Кения при 79% охвате и умеренной доле госбанков (35%) даёт 1,4 п.п. снижения бедности в год. Бангладеш при более низком охвате (53%), но с развитой отраслью МФО — наилучший результат: 1,9 п.п. в год. Узбекистан при наименьшем охвате (45%) и наибольшей доле госбанков (71%) — лишь 0,8 п.п. в год.

Боливийский контрпример важен: там государственный BDP выступает оптовым кредитором для МФО, а не доминирующим розничным игроком — и это дало один из лучших показателей МСП-кредитования (27,3% ВВП). Разница принципиальная.

Механизмы воздействия банков на бедность. Кенийская история — про цифровые финансы. M-Pesa к 2021 году обслуживала более 30 млн пользователей. Исследование Джека и Сури (2014) показало: доступ к мобильным деньгам увеличил потребление беднейших домохозяйств на

5,4% — не через кредит, а через снижение транзакционных издержек [16].

Бангладешская модель — групповые займы Grameen Bank. Коллективная ответственность заменила залог и охватила десятки миллионов сельских домохозяйств без счёта, кредитной истории и имущества [11].

Индонезийский Bank Rakyat Indonesia (BRI) к 2023 году обслуживал более 14 млн заёмщиков из нижнего квинтиля при NPL ниже среднеотраслевого (3,8% против 4,1%) [14]. Это прямое опровержение тезиса о несовместимости инклюзивности и коммерческой устойчивости.

Узбекистан — отдельный случай: относительно низкая бедность при низком охвате объясняется системой социальной поддержки и ценовыми субсидиями, а не банковским охватом. По мере рыночных реформ устойчивость такой модели становится вопросом.

Ключевые проблемы. Потребительское кредитование в Узбекистане за 2023–2024 годы выросло на 38%, а просроченная задолженность физических лиц — с 3,1% до 4,7% портфеля [21]. Более 40% жалоб клиентов МФО касались непрозрачности эффективной процентной ставки [28]. Финансовой грамотностью обладает лишь около трети взрослых жителей страны [9]. Это классические «ножницы»: займы расширяются быстрее, чем понимание того, как ими пользоваться.

Охват банковскими услугами в сельской местности составляет 31% против 67% в городах [22] — при том, что сельское население составляет около 49% [23]. Позитивный сигнал: Микрокредитбанк в 2024 году открыл 87 новых агентских пунктов в сельских районах, кредитный портфель вырос на 34% [29].

Выводы и предложения. Банки снижают бедность — но не автоматически и не для всех одинаково. Тип инструментов, структура рынка и наличие конкуренции за клиентов нижнего сегмента решают больше, чем общий объём кредитования. На основе анализа предлагается пять направлений для Узбекистана.

Первое — агентский банкинг через почту и телекомы. Государственная почта Узбекистана насчитывает более 1 500 отделений. Их конвертация в банковские агентские точки (по модели индонезийского BRILink с 120 тыс. сельских точек) способна к 2027 году увеличить охват на 10–15 п.п. [24].

Второе — гарантийный фонд для МСБ-кредитования. Боливийская модель: государство берёт на себя 50% кредитного риска, частные банки начинают работать с прежде «слишком рискованным» сегментом — без субсидирования ставок.

Третье — скоринг на основе транзакционных данных. В Узбекистане эмитировано более 42 млн карт HUMO и UzCard с ежемесячным оборотом свыше 180 трлн сум [22]. Кредитные модели на этих данных охватят, по оценке Эргашева О.Х. (2025), 4–6 млн новых кредитоспособных клиентов без формальной истории [26].

Четвёртое — пропорциональное регулирование для МФО. Из 88 микрокредитных организаций лишь 12 являются частными [28].

Упрощённый лицензионный режим по образцу бангладешского Microcredit Regulatory Authority создаст конкурентную среду без нагрузки на бюджет. Бобожонова М.А. (2024) подтверждает: отсутствие конкуренции — главный барьер для охвата сельского населения [25].

Пятое — публичная социальная отчётность. Ни один из пяти крупнейших госбанков не раскрывает долю кредитов домохозяйствам нижнего квинтиля. Введение стандарта по образцу Микрокредитбанка (67% заёмщиков с доходами ниже средних [29]) создаст рыночное давление на инклюзивную ориентацию. Юсупов К.Н. (2024) указывает: без публичной отчётности реформа приватизации рискует воспроизвести прежнюю корпоративную ориентацию [27].

Демографическая структура Узбекистана — молодое население (средний возраст 29 лет, более 55% моложе 30 лет [23]), высокая доля сельских жителей и рост безналичных платежей с 42% в 2021 году до 68% в 2024-м [22] — создаёт редкое окно возможностей. По оценке Всемирного банка (2025), последовательные реформы финансовой инклюзии способны к 2030 году снизить бедность ещё на 3–4 п.п. [30]. Вопрос не в потенциале — вопрос в том, успеют ли реформы за ним.

Список использованной литературы

1. United Nations. World Population Prospects 2024. — New York: UN, 2024.

2. World Bank. The Global Findex Database 2021. — Washington D.C.: World Bank, 2022.

3. Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D., Ansar S. The Global Findex Database 2021. — World Bank, 2022.

4. World Bank. World Development Indicators 2023. — Washington D.C., 2023.

5. IMF. Financial Access Survey 2023. — Washington D.C.: IMF, 2023.

6. Asian Development Bank. Financial Inclusion for Inclusive Growth. — Manila: ADB, 2024.

7. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Levine R. Finance, inequality and the poor // Journal of Economic Growth. — 2007. — Vol. 12. — No. 1. — P. 27–49.

8. IMF. Financial Inclusion: Can It Meet Multiple Macroeconomic Goals? // IMF Staff Discussion Note. — 2015. — SDN/15/17.

9. Roodman D. Due Diligence: An Impertinent Inquiry into Microfinance. — Washington D.C.: CGD Books, 2012.

10. ЦБ РУЗ. Обзор банковского сектора за 2023–2024 годы. — Ташкент: ЦБ РУЗ, 2024.

11. Yunus M. Banker to the Poor. — New York: PublicAffairs, 1999.

12. Central Bank of Kenya. Digital Credit Regulation. — Nairobi: CBK, 2022.

14. Bank Rakyat Indonesia. Annual Report 2022. — Jakarta: BRI, 2023.

16. Jack W., Suri T. Risk Sharing and Transactions Costs // American Economic Review. — 2014. — Vol. 104. — No. 1. — P. 183–223.

20. Иминов М.И. Оценка влияния демографических факторов на прибыльность банков // RAI Journal. — 2025. — № 6.
21. ЦБ РУЗ. Годовой отчёт о финансовой стабильности 2024–2025. — Ташкент: ЦБ РУЗ, 2025.
22. ЦБ РУЗ. Обзор финансовой инклюзии за 2024 год. — Ташкент: ЦБ РУЗ, 2025.
23. Госкомстат РУЗ. Уровень жизни населения: статистический сборник 2025. — Ташкент, 2025.
24. МЭФ РУЗ. Стратегия развития финансового рынка на 2023–2026 годы (ПП-4860). — Ташкент, 2023.
25. Бобожонова М.А. Микрофинансирование как инструмент снижения бедности в сельских районах // Вестник САМИЭС. — 2024. — № 3. — С. 45–58.
26. Эргашев О.Х. Цифровизация банковского сектора Узбекистана // Финансы Узбекистана. — 2025. — № 1. — С. 12–27.
27. Юсупов К.Н. Реформа госбанков Узбекистана // Вестник ТГЭУ. — 2024. — № 4. — С. 62–75.
28. АРРК. Отчёт о состоянии небанковских финансовых организаций за 2024 год. — Ташкент: АРРК, 2025.
29. Микрокредитбанк. Годовой отчёт 2024. — Ташкент: Микрокредитбанк, 2025.
30. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum: Pathways to Inclusive Growth. — Washington D.C.: World Bank, 2025.
31. IMF. Uzbekistan: Article IV Consultation — Staff Report 2025. — Washington D.C.: IMF, 2025.
32. Asian Development Bank. Uzbekistan Financial Sector Assessment 2025. — Manila: ADB, 2025.

NORASMIY VA NOSTANDART BANDLIKNI STATISTIK BAHOLASH METODIKALARI: XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON AMALIYOTI

Fayzullayev Nurulla Baxromovich
Urganch Ranch texnologiya universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrasi professor v.b., PhD., 90 649 5502,
nurullabek@mail.ru

Mehnat bozorini ilmiy tahlil qilishda “norasmiy bandlik” va “nostandart bandlik” tushunchalarini mazmunan farqlash uslubiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Xalqaro mehnat statistikasida norasmiylik, avvalo, ish o‘rnining huquqiy va institutsional tartibga solinish darajasi bilan bog‘lansa, nostandart bandlik esa mehnat munosabatlarining shakli, ish vaqti rejimi, shartnomaning turi, ishning davomiyligi va ijtimoiy himoya bilan qamrov darajasi orqali tavsiflanadi. Shu bois mazkur ikki kategoriya ayrim hollarda kesishishi mumkin bo‘lsa-da, ularni statistik hisobga olish va baholashda bir xil metodik yondashuvni qo‘llash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. 2023 yilgi 21-ICLS qarori norasmiy iqtisodiyot

statistikasini yaxlit ramkada ko‘rishni taklif etar ekan, u 15-ICLS va 17-ICLSda shakllangan avvalgi standartlarni yangilagan holda ularning o‘rnini bosishini ham qayd etadi[196].

Jahon amaliyotida norasmiy bandlikni baholashning uslubiy asosi bosqichma-bosqich shakllangan[197]. 1993 yilda 15-ICLS norasmiy sektordagi bandlikni statistik o‘lchash uchun asosiy ta’rif va chegaralarni belgilagan bo‘lsa, 2003 yilda 17-ICLS norasmiy bandlikka oid qo‘llanmani qabul qilib, norasmiy ish o‘rinlarini faqat norasmiy sektor doirasida emas, balki rasmiy sektor va uy xo‘jaliklari doirasida ham aniqlash imkonini berdi. Keyinchalik 2013 yilgi 19-ICLS mehnat, bandlik va mehnat resurslaridan yetarlicha foydalanmaslik statistikasini yangilab, “ish”, “bandlik” va etalon davr masalalarini qayta ko‘rib chiqdi. 2018 yilgi 20-ICLS esa ish munosabatlari statistikasi uchun yangi ICSE-18 tasnifini joriy qildi[198]. Demak, zamonaviy xalqaro metodikada norasmiy bandlikni baholash mehnat bozorini oddiy “rasmiy–norasmiy” ikkilikda emas, balki ko‘p o‘lchamli institutsional va shartnomaviy munosabatlar tizimi orqali tahlil qilishga asoslanadi.

Xalqaro statistik amaliyotda norasmiy bandlikni o‘lchashning eng keng tarqalgan usuli — uy xo‘jaliklari kuzatuvlari va mehnat kuchi so‘rovlaridir. ILOning maxsus qo‘llanmasida mehnat kuchi so‘rovlari norasmiy sektor va norasmiy bandlikni o‘lchash uchun “**particularly suited**”, ya’ni ayniqsa mos manba ekani ta’kidlangan[199]. Buning asosiy sababi shundaki, mazkur so‘rovlar mehnat bozorida ishtirok etishni shaxs darajasida aniqlashga qaratilgan bo‘lib, asosiy va qo‘shimcha ish joylarini, ish turini, to‘lov shaklini, mehnat shartlarini va ijtimoiy himoya bilan qamrovni bir vaqtning o‘zida kuzatish imkonini beradi. Shu bilan birga, xalqaro amaliyotda korxona so‘rovlari, aralash 1-2-3 turidagi so‘rovlar hamda milliy hisoblar uchun bilvosita usullar — xususan, mehnat sarfi, daromad, xarajat va tovar oqimi usullari — qo‘shimcha manba sifatida qo‘llaniladi. OECD, IMF, ILO va MDH Statqo‘mitasi hamkorligida tayyorlangan qo‘llanma kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholashda aynan shu kabi kombinatsiyalashgan yondashuvni xalqaro eng yaxshi amaliyot sifatida tavsiya qiladi[200].

Nostandart bandlikni baholashda esa yagona bitta koeffitsiyent emas, balki

---

[196] Note on the implementation of statistical standards from the 19th, 20th and 21st ICLS through household surveys. July 2024. URL: https://www.ilo.org/sites/default/files/2025-02/20240628_19th%2020th%2021st%20icls_implementation%20note_WITH%20ANNEXES%20AND%20COVER.pdf

[197] Measuring informality: a statistical manual on the informal sector and informal employment/ International Labour Office. - Geneva: ILO, 2013. URL: https://www.ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/%40dgreports/%40dcomm/%40publ/documents/publication/wcms_222979.pdf

[198] International Classification of Status in Employment (ICSE-18) Manual. August 2023. URL: https://webapps.ilo.org/ilostat-files/Documents/ICSE-18_manual.pdf

[199] Measuring informality: a statistical manual on the informal sector and informal employment/ International Labour Office. - Geneva: ILO, 2013. URL: https://www.ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/%40dgreports/%40dcomm/%40publ/documents/publication/wcms_222979.pdf

[200] Measuring the Non-Observed Economy A Handbook. URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2002/05/measuring-the-non-observed-economy-a-handbook_g1ghge7e/9789264175358-en.pdf

ish munosabatlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi qo‘llaniladi. ICSE-18 qo‘llanmasiga ko‘ra, bunday statistika uchun ish kelishuvining davomiyligi, bandlik kelishuvining turi, shartnomaviy ish soatlari, haq to‘lash shakli, to‘liq va qisman bandlik holati, mavsumiylik, ishning uyda bajarilishi, ko‘p tomonlama ish munosabatlari, ishga bog‘liq ijtimoiy himoya, haq to‘lanadigan yillik ta’til va kasallik ta’tili kabi cross-cutting variables muhim hisoblanadi[201]. Shuningdek, ICSE-18da “dependent contractors” alohida status sifatida ajratilgan bo‘lib, bu amalda platformali mehnat, formal jihatdan mustaqil, amalda esa bir sub’ektga iqtisodiy jihatdan qaram ishlovchi shaxslarni statistik aniqlash imkonini kengaytiradi. Bu holat nostandart bandlikni baholashda zamonaviy mehnat munosabatlarining gibrid va chegaraviy shakllarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda bandlik statistikasining konseptual va uslubiy asosi rasman Xalqaro mehnat tashkiloti standartlariga tayanadi. Milliy statistika metama’lumotlarida “Bandlik bo‘yicha konsepsiya va ta’riflar Xalqaro mehnat tashkiloti standartiga asoslangan” deb qayd etilgan. Shu hujjatda milliy me’yoriy asos sifatida 2017 yil 22 dekabrdagi 1011-son Vazirlar Mahkamasi qarori[202] hamda Davlat statistika qo‘mitasining 2018 yil 4 maydagi 13-son qarori bilan tasdiqlangan “Mehnat resurslari hisobot balansini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom” ko‘rsatilgan. Mazkur yondashuvdan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda mehnat bozorini statistik kuzatish xalqaro standartlarga moslashtirilgan milliy normativ baza orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston amaliyotida norasmiy bandlikni baholashning eng aniq va rasmiy tartibi 2017 yilgi 1011-son qarorda mustahkamlangan. Unda iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlikni aniqlash uchun ikki asosiy mezon belgilangan: birinchisi, shaxsning “haftasiga kamida ikki soat” haq to‘lanadigan faoliyat bilan band bo‘lishi; ikkinchisi, ushbu faoliyatdan muntazam haftalik daromad mavjud bo‘lishi. Qarorga muvofiq, norasmiy sektorda bandlar soni yilda to‘rt marta o‘tkaziladigan tanlanma o‘rganishlar asosida hisoblanadi[203]. Hisoblash algoritmi ham aniq berilgan: avval norasmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi so‘ralganlar ulushi RDIi = NIi : NI × 100 formulasi orqali aniqlanadi, so‘ng mazkur ulush mehnatga layoqatli aholi soniga tatbiq etilib EIsi = WAP × RDIi : 100 formulasi bo‘yicha faoliyat turi kesimida norasmiy bandlar soni hisoblanadi, yakunda esa barcha faoliyat turlari bo‘yicha yig‘indi olinadi. Bu uslubiyat O‘zbekistonda norasmiy bandlikni baholashning so‘rov ma’lumotlariga asoslangan, lekin normativ jihatdan qat’iy reglamentlashtirilgan modelini ifodalaydi.

---

[201] International Classification of Status in Employment (ICSE-18) Manual. August 2023. URL: https://webapps.ilo.org/ilostat-files/Documents/ICSE-18_manual.pdf

[202] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi “Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1011-son qarori. URL: https://lex.uz/docs/-3469433

[203] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi “Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1011-son qarori. URL: https://lex.uz/docs/-3469433

Shu bilan birga, O‘zbekiston statistika amaliyotida nostandart bandlik elementlari ham hisobga olinadi. Jumladan, rasmiy metama’lumotda ish bilan bandlar tarkibiga “to‘liq bo‘lmagan ish vaqti mobaynida”, “uyda ish haqi olib”, “vaqtinchalik ishga ega bo‘lgan” yollanma xodimlar, shuningdek o‘zini mustaqil ravishda ish bilan ta’minlovchilar ham kiritilgan. Bu holat nostandart bandlikning ayrim shakllari milliy statistikada mavjud ekanini ko‘rsatadi. Biroq ochiq rasmiy manbalar tahlili shuni anglatadiki, norasmiy bandlikdan farqli ravishda nostandart bandlikning barcha turlarini yagona tasnif va yagona hisoblash algoritmi asosida qamrab oluvchi mustaqil milliy metodika hozircha to‘liq ommalashtirilmagan. 2023 yil bo‘yicha Statistika dasturi ijrosi to‘g‘risidagi rasmiy hisobotda “Bandlikni nostandart shakli va yangi turdagi mehnat faoliyatining statistika hisobini yuritish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” ishlab chiqilgani qayd etilgani mazkur yo‘nalishda institutsional ish olib borilayotganini ko‘rsatadi, ammo bu hali to‘laqonli umummilliy ochiq standart shaklida emas.

O‘zbekistonda norasmiy va nostandart bandlikni baholashni takomillashtirish nuqtai nazaridan, xalqaro va milliy yondashuvlarni integratsiya qilish zarur. Birinchidan, norasmiy bandlikni ILOning 21-ICLS ramkasiga mos ravishda ish o‘rni darajasida baholashni davom ettirish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, nostandart bandlikni ICSE-18 logikasi asosida vaqtinchalik bandlik, qisman bandlik, uyda ishlash, platformali mehnat, mavsumiy ish, ko‘p tomonlama mehnat munosabatlari va iqtisodiy jihatdan qaram pudratchilar kesimida maxsus statistik modullar orqali kuzatish lozim. Uchinchidan, norasmiy iqtisodiyot va kuzatilmaydigan iqtisodiyot ko‘rsatkichlarini milliy hisoblar bilan muvofiqlashtirish talab etiladi, zero O‘zbekiston milliy hisoblari metama’lumotida norasmiy sektor ko‘rsatkichlari baholanishi, kuzatilmaydigan iqtisodiyot statistikasi esa maxsus tadqiqotlar, ma’muriy ma’lumotlar va tanlanma uy xo‘jaliklari so‘rovlari asosida shakllantirilishi ko‘rsatilgan[204].

Shunday qilib, jahon amaliyotida norasmiy bandlikni baholashda asosiy e’tibor ish o‘rnining formal institutlar bilan qamroviga qaratilsa, nostandart bandlikni baholashda mehnat munosabatlarining tarkibiy xilma-xilligi, shartnomaviy noaniqlik va ijtimoiy himoya darajasiga urg‘u beriladi. O‘zbekistonda norasmiy bandlik uchun huquqiy va statistik hisoblash algoritmi shakllangan, nostandart bandlik bo‘yicha esa hisobga olish amaliyoti mavjud bo‘lsa-da, uni alohida kompleks milliy metodika sifatida chuqurlashtirish ehtiyoji saqlanib qolmoqda. Ilmiy nuqtai nazardan, mazkur holat dissertatsion tadqiqotda O‘zbekiston uchun norasmiy va nostandart bandlikni bir vaqtning o‘zida, ammo turli metodik mezonlar asosida baholaydigan integral model taklif qilish zarurligini asoslaydi.

[204] Uzbekistan: Metadata: Non-observed economy. URL: https://stat.uz/img/news/812-sns_non-observed-economy-en_p89030.pdf

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. International Labour Organization. *Resolution concerning statistics on the informal economy*. Adopted by the 21st International Conference of Labour Statisticians, 2023.
2. International Labour Organization. *Measuring informality: A statistical manual on the informal sector and informal employment*. Geneva: ILO, 2013.URL: https://www.ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/%40dgreports/%40dcomm/%40publ/documents/publication/wcms_222979.pdf
3. International Labour Organization. *Guidelines concerning a statistical definition of informal employment*. 17th International Conference of Labour Statisticians, 2003.
4. International Labour Organization. *Resolution concerning statistics of work, employment and labour underutilization*. 19th International Conference of Labour Statisticians, 2013.
5. International Labour Organization. *International Classification of Status in Employment (ICSE-18) Manual*. Geneva: ILO, 2023. URL: https://webapps.ilo.org/ilostat-files/Documents/ICSE-18_manual.pdf
6. OECD, IMF, ILO, CIS STAT. *Measuring the Non-Observed Economy: A Handbook*. Paris: OECD, 2002.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrdagi “Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo‘jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1011-son qarori. URL: https://lex.uz/docs/-3469433.
8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo’mitasi. *Non-observed Economy Metadata*. Toshkent, 2025. https://stat.uz/img/news/812-sns_non-observed-economy-en_p89030.pdf

SAVDO KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARIDA OLIB BORILAYOTGANISLOHATLAR

Ilmiy rahbar: Qodirov Y.S
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Bank ishi” kafedrasi assitenti stajori
Karimov Shohimardon
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya*. Savdo korxonalari iqtisodiyotning muhim bo'g'ini bo'lib, ularning barqaror rivojlanishi mamlakat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonda tijorat banklari moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali muhim rol o'ynaydi. Maqolada tijorat banklarida savdo korxonalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan so'nggi islohatlar tahlil qilinadi. Xususan, kreditlash mexanizmlarini*

takomillashtirish, raqamli bank xizmatlarini joriy etish va moliyaviy resurslarga kirishni osonlashtirish kabi yo'nalishlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari bank islohatlarining savdo sektoriga ijobiy ta'sirini baholash va kelgusi rivojlanish strategiyalarini shakllantirish uchun asos bo'ladi.

Kalit so'zlar: *Savdo korxonalari, Tijorat banklari, Bank islohatlari, Moliyaviy xizmatlar, Kreditlash, Raqamli bank, Iqtisodiy rivojlanish.*

Abstract. *Trade enterprises are a vital segment of the economy, and their sustainable development directly impacts national progress. Commercial banks play a crucial role in this process by providing essential financial services. This article analyzes recent reforms implemented in commercial banks aimed at supporting the development of trade enterprises. Specifically, it examines improvements in lending mechanisms, the introduction of digital banking services, and efforts to facilitate access to financial resources. The findings of this research will serve as a basis for evaluating the positive impact of banking reforms on the trade sector and for formulating future development strategies.*

Keywords: *Trade enterprises, Commercial banks, Banking reforms, Financial services, Lending mechanisms, Digital banking, Economic development*

Аннотация. *Торговые предприятия являются жизненно важным сегментом экономики, и их устойчивое развитие напрямую влияет на национальный прогресс. Коммерческие банки играют ключевую роль в этом процессе, предоставляя необходимые финансовые услуги. В данной статье анализируются недавние реформы, проводимые в коммерческих банках, направленные на поддержку развития торговых предприятий. В частности, рассматриваются улучшения в механизмах кредитования, внедрение цифровых банковских услуг и меры по облегчению доступа к финансовым ресурсам. Результаты исследования послужат основой для оценки положительного влияния банковских реформ на торговый сектор и для формирования будущих стратегий развития.*

Ключевые слова: *Торговые предприятия, Коммерческие банки, Банковские реформы, Финансовые услуги, Механизмы кредитования, Цифровой банкинг, Экономическое развитие.*

Kirish.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar mamlakatning barcha sohalarida, jumladan, moliyaviy tizimda ham chuqur o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Tijorat banklari ushbu jarayonning markazida turib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini, xususan, savdo korxonalarini moliyalashtirish va ularning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda bank xizmatlarining sifati oshib, raqobat kuchayishi natijasida banklar va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada yaxshilandi. Bank tizimini mustahkamlash, moliyaviy barqarorlikni oshirish va ichki moliyaviy xizmatlarni kengaytirishga qaratilgan strategik sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda [1]. Biroq, davlatning bank tizimidagi yuqori ishtiroki, resurslardan samarasiz foydalanish va innovatsiyalarning yetarli emasligi kabi muammolar moliyaviy xizmatlarning ommabopligini cheklamoqda [1]. Shu bilan birga, banklar tomonidan yangi, innovatsion moliyalashtirish instrumentlari joriy

etilmoqda. Masalan, "yashil" moliyalashtirish vositalarining joriy etilishi va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning kuchaytirilishi bunga yaqqol misoldir. O‘zsanoatqurilishbank va Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YTTB) o‘rtasidagi hamkorlik doirasida "yashil" kredit liniyalari va grant dasturlari savdo korxonalarining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda [4]. Ushbu maqola tijorat banklarida olib borilayotgan islohotlarning savdo korxonalarini moliyalashtirish, investitsion faolligini oshirish va raqamli transformatsiyasiga ta’sirini chuqur tahlil qilishni maqsad qilgan. Unda banklarning yangi instrumentlari, raqamli xizmatlar va ularning savdo sektoriga ta’siri, shuningdek, kelajakdagi istiqbollar atroflicha ko‘rib chiqiladi. Tijorat banklari faoliyatidagi o‘zgarishlar savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va ularning xalqaro bozorlardagi ishtirokini kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda tijorat banklarida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning iqtisodiyotning turli tarmoqlariga, xususan, savdo korxonalari rivojlanishiga ta'siri akademik doiralarda va amaliyotchi mutaxassislar orasida qizg'in muhokama qilinmoqda. Adabiyotlar tahlili bank islohotlari moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, savdo korxonalarining moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, investitsion faolligini oshirish va raqobatbardoshligini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston misolida, tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi bo'yicha tadqiqotlar, 2000-yillardan keyingi davrda bank xizmatlarining universalizatsiyasi va ixtisoslashuvdan uzoqlashish tendensiyasini qayd etadi [1]. Ilmiy ishlar bank tizimini mustahkamlash, moliyaviy barqarorlikni oshirish va ichki moliyaviy xizmatlarni kengaytirishga qaratilgan strategik sa'y-harakatlar ijobiy natijalar berganini ko'rsatadi. Xususan, banklar va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning yaxshilanishi, xizmatlar sifatining oshishi va raqobatning kuchayishi savdo korxonalarining moliyaviy resurslarga erishish imkoniyatlarini kengaytirgan. Biroq, adabiyotlarda bank tizimidagi davlat ishtirokining yuqoriligi, resurslardan samarasiz foydalanish, davlat banklarining "rivojlanish banklari" sifatida bozor stavkalaridan past foizlarda kredit berishi, korporativ mijozlarga haddan tashqari e'tibor va innovatsiyalarning yetishmasligi sababli moliyaviy xizmatlarning ommabopligi pastligi kabi muammolar ham ko'rsatib o'tiladi [1]. Chakana bank mahsulotlarini rivojlantirish va institutsional asoslarni takomillashtirish zarurati ham ilmiy ishlarda ta'kidlanadi [1].

Savdo korxonalarini moliyalashtirishda an'anaviy va innovatsion instrumentlarning roli adabiyotlarda atroflicha tahlil qilingan. Akkreditivlar va bank kafolatlari kabi savdo moliyalashtirish vositalari xalqaro savdo operatsiyalarida xavflarni kamaytirish va to'lovlarni kafolatlashda muhim ahamiyatga ega. KDB Bank Uzbekistan kabi xorijiy banklarning ilg'or savdo moliyalashtirish yechimlari, xalqaro hamkor banklar bilan ishlashi va UCP 600, INCOTERMS 2010 kabi standartlarga rioya qilishi bu sohadagi yutuqdir [2]. Ular akkreditivlarni ochish, tasdiqlash, import va eksport akkreditivlarini qayta ishlash

kabi xizmatlar orqali savdo korxonalarining tashqi savdo faoliyatini osonlashtiradi. Shuningdek, avans to'lovi, tender, ijro va to'lov kafolatlari kabi bank kafolatlari savdo bitimlarining xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [2]. Mahalliy banklar, masalan, HamkorBank tomonidan taklif etilayotgan "Savdo moliyalashtirishi" xizmati eksport-import shartnomalari asosidagi operatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, akkreditivlar kabi instrumentlardan faol foydalanadi [3]. Ushbu xizmatlar moslashuvchan kredit miqdorlari, 12 oygacha bo'lgan muddatlar va xorijiy valyutada mablag' ajratish imkoniyatini berib, savdo korxonalarining aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday moliyalashtirish savdo korxonalarining likvidligini oshirib, bozorlardagi mavqeini mustahkamlashda muhimdir [3].

Bank islohotlari doirasida joriy etilayotgan innovatsion moliyalashtirish instrumentlari, ayniqsa, "yashil" moliyalashtirish vositalari va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik masalasi ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilmoqda. O'zsanoatqurilishbank (SQB) va Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YTTB) o'rtasidagi hamkorlik doirasida "yashil" kredit liniyalari va grant dasturlarining joriy etilishi savdo korxonalarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida ko'rib chiqiladi [4]. Ushbu hamkorlik natijasida SQB Markaziy Osiyodagi birinchi "yashil bank"ga aylangan va YTTBning "Green Economy Financing Facility (GEFF)" dasturi doirasida ajratilgan kredit liniyalari savdo sektorida ekologik mas'uliyatli biznes amaliyotlarini rag'batlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarning yorqin namunasidir [4]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday moliyalashtirish instrumentlari korxonalarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirib, ijtimoiy va ekologik mas'uliyatini oshirishga yordam beradi, bu uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashda muhimdir. "Green Technology Selector" ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyati esa savdo korxonalariga energiya samaradorligini oshirish va resurslarni tejashga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirishda amaliy yordam beradi [4].

Shuningdek, bank sektoridagi raqamli transformatsiya va uning savdo korxonalari faoliyatiga ta'siri ham zamonaviy adabiyotlarda keng muhokama qilinmoqda. Raqamli bank xizmatlari (onlayn banking, mobil ilovalar, elektron to'lov tizimlari, blokcheyn asosidagi savdo moliyalashtirish platformalari) savdo operatsiyalarining tezligi, shaffofligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirishi ta'kidlanadi. Ilmiy ishlar raqamli yechimlar savdo korxonalariga moliyaviy resurslarga tezroq va osonroq kirish imkoniyatini berib, operatsion xarajatlarni kamaytirish, yangi bozorlarga chiqish va savdo zanjirlarini optimallashtirishga yordam berishini ko'rsatadi. Biroq, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar himoyasi va raqamli ko'nikmalarning yetishmasligi kabi muammolar ham tadqiqotchilar e'tiborida. Ushbu muammolarni hal etish banklar va savdo korxonalari o'rtasidagi raqamli hamkorlikni mustahkamlash uchun muhimdir.

Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlar tahlili tijorat banklarida olib borilayotgan islohotlarning savdo korxonalarini moliyalashtirish va rivojlantirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Tadqiqotlar bank tizimining barqarorligini oshirish, moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilash va yangi, innovatsion instrumentlarni joriy etish orqali savdo sektorining o'sishini qo'llab-

quvvatlash zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda bank tizimidagi davlat ishtirokining savdo korxonalariga ta'siri, raqamli transformatsiyaning kichik va o'rta savdo korxonalari uchun yaratayotgan imkoniyatlari va muammolari, shuningdek, "yashil" moliyalashtirishning savdo sektoridagi amaliy natijalari bo'yicha chuqurroq empirik tadqiqotlarga ehtiyoj bor. Ushbu maqola yuqorida qayd etilgan bo'shliqlarni to'ldirishga va tijorat banklari islohotlarining savdo korxonalari rivojlanishiga ta'sirini yanada chuqur tahlil qilishga intiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada savdo korxonalarini rivojlantirishda tijorat banklarida olib borilayotgan islohotlarning ta’sirini chuqur tahlil qilish maqsadida kompleks tadqiqot metodologiyasi qo‘llaniladi. Tadqiqotning asosiy yondashuvi deskriptiv-analitik bo‘lib, mavjud ma’lumotlar va adabiyotlarni tanqidiy sintez qilishga qaratilgan. Bu yondashuv bank islohotlarining nazariy asoslarini, ularning amaliy natijalarini va savdo sektoriga ko‘rsatayotgan ta’sirini har tomonlama o‘rganish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot O‘zbekiston sharoitida bank tizimidagi davlat ishtirokining savdo korxonalariga ta’siri, raqamli transformatsiyaning kichik va o‘rta savdo korxonalari uchun yaratayotgan imkoniyatlari va muammolari, shuningdek, “yashil” moliyalashtirishning savdo sektoridagi amaliy natijalari bo‘yicha mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishga intiladi.

Ma’lumotlarni yig‘ish usullari asosan ikkilamchi manbalarga tayanadi. Bularga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy hisobotlari, tijorat banklarining yillik hisobotlari va moliyaviy ma’lumotlari (masalan, O‘zsanoatqurilishbank [4], KDB Bank Uzbekistan [2], HamkorBank [3] kabi yetakchi banklarning ma’lumotlari), hukumatning bank-moliya tizimini isloh qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlari, Prezident farmonlari va qarorlari, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishga oid statistik ma’lumotlar kiradi. Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari (masalan, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki – YTTB) va boshqa tegishli tashkilotlarning hisobotlari hamda tadqiqotlari tahlil qilinadi. Ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, dissertatsiyalar va ilmiy jurnallardagi maqolalar ham nazariy asoslarni mustahkamlash va mavjud tadqiqot natijalarini baholash uchun keng qo‘llaniladi. Ma’lumotlar yig‘ish jarayonida 2020-yildan keyin nashr etilgan manbalarga ustuvor ahamiyat beriladi, bu esa tadqiqotning dolzarbligini ta’minlaydi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Birinchidan, kontent-tahlil usuli yordamida bank islohotlariga oid siyosiy hujjatlar va bank hisobotlaridagi asosiy yo‘nalishlar, maqsadlar va joriy etilgan yangi moliyaviy instrumentlar aniqlanadi. Bu, xususan, bank tizimidagi davlat ishtirokining kamaytirilishi, banklarning xususiylashtirilishi, moliyaviy xizmatlarning universalizatsiyasi va ixtisoslashuvdan uzoqlashish tendensiyalari [1] kabi masalalarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, qiyosiy tahlil orqali bank xizmatlarining sifati, savdo korxonalari uchun moliyalashtirish imkoniyatlari va investitsion faollikning vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarganligi baholanadi. Bunda an’anaviy savdo moliyalashtirish vositalari (akkreditivlar, bank kafolatlari) [2, 3] hamda innovatsion instrumentlar (masalan, “yashil” kredit

liniyalari va grant dasturlari) [4] ning savdo sektoriga ta’siri alohida ko‘rib chiqiladi. Uchinchidan, sifatli sintez usuli yordamida turli manbalardan olingan ma’lumotlar umumlashtirilib, bank islohotlarining savdo korxonalari rivojlanishiga ta’siri bo‘yicha yagona va izchil xulosa shakllantiriladi. To‘rtinchidan, tanqidiy baholash orqali islohotlarning samaradorligi, mavjud muammolar (resurslardan samarasiz foydalanish, innovatsiyalarning yetishmasligi, chakana bank mahsulotlarining yetarli emasligi [1]) va ularni hal etish yo‘llari aniqlanadi. Raqamli bank xizmatlarining (onlayn banking, mobil ilovalar, elektron to‘lov tizimlari) savdo operatsiyalarining tezligi, shaffofligi va samaradorligiga ta’siri hamda kiberxavfsizlik va ma’lumotlar himoyasi kabi muammolar alohida tahlil qilinadi.

Tadqiqotning asosiy doirasi O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari va savdo korxonalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga qaratilgan. Geografik jihatdan tadqiqot O‘zbekiston konteksti bilan cheklangan bo‘lsa-da, xalqaro tajribalar va ilg‘or amaliyotlar tahlil uchun qiyosiy asos sifatida xizmat qiladi. Vaqt jihatidan, asosiy e’tibor so‘nggi yillarda, xususan, 2017-yildan keyin amalga oshirilgan bank islohotlariga qaratiladi, chunki bu davr moliyaviy tizimda eng jadal o‘zgarishlar davri bo‘ldi.

Tadqiqotning cheklovlari mavjud ma’lumotlarning ochiqligi va to‘liqligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ba’zi banklar va savdo korxonalari faoliyatiga oid batafsil ichki ma’lumotlarga kirish imkoniyatining cheklanganligi tahlilning chuqurligiga ta’sir qilishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot asosan ikkilamchi ma’lumotlarga tayanganligi sababli, savdo korxonalari rahbarlari va xodimlarining islohotlarga bo‘lgan subyektiv munosabatlari va amaliy tajribalari to‘liq aks ettirilmasligi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun empirik so‘rovlar va intervyular o‘tkazish orqali ushbu cheklovlarni bartaraf etish tavsiya etiladi.

Tanlangan metodologiya maqolaning maqsadlariga erishish va adabiyotlar tahlilida aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun eng maqbul hisoblanadi. Deskriptiv-analitik yondashuv bank islohotlarining murakkab mexanizmlarini va ularning savdo sektoriga ko‘p qirrali ta’sirini tizimli ravishda o‘rganishga imkon beradi. Kontent-tahlil va qiyosiy tahlil usullari islohotlarning mazmunini va ularning samaradorligini baholashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Sifatli sintez esa turli ma’lumotlar asosida umumiy xulosalar chiqarish va kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha asosli tavsiyalar berish imkonini yaratadi. Ushbu metodologiya tijorat banklari islohotlarining savdo korxonalari rivojlanishiga ta’sirini chuqur va har tomonlama tahlil qilish orqali mavzuga oid ilmiy bilimlarni boyitishga va amaliy siyosatni ishlab chiqishga hissa qo‘shadi.

Xulosa.

Ushbu tadqiqot tijorat banklarida olib borilayotgan islohotlarning savdo korxonalarini rivojlantirishdagi muhim rolini atroflicha tahlil qildi. Bank tizimini mustahkamlash, moliyaviy barqarorlikni oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilash savdo sektorining moliyaviy resurslarga erishish imkoniyatlarini kengaytirdi. An'anaviy savdo moliyalashtirish vositalari bilan bir qatorda, "yashil" moliyalashtirish kabi innovatsion instrumentlar va raqamli bank xizmatlarining joriy etilishi savdo operatsiyalarining samaradorligini oshirib, korxonalarning

raqobatbardoshligini mustahkamladi. Biroq, davlat ishtirokining yuqoriligi va innovatsiyalarning yetishmasligi kabi muammolar hal etilishi lozim. Kelajakda banklarning savdo sektorini qo'llab-quvvatlashdagi roli yanada ortib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Arner, D. W., Buckley, R. P., & Zetzsche, D. A. (Muharrirlar). Raqamli Transformatsiya Bank va Moliya sohasida: Tadqiqot Qo'llanmasi. Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2023.

2. Das, D. K. (Ed.). Moliyaviy inklyuziya va Raqamli transformatsiya: Global nuqtai nazarlar. Abingdon: Routledge, 2022.

3. Agyei, A. K., & Asamoah, D. "Raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanayotgan iqtisodiyotlardagi KOB faoliyatiga ta'siri." Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish jurnali, vol. 29, no. 4, 2022, pp. 541-560.

4. Koomson, I., & Danquah, M. "Moliyaviy sektor islohotlari va Kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish: Sahroi Kabir janubidagi Afrikadan dalillar." Afrika Taraqqiyot Sharhi, vol. 32, no. 4, 2020, pp. 541-554.

5. Zhang, D., Zhang, Z., & Managi, S. "Yashil moliya va barqaror rivojlanish: rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda tijorat banklarining roli." Energiya Iqtisodiyoti, vol. 102, 2021, pp. 105492.

6. Khan, M. A., & Zahid, M. "Moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish va uning Kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishga ta'siri: Rivojlanayotgan bozorlar misolida." Moliyaviy xizmatlar tadqiqotlari jurnali, jild. 63, son. 1, 2023, betlar. 1-28.

7. Chen, Y., & Li, J. "Bank raqobati va moliyaviy barqarorlik rivojlanayotgan bozorlarda: tartibga solish islohotlarining roli." Rivojlanayotgan Bozorlar Sharhi, vol. 45, 2020, pp. 100735.

8. Fan, G. G. W., & Lau, H. C. Y. "Savdo moliyasini raqamlashtirish: Banklar va bizneslar uchun imkoniyatlar va muammolar." Xalqaro savdo huquqi va siyosati jurnali, vol. 21, no. 2, 2022, pp. 117-134.

KAMBAG‘ALLIKNI BELGILOVCHI OMILLAR HAMDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA XITOYNING X’IAN TAJRIBASI

I.X.Nasimov
Buxoro davlat texnika universiteti doktoranti

Bugungi kunda kambag‘allikni qisqartirishning muhim vazifalarini bajarishda kambag‘allik darajasini aniqlashning qator uslub va usullardan foydalanishni taqozo etadi. Bunda, eng avvalo kambag‘allik determinantlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kambag‘allikni belgilovchi omillar kambag‘allikning sabablari va darajasini belgilovchi asosiy omillar bo‘lib, ular orasida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va geografik sharoitlar, masalan, past daromad, ta‘lim va sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatining yo‘qligi, resurslarning (suv, uy-joy)

tanqisligi, yomon siyosat, mojarolar va iqlim kabi omillar jamiyatda qashshoqlik va tengsizlikka olib keladigan sharoitlarni yaratadi.

Hozirgi kunda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha Xitoyning X’ian provintsiyasi o‘tkazilayotgan davlat dasturlari asosan, kambag‘allikka qarshi kurashishda qayta joylashtirish (aholini ko‘chirish) dasturini o‘z ichiga oladi.

Kambag‘allikka qarshi kurashishda qayta joylashtirish (aholini ko‘chirish) dasturi deganda zaif ekologik hamda og‘ir tabiiy sharoitlarga va yuqori geologik ofatlar xavfiga ega hududlarda yashovchi kambag‘al aholining ko‘chirilishi tushuniladi. Fermerlarning ixtiyoriy ishtiroki tamoyiliga asoslanib va hukumatning yagona boshchiligi ostida bu aholi yashash va ishlab chiqarish sharoitlari yaxshiroq bo‘lgan hududlarga ko‘chirilishini nazarda tutadi.

Albatta bunda maqsadli guruh aniqlanib, unga ma‘lum kambag‘allik mezonlari asosida ro‘yxatdan o‘tgan kambag‘al oilalar kiritiladi. Xitoyning X’ian tajribasi ko‘ra kambag‘allik mezonlari daromadga nisbatan kambag‘allik chegarasi sifatida qishloq aholisiga 2013-yilda o‘rtacha yillik sof daromad 2736 ¥ yuan (389,27 $ dollar)ni tashkil etgan (bu esa 2010-yildagi doimiy narxlarda 2300 ¥ yuan (327,24 $ dollar) qiymatiga teng).

Aholini qulay hudularga ko‘chirish asosan uy xo‘jaliklarining daromadini asosiy mezon sifatida hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Shuningdek, uy-joy, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi omillarni hisobga olgan holda, maqsadli audit (tekshiruv) jarayoni uy xo‘jaliklarining arizalarini, demokratik muhokamalarni, ommaviy e’lonlarni va ierarxik tekshirishni amalga oshirgan holda bajariladi.

Ushbu dasturda ko‘zlangan maqsad ekologik vaziyat sabab aholini ko‘chirish ko‘chib o‘tish hududlarida tabiiy muhitni muhofaza qilish, geologik va suv toshqini xavflari bilan bog‘liq ofatlarning oldini olish hamda ko‘chirilgan oilalarni kambag‘allikdan chiqarishga ko‘maklashish hisoblanadi.

Bundan tashqari ushbu dasturda integratsiyalashgan maqsadlar ham hisobga olinadi. Qishloq joylarda kambag‘allikni qisqartirish, kichik shaharlar qurilishi, ekologik himoya va tiklash kabi maqsadlarni organik integratsiya qilish, qishloq joylarda kambag‘allikni kamaytirish, yangi urbanizatsiya va qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning organik kombinatsiyasini rag‘batlantirish kabilar kiritiladi.

Xitoy Xalq Respublikasining X’ian provintsiyasi tomonidan kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat dasturi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olgan:

- ***Qayta joylashtirish rejimi.*** Aholni qishloqqa qayta joylashtirish umumiy aholining 48 foizni hamda aholini shaharga qayta joylashtirish aholining 52 foizini tashkil qilgan. Bunda qayta joylashtirish va shaharga qayta joylashtirish diqqat markazida bo‘ladi.

- ***Ko‘chirilgan xonadonlar uchun naqd kompensatsiya.*** Har bir kishi uchun 7,000 ¥ yuandan 10,000 ¥ gacha oralig‘da kompensatsiya to‘lovi amalga oshiriladi.

- ***Hukumat tomonidan taqdim etiladigan yangi uy-joylar.*** Aholi jon boshiga uy-joy maydoni $\leq 25m^2$ bo‘lgan xonadonlarning har bir ko‘chirish kompensatsiyasi to‘liq tayyor yoki tayyor bo‘lmagan yangi qurilgan uylar uchun 2500 ¥ yuandan kam bo‘lmasligi va har bir xonadon kompensatsiyasi 10000 ¥

yuandan oshmasligi kerak.

- ***Hukumat tomonidan ish bilan ta‘minlashda yordam***. Masalan, davlat ijtimoiy ta’minoti lavozimlari, ishchi kuchi eksporti imkoniyatlari, ko‘chirish hududlarida qo‘llab-quvvatlovchi qishloq xo‘jaligi yoki sanoat parklarini tashkil etish.

- Ko‘chirilish hududlarida (jamoalarda) infratuzilmani, asosiy davlat xizmatlarini va jamoat boshqaruvini yaxshilash.

1-jadval.

2010-2024 yillar oralig‘ida O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi hamda kambag‘al aholi soni.[205]

Yillar	Kambag‘allik darajasi (%)	Kambag‘al aholi (birlik: 10000 kishiga nisbatan)
2010	17,7	495,62
2011	16,0	965,97
2012	15,0	443,33
2013	14,1	422,91
2014	13,3	405,55
2015	12,8	397,08
2016	12,3	388,38
2017	11,9	382,23
2018	11,4	372,29
2019	11,0	365,81
2020	11,5	389,91
2021	17,0	587,50
2022	14,0	493,80
2023	11,8	401,9
2024	8,9	330

O‘zbekiston Prezidenti shu yil sentyabr oyida bo‘lib o‘tgan 3-O‘zbekiston xalqaro kambag‘allikni qisqartirish forumida O‘zbekiston 2030-yilga kelib mutlaq kambag‘allikni butunlay yo‘q qilish salohiyatiga ega ekanligini e’lon qildi.

Hozirga qadar O‘zbekiston Respublikasida 7,5 million kishi kambag‘allikdan muvaffaqiyatli chiqarildi va O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 2024-yilga kelib 8,9% gacha va 2025-yilga kelib 6% gacha pasayishi kutilmoqda (aholi jon boshiga yillik daromad 3500 dollarni tashkil etadi).[206]

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan istiqbolda quyidagi yettita asosiy kambag‘allikni qisqartirish rejasi amalga oshirilmoqda.

- bandlik imkoniyatlarini yaratish;

- kam ta’minlangan oilalar bepul maktabgacha ta’lim va chet tili hamda kasbiy ko‘nikmalarni o‘rganish uchun 80% subsidiyalar olishlari bilan ta’limni yaxshilash;

- ayollar bandligini qo‘llab-quvvatlash;

- tibbiy ta’minot doirasini kengaytirish va kam ta’minlangan oilalar zimmasidagi tibbiy yukni kamaytirish;

[205] Jahon Banki (WB) ma’lumotlari asosida shakllantirilgan.
[206] https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/09/poverty/

- ijtimoiy ta’minot tizimini isloh qilish, Milliy ijtimoiy ta’minot byurosini tashkil etish, barcha shaharlarda ijtimoiy xizmat ko‘rsatish markazlarini tashkil etish va nogiron bolalar uchun 100 million dollarlik ta’lim loyihasini amalga oshirish uchun Jahon Banki bilan hamkorlik qilish;

- infratuzilmani yaratish va 2025-yilga kelib mahalla infratuzilmasini yaxshilash, ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini yaratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha 400 million dollar ajratish;

- kambag‘allikni qisqartirishga mos keladigan yangi moliyaviy tizimni yaratish.

DEVELOPMENT OF A THEORETICAL CONCEPT FOR FINANCIAL REPORTING IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN

Shokhista Sh. Yakubova
PhD Student, Tashkent State University of Economics (TSUE)
shoxista.yakubova@tsue.uz
ORCID: 0009-0003-6333-3371

Abstract*. This paper presents a systematic analysis of the theoretical and methodological foundations of financial reporting in the Republic of Uzbekistan. Based on a comparative analysis of the current National Accounting Standards (NAS) and International Financial Reporting Standards (IFRS), a synthesis of domestic scholarly research, and a review of the regulatory framework, the study provides key findings and recommendations for harmonizing national standards with international principles in order to enhance the transparency of financial reporting and strengthen the investment attractiveness of Uzbekistani companies.*

Key words: *financial reporting, national accounting standards, international financial reporting standards, conceptual framework, harmonization of standards, Uzbekistan, digital transformation.*

The adoption of International Financial Reporting Standards (IFRS) is one of the most critical factors in enhancing corporate governance effectiveness, investment attractiveness, competitiveness, and business transparency. The application of IFRS is driven by the need to achieve comparability of business standards and accounting systems both across companies and across countries. On December 17, 2025, Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan, September 15, 2025, No RP-282 “On measures to improve the financial reporting system in accordance with international requirements and standards,” entried into force. Under this Resolution, effective January 1, 2026, Uzbekistan transitioned from the formal application of IFRS to a conceptual approach grounded in the international practice of Public Interest Entities (PIEs). Enterprises that do not fall within the category of publicly significant entities are exempt from the mandatory application of IFRS. The Resolution also emphasized the need to develop a concept for the advancement of accounting and auditing activities in Uzbekistan for the period 2025–2030. Thus, IFRS principles will encompass the entire

economy in an adapted form, creating a unified conceptual platform for financial accounting for all economic participants. The harmonization of Uzbekistan's national accounting standards with IFRS requirements represents a crucial step toward integration into the international economic system.

The pace of institutional reforms significantly outstrips the development of the theoretical and methodological framework supporting the reform. As Ismanov, I.N. and Savinova, G.A. (2021) rightly noted, a comparison of national accounting standards and IFRS reveals substantial discrepancies not only in the technical aspects of accounting but also in the very conceptual approaches to the formation of financial information. Therefore, the objective of this paper is to analyze the key aspects of the theoretical and methodological foundations of financial reporting and to propose recommendations for improving the theoretical concept optimally adapted to the country's conditions, while aligning the requirements of the national financial reporting system for business entities with IFRS concepts and approaches.

The regulatory framework governing accounting in Uzbekistan consists of a multi-tiered structure. Its foundation is established by the Law of the Republic of Uzbekistan "On Accounting" (as amended by Law No. ZRU-404, dated April 13, 2016), which defines the key requirements for the organization of accounting and the preparation of financial statements. This law establishes the composition of annual financial statements, comprising the balance sheet, the income statement, the cash flow statement, the statement of changes in equity, and explanatory notes (Article 16 of the Law).

The developers of NAS No. 1 "Accounting Policy and Financial Reporting" (Reg. No. 474, dated August 14, 1998) also laid the groundwork for the standardization of accounting in the republic. This standard defined the fundamental principles of accounting policy formation—going concern, accrual basis, materiality, and comparability—and established the minimum requirements for the content of financial statements. Alongside this, NAS No. 3 "Income Statement" (Reg. No. 484, dated August 26, 1998), NAS No. 9 "Cash Flow Statement," NAS No. 15 "Balance Sheet" (Reg. No. 1226, dated March 20, 2003), and other standards were adopted.

It is also important to note that NAS No. 1 was repealed effective January 1, 2025, following the adoption of the new National Accounting Standard "Presentation of Financial Statements and Accounting Policy" (Order of the Minister of Economy and Finance No. 130, dated June 14, 2024; Reg. No. 3544, dated August 6, 2024). Furthermore, a number of other NAS were updated in 2024–2025, which attests to the ongoing modernization of the regulatory framework.

Issues pertaining to accounting and financial reporting in the context of Uzbekistan, as well as the adaptation of international principles to national conditions, have received a degree of coverage in the scholarly research of domestic investigators. Ismanov, I.N. and Savinova, G.A. (2021), in their work "Comparison of Certain Aspects of National Accounting Standards and IFRS" (Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance),

conducted a comparative analysis of NAS and IFRS, identifying key differences in approaches to recognition, measurement, and disclosure of information. Savinova, G.A. (2023), in a separate publication "Distinctive Features of IFRS and NAS and Their Impact on Financial Reporting," examined the influence of differences between the standards on the quality of financial information. Karimov, Zh.A. (2025), in the publication "Accounting and Auditing Aspects of the Income Statement" (Innovations in Science and Technologies, Vol. 2, No. 6), analyzed methodological issues in the preparation of one of the key forms of financial statements. Badriddinov, N.K. (2025) investigated issues of "Improving the Accounting, Analysis, and Audit of an Organization's Financial Position Indicators" in the same journal, contributing to the development of methodological support for the analysis of financial statements.

Issues of convergence between national accounting systems and IFRS have also been widely explored in the international academic literature. The Conceptual Framework for Financial Reporting, updated by the International Accounting Standards Board (IASB) in 2018, defines the objectives of financial reporting, the qualitative characteristics of useful financial information, and the elements of financial statements. Studies of transition economies (Kazakhstan, Georgia, Belarus) demonstrate that successful convergence requires not only the formal adoption of standards but also the creation of an adequate institutional environment, a system for training qualified professionals, and quality control mechanisms.

IFRS are grounded in the concept of fair value and economic forecasts, whereas the NAS adhere to a more rigid and formalized approach based on historical costs and completed transactions. The disregard for the time value of money creates key discrepancies in the measurement of assets and liabilities, as well as in the timely recognition of losses. These discrepancies result in the total balance sheet value under NAS-based reporting being understated relative to IFRS-based reporting. Owing to these differences, financial statements prepared under NAS cannot be directly compared with those of international companies. Consequently, this distorts the perception of the scale of a company's operations and the associated credit risks, complicating analysis for foreign investors and creditors.

The Conceptual Framework for the Preparation and Presentation of Financial Statements of Uzbekistan was adopted in 1998 and has not undergone a systematic revision in over 25 years. The IASB updated its Conceptual Framework twice (in 2010 and 2018), substantially revising the objectives of financial reporting, the qualitative characteristics of information, and the criteria for recognition and measurement. These changes have not been reflected in the national Conceptual Framework for financial reporting. There is a lack of comprehensive studies dedicated to updating the conceptual foundations of financial reporting with due consideration for the institutional specificities of Uzbekistan. There is insufficient empirical research quantitatively assessing the quality of financial reporting prepared by Uzbekistani enterprises, as well as a shortage of studies investigating: the degree of compliance with NAS

requirements in reporting practices; the quality of disclosure in explanatory notes; the reliability of reporting indicators based on audit results; and the usefulness of reporting for the principal user groups (investors, creditors, and tax authorities). Theoretical models for simplified reporting that adequately account for the specificities of small businesses in Uzbekistan—such as the low qualification level of accounting personnel, the predominance of tax-driven motivation in preparing reports, and the weak interest of external users in the financial information of small enterprises—also remain insufficiently explored.

Issues related to accounting for exchange rate differences and inflationary processes in financial reporting are also highly relevant. The substantial volatility of the national currency (sum) and inflationary dynamics pose specific challenges for the preparers of financial statements, the theoretical foundations of which have been insufficiently developed.

The abolition of the mandatory submission of paper-based financial statements and the transition to electronic filing through taxpayer personal accounts have created prerequisites for the digital transformation of the accounting process. At the same time, theoretical issues related to the development of a digital model for financial reporting, the application of XBRL (Extensible Business Reporting Language) technology, blockchain, and artificial intelligence in Uzbekistan remain virtually unexplored.

The analysis conducted reveals a significant gap between the needs for reforming the accounting system and the level of theoretical and methodological support for this process. The most pressing issue is the obsolescence of the 1998 Conceptual Framework, as it is precisely this document that defines the theoretical foundation upon which the entire regulatory accounting system is built. In order to harmonize accounting and enhance the transparency of financial reporting, the following measures are proposed:

–develop an updated Conceptual Framework for the preparation of financial statements for Uzbekistani enterprises, structured across three tiers: (a) the IFRS tier—for Public Interest Entities (PIEs) that fully apply IFRS; (b) the National Financial Reporting Standards (NFRS) tier—for medium and small business entities applying national standards harmonized with IFRS; (c) the simplified reporting tier—for micro-enterprises and individual entrepreneurs; each tier featuring its own system of principles, recognition and measurement requirements, and a scope of disclosures proportional to the scale of operations and the needs of users;

–establish a research and methodology center (affiliated with the Tashkent State University of Economics or the Banking and Finance Academy), whose tasks would include, among others: conducting annual monitoring of the quality of financial reporting; developing disclosure quality indices; creating a database of financial statements of Uzbekistani companies for conducting empirical research; and coordinating scholarly work in the areas of accounting, auditing, and financial analysis;

–given that the overwhelming majority of business entities in Uzbekistan are small and medium-sized enterprises, it is proposed to develop a separate standard

combining the principles and approaches of “IFRS for SMEs” while accounting for national specificities. It is recommended that the standard provide for: simplified reporting forms with a minimum set of notes; the application of the cost approach (rather than fair value) as the primary measurement model; the integration of accounting and tax reporting to reduce the administrative burden; and the preparation of statements in electronic format through a unified portal;

–develop a unified national methodology for the transformation of financial statements from NAS format to IFRS, which should include: standard adjustments for each standard, accounting for industry-specific considerations; methodological guidelines for preparing the opening IFRS balance sheet; examples of transformation tables and calculations; and the development of a unified chart of accounts compatible with both systems of standards.

In our view, the implementation of the proposed measures will contribute to enhancing the quality of financial reporting, attracting investment, and fostering the development of the national economy. An important condition for achieving this is a phased approach that takes into account the specificities of the national legal system and economic conditions.

The proposed three-tiered conceptual model takes into consideration the realities of Uzbekistan’s economy, in which large Public Interest Entities (PIEs)—which are required to fully comply with international standards to attract foreign investment—coexist with a vast sector of small and medium-sized businesses, for which the application of the full version of IFRS would impose a disproportionate administrative burden. The proposed directions for development constitute an interconnected system of measures whose implementation is feasible on a phased basis over the period 2026–2030. Further research is recommended to focus on the empirical verification of the proposed conceptual model, the development of specific methodological guidelines, and the study of international experience of countries with similar institutional conditions.

REFERENCES:

1. Law of the Republic of Uzbekistan "On Accounting" (as amended by Law No. ZRU-404, dated April 13, 2016).

2. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-4611, dated February 24, 2020, " On additional measures for the transition to international financial reporting standards."

3. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-282, dated September 15, 2025, " On measures to improve the financial reporting system in accordance with international requirements and standards."

4. Conceptual Framework for the Preparation and Presentation of Financial Statements, approved by the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan on July 26, 1998, No. 17-07/86 (Reg. No. 475, dated August 14, 1998).

5. NAS No. 1 "Accounting Policy and Financial Reporting," approved by the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan on July 26, 1998 (Reg. No. 474, dated August 14, 1998).

6. NAS No. 3 "Income Statement" (Reg. No. 484, dated August 26, 1998).

7. NAS No. 8 "Consolidated Financial Statements and Accounting for Investments in Subsidiaries" (Reg. No. 580, dated December 28, 1998).
8. NAS No. 9 "Cash Flow Statement."
9. NAS No. 15 "Balance Sheet" (Reg. No. 1226, dated March 20, 2003).
10. NAS No. 1 "Presentation of Financial Statements and Accounting Policy" (new edition), approved by Order of the Minister of Economy and Finance No. 130, dated June 14, 2024 (Reg. No. 3544, dated August 6, 2024).
11. Regulation on the Approval of Forms and Deadlines for the Submission of Financial Statements No. 3567.
12. Badriddinov, N.K. (2025). Improving the Accounting, Analysis, and Audit of an Organization's Financial Position Indicators. Innovations in Science and Technologies.
13. Ismanov, I.N. & Savinova, G.A. (2021). Comparison of Certain Aspects of National Accounting Standards and IFRS. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance.
14. Karimov, Zh.A. (2025). Accounting and Auditing Aspects of the Income Statement. Innovations in Science and Technologies, 2(6).
15. Rozhnova, O.V. (2020). Current Issues in the Application of IFRS to the Measurement of Financial Instruments. Auditor, (4), 28–35.
16. Savinova, G.A. (2023). Distinctive Features of IFRS and NAS and Their Impact on Financial Reporting.
17. IASB (2018). Conceptual Framework for Financial Reporting. London: IFRS Foundation.
18. IFRS Foundation (2015). IFRS for Small and Medium-sized Entities (SMEs). London: IFRS Foundation.
19. World Bank (2020). Reports on the Observance of Standards and Codes (ROSC) — Accounting and Auditing (Central Asian countries).

XALQARO TAJRIBADA XAVFSIZ TO'LOV TIZIMLARI VA ULARNING BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

Niyozov Zuxur Davronovich
Samarqand iqtisodiyot va servis insitituti
"Bank ishi" kafedrasi i.f.n., prof. v. b.
Baxodirov Farruxbek
SamISI, "Bank-Moliya xizmatlari" fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalqaro amaliyotda xavfsiz to'lov tizimlari va ularning bank xizmatlari samaradorligini oshirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Singapur, Estoniya, Janubiy Koreya va Qozog'iston kabi mamlakatlarda xavfsiz to'lov tizimlarini rivojlantirish tajribasi o'rganiladi. Xavfsiz to'lov infratuzilmasining banklar raqobatbardoshligi, mijozlar qoniqishi hamda moliyaviy inklyuzivlik darajasiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida O'zbekiston bank sektorida xavfsiz to'lov tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *xavfsiz to‘lov tizimlari, bank samaradorligi, xalqaro tajriba, moliyaviy inklyuzivlik, kiberxavfsizlik, raqamli transformatsiya, to‘lov infratuzilmasi, bank raqobatbardoshligi.*

Kirish. Raqamli moliyaviy texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi bosqichda to‘lov tizimlarining xavfsizligi bank sektorining barqaror faoliyatini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy yondashuvlarga ko‘ra, to‘lov infratuzilmasining ishonchliligi moliyaviy operatsiyalarning uzluksizligini kafolatlash bilan bir qatorda, iqtisodiyot subyektlari o‘rtasida ishonch muhitini shakllantiradi. Natijada, bu holat investitsion faollikning oshishi, moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi hamda moliyaviy inklyuzivlik darajasining kengayishiga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, to‘lov tizimlarining yuqori darajada himoyalanganligi bank xizmatlari sifatiga va umumiy moliyaviy tizim samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Rivojlangan moliya markazlarida xavfsiz to‘lov infratuzilmasiga ustuvor ahamiyat berilishi natijasida bank xizmatlaridan foydalanish darajasi, kredit portfeli sifati va moliyaviy ko‘rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilangan. Shu jihatdan, ayrim davlatlar tajribasi xavfsiz to‘lov tizimlari bank sektorining raqobatbardoshligini oshirishda strategik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston bank tizimida ham so‘nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, naqdsiz to‘lovlar ulushining ortishi, yangi to‘lov platformalarining joriy etilishi hamda axborot xavfsizligi bo‘yicha me’yoriy-huquqiy bazaning takomillashuvi ushbu yo‘nalishdagi ijobiy o‘zgarishlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq, xalqaro taqqoslama natijalari mamlakatda to‘lov tizimlari xavfsizligi va samaradorligi bo‘yicha hali ham ma’lum tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Shu sababli, rivojlangan davlatlar tajribasini tizimli o‘rganish, ularning ilg‘or yondashuvlarini milliy sharoitga moslashtirish hamda bank xizmatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Xavfsiz to‘lov tizimlari va ularning bank xizmatlari samaradorligiga ta’siri masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida shakllangan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan izlanishlar to‘lov infratuzilmasining rivojlanishi bank operatsiyalarining tezkorligi, ishonchliligi va iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Xususan, iqtisodiyot fanlari doktori, professor R. Rasulov o‘zining *“Xalqaro bank tizimlari va moliyaviy xizmatlar samaradorligi”* (Toshkent, 2021) nomli monografiyasida rivojlangan mamlakatlarda xavfsiz to‘lov infratuzilmasiga kiritilgan investitsiyalar bank xizmatlari sifatining oshishi va operatsion xarajatlarning kamayishiga olib kelishini asoslab beradi (1). Muallifning ta’kidlashicha, to‘lov tizimlarining ishonchliligi bank tizimiga bo‘lgan umumiy ishonchni shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir.

Shuningdek, iqtisodiyot fanlari doktori, professor N. Iskandarov tomonidan yozilgan *“Moliyaviy tizim barqarorligi va raqamli texnologiyalar”* (2020) asarida

to‘lov tizimlari xavfsizligi moliyaviy tizimning barqaror faoliyatini ta’minlovchi strategik omil sifatida baholanadi (2). Muallif xavfsizlik darajasi yuqori bo‘lgan bank tizimlarida risklar darajasi past bo‘lishini va xizmatlar samaradorligi yuqori shakllanishini ilmiy asoslaydi.

Xalqaro tajribani tahlil qilgan iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent D. Yusupov o‘zining *“Raqamli bank xizmatlari va ularning rivojlanish modellari”* (2022) nomli ilmiy maqolasida Singapur va Janubiy Koreya tajribasi misolida real vaqt to‘lov tizimlarining joriy etilishi bank operatsiyalarining tezligini oshirishi va xizmatlar sifatini yaxshilashini ko‘rsatadi (3).

Raqamli to‘lov texnologiyalarining amaliy samaradorligi masalasi iqtisodiyot fanlari nomzodi Sh. Qodirov hamda katta o‘qituvchi B. Ergashev tomonidan *“To‘lov tizimlarini modernizatsiya qilish va bank samaradorligi”* (2023) maqolasida o‘rganilgan bo‘lib, unda zamonaviy xavfsizlik texnologiyalarini qo‘llagan banklarda operatsion xarajatlar kamayishi va mijozlar soni ortishi aniqlangan (4).

Shu bilan birga, falsafa doktori (PhD), tadqiqotchi M. Sattorov o‘zining *“Bank tizimida axborot xavfsizligi va kiberxavflar”* (2023) tadqiqotida xalqaro xavfsizlik standartlarini joriy etish bank tizimida firibgarlik risklarini kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini asoslab beradi (5).

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xavfsiz to‘lov tizimlarini rivojlantirish bank xizmatlari samaradorligini oshirish, risklarni kamaytirish va moliyaviy tizim barqarorligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot qiyosiy-tahliliy va empirik metodlar asosida olib borildi. Unda Singapur, Estoniya, Janubiy Koreya, Qozog‘iston va O‘zbekistonning 2020–2024-yillardagi xavfsiz to‘lov tizimlariga oid ma’lumotlari tahlil qilindi hamda bank samaradorligi xalqaro bazalar asosida baholandi. O‘zbekistonning 8 ta tijorat banki moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikada o‘rganildi, 300 nafar mijoz ishtirokida so‘rovnoma o‘tkazildi. Yakunda korelyatsion-regressiya tahlili orqali xavfsiz tranzaksiyalar ulushi va bank daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanib, natijalar ilmiy asoslandi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari xavfsiz to‘lov tizimlari va bank samaradorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kompleks baholash imkonini berdi. Xususan, xalqaro taqqoslama shuni ko‘rsatdiki, xavfsiz to‘lov qamrovi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda bank samaradorligi indeksi ham yuqori darajada shakllangan. Jumladan, Singapurda xavfsiz to‘lov qamrovi 97,2 foizni tashkil etib, bank samaradorligi indeksi 91,4 ballga teng bo‘lsa, Estoniyada 94,8 foiz qamrov 87,6 ball bilan, Janubiy Koreyada esa 91,3 foiz qamrov 84,2 ball bilan uyg‘unlashgan. O‘zbekiston mazkur ko‘rsatkichlar bo‘yicha 61,4 foiz qamrov va 54,8 ball indeks bilan nisbatan past darajada ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, ushbu mamlakatlarning rivojlanish bosqichlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular ham dastlab past darajadan boshlab, izchil va maqsadli siyosat orqali yuqori natijalarga erishgan.



1-rasm. Xavfsiz to'lov qamrovi va bank samaradorligi: xalqaro taqqoslama hamda O'zbekiston dinamikasi (2020–2024)

Tadqiqot natijalari xavfsiz to‘lov tizimlari va bank samaradorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kompleks baholash imkonini berdi. Xususan, xalqaro taqqoslama shuni ko‘rsatdiki, xavfsiz to‘lov qamrovi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda bank samaradorligi indeksi ham yuqori darajada shakllangan. Jumladan, Singapurda xavfsiz to‘lov qamrovi 97,2 foizni tashkil etib, bank samaradorligi indeksi 91,4 ballga teng bo‘lsa, Estoniyada 94,8 foiz qamrov 87,6 ball bilan, Janubiy Koreyada esa 91,3 foiz qamrov 84,2 ball bilan uyg‘unlashgan. O‘zbekiston mazkur ko‘rsatkichlar bo‘yicha 61,4 foiz qamrov va 54,8 ball indeks bilan nisbatan past darajada ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, ushbu mamlakatlarning rivojlanish bosqichlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular ham dastlab past darajadan boshlab, izchil va maqsadli siyosat orqali yuqori natijalarga erishgan.

O‘zbekiston bo‘yicha dinamik tahlil esa ijobiy tendensiyalarni namoyon etadi. Xususan, xavfsiz tranzaksiyalar ulushining 2020-yildagi 28,4 foizdan 2024-yilda 83,9 foizga, ya’ni 55,5 foiz punktga oshishi bilan bir vaqtda bank daromadlari o‘sish sur’ati ham 12,6 foizdan 44,7 foizga ko‘tarilgan. Regressiya tahlili natijalari xavfsiz tranzaksiyalar ulushining 10 foizga oshishi bank daromadlari o‘sishiga o‘rtacha 5,2 foiz punkt qo‘shishini ko‘rsatdi ($\beta=0,52$; $p<0,001$). Bu esa xavfsiz to‘lov tizimlari va bank samaradorligi o‘rtasida kuchli sabab-oqibat munosabati mavjudligini tasdiqlaydi. So‘rovnoma natijalari ham ushbu xulosani qo‘llab-quvvatlab, xavfsiz to‘lov xizmatlaridan yuqori darajada qoniqqan mijozlarning 89 foizi o‘z bankini tavsiya qilishga tayyor ekanligini, ularning bank xizmatlaridan foydalanish chastotasi esa 3,1 baravar yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

Xalqaro tajriba tahlili xavfsiz to‘lov tizimlarini rivojlantirishda samarali institutsional yondashuvlarning muhimligini namoyon etdi. Xususan, Singapurda 2016-yilda joriy etilgan “e-payments roadmap” doirasida to‘lov tizimlarini standartlashtirish, xavfsizlik talablarini unifikatsiyalash va real vaqt to‘lov infratuzilmasini rivojlantirish natijasida tizim ishonchliligi 99,97 foizga

yetkazildi, firibgarlik yo‘qotishlari esa tranzaksiyalar hajmiga nisbatan 0,003 foizgacha kamaytirildi. Estoniyada X-Road platformasi asosida yagona xavfsiz identifikatsiya tizimining bank sektori bilan integratsiyasi mijozlarni autentifikatsiya qilish xarajatlarini 94 foizga qisqartirdi. Janubiy Koreyada real vaqt to‘lov tizimining 7/24 rejimda ishlashi bank operatsion xarajatlarini 18 foizga kamaytirishga xizmat qilgan bo‘lsa, Qozog‘istonda xavfsiz to‘lov infratuzilmasining rivojlanishi bank xizmatlarining hududiy qamrovini 67 foizdan 89 foizgacha oshirish imkonini berdi. Mazkur tajribalar xavfsiz to‘lov tizimlarini rivojlantirish bank samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari to‘lov tizimlarining xavfsizlik darajasi bank xizmatlari samaradorligini shakllantirishda hal qiluvchi omillardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, himoyalangan to‘lov infratuzilmasi mavjud bo‘lgan mamlakatlarda bank operatsiyalarining tezkorligi, xizmatlar sifati va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari yuqori darajada shakllanadi. Empirik natijalar ham xavfsiz tranzaksiyalar ulushi ortishi bilan bank daromadlari o‘sishi o‘rtasida barqaror bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatib, ushbu yo‘nalishga yo‘naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiy jihatdan asoslanganligini tasdiqlaydi.

Xalqaro amaliyot tahlili xavfsiz to‘lov tizimlarini rivojlantirishda yagona standartlarning mavjudligi, real vaqt rejimida ishlovchi infratuzilmalarning joriy etilishi va davlat hamda xususiy sektor o‘rtasidagi samarali hamkorlik mexanizmlarining ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur omillar bank xizmatlarining sifati va ishonchliligini oshirish bilan birga moliyaviy tizimga bo‘lgan umumiy ishonchni mustahkamlaydi.

O‘zbekiston bank tizimi sharoitida xavfsiz to‘lov infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida yagona standartlashtirilgan xavfsizlik mexanizmlarini joriy etish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Bunday yondashuv xalqaro talablar asosida ishlab chiqilgan holda milliy texnologik va institutsional imkoniyatlarga moslashtirilishi lozim bo‘lib, u bank tizimida yagona xavfsizlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, identifikatsiya va autentifikatsiya jarayonlarini yagona platforma asosida tashkil etish bank xizmatlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Biometrik texnologiyalar, raqamli imzo va real vaqt monitoring tizimlarining integratsiyasi operatsion jarayonlarni soddalashtiradi, xavfsizlik darajasini kuchaytiradi hamda xizmatlar tannarxini pasaytiradi.

Real vaqt rejimida ishlovchi to‘lov tizimlarini rivojlantirish va ularning hududiy qamrovini kengaytirish ham bank xizmatlari samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Bunday infratuzilma orqali operatsiyalar tezligi oshadi, vaqt va xarajatlar qisqaradi hamda ayniqsa chekka hududlarda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayadi. Natijada moliyaviy inklyuzivlik darajasi ortib, bank tizimining umumiy samaradorligi yuksaladi.

Umuman olganda, xavfsiz to‘lov tizimlarini kompleks rivojlantirish bank sektorining barqarorligini mustahkamlash, uning raqobatbardoshligini oshirish va

milliy iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning samarali harakatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Rasulov R. Xalqaro bank tizimlari va moliyaviy xizmatlar samaradorligi: Monografiya. — Toshkent: «Iqtisod-Moliya», 2021. — 224 b.
2. Iskandarov N. Moliyaviy tizim barqarorligi va raqamli texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: «Fan va texnologiya», 2020. — 192 b.
3. Yusupov D. Raqamli bank xizmatlari va ularning rivojlanish modellari: taqqosiy tahlil // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. — 2022. — №3. — B. 34–47.
4. Qodirov Sh., Ergashev B. To‘lov tizimlarini modernizatsiya qilish va bank samaradorligi masalalari // Samarqand iqtisodiyot va servis instituti «Ilmiy xabarnoma» jurnali. — 2023. — №2. — B. 58–71.
5. Sattorov M. Bank tizimida axborot xavfsizligi va kiberxavflarni boshqarish mexanizmlari // «Moliya» jurnali. — 2023. — №4. — B. 82–94.

KAM TA'MINLANGAN AHOLI QATLAMLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI VA XORIJIY BANKLAR TAJRIBASINING KOMPARATIV TAHLILI

Niyozov Zuxur Davronovich
i.f.n., prof v.b., "Bank ishi" kafedrasi, SamISI
Abdujalilov Shexroz Norjigitovich
SamISI, BI-122 guruh talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola kam ta'minlangan aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashda xalqaro moliya institutlari (XMI) va xorijiy tijorat banklarining (XTB) tajribasini komparativ tahlil qilishga bag'ishlangan. XVF va Jahon Bankining imtiyozli kredit mexanizmlari, Germaniya Sparkassen modeli va FinTech yechimlari tahlil qilinadi. Har ikki yondashuvning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, O'zbekiston uchun tavsiyalar ilgari suriladi.*

Kalit so'zlar: *moliyaviy inklyuziya, xalqaro moliya institutlari, xorijiy tijorat banklari, kambag'allikni qisqartirish, komparativ tahlil, FinTech, Sparkassen.*

Abstract. *This article provides a comparative analysis of the experience of international financial institutions (IFIs) and foreign commercial banks (FCBs) in supporting low-income populations. IMF and World Bank concessional lending mechanisms, the German Sparkassen model, and FinTech solutions are examined. Strengths and weaknesses of both approaches are identified, and recommendations for Uzbekistan are proposed.*

Keywords: *financial inclusion, international financial institutions, foreign commercial banks, poverty reduction, comparative analysis, FinTech, Sparkassen.*

Kirish. Moliyaviy inklyuzivlik global miqyosdagi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda: Jahon bankining 2024-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab 1,4 mlrd kishi hali ham rasmiy bank xizmatlaridan foydalana olmaydi yoki to'liq qamrab olinmagan, ularning 60 foizdan ortig'i rivojlanayotgan mamlakatlarning qishloq hududlarida yashaydi.[207] O'zbekistonda ham ushbu muammo dolzarb: CBU ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil boshida aholining 32 foizi rasmiy moliyaviy xizmatlardan foydalanmagan. Bunday sharoitda xalqaro tajribani o'rganib, O'zbekiston uchun maqbul modelni aniqlash muhim amaliy ahamiyatga ega. Ushbu maqola XMI va XTB yondashuvlarini solishtirish orqali eng samarali elementlarni aniqlashni maqsad qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Moliyaviy inklyuzivlik shaxslarga mablag' yig'ish, investitsiya va kredit imkoniyatlarini ta'minlab, kambag'allikdan chiqish yo'lini ochib beradi. Niyozov Z.D. (SamISI, 2024)[208] va Omonov A.A. (2020)[209] xalqaro tajribani O'zbekistonga moslashtirish imkoniyatlarini o'rgangan; ular XMI institutsional o'zgarishlarda, XTB esa bevosita moliyaviy xizmat ko'rsatishda kuchliroq ekanligini aniqlagan. Weber O. va Remer S. (2021)[210] "Social Banking" modellarining Yevropa tajribasini tizimlashtirgan. UNDP (2023)[211] O'zbekistonda ijtimoiy chiqarilganlik darajasi va moliyaviy inklyuziya o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ikkilamchi manbalarga asoslangan sifatiy-komparativ tahlil metodidan foydalanib olib borildi. XVF, Jahon Banki, Sparkassenstiftung hisobotlari, CBU ma'lumotlari va SamISI tadqiqotlari asosiy manba bo'lib xizmat qildi. XMI va XTB yondashuvlari uchta mezon — samaradorlik, barqarorlik va qamrov — bo'yicha solishtirma tahlil qilindi.

Tahlil va muhokama 1. XMI yondashuvi: XVF mexanizmlari. XVF kambag'al mamlakatlarga "Kambag'allikni kamaytirish va o'sish tresti" (KKOT) mexanizmi orqali imtiyozli kreditlar taqdim etadi. 2025-yil 1-maydan KKOT tuzilmasi bo'yicha eng past daromadli mamlakatlarning yarmiga nol foiz stavkasi belgilandi; boshqalar SDRning 70 yoki 40 foizi darajasida kredit oladi. Imtiyozli davr 4–5,5 yil, to'lov muddati 8–10 yil. COVID-19 davridagi falokatlarni bartaraf etish tresti orqali 2021-yil dekabr holatiga ko'ra 31 ta mamlakatga 976 mln dollar tasdiqlandi.[212]

2. Jahon Banki tajribasi. Jahon Banki 2024-yilgi hisobotida mikromoliya dasturlarining 89 mamlakatda NPL ni 4,2 foizdan past saqlaganini tasdiqladi. CEIR (2024) tahlilida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik dasturlarining O'zbekistonda bank sektorini institutsional jihatdan mustahkamlashga qo'shgan

[207]World Bank Group. World Development Report 2024: Poverty and Shared Prosperity. Dunyodagi 1,4 mlrd banksiz aholi statistikasi // worldbank.org/en/publication/poverty-and-shared-prosperity

[208]Niyozov Z.D., Abdujalilov Sh.N. Xalqaro moliya tajribasini O'zbekistonga moslashtirish imkoniyatlari // SamISI ilmiy to'plami. — Samarqand, 2024.

[209]Omonov A.A. Bank tizimida innovatsion xizmatlar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

[210]Weber O., Remer S. Social Banking and Social Finance. — London: Springer, 2021.

[211]UNDP Uzbekistan. Assessment of Poverty and Social Exclusion // undp.org/uzbekistan/publications

[212]IMF. Catastrophe Containment and Relief Trust (CCRT): COVID-19 debt service relief — $976 million for 31 countries, as of December 2021 // imf.org/en/Topics/imf-and-covid19/COVID-Lending-Tracker

hissasi baholangan. EIB tadqiqoti[213] rivojlanayotgan mamlakatlarda mikromoliya portfeli sifatini yaxshilashda xalqaro standartlar va texnik yordamning ahamiyatini ko'rsatdi.

3. Xorijiy tijorat banklari: Sparkassen modeli. Germaniyaning Sparkassen tizimi 370 ta mahalliy bank va 430 000 xodimdan iborat bo'lib, 50 mln dan ortiq fuqaroga xizmat ko'rsatadi. Har yili 3,6 mlrd yevro ijtimoiy maqsadlarga yo'naltiriladi.[214] Sparkassen modelining kalit xususiyati — yuqori daromadli mijozlardan olingan foyda past daromadli mijozlarga kross-subsidiyalash orqali ishlatilishi. O'zbekiston uchun bu model "mahalla jamg'arma kassalari" shaklida joriy etilishi mumkin.

4. FinTech va embedded finance. FinTech sektori an'anaviy bank infrastrukturasidan chetda qolganlar uchun moliyaviy xizmatlar muammosini arzon usulda hal etmoqda. 2025-yilga kelib moliyaviy tranzaksiyalarning 20 foizdan ortig'i embedded finance orqali amalga oshirilishi kutilmoqda.[215] M-Pesa (Keniya) tajribasi: 32 mln foydalanuvchi, iqtisodiy aktivlik 11 foizga oshgan, kambag'allik 2 foiz punktga pasaygan.[216] O'zbekistonda Click, Payme, UzCard bazasida shunga o'xshash model shakllantirish — potensial qamrov 30 mln foydalanuvchi — eng istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Xulosa. Komparativ tahlil shuni ko'rsatadiki, XMI va XTB yondashuvlari bir-birini to'ldiradi: XMI makroiqtisodiy barqarorlik va institutsional islohotlarda kuchli; XTB va FinTech bevosita, moslashuvchan va keng qamrovli xizmat ko'rsatishda ustun. O'zbekiston uchun optimal strategiya uchta elementni birlashtiradi: XVF/Jahon Banki bilan hamkorlikda institutsional islohot va kafolat mexanizmlarini rivojlantirish; Sparkassen modelidan ilhomlangan mahalliy "mahalla jamg'arma kassalari"ni yaratish; mavjud FinTech platformalari bazasida embedded mikromoliyani joriy etish. Ushbu kompleks yondashuv O'zbekistondagi 32 foizlik moliyaviy ekskluziya muammosini 2030-yilga qadar sezilarli kamaytirish imkonini beradi. O‘zbekistonda moliyaviy inklyuzivlikni oshirish uchun Germaniyaning Sparkassen modeliga tayanib, mahallabay ishlash tizimi doirasida "Mahalla jamg‘arma kassalari"ni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. World Bank. World Development Report 2024 // worldbank.org/en/publication/poverty-and-shared-prosperity

2. CBU. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik // cbu.uz/uz/about/international-cooperation/

3. Niyozov Z.D., Abdujalilov Sh.N. SamISI ilmiy to'plami. — Samarqand, 2024.

[213]European Investment Bank (EIB). Microfinance in Africa and Emerging Markets. — Luxembourg: EIB, 2024 // eib.org/en/publications/

[214]Sparkassenstiftung. German Savings Banks (Sparkassen): 370 institutions, 430,000 employees, 50+ million customers, €3.6 billion annual social contribution // sparkassenstiftung.de/en/

[215]Embedded finance global forecast 2025: 20%+ of financial transactions through non-financial platforms. EIB, Deloitte Digital Finance Report, 2024.

[216]GSMA Intelligence / Safaricom. M-Pesa Kenya: 32 million users, economic activity +11%, poverty -2pp // gsma.com/mobilefordevelopment/mobile-money/

4. Omonov A.A. Innovatsion bank xizmatlar. — Toshkent, 2020.
5. Weber O., Remer S. Social Banking. — London: Springer, 2021.
6. Sparkassenstiftung. German Sparkassen Model // sparkassenstiftung.de/en/
7. UNDP Uzbekistan. Poverty and Social Exclusion // undp.org/uzbekistan/publications
8. CEIR. Xalqaro tajriba. — Toshkent, 2024 // ceir.uz
9. EIB. Microfinance in Emerging Markets. — Luxembourg, 2024 // eib.org

SAVDONI RIVOJLANTIRISHDA BANK TIZIMINING ROLI VA AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: Qodirov Y.S.
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Ma'murov Sh.I.
"Bank ishi" kafedrasi assitenti stajori
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada savdoni rivojlantirishda bank tizimining roli va ahamiyati o'rganiladi. Maqolaning maqsadi, bank tizimining xalqaro valyuta operatsiyalarida, savdo moliyalashtirishida va investitsiya jarayonlarida qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatishdir. O'rganish usuli sifatida nazariy tahlil va statistik ma'lumotlar foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bank tizimi savdo operatsiyalarini yanada samarali va xavfsiz amalga oshirish imkonini beradi, bu esa iqtisodiy o'sish va barqarorlikka olib keladi.*

Kalit so'zlar: *savdo; bank tizimi; xalqaro valyuta; moliyalashtirish; investitsiya.*

Kirish. Savdo va iqtisodiyot o'rtasidagi bog'liqlik har doim muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Xalqaro savdo, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va xalqaro valyuta operatsiyalari orqali iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini yaratadi. Bank tizimi bu jarayonlarda markaziy rol o'ynaydi, chunki u savdo moliyalashtirishini ta'minlaydi va xavfsiz operatsiyalarni amalga oshirishga yordam beradi. Hozirgi kunda, globalizatsiya jarayonlari va xalqaro savdo munosabatlarining kengayishi bank tizimining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ushbu maqolada bank tizimining savdo rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, uning xalqaro valyuta operatsiyalaridagi roli tahlil qilinadi. Maqsadimiz, bank tizimi orqali amalga oshiriladigan moliyalashtirish jarayonlari va investitsiya faoliyatlarining savdo rivojlanishiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlashdir. Shu bilan birga, bank tizimining samaradorligini oshirish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar ham ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism. Bank tizimi va savdo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nafaqat iqtisodiy nazariyalar, balki amaliyotga ham asoslanadi. Banklar xalqaro savdo operatsiyalarini samarali moliyalashtirish uchun zaruriy vositalarni taqdim etadi. Masalan, banklar eksport va import operatsiyalari uchun kreditlar, garovlar va boshqa moliyaviy xizmatlar ko'rsatadi. Bunda banklarning rolini o'rganish uchun

bir qator statistik ma'lumotlar va misollarni keltirish mumkin. Oxirgi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida bank tizimi yanada rivojlandi. Bu esa savdo sohasida yangi imkoniyatlarni yaratdi va xalqaro valyuta operatsiyalarini kengaytirdi. Bank tizimining investitsiya jarayonlaridagi roli ham muhimdir. Xalqaro investorlar uchun banklar orqali amalga oshiriladigan moliyalashtirish jarayonlari, investitsiyalarni jalb qilishda asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek, banklarning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligi ham savdo rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy barqarorlikka ega bo'lgan bank tizimlari savdo o'sishini tezlashtiradi. Bularning barchasi bank tizimining savdoni rivojlantirishdagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Savdoni rivojlantirishda bank tizimi muhim institutsional mexanizm sifatida faoliyat yuritadi. Banklar iqtisodiyotda moliyaviy vositachi vazifasini bajarib, bo‘sh pul mablag‘larini jamlab, ularni savdo va tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltiradi. Shu orqali ular tovar ayirboshlash hajmini kengaytirish, ichki va tashqi savdoni rivojlantirish hamda iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Avvalo, banklar tomonidan beriladigan kreditlar savdo faoliyatining kengayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Savdo korxonalari aylanma mablag‘ yetishmovchiligi sharoitida bank kreditlari orqali tovar zaxiralarini shakllantiradi, yangi mahsulotlar xarid qiladi va xizmatlar hajmini oshiradi. Ayniqsa, qisqa muddatli kreditlar savdo operatsiyalarining uzluksizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, bank tizimi to‘lovlar tizimini tashkil etish orqali savdoni rivojlantiradi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar, plastik kartalar, mobil to‘lovlar va internet-banking xizmatlari savdo jarayonlarini tezlashtiradi va qulaylashtiradi. Bu esa nafaqat ichki savdoda, balki elektron tijoratning rivojlanishida ham muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy to‘lov tizimlari orqali xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi hisob-kitoblar tez, xavfsiz va shaffof tarzda amalga oshiriladi.

Banklar shuningdek tashqi savdoni moliyalashtirishda ham katta rol o‘ynaydi. Ular eksport-import operatsiyalarini kreditlash, akkreditivlar ochish, kafolatlar berish orqali xalqaro savdo aloqalarini rivojlantiradi. Bu esa milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga integratsiyasini kuchaytiradi va eksport salohiyatini oshiradi.

Yana bir muhim jihat shundaki, bank tizimi savdo subyektlari uchun risklarni kamaytirish imkonini yaratadi. Sug‘urta, kafolat va valyuta operatsiyalari orqali tadbirkorlar moliyaviy xavflarni boshqarishi mumkin bo‘ladi. Bu esa savdo faoliyatining barqarorligini ta’minlaydi.

